



Co-funded by the
Tempus Programme
of the European Union

YEVROPA ITTIFOQINING TEMPUS DASTURI DOIRASIDA
544180-TEMPU5-1-2013-1-DE-TEMPUS-JPCR

“SAMUZ - O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI BOSHQAR-
ISH BO‘YICHA BARQAROR O‘QUV DASTURLARI” LOYIHASI
DOIRASIDA TAYYORLANGAN

O‘QUV-USLUBIY MAJMUUA



SAMUZ



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT KAFEDRASI**

**“QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSION
JARAYONLARNI BOSHQARISH”**

FANIDAN

O'QUV-USLUBIY MAJMUUA

Ushbu O'UM SAMUZ loyihasi doirasida ToshDAU, SamQXI, AndQXI, TIMI hamda TerDU mutaxassislari hamkorligida tayyorlanib ToshDAU O'quv-uslubiy Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.



Mazkur o'quv uslubiy majmuada "Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish" fanidan namunaviy, ishchi o'quv dasturi, ta'lim texnologiyasi, fan uchun ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulotlar uchun masalalar to'plami, keys, o'quv loyixa, nazorat turlari uchun tayyorlangan savollar majmuasi, yakuniy nazorat uchun variantlar, test savollari, fandan umumiy nazorat savollari, tayanch iboralar, tarqatma materiallar va izohli lug'at, referat mavzulari, mustaqil ishlar mavzulari, adabiyotlar ro'yxati, xorijiy adabiyotlar ro'yxati va ularga qisqacha anotatsiyalar, fanga ta'luqli me'yoriy xujjatlar, va talabalar bilimini baholashning reyting mezonini jamlangan.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua oliy o'quv yurtlari pedagog o'qituvchilari va barcha agroiqtisodiyot mutaxassisligi yo'nalishlari talabalari uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga o'quv-uslubiy majmuadan ilmiy xodimlar, aspirant va tadqiqotchilar hamda "Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchilar:

Mardiev N. – TDAU "Qishloq xo'jaligida menejment kafedrasini dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi,
G'aybullaev O.B. – TDAU "Qishloq xo'jaligida menejment kafedrasini assistenti

Taqrizchilar:

Xushmatov N.S. – O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy ishlab chiqarish markazi bosh ilmiy kotibi, i.f.d., prof.

Mengliqulov B. – TDAU "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasini dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Ushbu o'quv-uslubiy majmua Toshkent davlat agrar universiteti o'quv-uslubiy kengashining 201_yil "_____" _____dagi 1-sonli qaroriga muvofiq o'quv jarayoniga tadbiiq etish uchun tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

- I Sillabus, namunaviy o'quv reja, fanning ishchi o'quv dasturi
- II Ma'ruza materiallari va nazariy ma'lumotlar
- III Taqdimotlar
- IV Amaliy mashg'ulotlar
- V Tarqatma materiallar, amaliy ishlanmalar, keyslar, mustqail ishlash uchun topshiriqlar
- VI Labaratoriya mashg'ulotlari, kurs ishi va loyihasi mavzulari
- VII Glossariy

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

«QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT» FAKULTETI

« QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT » KAFEDRASI

***“QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSION
JARAYONLARNI BOSHQARISH”***

fani

BO'YICHA TAYYORLANGAN SILLABUS

TOSHKENT 201

Fanning qisqacha tavsifi				
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Toshkent davlat agrar universiteti		Manzili: Toshkent viloyati, Qibray tumani, "Universitet" ko'chasi, 2	
Kafedra:	"Qishloq xo'jaligida menejment"	"Qishloq xo'jaligida menejment" fakulteti tarkibida		
Ta'lim sohasi va yo'nalishi:	420000 – Qishloq xo'jaligida menejment	Ta'lim yo'nalishi: 5420100 – Qishloq xo'jaligida menejment		
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:	Dotsent: N.Mardiev	e-mail: nurali1957@umail.uz		
Dars mashg'ulotini o'tkazishning vaqti va joyi:	O'quv-uslubiy boshqarma tomonidan ishlab chiqilgan jadval asosida universitetning ATM o'quv binolarida	Kursning boshlanish va davom etish muddati:	Ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga muvofiq 3-kurs, birinchi semestrda	
Individual grafik asosida professor-o'qituvchining talabalar bilan ishlash vaqti:	Haftaning seshanba, shanba kunlari soat 14:00dan 16:00gacha			
Fanga ajratilgan o'quv soatlarining o'quv turlari bo'yicha taqsimoti	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta'lim:
	Ma'ruza	Amaliy	Tajriba	
	54 soat	70 soat		102 soat
Fanning boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi (prerekvizitlari):	«Iqtisodiyot nazariyasi», "Buxgalteriya hisobi", "Korxonalar faoliyatini tahlil qilish", "Statistika"			
Fanning mazmuni va vazifalari				
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	"Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish" fani investitsiya manbalarini qidirib topish, investitsion loyihalar tuzish, loyihalarini tahlil qilish va iqtisodiy baholash hamda qabul qilish asoslarini, qonuniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib bugungi kunda iqtisodiy samaradorlikka erishish masalasini hal etishga qaratilganligi bilan dolzarbdir.			
Kursning prerekviziti	Talaba: investitsiyalarni shakllantirish va yo'naltirish usullari va manbalarini, qishloq xo'jalik korxonalarining ichki xo'jalik faoliyati, ishlab chiqarishni va biznesini rejalashtirish: rejalashtirish tizimi, tamoyillari va tuzish uslubini, investitsion loyihalarni ishlab chisish, loyihaviy tahlil mohiyatini va usullarini; mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibini; loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibini; qishloq xo'jalik korxonalarida loyihaviy tahlil usullarini va xususiyatlarini, shuningdek kelajakda sarflanadigan investitsiyaning samaradorligini oshirish yo'llarini bilishi va agrar sohada biznes-reja tuzish va loyihaviy tahlilni amalga oshirish; loyiha			

	buyurtmachisining moliyaviy ahvolini, marketing bozori va kontseptsiyasini tahlil etish; loyihani amalga oshirish sxemalarini, iqtisodiy samaradorligini baholash; qishloq xo'jalik sohasida investitsiya loyihalarini rejalashtirish va monitoringini qilish amaliy ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
Fanni o'rganish jarayonida talaba quyidagi natijalarga erishishi lozim.	<p>1. Bilishi lozim: investitsiyalarni shakllantirish va yo'naltirish usullari va manbalarini, qishloqxo'jalik korxonalarining ichki xo'jalik faoliyati, ishlab chiqarishni va biznesini rejalashtirish: rejalashtirish tizimi, tamoyillari va tuzish uslubini, investitsion loyihalarni ishlab chiqish, loyihaviy tahlil mohiyatini va usullarini; mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibini; loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibini; qishloqxo'jalik korxonalarida loyihaviy tahlil usullarini va xususiyatlarini, shuningdek kelajakda sarflanadigan investitsiyaning samaradorligini oshirish yo'llarini bilishi kerak.</p> <p>2. Ko'nikma va malakaga ega bo'lishi lozim: agrar sohada biznes-reja tuzish va loyihaviy tahlilni amalga oshirish; loyiha buyurtmachisining moliyaviy ahvolini, marketing bozori va kontseptsiyasini tahlil etish; loyihani amalga oshirish sxemalarini, iqtisodiy samaradorligini baholash; qishloq xo'jalik sohasida investitsiya loyihalarini rejalashtirish va monitoringini qilish amaliy ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</p> <p>3. Fan bo'yicha egallagan bilimlari asosida talaba bajara olishi kerak: investitsiyalar samaradorligini baholay olishi, investitsiya manbalarini qidirib topishni bilishi, investitsion loyihalar tuza olishni, tahlil qilishni, samaradorligini va tavakkalchilikni baholay olishi lozim</p>
Postrekvizit	Ushbu kursni o'rganish talabaga o'z sohasini yanada chuqurroq o'rganish va kasbiy bilimlarini tushunarli, qiziqarli ravishda taqdim etish, kelajakda investitsiyalarni jalb qilish va amalga oshirishda mustaqil ravishda samarali faoliyat olib borish imkonini beradi.
Talabalar uchun talablar	<ul style="list-style-type: none"> - Professor-o'qituvchiga hurmat bilan munosabatda bo'lish; - Universitet intizom qoidalariga rioya qilish; - Mobil telefondan dars davomida foydalanmaslik; - Berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish; - Guruhdoshlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish; - Darsga o'z vaqtida kelish; - 4 soatdan ortiq dars qoldirilgan taqdirda, dekanat ruxsati bilan darsga kirish.
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi rasmiy munosabat elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Oraliq, joriy va yakuniy baholash faqatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi.
Fanga ajratilgan o'quv soatlarining o'quv turlari bo'yicha taqsimoti	

№	Mavzu	Jami	Auditoriya soatlari		Mustq il ish	Jami
			Шу жумладан			
			Маъруза	Семинар		
1-semestr						
1.	Fanga kirish	4	2	2	4	8
2.	Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o' rni	4	2	2	4	8
3.	Investitsiya siyosati va investitsiya faoliyati	4	2	2	4	8
4.	Investitsiyaviy faoliyat tamoyillari	4	2	2	4	8
5.	Iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli	4	2	2	4	8
6.	Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya muhitining o' rni	6	2	4	4	10
7.	Investitsiya faoliyatida kapital qo' yilma va kapital qurilish	4	2	2	4	8
8.	Davlat investitsiya dasturi	4	2	2	4	8
9.	Investitsiyalarni boshqarish	4	2	2	4	8
10.	Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish va davlat tomonidan tartibga solish	4	2	2	4	8
11.	Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va usullari	4	2	2	4	8
12.	Investitsiyalarni moliyalashtirishda moliyaviy vositalar	6	2	4	4	10
13.	Qishloq xo' jaligida investitsiyaviy jarayonlarni rivojlantirishda kreditning tutgan o' rni	8	4	4	4	12
14.	Qishloq xo' jaligida investitsiyaviy jarayonlarni rivojlantirishda lizingning tutgan o' rni	6	2	4	4	10
15.	Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish	4	2	2	4	8
16.	Innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish	4	2	2	4	8
17.	Nomoddiy aktivlarga safarbar etiladigan investitsiyalarni moliyalashtirish	4	2	2	4	8
18.	Investitsiya loyihalarini tayyorlash	6	2	4	4	10
19.	Investitsion loyiha tahlili	6	2	4	4	10
20.	Investitsiyaviy loyihalar samaradorligi	6	2	4	4	10
21.	Investitsiyaviy loyihalashtirishning moliyaviy-matematik asoslari	6	2	4	6	12
22.	Investitsiyaviy loyihalashtirish jarayonida zararsizlik tahlili,	4	2	2	4	8

	maqsadli rejalashtirish va foydani boshqarish					
23.	Investitsiyaviy loyihalarda tavakkalchilik tahlili va ularni pasaytirish yo'llari	6	2	4	4	10
24.	Investitsiya loyihalari ekspertizasi	4	2	2	4	8
25.	Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda investitsion loyiha tashabbusini va monitoringini tashkil etish	8	4	4	4	12
	Жами	144	54	70	102	226

Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi

№/r	Nazorat turidagi topshiriqlarning nomlanishi	Maksimal yig'ish mumkin bo'lgan ball	O'tkazish vaqti
I. Joriy nazoratdagi ballar taqsimoti		<i>40 ball</i>	Semestr davomida
Ma'ruza mashg'ulotlarida			
1.	Talabanning ma'ruza mashg'ulotlarida faol ishtirok etishi, muntazam ravishda konspekt yuritib borayotganligi uchun	$4+4=8$	
2.	Mustaqil ravishda berilgan topshiriqlarni bajarganligi uchun (referat, esse, kollokvium, amaliy topshiriqlar: testlarini topshirishi, keystadi, o'quv loyihalari va b.q.)	$5+5=10$	
Tajriba (Amaliy seminar) mashg'ulotlarda			
1.	Talabanning mashg'ulotlarda faol ishtirok etganligi, berilgan savollarga to'g'ri javob qaytarganligi, tajriba topshiriqlarni (masala va misollarni) bajarganligi uchun	22	Semestr davomida
II. Oraliq nazorat		<i>30</i>	
1.	Birinchi oraliq nazorat (ma'ruzachi tomonidan olinadi)	<i>15</i>	Semestrning 9 haftasi
2.	Ikkinchi oraliq nazorat (amaliyotchi tomonidan olinadi)	<i>15</i>	Semestrning 18 haftasi
III. Yakuniy nazorat		<i>30 ball</i>	Semestrning oxirgi ikki haftasida
Jami:		<i>100</i>	Semestrning oxirgi ikki haftasida
Talabanning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi mezonlari:			
T/r	Talabanning fanni o'zlashtirish darajasi (bilim, malaka va	Ballar	

	ko'nikma darajasi)	
A)	xulosa va qarorlar qabul qilish	<i>86-100 ball</i>
	ijodiy fikrlay olish	
	mustaqil mushohada yurita olish	
	olgan bilimlarini amalda qo'llay olish	
	mohiyatini tushunish	
	bilish, aytib berish	
	tasavvurga ega bo'lish	
B)	mustaqil mushohada yurita olish	<i>71-85 ball</i>
	olgan bilimlarini amalda qo'llay olish	
	mohiyatini tushunish	
	bilish, aytib berish	
	tasavvurga ega bo'lish	
B)	mohiyatini tushunish	<i>55-70 ball</i>
	bilish, aytib berish	
	tasavvurga ega bo'lish	
Г)	aniq tasavvurga ega bo'lmaslik	<i>0-54 ball</i>
	bilmaslik	
Foydalaniladigan adabiyotlar		
Asosiy adabiyotlar:	<p>1. Kayumov R.I., Xojimatov R.X. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. -T.: TDIU, 2010. -496 b.</p> <p>2. Vaxobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. / prof. A.V. Vahabovning umumiy tahriri ostida. -T.: "Moliya", 2010. -328 b.</p> <p>3. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2008.-208 b.</p> <p>4. Imomov Q.Q. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. -Toshkent, Iqtisod-moliya. 2010. – 164 b.</p> <p>5. Bocharov V.R. Investitsii: Uchebnik dlya vuzov. – 2-e izd.-SPb.: Piter, 2008. – 384 s. Il.- (Seriya "Uchebnik dlya vuzov").</p>	
Qo'shimcha adabiyotlar:	<p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4478-sonli Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi. 2012 yil 23 oktyabr.</p> <p>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 sentyabr kuni Namangan va Farg'ona viloyatlariga tashrifi doirasidagi "Islohatlar samaralari va ezgu maqsadlarimiz ijobati" ma'ruzasi./"Xalq so'zi" gazetasi. 2015 yil 30 sentyabr.</p> <p>3. Abduvasiqov A.A., To'htaeva S.Q. Agrosanoat majmuasi korxonalarida investitsiyalash va loyihalar tahlili. O'quv qo'llanma.-T.: 2009.-187 b.</p> <p>4. Ishmuxamedov A.E, Qosimov. M.S, Jumaev. Z.A, Jumaev Q.X. Loyiha tahlili. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.-T.: TDIU. 2004. -159 s.</p> <p>5. Jo'raev A.S. va boshqalar. Investitsiya loyihalari</p>	

	<p>tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: Sharq. 2003.</p> <p>6. Samatov G.A, Rustamova I.B. Loyihalar tahlili fanidan amaliyot darslari uchun uslubiy qo'llanma. Toshkent 2008. 63 b.</p> <p>7. Lorens DJ. Gitman. Maykl D. Djonk. “Osnovy investirovaniya”.- M.: Izdatelstvo “Delo” 1997.</p> <p>8. Gitman L.Dj., Djonk M.D. Osnovy investirovaniya, M.: Delo, 2007.</p>
<p>Internet saytlari:</p>	<p>1. http://www.press-service.uz/ –O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.</p> <p>2. http://www.stat.uz/ – O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi.</p> <p>3. http://www.gov.uz/ – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.</p> <p>4. http://www.lex.uz/ –O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>5. http://www.agro.uz/ –O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi.</p> <p>6. http://agriculture.uz/ – O'zbekiston agroaxborot tizimi portali.</p>

3.07	Қўп тармоқли фермер хўжалиқлари фаолияти баҳоли ва бизнес режалаштириш	210		126	54	72		КН	84										9
3.08	Тупрокшўнослик ва агрохимё	180		114	38		76		66										
3.09	Ўсимликларни уйғунланган химояси	160		76	36		40		84										5
3.10	Қишлоқ хўжалиқ экинлари генетикаси, селекцияси ва уруғчилик	190		114	54		60		76										
3.11	Чорвачилиқ ва ипакчилик асослари	270		170	72		98		100										
3.12	Қишлоқ хўжалиғи ишлаб чиқаришни механизациялаштириш	210		132	58		74		78										
3.13	Сўғориладиган деҳқончилик ва мелiorация	270		172	72	58	42		98									9	
3.14	Қишлоқ хўжалиғи маҳсулотларини сақлаш, дастлабки ишлаш технологияси ва стандартлаштириш	214		94	42		52		120									5	
3.15	Хайт фаолияти хавфсизлиғи	90		56	22	18	16		34									3	
	<i>Танлов фанлари</i>	250		150	60	90			100										5 6
4.00	Ихтисослик фанлари	848	12,0	498	228	270	0	1КЛ, 1КН	350										4 18 13
4.01	Қишлоқ хўжалиғида менежмент	210		126	54	72		КЛ	84										4 5
4.02	Қишлоқ хўжалиқ ишлаб чиқаришнинг ташкил этиш	180		108	54	54		КН	72										7
4.03	Ўсимликшўнослик ва пахтачилик	180		104	40	64			76										8
4.04	Мевачилиқ ва сабзавотчилик	180		108	54	54			72										7
	<i>Танлов фани</i>	98		52	26	26			46										4
5.00	Қўшимча фанлар	450	6,1	268	88	180		2КЛ, 5КН	182										7 6 2 2
	ЖАМИ	7344	100,0	4352	1732	1542	850	222	2992										
	Малака амалиёти	1080																	
	Битирув иши	270																	
	Аттестациялар	918																	
	ЖАМИ	2268																	
	ХАММАСИ	9612																	

Ўқув жараёнининг таркибий қисмлари	Кузги семестр		Ёзги семестр	
	Хафта	Сана	Хафта	Сана
	I-курс бўйича:			
Пазарий таълим	19	02.09.15-26.12.15 11.01.16-23.01.16	19	08.02.16-18.06.16
Аттестация	2	25.01.16-06.02.16	2	20.06.16-02.07.16
Малакавий амалиёт			3	04.07.16-23.07.16
Таътилар	2	28.12.15-09.01.16	5	25.07.16-31.08.16
Хафталик юклама		32 соат		32 соат

МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТ

Босқич	Фанлар	Ўтиш муддати
1	3 хафта. (6-кун 36 соат): Информатика ва ахборот технологиялари (6-кун 36 соат): Чорвачилиқ ва ипакчилик асослари (6-кун 36 соат): Қишлоқ хўжалиғи ишлаб чиқаришнинг механизациялаштириш	2016 йил 04 июлдан 23 июлгача

Ўқув методика бўлими бошлиғи, доцент

Факултет декани, доцент

Факултет услубий хайъат раиси, доцент



Р. Ф. Рўзиқулов

Ф. Б. Ахроров

М. Холмурзасв

Қишлоқ хўжалиғида менежмент факултетининг илмий кенгашида маъқуланган 2015 йил "30" июн Баённома № 11

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

№ _____

Toshkent – 201_

«Tasdiqlayman»

O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor,
professor _____ Y.Saimnazarov

« _____ » _____ 201_ y.

QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH
fani bo'yicha

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 400000 – Qishloq va suv xo'jaligi
Ta'lim sohasi: 420000 – Qishloq xo'jaligida menejment
Ta'lim yo'nalishi: 5420100 – Qishloq xo'jaligida menejment

TOSHKENT – 201_

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

TUZUVCHILAR: Mardiev N. – TDAU “Qishloq xo’jaligida menejment kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi
G’aybullaev O.B. – TDAU “Qishloq xo’jaligida menejment kafedrası assistenti
Xushmatov N.S. – O’zbekiston qishloq xo’jaligi ilmiy ishlab
TAQRIZCHILAR: chiqarish markazi bosh ilmiy kotibi, i.f.d., prof.
Mengliqulov B. – TDAU ‘Buxgalteriya hisobi va audit’ kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Fanning ishchi o'quv dasturi “Qishloq xo’jaligida menejment” kafedrasining 201_ yil “___” _____dagi “___” – son yig’ilishida muhokamadan o’tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ **E.D.Yusupov**

Fanning ishchi o'quv dasturi “Qishloq xo’jaligida menejment” fakultet kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (201_ yil _____dagi _____-sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi: _____ **A.Shokirov**

Kelishildi:

O’quv uslubiy boshqarma boshlig’i: _____ **S.Islomov**

Kirish

Investitsiyalashning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy manbalarni, barcha shart-sharoitlarni hisobga olgan holda jalb qilish milliy iqtisodiyotning kelajagini belgilaydi. "Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish" fanining dolzarbligi shundan iboratki, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishda, o'z modelini amalga oshirish jarayonida, investitsiyani tashkil etish hamda moliyalashtirishning samarali usullarini o'rganish, muqobil variantlarni to'g'ri tanlash va baholashdek tokomillashgan zamonaviy mexanizmlari va vositalarini o'rganish va boshqarish zarur bo'ladi.

Fanning maqsadi va vazifasi.

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga investitsiyaning mohiyati, turlari, ularning moliyalashtirish manbalari va o'ziga xos xususiyatlari hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonini jadallashtirishda investitsiyalarning tutgan o'rni to'g'risidagi bilimlarni o'rgatish va bir tizimga solingan, egallangan bilimlar bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Fanning asosiy vazifasi - iqtisodiyot tarmoqlari, shu jumladan qishloq xo'jaligiga jalb qilinayotgan ichki va tashqi investitsiyalardan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, investitsiya loyihalarini tuza olish, investitsiya loyihalari samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, loyihaviy tahlilni amalga oshirish, loyiha hujjatlarni tayyorlay olish, ekspertizadan o'tkazish, monitoringni amalga oshirish, loyihalar va investitsiyalarga xarajatlar samaradorligini baholay oladigan va amalda qo'llay oladigan bilimli va yuksak kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassislarini tayyorlash.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

- "Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish" fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:
- respublikada qishloq xo'jaligini rivojlantirish, investitsiya va investitsiyalarni jalb qilishga oid me'yoriy-ququqiy hujjatlar, investitsion faoliyat strategiyasi, qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion texnologiyalarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari hamda xorijiy investitsion faoliyat, investitsiya sohasida mamlakat iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikni hisobga olgan holda qishloq xo'jaligining qaysi yo'nalishiga investitsiya sarflanish rejasi haqida tasavvurga ega bo'lishi;
 - investitsion jarayonlarni boshqarish usullarini, investitsiyalarni shakllantirish va yo'naltirish usullari va manbalarini, qishloq xo'jalik korxonalarining ichki xo'jalik faoliyati, ishlab chiqarishni va biznesini rejalashtirish: rejalashtirish tizimi, tamoyillari va tuzish uslubini, investitsion loyihalarni ishlab chiqish, loyihaviy tahlil mohiyatini va usullarini; mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibini; loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibini; qishloq xo'jalik korxonalarida loyihaviy tahlil usullarini va xususiyatlarini, shuningdek kelajakda sarflanadigan investitsiyaning samaradorligini oshirish yo'llarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
 - agrar sohada biznes-reja va loyihaviy tahlilning asosiy jihatlari to'g'risida; loyiha buyurtmachisining moliyaviy ahvolini, marketing bozori va kontseptsiyasini tahlil etish; loyihani amalga oshirish sxemalarini, iqtisodiy samaradorligi va qoplanuvchanligi, tavakkalchiliklari va hayotiylikini baholash; qishloq xo'jalik sohasida investitsiya loyihalarini rejalashtirish va monitoringini qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
 - investitsion loyihalar va faoliyat biznes-reja ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro boqliqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

"Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish" fani iqtisodiy fanlar majmuasiga taaluqli bo'lib, talabalar uni V-semestrda o'rganishadi.

"Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish" fani "Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti", "Qishloq xo'jaligi menejmenti", "Qishloq xo'jaligida xizmatlar va shartnomaviy munosabatlar", "Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish" fanlari bilan uzviy va chambarchas boqlangan bo'lib, talabalarning o'quv rejasida rejalashtirilgan iqtisodiy fanlar bilan birga umumta'lim, ijtimoiy-

siyosiy, tabiiy-matematik, texnologik va boshqa fanlardan yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Hozirgi kunda aylanma mablag'larini ko'paytirish uchun tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga imtiyozli kreditlar berilmoqda, qishloq xo'jalik texnikalarini sotib olish uchun fermer xo'jaliklari lizing orqali asosiy fondlarni yangilamoqda. Qishloqqa sanoatni olib kirishda, ya'ni zamonaviy qayta ishlash korxonalari tashkil etishda xorijiy kredit liniyalar orqali investitsiyalar jalb etilmoqda. Shuning uchun ham investitsiyaviy loyihalarni tuzish, investitsiyalar samaradorligini baholash va investitsiyalardan foydalanish tartibini o'rganish iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jalik korxonalari, jumladan fermer xo'jaligi ishlab chiqarishini investitsiyalarni jalb qilish orqali rivojlantirishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

"Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish" fani ma'ruza o'qish va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, texnologiyalar majmuasi, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy darslarida mos ravishdagi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalaniladi.

Ma'ruzalar o'qitishning texnikaviy vositalaridan va tarqatma materiallaridan foydalanilgan holda o'qitilib, ma'ruzalarda fanning asosiy mazmuni bayon etiladi, xodisalarning mohiyatlari va ularning amaliy qo'llanishi ochib beriladi. Fan bo'yicha o'qiladigan ma'ruzalar muammoli xarakterda bo'lib, talabalarning qiziqishini rag'batlantirishga va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratiladi.

Amaliy mashg'ulotlar ma'ruzalardan olingan bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish va amaliy ko'nikmalar olish xamda ishlab chiqarishdagi tajribalarni olib borish maqsadida o'tkaziladi. Barcha amaliy va tajriba ishlari kompyuter texnologiyalarini qo'llash bilan boqliq bo'ladi.

Talabalarning bilimi fanni o'rganish jarayonida ma'ruzalar va amaliy ishlarni bajarish davomida so'rovlar asosida nazorat qilinadi. Fanni o'rganish joriy, oraliq baholash va yakuniy nazorat o'tkazish bilan yakunlanadi.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalardan foydalanishda talabalarning iqtisodiy bilimini reyting ballari asosida baholash, ma'ruza matnlari tezislarini yaratish, texnik vositalar, diagrammalar, jadvallar, alohida chizmalardan va statistik ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Fanni o'qitishda an'anaviy uslublardan - ekspress va test so'rovlari; dasturiy o'qitish; davra suqbatlari o'tkazish; kollokviumlar; muammoli o'qitish; hamda yangi pedagogik texnologiyalar: «Aqliy qujum», «Insert», «Zigzag», «Klaster», «Pinbord» usullaridan; zamonaviy axborot texnologiyalari, internet ma'lumotlari va kompyuterlardan foydalanish; fan bo'yicha elektron darsliklar yaratish hamda undan foydalanishga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

O'quv jarayoni bilan boqliq ta'lim sifatini belgilovchi qo'llatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilqor pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

"Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan boqliq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmoqi lozim: jarayonning mantiqiyiligi, uning barcha bo'qinlarini o'zaro boqlanganligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'yektiv qarama-qarshiligi va uni qal etish usullarini, dialektik mushoqadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruq.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi qarakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baqolanadi.

"Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, amaliy dasturlar, "Excel" elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimni baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmoqidagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

"Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish" fani mavzulari va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi.

T.r.	Fanning bo'limi va mavzusi, ma'ruza mazmuni	Jami soat	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Mustqail ta'lim
1	Fanga kirish	8	2	2	4
2	Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni	8	2	2	4
3	Investitsiya siyosati va investitsiya faoliyati	8	2	2	4

4	Investitsiyaviy faoliyat tamoyillari	8	2	2	4
5	Iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli	8	2	2	4
6	Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya muhitining o'ri	10	2	4	4
7	Investitsiya faoliyatida kapital qo'yilma va kapital qurilish	8	2	2	4
8	Davlat investitsiya dasturi	8	2	2	4
9	Investitsiyalarni boshqarish	8	2	2	4
10	Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish va davlat tomonidan tartibga solish	8	2	2	4
11	Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va usullari	8	2	2	4
12	Investitsiyalarni moliyalashtirishda moliyaviy vositalar	10	2	4	4
13	Qishloq xo'jaligida investitsiyaviy jarayonlarni rivojlantirishda kreditning tutgan o'ri	12	4	4	4
14	Qishloq xo'jaligida investitsiyaviy jarayonlarni rivojlantirishda lizingning tutgan o'ri	10	2	4	4
15	Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish	8	2	2	4
16	Innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish	8	2	2	4
17	Nomoddiy aktivlarga safarbar etiladigan investitsiyalarni moliyalashtirish	8	2	2	4
18	Investitsiya loyihalarini tayyorlash	10	2	4	4
19	Investitsion loyiha tahlili	10	2	4	4
20	Investitsiyaviy loyihalar samaradorligi	10	2	4	4
21	Investitsiyaviy loyihalashtirishning moliyaviy-matematik asoslari	12	2	4	6
22	Investitsiyaviy loyihalashtirish jarayonida zararsizlik tahlili, maqsadli rejalashtirish va foydani boshqarish	8	2	2	4
23	Investitsiyaviy loyihalarda tavakkalchilik tahlili va ularni pasaytirish yo'llari	10	2	4	4
24	Investitsiya loyihalari ekspertizasi	8	2	2	4

25	Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda investitsion loyiha tashabbusini va monitoringini tashkil etish	12	4	4	4
Jami		226	54	70	102

ASOSIY QISM

Fanga kirish. "Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish" fanining predmeti, vazifasi, o'rganish uslubi va boshqa fanlar bilan uzviy boqliqligi. qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish jarayonlarning ilmiy-amaliy asoslari, rivojlanish bosqichlari va vazifalari. Biznes rejalashtirish mohiyati. *Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:* dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. munozara, Venn diagrammasi,

Adabiyotlar: A1;A3; A4; A9; q1;

Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va iktisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyati. Investitsiyalarning makro va mikroiktisodiyotni rivojlantirishdagi roli. Iqtisodiyotni va qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashda investitsiyalar va ularning ahamiyati. Investitsiyalash maqsadlari va diversifikatsiyalanishi. Investitsiyalarning tasniflanishi. Asosiy fondlarning shakllanishida kapital qo'yilmalarning roli. Moliyaviy va real investitsiyalarning o'zaro boqliqligi. Jamqarmalar – investitsiyalar manbasi sifatida. *Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:* muammoli ta'lim. Munozara.

Adabiyotlar: A7; A3; A6; A9; q2; q2.

Investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati. Investitsion faoliyat tushunchasi. Investitsiya faoliyatining tarkibiy tuzilishi. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda davlatning roli. Investitsiya faoliyatiga ta'sir etish omillari va usullari. O'zbekistonda investitsion faoliyatning normativ ququqiy asoslari. "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsiya faoliyatini tashkil etish. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsion faolligini ta'minlash vazifalari. Investitsiya siyosati: uning mazmuni, roli, asosiy yo'nalishlari va amalga oshirish bosqichlari. Globallashtirish va chet el kapital migratsiyasining kuchayishi. Zamonaviy investitsion siyosatni amalga oshirishda chet el investitsiyalari ko'chishini hisobga olish. *Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:* dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.

Adabiyotlar: A1;A4; A6; A9;

Investitsiyaviy faoliyat tamoyillari. Investitsiya kiritishning bazis tamoyillari. Investitsiya kiritishning chegaraviy samaradorligi va qoplash tamoyili. Kapital qo'yilmalar samaradorligining moddiy va puldagi baqosini o'zaro muvofiqlashtirish va moslashuv xarajatlari tamoyili. Multiplikator (ko'payuvchi) tamoyili. *Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:* dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A4; A6; A9; q1; q1.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli. Xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati va turlari. Xorijiy investitsiyalarni O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilishning ob'yektiv zarurligi. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish turlari va shakllari. To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarining iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi roli. "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi va "Chet ellik investorlar ququqlarining kafolatlari va ularni qimoya qilish choralari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining mazmuni, maqsadi va ahamiyati. Xorijiy investorlarga berilgan imtiyozlar va kafolatlar. *Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:* muammoli ta'lim, munozara.

Adabiyotlar: A3; A4; A6; A9.

Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya muhitining o'rni. Investitsiya muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar. Investitsiya muhitini baholash usullari. Investitsiya muhitida investitsion saloqiyatni (tabiiy resurslar saloqiyati, meqnat, ishlab chiqarish, innovatsion, moliyaviy saloqiyatlar va iste'molchilik saloqiyati) o'rni. Investitsiya muhitini shakllantirishda ququqiy-me'yoriy tizim.

O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhitini muntazam ravishda yaxshilab borish vazifalari. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.

Adabiyotlar: A3; A4; A6; A9; q1; q2.

Investitsiya faoliyatida kapital quyilma va kapital qurilish. Kapital qo'yilmalarning mohiyati. Kapital qo'yilmalarning texnologik tarkibi. Kapital qurilish. Yangi qurilish, ta'mirlash, kengaytirish, texnik qayta jihozlash. "qurilish industriya"si tushunchasi. Mamlakat iqtisodiyoti uchun qurilish muddatini qisqartirishning ahamiyati. qurilishning uch bosqichi: tayyorgarlik bosqichi, qurilish bosqichi, qurilish mahsulotini realizatsiyasi. qurilish ishlab chiqarishning davomiyligi. qurilishda xo'jalik yuritishning qissadorlik jamiyatlari shakllarini joriy etish. qurilishning tashkiliy shakllari. Kapital qurilishda loyihalashtirish. Kapital qurilishda tanlovni tashkil etish. Buyurtmachi va pudratchining ququq va majburiyatlari. qurilish-montaj ishlarining smeta qiymati tarkibi va tuzilishi. qurilish ob'yektining shartnoma narxleri. Kapital qo'yilmalar samaradorligini baholash. Kapital qurilishda nazorat ishlarini olib borish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Muammoli ta'lim, Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1; A4; A6; A9; q1; q2.

Davlat investitsiya dasturi. O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi, uning mazmuni, asosiy maqsadi, shakllantirish tartibi, tamoyillari va muddatlari. Kapital qo'yilmalarni rejalashtirish. Muqim investitsiya takliflarining yiqma ro'yxati. Investitsiya loyihalarining adres dasturlari, adres ro'yxatlari: ularni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi. Investitsiya dasturlari asosida kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish (markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar). Investitsiya dasturni amalga oshirish ustidan nazorat. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.

Adabiyotlar: A3; A4; A6; q2; q1.

Investitsiyalarni boshqarish. qishloq xo'jaligida investitsion faoliyatini boshqarishning qozirgi zamon paradigmasi. Investitsiyaviy loyiha turlari va xususiyatlari. Investitsion loyihalarni boshqarish. Investitsion loyiha sikli. Loyihani amalga oshirish. Investitsion loyiha menejmenti. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Muammoli ta'lim, munozara, Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A3; A4; A6; A9; q1; q2.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish va davlat tomonidan tartibga solish. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish va tartibga solish usullari. Investitsiya faoliyatini tartibga solishda investitsiya strategiyasining o'rni. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarning davlat tomonidan boshqarilishi. Xorijiy investitsiyalarni tartibga solishning jaqon tajribasi. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. BG`BG`B jadvali, munozara.

Adabiyotlar: A1; A8; A9; q1; q6; q4; q5.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va usullari. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va ularning tarkibi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'z mablag'lari (foйда, amortizatsiya ajratmalari, maqsadli tushumlar va boshqalar). Jalb etilgan mablag'lar evaziga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish. Investitsiya faoliyatini qarz mablag'lari evaziga moliyalashtirish. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullari. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; q2; q1; q2.

Investitsiyalarni moliyalashtirishda moliyaviy vositalar. Moliyaviy vositalar, ularning mohiyati, turlari va tasniflanishi. Birlamchi moliyaviy vositalar. qosilaviy moliyaviy vositalar. Firmaning investitsion jozibadorligini baholashda moliyaviy vositalarning roli. qimmatli qog'ozlar investitsiyalarni moliyalashtirish manbai sifatida. Investitsiyalash manbalarini shakllantirishda kapital va ssuda bozorlarining roli. qimmatli qog'ozlarni joylashtirish evaziga moliyalashtirish manbalarini jalb etish. Aktsiyadorlik kapitali hisobiga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A8; A9; q11; q12; q5; q7.

Qishloq xo'jaligida investitsiyaviy jarayonlarni rivojlantirishda kreditning tutgan o'rni. Kredit haqida tushuncha. Kreditning mohiyati va kredit shakllari. Kredit funksiyalari. Kredit tizimi va

kredit munosabatlari. qishloq xo'jalik korxonalarini kreditlash tizimi. Fermer xo'jaliklarida kredit olish tartibi. qishloq xo'jaligini kreditlashda chet el tajribasi. Xorijiy kredit liniyalari orqali kreditlash tartibi. Mikrokreditlash bo'yicha xorij tajribasi. Kredit olish uchun investitsiyaviy loyiha tuzish tartibi. Tijorat va bank kreditlari. Ishtirokchilar tarkibi, ssuda ob'yekti, dinamikasi, foiz miqdori. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; q2; q1; q2.

Qishloq xo'jaligida investitsiyaviy jarayonlarni rivojlantirishda lizingning tutgan o'ri.

Lizing haqida tushuncha. Lizing moliyalashtirishning eng qulay manbasi sifatida. Lizingni qishloq xo'jaligiga joriy qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Lizing turlari. O'zbekiston Respublikasining lizing qonunchiligi. qishloq xo'jaligida lizing operatsiyalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Lizing davri. Lizing operatsiyalarini amalga oshirish bosqichlari. Xalqaro lizingning modifikatsiyalari. Xalqaro lizing. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; q2; q1; q2.

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishning mazmuni va mohiyati. Yirik investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Loyihaviy moliyalashtirishning asosiy ishtirokchilari va ularning funksiyalari. Loyihaviy moliyalashtirish turlari. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etish. Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash xususiyatlari. Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlashni tashkil etish.

qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; q2; q1; q2.

Innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish. Innovatsiya va innovatsion faoliyat tushunchasi. Innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar. Innovatsiya faoliyati - tadbirkorlik taraqqiyotini yuksaltirish omili sifatida. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning innovatsiya faoliyati zaruriyati. Innovatsiya strategiyasining mohiyati. Korxonalarda innovatsiya strategiyani shakllantirish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; q2; q1; q2.

Nomoddiy aktivlarga safarbar etiladigan investitsiyalarni moliyalashtirish. Nomoddiy aktivlar, ularning tarkibi va roli. Nomoddiy aktivlar -investitsiya ob'yekti sifatida. Erkin bozor va kuchli raqobat muhitida nomoddiy aktivlarni kengaytirish zaruriyati. Nomoddiy aktivlarni baholash va "gudvill". Gudvill tushunchasi va Gudvill tarkibi. Gudvill – investitsiya ob'yekti sifatida. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; q2; q1; q2.

Investitsiya loyihalarini tayyorlash. Biznes-reja investitsion loyiha asosi sifatida. Biznes-rejalashtirish qoidasi. Biznes reja tuzish bo'yicha ko'rsatmalar. Moliyaviy rejaning taxminiy ko'rinishi. Investitsion loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslash va biznes-rejalar tuzish. Loyiha hujjatlarini tayyorlash. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; q2; q1; q2.

Investitsion loyiha tahlili. Loyiha tahlilining yo'nalishlari. Loyiha tahlilining tarkibi va mazmuni. Tijorat, texnik, institutsional, moliyaviy, iqtisodiy, ekologik tahlillarni amalga oshirish. Loyihalar tahlilida vaqt omilini hisobga olish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; q2; q1; q2.

Investitsiyaviy loyihalar samaradorligi. Kapital mablag' samaradorligini aniqlashga xarajatlar bo'yicha yondashuv. Pul oqimlarini baholash metodologiyasi. Daromadli yondashuv asoslari. Sof keltirilgan samara (foyda)ni hisoblash usuli. Investitsiyani qoplash muddatini aniqlash. Investitsion loyihalar daromadliligining ichki me'yorini aniqlash. Loyihalarning rentabellik indeksi va samaradorlik koeffitsientini hisoblash. qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish, saqlash va birlamchi qayta ishlashda yangi texnologiyalar samaradorligi. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; q2; q1; q2.

Investitsiyaviy loyihalashtirishning moliyaviy-matematik asoslari. Pullarning vaqt oraliqidagi qiymati kontseptsiyasi. Foizlar nazariyasi. Pul oqimlari. Pullarning qozirgi va kelajakdagi qiymatini aniqlashda inflyatsiyaning ta'siri. Pul oqimlarini ortirish va diskontlash.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; q2; q1; q2.

Investitsiyaviy loyiha kapitali qiymatini baholash. Kapital qo'yilmalarning mohiyati. Kapital qo'yilmalar va ularning texnologik tarkibi. Kapital qo'yilmalarning samaradorligini oshirish. Kapital qo'yilmalarning moliyaviy manbalari. Kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini baholash. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; q2; q1; q2.

Investitsiyaviy loyihalashtirish jarayonida zararsizlik taxlili, maqsadli rejalashtirish va foydani boshqarish. Zararsizlik tahlili va maqsadli rejalashtirish investitsiyaviy loyihalashtirishning ajralmas qismi sifatida. Zararsizlik tahlilining asosiy tushunchasi va maqsadi. Xarajatlarning turkumlanishi. Zararsizlikning grafik ko'rinishi. Kiritilgan daromad ta'siri va operatsion richag tahlili. Loyixani amalga oshirish imkoniyati, foydalilik darajasini aniqlash, muammolarni bartaraf etish yo'llari. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; q2; q1; q2.

Investitsiyaviy loyihalarda tavakkalchilik tahlili va ularni pasaytirish yo'llari. Investitsion loyihada noaniqlik va tavakkalchilik tushunchalari. Tavakkalchilik turlari. Investitsiya faoliyati bilan boqliq risklar va ularning tasniflanishi. Investitsiya risklarini aniqlash usullari. Investitsiya loyihalarida risklarni baholashning matematik usullari. Risklarni boshqarish va risk darajasini pasaytirish yo'llari. Tavakkalchilikni baholashning sezuvchanlik tahlili. Stsenariylar tahlili. Monte-Karlo modellashtirish uslubi. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; q2; q1; q2.

Investitsiya loyihalari ekspertizasi. Byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga, chet el investitsiyalarini qukumati kafolati ostida jalb etilgan investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazii. Ekspertizani o'tkazish tartibi. Boshqa manbalar hisobiga moliyalanadigan investitsiya loyihalarini sanitariya-gigiena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaqarsozlikka oid va boshqa talablar bajarilishini davlat ekspertizasidan o'tkazish tartibi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; q2; q1; q2.

Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda investitsion loyiha tashabbusini va monitoringini tashkil etish. Monitoringning mohiyati va ahamiyati. Innovatsiyaviy loyihani amalga oshirish va uning monitoringini o'tkazish tizimini yaratish. Loyihani moliyalashtirishgacha bo'lgan monitoring. Banklarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish monitoringini tashkil etish. Monitoringni o'tkazish shakllari. Investitsiyaviy loyiha tashabbusini tashkil etish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Venn diagrammasi.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; q2; q1; q2.

2.3. Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan

Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni.

“Investitsiyalash va loyihaviy tahlil” bo'yicha talabning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, amaliy mashqlar bajaradilar, misol va masalalar echadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan amaliy mashqlarni bajaradilar, misol va masalalarni echadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar echadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baqolanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan qar darsda amalga oshiriladi.

“Investitsiyalash va loyihaviy tahlil” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini hamrab olgan va quyidagi 7 ta katta mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

Ishchi o'quv dasturining mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzular	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarilish muddatlari (haftada)	Hajmi (soatda)
Xalqaro valyuta tizimi. Xorijiy kredit liniyalari faoliyati.	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	2-3	2
Tavakkalchilik tahlili. Tavakkalchilik tahlilini asosiy bosqichlari va maqsadi	Darslik va o'quv qo'llanmalar	3-4	4
Bozor infratuzilmasi. Bozor infratuzilmasi tushunchasi va elementlari	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	5-6	2
Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqiroz sharoitida bank tizimining roli	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	7-8	4
Birja va uni faoliyati. Fond birjasi. Tovar birjasi	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	9-10	2
Soliq tizimini takomillashtirish. Soliq to'lovlari	Korxonalar ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	11	4
Portfel investitsiyalar. Portfel investitsiyalarining mohiyati va iqtisodiyotda ularni roli	darslik va o'quv qo'llanmalar	12	2
Moliyaviy rentani tavsifini aniqlash.	darslik va o'quv qo'llanmalar	13	4
Moliyaviy investitsiyalarni daromadligini o'lchashni umumiy uslubiyoti.	darslik va o'quv qo'llanmalar	14	2
Aksiyalar bozorida investitsiyalarni tavakkalchiligi va daromadlilik	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	15	4

Moliyaviy bozor. Xoldinglar. Moliyaviy sanoat guruhlar.	darslik va o'quv qo'llanmalar	16	2
Investitsion institutlar. Moliyaviy kompaniyalar.	darslik va o'quv qo'llanmalar		4
Innovatsiyaviy loyihalarni shakllantirish asoslari	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	17	2
Innovatsiyaviy loyihalarni boshqarish uslublari va texnologiyalari	darslik va o'quv qo'llanmalar	18	4
Loyihaviy tahlilda inflyasiya omilini hisobga olishning xorij tajribasi.	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	19	2
Loyihalarni samaradorligini baholashning umumiy uslubiyotlari	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	20	4
Innovatsion va investitsion tahlil.	darslik va o'quv qo'llanmalar	21	2
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalar va loyihalar.	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	22	2
Investitsiyalarning tasniflanishi	darslik va o'quv qo'llanmalar	23	4
Asosiy fondlarning shakllanishida kapital qo'yilmalarning roli	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	24	2
Moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirish xususiyatlari	darslik va o'quv qo'llanmalar	25	4
Moliyaviy va real investitsiyalarning o'zaro boq'liqligi	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	26	2
Investitsiya faoliyatiga ta'sir etish omillari va usullari.	darslik va o'quv qo'llanmalar	27	2
Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish evaziga moliyalashtirish manbalarini	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	28	4
Investitsiya dasturlari asosida investitsiyalar va investitsiya faoliyatini tashkil etish.	darslik va o'quv qo'llanmalar	29	4
O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhitini muntazam ravishda yaxshilab borish vazifalari	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	30	4

Jalb etilgan mablag'lar evaziga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish.	darslik va o'quv qo'llanmalar	31	4
Xorijiy investorlarga berilgan imtiyozlar va kafolatlar.	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	32	4
Xorijiy investorlarga berilgan imtiyozlar va kafolatlar.	darslik va o'quv qo'llanmalar	33	4
Kreditdan foydalanish ustidan bank nazorati.	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	34	4
Investitsiyalarni sindikatli kreditlashning o'ziga xos xususiyatlari.	darslik va o'quv qo'llanmalar	35	4
Xalqaro moliyaviy lizingning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o'rni.	Internet ma'lumotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar	36	4
Jami			102

Kurs loyahasining namunaviy mavzulari va bajarilishiga uslubiy ko'rsatmalar

Bo'lg'usi mutaxassisni yuqori darajada tayyorlash, o'qitish tizimining hamma bosqichlarini-ma'ruza, amaliy seminar darslarini, mustaqil ish, o'quv va ishlab chiqarish amaliyotini, nazorat, kurs ishi (loyiha)larini yanada takomillashtirish talab etiladi.

Bo'lajak mutaxassis o'quv jarayoni davomida ko'pgina iqtisodiy fanlar qatori «Investitsiyalash va loyihaviy tahlil» fani bo'yicha ham kurs loyihasi bajaradi. Bu fanning bosh maqsadi talabalarni fermer xo'jaliklarini ixtisoslashuvi bo'yicha investitsiyaviy loyihalarni tuzish va samaradorligini baholash usullari, hamda biznes reja va texnik iqtisodiy asoslash tuzish ko'nikmalari bilan tanishtirishdir.

Kurs loyahasining namunaviy mavzulari:

1. Paxta mahsulotlarini etishtirish uchun investitsiyaviy loyiha.
2. qalla mahsulotlarini etishtirish uchun investitsiyaviy loyiha.
3. Kartoshka etishtirish uchun investitsiyaviy loyiha.
4. Sabzavot mahsulotlarini etishtirish uchun investitsiyaviy loyiha.
5. Go'sht mahsulotlarini etishtirish uchun investitsiyaviy loyiha.
6. Sut mahsulotlarini etishtirish uchun investitsiyaviy loyiha.
7. qoramolchilikni rivojlantirish uchun investitsiyaviy loyiha.
8. Ko'ychilikni rivojlantirish uchun investitsiyaviy loyiha.
9. qorako'lchilikni rivojlantirish uchun investitsiyaviy loyiha.
10. Baliqchilikni rivojlantirish uchun investitsiyaviy loyiha.
11. Kuyonchilikni rivojlantirish uchun investitsiyaviy loyiha.
12. Asalarichilikni rivojlantirish uchun investitsiyaviy loyiha.
13. Pillachilikni rivojlantirish uchun investitsiyaviy loyiha.
14. Fermer xo'jaligiga TTZ 8011 rusumli traktor olish uchun lizing loyihasini tuzish.
15. Fermer xo'jaligiga TTZ 8010 rusumli traktor olish uchun lizing loyihasini tuzish.
16. Fermer xo'jaligiga minitraktor olish uchun lizing loyihasini tuzish.
17. Fermer xo'jaligiga Don rusumli kombaynini olish uchun lizing loyihasini tuzish.
18. Fermer xo'jaligiga Keys rusumli kombaynini olish uchun lizing loyihasini tuzish.

19. Fermer xo'jaligiga Kamaz-5320 rusumli avtomobil olish uchun lizing loyihasini tuzish.
20. Fermer xo'jaligiga Gaz-53 rusumli avtomobil olish uchun lizing loyihasini tuzish.
21. Fermer xo'jaligiga Maz-555 rusumli samosval avtomobilini olish uchun lizing loyihasini tuzish.
22. Fermer xo'jaligiga Zil-130 rusumli avtomobil olish uchun lizing loyihasini tuzish.
23. Fermer xo'jaligiga Djon Dir rusumli kombaynini olish uchun lizing loyihasini tuzish.
24. Fermer xo'jaligiga non ishlab chiqarish texnologiyasini olish uchun lizing loyihasini tuzish.
25. Chorvachilik maxsulotlarini ishlab chikarish uchun investitsiyaviy loyiha.
26. qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish uchun mikro kreditdan foydalanish.
27. qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish uchun mikro lizingdan foydalanish.
28. Go'sht mahsulotlarini qayta ishlash uchun investitsiyaviy loyiha.
29. Sut mahsulotlarini qayta ishlash uchun investitsiyaviy loyiha.
30. Kartoshka mahsulotlarini qayta ishlash uchun investitsiyaviy loyiha.
31. Meva mahsulotlarini qayta ishlash uchun investitsiyaviy loyiha.
32. Meva, sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash uchun investitsiyaviy loyiha.
33. Sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash uchun investitsiyaviy loyiha.
34. Makaron mahsulotlarini qayta ishlash uchun investitsiyaviy loyiha.
35. Go'sh qiymalash uskunasi sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
36. Kolbasa ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
37. Junni birlamchi qayta ishlash uskunasi sotib olish uchun biznes loyihasini tuzish va baholash.
38. Tomat pastasi ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
39. Pishloq ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
40. Pechene va vafli ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
41. erni qayta ishlash mashinalari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
42. em xashak o'ruvchi mashinalar sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
43. Kolbasa ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
44. Changlatish va purkash moslamalari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
45. Teri mahsulotlarini qayta ishlash uskunasi sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
46. Kartoshka moslamalari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
47. erylakni tozalash, qayta ishlash uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
48. Bog va uzumzorlarda ishlarni mexanizatsiyalashtirish mashinalarini sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
49. Bugdoy yanchish uskunasi uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
50. Tegirmon sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
51. Mevalarni kuritish uskunasi sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
52. Kuruk va suyuq konsentratlar ishlab chiqarish mini zavodini biznes loyihasini tuzish va baholash.
53. Mini pekarnya sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
54. Poroshok sut ishlab chiqarish mini zavodini kurish biznes loyihasini tuzish va baholash.
55. Traktor tirkamalari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
56. Yarimtirkamalar sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
57. Meliorativ va erni qayta ishlash moslamalari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
58. qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun universal kuritish moslamasini sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
59. Tegirmon majmualari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
60. Presslash usuli bilan yoq ishlab chiqarish uskunasi sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
61. Inkubator sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
62. Makaron presslari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
63. Rafinad qand ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.

64. Kukruz tayyokchalari ishlab chiqarish uskunasi sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
65. Konsentratlangan sut (sguhennoe moloko) ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
66. Meva va sabzavot pastalari tayyorlash uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
67. Donni, o'zni maydalash kombayni sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
68. Don tozalash moslamasi sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
69. Sabzavotlarni kesish moslamalari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
70. Tuz yodlash uskunasi sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
71. Seyalka sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
72. Mineral o'g'itlarni sepish uskunasi sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
73. O't o'rish mashinasini sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
74. Kosilkalar sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
75. Dalada paxta to'dalarini tozalash uskunasi sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
76. Universal er xaydash traktorlari (Keys) sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
77. Kanal qazish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
78. qadoqlash rulon materiallari va paketlar ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
79. Muzqaymoq ishlab chiqarish bo'yicha uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
80. Turli xil mahsulotlarni quyuvchi va qadoqlovchi uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
81. qishloq xo'jalik mahsulotlari chikindilarini qayta ishlash investitsiyaviy loyihasi.
82. Shaqar chikindilarini qayta ishlash orqali organik o'qitlardan foydalanish investitsiyaviy loyiha.
83. Mevalarni kuritish uskunasi sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
84. Sabzavotlarni kuritish uskunasi sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
85. Limon mahsulotlarini etishtirish investitsiyaviy loyiha.
86. Gulchilikni rivojlantirish investitsiyaviy loyiha.

Informatsion-uslubiy ta'minot

Kompyuter texnikasi vositalari va texnologiyalari, Internet, multimedia tizimlari, maxsus va standart programmalar paketi, diaproektorlar, video va audiotexnika hamda tarqatiladigan materiallardan keng foydalanish ko'zda tutiladi.

Darsliklar, ma'ruzalar matni va prezentatsiyalarning elektron versiyalaridan mavzularni yoritishda foydalaniladi.

- chizma va grafiklar;
- slaydlar;
- mavzular bo'yicha ishlab chiqarilgan tarkatma materiallar;
- mavzularni mustaqamlashga doir test va yozma ish variantlari;
- mavzularga oid uslubiy ko'rsatmalar.

“Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezon.

“Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda qar bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalar bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda oqzaki so'rov, test o'tkazish, suqbat, nazorat ishi, kollektivum, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, oqzaki, test va qokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

yakuniy nazorat (YaN) – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan qollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday qollarda **ON** qayta o'tkaziladi. Oliy ta'lim muassasasi raqbarining buyruqi bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi raqbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan qollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday qollarda **YaN** qayta o'tkaziladi. Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

"Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish" fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushoqada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baqolanadi.

Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $R=(V*O)/G \cdot 100$, bu erda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O' -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy JN va oraliq ON turlari bo'yicha 55 bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali qar bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yiqindisiga teng.

ON va YaN turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. YaN semestrning oxirgi 2 qaftasi mobaynida o'tkaziladi.

JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda JN va ON turlari bo'yicha to'plagan ballari shbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yiqindisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyruqi bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari		
		Maks	1-ON	2-ON
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi	6	0-3	0-3
2	Talabalarining mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	8	0-4	0-4
3	Og'zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	16	0-8	0-8
Jami ON ballari		30	0-15	0-15

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari		
		Maks	1-JN	2-JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati	8	0-4	0-4
2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi	10	0-5	0-5
3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan	22	0-11	0-11

javoblar			
Jami JN ballari	35	0-20	0-20

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo’lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik “Yozma ish” variantlari asosida o’tkaziladi. Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo’lib

fan bo’yicha yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo’lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi

№	Ko’rsatkichlar	YN ballari	
		Maks	O’zgarish oralig’i
1	Fan bo’yicha yakuniy yozma ish nazorati	6	0-6
2	Fan bo’yicha yakuniy test nazorati	24	0-24
Jami		30	0-30

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko’p variantli usulda o’tkaziladi. qar bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo’yicha tayanch so’z va iboralar asosida tuzilgan bo’lib, fanning barcha mavzularini o’z ichiga hamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo’yicha o’zlashtirish ko’rsatkichi 0-3 ball oraliqida baqolanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oraliqida baqolanadi. Talaba maksimal 30 ball to’plashi mumkin.

Yozma sinov bo’yicha umumiy o’zlashtirish ko’rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning qar biri uchun yozilgan javoblarga qo’yilgan o’zlashtirish ballari qo’shiladi va yiqindi talabaniy yakuniy nazorat bo’yicha o’zlashtirish bali hisoblanadi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy

1. Aleksanov D.S., Koshelev V.M. Ekonomicheskaya otsenka investitsiy.-M.: Kolos-Press, 2002.-382s.
2. Jo’raev A.S. va boshqalar. Investitsiya loyihalari tahlili. O’quv qo’llanma. –T.: Sharq. 2003.
3. Vaxobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O’quv qo’llanma. –T: “Moliya”. 2010.321b.
4. Ishmuxamedov A.E., qosimov. M.S., Jumaev. Z.A., Jumaev q.X. Loyiqa taqlili. O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamqarmasi nashriyoti.-T.: TDIU. 2004. -159 s.
5. Imomov N.N. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O’quv qo’llanma. –T: “Iqtisod-Moliya”. 2010. 185 b.
6. Samatov G.A, Rustamova I.B Loyiqalar taqlili fanidan amaliyot darslari uchun uslubiy qo’llanma. Toshkent 2008. 63 b.
7. Samatov G.A va boshqalar. Investirovanie i proektno’y analiz. Uchebnoe posobie. – T.: ToshDAU. 2006. 228 sh
8. Samatov G.A, Rustamova I.B. Loyiqalar taqlili fanidan ma’ruzalar matni. Toshkent. 2008. 139 b.
9. Investitsiyalash va loyiqaviy taqlil fanidan ma’ruzalar matni. Toshkent. ToshDAU. 2012.

Qo’shimcha

1. Yo.K.Qorieva, I.U.Nematov “Xorijiy investitsiyalar” fani bo’yicha ta’lim texnologiyasi. / “Iqtisodiy ta’limdagi o’qitish texnologiyasi” seriyasidan. – T.: TDIU, 2008, 154-bet.

2. Yo.K.Qorieva, I.U.Nematov “Xorijiy investitsiyalar” o’quv predmeti bo’yicha: o’quv-uslubiy majmua (bakalavriat bosqichi talabalari uchun)/ “Iqtisodiy ta’limda o’qitish texnologiyalari” O’quv-uslubiy qo’llanma. -T.: TDIU, 2008, 124-bet.
3. Lorens DJ. Gitman. Maykl D. Djonk. “Osnoviy investirovaniya”.- M.: Izdatelstvo “Delo” 1997g. – 10-40 s.
4. Rustamova I.B. Issledovanie effektivnosti privilecheniya investitsiy v malom i srednem biznese. Diss.... kand.ekon.nauk. -T.: 2000. 245 s.
5. Starik D.E. Raschyot effektivnosti investitsionnyx proektov / Ucheb.posobie.-M.: ZAO «Finstatinform», 2001.-131 s.
6. G’ozibekov D.Q, Sabirov O.Sh., Muminov A.G., Kuljonov O.M. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti.-T: “Fan va texnologiya”, 2004y, 308b.

O’zbekiston Respublikasi qonunlari

1. “Investitsiya faoliyati to’qrisida”gi O’zbekiston Respublikasining qonuni. qonun va qarorlar. – T.: №25, O’zbekiston, 2004.
2. O’zbekiston Respublikasi “Fermer xo’jaliklari to’qrisida”gi qonun. 2004 yil. (yangi taqriri).
3. “Xorijiy investitsiyalar to’qrisida”gi O’zbekiston Respubli-kasining qonuni. qonun va qarorlar. –T.: №25, O’zbekiston, 2004.
4. “Xorijiy investorlarni ququqlarini qimoya kilish choralari va kafolatlari to’qrisida”gi O’zbekiston Respublikasining qonuni. qonun va qarorlar. –T.: №25, O’zbekiston, 2004.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. I.A.Karimov «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» -Toshkent, «O’zbekiston» 2010 y.
2. I.A.Karimov. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo’llari va choralari», Toshkent, «O’zbekiston» 2009.

Internet manbalari

1. www.msu.ru - Moskovskiy Gosudarstvenny Universitet (ekonomicheskii fakultet)
2. www.rsute.ru -Moskovskaya ekonomicheskaya akademiya im. G. Plexanova (ekonomicheskii fakultet)
3. www.tsue.uz - Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
4. www.osu.edu - Universitet Oxayo, iqtisodiyot fakulteti (AqSh)
5. www.umde.edu - Merilend Universiteti, iqtisodiyot fakulteti (AqSh)
6. www.timaad.ru - K.A.Timiryazeva nomidagi Moskva davlat qishloq xo’jaligi akademiyasi, iqtisodiyot fakulteti.
7. <http://www.statistis.uz> - O’zbekiston Respublikasi Makroiqtiso-diyot va statistika vazirligi ma'lumotlari
8. www.er.uz - Inson taraqqiyoti to’g’risida ma'ruza
9. www.press-servic.uz -Prezident sayti.
10. www.gov.uz -Xukumat sayti.
11. www.pravo.uz Zakonodatelnaya baza Respubliki Uzbekistan.
12. www.uzreport.com Novosti Uzbekistana.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



“QISHLOQ XO‘JALIGIDA MENEJMENT” KAFEDRASI

**“QISHLOQ XO‘JALIGIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH”
o‘quv kursi bo‘yicha**

MA'RUZALAR MATNI

“Qishloq xo‘jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish» fani bo‘yicha kengaytirilgan ma'ruzalar matni namunaviy dastur asosida yozilgan va undagi mavzular bo‘yicha tushunchalar va fikrlar fanni qisman o‘zlashtirishga imkon beradi.

Ma'ruzalar matni bakalavrlar, magistrilar, aspirantlar, ilmiy hodimlar va o‘qituvchilarning foydalanishlari uchun mo‘ljallangan.

Tuzuvchilar: N. Mardiev – dotsent, iqtisod fanlari nomzodi
G‘aybullaev O.B - assistent

Taqrizchilar:

Kirish

Investitsiyalar - iqtisodiyotni taraqqiyot tomon harakatini ta'minlovchi kuch ekanligi, har qanday iqtisodiy nazariya uchun aksioma hisoblanadi. Har bir davlat, birinchi navbatda moddiy ishlab chiqarish sohasiga, milliy va chet el investorlarini kirib kelishi uchun butun kuchini sarflashi lozim. Ushbu maqsadni ko'zlagan holda muayyan investitsion siyosat ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi, tegishli investitsion muhit shakllantiriladi. Mustaqil O'zbekistonda uzluksiz amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, tarmoq va sohalar rivojlanishidagi yutuqlarga erishish, integratsion jarayonlarni rivojlanishi va iqtisodiy o'sishni ta'minlashni nazarda tutadi.

Har bir korxonaga faoliyatining muhim sohalaridan biri bo'lib, uzoq vaqt davomida korxonaga daromad keltirishi nazarda tutilgan, investitsion operatsiyalar, ya'ni, biror loyihani amalga oshirish uchun pul mablag'lari kiritish bilan bog'liq operatsiyalar, xizmat qiladi. Bunday loyihalarning natijalari quyidagicha bo'lishi mumkin: bozor talabini qondirish uchun muayyan mahsulot ishlab chiqarish; yanada zamonaviy uskuna va texnologiyalardan foydalanish asosida, mahsulot ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish; ishlab chiqarish resurslaridan oqilona (tejamkor) foydalanish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash; ekologik xavfsizlikni oshirish; turli xil xizmatlarni ko'rsatish, shu jumladan konsultatsion (maslahat), axborot, ijtimoiy va hokazo.

Har bir investitsiyaviy loyihani iqtisodiy baholash, bozor faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini, xususan loyihani tavsiflovchi ko'pgina ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligi, so'nggi natijaga erishish noaniqligi, loyiha ishtirokchilari manfaatlarining sub'ektivligi, va bularning oqibatida loyihani baholash mezonlari ko'pligini, hisobga olishi lozim.

Investitsiyaviy loyihani iqtisodiy baholashda, uning quyidagi dinamik tavsiflarini e'tiborga olish lozim:

- ishlab chiqarilayotgan tovar talabidagi mumkin bo'lgan o'zgarishlar va tegishli tarzda ishlab chiqarish hajmlarining o'zgarishi;

- ishlab chiqarish hajmlarini oshirish jarayonida, ishlab chiqarish xarajatlarining rejalashtirilgan pasayishi;

- iste'mol qilinayotgan resurslar narxlarining kutilgan o'zgarishlari;

- har bir davrdagi investitsiyalar uchun moliyaviy manbalarga ega bo'lish imkoniyati.

Korxonaga o'z tovarini etkazib berish hajmlarini oshirar ekan, ushbu tovar narxining tushib ketishi kabi bozor ta'sirini oldini olishi lozim. Ayrim ishlab chiqarish resurslariga bo'lgan talabning oshishi, ularning narxi oshib ketishiga olib kelishi mumkin. Raqobatdosh korxonaning kelajakdagi ilmiy-texnik yutuqlari, korxonaga tomonidan bugun o'zlashtirilayotgan mahsulot sifatini yo'qqa chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham investitsiyaviy loyihalar uchun quyidagi qoida amal qiladi.

Investitsiyaviy loyiha ko'rsatkichlarining istiqbolda ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlari, prognoz qilinishi va yetarlicha uzoq vaqtni qamrab oladigan iqtisodiy hisob-kitoblarga kiritilishi lozim.

Prognoz baholaridan foydalanish har doim ob'ektiv tarzda tavakkalchilik bilan bog'liq bo'ladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, investitsiyaviy loyihalarning turli tavsiflari turlicha aniqlik bilan prognoz qilinishi mumkin. Odatda kelajakdagi xarajatlarni baholashdagi xatolar, loyihani amalga oshirish muddatlarini belgilashdagi xatolarga nisbatan pastroq. Loyihani amalga oshirishni boshlash to'g'risida qaror qabul qilishda tavakkalchilik darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Tavakkalchilikning yo'l qo'yiladigan darajasini belgilash har bir korxonaga uchun strategik muhim hisoblanadi.

Shuni aniq bilib olish kerakki, tavakkalchilik har doim mavjud va undan qochib qutulib bo'lmaydi. Tavakkalchilik turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Misol uchun, foydali qazilmalarni qazib olish sohasida loyihani amalga oshirish texnologik jihatdan mumkin emasligi shaklida, ilmiy-texnik loyihalar uchun g'oyalarni samarasiz yoki eskirganligi shaklida, qishloq xo'jalik loyihalari uchun ob-havo sharoitlarini noqulay kelishi ehtimoli shaklida va hokazo.

Investitsiyaviy loyihaning amaldagi samaradorligiga, mamlakat iqtisodiyotida ro'y berishi mumkin bo'lgan inflyatsion jarayonlar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, ularni hisobga olish ayniqsa dolzarbdir.

Investitsiyaviy loyihalar murakkabligi va ularning majmuaviy xarakteri shunga olib keladiki, loyiha amalga oshirishning barcha sharoitlari va tavsiflarini rasmiy shaklda to'liq hisobga olish mumkin bo'lmaydi. Shu bilan birga loyiha ishtirokchilari manfaatlarining o'zaro mos kelmasligi, investitsiyaviy loyihalarni iqtisodiy baholashda bir nechta mezonlardan foydalanish zarurligiga olib keladi. Ushbu ishda investitsiyalarni kiritish va investitsiyaviy loyihalar samaradorligini hisoblash, hozirgi kunda mavjud va keng tarqalgan barcha uslublar yordamida atroflicha bayon etilgan.

1. INVESTITSİYALARNING MOHIYATI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.

Tayanch iboralar: investitsiyalar, tavakkalchilikli investitsiyalar, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, annuitet, uzoq va qisqa muddatli investitsiyalar, investitsiyalash manbalari, investitsiyaviy faoliyat ob'ekti va sub'ektlari, investitsiyalash tamoyillari.

1.1. Investitsiyalarning mohiyati va shakllari

«Investitsiya» atamasi, lotincha «invest» so'zidan olingan bo'lib, «qo'yilma» ma'nosini bildiradi. Yanada kengroq ta'rif beriladigan bo'linsa, investitsiyalar - bu kapitalni yanada ko'paytirish maqsadida amalga oshiriladigan kapital qo'yilmalardir. Bunda kapitalning ko'payishi, investor mavjud mablag'lar iste'molidan voz kechganini kompensatsiyalashi, tavakkalchilik uchun mukofotlashi va ushbu davrdagi inflyatsion yo'qotishlarni qoplash uchun yetarli bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining «Investitsiyaviy faoliyat to'g'risida»gi qonunida, «investitsiyalar» tushunchasi «iqtisodiyot yoki boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritilayotgan moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga egalik qilish huquqi» deb izohlangan.

Makroiqtisodiy darajada, investitsiyalar deganda, ishlab chiqarish vositalarini qayta ishlab chiqarish, uy-joy jamg'armasi va tovar zaxiralari o'sishini, ya'ni YAIMning joriy davrda iste'mol qilinmasdan, uni yanada ko'paytirishga yo'naltirilgan qismini nazarda tutadi.

Mikrodaraja va ishlab chiqarish nazariyasiga ko'ra, investitsiyalar deganda yangi kapital, shu jumladan ishlab chiqarish vositalari va intellektual salohiyat, qayta ishlab chiqarishni tashkil etish jarayoni tushuniladi.

Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori U.F.SHark (1990 y.) «investitsiyalash» atamasiga quyidagicha izoh beradi: «Ertaga daromad olish maqsadida, bugun pul sarflash», ya'ni investitsiyalarning mohiyati shundaki ular kapital harakati jarayoniga jalb qilingan. Ushbu kapital harakati natijasida olingan daromad nafaqat investorning barcha xarajatlarini qoplashi, balki unga tavakkalchilik uchun mukofot olib kelish ham lozim.

Demak, investitsiyalar - bu kelajakda iloji boricha ko'p va samaraliroq foydalanish maqsadida «olib qo'yiladigan» boyliklardir. Ularning bir qismini joriy davrda foydalanilmagan va zaxiraga olib qo'yilgan iste'mol mablag'lari (zaxiralarni ko'paytirish emas); ikkinchi qismini esa ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan resurslar (bino, inshoot, mashina va qurilmalarga qo'yilmalar) tashkil etadi.

Korxonalar har doim investitsiyalarga, ya'ni yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, mavjudlarini rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik jihozlanishini yaxshilash, foyda olish va boshqa maqsadlarni ko'zlagan holda, turli dastur va ayrim tadbirlarga mablag' (ichki va tashqi manbalardan) qo'yishga muxtoj bo'ladilar. Bu ishbilarmonlik va faoliyatning boshqa turlari ob'ektlariga foyda yoki ijtimoiy samara olish maqsadida qo'yiladigan pul mablag'lari, maqsadli bank jamg'armalari, paylar, aksiya va boshqa qimmatli qo'ozlar, texnologiyalar, mashina va uskunalari, litsenziyalar, shu jumladan tovar belgilari, kreditlar, istalgan boshqa mulk yoki mulkchilik xuquqi, intellektual boyliklarga ham.

Moliyaviy ta'rifi bo'yicha investitsiyalar - bu foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yiladigan mablag'larning barcha turlaridir; iqtisodiy ta'rif bo'yicha esa - asosiy va aylanma kapitalni yaratish, kengaytirish yoki qayta tiklash va texnik qayta qurollantirishga bo'lgan xarajatlardir.

Investitsiyalar turli xil belgilarga asosan turkumlanadi: asosiy kapitalni ko'paytirish zaruriyati bilan bo'lib, sof, va asosiy fondlar eskirishini qoplash zaruriyati tufayli yuzaga kelgan, yalpi investitsiyalar. Investitsiyalar yo'naltirilgan ob'ekti bo'yicha ham farqlanadi. Bunday ob'ektlar bo'lib mulk, moliyaviy vositalar, nomoddiy boyliklar xizmat qilishi mumkin. Ta'sir yo'nalishi bo'yicha: almashtirish, kengaytirish, fondlar tarkibini yangilashni ajratish mumkin. Maqsadlar va ular bilan bog'liq tavakkalchilik nuqtai-nazaridan investitsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- venchur (tavakkalchilikli);
- to'g'ridan-to'g'ri;
- portfel;
- annuitet.

Tavakkalchilikli investitsiyalar, yoki venchur kapitali deb, tavakkalchiligi yuqori bo'lgan kapital qo'yilmalarni ataydilar. Venchur kapitali - bu yuqori tavakkalchilik bilan bog'liq yangi faoliyat turlarida chiqariladigan yangi aksiyalarga investitsiya kiritishdir. Venchur kapitali asosan innovatsion va yangi texnologiyalar bilan bog'liq faoliyat turlarida uchraydi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar - foyda olish va boshqaruvda ishtirok etish maqsadida, xo'jalik faoliyati yuritayotgan sub'ekt ustav kapitaliga qo'yiladigan kiritiladigan qo'yilmalardir.

Portfel investitsiyalar - portfel shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlar (jamg'arma va depozit sertifikatlar, sug'urta polislar, va h.) ni sotib olishdan iboratdir.

Annuitet (nemischa annuitat-yillik to'lov) - investitsiya kirituvchi shaxsga bir xil vaqt oralig'ida muayyan daromad keltiradigan investitsiyalardir. Bunga asosan sug'urta va nafaqa jamg'armalariga mablag' qo'yishni misol tariqasida keltirish mumkin.

Tijorat amaliyotida investitsiyalarning quyidagi turlarini farqlash mumkin:

- moddiy aktivlarga kiritiladigan investitsiyalar;
- pul aktivlariga kiritiladigan investitsiyalar;
- nomoddiy (ko'rib bo'lmaydigan) aktivlarga kiritiladigan investitsiyalar.

Moddiy aktivlar deganda ishlab chiqarish bino va inshootlar, hamda xizmat muddati bir yildan ko'p bo'lgan mashina va uskunalar tushuniladi. Pul aktivlari deganda esa, boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan pul olish huquqlari tushuniladi (depozitlar, obligatsiyalar va h.) Nomoddiy aktivlarga, korxonadan orttirilgan intellektual boylik, savdo belgilari, litsenziya va nou-xaular kiradi.

Tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga investitsiyalar turli shakllarda oshiriladi. Shu munosabat bilan, investitsiyalarni taxlil qilish va rejalash-tirishda, ularni 1.1.-rasmda ko'rsatilgan belgilar bo'yicha turkumlashtirish muhim hisoblanadi.

1. Mablag' kiritish ob'ektlariga qarab real va moliyaviy investitsiyalar ajratiladi.

2. Investitsiya kiritishda ishtirok etish xarakteri bo'yicha bevosita va bilvosita investitsiyalar mavjud.

Bevosita investitsiya kiritish deganda, investitsiya ob'ektini tanlashda investorning o'zi bevosita ishtirok etishi tushuniladi.

Bilvosita investitsiya kiritishda esa, barcha operatsiyalar mas'ul shaxs (investitsiyaviy yoki boshqa moliyaviy vositachilar) yordamida amalga oshiriladi. Vositachilar yordamida investitsion va boshqa jamg'armalar xizmat qilishi mumkin.

1. Investitsiya kiritish davri bo'yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli (ayrim adabiyotlarda qisqa, o'rta va uzoq muddatli) investitsiyalar farqlanadi.

2. Qisqa muddatli investitsiyalar deganda muddati bir yilgacha bo'lgan kapital qo'yilmalar tushuniladi (misol uchun qisqa muddatli depozitlar, jamg'armalar va h.), uzoq muddatli investitsiyalar esa - bir yildan ortiq muddatga kiritilgan kapital qo'yilmalardir.

3. Mulkchilik shakli bo'yicha shaxsiy, davlat, chet el va qo'shma investitsiyalar mavjud.

4. Shaxsiy investitsiyalar - bu fuqarolar va davlat mulkiga tegishli bo'lmagan korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan kapital qo'yilmalardir.



1.1.-Rasm. Investitsiyalarning turli belgilar bo'yicha turkumlanishi.

Davlat investitsiyalari deganda byudjet va nobyudjet fondlari, hamda qarz mablag'lari hisobiga markaziy va mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, hamda o'zining shaxsiy va qarz mablag'lari hisobiga davlat korxonasi va tashkilotlari kiritadigan kapital qo'yilmalar tushuniladi.

Chet el investitsiyalari - chet ellik fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatlar tomonidan amalga oshiriladigan kapital qo'yilmalardir.

Qo'shma investitsiyalar - mazkur mamlakat va chet el davlatlari sub'ektlari tomonidan qo'shma ravishda amalga oshiriladigan investitsiyalardir.

5. Hududiy belgisi bo'yicha mamlakat ichidagi va mamlakat tashqarisidagi investitsiyalar farqlanadi.

Investitsiyalar o'z ob'ekti bo'yicha ham quyidagicha turkumlanishi mumkin:

- kapital (real aktivlarga);
- innovatsion (texnika va yangi texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqishga yo'naltirilgan);
- ijtimoiy (inson salohiyatini, ishlab chiqarish tajribasini rivojlantirish, nomoddiy boyliklarning boshqa shakllariga kiritiladigan).

Bundan tashqari, loyiha boshlanishida korxonasi xarid qilishda amalga oshiriladigan boshlang'ich yoki netto-investitsiyalar mavjud. Reinvestitsiyalar bilan birgalikda ular brutto-investitsiyalarni tashkil etadi.

Reinvestitsiyalar - yangi ishlab chiqarish vositalarini yaratish yoki xarid qilishga va boshqa maqsadlarda foydalaniladigan, qayta bo'shagan investitsiyaviy resurslardir. Bunday investitsiyalar mavjud ob'ektlarni yangilash, texnologik uskunalarni zamonaviylashtirish, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish, yangi bozorlarni tashkil etish va boshqa maqsadlarga yo'naltirilishi mumkin.

Ishlab chiqarishga, qimmatli qog'ozlarga va boshqa turdagi investitsiyalarni amalga oshirish quyidagi hollardagina maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ushbu qo'yilmadan olinadigan sof foyda, mablag'larni bank depozitiga qo'yish orqali olinadigan sof foydadan yuqori bo'lsa;
- investitsiyalar rentabelligi inflyatsiya darajasidan yuqori bo'lsa;

- pullarning vaqt oralig`idagi qiymatini hisobga olgan holda, mazkur loyiha rentabelligi, boshqa alternativ loyihalar rentabelligidan yuqori bo`lsa;

- loyiha amalga oshirilgandan so`ng korxonalar rentabelligi oshsa (yoki kamaymasa) va har holda qarz mablag`lari bo`yicha o`rtacha hisob stavkasidan yuqori bo`lsa;

- ko`rib chiqilayotgan loyiha, ishlab chiqarishning ratsional tuzilmasini shakllantirish, xarajatlarni qoplash muddatlari, moliyaviy manbalarning mavjudligi nuqtai-nazaridan korxonaning bosh maqsadlariga muvofiq kelsa.

Shuni ham ta`kidlab o`tish lozimki, mazkur umumiy tamoyillar bo`lishiga qaramasdan, u yoki bu xo`jalik faoliyatini yurituvchi sub'ekt uchun investitsiyaviy siyosatning asosiy mezonlarini aniqlash juda ham sub'ektiv va muayyan bosqichdagi strategik moliyaviy maqsadlarga bog`liq bo`ladi.

Ammo sub'ektivlikning har qanday darajasida investitsiyalar bo`yicha qaror qabul qilinayotganda, moliyaviy menejer pullarning vaqt oralig`idagi qiymatini, loyiha tavakkalchiligi darajasini, loyihaning alternativ loyihalardan ustunligini va boshqa ko`plab omillarni e`tiborga olishi lozim.

Shunday qilib, investitsiyalar to`g`risida qaror qabul qilish kutilayotgan daromadlilik va tavakkalchilik nisbati tahliliga asoslanadi. Shuning uchun ham, investitsiyalar mohiyati to`g`risida gap yuritayotganda, ularning turli xil tavakkalchilik va kutilayotgan daromadga bog`liq ekanliklarini esdan chiqarish lozim. Pullarning daromad olib kelish qobiliyati ularning kelib chiqish manbai va iste`mol yo`nalishlari, ya`ni pul qayerdan kirib kelishi va nimaga investitsiya sifatida qo`yilishiga bog`liq bo`ladi. Demak, kapital manbalarining ishonchlilik va mablag`larni to`g`ri investitsiya qilish o`rtasida uzluksiz aloqa kuzatiladi. Ushbu belgilari bilan investitsiyalar boshqa qo`yilmalardan farqlanadi.

Nazorat savollari:

1. Investitsiyalar deganda nimani tushunasiz?
2. Turli xil belgilar bo`yicha investitsiyalarning turkumlanishi.
3. Investitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbalarini sanab o`ting.
4. Investitsiyaviy faoliyatning ob'ekt va sub'ektlari.
5. Investitsiyaviy faoliyatning bazis tamoyillari.
6. Investitsiyalarni jalb etishning asosiy shartlari.

3. Investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati

Investitsiya faoliyatini tashkil etishda har bir mulk egasi ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni mohiyatini chuqur anglagan holda ish yuritishi kerak. Investitsiya faoliyati bilan shug`ullanuvchi mulk egasi tez o`zgaruvchan bozor iqtisodiyoti va uning ko`pqirrali munosabatlarini har tomonlama anglay bilishi lozim. Investitsiya faoliyatini yuritishda iqtisodiy axborotga tanlangan soha bir butun iqtisodiyot va mamlakat miqyosida marketing bilimlariga ega bo`lishi alohida ahamiyatga ega. Chunki barqarorlashmagan iqtisodiyotda investor pul muomalasi, moliya kredit va banklar, soliq siyosati mohiyatini chuqur bilmay turib, investitsiya faoliyatini tashkil etish tavakkalchilik bilan bog`liq bo`lib, qisqa davr ichidagi inqirozga uchrashi mumkin. Bozor munosabatlari rivojlangan yetuk jamiyatda investitsiya faoliyati quyidagi yo`nalishlarda olib boriladi:

- fuqarolar, davlatga qarashli bo`lmagan korxonalar, xo`jalik assotsiatsiyalari, jamoa va o`rtoqlik xo`jaliklari hamda jamoa mulkchiligi asosida tashkil etilgan diniy tashkilotlar, nodavlat korxonalar va muassasalari tomonidan;

- davlatni ma`muriy va boshqaruv bo`linmalari, tashkilotlari hamda davlat korxonalar va muassasalari tomonidan;

- chet el fuqarolari, xususiy firmalar, assotsiatsiyalar, kompaniyalar va huquqiy shaxslar hamda boshqa davlatlar tomonidan;

- qo'shma korxonalar ko'rinishida mahalliy va chet el fuqarolari, huquqiy shaxslar va davlatlar bilan hamkorlikda.

Mulkchilikni turli shakllarini rivojlanishi, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni yo'lga qo'yilishi, jahon iqtisodiy aloqalari taraqqiy etishi, qo'shma korxonalarni iqtisodiyotni barqarorlashtirishda roli ortishi, investitsiya faoliyatini to'la tashkil etish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni yaratadi. Mulkchilikning turli shakllari vujudga kelishi, o'z navbatida tadbirkorlikning rivojlanishi, chet el kapitalining kirib kelishi investitsiya faoliyatini tashkil etish yo'nalishlarini ham aniqlab beradi.

Investitsiya faoliyati to'rt asosiy yo'nalishlarda bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda, turli xil mulkdorlar tomonidan olib boriladi. Investitsiya faoliyatini tashkil etishning bu yo'nalishlari o'z navbatida bir nechta tip va shakllarda amaliyotga tatbiq etiladi.

Samara yoki daromad keltiradigan mulkiy va intellektual boyliklar, ya'ni investitsiyalar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

1. Pul mablag'lari, banklardagi maqsadli jamg'armalar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar;
2. Harakatdagi va harakatda bo'lmagan mulklar (binolar, inshootlar, asbob-uskunalar hamda boshqa moddiy boyliklar);
3. Mualliflik huquqi, nou-xaulardan tashkil topgan mulkdorlik huquqlari va boshqa intellektual boyliklar;
4. yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari hamda mulkchilik huquqlari;
5. Boshqa boyliklar.

Investitsiyalarning qayd etilgan turlari va shakllari asosida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa davlat tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlarni barcha investorlar tomonidan amaliy ravishda yo'lga qo'yish, mablag'lar sarflash va ularni amaliyotga tatbiq etish chora tadbirlarining yig'indisi investitsiya faoliyatini anglatadi. Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini fuqarolar, huquqiy shaxslar (korxonalar, firmalar, aksioner jamiyatlari va boshqa tipdagi mulk egalari) va davlat yuritadi. Investitsiya faoliyatini yo'lga qo'yishda har bir mulk egasi, birinchi navbatda o'z manfaatini ko'zlab yagona maqsadga, ya'ni foyda olish va samaraga erishishni rejalashtiradi.

Bozor sharoitida investitsiya faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish jismoniy, huquqiy shaxslarni va davlatni, foyda olish maqsadida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa faoliyatlarini qaytadan tiklashga qaratilgan. Bu boradagi asosiy maqsad investitsiya faoliyatini tashkil etib iqtisodiyotni inqirozdan olib chiqish, uni barqarorlashtirish, dunyo bozoriga kirib borish, jahon xo'jalik aloqalarini mustahkamlash va aholi turmush darajasini yaxshilashdir.

Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb etish yo'li bilan kreditlar evaziga, muomalaga, qonunchilikda belgilangan holda qimmatli qog'ozlar va zayomlar chiqarish hisobiga olib boriladi. Davlat mulkini xususiyashtirish tufayli mamlakat miqyosidagi manbalar tarkibida mablag'lar kamayib borishi kuzatilmoqda. Aksincha, turli mulk egalari mablag'lari, yangidan tashkil etilayotgan fondlarni ulushi, chet el investitsiyalarining miqdori ortib boradi. Albatta, bu borada har bir mamlakatning investitsiya siyosati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Investitsiya manbalarini tashkil etishda mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi, milliy valyuta birligini konvertlanishi, tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, aholi ehtiyojini ishlab chiqarish hisobiga qondirilishi va boshqalar muhim rol o'ynaydi.

Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishning muhim yo'nalishida qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Avvalambor, ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish, yangilik va ixtirolarni tatbiq etish asosida ijtimoiy talablarni qondirishga qaratilgan. Bu borada muvofiqlashtirishni tashkil etish investitsiya faoliyatini sharoitlarini aniqlash yo'li bilan davlat investitsiyalarini boshqarish bilan birga olib boriladi. Davlat tomonidan investitsiya faoliyati sharoitlarini muvofiqlashtirish bir qator chora va tadbirlarni qo'llash va hayotga tatbiq etish negizida amalga oshirilishi ko'zda tutiladi.

Hujjatda ko'rsatilgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- soliqlar tizimini qulaylashtirish. Soliq sub'ektlari, ob'ektlarini hamda uning miqdorlarini tabaqalash va yengilliklar berish;

- amortizatsiya siyosatini tubdan o'zgartirish, shu jumladan asosiy fondlar amortizatsiyasini tezlashtirish (iqtisodiyot sohalari, ba'zi tarmoqlari, asosiy fondlarning qismlari, asbob-uskunalar turlari bo'yicha tabaqalashgan holda amortizatsiya yangiliklari o'rnatiladi);

- ayrim mintaqalar, tarmoqlar, ishlab chiqarishlarni rivojlantirish uchun dotatsiyalar, subsidiyalar, subvensiyalar, byudjet ssudalari orqali moliyaviy yordam ko'rsatish;

- kredit siyosatini, davlat me'yori va andozalarini, yakka hokimlikka qarshi tadbirlarini amalga oshirish. Davlat mulkini, shu jumladan tugatilmagan qurilishlarni xususiy lashtirish (davlat tasarrufidan chiqarish) hamda baholarni tashkil etish siyosati;

- yer hamda boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish shart- sharoitlarini aniqlash;

- investitsiya loyihalarini tekshiruvdan o'tkazish.

Bugungi kunda yuqorida qayd etilgan chora va tadbirlarni hayotga tatbiq etish maqsadida respublikada bu borada bir necha qonunlar qabul qilindi. Afsuski, investitsiya faoliyatini to'la-to'kis ravishda muvofiqlashtirishni ma'lum ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra joriy etilishi qiyin bo'lmoqda. Ayniqsa, inflyasiya kuchaygan davrda hamda yangi banklar tizimi vujudga kelayotgan jarayonda kredit siyosatini bozor munosabatlariga moslashishi og'ir bo'lmoqda. Mustaqil mamlakatimiz o'z kredit siyosatini yuritish bo'yicha tajribasizligi hamda uni amalga oshirish, iqtisodiyotni zaiflashgan bir davriga to'g'ri kelishi munosabati bilan deyarli ta'sir ko'rsatganicha yo'q. Moliya siyosatini yurgizishda, shu jumladan, soliqlar tizimini takomillashtirishda ham anchagina ishlar qilinishi lozim. Bozor munosabatlari rivojlanayotgan davrda, investitsiya loyihalarini ekspertizalash sohasida ham tajriba yo'qligi tufayli ko'zlangan samaraga erishish to'la-to'kis ta'minlanganicha yo'q. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarishda ham anchagina muammolar yechilishi lozim. Respublikamizda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda davlatning e'tibori birinchi navbatda qayd qilingan muammolarni bartaraf etishga qaratilishi zarur.

Investitsiyalar yo'nalishlarini aniqlashda mavjud bo'lgan vaziyatni hisobga olish, O'zbekiston iqtisodiyotini qayta qurish, chet mamlakatlar bilan aloqalar mustahkamlanishi, jahon bozoriga o'z mahsuloti bilan chiqishni asosiy masala qilib olish lozimdir. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish masalasi investitsiya faoliyatini tashkil qilishni mavjud moddiy va moliyaviy resurslar bilan bog'langan holda olib borishni talab qiladi va ishlab chiqarish investitsiyalarini eng zarur bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilishini taqozo etadi. Bu borada ayniqsa, paxtachilik bilan bog'liq bo'lgan va tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish zarurdir. O'zbekiston sharoitida investitsiyalar yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga hamda namunaviy mashina, asbob-uskunalarini kirib kelishiga qaratilishi juda ham samaralidir.

Iqtisodiyotni inqirozdan chiqarishda uni barqarorlashtirishda hamda yuksak darajada rivojlantirish hayotiy masala investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda quyidagi savollarga javob berishdir: Kapital qo'yilmalar siyosati qanday olib borilishi lozim; davlat korxonalari va tashkilotlari tomonidan investitsiyalar qanday hajm va nisbatlarda o'zlashtirilishi kerak; boshqa mulkchilik shakllaridagi korxonalar investitsiyalarini nimalarga qaratishi kerak; chet el investitsiyalari birinchi navbatda qaysi tarmoqlarga qanday kirib kelishi zarur va boshqalar.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirishni muhim shartlaridan biri muomalada bo'lgan pul birligining qadrsizlanishini oldini olishdir. Investitsiya faoliyatidan olinadigan samarani ko'paytirish maqsadida investitsiyalar hajmini, yo'nalishlarini va manbalarini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birgalikda yangi moliyalashtirish, kredit bilan ta'minlash, bahoni tahlil qilish, soliqqa tortish tizimlarini takomillashtirishdir. Tarkibiy o'zgarishlarni o'tkazish maqsadida chet el investorlari uchun siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni yaratish, ularni qo'yilmalarini davlat tomonidan sug'urtalash, turli imtiyozlar berish muhim hisoblanadi.

Bozor infratarkibi rivojlanishi investitsiyalar bozorini tashkil etilishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida davlatning markazlashgan kapital qo'yilmalar siyosatiga o'zgarishlar kiritadi. Turli

mulkchilikni shakllanish munosabati bilan davlat investitsiyalarining ulushi, ularning hajmida anchagina pasayadi. Boshqa mulk turlari bo'yicha investitsiyalarning hajmi esa keskin o'sadi.

4. INVESTITSIYA FAOLIYATI OB'EKTLARI, SUB'EKTLAR VA INVESTITSIYA FAOLIYATI YO'NALISHLARI

1. Investitsiya faoliyati ob'ektlari va sub'ektlari.
2. Investitsiya faoliyati yo'nalishlari va shakllari.
3. Investitsiya jarayoni.
4. Investorlar tipi.

4.1. Investitsiya faoliyati ob'ektlari va sub'ektlari

Investitsiya faoliyatini tashkil etishda uning ob'ekt va sub'ektlari ishtirok etadi. Investitsiya sub'ektlari-investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatdir.¹ Investitsiya sub'ektlari orasidagi munosabatlar ishlab chiqarish xususiyatiga egadir. Kapital qo'yilmalar shaklida investitsiya faoliyatini amalga oshirish sub'ektlari quyidagilardir: investorlar, buyurtmachilar, pudratchilar, kapital qo'yilma ob'ektlaridan foydalanuvchilar va boshqalar.

Investorlar o'z mablag'i yoki jalb qilingan mablag' yordamida kapital qo'yilmalarni amalga oshiradi. Yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning birlashmasi, davlat organlari va chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar investor bo'lishlari mumkin.

Investorlar quyidagalarni amalga oshirishda teng huquqqa ega:

- kapital qo'yilmalar shaklida investitsiya faoliyatini amalga oshirishda;
- kapital qo'yilmalar hajmi va yo'nalishlarini mustaqil belgilash hamda investitsiya faoliyatining boshqa sub'ektlari bilan shartnomalar tuzishda;
- kapital qo'yilmalar hisobiga yaratilgan, sotib olingan ob'ektlarga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish;
- shartnoma yoki davlat shartnomasi orqali kapital qo'yilmalarni amalga oshirish va uning natijalariga bo'lgan huquqni yuridik va jismoniy shaxslarga, davlat va mahalliy hokimiyatga o'tkazish;
- imzolangan shartnomalar asosida birgalikda kapital qo'yilmalarni amalga oshirish uchun o'zining va jalb qilingan mablag'larni boshqa investorlarning mablag'lari bilan birlashtirish;
- kapital qo'yilmalarga yo'naltirilgan mablag'larni maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish.

Buyurtmachilar - investorlar tomonidan investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun vakil etilgan yuridik va jismoniy shaxslar. Shu bilan birga, ular investitsiya faoliyati sub'ektlarining tadbirkorlik faoliyatiga aralashmaydilar. Buyurtmachilar rovida investorlarning o'zlari ham namoyon bo'lishlari mumkin. Investorlar bo'lmagan buyurtmachilar esa shartnomada belgilangan tartibda va davrda kapital qo'yilmalarga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqiga ega bo'ladilar.

Pudratchilar - yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, ular buyurtmachilar tuzgan shartnomalar asosida ishlarni bajaradilar. Pudratchilar qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish uchun ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo'lishlari kerak. Qurilish faoliyatini litsenziyalash qurilish mahsulotlari iste'molchilarini huquqlarini himoyalash maqsadida amalga oshiriladi.

Kapital qo'yilma ob'ektlaridan foydalanuvchilar - bular yuridik va jismoniy shaxslar hamda davlat organlari, mahalliy hokimiyat, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar bo'lib, ushbu ob'ektlar ular uchun yaratiladi.

Investorlar kapital qo'yilma ob'ektlaridan foydalanuvchilar rovida namoyon bo'lishi mumkin. Investitsiya faoliyati sub'ekti uning ikki va undan ortiq funksiyalarini qo'shib olib borish imkoniyatini beradi. Investitsiya faoliyati sub'ektlari davlat organlari tomonidan qo'yilgan talablarni bajarishi hamda maqsadli ravishda kapital qo'yimlardan foydalanishi zarur.

Investitsiya faoliyati investor tomonidan tanlangan sohalar hamda investitsiyalar sarflanishi lozim bo'lgan maqsadlar bilan ya'ni investitsiya ob'ektlari bilan bog'liqdir.

Investitsiyalarni yo'naltirish sohalarini, ishlab chiqarishda ishtiroki va sarflanish ishlariga binoan investitsiya faoliyatining quyidagi ob'ektlarini farqlash mumkin:

- xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi yangidan yaratilgan va modernizatsiyalashtirilgan (yangilangan) asosiy fondlar va aylanma mablag'lari;
- fan-texnika mahsulotlari, izlanishlar, ta'limot, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;
- intellektual g'oyaviy boyliklar, mualliflik, ixtiro, kashfiyot huquqlari, tajriba;
- qimmat baholi qog'ozlar, maqsadli pul jamg'armalari;
- boshqa mulkchilik ob'ektlari;
- mulkiy huquqlar.

Qonun va qonuniyatlarda taqiqlangan ekologik va boshqa me'yorlarga, sanitariya-gigiena talablariga javob bermaydigan, yaratilishi va ishlatilishi mumkin bo'lmagan vositalar uchun investitsiyalarni yo'naltirish man etiladi va bu ishlar investitsiyalarni sarflash ob'ekti bo'la olmaydi. Fuqarolar, huquqiy shaxslar va davlatni qonuniy manfaatlariga putur yetkazadigan ishlar uchun ham investitsiyalar sarflash man etiladi.

Investitsiyalarni jalb etish va sarflash sohalariga asosan, investitsiya faoliyati ob'ektlarining turkumini tuzish mumkin. Investitsiya faoliyati ob'ektlari turkumi investitsiyalarni sarflanish sohalariga binoan quyidagi 1-chizmada ko'rsatilgan.



1-chizma

Investitsiya faoliyatida sohalaridan birini yoki bir nechtasini tanlab olish huquqiga investorlarning o'zlari ega bo'ladilar. Ularni hech kim soha yoki investitsiya ob'ektlarini tanlashga majbur eta olmaydi. U yoki bu sohani tanlashda va investitsiyalarni ma'lum bir sohaga sarflashdagi qarorlarni investorlarning o'zlari qabul qiladilar. Investitsiya faoliyati sub'ektlari bir investor, bir nechta tadbirkorlik va boshqa faoliyat bilan shug'ullanuvchi ishtirokchi investorlar bo'lishi mumkin. Investitsiya faoliyatidagi sub'ektlar investorlar bo'lib, mahalliy va chet ellik fuqarolar, huquqiy shaxslar yoki davlat hisoblanadi. Investitsiyalarni amalga oshirishni esa qabul qilingan buyurtmalarni

bajaruvchisi sifatida, investorni topshirig'i asosida investitsiya faoliyatini ishtirokchilari ta'minlaydilar.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun ular fuqarolarni va huquqiy shaxslarni o'z xohishlari bilan shartnomalar asosida jalb qiladilar.

Qonunlarga tayangan holda shartnomalar asosida investitsiyalarga ega bo'lish, ulardan foydalanish va ushbu faoliyat natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilishni investorlar, boshqa fuqaro va huquqiy shaxslar zimmasiga topshirish to'g'risida qarorlar qabul qilishlari ham mumkin. Bunday hollarda majburiyat garovi sifatida (investorning majburiyatini ta'minlash) investorning mulki qabul qilinadi. Garovga faqat qarzga oluvchining shaxsiy mulki yoki to'la xo'jalik olib borish huquqiga ega bo'lgan mulk qo'yiladi.

Investorlar investitsiya natijalariga, investitsiya ob'ektlariga ega bo'lish, foydalanish, farmoyish chiqarish va reinvestorlash huquqlariga egadir.

Investitsiya faoliyatidagi jarayonda sub'ektlar o'rtasida bo'ladigan munosabatlar shartnomalar asosida muvofiqlashtiriladi. Shartnomalar tuzish, sheriklarni tanlash, majburiyatlarni aniqlash va boshqa xo'jalik munosabatlarini o'rganish ular qabul qilgan qonunlarga zid bo'lmasa, faqat investitsiya faoliyati sub'ektlari zimmasida bo'ladi. Har ikki tomonning kelishuviga binoan, shartnomalar investitsiya faoliyatining umumiy muddatiga tuziladi.

Qabul qilingan qonunlarda investorning qator majburiyatlari bor. ¹Bu majburiyatlar davlat idora va muassasalari oldida bajarilishi lozim bo'lib quyidagilardan iboratdir:

- investorlar investitsiyalar hajmi va ularning manbalari to'g'risida moliya organlariga deklaratsiya topshirishlari lozim.

- kapital qo'yilishni amalga oshirish uchun, tegishli rahbar va maxsus xizmat organlari tomonidan ruxsat olinishi kerak;

- investitsiya loyihasining sanitariya-gigiena va ekologik talablarga javob berishi to'g'risida ekspertiza xulosasiga ega bo'lishi shart.

Yuqorida qayd qilinganlardan tashqari, investitsiya sub'ektlarining majburiyatlariga quyidagilar ham kiradi:

- vijdonan raqobat qilish va yakka hokimlikka qarshi muvofiqlashtirish talablarini bajarish;

- davlat, rahbar xodim va organlar tomonidan yuklatilgan talablarni baholash va ularga bo'ysunish;

- belgilangan tartibda buxgalterlik va statistik ma'lumotlar hamda hisobotlarni tegishli idoralarga o'z vaqtida yetkazib berish.

Bulardan tashqari investitsiya faoliyatining har bir ishtirokchisi maxsus ishlarni bajarish uchun litsenziyaga ega bo'lishi lozim. Litsenziya olish uchun bajarish lozim bo'lgan ishlarni ro'yxati va ularni amalga oshirish tartibi mumkin qadar qonunchilikda belgilanadi.

Investitsiyalashning asosiy bosqichlari quyidagilardir:

1) resurslarni kapital xarajatlariga aylantirish, ya'ni investitsiyalarni aniq investitsiya faoliyati ob'ektlariga investitsiyalash;

2) qo'yilgan mablag'larni kapital qiymatining o'sishiga aylantirish, bu investitsiyalarni pirovard iste'moli va yangi iste'mol qiymatini olish bilan harakatlanadi;

3) kapital qiymatini foyda ko'rinishida o'sishi, ya'ni investitsiyalashning yakuniy maqsadi amalga oshiriladi.

Shunday qilib, boshlang'ich va yakuniy bo'g'inlari birlashib, yangi o'zaro bog'liqlikni yaratadi, daromad-resurs-yakuniy natija (samara), ya'ni jamg'arish jarayoni qayta takrorlanadi.

Kapitalni o'sish manbasi va investitsiyalash maqsadida amalga oshirilayotgan loyihalardan olinadigan daromaddir.

¹ Влинские П.Л., Левшец В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов: Теория и практика: Учебное пособие. -3-е изд. -М.: Дело, 2004.

Amaliyotda investitsiyalarning samaradorligini (IS) aniqlash uchun foyda massasining (F) investitsiya xarajatlariga (IX) bo'lgan nisbati foiz ko'inishida olinadi.


Investitsiya xarajatlarini foyda bilan solishtirish jarayoni doimiy ravishda investitsiyalash amalga oshgunga qadar (investitsion loyihaning biznes-rejasi ishlab chiqarish davrida), investitsiyalash davrida (ob'ektni qurilishi davrida) va investitsiyalashdan so'ng (yangi ob'ektdan foydalanish davrida) davom etadi.

4. Investitsiyalar manbalari.

Umuman olganda, korxonalar moliyaviy resurslarining barcha manbalarini quyidagi ketma-ketlikda aks ettirish mumkin:

- o'z shaxsiy moliyaviy resurslari va ichki xo'jalik zaxiralari;
- qarz moliyaviy mablag'lari;
- aksiyalarni sotish, pay va boshqa turdagi badallardan olinadigan, jalb qilingan moliyaviy mablag'lar;
- korxonalar uyushmalari tomonidan markazlashtirilgan moliyaviy mablag'lar;
- nobyudjet fondlari mablag'lari;
- davlat byudjeti mablag'lari;
- chet el investorlari mablag'lari.


O'z moliyaviy resurslari. O'z moliyaviy resurslarining tuzilmasi 1.2.-rasmda keltirilgan.



1.2.-Rasm. O'z moliyaviy mablag'lar tuzilmasi

O'z va qarz moliyaviy mablag'lar o'rtasidagi asosiy farq shundaki, foiz to'lovlari soliq to'lagunga qadar chegirib tashlanadi, ya'ni yalpi xarajatlarga kiritiladi, dividendlar esa foydadan to'lanadi.

Qarz moliyaviy mablag'lar. Qarz moliyaviy mablag'larning tuzilmasi 1.3.-rasmda aks ettirilgan.




1.3.-Rasm. Qarz moliyaviy mablag`larning tuzilmasi.

Investitsiyalarning ichki manbalari.

O'zbekistonda kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish ichki manbalar va chet el kredit liniyalarining resurslari hisobiga amalga oshirilgan.

Investitsiyalarning ichki manbalari 1.4.-rasmda ko'rsatilgan.

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishning ichki imkoniyatlari ahvoliga ta'sir etuvchi asosiy omil bo'lib, moliyaviy-iqtisodiy barqarorsizlik hisoblanadi. Bunga qaramasdan, ichki investitsion salohiyat yetishmasligini nisbiy deb qarash mumkin.



1.4.-Rasm. Investitsiyalarning ichki manbalari.

Investitsiyalarning tashqi manbalari.

O'zbekistonda chet el investitsiyalari quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- chet el kapitalining ulushli ishtiroki bilan qo'shma korxonalar tuzish;
- to'liq chet el investorlariga tegishli korxonalar, ularning filiallari va vakolatxonalarini tuzish;
- chet el investori tomonidan korxonalar, bino, inshootlar, korxonalaridagi ishtirok ulushlari, aksiya va obligatsiyalarni sotib olish;
- yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqini va boshqa mulkchilik huquqlarini sotib olish;
- zayom, kredit, mulk va mulkchilik huquqlarini taqdim etish.

Asosiy muammo chet el kapitalining samarali oqimini rag'batlantirishdan iborat. Ushbu munosabat bilan quyidagi ikkita savolga aniq javob topish lozim: qaysi sohalarga chet el investitsiyalari kirib kelishi chegaralanishi, qaysi sohalarga esa ularni birinchi navbatda jalb qilish lozim?

Bevosita kirib kelgan chet el investitsiyalari, bu faqatgina iqtisodiyotga kiritilgan oddiy kapital qo'yilma emas, balki o'zbek korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini va texnik darajasini oshirishning birdan-bir yo'li hamdir. O'zbekiston o'z kapitalini joylashtirish orqali chet el kompaniyasi yangi texnologiyalar, ish faoliyatini tashkil etishning yangi uslublari va jahon bozoriga chiqish imkoniyatini ham olib keladi.

5. Investitsiyaviy faoliyat tamoyillari. Investitsiya jalb qilish shartlari.

Qo'yilmalarning yanada yuqoriroq samarasiga erishish uchun investitsiya kiritishning bazis tamoyillari mavjud.

1. Investitsiya kiritishning chegaraviy samaradorligi tamoyili.

Har bir korxonada, ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga bo'lgan xarajatlarni kamaytirgan holda maksimal daromad olishga intiladi. Korxonada o'z faoliyatini keyinchalik ham davom ettiradi, agarda ishlab chiqarishning mavjud darajasida uning daromadi ishlab chiqarish xarajatlaridan yuqori

bo'lsa. Aks holda esa, ya'ni tovar sotishdan olingan umumiy daromad ishlab chiqarish xarajatlaridan yuqori bo'lmasa, korxonada faoliyati to'xtatiladi.

Agarda bitta qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishdan olinadigan daromad, uni ishlab chiqarish xarajatlaridan yuqori bo'lsa, korxonada mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishi lozim. Agarda bitta qo'shimcha mahsulotdan olingan daromad ishlab chiqarish xarajatlariga teng bo'ladigan bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Agarda korxonada ishlab chiqarishni davom ettirish to'g'risida qaror qabul qilgan bo'lsa, u shuncha mahsulot ishlab chiqarishi kerakki, chegaraviy xarajatlarga chegaraviy daromadga teng bo'lsin. Ushbu shartlar universal xarakterga ega bo'lib, mulkchilikning istalgan shakli, bozorning istalgan tuzilmasiga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Ishlab chiqarishga kapital qo'yish samaradorligi, kamida ikkita omilga bog'liq bo'ladi:

- ishlab chiqarish xarajatlarini oshirish sur'ati (asosan texnologiya tomonidan belgilanadi);
- ishlab chiqarishni monopollashganlik darajasi.

2 *Qoplash tamoyili.*

Ushbu tamoyil investitsiya kiritishda samaradorlikni baholashga yangi yondashuvni belgilash imkonini beradi. Investitsiya kiritishdagi qaror qabul qilish erkinligi, ularni amalga oshirishdagi erkinsizlik va cheklashlarga o'z o'rnini bo'shatadi.

Misol uchun, nima sotib olish kerak, nima ishlab chiqarish kerak, qancha summani kreditga olish lozim, qancha muddatga va qaysi foizlarda va hokozolar to'g'risida qaror qabul qilishda korxonada erkinlikga ega. Ammo ushbu jarayonlar amalga oshirilgandan so'ng orqaga qaytish juda ham qiyin. Uskuna xarid qilingandan so'ng uning pulini qaytarish uchun undan bir necha yil davomida foydalanish lozim, kredit shartnomasi bo'yicha pul mablag'lari ajratilgandan so'ng ular bo'yicha foizlarni to'lash shartdir. Shuning uchun, investitsiyaviy loyiha o'z kuchiga kirgandan so'ng, faoliyat erkinligi ancha cheklanadi. Albatta xarid qilingan uskuna yoki texnologiyalarni qaytarib berish yoki uchinchi shaxslarga sotish mumkin, lekin bu yo'qotishlar bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham investitsiyaviy loyihadagi mumkin bo'lgan hatolarni oldindan hisob kitob qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

3. *Kapital qo'yilmalar samaradorligining moddiy va puldagi bahosini o'zaro muvofiqlashtirish tamoyili.*

Samaradorlikni baholashning uch xil varianti mavjud:

- xarajat va ishlab chiqarishning nisbiy narxlarini taqqoslash orqali, ya'ni faqatgina pul bilan baholash. Tajribalarning ko'rsatishicha, samaradorlikni faqatgina pul hajmi bilan baholash noto'g'ri bo'ladi, ayniqsa prognoz (bashorat) qilib bo'lmaydigan inflyatsiya sharoitida;
- samaradorlikning pul va texnik omillarini o'zaro muvofiqlashtirish orqali. Gap shundaki, investitsiyaviy loyihaga kiritilgan texnologiyalar ham katta rol o'ynaydi;
- loyihaning bozor (qiymat) bahosini hisobga olmaydigan texnik yondashuv, bunday yondashuvdan O'zbekiston sharoitida deyarli foydalanilmaydi;

4. *Moslashuv xarajatlari tamoyili.*

Moslashuv xarajatlari - bu yangi investitsiyaviy muhitga moslashish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlardir. Bularga ishlab chiqarishni qayta tashkil etish, xodimlarni qayta o'qitish, bozor kon'yunkturasiga moslashish va shunga o'xshash xarajatlarni kiritish mumkin. Vaqt yo'qotish daromad yo'qotish deb qabul qilinadi. Har doim ham investitsiyaviy loyiha to'g'risida qaror qabul qilishdan uni amalga oshirishgacha bir oz vaqt o'tadi. Birdaniga moslashib ketish deyarli mumkin emas.

Moslashuv uchun to'lov sifatida, joriy pul oqimining keskin kamayishini hisobga olish mumkin. Hattoki aksiya va obligatsiyalarni ham, ularni bozor qiymati tushib ketayotgan vaqtda foyda bilan sotib bo'lmaydi. Vaqtdan yo'qotish kapitalni ishsiz qolishi va daromadning kamayishiga olib keladi. Ishlab chiqarishga investitsiya kiritishning moslashuv xarajatlari esa yanada yuqori bo'ladi.

Faraz qilaylik uskunalar o'rnatilgan, ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan bir vaqtda bozor kon'yunkturasi o'zgardi va texnologiyalar, demak mavjud uskunalarni ham, almashtirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Misol uchun, qo'l mehnatini mashina mehnatiga almashtirish. Bu ma'lum moslashuv xarajatlariga olib keladi, ular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- kadrlarni qayta tayyorlash;
- eski uskunalarni sotish va yangisini xarid qilib olish;
- shtat qisqarishi munosabati bilan ishsiz qolgan xodimlarga kompensatsion to'lovlarni amalga oshirish;

- o'z kuchini yo'qotmagan shartnomalar bo'yicha jarimalar to'lash va h

Shuning uchun ham moslashuv xarajatlarini, mahsulot tannarxiga kiritish lozim. Ushbu xarajatlar qiymati xom-ashyo, materiallar va texnologiyalar qiymatidan qanchalik yuqori bo'lsa, kapital qo'yilmalarni amalga oshirish shunchalik foydali bo'ladi. Mahsulotga bo'lgan talab qanchalik yuqori bo'lsa, korxonalar shunchalik katta moslashuv xarajatlariga yo'l qo'yishi mumkin. Tajribalarning ko'rsatishicha, talab narxi taklif narxidan qanchalik ko'p vaqt mobaynida yuqori bo'lsa, investitsiya kiritish ham, moslashuv xarajatlariga qaramasdan, shunchalik samarali bo'ladi.

5. Multiplikator (ko'payuvchi) tamoyili.

Multiplikator tamoyili tarmoqlarning o'zaro aloqasiga suyanadi. Bu degani, misol uchun avtomobillarga bo'lgan talabning oshishi, texnologik jihatdan ishlab chiqarish uchun lozim bo'lgan tovarlarga bo'lgan talabning oshishiga ham olib keladi. Ya'ni ishlab chiqarish texnologiyasini bilish, korrelyatsiya koeffitsientini aniq hisoblash imkonini beradi.

Multiplikator muayyan ta'sirning kuchini oldindan bilish, ushbu axborotdan samarali foydalanish, va foyda keltirmayotgan investitsiyalardan voz kechib, kon'yunkturadan ilgarilagan holda yangi faoliyat turi bilan shug'ullanishga imkon beradi.

Multiplikator ta'sirini keltirib chiqargan tarmoq mahsulotiga bo'lgan talabning susayishi, multiplikator samarasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bundan tashqari, multiplikator samarasi vaqt o'tishi bilan asta-sekin o'z kuchini yo'qotib boradi. Keyinchalik esa boshqa tarmoq mahsulotiga talab oshishi va bunday holat investitsiyalar kiritish strategiyasiga o'zgartirishlar kiritishga olib kelishi mumkin.

6. Q - tamoyili.

Bu aktivni fond birjasida baholanishi va uning real tiklanish qiymati o'rtasidagi bog'liqlikni belgilashdir. Bunday bog'liqlik ko'rsatkichi Q-nisbatdir:

$Q = \text{Ishlab chiqarilayotgan moddiy aktivlarning birja bahosiga nisbati}$

Agarda nisbat birdan katta bo'lsa, investitsiya kiritish foydali hisoblanadi. Nisbat birdan qanchalik katta bo'lsa, investitsiya kiritish shunchalik foydali bo'ladi. Shu tarzda, uylarning bozor (birja) bahosining ularning joriy qiymatiga nisbatan o'sishi, uy-joy qurilishini rag'batlantiradi, chunki bozordagi narx joriy xarajatlarni to'liq qoplaydi.

$Q = \text{Butun korxonaning birja qiymatini uning moddiy qismini qoplash xarajatlariga nisbati}$

Umuman olganda, davlat tomonidan tartibga solish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ushbu tamoyildan shunchalik kam foydalaniladi. Demak, davlat tomonidan tartibga solinish darajasi kamayib, korxonalar asosiy va aylanma kapitali qiymatini baholash va qayta baholashda tovar-xom-ashyo va fond birjalarining roli oshib borishi bilan, investitsiyalar samaradorligini baholashga bo'lgan bunday yondashuv ahamiyati ham ortib boradi.

Tajribalarga qaraganda Q-tamoyilidan transport, avtomobilsozlik, aviasozlik, rangli metallurgiya kabi sanoat tarmoqlarida foydalanish ayniqsa yaxshi natijalarga olib keladi, va neft qazib olish, gaz tarmog'i kabi davlat tomonidan tartibga solinadigan tarmoqlarda umuman qo'llanilmaydi.

Investitsiyalarni jalb etish samaradorligi

Turli manbalardan moliyaviy resurslarni jalb etishning mumkin bo'lgan hajmiga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib quyidagilar xizmat qilishi mumkin:

- korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli;
- korxonalar o'lchami (o'z aktivlari hajmi);
- o'z kapitali konsentratsiyasining (mujassamlanishining darajasi);
- kapital bozori kon'yunkturasi;
- moliyalashtirish manbasini tanlash erkinligi;
- mablag'larni jalb etishda vaqt va miqdor cheklanishlari.

Vaqt cheklanishlariga quyidagilar kiradi:

- moliyalashtirish mablag`lariga ega bo`lish muddati;

- moliyalashtirish mablag`lari jalb etilgan muddat;

Miqdor cheklanishlari investitsiyalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag`lar hajmiga bog`liq bo`ladi; u quyidagi shartlar bilan belgilanadi:

- investitsiyalarni moliyalashtirishdagi korxonalar ehtiyojlari;

- korxonaning yetarlicha moliyaviy mustahkamligini ta'minlash zaruriyati;

- jalb etilayotgan mablag`lar qiymati;

- mavjud ta'minot hajmi.

Nazorat savollari:

1. Investitsiyalar deganda nimani tushunasiz?
2. Turli xil belgilar bo`yicha investitsiyalarning turkumlanishi.
3. Investitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbalarini sanab o`ting.
4. Investitsiyaviy faoliyatning ob'ekt va sub'ektlari.
5. Investitsiyaviy faoliyatning bazis tamoyillari.
6. Investitsiyalarni jalb etishning asosiy shartlari.

6. Iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning o`rni

1. Investitsiya haqida tushuncha
2. Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi
3. Xorijiy investitsiyalar va ularni jalb qilinish sabablari
4. O`zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli
5. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari


O`zbekiston Respublikasida investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991 yildan boshlab qabul qilingan bo`lib, ular o`tgan vaqt ichida ancha takomillashtirildi. O`zbekiston Respublikasining «Investitsiya to`g`risida»gi qonunida ko`rsatilishicha, «investitsiya bu - iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag`lari, banklarga qo`yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog`ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar, as mavzu-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir»². Bu iqtisodiy ta'rif investitsiyaning bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos kelishini to`lalgicha tasdiqlaydi. Jumladan, unda, birinchidan, investitsiyaning o`ziga va investitsiya faoliyatining ob'ektlariga keng ta'rif berilgan. Ikkinchidan, investitsiyaning bevosita iqtisodiy va ijtimoiy samara olishga muqarrar bog`liqligi ta'kidlab o`tilgan.

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so`zidan kelib chiqqan bo`lib «qo`yish», «mablag`ni safarbar etish», «kapital qo`yilmasi» ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya mablag`ni ko`paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko`pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. Investitsiya deyilganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga yo`naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad

² O`zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to`g`risida»gi Qonuni, 30.04.1998 y.

olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Investitsiyalashda aylanma kapitalga ustuvorlik berilishini faqat kapitalning tarkibiy tuzilishi bilan tushuntirish yetarli emas. Gap shundaki, dastlabki kapital jamg'arish davrida pulni tez to'plash uchun uni kapital aylanishi tez sohalarga joylashtirilishi yuz beradi, chunki bunda yuqori foyda me'yori yuzaga keladi. Foyda me'yori yuqori joyda esa, uni kapitallashtirish imkoni katta bo'ladi. Bu omil ham xususiy sektorda pulni aylanma kapitaliga aylantirish uchun rag'bat yaratadi. Bozor talablariga binoan tejamli xo'jalik yurita bilmaslik tannarxning ortishiga olib keladi, bu narx o'zgarmagan sharoitda ham zararga olib keladi. Bu albatta, investitsiyalarni o'z mablag'i hisobidan ta'minlash imkonini cheklab ko'yadi.



Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, bu faoliyat sub'ektlarini sug'urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo'lida tashkil etiladi. Investitsiya munosabatlarining mohiyati bu faoliyat ishtirokchilari doirasida va darajasida o'z ifodasini topadi. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinishining asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- 1) Investitsiya faoliyatining qonunchilik negizini takomillashtirish.
- 2) Soliq to'lovchilar va soliq solish ob'ektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash.
- 3) Normalar, qoidalar, standartlarni belgilash.
- 4) Monopoliyaga qarshi choralarni qo'llash.
- 5) Kredit siyosati va narx siyosatini o'tkazishga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash.
- 6) Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash.

Investitsiya faoliyatini tartibga solish, huquqiy nuqtai nazaridan, turli mulkdorlar o'rtasida moddiy va nomoddiy aktivlarni takror ishlab chiqarish xususidagi o'ziga xos, murakkab, ijtimoiy zarur iqtisodiy (investitsiya) munosabatlarini shakllantirish me'yorlarini nazarda tutadi. Investitsiya jarayonining barcha sub'ektlari – chet ellik investorlardan boshlab, davlat, yuridik va jismoniy, shu jumladan chet ellik shaxslar (rezidentlar va nerezidentlar)gacha bu munosabatlarning ishirokchilariga aylanadilar. Huquq nuqtai nazaridan chet el investitsiyalari boshqa davlat hududida kapitalga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish bilan bog'liq. Iqtisodiy nuqtai nazardan esa ularning hududiy, zamon va makondagi harakati ko'pdan-ko'p qo'shimcha risklar bilan to'qnashish ehtimoliga ega bo'ladi. Respublikada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish birinchi navbatda davlatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirish maqsadlarini ko'zlaydi.

Davlat xorijiy investitsiyalarni tartibga solishning quyidagi usullaridan foydalanadi:

1) moliyaviy: jadallashtirilgan amortizatsiya; soliq imtiyozlari; subsidiyalar, qarzlar berish; kreditlarni sug'urtalash va kafolatlash;

2) nomoliyaviy: yer uchastkalari ajratish; zaruriy infratuzilma ob'ektlari bilan ta'minlash; texnik yordam ko'rsatish.

Bir davlatdan boshqa davlatga daromad olish uchun yo'naltirilgan har qanday shakldagi mulkni to'la qonli ravishda xorijiy investitsiya deyishimiz mumkin. Ammo shunday mulk shakllari borki, biz ularni xorijiy investitsiya deya olmaymiz. Masalan, elchixonada chet davlat mulki hisoblanadi, yoki xorijiy fuqaro shaxsiy uy sotib olsa bu xorijiy shaxs mulki hisoblanadi, lekin xorijiy investitsiya bo'la olmaydi.

Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

1998 yil 30 aprelda qabul qilingan «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida «Chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi».³ Xorijiy investitsiyalarining umumiy ta'rifi F. Xeniusning 1947 yil AQShda chop etilgan tashqi savdo lug'atining 2-nashrida quyidagicha berilgan: «Xorijiy investitsiyalar – bu bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport kilingan investitsiyalar»⁴.

Chet el investitsiyalari deyilganda chet mamlakatlarning milliy iqtisodiyotga moddiy, moliyaviy va nomoddiy ko'rinishidagi muddatli qo'yilmalarning barcha shakllari tushuniladi. Bu quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: qo'shma korxonalarni tashkil qilishda o'z ulushi bilan qatnashish, xorijiy sarmoyadorlarga to'la tegishli bo'lgan korxonalarni barpo etish, xorijiy shaxslar tomonidan qimmatli qog'ozlarni, shuningdek, zayom va kreditlar olish.

O'zbekistonda ham investitsiya loyihalarni tuzish va moliyalashtirish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlar ishlab chiqilmokda.

Ularning negizida ikkita asosiy omil yotadi:

-iqtisodiy barqarorlik;

-inflyasiya jarayonlarini tartibga solish va milliy valyuta-so'mning to'lov qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya loyihalarini tuzish va ularni moliyalashtirish bo'yicha quyidagi omillar mavjud:

-investitsiya loyihalari bilan shug'ullanuvchi shaxslarni rag'batlantirish;

-sanoatning ustuvor sohalari, yoqilg'i, energetika majmualari bo'yicha investitsiya loyihalarini

³ O'zbekistonning yangi qonunlari. 19-son,-T.: Adolat,1998.532-bet.

⁴ Dictionary of Foreign Trade. by F.Henus Sec/ Ed. N4.,1947, P.387.

tuzishni jadallashtirish;

-iqtisodiyotda ilm fanga talab kuchli tarmoqlarida ishlab turgan quvvatlarni yangilash va yangilarini barpo etish bo'yicha intellektual investitsion loyihalarni amalga kiritilishi.

Nazorat uchun savollar

1. Xorijiy investitsiya tushunchasiga ta'rif bering.
2. Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tushuntirib bering.
3. Investitsiya munosabatlari davlat tomonidan qanday qilib tartibga solinadi?
4. Xorijiy investitsiyalarning mohiyatini yoritib bering va ularni jalb qilinish sabablari tushuntirig.
5. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar qanday ahamiyat kasb etadi?
6. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning qanday manbalari mavjud?

7. Qishloq xo'jaligi korxonalarida investitsion faoliyat

Bozor iqqisodi sharoitida investitsiya mablag'lari yangi, samarali texnologiya hamda intellektual mulkni barpo etishga xizmat qiladi. Investitsiya mablag'lari doimiy va o'zgaruvchan kapitalni hamda intellektni barpo etish, uni rivojlantirish uchun sarflanadi. Fermer xo'jaligi daro- madlarining bir qismi asosiy vositalarini sotib olish, qurish hamda ularni kapital ta'mirlashga sarflanadi. Asosiy kapitalga kiritilgan sarmoya **investitsiya** deb ataladi. Investitsiyalar fermer xo'jaligining moddiy-texnika bazasini yaratib, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, kimyo- lashtirish, elektrlashtirish, irrigatsiya-melioratsiyalash natijasida sarf-xarajatlarni kamaytirib, mahsulotlar hajmini ko'paytirish va sifatini yaxshilash orqali daro- madni oshirishdan iborat.

Investitsiya mablag'laridan samarali foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslari haqida O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonunlari qabul qilingan. Unda investitsiyalar maqsad va vazifalariga ko'ra, 3 ga bo'linadi: **1. Kapital investitsiyalar** asosiy fondlarni barpo etishga, takror ishlab chiqarishga va moddiy ishlab chiqarishning barcha shakllarini rivojlantirishga sarflangan investitsiyalardir. **2. Innovatsiya investitsiyalari**, texnika, texnologiyalar yangi avlodini yaratish va o'zlashtirishga sarflangan investitsiyalarga aytiladi. **3. Ijtimoiy investitsiyalar** in son salohiyatini, malakasini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, moddiy iste'mollarning boshqa shakllarini rivojlantirishga sarflanadigan mablag'lardir.

Investitsiyalarning ikki turi bor:

1. Real investitsiyalar — moddiylashgan asosiy va aylanma vositalarga mablag'lar. **2. Moliyaviy investitsiyalar** — qimmatli qog'ozlarni (aksiya, obligatsiya, veksel, sertifikat) shakllantirishga sarflangan mablag'lar. Real investitsiyalar kapital ko'yilmalar deb ham ataladi. Kapital qo'yilmalar yalpi va sof kapital qo'yilmalarga bo'linadi. Real investitsiyalarning umumiy summasi yalpi kapital qo'yilmalarini tashkil etadi. Real investitsiyalarni sarflash natijasida ishga tushirilgan qismi sof kapital qo'yilmalardir. Sof kapital qo'yilma yalpi kapital qo'yilmaga aylantirishga alohida e'tibor berilishi lozim. Sarflanayotgan real investitsiyalar moddiylashtirilishini, ya'ni ishga tushirilishini ta'minlash zarur.

Milliy hisoblar tizimida kapitalga hamda moddiy ishlab chiqarish vositalariga sarflangan mablag'lar **real iinvestitsiyalar** deb ham yuritiladi.

Kapital qo'yilmalarning fermer xo'jaligidagi ahamiyati yuqori bo'lib, birinchidan, **kapital qo'yilmalar** — jami xarajatlarning asosiy qismi hisoblanadi. Kagshtal qo'yilmalardagi o'zgarishlar jami talabga yetarlicha ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, aholining bandligi va yalpi milliy mahsulot (YaMM) hajmining ham o'zgarishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, kapital qo'yilmalar fermerlarning asosiy fondlari jamg'arilishiga, ya'ni ko'payishiga olib keladi.

Uchinchidan, kapital qo'yilmalarning noratsional sarf qilinishi ishlab chiqarish resurslari, xarajatlar o'sishiga olib keladi, natijada YaMM qisqaradi.

Investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) fermer xo'jaligini har tomonlama rivojlantirib, moddiy-texnika bazasini mustahkamlaydi. Ulardan samarali foydalanish natijasida jonli mehnat xarajatlari qisqarib, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortib, sof foyda summasi ko'payadi. Natijada fermer xo'jaligini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

Fermer xo'jaliklarining barcha investitsiyalari (kapital qo'yilmalar) ikkita manbadan: korxonaning o'z mablag'laridan va chetdan jalb qilingan mablag'lardan shakllanadi.

Fermer xo'jaligining o'z mablag'lariga quyidagilar kiradi:

- fermer xo'jaligining sof foydasidan ajratilayotgan mablag'lar;
- amortizatsiya fondidagi mablag'lar;
- asosiy vositalarni tugatishdan, sotishdan kelib tushgan mablag'lar;
- chorva mollarini sotishdan tushgan mablag'lar;
- fermer xujaligining qimmatli qog'ozlar sotish va sotib olishidan kelgan mablag'lar.

Chetdan jalb qilingan mablag'larga:

- fermer xo'jaligiga davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar;
- hamkorlardan olinadigan mablag'lar;
- turli xil qarzlar va bank kreditlari;
- xo'jalik a'zolarining bo'sh mablag'larini jalb etish;
- xorijiy va mahalliy shaxsiy korxonalar hamda fuqarolarning mablag'lari;
- homiyar ajratayotgan xayriya mablag'lari va boshqalar.

Kapital kapital qurilishga va yangi texnikani joriy qilishda ishlatiladi. Kapital qo'yilmalarning asosiy vazifasi — tarmoq mahsulotini ko'paytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni ta'minlashdir.

Kapital — fermer xo'jaligi moliyaviy natijalarining bir qismi bo'lib, aylanma fondlarga qo'yilib, daromad keltiradi.

Investitsiya kiritishda fermer xo'jaligining o'z mablag'laridan foydalanishi ikkita ustunlikka ega: birinchidan, fermer xo'jaligining tashqi to'lovlari mavjud bo'lmaydi (olingan kreditlar bo'yicha foiz, aksiyalar bo'yicha dividendlar, ijara haqi va hokazo), shuningdek, fermer xo'jaligini boshqarishda mustahkam boshqaruvni shakllantiradi.

Chetdan jalb etilayotgan investitsiyalar - chet davlatlarining, yuridik hamda jismoniy shaxslarning investitsiyalaridan tashkil topadi.

Chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad respublika hududida chet el investitsiyalari hisoblanadi. Ular O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaligini boshqarishni takomillashtirishga va ishlab chiqarishni rivojlantirishga Jahon banki, yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banklarining respublikadagi bo'limlari hamda AQSh, Germaniya, Isroil, Gollandiya, Fransiya va boshqa davlatlarning vakolatxonalari investitsiyalarni joylashtirish, sarflash bilan shug'ullanmoqsa.

Investitsiyalar iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlarsir. Qishloq xo'jaligida investitsiyalar quyidsan faoliyatga bo'latsi.

Investitsiya faoliyati sub'ektlarning investitsiyalari bilan amalga oshirish bilan bog'liq harakatlardir.

Investor — o'z mablag'larining, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larining, mulkiy boyliklarning va ularga doir huquqlarning, shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarning investitsiya faoliyati sub'ekti hisoblanatsi.

Investitsiya faoliyati ishtirokchisi investorning buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta'minlovchi investitsiya faoliyati sub'ektisir.

Reinvestitsiyalar investor tomonidan kiritilgan investitsiyalarni boshqa savlatga yoki hutsutga berib yuborishsir.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi va uni fermer xo'jaliklariga jalb etish yo'llari

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998 yil 24 dekabrda qabul qilingan «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunida fermer xo'jaligiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'llari ko'rsatilgan.

Xalqaro moliya korporatsiyasi, yevropa tiklanish va taraqqiyot banklari, Osiyo «Krossroad» kredit kompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, O'zbekiston xususiylashtirish va investitsiyalar bo'yicha xalqaro «O'zprivatbanki» ABN AMRO bank, «Asaka» banki, Aksiyadorlik-tijorat «Paxtabank», Aksiyadorlik-tijorat «O'ztadbirkorbank» kabi qator moliya institutlari fermer xo'jaliklari loyihalarini moliyalash uchun qat'iy valyutada kreditlar berishatsi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi kreditlarni faqat milliy kompaniyalarga beradi va hozirgi paytda qo'shma korxonalarni tashkil etishga ko'proq e'tibor qaratadi.

Shuningdek, xalqaro moliya korporatsiyasi maslahat berishda va boshqa moliyalash manbalarini jalb etishda ishtirok etadi. Uning O'zbekistondagi strategiyasining muhim qismi xususiy sektor, tarkibiy yangilanishlar va xususiylashtirish yo'nalishidagi aniq loyihalarni moliyalashtirishdan iborat.

yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot banki tomonidan ochilgan kredit yo'nalishlari, asosan, Milliy bank va «Asaka» banki orqali amalga oshiriladi. Yaqin kunlarda ishlab chiqarishda yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining kredit yo'nalishlari aksiyadorlik-tijorat «Paxta-bank» orqali ochilishi kutilmoqda.

Kichik va o'rta biznes mezonlariga muvofiq keladigan xususiy, kichik, qo'shma, dehqon fermer xo'jaliklari va aksiyadorlik jamiyatlari yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot banki kreditlarining oluvchilariga aylandilar.

Kredit yo'nalishlarining resurslaridan xorijiy uskunalar va texnologiyalarini xarid qilishni moliyalashtirish, qishloq xo'jalik mahsulotlari va mahalliy xomashyo resurslarini qayta ishlash, ishlab chiqilgan namunaviy yoki alohida loyihalar asosida eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar va xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni ko'zda tutadigan investitsiya loyihalarini ta'minlash bilan bog'liq dastlabki ishchi kapitalini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Zamonaviy investitsiya siyosatining muhim tamoyillari har turli kapitalni bir martalik imtiyozlar bilan jalb etishdan emas, barqaror va o'zaro manfaatli investitsiya tartibi hamda real kafolatlar berishdan iborat.

Hozirgi bosqichda xalqaro xorijiy kapital harakatining shakllari turlicha bo'lib, bevosita xorijiy investitsiyalar ustuvor rol o'ynaydi. Ular amalga oshiriladigan mexanizm va karnallar doimiy takomillashib, rivojlanib zamonaviylashmoqsa.

Zamonaviy jahon xo'jaligi mintaqaviy va xalqaro miqyosda milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va faoliyat ko'rsatishning yetarli darajada aniq qoidalariga ega. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ularga oqilona rioya etilishi xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

7.3. Fermer xo'jaliklarida investitsiyadai foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari

Fermer xo'jaliklari mahsulot yetishtirish va xizmat ko'rsatishni tashkil qilish uchun sarmoya sarf etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa, har bir investor sarmoyasini sarflashdan oldin sarmoya sarflanadigan tadbir qanday natija berishini, uning iqtisodiy samarasi qanday bo'lishini bilishni talab etadi. Fermer xo'jaligi ham sarflanadigan yoki yo'naltiriladigan kapital sarflarni, uzoq muddatga foydalaniladigan vositalarni tashkil etishga qaratilgan mablag'lar samarasini loyihalashtirish jarayonini ko'zda tutadi.

Fermer xo'jaligi biron tadbirni amalga oshirish uchun tashqaridan mablag' jalb qiladigan bo'lsa, tadbirni ifoda etuvchi loyihada ko'zda tutilgan sarf-xarajatlari, iqtisodiy samaradorligi aniq hisoblangan bo'lishi kerak. Bu loyihaning texnik-iqtisodiy jihatdan asoslanganligini (TeO) ifodalovchi hujjatda aks ettiriladi. Bu masalani hal qilishda kapital sarflar va investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usulidan foydalaniladi.

Uzoq muddatga kiritiladigan investitsiyaning absolyut yoki mutlaq samaradorligi qiyosiy yoki nisbiy aniqlanadi.

Mutlaq samaradorlik fermer xo'jaligi sarf qilgan sarmoya natijasida qo'shimcha natija, ya'ni sarf qilgan sarmoyaning bir-birligiga olgan qo'shimcha yalpi daromad va foydalanish bilan ifodalanadi. Fermer xo'jaligi bo'yicha bu quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$SS_a = \frac{AYaDekiF}{S} S'$$

Bunda: SS_a — mutlaq samaradorlik;

$AYaDekiF$ — qo'shimcha olingan foyda;

S — sarmoya (investitsiya)ning o'sgan qismi.

Masalan, fermer xo'jaligi bozor iqtisodi talablari da- rajasida bo'lishini ta'minlash uchun kompleks tadbirlar- ni amalga oshirish xo'jalik foydasini har yili 8 mln. so'mga oshirish imkoniyatini beradi. Bunda sarf-xarajatlarning samaradorlik koeffitsienti - 0,27 ni tashkil etadi.

Investitsiya ayrim vositalar va yo'nalishlar bo'yicha sarf- langanda mutlaq samaradorlikni aniqlashda quyidagi for- muladan foydalaniladi:

$$\frac{(T_0 - T_f) \times M}{S'}$$

Bunda: T_0 — sarmoya qilingunga qadar bo'lgan davrdagi mahsulot birligi;

T_f — sarmoya qilingandan keyingi tannarx;

M — sarmoya qilishi natijasida olingan mahsulot yoki ish hajmi.

Masalan, fermer xo'jaligi sigirlaridan sut sog'ib olish- ni mexanizatsiyalash uchun sog'ish agregatlarini sotib olib o'rnatdi. Bu tadbirlarga 15 mln. so'm sarf-xarajat qildi. Natijada 100 bosh sigirning har biri 3000 kg (30 sentner) sut beradigan, qo'lda sog'iladigan sigir mashinalar yordami- da sog'iladigan bo'ldi. Sigirlar qo'lda sog'ildigan 1 sentner sut tannarxi — 1300 so'm bo'lgan bo'lsa, ularni mashinada sog'ish natijasida 1 sentner sut-tannarxi 1200 so'mni tash- kil egdi. Shu tariqa har bir sentner sutni sog'ib olishdan — 100 so'm tejashga erishildi. Ma'lumotlarni yuqoridagi formulaga qo'yish orqali bu tadbirga qilingan sarflari — investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini aniqlaymiz: Bu tadbirga qilingan sarf-xarajat mutlaq samarador- lik koeffitsienti - 0,2 ga teng bo'ldi. Sarmoya sarflari- ning me'yoriy samaradorlik koeffitsienti - 0,14 so'mga geng. Endi sarf-xarajatlarning samaradorligini yanada to'liq- roq tushunish uchun ularni qo'lash muddatini bilish kerak, ya'ni bu sarflar o'z qiymatini olingan qo'shimcha daromad- lar bilan necha yilda qoplaydi? Sarf-xarajatlarni qop- lash muddati quyidagicha aniqlanadi: Fermer xo'jaligi bo'yicha:

$$C/AF = 30000000/8000000 = 3,7 \text{ yil};$$

Ayrim yo'nalishlar:

$$M = \frac{S}{(T_0 - T_x) *} = \frac{15 \text{ mln. ,, .}}{3000} = 5$$

Sarmoya turi bo'yicha me'yori:

$$KM_t = 0,14$$

Har ikkala tadbirda ham qoplash muddati me'yoriy mud- datdan kam bo'lganligi sarf-xarajatning iqqisodiy sama- rali ekanligini ko'rsatadi.

Masalan, fermer xo'jaligi boshoqli don ekinlari hosi- lini o'rib-yig'ib oluvchi kombayn xarid qilmoqchi. Ta'mi- not bozorida 3 xil rusumdagi kombayn mavjud bo'lib, biri Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan «enisey» kom- bayni, bahosi 16 mln. so'mni, ikkinchisi AQShda ishlab chiqarilgan «Keys» kombayni, bahosi 22 mln, uchinchisi Germaniyada ishlab chiqarilgan «KLASS» kombayni, baho- si 19 mln. so'm.

Kombaynlar pasportida ko'rsatilgan texnik ma'lumot- larga ko'ra, mavsumda «enisey» — 600 tonna, «Keys» — 1200 tonna, «KLASS» kombayni esa — 840 tonna boshoqyai donni o'rib-yig'ib olishi mumkin.

Har bir rusumdagi kombayn bilan o'rib-yig'ib olishga ket- gan joriy xarajatlar 1 tonna hisobiga «enisey» kombayni- da — 50 ming so'mni, «Keys» kombaynida — 35 ming so'mni, «KLASS» kombaynida — 40 ming so'mni tashkil etgan. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni nisbiy (taqqoslama) samarador- likni aniqlash formulasiga qo'yish orqali qaysi rusumdagi kombaynni sotib olish fermer xo'jaligi uchun iqtisodiy jihatdan samarali ekanligini aniqlaymiz:

$$\text{«enisey» } 50 + 0,16 * 26,6 = 54,2 \text{ ming so'm};$$

«Keys» $35+0,16*18,3=37,9$ ming so‘m;

«KLASS» $40+0,16*22,6=43,6$ ming so‘m.

Tahlillardan ko‘rinib guribdiki, fermer xo‘jaligi «enisey» rusumli kombaynni sotib olganda 1 tonna boshqoq- li donni o‘rib-yig‘ib olishga — 54,2 ming so‘m, «KLASS» kombaynni xarid qilganda - 43,6 ming so‘m, «Keys» kombaynnidan foydalanganda — 37,9 ming so‘m sarf qilgan bo‘lar- di. Yoki «KLASS» kombaynnidan foydalangandan ko‘ra — 5,7 mingga, «enisey»ga nisbatan esa — 16,3 ming so‘m kam sarf qilishga erishadi. Shuning uchun fermer xo‘jaligi «Keys» rusumli kombaynni sotib olgani ma‘qul.

Mustaqil bozor munosabatlarida shakllanayot- gan respublika iqtisodiyotiga investitsiya mablag‘lari, yangi samarali texnologiyalarning kirib kelishi mahsulot hajmini, assorti- mentini hamda daromadini oshirishga imko- niyat yaratdi. Investitsiyalar kapital, inno- vatsiya va ijtimoiy shakllarda Respublika- ning barcha xalq xo‘jaligida samarali faoli- yat ko‘rsatmoqda. Hukumat tomonidan inves- titsiya olib keluvchi investorlarni huquqiy himoyalash to‘g‘risida barcha qonuniy asoslar yaratildi. Investitsiya olib kirish va undan hamkorlikda foydalanish hamda moliyalash me- xanizmlari davlat tomonidan boshqariladi, tartibga solinadi va nazorat ishlari olib boriladi. Respublikaning jahon bozoriga chi- qishi uchun yangi texnologiyalar zarur ekan, bu sohani rivojlantirishga katta e'tibor saq- lanib qoladi. Ayniqsa, fermer xo‘jaliklari- ni rivojlantirishda ijtimoiy va ishlab chi- qarish infratuzilmasini rivojlantirishda investitsiya mablag‘lari va texnologiyalari mu- him rol o‘ynaydi.

8. Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya muhitining o‘rni

1. Investitsiya muhiti va tushunchasi.
2. Investitsiya risklari va toifalari.
3. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar.
4. Investitsiya muhitini aniqlashning jahon tajribasi.

1. Investitsiya muhiti va tushunchasi

Xorijdan kapital qabul qiluvchi tomonidan investitsiya muhiti modelini ishlab chiqish har tomonlama asoslangan tashqi iqtisodiy aloqalarni aniqlab beruvchi vositadir. U orqali xorijiy investorga ta'sir ko‘rsatuvchi omillar to‘g‘risida aniq tushunchalarga ega bo‘lish, xorijlik investorlarning xulq-atvorini har tomonlama anglash va mamlakatdagi iqtisodiy holatni chuqurroq baholash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu jarayonlarning barchasi respublikamizning boshqa davlatlar bilan dastlabki iqtisodiy munosabatlarini yo‘lga qo‘yish jarayonida chetdan kapitalni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy investitsiya ishtirokida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan loyiha va dasturlarni ishlab chiqishda nafaqat o‘z manfaatlari bilan chegaralanmasdan investorning maqsad va imkoniyatlari bilan hisoblashish alohida e'tiborga loyiqdir.

Investitsiya muhiti tushunchasi o‘z murakkabligi va mukammalligi jihatidan makro va mikro iqtisodiyot darajasida ko‘rib chiqiladi. Makroiqtisodiyot darajasida u kapitalni qabul qiluvchi mamlakatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni o‘z ichiga oladi. Makroiqtisodiyot darajasida yondashilganda xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat siyosati, xalqaro shartnomalar shartlarini bajarish xorijiy mulkni milliyashtirish, turli masalalar bo‘yicha xalqaro shartnomalar tizimida ishtirok etish davlat boshqaruv tizimlarining mustahkamligi, siyosiy rahbariyatning muqarrarligi, davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi, iqtisodiy siyosatning mukammalligi, davlat apparatining ish samaradorligi, banklar tizimining takomillashuv darajasi, pul muomalasi va davlat byudjetining barqarorligi, davlatning ichki va tashqi qarzlari miqdori va boshqalar hal qiluvchi o‘rinda turadi. Investitsiya muhitiga kapitalni qabul qiluvchi mamlakatning qonunlarida aks ettirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar va xorijiy firmalarining faoliyatini chegaralovchi yoki taqiqlovchi omillardan tashqari, to‘liq aniqlanmagan ba’zi qoidalar va muvofiqlashtirilmagan jarayonlarning mavjudligi salbiy ta'sir etadi.

Mikroiqtisodiyot darajasida investitsiya muhiti bir tomondan investor-firmani va ikkinchi tomondan xorijiy investitsiyani qabul qiluvchi xo'jalik sub'ektlari, ya'ni sotuvchilar, sotib oluvchilar, banklar hamda kasaba uyushma va boshqa jamoat tashkilotlari o'rtasidagi ikki yoqlama munosabatlarni aks ettiradi. Bu darajada investitsiya iqlimi umumlashtirilgan baholar iqtisodiy, huquqiy va madaniy jabhalarda yaqqol ko'rinadi. Makro va mikroiqtisodiyot darajalari birgalikda yagona investitsiya muhitini tashkil etadi va potensial investorlar hamda kapitalni qabul qiluvchi tomonlarning bo'lajak munosabatlarini belgilab beradi.

Investitsiya muhiti ob'ekt kategoriyasi bo'lib, har bir alohida olingan vaqt doirasida investorlar uchun haqiqatda mavjud bo'lgan shart- sharoitlar majmuasini aks ettiradi. Lekin hozirgi sharoitda investitsiya muhiti faqat davlat organlari ta'siri ostida shakllanmoqda. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda jahon tajribasidan, jumladan xorijiy investitsiya bilan tashkil etilib, yuksak iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishgan kompaniya va firmalar tajribasidan kengroq foydalanish kerak. Bu jarayonni amalga oshirishda milliy xususiyatlarni ham hisobga olish lozim.

Davlat hokimiyatining ta'sirchanligi investitsiya muhitini aniqlovchi omillardan biridir. Shundan kelib chiqib, har bir kapital jalb qiluvchi mamlakat ma'lum bir investitsiya tizimiga egaligini ta'kidlash mumkin. Bu tizim huquqiy me'yorlar va muassasalardan iborat xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi va investitsiya muhitini o'z ichiga oladi. Xorijiy kapitalni qabul qilish tizimi investitsiya muhitining komponenti bo'lib xizmat qiladi va unga nisbatan mustaqil ravishda tashkil etiladi. Chunki u investitsiya muhitini o'zgartirishga qodirdir. Xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi qabul qiluvchi tomonning xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga qulay ravishda kirib kelishini namoyon etsa, investitsiya muhiti kirib kelgan kapitalni mamlakat ichida optimal ravishda o'sib borish vaziyatiga baho beradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali sanoatni yangi zamonaviy texnologiyalar bilan, qishloq xo'jaligida qayta ishlovchi sanoat majmuini va boshqa sohalarda tub o'zgarishlar yasash mumkin. Shunday ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarga qulay bo'lgan investitsiya muhitini yaratib berish kerak. Investitsiya muhiti iqtisodiyotda yangi tushuncha emas, ammo mustaqil O'zbekiston sharoitiga nisbatan ishlab chiqilmagan. Endi bu sharoitni yaratishga urinishlar bo'lmoqda. Bir qator rivojlangan davlatlar bu jarayonni ijobiy tarzda amalga oshirgan. Investitsiya muhitining ahamiyati, amaliy jihatdan, qaysi boyliklar va yo'nalishlar tizimi asosida xorijiy investorlar faoliyat yuritishlari to'g'risida tushuncha beradi va shuning negizida xorijlik investorlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

Investitsiya muhiti- juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammolar va masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Investor tomonidan ma'lum bir davlatga investitsiya qilishning qulay va noqulay tomonlari baholanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi. Investitsiya muhiti har tomonlama chuqur tahlil qilinishi asosida investitsiya riski aniqlanadi. Investitsiya muhiti va risk darajalari bir-birlariga teskari nisbatdadir. Investitsiya muhiti qanchalik qulay bo'lsa, investorning tadbirkorlik riski shunchalik past darajada bo'ladi va bu investorlarning kirib kelishini ko'paytiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo'lsa, risk darajasi yuqori bo'ladi. Bu esa investitsiya qabul qiluvchining sarf-xarajatlarining o'sishiga olib keladi. Shunday qilib, investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir.

2. Investitsiya risklari va toifalari

Hozir turli mamlakatlar va mintaqalar o'rtasidagi investitsiya uchun avj olayotgan raqobat ko'rashi nuqtai nazaridan investitsiya riski tushunchasini ko'rib o'tish zarur. Investitsiya oqimlarining u yoki bu mamlakatlarga yo'nalganligi, shuningdek ularning real hajmlari oxir- oqibat shu risklar bilan belgilanadi.

Umuman olganda investitsiya riskini uch toifaga bo'lish mumkin:

1. Asosiy (yoki mamlakat bilan bog'liq) risk:

-investitsiya kiritiladigan mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy barqarorlik;

-hukumat o'tkazadigan makroiqtisodiy siyosatning izchilligi va barqarorligi (infllyasiya darajasini nazorat qilish, byudjet, kredit siyosati va boshqalar);

-tadbirkorlik faoliyatidan olingan foyda va boshqa daromadlarning investitsiya qo'yilgan mamlakatdan xorijga o'tkazish imkoniyatlari va sharoitlari;

-investitsiyalashning o'zga huquqiy sharoitlari (xorijiy investorlar huquqini himoya qiladigan qonun va qonun doirasidagi harakatlarning mavjudligi).

2. Shartnoma yoki investitsiyaga qadar risk:

-murakkab jarayonlarning davomiyligi va samaradorligi;

-shartnoma shartlarini kelishish va ma'qullash jarayoni, shuningdek tomonlarning shartnomalarda nazarda tutilgan shartlarga rioya etishlarini nazorat qiladigan muassasalarning bo'lishi va samarali ishlashi;

-munosib mahalliy sherik topish imkoniyati;

-yangi tashkil etiladigan korxonalar nizam jamg'armasiga uskuna- jihozlar, texnologiyalar, nou-xau, xomashyo, materiallar va boshqa ko'rinishida qo'shiladigan hissani baholash tizimining mavjudligi;

-intellektual mulkni himoya qilishning xuquqiy asoslari, shu jumladan texnologiyalarni transfertlash (o'tkazish) masalalari.

3. Operatsion yoki investitsiyadan keyingi risklar:

-operatsion (harakat) qarorlarni qabul qilish jarayoni tartib- qoidalari va davomiyligi;

-foyda va uni taqsimlash masalalari bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida ta'sir ko'rsatish darajasi;

-menejmentni tashkil etish masalalari, shu jumladan investitsiya loyihasi infratuzilmasini, xodimlarni boshqarish, moliyaviy menejmentni tashkil etish;

-mahalliy xomashyodan foydalanish imkoniyatlari va uni olish tartiblarini hal qilishning davomiyligi; -mahalliy bozor marketingi; -malakali mahalliy ish kuchining topilishi;

-jamoat havfsizligi, shu jumladan ushbu mamlakatda ishlayotgan xorijlik xodimlar uchun xavf-xatarsiz ishlash sharoitlari.

Har bir kompaniya o'zining investitsiyalash strategiyasi, raqobat ko'rashidagi o'z o'rnidan kelib chiqqan holda investitsiya riski majmuini mustaqil baholaydi va u yoki bu mamlakatga investitsiya kiritadi. Keyingi o'n yillarda rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar bilan sanoat jihatidan jadal rivojlanayotgan mamlakatlarning kompaniyalari o'rtasidagi farqlar yaqqol ko'zga tashlana boshladi.

Rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar g'oyat sinchkov va pishiqligi bilan ajralib turadilar. Ular mamlakatdagi siyosiy- iqtisodiy vaziyatni uzoq o'rganadi, tahlil etadi va shundan keyingina bu mamlakatga investitsiyalar kiritish yoki kiritmaslik haqida bir qarorga keladi. Yangi sanoati rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar ularga qaraganda faolroq. Ularning strategiyasi hujumkorligi va tezkorligi bilan ajralib turadi. Bu kompaniyalar uchun yangi bozorlarga tez kirish hamda u yerda yetakchi mavqeyi egallash asosiy masala hisoblanadi.

Bozorga kirishning ham birinchi, ham ikkinchi strategiyasiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Ammo ularning qaysi biri yaxshi, qaysi biri yomon degan savolga javob berish qiyin. Bu strategiyalar umuman boshqa- boshqa, har biri mazkur mamlakatlarning tarixiy tajribasi, biznes olami an'analari, kishilarning mentaliteti (dunyoqarashi) asosida shakllangan.

O'zbekistonda mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish tizimini yaratishga kirishildi. Bu borada bir qator qonunlar va Prezident farmonlari chiqarildi. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida", "Chet el investitsiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlarini takomillashtirish to'g'risida"gi qonun va farmonlari shular jumlasidandir. Bu qonun va farmonlar ma'lum ma'noda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy asosini tashkil etadi.

Jahon statistikasining dalolat berishicha, uch yildan ortiq faoliyat ko'rsatgan firmalarning 30 foizi muassislarning o'zaro da'volari hal etilmasligi oqibatida yopilib qolmoqda. Tadbirkorlarning professional bilimlari yetarli emasligi mazkur firmalar tugatilishining yana bir sababidir. O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanib va o'sib borayotgan sektorlarida yangi barpo etilayotgan KB (kichik biznes) korxonalar (elektronika, informatika tizimlari, kompyuter texnikasi sohasidagi korxonalar) o'sib,

kengayib borayotganligi bilan an'anaviy biznes sohasidagi KB korxonalaridan farq qiladi. Kengayish strategiyasiga amal qiluvchi bu korxonalar an'anaviy biznes korxonalaridan farqli o'laroq, turli sohalarda: marketing, yangi tovarlar, ishlab chiqarish, moliyalashtirish muammosi mazkur sohalar orasida eng muhimdir. Amalda, yangi tashkil etilgan KB korxonalar aylanma kapitalni shakllantirish uchun o'z mablag'iga ega bo'lmaydi, asosiy kapitalga investitsiya qo'yish haqida gap yuritmasa ham bo'ladi.

O'sishning mutanosib emasligi, qarz majburiyatlarining ko'payib borishi o'z kapitali, odatda, venchur investitsiyalar hisobiga shakllanadi. Venchur kapitalning investori o'zining barcha mablag'idan mahrum bo'lishi mumkin, ammo bu kapital 10 va hatto 50 baravar ko'payish ehtimoli ham bor. Venchur kapitalidan foydalanish imkoniyati esa fond bozorining holatiga bevosita bog'liqdir. Venchur kapital egalari hamisha hayotiy qobiliyatga ega bo'lgan va faol kapital bozorini izlash jarayonida bo'ladi. Ularni doimiy ravishda yuksak texnologiya sohasidagi loyihalar qiziqtiradi.

An'anaviy biznes sohasidagi kichik korxonalar kengayish maqsadini ko'zlamaydi. Odatda, ular bir-ikki korxalarga juda qaram bo'ladi va ularning ixtisoslashuvi uchun deyarli imkoniyat bo'lmaydi. Qabul etiladigan qarorlar esa bir yoki bir necha menejrlarning xohish-irodasiga bo'ysunadi, istiqbolda esa strategik maqsadlarni aniqlash juda qiyin vazifaga aylanadi. Qarorlarning ko'p qismi durustroq tahlil etilmay qabul qilinadi. Kapital korxonalar egalari mablag'i hisobidan shakllantiriladi, ularda esa mablag' yetishmasligi sezilib turadi.

KB korxonalar byudjet mablag'laridan, fond bozorida foydalana olmaydi, ularning jamg'armasi ham yo'q. Qarzga olinadigan kreditlar va bank ssudalari ularni moliyalashtirishning asosiy manbalaridir. 2000 yilda KB sub'ektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 92 mlrd. so'mdan yuqori bo'ldi va 2,5 baravar oshdi, shu jumladan 12,9 mlrd. so'm mikrocredit tarzida berildi. Byudjetdan tashqari fondlardan KB loyihalarining moliyalashtirilishiga 2000 yilda 4,4 mlrd. so'm, yoki 1999 yildagiga nisbatan 1,7 baravar ko'p mablag' ajratildi.⁵ 2000 yilda tijorat banklari tomonidan KB korxonalariga berilgan kreditlar umumiy hajmining tarkibiga qisqa muddatli ssudalar 65 foizini tashkil etdi. Buning ma'nosi shuki, KBning investitsiya loyihalarini amalga oshirishga kreditlarning atigi 35 foizi yo'naltirilgan.

2000 yilda kichik firmalarga va yakka tadbirkorlarga mikrocredit berishning yangi tartibi qabul qilindi. Bu tartib mikrocreditlar olish qoidasini osonlashtiradi, garovga nisbatan yumshoqroq talablar qo'yadi va mikrocreditlar 50 foizgacha bo'lgan qismini naqd pul bilan olish imkonini beradi. Shu bilan birga, KB korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi zarur. Qishloq ho'jaligi sohasida KB korxonalar uchun kredit ittifoqlari (kooperativlari) kredit olishning juda muhim tuzilmasi bo'lishi mumkin. Ular orqali qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish, qayta ishlash va sotishni kreditlashni uyushtirish mumkin bo'lur edi.

3. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar

Investitsiya muhitiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy omillar: -xorijiy investitsiya borasida davlat siyosati; -xalqaro kelishuvlarga rioya qilish; -davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi; -iqtisodiy siyosatning hayotiyligi;

-mamlakatning xalqaro shartnomalar tizimida qatnashuvi;

-davlat apparatining ish faoliyati;

-siyosiy hukumatning investitsiyalarga moyilligi.

Iqtisodiy omillar: -iqtisodiyotning umumiy holati (yuksalish, pasayish); -valyuta ko'rsinining barqarorligi; -inflyasiya jarayonining dinamikasi; -soliq imtiyozlari; -

bojxona tartibi; -ish kuchidan foydalanish tartibi; -ish kuchi qiymati;

-aniq mahsulotlarga talab va taklif; -kredit qiymati va boshqalar.

Ijtimoiy omillar: -jamoatchilikning xususiy mulk va xorijiy investitsiyalarga munosabati;

-jamiyatning mafkuraviy birdamlik darajasi;

⁵ Каранг. Приоритетм малого и среднего бизнеса. Народное слово. 1 Январь 2001. 1 с.

-mamlakat ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotining asosiy masalalari bo'yicha kelishuvning mavjudligi;

-ishchi guruhining tashkilotchiligi.

Biron mamlakatning investitsion muhitini tahlil qilinganda, amaldor nuqtai nazari emas, balki o'z mablag'ini daromad keltiruvchi loyihaga joylashtirmoqchi bo'lgan xorijiy investorlarning fikrlari ahamiyatlidir. Ularning fikricha investitsiya muhiti bir qator zaruriy omillarga bog'liq bo'lib, ularning mavjudligi investitsiya muhitining eng qo'lay bo'lishini ta'minlaydi.

Birinchisi, siyosiy barqarorlik bo'lib, uning mavjud bo'lishi investorning kelgusi ishlarini rejalashtirish va ishonch bilan oldinga intilishiga imkon beradi. U kuchli qonuniy tizimning mavjudligi, tashqi va ichki harbiy nizolar hamda inqilobiy o'zgarishlarning bo'lmasligida namoyon bo'ladi.

Ikkinchisi, iqtisodiy samaradorlik. Har bir investor iqtisodiy o'sish juda yuqori bo'lgan, hukumat iqtisodiyotni rivojlantirish borasida barqaror siyosat olib borayotgan mamlakat iqtisodiyotiga mablag' sarflashni xohlaydi.

Yana bir muhim omil mamlakatdagi hukumat rahbarlari, mehnat jamoalari, muholid partiya vakillari va xalqning xorijiy investorlarga nisbatan bo'lgan do'stona munosabatlaridir. Undan tashqari oddiy xalqning xorijliklarga, ularning mamlakatdagi ijtimoiy- iqtisodiy faoliyatiga bo'lgan munosabati ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu omil ham investorlarning mamlakatdagi faoliyatlariga katta ta'sir o'tkazadi.

Hukumatning siyosati yana bir muhim omil hisoblanib, investorlarning faoliyatiga turlicha ta'sir o'tkazishi mumkin. Albatta, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat bevosita yoki bilvosita biznes, savdo va investitsiyalash jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunda uch jihatga alohida e'tibor berilishi zarur: xorijiy investorlarning loyihalarda qatnashish darajasi. Xorijiy investorlarni o'z biznesining qanday qismiga egalik qilishlari qiziqtiradi. Bu esa loyiha turiga bog'liq: a) agar investitsiya loyihasi eksportga yo'naltirilgan hamda xomashyoning asosiy qismi chetdan keltirilayotgan bo'lsa, investor biznesning maksimal darajada katta qismiga (ba'zida 100% ziga) egalik qilishga da'vogar bo'ladi; b) agar investitsiya loyihasi eksportga yo'naltirilgan hamda xomashyoning asosiy qismi mamlakatning ichki xomashyosi bo'lsa, investor huddi shunday biznesning qo'shni mamlakatlardagi shart-sharoitlariga qarab ish tutadi; v) agar investitsiya loyihasi mahsulotni ichki bozorda sotishga mo'ljallagan bo'lsa, ko'pgina TMKlar sherikchilik asosida ish yuritishga harakat qiladilar, aks holda boshqa raqobatchilar ulardan oldin bozorni egallab olishlari mumkin. Xorijliklarning mehnati. Xorijiy investorlar o'z biznesi va daromadlarini hamyurtlari nazorati ostida bo'lgani ma'qul, deb fikralashadi. Ammo ishga juda ko'p xorijliklarni jalb etish xarajatlarni oshirib yuboradi. Valyuta muomalasini tartibga solish. Xorijiy investorlarni mamlakatga mablag' olib kirish, uni sarflash imkoniyatlaridan tashqari biznesdan topilgan daromadni konvertirlangan valyutaga ayirboshlash, chetga olib chiqish, valyuta hisob raqamiga ega bo'lish imkoniyatlari nihoyatda qiziqtiradi.

Keyingi omil infratuzilma holati bo'lib, u mamlakatdagi yuqoridagi sanab o'tilgan omillarning mavjud bo'lishidan keyingi muhim omillardandir. Unda ishlab chiqarish uchun yer maydonlaridan foydalanish, yerni ijaraga olish shartlari va muddati, avtomobil va temir yo'llarning sanoat hududlarini asosiy transport bo'g'inlari (portlar, aeroportlar) va bozorlar bilan bog'langanligi, elektr energiyasining mavjudligi, suv ta'minoti darajasi (ba'zi hollarda ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi), telekommunikatsiyaning rivojlanish darajasi, telefon, faks, teleks aloqalarining mavjudligi, kompyuter orqali aloqa o'rnatish masalalari muhimdir.

Ishchi kuchi. Ko'pincha xorijiy investitsiyalarni kiritishning asosiy sababi qilib qabul qiluvchi mamlakatda ish kuchining arzonligi ko'rsatiladi. Lekin, investitsiyalarni jalb qilishga savodxonlik, ishchi kuchining malaka darajasi, mehnat qilish etikasi, mehnat unumdorligi darajasi, turli ijtimoiy harakatlarning ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri va boshqalar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Banklar va moliya. Mamlakatda jahon savdosi va investitsiya sohasida foydalaniladigan barcha moliyaviy instrumentlar mavjudligi ushbu sohadagi xizmatlar sifatini anglatadi. Investorlar uchun mamlakatda yetarli miqdorda faoliyat ko'rsatuvchi moliya institutlari va jahondagi yirik banklarga tegishli filiallarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda jahonning yirik savdo va

investitsiya kompaniyalari filiallarining faoliyat ko'rsatishi investorlar uchun ishonchlilik darajasini oshiradi.

Hukumat tuzilmalaridagi rasmiyatchilik. Hukumat o'z investitsiya siyosatini qanday baholashi muhim emas. Bunda katta tajribaga ega bo'lgan tadbirkorlar bergan baho muhimdir. Investorlar rasmiyatchilik, qog'ozbozlik avj olgan muhitga kamdan-kam o'z mablag'larini sarflaydilar. Hukumat uchun eng muhimi, rasmiyatchilik sabab bo'lib, amalga oshirilishi to'xtab qolgan loyihalarni ekspertizadan o'tkazish, yo'l qo'yilgan xatoliklarni tuzatishdir.

Mahalliy ishbilarmonlik muhiti. Bu tushuncha juda keng bo'lib, unga: advokat, maslahatchilarning ko'pligi, malakali ish yurituvchilar, buxgalterlar, arxitektorlar va konstruktorlarning mavjudligi kiradi. Bundan tashqari qo'shma korxonalar ochishda mahalliy hamkorning tajribasi, aloqalari, mehnatsevarligi va ishonchliligi ham hisobga olinadi.

Yashash sifati. Ushbu omil xorijiy investorga taklif qilinayotgan barcha narsalarda o'z aksini topadi. Aholi turmush tarzi va daromadlarining darajasi ishlab chiqarilayotgan mahsulotning xilma-xilligi va mehnat uchun qilinadigan xarajatlar hajmida o'z aksini topadi. Xorijiy investor o'zi uchun ishlash, yashash, bank va boshqa xizmat turlaridan foydalanishda qulaylik qiladi.

4. Investitsiya muhitini aniqlashning jahon tajribasi

Investitsiyalash borasidagi qo'shma loyihalar va qo'shma korxonalar tashkil etishdagi risklarni hisobga olishda ko'pchilik xorijiy investorlar Beri indeksidan foydalanadilar. Ushbu indeks mamlakatdagi investitsiya muhitini turlicha salmoqqa ega bo'lgan 15 ta baholash mezonlari asosida hisoblab chiqadi. Har bir mezonga 0 dan (to'g'ri kelmaydi) 4 gacha (o'ta qulay) baho beriladi. To'plangan yuqori ball "barqaror mamlakat"ni anglatadi. Mamlakat to'plagan ball qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalashdan olinishi mo'ljallangan foyda ham shuncha yuqori bo'lishi zarur, aks holda investitsiyalash asossiz hisoblanadi. Beri indeksining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

BeRI indeksi

№	Mezonlar	Sal mog'i %
1.	Siyosiy barqarorlik: kutilmagan hukumat to'ntarishlari imkoniyatlari va ularning tadbirkorlik faolligiga ta'sirini baholaydi	12
2.	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat: xususiy tadbirkorlarga tegishli ijtimoiy ehtiyojlarga bo'lgan xarajatlar hajmi	6
3.	Milliylashtirish: beg'araz ekspropriatsiya imkoniyatlaridan to mahalliy xomiyatlarga imtiyozlar berishgacha	6
4.	Devalvatsiya: devalvatsiya ta'siri hamda korxonalar faoliyatiga devalvatsiyaning ta'sirini yumshatuvchi choralarining hayotiyliigi	6
5.	To'lov balansi: hisoblar balansi va umumiy balansga hamda xorijiy investorlarning daromadlariga ta'sir etuvchi omillar	6
6.	Rasmiyatchilik masalalari: davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, bojxona rasmiyatchiliklarini amalga oshirilishi, valyuta o'tkazishlari va boshqa shunday operatsiyalar	4
7.	Iqtisodiy o'sish sur'atlari: yillik yalpi mahsulot ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi 3%, 3-6%, 6-10% va 10%dan yuqori chegaralarda	10
8.	Valyutaning konvertirlangani: milliy valyutaning xorijiy valyutaga almashtirish imkoniyati hamda milliy valyutaning (korxonalar zarur bo'lgan darajada) valyutalar bozoridagi o'rni	10
9.	Shartnomani amalga oshirish imkoniyati: shartnomaga amal qilish imkoniyati hamda til va urf-odatlardagi farq natijasida qiyinchiliklarning yuzaga kelishi	6
10.	Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar: ish haqi darajasi, mehnat unumdorligi, ishga qabul qilish tartibi	8
11.	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati: korxonalar yuridik, buxgalteriya, marketing bo'yicha maslahatlar berish, texnologiya va qurilish ishlarini amalga oshirish sohalarida maslahatlar kutish imkoniyati	2
12.	Aloqa va transportni tashkil etish: faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va ularning filiallari orasidagi transport yo'llari va aloqa tizimini (mamlakat ichidagini ham) tashkil etish va foydalanish imkoniyati. Transport infratuzilmasini baholash	4

13.	Mahalliy boshqaruv va hamkor: boshqaruvning turli masalalarini yechishda o'z kapitali bilan qatnashish va hamkorlikda faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan mahalliy hamkorlarning soni va imkoniyatlari	4
14.	Qisqa muddatli kredit: xorijiy hamkorlarga qisqa muddatli kreditlar berish va ulardan foydalanish imkoniyati	8
15.	Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital: hamkorlar tomonidan nizom kapitaliga o'z ulushlarini qo'shish shartlari va milliy valyutada uzoq muddatli kredit berish shartlari	8

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga nisbatan Beri indeksi asosida investitsiya muhiti imitatsion baholangan bo'lib, u quyidagi 2- jadvalda qayd etilgan:

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi investitsiya muhitining imitatsion baholanishi

№	BeRI indeksi mezonlari	Bahosi	Salmog'i,%	Indeks
1	Siyosiy barqarorlik	4	12	0,48
2.	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat	3	6	0,18
3.	Milliylashtirish	2	6	0,12
4.	Devalvatsiya	0	6	0
5.	To'lov balansi	1	6	0,006
6.	Rasmiyatchilik masalalari	1	4	0,04
7.	Iqtisodiy o'sish sur'atlari	1	10	0,01
8.	Valyutani konvertirlanganligi	1	10	0,01
9.	Sharnomani amalga oshirish imkoniyati	3	6	0,18
10.	Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar	2	8	0,16
11.	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati	1	2	0,02
12.	Aloqa va transportni tashkil etish	1	4	0,04
13.	Mahalliy boshqaruv va hamkor	3	4	0,12
14.	Qisqa muddatli kredit	1	8	0,08
15.	Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital	2	8	0,16
16.	JAMI		100	1,61

Mamlakat investitsiya muhitini baholashda yana halqaro kredit reytinglaridan ham foydalaniladi. 3-jadvalda. Ular jahondagi o'n bir obro'li agentlik tomonidan ishlab chiqiladi. Ulardan beshtasi -

amerika, uchtasi - yapon, ikkitasi - kanada va bittasi angliya agentliklaridir. Bunda bozorning 90% ikki yirik va mashhur amerika kompaniyalariga tegishlidir - Standart and Poor's Investor Service va Moody's Investor Service. (3-jadval)

3-jadval
Halqaro kredit reytinglarini tuzishda foydalaniluvchi qimmatbaho qog'ozlarning ishonchliligi klassifikatsiyasi

Reyting belgilari		Reyting interpretatsiyasi
Standart Poor's	Moody's	
AAA	Aaa	O'ta yuqori ishonchlilik. Foizlar va qarzning asosiy summasining to'lanish ehtimoli o'ta yuqori
AA+ AA AA	Aa1 Aa2 Aa3	Yuqori ishonchlilik. Foizlar va qarzning asosiy summasining to'lanish ehtimoli yuqori
A+ A A-	A1 A2 A3	Iшонchlilik o'rtadan yuqori. Emitentning qarzni va foizlarni to'lash imkoniyatlari yuqori, ammo iqtisodiyotni ichki barqarorligiga bog'liq
VVV+ VVV VVV-	Vaa1 Vaa2 Vaa3	Iшонchlilik yetarli darajada. Emitentning qarz va foizlarni to'lash imkoniyatlari to'lov vaqtidagi iqtisodiyotning ichki barqarorligiga bog'liq
VV+ VV VV-	Va1 Va2 Va3	Sharoitni ishonchli deb hisoblasa ham bo'ladi, ammo ichki iqtisodiy holatning beqarorligi tufayli doimo to'lamaslik xavfi mavjud
V+ V V-	V1 V2 V3	To'lamaslik havfi yuqori. Emitentning to'lov qobiliyati cheklangan, ammo joriy vaqtdagi majburiyatlarga mos keladi
SSS+ SSS SSS-	Saa	To'lanishi ehtimoli kam yoki to'lanmaydigan majburiyatlar. Emitentning to'lov qobiliyatiga mamlakatning ichki iqtisodiy beqarorligi bilan putur yetkazilgan
S	Sa	Umuman to'lanmaydigan majburiyatlar (to'lovlarni muddatini uzaytirish yoki to'lamaslik). Emitent bankrot yoki zarar ko'rmoqda

Xorijiy investorlar reytingdagi ma'lumotlardan vaqtni tejash maqsadida keng foydalanadilar. Mamlakatning reytingi yuqori yoki pastligi albatta ahamiyat kasb etadi. Lekin shu reytingga kirishning o'zi ham investorlarda ushbu mamlakatga nisbatan u yoki bu darajada ishonch uyg'otadi.

Qisqa xulosalar

Investitsiya muhiti tushunchasi o'z murakkabligi va mukammalligi jihatidan makro va mikro iqtisodiyot darajasida ko'rib chiqiladi.

Makroiqtisodiyot darajasida u kapitalni qabul qiluvchi mamlakatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni o'z ichiga oladi.

Mikroiqtisodiyot darajasida investitsiya muhiti bir tomondan investor-firmani va ikkinchi tomondan xorijiy investitsiyani qabul qiluvchi xo'jalik sub'ektlari, ya'ni sotuvchilar, sotib oluvchilar, banklar hamda kasaba uyushma va boshqa jamoat tashkilotlari o'rtasidagi ikki yoqlama munosabatlarni aks ettiradi.

Tayanch iboralar

Investitsiya muhiti, investitsion tavakkallik, makrodarajadagi muhit, mikrodarajadagi investitsion muhit, siyosiy omil, iqtisodiy omil, ijtimoiy omil, beri indeksi.

Nazorat savollari

1. Investitsiya muhiti nimani anglatadi?
2. Investitsiya muhitiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Investitsiya muhitini baholashda Beri indeksining ahamiyati nimalardan iborat?
4. Iqtisodiy omil qanday usullarni o'z ichiga oladi?
5. Mahalliy ishbilarmonlik muhitini tushuntiring?
6. Valyuta muomalasini tartibga solishda nimani tushunasiz?
7. Qimmatli qog'ozlarni turlarga ajrating?
8. Beri indeksini tushuntirib bering?

Adabiyotlar ro'yxati

1. "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda Qonuni "Soliqlar va bojxona xabarlari" gazetasi. 1999. 4 soni. 1-2 b.
2. "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2005 yil 11 aprel. "Xalq so'zi" gazetasi 1-2 b.
3. Farxutdinov I.Z. Investitsionno pravo: uchebno-prakticheskoe posobie / I.Z. Farxutdinov, V.A. Trapeznikov. - M.: Volters Kluver, 2006. - 232-238 s.
4. Sharp U., Aleksandr G., Beyli Dj. Investitsii: per. s angl. - M.: INFRA-M, 2006. - XII, 782-788 s. 2 ekz.
5. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.-T.: Mehnat, 2003. 233-240 b.
6. <http://www.edu.uz/>. - O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti.

9. IQTISODIY TIZIMDA KAPITAL QO'YILMALARNING MOHIYATI VA MOLIYAVIY MANBALARI

1. Kapital qo'yimalarning mohiyati.
2. Kapital qo'yimalar va ularning texnologik tarkibi.
3. Kapital qo'yimalarni samaradorligini oshirish.
4. Kapital qo'yimalarning moliyaviy manbalari.

1. Kapital qo'yimalarning mohiyati

Kapital qo'yimalar-ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida yangi qayta qurilgan hamda kengaytirilgan joriy asosiy jamg'armalar tashkil qilishga mo'ljallangan moliyaviy mablag'lar.

Mablag'lar muntazam tayyorlov bosqichidan qurilish ishlab chiqarish bosqichiga aylanadi, shundan so'ng mahsulotni sotish bosqichiga o'tiladi, bunda ular jamg'arma bo'lib o'zgaradi.

Kapital qo'yimalar quyidagi xarajatlarga yo'naltiriladi:

-qurilish-montaj ishlariga;

-turli jihozlarni va asboblarni sotib olishga;

-boshqa har qanday xarajatlar-loyiha qidiruv ishlari, qurilish maydonini tayyorlash kabilar.

Yuqorida qayd qilingan uch elementning o'zaro nisbati kapital qo'yimalarning tuzilishini tashkil qiladi. U tarmoq texnologik va takror ishlab chiqarish tuzilishi bilan ta'riflanadi. Kapital

qo'yilmalar xalq xo'jaligi sohalarida buyurtmachilarga ularning mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji, rivojlanish va haqiqiy ishlab chiqarish kuchlariga qarab taqsimlanadi. Bu esa soha tuzilishini tashkil qiladi. Kapital qo'yilmalarning texnologik tarkibi qurilish-montaj ishlarining, jihozlarning, asbob-uskunaning, shuningdek jamg'armaning mulkiy hajmi hisobidagi turlicha xarajatlarning ratsional hajmini aniqlashga qaratilgan. Kapital qo'yilmalarning texnologik tuzilishini qurilish-montaj ishlariga sarflayotgan xarajatlar miqdorini kamaytirish yo'li bilan amaldagi asosiy jamg'armalardan ham to'liq foydalanish imkonini beradi. Amaldagi korxonalarining quvvatlarini qo'llab-quvvatlashda, ularni texnik qayta qurollantirishda, kengaytirish va qayta qurishda, shuningdek yangi korxonalarni qurishda kapital qo'yilmalarining takror ishlab chiqarish tuzilishini aks ettiradi.

Kapital qo'yilmalar tarmoq, texnologik va takror ishlab chiqarish tarkiblari bilan ta'riflanadi. Kapital qo'yilmalarning tarmoq tarkibi-bu xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha kapital qo'yilmalarning miqdoriy nisbatini aks ettiradi.

Kapital qo'yilmalarning texnologik tarkibi - mashina va asbob-uskunalarni sotib olishga va qurilish montaj ishlarini amalga oshirishga ketadigan xarajatlar orasidagi nisbatni aks ettiradi. Asosiy fondlarning aktiv qismini (mashina va asbob-uskunalarni takror ishlab chiqarishning kapital qo'yilmalardagi ulushini oshirish yo'li bilan ularning texnologik tarkibini takomillashtirish sarflar samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Kapital qo'yilmalarni takror ishlab chiqarish tarkibi ularni bir tomondan yangi qurilishlarga, ikkinchi tomondan mavjud korxonalarni qayta qurish va texnik qayta qurollantirishni va kengaytirishga saflanadigan mablag'lar miqdori o'rtasidagi nisbatni aks ettiradi.

Mulkchilik shakllari o'zgarib, rivojlanib borayotgan sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KB va XT)ni rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik muhim vazifadir. Jahon tajribasi shuni tasdiqlaydiki, KB va XT ichki bozorni istemol tovarlari va xizmatlar bilan mo'l-ko'l ta'minlaydi, eksport imkoniyatini oshiradi, ish bilan ta'minlash muommosini hal etadi, aholining real daromadlari darajasini oshiradi. Iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida KB investitsiyalarni kam talab qilishi, epchilligi va moslashuvchanligi o'zgartirib turishni ta'minlaydi.

Tadbirkorlik tuzilmalarining kredit resurslaridan, investitsiyalarni moliyalashtirishning noan'anaviy usullaridan, ayniqsa xalqaro moliya institutlari ishtiroki bilan moliyalashtirish usullaridan, lizing operatsiyalaridan bema'lol foydalanishlarini ta'minlash va shu yo'l bilan ularni xorijiy texnika va texnologiya bilan qurollantirish ustuvor vazifadir. KB va XTni rivojlantirish orqali raqobat muhiti vujudga keltiriladi, soliqqa tortish bazasi kengaytiriladi, aholining ish bilan bandligi oshiriladi, bozorlar tovar va xizmatlar bilan mo'l-ko'l ta'minlanadi.

2. Kapital qo'yilmalar va ularning texnologik tarkibi

Kapital qo'yilmalarning samaradorligiga ularni texnologik tarkibi, ya'ni qo'yilmalarni umumiy yig'indisida sarflarni alohida turlari - uskunalar, asboblardan va ishlab chiqarishda ishlatiladigan buyumlar; qurilish ishlari; loyiha va boshqa ishlarga saflar nisbati katta ta'sir ko'rsatadi.

Kapital qo'yilmalarning tarkibida uskunalarining ulushini hamda ishlab chiqarish ishtirokchilarini - asosiy fondlarni faol qismini qurilish ishlariga nisbatan ko'payishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotni birligiga kapital qo'yilmalarni pasayishiga olib keladi va ularni iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Kapital qo'yilmalarning tarkibini yangilashga: sanoatning texnik darajasi oshishi, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning o'sishi, uskunalarni takomillashtirishga, ishlayotgan korxonalarni kengaytirish va qayta qurishga, ularning kooperatsiyalashuvi va guruhlariga birlashtirish va hokazolarga sharoit yaratadi.

Kapital qo'yilmalar tarkibini yaxshilashda rejalashtirishni yaxshilashga va qurilish ishlarining qiymatini pasaytirishga qaratilgan tadbirlar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Mamlakat iqtisodiyotida kapital qo'yilmalar muttasil oshib boradi. Ayniqsa butun xalq xo'jaligi tarmoqlarida texnik taraqqiyotni ta'minlashga ko'maklashuvchi: kimyo sanoati, elektroenergiya, mashinasozlik, neft va gaz sanoati, qurilish materiallari sanoati kabi tarmoqlarga kapital qo'yilmalar tez sur'atlar bilan o'smoqda.

Yangi texnikani joriy qilish asosida ishlayotgan korxonalarni qayta qurish qisqa muddatlarda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga va yangi korxonalarni qurishga qaraganda kamroq kapital saraflashga imkon yaratadi.

Hozirgi vaqtda korxonalarni qayta qurish, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishga katta miqdorda kapital qo'yimalari yo'naltirilmoqda. Ishlab turgan korxonalarga kapital qo'yimalarning sarflanishi texnik taraqqiyotning jadallashib borishi va ishlab turgan texnikaning eskirib borishiga bog'liqdir.

Agarda mamlakatning yangi tabiiy boyliklar konlari ochilishi bilan bog'liq bo'lgan mintaqalarda kapital qo'yimalarni yangi korxonalarni qurishga va yangi quvvatlarni barpo qilishga sarflanishi to'g'ri bo'lsa, boshqa mintaqalarda, ayniqsa qayta ishlash sanoatidagi, ishlayotgan korxonalarni qayta qurish, texnik qayta qurollantirish to'g'ri bo'ladi.

Hozirgi sharoitda ilgari qurilgan ko'pgina korxonalarda eskirgan uskunalarni modernizatsiyalash zarurati yuzaga kelgan. Bu ishlab chiqarishning intensivlashga va texnikani hozirgi zamon talablariga javob berishiga va mehnat unumdorligini oshirishga olib keladi. Qator mintaqalarda qayta qurish ushbu mintaqqa iqtisodiyotini ko'p qirrali rivojlantirish, korxonalarni zarur buyumlar bilan ta'minlanishi uchun ham zarurdir. Ammo ishlayotgan korxonani qayta qurish har bir holatda chuqur iqtisodiy asoslarni talab qiladi.

Tajribaning ko'rsatishicha ayrim korxonalarda dastlabki iqtisodiy hisob-kitoblarning qilinmaganligi natijasida qayta qurish bo'yicha samarasiz ishlarni amalga oshirildiki, natijasida qayta qurishga ketgan sarflardan ham oshib ketdi.

Hozirgi paytda kapital qo'yimlar samaradorligini oshirish birinchi navbatda korxonalarni texnik qayta qurollantirish, mexanizatsiya va avtomatizatsiya, uni ixtisoslashtirish, texnologiyani yaxshilash va tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi va bank kreditlari hisobiga korxonalarni texnik qurollantirish ko'payib boradi.

Kapital qo'yimlar dastavval boshlangan qurilishlarni tugatish va ishga tushirish lozim bo'lgan ob'ektlarga yo'naltiriladi; shuning asosida ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni ishga tushirishga erishiladi.

3. Kapital qo'yimlarni samaradorligini oshirish

Kapital qo'yimlarni samaradorligini oshirish vazifasini bajarish uchun har bir sarflangan so'm uchun mahsulot ishlab chiqarishning o'sishini oshirishga erishish va uning keng miqyosda tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshirish lozim: ularga

- alohida tarmoqlarga va korxonalarga kapital qo'yimlarning yo'nalishini iqtisodiy asoslash;
- o'zining texnik darajasi bo'yicha mahalliy va xorij fani va texnikasining yangi yutuqlariga javob beradigan va mehnat unumdorligini o'sishini, mahsulot tannarxini pasaytirishni va ishlab chiqarishning foydaliligini o'stirishni ta'minlaydigan qurilishlarni va loyihalarning sifatini oshirish;
- qurilishlarni va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishni tezlashtirish, loyiha-smeta hujjatlari va moddiy-texnik resurslar va ishlab chiqarishni tashkil qilishni ta'minlash.

Korxonalarda kapital qo'yimlarni rejalashtirish uning iqtisodiy rivojlanish rejasining ajralmas qismi bo'lib, korxonaning ishlab chiqarishini va uni ishlab chiqarish salohiyatini takomillashtirish asosi bo'lib xizmat qiladi.

Rejalashtirish kapital qurilishni uzluksizligini ta'minlaydi va ularni amalga oshirishni o'z vaqtida tayyorlashga imkon yaratadi.

Kapital mablag'lardan foydalanishda tarkibiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Buni barcha kapital qo'yimlarning ikki muhim soha bo'yicha taqsimlanishida kuzatish mumkin. Ya'ni sarflanayotgan kapital qo'yimlarning 56% ishlab chiqarish ob'ektlariga va 44% noishlab chiqarish yohud xizmat ko'rsatish tarmoqlariga sarflanmoqda. Agrosanoat, oziq-ovqat majmualaridan tashqari moddiy ishlab chiqarish sohalariga kapital mablag'larni yo'naltirish sur'atlari birmuncha pasayib, uning yo'nalishi yanada ijtimoiy tus olmoqda.

Barcha kapital qo'yimlarning asosiy qismi- 60% dan ziyodrog'i qurilish-montaj ishlariga sarf bo'lmoqda. Uning qariyb chorak qismi, ya'ni 24% asbob-uskunalar va jihozlarga, mavjud inventarlarni ta'mirlashga va qolgan 15% boshqa turli xil jarayonlarga ketmoqda.

Ishlab chiqarish ob'ektlari bo'yicha davlat kapital mablag'lari sarfining takror ishlab chiqarish tuzilishini olib qaraydigan bo'lsak, shu narsa ayon bo'ldiki, bu maqsadga yo'naltirilayotgan barcha kapital qo'yimlarining yarmidan ko'prog'i ishlab turgan korxonalarni texnik jihatdan qayta qurollantirish va ularni rekonstruksiya qilishga ketmoqda.

Kapital qo'yimlarni to'g'ri rejalashtirish uchun va qurilish ishlab chiqarishini to'g'ri tashkil qilish uchun mahalliy tashabbusni kengaytirish lozim. Rejalashtirish kapital qurilish muntazamligini ta'minlashi va qurilishlarning o'z vaqtida tugatilishiga sharoit yaratishi lozim. Qurilish nisbatan ishlab chiqarish davrini qayta muddat talab qilishi bilan ajralib turadi, shuning uchun ham tayyorgarlik davri uzoq vaqtni o'z ichiga oladi.

Kapital mablag'larni o'zlashtirish bo'yicha rejalarning yo'qligi qurilish va rekonstruksiya qilish ishlarini qimmatlashtiradi. Shuning uchun kapital qo'yimlari joriy rejalashtirish va qurilish-montaj ishlarining asosi bo'lgan istiqbol rejalarini ishlash muhim hisoblanadi. Istiqbol rejalaridan kelib chiqib, ishlarni yillar bo'yicha, yangi talablar asosida taqsimlash uchun aniqlashtirilgan rejalar va dasturlar ishlanadi. Kapital qo'yimlar bo'yicha reja topshiriqlari muayyan tarmoqlar, iqtisodiy mintaqalar va korxonalar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishlarida mo'ljallangan o'sishni ta'minlovchi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini o'z vaqtida ishga tushirishni ta'minlaydi.

Shuning uchun ham sanoatdagi kapital qo'yimlar rejasi sanoat ishlab chiqarishining ishlab chiqarish dasturi bilan bog'liq ravishda tuziladi. Shu bilan birga kapital qo'yimlar rejasi boshqa rejalar bilan muvofiqashtirib tuziladi, bu esa o'z navbatida kapital qurilishlarni o'z vaqtida moddiy va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash imkoniyatini beradi.

Kapital qo'yimlarni tarmoqlar bo'yicha taqsimlash yoki sanoatda kapital qo'yimlarning tarmoqlararo tarkibi o'sha davrning xo'jalik- siyosiy vazifalari bilan belgilanadi. Sanoatning ayrim tarmoqlariga kapital qo'yimlar rejali miqdorini to'g'ri belgilash uchun ishlab chiqarish quvvatlarining rejali muvozanatlari tuziladi. Shu bilan bog'liq kapital qo'yimlarni tarmoqlar bo'yicha taqsimlash ishlab chiqarish va kapital qurilishning rejalarini muvozanatli bog'lash asosida hamda o'zaro bog'liq tarmoqlarni muvozanatlash orqali aniqlashtiriladi.

Sanoatning alohida tarmoqlariga kapital qo'yimlarini rejali miqdorini to'g'ri belgilash uchun, ishlab chiqarish quvvatlarini rejali muvozanatlari ishlanadi. Ushbu muvozanatlarda reja davri boshiga mavjud ishlab chiqarish quvvatlari aniqlanadi hamda mo'ljallangan miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan quvvatlar aniqlanadi. Chuqur tahlillardan so'ng mavjud quvvatlardan ishlab chiqarish miqdorini ko'paytirish va qayta qurish yoki yangi korxonalarni qurish yo'li bilan ishlab chiqarish quvvatlarini qo'shimcha o'stirish zarurati belgilanadi.

4. Kapital qo'yimlarning moliyaviy manbalari

Asosiy fondlarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda yalpi milliy mahsulot va tarkibiy qismlarini qoplash fondi va milliy daromad, iste'mol fondi va jamg'arish fondi orasidagi aloqa va nisbatlarda o'z ifodasini topadi. Kapital qo'yimlarning bosh manbai- bir vaqtning o'zida takror ishlab chiqarish jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalanish natijasi va ishlab chiqarish asosi sifatida ishtirok etuvchi milliy daromad hisoblanadi. Asosiy fondlarni qo'llash jarayonida, iqtisodiy doiraga tabiiy va mehnat resurslarini kiritish bilan yaratilgan yalpi milliy mahsulotda alohida sarflar asosiy fondlarni qoplash va jamg'arishga qilinadi va ma'lum resurslar jamiyatning joriy ehtiyojlarini qondirishga sarflanadi.

Milliy daromad jamiyatning joriy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan iste'mol fondlaridan va asosiy fondlarni shakllantirishga ketadigan jamg'arma fondlaridan tashkil topadi. Hozirgi vaqtda davlat kapital qo'yimlarining kattagina kismi jamg'arma fondidan, qolgan qismi asosiy fondlarni oddiy takror ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan amortizatsiya ajratmalaridan tashkil topadigan qoplama fondlar hisobidan amalga oshiriladi.

Kapital qo'yimalarga bo'lgan ehtiyoj maxsus mablag'lar va turli fondlarga ajratmalarni hisobiga shakllantiriladigan korxonalar va tashkilotlarning markazlashmagan mablag'lari hisobidan ham qoplanadi.

Yangicha xo'jalik yuritish sharoitlarida ham asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishda markazlashmagan qo'yimalarning roli ham sezilarli darajada oshdi. Yangi texnikani joriy qilishga, uskunalarni yangilashga, xalq iste'moli mollarni ishlab chiqarishni kengaytirish va tashkil qilishga sarflanadigan ishlab chiqarishni rivojlantirish fondlari va bank kreditlari markazlashmagan mablag'larni barpo qilishning bosh manbai hisoblanadi.

Ko'mir va gaz qazib chiqarish hisobiga yoqilg'i sanoati tarmoqlarida ilg'or o'zgarishlar ro'y berdi. Qurilish tashkilotlari shohobchalarini kengayishi va qurilish ishlab chiqarishni industrilashtirish darajasini oshishi katta miqdorda kapital qo'yimalarning o'zlashtirilishiga imkoniyat yaratdi. Davlat tomonidan yirik mablag'lar qishloq xo'jaligiga, birinchi navbatda paxtachilikka va uning asosi bo'lmish sug'orma dexqonchilikka ajratildi. Shu bilan bog'liq qo'riq yerlarning yangi massivlari o'zlashtirildi. Transport vositalarining o'sishi va takomillashishi ta'minlandi, avtomobil va temir yo'llarining keng shoxobchalari barpo etildi, aloqa korxonalari, sog'liqni saqlash, maorif muassasalari, kommunal xo'jalik-maishiy xizmat korxonalari qurildi.

Sanoat tarmoqlari bo'yicha kapital qo'yimalarni miqdorini to'g'ri belgilash uchun ishlab chiqarish quvvatlarining rejali balanslari ishlandi. Ushbu balanslarda reja davri boshida ishlab chiqarishning mavjud quvvatlari hamda mo'ljallanayotgan miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur quvvatlar belgilanadi. Mavjud quvvatlarda ishlab chiqarish quvvatlarini ko'paytirish hamma rezervlarni hisobga olgan holda chuqur tahlil qilingandan keyin ishlab turgan korxonalarni qayta qurish yoki yangilarini qurish yo'li bilan ishlab chiqarish quvvatlarini qo'shimcha o'stirish zaruriyati belgilanadi.

Tarmoq bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarining balansi quyidagicha belgilanishi mumkin: bo'lajak yilda mo'ljallanayotgan miqdor mahsulot Mni ishlab chiqarish uchun Qni Mx. Fk ning teng bo'lgan ishlab chiqarish quvvati talab qilinadi, unda Fk-ishlab turgan quvvatlarni foydalanish koeffitsienti, ularning yangi quvvatlarini kiritish muddatlari hamda rejalashtirilayotgan yilda harakatdagi quvvatlarning ro'yxatdan chiqarilishiga muvofiq kelishi kerak. O'rtacha yillik quvvatni miqyosi qo'yidagi miqdorlardan tuziladi:

-ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash texnologik jarayonlarni yaxshilash, uskunalarni o'zgartirish va boshqa tashkiliy-texnik tadbirlarni hisobiga o'rtacha yillik quvvatlarning o'sishi:

-ishlab turgan korxonalariga qayta qurish hisobiga quvvatlarning o'rtacha yillik o'sishi;

yangi qurilish hisobiga quvvatlarni o'rtacha yillik o'sishi: -jismoniy va ma'naviy eskirish bilan bog'liq quvvatlarni o'rtacha yillik ro'yxatdan chiqishi.

Quvvatalarning o'rtacha yillik o'sishi miqdori dastavval yil davomida yangi quvvatlar kiritilishiga bog'liq.

Yil oxiriga tarmoq ega bo'ladigan ishlab chiqarish quvvati ishga tushirilayotgan quvvatdan ko'p bo'lishi lozim. Ishlab chiqarish quvvatlarining rejali balansi kelajak yilga yangi quvvatlarni to'g'ri asoslashga imkoniyat yaratadi. Uzoq davrni o'z ichiga oladigan istiqbolli rejada sanoatda kapital qo'yimlar tiplari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishining mo'ljallanayotgan o'sishiga bog'liq holda belgilanishi mumkin.

Kapital qo'yimalarning tarmoqlararo balanslarda, shu jumladan kapital qo'yimalarning tarmoqlararo balans tenglamalariga kiritish usuli masalalari aks ettirishning ilmiy asoslari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu nuqtai nazardan ularni bozor iqtisodiyoti sharoitida yangicha xo'jalik yuritish tamoyillariga mos holda amalga oshirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Qisqa xulosalar

Kapital qo'yimlar tarmoq, texnologik va takror ishlab chiqarish tarkiblari bilan ta'riflanadi. Kapital qo'yimalarning tarmoq tarkibi-bu xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha kapital qo'yimalarning miqdoriy nisbatini aks ettiradi.

Kapital qo'yimalarning texnologik tarkibi - mashina va asbob- uskunalarni sotib olishga va qurilish montaj ishlarini amalga oshirishga ketadigan xarajatlar orasidagi nisbatni aks ettiradi. Asosiy

fondlarning aktiv qismini (mashina va asbob-uskunalarini takror ishlab chiqarishning kapital qo'yimalardagi ulushini oshirish yo'li bilan ularning texnologik tarkibini takomillashtirish sarflar samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Tayanch iboralar

Kapital qo'yilma, iqtisodiy tizim, tarmoq tarkibi, texnologik tarkib, kapitalashtirish, ho'jalikni kapitallashtirish, kapital qo'yimalarni kreditlash, moliyaviy manba, markazlashgan va markazlashmagan manbalar.

Nazorat savollari

1. Kapital qo'yimlar qanday mablag'lar?
2. Kapital qo'yimlarning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Kapital qo'yimlarning moliyaviy manbalarini nimalar tashkil qiladi?
4. Kapital qo'yimlarning moliyaviy manbalarini ayting.
5. Kapital qo'yimlarga bo'lgan ehtiyoj tushunchasini ayting.
6. Kapital qo'yimlarning texnologik tarkibi nimani anglatadi?

Adabiyotlar ro'yxati

1. "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda Qonuni. "Soliqlar va bojxona xabarlari" gazetasi. 1999. 4 soni. 1-2 b.
2. "Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2005 yil 20 iyun. "Xalq so'zi" gazetasi. 1-2 b.
3. Vayin S. Investitsii i treyding: formirovanie individualnogo podxoda k prinyatiyu investitsionnmx resheniy / Saymon Vayin. - M.: Alpina Biznes Buks, 2006. 434-438 s.
4. Volkov A.S., Marchenko A.A. Otsenka effektivnosti investitsionnmx proektov: Uchebnoe posobie. - M.: Izdatelstvo RIOR, 2006. - 93-98 s.
5. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. -T.: Mehnat, 2003. 228-233 b.
6. <http://www.edu.uz/>. - O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti.

10. Davlat investitsiya dasturi

Reja:

1. **O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturining mazmuni, ahamiyati va uni shakllantirishning asosiy tamoyillari va tartib qoidalari.**
2. **Davlat investitsiya dasturini moliyalashtirish manbalari.**
3. **Davlat investitsiya dasturining amalga oshirilishi monitoringi.**

1. O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturining mazmuni, ahamiyati va uni shakllantirishning asosiy tamoyillari va tartib qoidalari.

Investitsiya dasturi (keyingi o'rinlarda Dastur deb ataladi) Respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mexnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan Respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro boglangan chora tadbirlar kompleksidir.

O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlarining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Bu bilan birga Investitsiya dasturi loyiha-qidiruv ishlaridan boshlab mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umumdavlat dasturlari bajarilishini ta'minlash uchun ob'ektni foydalanishga topshirishgacha bo'lgan bosqichlarni hisobga olgan holda, investitsiya loyihalarini amalga oshirish muddatlarini va moliyalashtirish manbalarini hisobga olish, har yili dasturning asosiy ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan va aniq ro'yxati yangilangan holda 3 yillik davrga shakllantiriladi.

Investitsiya dasturi yigma jadvallar bilan tahliliy qismdan, aniq dasturdan va ustuvor investitsiya takliflarining yigma ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Investitsiya dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishi bo'yicha barcha ishlarni O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi muvofiqlashtirib boradi.

Investitsiya dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi.

Investitsiya dasturining tahliliy qismi Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'langan holdagi kapital qo'yilmalar hajmlari va moliyalashtirish manbalarini asoslashdan, Dastur samaradorligini baholash, loyihalarni tanlab olish mezonlaridan iborat bo'ladi.

Dasturning tahliliy qismi tarkibida investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibini hisobga olgan holda umuman Dastur, iqtisodiyot sektorlari va tarmoqlari, moliyalashtirish manbalari va hududlar, amalga oshirish yo'llari bo'yicha kapital qo'yilmalar tarkibi beligilanadi.

Dasturning yalpi ichki maxsulot o'sishiga, iqtisodiyotning tarmoq va hududiy o'zgarishiga va import tarkibiga, ishlab chiqarish quvvatlarini va ijtimoiy soha ob'ektlarini ishga tushirish hajmlariga ta'sirining prognozlashtirilgan natijalari hisob-kitob qilinadi.

Dasturning barcha hisob-kitoblari tadrijiy tarzda, Respublikani uch yillik davrda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlari va investitsion loyihalarining aniq dasturi asosida ishlab chiqiladi.

Dasturning aniq ro'yxatiga markazlashtirilgan manbalar, hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar va to'gridan-to'gri xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari kiritiladi.

Dasturning aniq ro'yxati quyidagilardan iborat bo'ladi:

- iqtisodiyotni, ijtimoiy sohani va mamlakat mudofaa qudratini tarkibiy o'zgartirishni ta'minlovchi Respublika iqtisodiyoti ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan markazlashtirilgan investitsiyalar limitlaridan;

- xorijiy investitsiyalar va hukumat kafolati ostida kreditlarni jalb etgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining aniq dasturidan;

- to'gridan-to'gri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining aniq dasturidan;

- ustuvor investitsiya takliflarining yigma ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Ijtimoiy soha ob'ektlarining prognozlashtirilayotgan hajmlari Dasturga yiriklashtirilgan, buyurtmachilar va ob'ektlar bo'yicha taqsimlanmagan holda kiritiladi.

Quyidagilar loyihalarni amalga oshirishning birinchi yilida ularni aniq dasturga kiritishning majburiy shartlari hisoblanadi;

- belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihaning (investitsiya loyahasining texnik-iqtisodiy asoslashlari, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari) mavjud bo'lishi;

- moliyalashtirish manbalarining va kreditlarning shartnomada belgalangan muddatda qaytarilishining tasdiqlanishi.

Aniq dasturni shakllantirish jarayoni har bir loyiha bo'yicha mo'fassal axborot tayyorlash, loyihani ustuvorligi bo'yicha tanlab olish va ro'yxatni shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Har bir loyiha (loyihalar guruxi) bo'yicha axborot buyurtmachi tomonidan tayyorlanadi hamda unda quyidagilar bo'ladi:

- belgilangan shakldagi loyiha pasporti;

- loyihani amalga oshirish reja-jadvali;

- aniq dasturni shakllantirish sanasida loyihani amalga oshirishning holati to'grisidagi mufassal axborot.

Loyihaning pasporti:

- texnik tavsifnomani;

- atrof-muxitga ta'sirni baholashni;

- Ishlab chiqarish va ijtimoiy mulohazalarga ko'ra samaradorlikni va amalga oshirish imkoniyatlarini baholashni, tashkiliy tadbirlarning ko'lamini;

- maxsulotga talab hajmi va xususiyatini;
- echimning muqobil variantlari mavjudligini, bu jumladan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni rekonstruksiya qilish yo'li bilan;
- asosiy materiallar va ishchi kuchi resurslarining mavjudligini;
- investitsiya xarajatlarini miqdorlarini o'z ichiga oladi.

Aniq loyiha uni amalga oshirish maqsadga muvofiqligidan, uning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligidan, ishlab chiqarish va ijtimoiy muloxazalarga ko'ra amalga oshirish imkoniyatlari va maqbulligidan, tarmoqni rivojlantirishning strategik vazifalariga muvofiqligidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich tanlab olinadi.

- birinchi bosqichda - loyiha aniq tarmoq va mintaqani rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda oldindan baholanadi;

- ikkinchi bosqichda - loyiha iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va mintaqalarni rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda tanlab olinadi.

Aniq dasturga iqtisodiy jihatdan samarasiz loyihalarni, shuningdek ilgari jalb qilingan kreditlar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzi bo'lgan korxonalar loyihalarini kiritish taqiqlanadi.

Quyidagilar birinchi bosqichda loyihaning ustuvorligini belgilashning mezonlari hisoblanadi;

- loyihaning tarmoqni rivojlantirish strategiyasiga muvofiqligi;
- moliliyaviy va iqtisodiy samaradorlik;
- maxalliy xom ashyodan va butlovchi buyumlardan foydalanish darajasi;
- tayyorlangan mutaxassislarning mavjudligi;
- loyihaning amalga oshirishga tayyorlanganligi darajasi;
- ishga tushirilgandan keyin foydalanish xarajatlari.

Har bir mezonning muhimligi darajasi tarmoqni rivojlantirish strategiyasini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda uch yillik davrda Respublika iqtisodiyotidagi tarkibiy o'gartirishlar prognoziga muvofiq qo'shimcha ravishda quyidagi mezonlar hisobga olinadi:

- tarmoq (mintaqa)ning istiqboldagi prognoz o'sish sur'atlari;
- eksport salohiyatining prognoz o'sish sur'atlari;
- tarmoqning umuman Respublika bo'yicha maqroiqtisodiyot ko'rsatkichlariga ta'sirining o'zgarishi;
- tarkibiy omillar;
- ilgari qo'yilgan investitsiyalar samaradorligi;
- asosiy fondlar ahvoli va quvvatlardan foydalanish darajasi;
- loyihaning ijtimoiy ahamiyati.

Ikkinchi bosqichda tanlab olish natijalariga ko'ra Dasturga kiritilgan ob'ektlarning aniq dasturi shakllantiriladi.

Dasturni va investitsiya loyihalarini amalga oshirishning birinchi yili ko'rsatkichlari mavjud moliyaviy resurslar va boshqa resurslar bilan o'zaro boyalangan bo'lishi kerak hamda birinchi moliyaviy yilda o'zgartirilmaydi.

Dasturni va investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ikkinchi va keyingi yillari ko'rsatkichlari har yili aniqlashtirilishi kerak, bunda boshlanmagan loyihalarning bir qismi yangi loyihalarga almashtirilishi mumkin.

Dasturning yigma ro'yxatiga vazirliklar va idoralar, Qoraqalpogiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar korxonalar va tashkilotlarning ustuvor investitsiya takliflari kiritiladi.

Buyurtmachilar tasdiqlangan investitsiya dasturi asosida vakolatli banklarda moliyalashtirishni rasmiylatirish uchun har yili qurilishlarning aniq ro'yxatini va Dasturni amalga oshirishning ikkinchi va uchinchi yillariga kiritilgan ob'ektlar bo'yicha loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxatni aniqlashtiradilar.

Markazlashtirilgan manbalar va davlat korxonalarini mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan qurilishlarning aniq ro'yxatlari iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishgan holda investorlar (Buyurtmachilar) tomonidan tasdiqlanadi.

Boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladigan qurilishlarning aniq ro'yxatlari investorlar (buyurtmachilar) tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlanadi.

Kredit resurslarini jalb etgan holda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining aniq ro'yxatlari tegishli kredit shartnomasi yoki kreditlovchi bankning yozma roziligi mavjud bo'lganda tasdiqlanadi.

Qurilishlarning aniq ro'yxati birinchi yil mobaynida tanlov savdolari yoki yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish kengashining alohida qarorlari bo'yicha aniqlashtirilishi mumkin.

Istisno hollarda, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tanlov savdolari natijalariga ko'ra «boshqa xarajatlar» limiti hisobiga asbob – uskunalar xarid qilish limiti aniqlashtirilishiga yo'l qo'yiladi.

Qurilishning titul ro'yxati tasdiqlangan limitlar doirasida qurilishning butun davriga tuziladi va Dastur tasdiqlangandan keyin 2 oydan kechiktirilmadan tanlov savdolari natijalariga ko'ra shakllantiriladi.

Dasturdagi qurilishning titul ro'yxati investor (buyurtmachi) tomonidan pudratchi bilan kelibgan holda tasdiqlanadi.

Qurilishning tasdiqlangan ro'yxatida kapital qo'yilmalar limitlari umuman investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun nazarda tutiladi, bunda qurilish-montaj ishlari, asbob-uskunalar xarid qilish, loyiha-kidiruv ishlari xarajatlari va boshqa xarajatlar (pudratchi va buyurtmachilar xarajatlari alohida ko'rsatiladi) qurilish yillari bo'yicha taksimlangan holda ajratish ko'rsatiladi.

Tanlov savdolari natijalariga ko'ra belgilangan qurilish qiymati birinchi moliyaviy yilda xarajatlar qiymati ortishi prognozini hisobga olishi kerak. Birinchi moliyaviy yilda qurilishning titul ro'yxatida loyiha-kidiruv, qurilish-montaj ishlari ko'rsatkichlari aniqlashtirilishiga yo'l ko'yilmaydi.

Uch yillik dasturni shakllantirish jarayoni bir yillik siklga ega bo'ladi hamda yangilangan Dasturni har yilning oxirigacha tayyorlashni ta'minlovchi ilovaga muvofiq kat'iy jadvalga tayanadi.

Investitsiya dasturiga kiritish uchun takliflar tayyorlashda buyurtmachilar quyidagi tartibga amal qilishlari kerak:

- Dasturni amalga oshirishning birinchi yiliga kelgusi yillar loyiha-kidiruv ishlarining aniq ro'yxati va moliyalashtirish bilan ta'minlangan (kelgusi yilga o'tuvchi va yangidan boshlanayotgan) qurilishlarning aniq ro'yxati tuziladi;

- Dasturni amalga oshirishning ikkinchi yiliga unga kelgusi yillar loyiha-kidiruv ishlarining aniq ro'yxati va birinchi yildan o'tuvchi qurilishlarning prognoz ro'yxati va Dasturni amalga oshirishning birinchi yilida loyiha hujjatlari tayyorlangan va tasdiqlangan, birinchi yilida tanlov savdolariga tayyorlanadigan yangidan boshlanadigan ob'ektlar kiritiladi;

- Dasturni amalga oshirishning uchinchi yiliga unga kelgusi yillar loyiha-kidiruv ishlarining aniq ro'yxati va tanlov savdolari natijalariga ko'ra belgilangan amalga oshirish muddatlarini hisobga olgan holda qiymati belgilangan tartibda aniqlashtirilgan birinchi va ikkinchi yildan o'tuvchi qurilishlarning prognoz ro'yxati, loyiha xujjatlari ikkinchi yildan tayyorlanadigan va tasdiqlanadigan yangidan boshlanadigan ob'ektlar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi

Bosk ich-lar	Tadbirlar	Mudat-lar	Mas`ullar
--------------	-----------	-----------	-----------

1-bosqich	iqtisodiyot vazirligi uch yillik davrga O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritish uchun takliflarni tayyorlashga oid metodik ko'rsatmalarni tarmok vazirliklari va idorali, Qorakalpogiston Respublikasi Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga (keyingi o'rinlarda buyurmachilar deb ataladi) har yili etkazadi.	Aprel'	iqtisodiyot vazirligi
2-bosqich	Buyurtmachilar loyihalr bo'yicha dastlabki axborotni tayyorlaydi, ularni uch yillik davrda amalga oshirish uchun tanlab oladilar va takliflarni iqtisodiyot vazirligiga takim etadilar	May-iyun'	buyurmachilar
3-bosqich	iqtisodiyot vazirligi takliflarini ko'rib chikadi va o'rtacha mudatli davrda aniq tarmokni rivojlantirish ustuvorliklariga muvofiq tarmoklarni tanlab oladi.	Iyun'-iyul'	iqtisodiyot vazirligining tarmok bo'limlari
4-bosqich	iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy alokalar agentligi, «Davarxitektqurilish» ko'mitasi va vakolatli banklar bilan birgalikda Investitsiya dasturiga kiritiladigan loyihalarni uzilkesil tanlab oladi.	Avgust-sentyabr'	iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iktisodiy alokalar agentligi, «Davarxitektqurilish» ko'mitasi, vakolatli banklar
5-bosqich	Investitsiya dasturining loyihasi iqtisodiyot vazirligi huzuridagi birlashgan hay'at tomonidan ko'rib chikiladi va uning qaroriga ko'ra Ishlab chikib va Vazirlar Maxkamasining komplekslari bilan kelishish uchun Tashqi iqtisodiy alokalar va xorijiy investitsiyalar departamentiga takdim etiladi.	Sentyabr'	iqtisodiyot vazirligi huzuridagi birlashgan hay'at, Vazirlar Mahkamasining komplekslari
6-bosqich	Investitsiya dasturining loyihasi tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.	oktyabr'	Vazirlar mahkamasining Tashqi iqtisodiy alokalar va xorijiy investitsiyalar departamenti
7-bosqich	Investitsiya dasturining amalga oshirishning birinchi yiliga kiritiladigan yanggidan boshlanadigan ob'ektlar bo'yicha tanlov savdolari o'tkaziladi.	Oktyabr'-noyabr'	«Davarxitekt qurilish» ko'mitasi, buyurtmachilar
8-bosqich	Tasdiqlangan investitsiya dasturiga va o'tkazilgan tanlov savdolariga muvofiq belgilangan tartibda shartnomalar tuziladi, qurilishlarning aniq va titul ro'yxatlari, kelgusi yillar loyihalash ishlarining aniq ro'yxatlari tasdiqdanadi.	Dekabr'	Buyurmachilar prudratchilar

2. Davlat investitsiya dasturini moliyalashtirish manbalari

Investitsiya dasturini moliyalashtirish manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Markazlashtirilgan investitsiyalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat byudjeti mablag'lari;
- davlat byudjetidan tashkari fondlar mablag'lari;
- hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar;
- hukumat qarorlariga ko'ra belgilanadigan boshqa manbalar.

2. Markazlashtirilmagan investitsiyalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar mablag'lari;
- tijorat banklarining, bu jumladan xorijiy tijorat banklarining kreditlari;
- jismoniy shaxslar, bu jumladan xorijiy jismoniy shaxslar mablag'lari;
- qonun hujjatlarga zid bo'lmagan boshqa manbalar.

Markazlashtirilgan investitsiyalar Respublika xalq xujaligini tarkibiy qayta qurishni, Respublikaning Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish saloxiyatini saqlab qolish va rivojlantirishni, moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobiga mumkin bo'lmagan ijtimoiy muammolarni va boshqa muammolarni hal etishni ta'minlovchi Respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlarida asosiy fondlarini yaratish va ko'paytirish uchun foydalaniladi.

Markazlashtirilgan investitsiyalar faqat:

- Respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlariga davlat maqsadli dasturlarini va davlatlararo bitimlarni amalga oshirishga;
- aholining extiyojmand qatlamlarini davlat tomonidan ijtimoiy muhofaa qilishni ta'minlash uchun uy-joy qurilishiga;
- suv ho'jaligi qurilishiga;
- aholi yashaydigan joylarning muxandislik infratuzilmasini rivojlantirishga;
- davlat boshqaruvi organlari, mudofaa va huquqni muhofaza qilish organlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustaxkamlashga;
- fan, ta'lim, sogliqni saqlash, sport, madaniyat va ijtimoiy infratuzilmaning boshqa tarmoqlari ob'ektlari qurilishiga;
- umumdavlat tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga va tabiiy ofatlardan ximoya qilish inshootlari qurilishiga ajratiladi.

3. Davlat investitsiya dasturining amalga oshirilishi monitoringi.

Monitoring, eng avvalo, loyihani moliyalashtirishga mablag' berish bitimiga tegishli barcha xujjatlarni va ularning shartlari bajarilishini, ularning bank-kredit siyosatiga, kabul qilingan me'yorlar va tartiblarga muvofiqligini davriy tekshirish borishni o'z ichiga oladi. Navbatdagi qadam qarzdorning moliyaviy layoqatini baholash bo'lib, uning balansini, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotini xamda mijozning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi boshqa xujjatlarini taxlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Monitoringning yana bir muxim tomoni kreditni qoplashning ikkilamchi manbai - uning qaytarilishining ta'minotini tekshirish hisoblanadi.

Bugungi kunda Respublikamizda xar yili yuzlab loyihalarni moliyalashtirish amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar davlat byudjeti mablag'lari, xalkaro kredit liniyalari mablag'lari hisobiga, Biznes-fond va byudjetdan tashqari fondlar, banklar, chet ellik va xususiy investorlar tomonidan moliyalashtirilgan ekan, albatta, bu mablag'larning kaytarilishi va ma'lum miqdorda ularning foyda bilan ta'minlanishi talab etiladi. Ushbu mablag'larning muayyan foydasi bilan kaytishligini aniqlash, tekshirib borish va taxlil qilib turish uchun kreditorlar tomonidan, shuningdek mol etkazib beruvchilar, xususan, lizing, sug'urta kompaniyalari va kafillik beruvchi tashkilotlar tomonidan loyihalarning monitoringi olish boriladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida xam moliyalashtirilayotgan barcha loyihalar ustidan monitoring olish borishning umumiy tizimi joriy qilingan.

Xar bir moliyalashtiruvchi yoki kreditlashni amalga oshiruvchi tashkilotlar o'zlarining faoliyat turi va xususiyatlaridan kelib chikib, o'zlariga xos bo'lgan monitoring o'tkazish tartibini ishlab chiqadilar va bu asosda faoliyat yuritadilar.

Monitoringning mazmuni "ko'zgu" degan ma'noni anglatadi.

Monitoringni yuritishda quyidagilar ko'zda tutiladi:

4. Amalga oshirilmog'chi bo'lgan loyihada nima ishlab chiqarish ko'zda tutilganligi.
5. Ishlab chiqarish jarayonini bilishlik, ya'ni maxsulot ishlab chiqarish jarayonini boshidan oxirigacha kuzatib borish.
6. Ishlab chiqarish korxonasining tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik jihatdan asoslanishi va tashkil etilishi.
7. Loyihani moliyalashtirish manbalarini aniqlash va uni moliyalashtirishni amalga oshirish.

Monitoring olib borish bosqichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni yiyayish va qayta ishlash;
- olingan ma'lumotlar asosida korxonalarning moliyaviy-xo'jalik holatini taxlil etish;
- taxlil natijalari bo'yicha xulosalar qilish va takliflar berish.

Dasturni amalga oshirilishi monitoringi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2000 yil 4 yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risidagi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Dasturning davlat monitoringi:

- investitsiya loyihalarini, va birinchi navbatda, markazlashtirilgan investitsiyalardan foydalangan holda ro'yobga chiqarilayotgan investitsiya loyihalarini o'z vaktida va samarali amalga oshirilishini ta'minlash;
- loyihalarni belgilangan tartibda tasdiqlangan parametrlarga (texnik-iqtisodiy asoslar, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar), tanlov savdolari (tenderlar) shartlariga rioya qilish;
- amalga oshirilayotgan loyihalar bo'yicha axborot bazasini shakllantirish;
- investitsiya loyihalarini amalga oshirishda paydo bo'ladigan muammoli masalalarni kuzatib borish;
- investitsiya iklimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish maqsadida amalga oiriladi.

Dasturning monitoringi xar oyda statistika hisoboti va so'rov yo'li bilan iqtisodiyot vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Dasturning monitoring natijalari Dasturning amalga oshirilishi to'g'risidagi xar choraklik axborotlarni tayyorlashda xamda navbatdagi uch yillik davrga Dasturni shakllantirishda foydalaniladi.

Nazorat savollari

1. Investitsiya dasturi deganda nimani tushunasiz?
2. Dasturning aniq ro'yxati quyidagilardan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi qanday bosqichlardan iborat?
4. Investitsiya dasturini moliyalashtirish manbalari nimalar?
5. Monitoring deganda nimani tushunasiz?
6. Monitoringni yuritishda nimalar ko'zda tutiladi?
7. Monitoring olib borish bosqichlari nimalardan iborat?

11. Investitsiyalarni boshqarish.

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xususiylashtirish investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlar bilan ta'minlandi.

2005 yil 11 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga asosan endilikda 2005 yilning 1 iyulidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarini asosiy faoliyati bo'yicha daromad (foyda) solig'i, mulk solig'i, ekologiya solig'i, mikro firma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilinadi.

Endilikda to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi:¹

- 1) 300 ming AQSh doll. dan 3 mln. AQSh doll. gacha-3 yil muddatga;
- 2) 3 mln. ortiq AQSh doll. dan 10 mln. AQSh doll. gacha-5 yil muddatga;
- 3) 10 mln. AQSh doll. dan ortiq bo'lganda 7 yil muddatga.

Ushbu Farmonning 1-bandida ko'rsatilgan soliq imtiyozlari qo'yidagi shartlar asosida qo'llanilishi belgilab qo'yilgan:

-mazkur korxonalarini ortiqcha ishchi kuchi bo'lgan mintaqalar- Qoraqolpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, shuningdek, Navoiy, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining qishloq aholi punktlarida joylashtirish;

-investitsiyadan foydalanishda har ikkala tomonlarning iqtisodiy manfaatini teng hisobga olgan holda amalga oshirish kerak. Investitsiyani boshqarish tartibi va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish zarur.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan "O'z sanoatqurilishbank" moliyaviy salohiyatga ega. U respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Bugungi kunda u 18,2 mingdan ortiq kichik va xususiy kompaniya va firmalarga xizmat ko'rsatayapti. Ularning 8978 tasi yuridik shaxs maqomidagi tadbirkorlar, shu jumladan, 1276 ta fermer xo'jaliklari, 9225 tasi yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlardir. O'tgan yil davomida kichik biznes sub'ektlariga umumiy summasi 15,0 mlrd. so'mdan ortiq va mikro kreditlarga 4,2 mlrd. so'mdan ziyod kreditlar taqdim etildi. Bu kreditlarning umumiy miqdorida bankning o'z mablag'lari 13,9 mlrd. so'mni yoki umumiy miqdorning 93 foizini tashkil etadi.⁶

Bundan tashqari bank xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni milliy valyutada moliyalash bilan bir qatorda xorijiy investorlarga ham halqaro moliyaviy institutlarning kredit liniyalari hamda o'z mablag'lari hisobidan ularni kreditlashni ham faol amalga oshirmoqda.

2005 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, bankning kredit qo'yilmalari 235,5 mlrd. so'mni tashkil etib, hisobot davrining boshidagiga nisbatan 49,8 mlrd. so'm yoki 1,27 marta oshdi.

2004 yilda berilgan kreditlar miqdori 148,0 mlrd so'm atrofida bo'lgan. Shundan 52 foizi sanoat korxonasi va tashkilotlarga tegishlidir. Bir yildan ortiq muddatga taqdim etilgan kreditlarning umumiy salmog'i esa 80,2 foiz yoki 187,7 mlrd. so'mni tashkil etgan edi.⁷

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish hukumat tashqi iqtisodiy faoliyatini diqqat markazida bo'ldi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda hukumat quyidagi tamoyillarga asoslandi:

-tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat yuritish;

-respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'ni keng jalb etishni ta'minlaydigan xuquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart- sharoitlarni tobora takomillashtirish;

-respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan va iqtisodiyotning zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko'maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yurgizish;

⁶ Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг статистик маълумотлари. 2003-2015.

⁷ Маълумотлар. Иқтисодиёт Вазирлигидан олинган, 2005.

mablag'larni respublika mustaqilligini ta'minlaydigan, import o'rnini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor yo'nalishda jamlash.

Shuningdek respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyani jalb etishni faollashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

-investitsiya loyihalarini malakali ekspertlar nazoratidan o'tkazish va mukammal tayyorlanishiga erishish;

-qo'shma korxonalar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi boshqa turdagi tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazishdagi to'siqlarni butunlay olib tashlash.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalariga jalb etishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

1) qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;

2) mineral xomashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo'yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;

3) transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;

4) iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilmtalab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;

5) turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga erishish.

"Chet el investitsiyalari, xalqaro birlashmalar va tashkilotlar ishtirokidagi korxonalarni, shuningdek ularning tarkibiy bo'linmalarini tashkil etish va bu korxonalarining faoliyat tartibi to'g'risida"gi Nizomga binoan mulkida o'zbek va xorijiy yuridik shaxslari hamda fuqarolari ishtirok etuvchi korxonalar O'zbekiston Respublikasi hududidagi qo'shma korxonalar hisoblanadi.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosat jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonini faqat davlat tarkibiy tuzilishi bo'yicha emas, balki xususiy sektor darajasida ham jadallashtirishni nazarda tutadi. Ochiq bozorning faoliyat ko'rsatishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar G'arb va Sharq ishbilarmonlarining mamlakatimizga bo'lgan qiziqishining ortib borishini ta'minlamoqda. Bu shuning uchun muhimki, bizning tadbirkorlarimiz ham xorijiy investorlarni hamkorlikka jalb etish imkoniyatlari haqida tez-tez bosh qotirishmoqda.

1998 yil Respublikamizda investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi 3 ta - 1998 yil 30 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi va "Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralari to'g'risida"gi hamda 1998 yil 24 dekabrda "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilashga va uning iqtisodiyotga investitsiya joylashtirish hajmlarini oshirishga yo'naltirilgan.

Turli birlashmalar, uyushmalar, konsernlar, konsorsiumlar O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyasi bo'lgan korxonalarni ixtiyoriy asoslarda barpo etishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 22 martdagi farmoniga muvofiq quyidagi mezonlarga javob beruvchi chet el, shu'ba va qo'shma korxonalar chet el investitsiyasi bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari qatoriga kirishi belgilab qo'yildi: ustav jamg'armasi miqdori 150 ming AQSh doll. dan kam bo'lmagan korxonalar; korxonalar ishtirokchilaridan biri albatta chet el yuridik shaxsi hisoblangan; korxonaning ustav faoliyatida o'z ishlab chiqarishi yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar servis xizmat hissasiga xo'jalik faoliyatidan tushumlar umumiy hajmining 60% dan ko'prog'i to'g'ri keladigan korxonalar.¹

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalar ichida qo'shma korxonalar yetakchi o'rinda turadi. To'liq xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan korxonalar kam. Ko'pchilik davlatlarda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish har xil. Ba'zi davlatlarda bu vazifani Moliya vazirligi bajaradi, boshqalarida Adliya vazirligi bajaradi. O'zbekistonda bu vazifani Adliya vazirligi amalga oshiradi. O'zbekistondagi xorijiy investitsiya qatnashgan

korxonalar respublika hududida o'zining filiallari yoki vakil korxonalarini tashkil etishlari mumkin. Bundan tashqari ular boshqa davlatlarda ham o'z filiallarini ochishlari mumkin.

O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar O'zbekiston Respublikasi hududida xo'jalik assotsiatsiyalari, konsernlar va boshqa birlashmalar tuzishlari mumkin. Xorijiy investitsiyalarning huquqiy himoyasi ta'minlangan. Bu himoya har bir korxonada bo'lgani kabi xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar uchun taalluqli. Milliy iqtisodiyotning ustuvor sohalari va hududlariga investitsiya kiritgan xorijiy investorlarga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan qo'shimcha imtiyozlar berilishi mumkin. Shu bilan birga qonunda xorijiy investorlarning faoliyat turlari ham belgilangan. Xorijiy investorlar yoki xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar mavjud qonunchilikka muvofiq, o'z maqsadlari va nizomlaridan kelib chiqib, barcha turdagi faoliyatlarni olib borishlari mumkin.

Xorijiy investorlar investitsiya hajmi, turlari, yo'llarini belgilaydilar va ularni xohlagan korxonaga mustaqil ravishda kiritishlari mumkin. Investor o'zi kiritgan investitsiya ob'ektlari va natijalariga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqiga ega. Shu bilan birga reinvestitsiya va savdo operatsiyalarini O'zbekiston hududida milliy qonunchilik asosida, undan tashqarida esa xalqaro qonunlar asosida amalga oshirish huquqlariga ega. Investor egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlarini qonun bo'yicha boshqa huquqiy va jismoniy shaxsga berishi mumkin. Tomonlarning o'zaro huquqlarini bir-biriga o'tkazish vaqtidagi aloqalarni faqat ular o'rtasida tuzilgan hujjat-shartnomalar hal qila oladi. Xorijiy investorlar va korxonalar qonunchilikda ko'rsatilgan holatlarda yer uchastkalarini sotib olishlari mumkin. Xorijiy investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga rioya etish zarur:

- O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan qonunchilikka amal qilishi;

- O'zbekistonda mavjud qonunchilik talablari asosida soliq to'lash va boshqa to'lovlarni amalga oshirishi;

- investitsiya loyihasining sanitariya-gigienik ekologiya talablariga amal qilish bo'limidagi ekspertiza xulosalarini olishi;

Xorijiy investitsiyani o'z iqtisodiyotiga jalb etayotgan har bir davlat xorijlik sheriklariga huquqiy va tashkiliy kafolatlar yaratib beradi. Bu jarayon jahon tajribasida sinovdan ijobiy ravishda o'tgan. O'zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi qonunining 11- moddasida shunday yozilgan: Respublika hududida o'z investitsiya faoliyatini olib borayotgan xorijiy investorlar huquqlarining himoyasini O'zbekiston Respublikasi kafolatlaydi. Bu kafolat albatta, xalqaro huquq normalari asosida beriladi. Agarda O'zbekistonning yangi qabul qilingan qonunchiligi investitsiya sharoitlarini yomonlashtirsa, o'n yilgacha xorijiy investitsiyalar ular jalb qilingan davrda qabul qilingan qonunchilik shartlari saqlanib qoladi. Bu talab mudofaa, milliy havfsizlik, jamoat tartibini saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq qonunchilikni o'zgartirmaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari xorijiy investorlarning huquqlariga putur yetkazadigan huquqiy normativlarni qabul qilgan taqdirda, investorlarga yetkazilgan zarar shu organlardan sud orqali undiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Germaniya, Hindiston, Janubiy Koreya, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Isroil, AQSh va bir qator boshqa mamlakatlar bilan investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoyalash to'g'risida bitimlar tuzdi.¹

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini amalga oshirishda dunyoning 25 dan ortiq mamlakatlari ishtirok etmoqda. Investitsiyalarni jalb etish vazifasini davlatimiz ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini yaratish va rivojlantirish asosida haqiqiy mulkdorlarni shakllantirish bilan bog'laydi.

"Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoniga binoan xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qo'shma korxonalar ro'yxatga olingan paytdan boshlab besh yil muddatga xorijiy valyutadagi tushumdan soliq to'lashdan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga valyutani majburiy sotishdan ozod qilish ko'zda tutilgan. Xorijiy investitsiya jalb etilgan korxonalarga quyidagi imtiyoz va rag'batlantirish omillari berilgan:

- tovarlar eksporti ishlab chiqarish hajmining kamida 30 foizini tashkil etadigan korxonalar, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, foyda solig'ini amaldagi stavkalardan ikki barobar kamroq to'lash huquqi;

- xorijiy investitsiyali korxonalar daromadining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiyani yangilashga sarflanadigan qismidan soliq olmaslik;

- respublika davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha soliqlar to'lashdan yetti yil muddatga ozod etish;

- ishlab chiqarilgan mahsulotning 25% bolalar uchun mo'ljallangan bo'lsa, korxonalar ishga tushgandan boshlab soliqlar to'lashdan besh yil muddatga ozod etish. Keyingi yillarda bu korxonalarining foydasidan olinadigan soliq amaldagiga qaraganda ikki marta pasaytirilgan stavkalarda undiriladi;

- ustav kapitalning 50% va undan ko'proq qismi xorijiy sherikka tegishli bo'lib, ishlab chiqarish eksportga yo'naltirilgan yoki import o'rni bosishga mo'ljallangan bo'lsa soliqlar to'lashdan ikki yil muddatga ozod etish;

- foydadan to'lanadigan soliq-18%;

- agar ustav kapitalning 50% va undan ko'proq qismi xorijiy sherikka tegishli va ustav kapitalning hajmi 500000 AQSh dollaridan 1000000 AQSh dollarigacha bo'lsa, foydadan to'lanadigan soliq-15%;

- agar ustav kapitalning 50% va undan ko'proq qismi xorijiy sherikka tegishli va ustav kapitalning hajmi 1000000 AQSh dollaridan va undan ko'p bo'lsa, foydadan to'lanadigan soliq-16%;

- agar ustav kapital hajmi kamida 500000 AQSh dollarini tashkil etsa, mol-mulk solig'idan ozod qilish;

- yer solig'idan ikki yilga ozod qilish;

- o'zi ishlab chiqargan mahsulotni ruxsatnomasiz chetga sotish;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yer uchastkalaridan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqini tanlov asosida sotib olish;

- jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatning mulkini xususiylashtirishda bemaol ishtirok etishlari mumkin.¹

O'zbekistonda xorijiy investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olgan foydalari va boshqa daromadlarini biror-bir cheklovlarisiz istalgancha chet davlatga o'tkazish imkoniyati kafolatlanadi. Bundan tashqari xorijiy investorlar Respublika banklarida hech bir cheklovlarisiz istalgan valyutada hisob raqamiga ega bo'lishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyasi bo'lgan korxonalar amaldagi qonunlarga binoan o'zi ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksportga chiqarish va o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar importini amalga oshirish xuquqiga egadir. Xorijiy investorlarga tabiiy boyliklarni qidirish, ishlab chiqarish va foydalanish va boshqa xo'jalik ishlarini yuritish uchun konsessiyalar berilishi mumkin. Konsession shartnomalar xorijiy investorlar bilan O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining vakil qilingan organlari o'rtasida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasida barpo etilayotgan korxonalar ustav sarmoyasiga xorijiy investorlarning hissasi sifatida yoki xorijiy xodimlarning o'z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan mulk bo'xona to'lovidan ozod qilinadi va import solig'i undirilmaydi.

Xorijiy investorlar O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining aksiyalari, hissalar va paylarini, shuningdek yuridik shaxslar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotib olishlari mumkin. Xorijiy investitsiyalari bo'lgan korxonadan chiqish yoki bunday korxonaning tugatilish hollarida xorijiy investorlar shu korxonalar mulkidan o'zining hissasini korxonalar mulki bilan qiymatiga mutanosib ravishda pul yoki natura tariqasida qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tuzilgan korxonalarining xo'jalik ishlarida hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida olib borilishi lozim. Bu holatlar ham Qonunda ko'rsatilgan. Bu korxonalar bankrot holatiga tushib qolganda u o'z mulki, ya'ni savdo ob'ektlari,

xizmat ko'rsatish sohalari, yer uchastkasi, binolari, qurilishlari, uskunalaridan kelib chiqib majburiyatlari ta'minlanadi. yerdan foydalanish va egalik qilish huquqi bundan mustasno.

Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan shart- sharoitlar xalqaro shartnoma va xorijiy investorlar bilan kelishuvlarda ko'rsatilgan shart-sharoitlar farq qilsa, xalqaro shartnoma va kelishuvga asosan faoliyat yurgiziladi. Shunday qilib, yaratilgan huquqiy asoslar xorijiy hamkorlarning keng investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratib, ularning huquqlari va sarflagan investitsiyasini himoya qiladi.

Hozirga kelib, O'zbekiston hududida xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni asosan nihoyasiga yetkazildi va amalda qo'llanilmoqda. Bu faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning quyidagi tizimi ishlab chiqilgan:

- xususiylashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning qatnashishi;
- texnikaviy qayta qurollanish;
- xalq iste'moli va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish;

Jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo'naltirilgan investitsiya siyosatiyuritish eng muhim omil hisoblanadi.

2014 yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSH dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yimlarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

Investitsiya dasturini amalga oshirishda korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy investitsiyalarning yildan-yilga faol ishtirok etayotgani barchamizga alohida mamnuniyat bag'ishlaydi. Birgina o'tgan yilda bunday investitsiyalar hajmi 10,3 foizga o'sib, 4 milliard 300 million dollarni yoki jami investitsiyalar hajmining qariyb 30 foizini tashkil etdi.

O'tgan yili tijorat banklarining investitsiyaviy faoliyati ham kengaydi. Ular tomonidan 1 milliard 700 million dollar yoki 2013 yilga nisbatan 20 foiz ko'p investitsiyalar yo'naltirildi.

Jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig'i ishlab chiqarish sohasiga va qariyb 40 foizi mashina va uskunalar xarid qilishga sarflandi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo'lmoqda.

2014 yilda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng bo'lgan 154 ta yirik ob'ekt foydalanishga topshirildi.

Ularning qatorida yiliga 60 mingta avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan «Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi» mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida «Damas» va «Orlando» rusumidagi yengil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish», «Jizzax viloyatida 760 ming tonna portlandsement yoki 350 ming tonna oq sement ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish», «80 ming tonna rux konsentratini qayta ishlash bo'yicha rux zavodini rekonstruksiya qilish», «Mis eritish zavodida yangi sulfat kislotasi sexini qurish», elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatini 50 megavattga oshirish maqsadida «Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasini to'liq miqyosda modernizatsiya qilish», Qoraqalpog'iston Respublikasidagi «Mang'it» mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida yiliga 5 ming tonna mahsulot chiqarish quvvatiga ega bo'lgan ip-kalava yigiruv korxonasi tashkil etish» va boshqa ob'ektlarni tilga olish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalarni milliyashtirish va rekvizitsiya qilinmasligiga kafolat beradi. Xorijiy investitsiyalar faqat favqulodda holatlarda, avariya, epidemiya tarqalgan vaqtlarda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan rekvizitsiya qilinishi mumkin. Bu holat investorga ko'rsatilgan zarar miqdorida kompensatsiya qilinadi.

Xorijiy investorlar uchun zarur moliyaviy-iqtisodiy kafolatlarni ta'minlash uchun hukumat tomonidan xorijiy investorlarni himoyalashning Milliy sug'urta jamg'armasini barpo etish to'g'risida qaror qabul qilingan. Bu jamg'arma respublika hududida ta'sis etilgan chet el banklarida O'zbekiston Respublikasi, xorijiy investitsiya ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari valyuta qadriyatlarining bir qismini deponentlash yo'li bilan hosil qilinadi.

Xorijiy investorlarning qonuniy faoliyatlari orqali qilingan daromadlari xorijiy valyutada, chegaralanmagan miqdorda chegaradan olib o'tishlari davlat tomonidan kafolatlanadi. Bu qonunda xorijiy investitsiyalarning sug'urtasi haqida kam yozilgan, chunki har bir xorijlik hamkor o'zi sarflagan mablag'ni to'liq qaytarib olishga va ularni sug'urtalashga harakat qiladilar. Bu haqda Qonunda shunday keltirilgan: investitsiya va tavakkalchilikni sug'urta qilish xorijiy investorlarning hoxishlari asosida amalga oshiriladi.⁸

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar sug'urta tizimiga kiruvchi milliy sug'urta kompaniyasi, Rasmiy davlat sug'urta agenti, Xorijiy sug'urta tashkilotlari bilan tuzilgan qo'shma sug'urta kompaniyalari tomonidan ta'minlanadi. Xorijiy investitsiyalarni sug'urta qiluvchi sug'urta tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi majburiyatlariga javob bermaydilar. Shunga mos tarzda O'zbekiston Respublikasi (faqat ikki tomon kelishuvidan tashqari holatlarda) sug'urta tashkilotlarining majburiyatlariga javob bermaydi. Davlat o'z majburiyat va qonunlariga, sug'urta tashkilotlari esa o'z majburiyat va qoidalariga o'zlari javobgardir.

13. INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH VA DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH

1. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish va tartibga solishning usullari.
2. Investitsiya faoliyatini tartibga solishda investitsiya strategiyasining o'rni.
3. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarning davlat tomonidan boshqarilishi.
4. Xorijiy investitsiyalarni tartibga solishning jahon tajribasi.

1. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish va tartibga olishning usullari

Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish yo'li bilan kreditlar evaziga, muomalaga, qonunchilikda belgilangan holda, qimmatli qog'ozlar va zayomlar chiqarish hisobiga olib boriladi. Davlat mulkini xususiylashtirish tufayli mamlakat miqyosidagi manbalarni tarkibida mablag'larning kamayib borishi kuzatilmoqda. Aksincha turli mulk egalari mablag'lari, yangidan tashkil etilayotgan fondlarning ulushi, chet el investitsiyalarining miqdori ortib boradi. Albatta, bu borada har bir mamlakatning investitsiya siyosati hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Investitsiya manbalarini tashkil etishda mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi, milliy valyuta birligini konvertlanishi, tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, aholi ehtiyojining ishlab chiqarish hisobiga qondirilishi va boshqalar muhim rol o'ynaydi.

Bozor munosabatlarini rivojlantirish davlat tomonidan olib boriladigan ichki moliya siyosatiga chambarchas bog'liqdir. Moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash hamda u yoki bu yo'nalishda sarflash va jamg'arish mamlakatda qabul qilingan va amaliyotda faoliyat ko'rsatayotgan taqsimot tizimiga bog'liqdir. Qonunchilikni rivojlanishi, adolatli qonunlar qabul qilinishi va ularni hayotga tatbiq etilishi bozor munosabatlarining rivojlantirishga, tadbirkorlik, ishbilarmonlikni keng ko'lamda tarqalishiga qaratisa investitsiya manbalari tarkibida davlat mablag'lari kamayishi hisobiga boshqa mulkdorlar mablag'lari o'sib boradi. Ishlab chiqarish munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va davlatning samarali moliya siyosatini yuritish alohida ahamiyatga egadir. Xorijiy kapitalni kirib kelish darajasi ustun darajada mamlakatni olib borayotgan moliya siyosatiga bog'liqdir.

O'tish iqtisodiyotida investitsiya manbalarining mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- investorlarni o'z moliyaviy resurslari (foyda, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari, fuqarolar, huquqiy shaxslarning jamg'armalari va boshqa manbalar);

⁸Ўзбекистон Республикаси "Хорижий инвестициялар ва хорижий инвесторлар фаолиятлари кафолатлари" тўғрисидаги Қонуннинг 13-моддаси. 5 май 1994 йил.

- investorlarni qarzga olgan moliyaviy mablagʻlari (zayom obligatsiyalari, bank kreditlari va byudjet ajratmalari);

- investorlarni jalb qilgan moliyaviy mablagʻlari (aksiyalar va boshqa qimmat baho qogʻozlarni sotishdan tushgan mablagʻlar, fuqaro va huquqiy shaxslarning paylari va turli xil badallar hamda turli xil maqsaddagi nodavlat fondlar, mablagʻlari);

- davlat byudjetining investitsiya ajratmalari.

Bozor munosabatlari shakllangan sharoitda investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari tarkibini 3-chizmada koʻrish mumkin.

3-chizma

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari tarkibi

Davlat byudjetidan ajratmalar	Kreditga olgan mablagʻlar	Qarzga olingan mablagʻlar	Qimmatbaho kogʻozlar va zayomlar chiqarish hisobiga	Investorni oʻz mablagʻlari hisobidan
-------------------------------	---------------------------	---------------------------	---	--------------------------------------

Xalq xoʻjaligini uzoq yillar mobaynida ekstensiv usulda rivojlanishi davlat tomonidan muvofiqlashtirib boʻlmaydigan investitsiya xarajatlariga olib keldi. Natijada, haddan tashqari koʻp asosiy ishlab chiqarish fondlari barpo etildi. Asosan ular harbiy sanoat majmuida va tugallanmagan qurilishda oʻlchamsiz moliyaviy resurslarni qaytarilishiga - (mablagʻ ajratilishini toʻxtatilishiga) va tugallanmagan qurilishlarni toʻxtatilishiga olib keldi. Bunday ahvolning asosiy sabablari sobiq ittifoq hududida uzoq yillar davomida markazlashgan rejalashtirishni mavjud boʻlganligi hamda uning oqibatida ijtimoiy va sanoat mahsulotlarining tarkibida ishlab chiqarish qurollarining haddan tashqari oʻsishidir.

Markazlashgan rejalashtirishning rivojlanishni asosiy usul qilib olinishi, ashyolar va pul oqimlari orasidagi mutanosiblikni buzilishiga olib keldi. Oxirgi yillarda esa mollar bilan pul oʻrtasidagi nisbatning buzilishi, byudjet qoplamalarining oʻsib borishi hisobiga boʻldi. Baho siyosatini oʻz vaqtida tartibga solinmaganligi byudjet qoplamalarini talab etilishiga va uning hisobiga korxonalar hamda aholi daromadlarini tez oʻsishiga olib keldi. Maʼmuriy rejalashtirish doirasida bu daromadlarga nisbatan moddiy boyliklar yetarli boʻlmay qoldi. Umumlashtirib aytganda, xalq xoʻjaligining nomutanosibligini uchta koʻrsatkich bilan ifodalash mumkin; davlat byudjetining kamomadligi, xoʻjalik tashkilotlarini banklar oldida istiqbolsiz qarzlarning paydo boʻlishi hamda aholi daromadlarining xarajatlarga nisbatan koʻpayib borishi.

Aholi daromadlarining oʻsib borish davri ishlab chiqarishni pasayib borishi bilan toʻgʻri keladi. Shunday qilib, xalq xoʻjaligida ishlab chiqarish bilan bogʻlanmagan holda turli xil pul daromadlarining oʻsib borishi jarayoni yuzaga keldi. Birjalar, auksionlar, qimmatbaho qogʻozlar bozorining barpo etilishi bu jarayonni yanada tezlashtirdi. Davlat tomonidan olib borilayotgan aholini iqtisodiy muhofaza qilish siyosati esa ushbu jarayonga qoʻshimcha boʻldi. Tadbirkorlikni yoʻlga qoʻyilishida esa raqobat muhiti tashkil etilmadi, bu esa asosan tadbirkorlar tomonidan mlrd. soʻmlab moliyaviy kapitalni hamda noishlab chiqarish mulkini jamgʻarishga olib keldi. Inflyasiya asosida jamgʻarilgan tijorat kapitali ishlab chiqarishga kiritilmadi, bu esa oʻz navbatida giperinflyasiya rivojlanishiga hamda mutlaq mol kamomadligiga olib keldi.

Shuning uchun ham bugungi kunning asosiy vazifasi tadbirkorlarning tijorat kapitalini ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyishga, yaʼni ishlab chiqarish investitsiyalariga aylantirishga daʼvat etadi.

Markazlashgan ittifoq boshqaruv tizimi barbod boʻlgan va yangi muvofiqlashtirish tizimlari mustaqil respublikalarda vujudga kelmagan bir davrda investitsiya faoliyatida keskin oʻzgarishlar roʻy berdi. 1990-1992 yillar bir tomondan davlat investitsiyalarining keskin qisqarishi bilan ikkinchi tomondan esa tijorat tizimlari kapitallarini noishlab chiqarish sohasida jalb qilinishi bilan tavsiflanadi.

Oqibatda chuqurlashib borayotgan investitsiya inqirozini bartaraf etish, davlat tomonidan investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishni talab etadi.

O'zbekistonda investitsiya faoliyati bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar 1991 yilning yanvaridan kuchga kirgan "Investitsiya faoliyatini qonuniy asoslari" hujjatlari bilan muvofiqlashtirib borildi. Qabul qilingan va 1991 yildan boshlab kuchga kirgan bu hujjatda investitsiya faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprel "Chet el investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy investitsiyali korxonalarini tashkil etish va faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 31.05.96 y. UP-1467 sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Investitsiya loyihalarini amalga oshirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 19.01.98 y. Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirishni mexanizmini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" 09.02.98 y. Farmoni.¹ Unda muvofiqlashtirishni maqsadlari va shakllari tasdiqlangan. Ushbu hujjatlarga ko'ra, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish qo'yidagi maqsadlarda olib boriladi:

-bozor iqtisodiyotiga kirib borish jarayonida davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish;

-davlat fan-texnika siyosatini o'tkazish va uning asosida dunyo xo'jalik aloqalarini mustahkamlash hamda jahon bozoriga chiqish.

Byudjetdan tashqari investitsiya fondlarini tashkil etish va undan foydalanish ham davlat tomonidan investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda iqtisodiy usullardan biri hisoblanadi. Mulkchilikning shakllanishi va uning turli xil shakllari vujudga kelishi munosabati bilan bu borada ham davlat oldida, yangidan tashkil topayotgan tijorat tizimlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha amaliyotda birinchi marotaba hal qilinadigan muammolarning kelib chiqishi ma'lum.

Davlat investitsiyalarini to'g'ridan-to'g'ri boshqarish, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirishni yana bir shakli bo'lib hisoblanadi. Bunda, boshqarish byudjet mablag'lari, byudjetdan tashqari fondlar, boshqa jalb qilinadigan mablag'lar hisobiga investitsiyalarni basharotlashtirishni, investitsiyalashni shart-sharoitlarini aniqlashni va aniq faoliyatlarni amalga oshirishni o'z ichiga qamrab oladi.

O'zbekistonni mustaqillikka erishishi munosabati bilan respublikamizda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish endilikda mustaqil ravishda olib boryapmiz. Bu borada ham ayniqsa bozor munosabatlarini yo'lga qo'yilishini hisobga oladigan bo'lsak, tajribamiz yetarli emas. Shuning uchun bugungi kunda bu faoliyatda tajriba orttirish, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirishni yo'lga qo'yish iqtisodiyotimizni barqarorlashtirishda alohida ahamiyatga egadir.

Investitsiya faoliyatidagi sub'ektlar huquqlarining doimiyliigi davlat tomonidan kafolatlanishi zarurdir. Davlat idoralari va undagi xodimlar investitsiya faoliyatidagi sub'ektlar faoliyatiga aralashish huquqiga ega emaslar. Agar investitsiya faoliyatiga sub'ektlar shartnomalardagi majburiyatlarini bajarmasalar qonunchilik hamda bitilgan shartnomalarga binoan mulkiy va boshqa javobgarliklarga tortiladilar.

Barcha investorlarning investitsiyalari muhofazasi, mulk shakllaridan qat'iy nazar davlat tomonidan ta'minlanadi.

Investitsiyalar to'lovsiz milliylashtirilmaydi, rekvizitsiya etilmaydi. Agar qabul qilingan qonunchilik aktlariga asosan investorlarning banklarga qo'yilgan maqsadli bank jamg'armalari, aksiyalar va boshqa turli xildagi qimmatbaho qog'ozlari davlat tomonidan olinsa, u holda investorlarning to'lovlari yoki bo'lmasa ijara huquqlari ta'minlanadi. Faqatgina investorlarning o'zlarining xatti-harakatlari oqibatida yoki ularning ishtiroklari bilan yo'qotilgan qiymatlar davlat tomonidan qaytarilishi ta'minlanmaydi.

Ma'lumki, bozor munosabatlari rivojlanishi bilan moliya bozori ham asta-sekinlik bilan rivojlanib va takomillashib boradi. Ma'lumki, har bir mamlakatda qonunchilikning rivojlanishi uning tizimiga, tanlangan yo'liga, bozor munosabatlarining rivojlanish darajasi va boshqa omillarga bog'liqdir. Bu sohada chet elga chiqish, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, ularning

qonunlarini o'rganib chiqib, respublika xususiyatlari, an'alarini hisobga olgan holda, tez, qisqa vaqt ichida ishga solish alohida ahamiyatga egadir. Ma'lumki ish yuritishning aniq shakl va murvatlari har bir sohada qabul qilingan qonunlarda o'z aksini topadi.

Qo'shma korxonalarni faoliyatida dividendlarni o'tkazish chet el personaliga ish haqi to'lash va boshqa to'lovlarni yuritish doimiy xususiyatga egadir.

Xorijiy investitsiyalarning to'g'ri yo'nalishlarda kirib kelishida "loyiha moliyalashtirishni" yo'lga qo'yishda, loyihalarni tahlil qilishda, umumiy iqtisodiy izlanishlarni olib borish, tavakkalchilikni baholash, ijobiy hal qilish va o'lchash hamda moliyaviy hisob-kitoblarni to'g'ri yo'lga qo'yish juda katta ahamiyatga egadir.

Loyihalarni moliyaviy jihatdan tahlil qilishda, xalqaro amaliyotda qabul qilingan ko'rsatkichlar asosida, hisob-kitoblarni olib borish, loyihalarni hayotiy qobiliyatlarini aniqlash imkoniyatlarini yaratadi. Moliyaviy tahlilning maqsadi loyiha sikli davomida investitsiyalardan keladigan foydaga baho berishdan iboratdir. Agar olinadigan daromad loyiha qiymatidan yuqori bo'lsa unda loyiha maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Investitsiyalarni jalb qilish muruvatlari ancha murakkab hisoblanadi: xalqaro va milliy iqtisod darajasida investitsiyalarni jalb qilishda yetarli tajribalar mavjud. Bu masalada boy tajribaga ega bo'lgan Jahon banki investitsion faoliyat olib borishda sezilarli natijalarga erishgan: Jahon banki bir dollar investitsiyaga, chetdan qo'shimcha ravishda 7-8 dollarni jalb qilish imkoniyatiga ega.

Jahon banki moliya bilan ta'min etuvchi loyihalar ustida ishlovchi tashkilot va shaxslarning nazoratiga asoslangan va bank tomonidan "loyiha sikli" deb nomlangan loyihalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishni cheklangan jarayonga majburiy kiritilgan deb hisoblanadilar. Ushbu tushunchaga binoan sikl tajribaga bir-biridan farq qiluvchi loyihani tayyorlovchi, ishlab chiqish, ekspertiza qiluvchi va baholovchi bosqichlar hamda turli nuqtai-nazarlar va o'lchamlar to'plami kiradi. Ular asosida loyihani amalga oshirish xulosalarini baholash mumkin bo'ladi.

Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan usullar nimani, qanday qilishni, investitsiyalarni qaerdan kelishini, loyiha bo'yicha yaratiladigan mahsulotni sotish va yetkazib berish, yangi kelajak loyihalarni amalga oshirishda qo'lga kiritilgan tajribalarni qanday hisobga olish masalasini yechishda ishlatiladigan yagona yondashuvdan foydalanish imkonini beradi. Baho usuli loyihalarni amalga oshirish xarajatlarini va turli holatlardan olingan natijalarni o'rganishga yo'naltirilgan: ya'ni mehnat jamoasi tomonidan yoki aksioner tomonidan; loyihani amalga oshiruvchi tashkilot tomonidan; loyihani amalga oshirish tabiati yoki ijtimoiy mehnat. Jahon banki tomonidan taklif qilingan usullar, ishlab chiqilgan loyihani iqtisodiy va texnik nuqtai- nazaridan foydali bo'lishi uchun va bunda faqat loyihani texnologik va jiddiy texnik tomonlarini hisobga olib qolmasdan, balki investitsiyalash, boshqaruv va moliya ta'minot tizimini, shuningdek loyihani yashay olish qobiliyatini va uzoq xizmat qilishi natijalarini ham hisobga olish zarur.

Milliy mulkka xorijiyliklar egalik qilishiga hamma vaqt va hamma joyda xavotirlik bilan qaralgan va ziyraklik talab qilingan. Har qanday ko'chmas mulkni xorijiy shaxs tomonidan sotib olinishi an'anaviy gumonsirash va xavf bilan qabul qilinadi. Erkin kapital, yangi texnika va dastgohlarni olib kelishga qo'shimcha ish joylarni yaratishga qaramasdan xorijiy investorlarga nisbatan hushyor bo'lish davlatning investitsiya siyosati va investitsiya muhiti shakllanishiga haqiqiy omil bo'lib hisoblanadi.¹

Jahon tajribasidan ma'lumki, asosan eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni hamkorlik asosida eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish muvaffaqiyat qozonishga olib keladi va korxonalarni valyuta jihatdan o'z-o'zini qoplashni ta'minlaydi.

Yuqorida qayd etilgan masalalarni va muammolarni yechishda davlat tizimlari tomonidan investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish yo'lini to'g'ri aniqlash ayniqsa iqtisodiyotni inqirozdan olib chiqish davrida muhim masaladir.

Bozor munosabatlarini yo'lga qo'yish tugatilmagan qurilishlarni qayta ro'yxatdan o'tkazilishini taqozo etadi. Buning asosida esa qurilish muddatlari tugab ketgan, me'yor muddatlariga nisbatan cho'zilib ketgan ishlab chiqarish qurilishlari to'xtatilishini, keraksizlarini, bozor munosabatlariga o'tish munosabati bilan voz kechish masalasini ham ko'ndalang qilib qo'yadi. Tugatilmagan qurilish

ob'ektlarini ularni boshqa mulk egalariга sotish, ijaraga berish imkoniyatlari aniqlanadi. Ijaraga topshirish bu qurilish ob'ektlarini qisqa davr ichida tugatilishini, ishga tushirilishini ta'minlaydi va qurilish cho'zilishini oldini oladi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida kichik va o'rta qurilish ob'ektlarini ham ta'minlash zarurdir. Investitsiya bozorini barpo etish tugatilmagan qurilishlarning tahlili natijalari bo'yicha, jami kerak bo'lmagan zahiradagi va ortiqcha vositalarni ulgurji savdosini tashkil etish lozim bo'ladi.

Investitsiyalar bozorining barpo etilishi turli kichik, o'rta va yirik quruvchi pudrat tashkilotlarini vujudga kelishini ta'minlaydi. Ular turli xildagi mulkchilik egalari tomonidan tashkil etiladi va raqobat rivojlanishiga olib keladi. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, mavjud bo'lgan ko'pgina zararli, past rentabelli korxonalarini tugatilishini talab qiladi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida investitsiya faoliyatini tashkil etishni muvofiqlashtirish maqsadida davlat moliya va kredit murvatlari keng ravishda foydalanishi lozim. Moliya va kredit murvatlari turli xil tarmoqlardagi turli xil yakka hokimlikning tugatilishiga qaratilmog'i kerak.

Tarkibiy siyosat-o'tish davrida davlat iqtisodiy siyosatini muhim maqsadlaridan biridir. Xo'jalik tizimining bir shakldan boshqa shaklga o'tishi jarayonida tarkibiy o'zgarishlarning zarurati dastavval rejali iqtisodiyotdan qolgan texnik qoloqlik va nisbatlarini aks ettirmaydigan buzilgan narxlar, doimiy taqchillik va resurslardan foydalanishning xarajat murvatlari hukmronligi sharoitida muayyan siyosiy vaziyatga bog'liq ravishda amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish eksportni kengaytirish va importni almashtirishga qaratilgan dastur hamda loyihalar davlat tamonidan qo'llab-quvvatlash hisobiga amalga oshadi. Hamma investitsiyalarning 60% ga yaqini ustuvor tarmoqlarni rivojlanti-rishga yo'naltirilmogda, ilg'or texnologiya va uskunalarni keltiruvchi to'g'ri investitsiyalar mamlakat uchun o'ta muhim bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun qo'shma korxonalar barpo qilish o'smogda.

O'zbekiston sanoatining muhim xususiyatlaridan biri uning qishloq xo'jaligi bilan chambarchas aloqasidir, chunki mashinasozlik (kimyo va neft kimyo hamda qishloq xo'jalik xom ashyosini qayta ishlash) bilan hamda qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash (yengil, qayta ishlash va boshqa.) sanoatini resurslar bilan ta'minlaydi. Respublika sanoat mahsulotining 2/3 miqdorga yaqini qishloq xo'jaligi bilan o'zaro harakat qiluvchi tarmoqlarga to'g'ri keladi.

Shu bilan birgalikda O'zbekistonda boy ma'dan konlariga asoslangan rangli va qora metallurgiya, yoqilg'i-quvvat, qurilish ashyolari kabi sanoat tarmoqlari rivojlandi. Yirik neft va gaz konlari negizida yoqilg'i sanoatini rivojlantirish, yirik issiqlik elektrostansiyalarini, kimyo va neft-kimyo sanoati korxonalarini qurish imkoniyatini berdi. Investitsiya faoliyatini boshqarishda albatta boshqarish maqsadini, mazmunini ham to'g'ri anglash lozim bo'ladi. Investor faoliyatini asosiy mazmunini investitsion jarayon tushunchasi bilan ta'riflash mumkin. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi: tashkilot faoliyatining maqsadi va cheklovlar asosida investitsiya strategiyasini hamda bozor beradigan imkoniyatlarni shakllantirish; umuman bozorni tahlil qilishni, uni segmentlarini, alohida qimmatli qog'ozlarni nazarda tutuvchi investitsiyalarni tahlil qilish; investitsiya qarorlarini shakllantirish; portfelni boshqarish; investitsiya faoliyati samaradorligini baholash;

Albatta yuqorida keltirilgan vazifalar bir-biri bilan uzviy bog'liq va ularni ajratib bo'lmaydi.

2. Investitsiya faoliyatini tartibga solishda investitsiya strategiyasining o'rni

Investitsiya strategiyasining asosi moliyaviy institutlar faoliyatining maqsadi va cheklovlari hisoblanadi. Samarali investitsiyalarni tanlash maqsadini oldindan aniq shakllantirmasdan hal qilib bo'lmaydi. Ushbu holatni har qanday investitsiya boshqaruvchisi uchun o'ta muhim hisoblanadi. "Qaysi qimmatli qog'oz eng foydali?" yoki "Qanday portfel eng samarali?" -degan savollarga javob yo'q.

Vazifani to'g'ri qo'yishni quyidagicha shakllantirish mumkin: maqsadlardan kelib chiqqan holda, rejali istiqbolda, ushbu tashkilot uchun mijozlar oldidagi majburiyatlar nisbati, qonuniy va boshqa cheklovlarga qarab investitsiya qarori yaxshi bo'ladi. Investitsiya institutlarining (investitsiya fondi, investitsiya kompaniyalari) strategiyasi odatda investitsiya deklaratsiyasi deb nomlanadigan maxsus hujjat bilan shakllantiriladi.

Aslida investitsiya deklaratsiyasi investitsiya fondining yoki investitsiya kompaniyasi nizom fondining bir qismi hisoblanib matbuotda e'lon qilinishi, uni asosiy mazmuni esa aniq tartiblanishi lozim. Ammo investorlar mablag'lariga raqobat uchun ob'ektiv sharoit yo'qligi ko'pchilik investitsiya fondlari va kompaniyalari deklaratsiyalari ularni nomigagina ishlashiga sababchi bo'ladi va faqatgina me'yoriy talablarni qondirish maqsadida tuziladi.

1. Tashkilot maqsadi. Strategik maqsadlar inflyasiyadan ma'lum foiz ortiq bo'ladigan kafolatlangan eng kam daromadni ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak. Deklaratsiya ba'zi andoza portfelining (ma'lum fond indeklari asosida shakllantirish) daromadlilikidan ortadigan majburiyatlarni aks ettirishi mumkin.

2. Rejali istiqbol. Deklaratsiya qilinadigan rejali istiqbol bu joriy investitsiya strategiyasi mo'ljallangan vaqt oralig'idir. Rejali istiqbol investitsiya qarorlarini maqbullashtirish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

3. Portfel tarkibi va investitsiya faoliyatini cheklash. Investitsiya deklaratsiyasi ko'pincha portfel tarkibiga umumiy cheklovlarni aks ettiradi: masalan, investitsiyalash majburiyati yuqori sifatli daromadli majburiyatlarga eng kam foizini belgilaydi (eng yuqori reytinga ega bo'lgan davlat qog'ozlari yoki korporatsiya obligatsiyalari). Shu bilan bir vaqtda bozorning boshqa segmentlarida investitsiyalar bo'yicha cheklovlar belgilanadi hamda bir emmitentning qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar bo'yicha cheklovlar qo'yiladi.

4. Bozorni asosiy segmentlarini daromadliliqi haqida taxminlar. Bozorni asosiy segmentlarini tavakkalligi va daromadliliqi haqida tashkilot taxminlarini deklaratsiya qilish hamda investitsiyalar samaradorligini baholash va qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan inflyasiyani bo'lajak darajasi keng tarqalgan hisoblanadi.

5. Hisobot, samaradorligini baholash, daromadlar to'lash muddatlari va tarkibi. Investitsiya deklaratsiyasida investitsiya faoliyatini samaradorligini baholash birinchi navbatda, qo'yilgan maqsadlarga erishishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday holat haqida ildam axborot to'g'risidagi majburiyatlar bo'lishi mumkin. Investitsiya institutlari uchun mustaqil tashkilot tomonidan o'tkaziladigan davriy audit majburiydir.

Investorlar tomonidan bo'ladigan ishonch omiliga investitsiya vositachiligi muhiti juda ham sezgir, shuning uchun deklaratsiyalangan faoliyatni haqiqiy natijasiga muvofiq nazorat imkoniyatlarini mavjudligi - raqobat doirasida bo'lgan va bozor uchun ham har qanday moliyaviy institut uchun muhim hisoblanadi.

Samoya qarorlarini qabul qilish tamoyillarini ta'kidlab o'tilganidek, ikki asosiy toifaga bo'lish mumkin, ular aktiv va passiv. Passiv yondashuv moliya bozorini samaradorligini o'rtacha bozor darajasidan past bo'lmagan darajasini ta'minlashi, shu bilan birga tavakkalchilikning turli-tuman omillaridan investitsiyalarni xavfsizlantirishdir. Passiv yondashuvning asosi - investitsiyalarni diversifikatsiyalashdir.

Diversifikatsiyalash, yoki investitsiyalarning turlicha segmentlari, qimmatli qog'ozlar bo'yicha taqsimlash har bir muayyan turi bilan bog'liq, yakka xavfdan xalos bo'lishga imkoniyat yaratadi. Bir yo'la diversifikatsiya bozor yoki tizimli tavakkalchilikni o'rtachalashtiradi. Passiv yondashuvga ergashadigan investor, ma'lum ma'noda bozorga ergashadi.

Har qanday moliyaviy institut uchun tavakkalchilikning bosh manbai foiz tavakkali hisoblanadi. Tashkilotlar investorlari muvozanatini tashkil qiluvchi moliyaviy aktivlar va majburiyatlar qiymati, bevosita bozor stavkalari ta'siri ostida bo'ladi. Ideal holatda, tashkilotning barcha aktivlari muddatlari bo'yicha moliyalashtirilgan majburiyatlari mos kelsa, foiz stavkalarining ta'siri muammolari bo'lmaydi. Aktivlarni vaqtincha tarkibi va majburiyatlarining muvofiq kelish muammosi hal qilishining samarali usuli muddatli tahlil qilishdir. Muddatlilik ko'rsatkichi faqatgina obligatsiyalarga emas, balki har qanday vaqtda joylashgan pul oqimlari tarkibiga ham qo'llanishi mumkin.

Investitsiya faoliyatini tartibga solish, huquqiy nuqtai nazardan, turli miqdorlar o'rtasida moddiy va nomoddiy aktivlarni takror ishlab chiqarish xususidagi o'ziga xos, murakkab, zarur ijtimoiy-iqtisodiy (investitsiya) munosabatlarini shakllantirish me'yorlarini nazarda tutadi. Investitsiya

jarayonining barcha sub'ektlari - chet ellik investorlardan boshlab, davlat, yuridik va jismoniy, shu jumladan chet ellik shaxslar (rezidentlar va nerezidentlar) gacha bu munosabatlarning ishtirokchilariga aylanadilar. Huquq nuqtai nazaridan chet el investitsiyalari boshqa davlat hududida kapitalga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish bilan bog'liq. Iqtisodiy nuqtai nazardan esa ularning hududiy, zamon va makondagi harakati shakllari foyda olish maqsadida ko'pdan - ko'p qo'shimcha risklar bilan to'qnashish ehtimoliga ega bo'ladi.

Investitsiya munosabatlarining mohiyati bu faoliyat ishtirokchilari doirasida va darajasida o'z ifodasini topadi. Investitsiya faoliyati rivojlanishining ob'ektiv sharoitlarini aks ettiradigan alohida investitsiya munosabatlarining mavjudligi tartibga solishning mustaqil predmeti bo'lishini taqozo qiladi. Huquq nuqtai nazaridan investitsiya faoliyatini tartibga solish umumiy huquqiy va xususiy huquqiy tartibga solish me'yorlarini qamrab oladi. Bu me'yorlarning birligi ijtimoiy va alohida investitsiya munosabatlarining xarakteri va mohiyatini ifoda etadi hamda ularni tartibga solish usuliga aylanadi. Tartibga solish usullari huquq me'yorlarining ham alohida, ham ijtimoiy zarur investitsiya munosabatlari xarakteriga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatish yo'llaridan iborat.

Investitsiya faoliyati predmetining ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish davridagi ahamiyati bu faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga solish to'g'risida qonunlar qabul qilinishini talab etadi.

O'zbekiston investitsiya faoliyatini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida", "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari", "investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunlari va boshqa qonun hujjatlari huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.⁹

Respublikada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish birinchi navbatda davlatning iqtisodiy, ilmiy - texnikaviy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirish maqsadlarini ko'zlaydi.¹⁰

Kapitalning mamlakatlararo ko'chib yurishi kengaygan sharoitlarda investitsiya faoliyati, bir tomondan, milliy, ikkinchi tomondan, xalqaro investitsiya munosabatlarini milliy va xalqaro huquq tizimi asosida tartibga solish yo'li bilan amalga oshirilishini talab etadi. Investitsiya faoliyatini tartibga solishdagi xalqaro tajribalarni hisobga olish, chet el investorlariga investitsiyalashning barcha turlari va shakllarida milliy tartibotni berish yanada qulay investitsiya muhitini yaratadi va chet el investitsiyalarining kirib kelishini tezlashtiradi.

Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, bu faoliyat sub'ektlarini sug'urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo'lida tashkil etiladi. Hozirgi davrda investitsiya munosabatlari kapitallarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish borasidagi munosabatlarni qamrab oladi va nafaqat milliy iqtisodiyot doirasida, balki xalqaro iqtisodiyot darajasida resurslarni taqsimlash, qayta taqsimlash jarayonlarini aks ettiradi.

Bozorga o'tish sharoitlarida investitsiya munosabatlarida ham davlatning, ham o'z manfaatlarini amalga oshiradigan sub'ektlar ishtirok etishi sababli ular mulkchilik xususidagi munosabatlar majmuidan iborat bo'ladi. Xalqaro investitsiya munosabatlari ayrim mamlakatlar, korporatsiyalar, kompaniyalar, xalqaro moliya va kredit muassasalari, yakka investorlar hamda shu kabilar manfaatlarining ro'yobga chiqishini ifoda etadi.

Respublikada ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitlarida investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: ijtimoiy va xususiy manfaatlarini; ayrim mamlakatlar, korporatsiyalar, xalqaro moliya institutlari, yakka investorlar manfaatlarini to'g'ri aniqlash; ularning o'zaro maqbul nisbatlarini kelishib olish; ularni hayotda ro'yobga chiqarishning teng huquqiy sharoitlari va kafolatlarini belgilash.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishning kengayib borishi darajasiga qarab investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish bevosita chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga hamda qo'shma korxonalariga jalb etishga qaratilishi lozim.

⁹ «Инвестиция фаолияти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 24 декабрдаги Қонуни. «Солиқлар ва божхона хабарлари» газетаси.-1999.

¹⁰ Каримов И.А. "Эришилган ютуқларни мустақкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим" "Тошкент окшоми", 2006 йил 13 февраль, 29 (10.586)-сон.

Shuningdek tartibga solish xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilishni ham nazarga tutishi lozim. Bunda chet el investitsiyalarining oqib kirishini rag'batlantirish, shuningdek milliy iqtisodiyot sub'ektlarining bu faoliyatda ishtirok etishini taqdirlash muhim o'rinda turadi. Shunday qilib tartibga solishning vazifasi bir tomondan, bevosita chet el investitsiyalari oqimini oshirishdan, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotdagi xususiy mulkchilik sub'ektlarining qo'yilmalarini kengaytirishdan iborat bo'ladi.

Ma'lumki investitsiya faoliyati kapital, tadbirkorlik, moliya, innovatsiya, ijtimoiy, iste'mol va boshqa investitsiyalarning hamma turlari bilan bog'liq bo'lib, odatda soliqlarning fiskal (xazinani to'ldirish) va tartibga solish funksiyalaridan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu faoliyat, shuningdek, amortizatsiya siyosatini, dotatsiyalar, subsidiyalar tizimini, kredit, narx siyosatini, davlat kafolatlari tizimini, imtiyozlar yaratishni, chet el investorlarining huquqlarini himoya qilishni va boshqalarni ham qamrab oladi. Davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun turli darajadagi byudjetlarga zarur mablag'lar tushumlarini ta'minlashga qaratilgan fiskal vazifaning bajarilishi, milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga bog'liq. Tartibga solish funksiyasining ishlatilishi davlatning takror ishlab chiqarish jarayonida ayrim tarmoqlarga investitsiyalar oqimlarini boshqarishi bilan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning turli sohalarida kapital jamg'arilishi jarayonlarini kuchaytirish yoki susaytirish, aholining to'lovga qobil talabini kengaytirish yoki qisqartirish yo'llari bilan tartibga solish funksiyasi bilan foydalaniladi. Soliqlarni tartibga solish makroiqtisodiy jarayon va proporsiyalarga ta'sir etishga qaratiladi. Soliqqa tortishda imtiyozlar asosan mikroiqtisodiyotga qaratilgan va iqtisodiy sub'ektlar manfaatlarini hisobga oladi. Biz yuqorida ko'rib o'tgan funksiyalar soliq stavkalari miqdorini o'zgartirish, imtiyozlar va sanksiyalar (jazo choralari) qo'llash, soliq kreditlari berish, to'lov muddatlarini kechiktirish va boshqa yo'llar bilan amalga oshiriladi.

3. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni davlat tomonidan boshqarilishi

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlar bilan ta'minlandi.

2005 yil 11 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga asosan endilikda 2005 yilning 1 iyulidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarini asosiy faoliyati bo'yicha daromad (foyda) solig'i mulk solig'i, ekologiya solig'i, mikro firma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar tulasidan ozod qilinadi.

Endilikda to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi:¹

- 1) 300 ming AQSh doll. dan 3 mln. AQSh doll. gacha-3 yil muddatga;
- 2) 3 mln. ortiq AQSh doll. dan 10 mln. AQSh doll. gacha-5 yil muddatga;
- 3) 10 mln. AQSh doll. dan ortiq bo'lganda 7 yil muddatga.

Ushbu Farmonning 1-bandida ko'rsatilgan soliq imtiyozlari qo'yidagi shartlar asosida qo'llanilishi belgilab qo'yilgan:

-mazkur korxonalarini ortiqcha ishchi kuchi bo'lgan mintaqalar- Qoraqolpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, shuningdek, Navoiy, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining qishloq aholi punktlarida joylashtirish;

-investitsiyadan foydalanishda har ikkala tomonlarning iqtisodiy manfaatini teng hisobga olgan holda amalga oshirish kerak. Investitsiyani boshqarish tartibi va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish zarur.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan "O'z sanoatqurilishbank" moliyaviy salohiyatga ega. U respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Bugungi kunda u 18,2 mingdan ortiq kichik va xususiy kompaniya va firmalarga xizmat ko'rsatayapti. Ularning 8978 tasi yuridik shaxs maqomidagi tadbirkorlar, shu jumladan, 1276 ta fermer xo'jaliklari, 9225 tasi yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlardir. O'tgan yil davomida kichik biznes sub'ektlariga umumiy summasi 15,0 mlrd. so'mdan ortiq va mikro kreditlarga 4,2 mlrd. so'mdan ziyod kreditlar taqdim etildi. Bu kreditlarning umumiy miqdorida bankning o'z mablag'lari 13,9 mlrd. so'mni yoki umumiy miqdorning 93 foizini tashkil etadi.¹¹

Bundan tashqari bank xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni milliy valyutada moliyalash bilan bir qatorda xorijiy investorlarga ham halqaro moliyaviy institutlarning kredit liniyalari hamda o'z mablag'lari hisobidan ularni kreditlashni ham faol amalga oshirmoqda.

-respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'ni keng jalb etishni ta'minlaydigan xuquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart- sharoitlarni tobora takomillashtirish;

-respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan va iqtisodiyotning zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko'maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yurgizish;

mablag'larni respublika mustaqilligini ta'minlaydigan, import o'rmini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor yo'nalishda jamlash.

Shuningdek respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyani jalb etishni faollashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

-investitsiya loyihalarini malakali ekspertlar nazoratidan o'tkazish va mukammal tayyorlanishiga erishish;

-qo'shma korxonalar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi boshqa turdagi tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazishdagi to'siqlarni butunlay olib tashlash.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalariga jalb etishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

1) qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;

2) mineral xomashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo'yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;

3) transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;

4) iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilmtalab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;

5) turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga erishish.

"Chet el investitsiyalari, xalqaro birlashmalar va tashkilotlar ishtirokidagi korxonalarini, shuningdek ularning tarkibiy bo'linmalarini tashkil etish va bu korxonalarining faoliyat tartibi to'g'risida"gi Nizomga binoan mulkida o'zbek va xorijiy yuridik shaxslari hamda fuqarolari ishtirok etuvchi korxonalar O'zbekiston Respublikasi hududidagi qo'shma korxonalar hisoblanadi.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosat jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonini faqat davlat tarkibiy tuzilishi bo'yicha emas, balki xususiy sektor darajasida ham jadallashtirishni nazarda tutadi. Ochiq bozorning faoliyat ko'rsatishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar G'arb va Sharq ishbilarmonlarining mamlakatimizga bo'lgan qiziqishining ortib borishini ta'minlamoqda. Bu shuning uchun muhimki, bizning tadbirkorlarimiz ham xorijiy investorlarni hamkorlikka jalb etish imkoniyatlari haqida tez-tez bosh qotirishmoqda.

1998 yil Respublikamizda investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi 3 ta - 1998 yil 30 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi va "Chet el

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг статистик маълумотлари.

investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish chorolari to'g'risida"gi hamda 1998 yil 24 dekabrda "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilashga va uning iqtisodiyotga investitsiya joylashtirish hajmlarini oshirishga yo'naltirilgan.

Turli birlashmalar, uyushmalar, konsernlar, konsorsiumlar O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyasi bo'lgan korxonalarini ixtiyoriy asoslarda barpo etishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 22 martdagi farmoniga muvofiq quyidagi mezonlarga javob beruvchi chet el, shu'ba va qo'shma korxonalar chet el investitsiyasi bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini qatoriga kirishi belgilab qo'yildi: ustav jamg'armasi miqdori 150 ming AQSh doll. dan kam bo'lmagan korxonalar; korxonalar ishtirokchilaridan biri albatta chet el yuridik shaxsi hisoblangan; korxonaning ustav faoliyatida o'z ishlab chiqarishi yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar servis xizmat hissasiga xo'jalik faoliyatidan tushumlar umumiy hajmining 60% dan ko'prog'i to'g'ri keladigan korxonalar.¹

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalar ichida qo'shma korxonalar yetakchi o'rinda turadi. To'liq xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan korxonalar kam. Ko'pchilik davlatlarda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalarini ro'yxatdan o'tkazish har xil. Ba'zi davlatlarda bu vazifani Moliya vazirligi bajaradi, boshqalarida Adliya vazirligi bajaradi. O'zbekistonda bu vazifani Adliya vazirligi amalga oshiradi. O'zbekistondagi xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar respublika hududida o'zining filiallari yoki vakil korxonalarini tashkil etishlari mumkin. Bundan tashqari ular boshqa davlatlarda ham o'z filiallarini ochishlari mumkin.

O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar O'zbekiston Respublikasi hududida xo'jalik assotsiatsiyalari, konsernlar va boshqa birlashmalar tuzishlari mumkin. Xorijiy investitsiyalarning huquqiy himoyasi ta'minlangan. Bu himoya har bir korxonada bo'lgani kabi xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar uchun taalluqli. Milliy iqtisodiyotning ustuvor sohalari va hududlariga investitsiya kiritgan xorijiy investorlarga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan qo'shimcha imtiyozlar berilishi mumkin. Shu bilan birga qonunda xorijiy investorlarning faoliyat turlari ham belgilangan. Xorijiy investorlar yoki xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar mavjud qonunchilikka muvofiq, o'z maqsadlari va nizomlaridan kelib chiqib, barcha turdagi faoliyatlarni olib borishlari mumkin.

Xorijiy investorlar investitsiya hajmi, turlari, yo'llarini belgilaydilar va ularni xohlagan korxonaga mustaqil ravishda kiritishlari mumkin. Investor o'zi kiritgan investitsiya ob'ektlari va natijalariga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqiga ega. Shu bilan birga reinvestitsiya va savdo operatsiyalarini O'zbekiston hududida milliy qonunchilik asosida, undan tashqarida esa xalqaro qonunlar asosida amalga oshirish huquqlariga ega. Investor egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlarini qonun bo'yicha boshqa huquqiy va jismoniy shaxsga berishi mumkin. Tomonlarning o'zaro huquqlarini bir-biriga o'tkazish vaqtidagi aloqalarni faqat ular o'rtasida tuzilgan hujjat-shartnomalar hal qila oladi. Xorijiy investorlar va korxonalar qonunchilikda ko'rsatilgan holatlarda yer uchastkalarini sotib olishlari mumkin. Xorijiy investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga rioya etish zarur:

-O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan qonunchilikka amal qilishi;

-O'zbekistonda mavjud qonunchilik talablari asosida soliq to'lash va boshqa to'lovlarni amalga oshirishi;

-investitsiya loyihasining sanitariya-gigienik ekologiya talablariga amal qilish bo'limidagi ekspertiza xulosalarini olishi;

Xorijiy investitsiyani o'z iqtisodiyotiga jalb etayotgan har bir davlat xorijlik sheriklariga huquqiy va tashkiliy kafolatlar yaratib beradi. Bu jarayon jahon tajribasida sinovdan ijobiy ravishda o'tgan. O'zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi qonunining 11- moddasida shunday yozilgan: Respublika hududida o'z investitsiya faoliyatini olib borayotgan xorijiy investorlar huquqlarining himoyasini O'zbekiston Respublikasi kafolatlaydi. Bu kafolat albatta, xalqaro huquq normalari asosida beriladi. Agarda O'zbekistonning yangi qabul qilingan qonunchiligi investitsiya sharoitlarini yomonlashtirsa, o'n yilgacha xorijiy investitsiyalar ular jalb qilingan davrda qabul

qilingan qonunchilik shartlari saqlanib qoladi. Bu talab mudofaa, milliy havfsizlik, jamoat tartibini saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq qonunchilikni o'zgartirmaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari xorijiy investorlarning huquqlariga putur yetkazadigan huquqiy normativlarni qabul qilgan taqdirda, investorlarga yetkazilgan zarar shu organlardan sud orqali undiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Germaniya, Hindiston, Janubiy Koreya, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Isroil, AQSh va bir qator boshqa mamlakatlar bilan investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoyalash to'g'risida bitimlar tuzdi.¹

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini amalga oshirishda dunyoning 25 dan ortiq mamlakatlari ishtirok etmoqda. Investitsiyalarni jalb etish vazifasini davlatimiz ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini yaratish va rivojlantirish asosida haqiqiy mulkdorlarni shakllantirish bilan bog'laydi.

"Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoniga binoan xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qo'shma korxonalar ro'yxatga olingan paytdan boshlab besh yil muddatga xorijiy valyutadagi tushumdan soliq to'lashdan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga valyutani majburiy sotishdan ozod qilish ko'zda tutilgan. Xorijiy investitsiya jalb etilgan korxonalariga quyidagi imtiyoz va rag'batlantirish omillari berilgan:

- tovarlar eksporti ishlab chiqarish hajmining kamida 30 foizini tashkil etadigan korxonalariga, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, foyda solig'ini amaldagi stavkalardan ikki barobar kamroq to'lash huquqi;

- xorijiy investitsiyali korxonalar daromadining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiyani yangilashga sarflanadigan qismidan soliq olmaslik;

- respublika davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha soliqlar to'lashdan yetti yil muddatga ozod etish;

- ishlab chiqarilgan mahsulotning 25% bolalar uchun mo'ljallangan bo'lsa, korxonalar ishga tushgandan boshlab soliqlar to'lashdan besh yil muddatga ozod etish. Keyingi yillarda bu korxonalarning foydasidan olinadigan soliq amaldagiga qaraganda ikki marta pasaytirilgan stavkalarda undiriladi;

- ustav kapitalning 50% va undan ko'proq qismi xorijiy sherikka tegishli bo'lib, ishlab chiqarish eksportga yo'naltirilgan yoki import o'rnini bosishga mo'ljallangan bo'lsa soliqlar to'lashdan ikki yil muddatga ozod etish;

- foydadan to'lanadigan soliq-18%;

- agar ustav kapitalning 50% va undan ko'proq qismi xorijiy sherikka tegishli va ustav kapitalning hajmi 500000 AQSh dollaridan 1000000 AQSh dollarigacha bo'lsa, foydadan to'lanadigan soliq-15%;

- agar ustav kapitalning 50% va undan ko'proq qismi xorijiy sherikka tegishli va ustav kapitalning hajmi 1000000 AQSh dollaridan va undan ko'p bo'lsa, foydadan to'lanadigan soliq-16%;

- agar ustav kapital hajmi kamida 500000 AQSh dollarini tashkil etsa, mol-mulk solig'idan ozod qilish;

- yer solig'idan ikki yilga ozod qilish;

- o'zi ishlab chiqargan mahsulotni ruxsatnomasiz chetga sotish;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yer uchastkalaridan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqini tanlov asosida sotib olish;

- jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatning mulkini xususiylashtirishda bemaol ishtirok etishlari mumkin.¹

O'zbekistonda xorijiy investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olgan foydalari va boshqa daromadlarini biror-bir cheklovlarsiz istalgancha chet davlatga o'tkazish imkoniyati kafolatlanadi. Bundan tashqari xorijiy investorlar Respublika banklarida hech bir cheklovlarsiz istalgan valyutada hisob raqamiga ega bo'lishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyasi bo'lgan korxonalar amaldagi qonunlarga binoan o'zi ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksportga chiqarish va o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar importini amalga oshirish xuquqiga egadir. Xorijiy investorlarga tabiiy boyliklarni qidirish, ishlab chiqarish va foydalanish va boshqa xo'jalik ishlarini yuritish uchun konsessiyalar berilishi mumkin. Konsession shartnomalar xorijiy investorlar bilan O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining vakil qilingan organlari o'rtasida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasida barpo etilayotgan korxonalar ustav sarmoyasiga xorijiy investorlarning hissasi sifatida yoki xorijiy xodimlarning o'z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan mulk bo'xona to'lovidan ozod qilinadi va import solig'i undirilmaydi.

Xorijiy investorlar O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar aksiyalari, hissalar va paylarini, shuningdek yuridik shaxslar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotib olishlari mumkin. Xorijiy investitsiyalari bo'lgan korxonadan chiqish yoki bunday korxonaning tugatilish hollarida xorijiy investorlar shu korxonalar mulkidan o'zining hissasini korxonalar mulki bilan qiymatiga mutanosib ravishda pul yoki natura tariqasida qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tuzilgan korxonalar xo'jalik ishlarida hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida olib borilishi lozim. Bu holatlar ham Qonunda ko'rsatilgan. Bu korxonalar bankrot holatiga tushib qolganda u o'z mulki, ya'ni savdo ob'ektlari, xizmat ko'rsatish sohalari, yer uchastkasi, binolari, qurilishlari, uskunalardan kelib chiqib majburiyatlari ta'minlanadi. yerdan foydalanish va egalik qilish huquqi bundan mustasno.

Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan shart-sharoitlar xalqaro shartnoma va xorijiy investorlar bilan kelishuvlarda ko'rsatilgan shart-sharoitlar farq qilsa, xalqaro shartnoma va kelishuvga asosan faoliyat yurgiziladi. Shunday qilib, yaratilgan huquqiy asoslar xorijiy hamkorlarning keng investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratib, ularning huquqlari va sarflagan investitsiyasini himoya qiladi.

Hozirga kelib, O'zbekiston hududida xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni asosan nihoyasiga yetkazildi va amalda qo'llanilmoqda. Bu faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning quyidagi tizimi ishlab chiqilgan:

-xususiy lashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning qatnashishi;

-texnikaviy qayta qurollanish;

-xalq iste'moli va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish;

Bulardan tashqari O'zbekiston bir qator qulayliklar tug'diruvchi shart-sharoitlari bilan ham chet investorlarini o'ziga tortmoqda:

1) Ishlab chiqarishning pasayish davri tugadi, 1995-1996 yil yakunlariga ko'ra iqtisodiy rivojlanishda yangi ijobiy samara natijasi ko'rsatildi.

2) Davlat mulki o'zining ustun holatini yo'qotdi. 2001 yilda YaIMning 74,1 foizi, sanoat ishlab chiqarishining 70,8 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 99,0 foizi, umumiy tovar oborotining 97,1 foizi, qurilishdagi barcha pudrat ishlarning 83,9 foizi, iqtisodiyotda band bo'lganlarning 73 foizi, iqtisodiyotda band bo'lganlarning 76,0 foizi, shuningdek investitsiyalarning 40,7 foizi nodavlat sektoriga to'g'ri keladi.¹

3) Bozorning o'sishi va kengayishining uzoq davrli istiqboli mavjud. Bunga ma'lum siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning mavjudligiga qaramay, xorijiy investitsiyalarning olib kirilishini statistik ma'lumotlar tasdiqlab turibdi. Bunga ko'ra O'zbekistonda 1991 yil 191 ta, 1992 yili 368 ta, 1993 yili 237 ta, 1994 yili 380 ta, 1995 yili 583 ta, 1997 yili 3200 ta qo'shma korxonalar tashkil etilgan edi. 2003 yilga kelib qo'shma korxonalarining umumiy soni 3300 tadan oshib ketdi. Bu korxonalar jahonning 80 dan ortiq davlatlari bilan hamkorlikda qurilgan.

4) Nisbatan malakali ishchi kuchining yetarli miqdori va ishsizlik darajasining (hatto uning yashirin shakllarini hisobga olganda ham) pastligi;

5) O'zbekiston iqtisodiyotining tashqi bozorga yo'naltirilganligi. 1992 yildan 1996 yilgacha bo'lgan davr mobaynida tashqi savdo aylanmasi hajmi 3 barobardan ko'progga oshdi, ayni paytda unda uzoq xorijiy mamlakatlar ulushi tinimsiz o'sib borib, 2003 yilda 64,3 foizga yetdi.

O'zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalarni milliyashtirish va rekvizitsiya qilinmasligiga kafolat beradi. Xorijiy investitsiyalar faqat favqulodda holatlarda, avariya, epidemiya tarqalgan vaqtlarda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan rekvizitsiya qilinishi mumkin. Bu holat investorga ko'rsatilgan zarar miqdorida kompensatsiya qilinadi.

Xorijiy investorlar uchun zarur moliyaviy-iqtisodiy kafolatlarni ta'minlash uchun hukumat tomonidan xorijiy investorlarni himoyalashning Milliy sug'urta jamg'armasini barpo etish to'g'risida qaror qabul qilingan. Bu jamg'arma respublika hududida ta'sis etilgan chet el banklarida O'zbekiston Respublikasi, xorijiy investitsiya ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari valyuta qadriyatlarining bir qismini deponentlash yo'li bilan hosil qilinadi.

Xorijiy investorlarning qonuniy faoliyatlari orqali qilingan daromadlari xorijiy valyutada, chegaralanmagan miqdorda chegaradan olib o'tishlari davlat tomonidan kafolatlanadi. Bu qonunda xorijiy investitsiyalarning sug'urtasi haqida kam yozilgan, chunki har bir xorijlik hamkor o'zi sarflagan mablag'ni to'liq qaytarib olishga va ularni sug'urtalashga harakat qiladilar. Bu haqda Qonunda shunday keltirilgan: investitsiya va tavakkalchilikni sug'urta qilish xorijiy investorlarning hoxishlari asosida amalga oshiriladi.¹²


O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar sug'urta tizimiga kiruvchi milliy sug'urta kompaniyasi, Rasmiy davlat sug'urta agenti, Xorijiy sug'urta tashkilotlari bilan tuzilgan qo'shma sug'urta kompaniyalari tomonidan ta'minlanadi. Xorijiy investitsiyalarni sug'urta qiluvchi sug'urta tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi majburiyatlariga javob bermaydilar. Shunga mos tarzda O'zbekiston Respublikasi (faqat ikki tomon kelishuvidan tashqari holatlarda) sug'urta tashkilotlarining majburiyatlariga javob bermaydi. Davlat o'z majburiyat va qonunlariga, sug'urta tashkilotlari esa o'z majburiyat va qoidalariga o'zlari javobgardir.

13. Инвестиция фаолиятини молиялаштириш манбалари ва усуллари.

Umuman olganda, korxonalar moliyaviy resurslarining barcha manbalarini quyidagi ketma-ketlikda aks ettirish mumkin:


- o'z shaxsiy moliyaviy resurslari va ichki xo'jalik zaxiralari;
- qarz moliyaviy mablag'lari;
- aksiyalarni sotish, pay va boshqa turdagi badallardan olinadigan, jalb qilingan moliyaviy mablag'lar;
- korxonalar uyushmalari tomonidan markazlashtirilgan moliyaviy mablag'lar;
- nobyudjet fondlari mablag'lari;
- davlat byudjeti mablag'lari;
- chet el investorlari mablag'lari.

O'z moliyaviy resurslari. O'z moliyaviy resurslarining tuzilmasi 1.2.-rasmda keltirilgan.



O'z va qarz moliyaviy mablag'lari o'zaro bog'lanishidagi asosiy farq shundaki, foiz to'lovlari soliq to'lagunga qadar chegirib tashlanadi, qarz moliyaviy mablag'larga kiritiladi, dividendlar esa foydadan to'lanadi.

Qarz moliyaviy mablag'lar. Qarz moliyaviy mablag'larning tuzilmasi 1.3.-rasmda aks ettirilgan.




1.3.-Rasm. Qarz moliyaviy mablag`larning tuzilmasi.

Investitsiyalarning ichki manbalari.

O'zbekistonda kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish ichki manbalar va chet el kredit liniyalarining resurslari hisobiga amalga oshirilgan.

Investitsiyalarning ichki manbalari 1.4.-rasmda ko'rsatilgan.

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishning ichki imkoniyatlari ahvoliga ta'sir etuvchi asosiy omil bo'lib, moliyaviy-iqtisodiy barqarorsizlik hisoblanadi. Bunga qaramasdan, ichki investitsion salohiyat yetishmasligini nisbiy deb qarash mumkin.



1.4.-Rasm. Investitsiyalarning ichki manbalari.

Investitsiyalarning tashqi manbalari.

O'zbekistonda chet el investitsiyalari quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- chet el kapitalining ulushli ishtiroki bilan qo'shma korxonalar tuzish;
- to'liq chet el investorlariga tegishli korxonalar, ularning filiallari va vakolatxonalarini tuzish;
- chet el investori tomonidan korxonalar, bino, inshootlar, korxonalardagi ishtirok ulushlari, aksiya va obligatsiyalarni sotib olish;
- yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqini va boshqa mulkchilik huquqlarini sotib olish;
- zayom, kredit, mulk va mulkchilik huquqlarini taqdim etish.

Asosiy muammo chet el kapitalining samarali oqimini rag'batlantirishdan iborat. Ushbu munosabat bilan quyidagi ikkita savolga aniq javob topish lozim: qaysi sohalarga chet el investitsiyalari kirib kelishi chegaralanishi, qaysi sohalarga esa ularni birinchi navbatda jalb qilish lozim?

Bevosita kirib kelgan chet el investitsiyalari, bu faqatgina iqtisodiyotga kiritilgan oddiy kapital qo'yilma emas, balki o'zbek korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini va texnik darajasini oshirishning birdan-bir yo'li hamdir. O'zbekiston o'z kapitalini joylashtirish orqali chet el kompaniyasi yangi texnologiyalar, ish faoliyatini tashkil etishning yangi uslublari va jahon bozoriga chiqish imkoniyatini ham olib keladi.

1.3. O'zbek korxonalari va tadbirkorlari foydalanishi mumkin bo'lgan investitsion resurslar manbalari

Hozirgi kunda o'zbek korxonasi uzoq muddatli moliyalashtirishning quyidagi manbalaridan foydalanishi mumkin:

- tijorat banklari;
- chet el banklari va kredit liniyalari;
- portfel investorlari - xususiy fondlar;
- strategik investorlar.

Shuningdek, aksiyalarning ommaviy emissiyasi, obligatsiyalar, konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar va lizing kabi uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari ham e'tiborga loyiq.

Strategik investorlar bo'lib quyidagilar xizmat qilishi mumkin:

- mazkur yoki o'xshash sohada faoliyat yurituvchi va o'z faoliyatini kengaytirish istagida bo'lgan kompaniyalar;

- boshqa sanoat sohalarida faoliyat yurituvchi va o'z aktivlaridan samaraliroq foydalanish istagida bo'lgan kompaniyalar;

- strategik aloqalarni rivojlantirish istagida bo'lgan moliya-sanoat guruhleri (MSG).

Strategik investorlar, ko'pgina hollarda, korxonada aksiyalarini portfelli investorga nisbatan yuqoriroq baholaydilar. Bu holatni, strategik investorlarning uzoq muddatli hamkorlik va korxonada qaror qabul qilishda ishtirok etish istagi bilan tushuntirish mumkin.

O'zbek korxonalari strategik investordan investitsiya olishni ma'qul biladilar, chunki ular investordan quyidagilarni olishga intiladilar:

- yangi texnologiya va uskunalari;
- bozor va tarmoq to'g'risidagi bilimlar;
- chet el bozorlariga kirib borish imkoniyati;
- mahsulot assortimentini kengaytirish;
- bozor tomonidan tan olinish;
- ishlab chiqarish, ta'minot va savdo miqyoslarini kengayishidan samara olish (miyos samarasi);
- sinergetik samara (ishlab chiqarishda o'zaro to'ldiruvchanlik);
- yetkazib berishlar (agarda investor yetkazib beruvchi bo'lsa) yoki tayyor bozor (agarda investor xaridor bo'lsa);

- tajriba.

Obligatsiyalar investitsion vosita bo'lib aksiyalardan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

- obligatsiyalar bo'yicha foizlarning belgilangan to'lovlari amalga oshiriladi;
- obligatsiyalar belgilangan amal qilish muddatiga ega;
- obligatsiyalar qoplanishida asosiy summa qaytarilishi nazarda tutilgan;
- obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish birinchi darajali (ustuvor) hisoblanadi.

14. INVESTITSİYALARNI MOLİYALASHTIRISHDA MOLİYAVIY VOSITALAR

1. Investitsiya institutlarining umumiy xususiyatlari.
2. Investitsiya maslahatchilari.
3. Investitsiya kompaniyalari.
4. Investitsiya fondlari.
5. Moliyaviy bozori.

1. Investitsiya institutlarining umumiy xususiyatlari

Investitsiya institutlari - qimmatli qog'ozlar bilan o'z faoliyatini asosiy faoliyat sifatida amalga oshiruvchi qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari hisoblanadi.

Investitsiya instituti bo'lgan yuridik shaxsning ustavida uning asosiy faoliyat turi albatta ko'rsatilishi kerak (bu - investitsiya institutlarini oddiy xo'jalik yurituvchi sub'ektlaridan ajratib turuvchi birinchi xususiyat). Boshqa mamlakatlarda investitsiya institutlari qimmatli qog'ozlar bozorida o'z faoliyatini maxsus faoliyat sifatida amalga oshiruvchi tashkilot, deb ta'riflanadi.¹

Investitsiya institutlari uchun maxsus yoki asosiy faoliyat turi haqidagi talab tartibga soluvchi organlarning yuqori ixtisoslashuvini ta'minlashga va shu orqali qimmatli qog'ozlar bilan doimiy ravishda faoliyat olib boruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kasbiy mahoratining yuqori darajasiga

erishishga intilishi bilan shartlangan. Bundan asosiy maqsad pirovardida investorlar manfaatlarini eng yuqori darajada himoyalashga erishishdan iborat.

Biroq mamlakatimiz fond bozori endigina shakllanish bosqichida bo'lib, qimmatli qog'ozlarning likvidligi yuqori bo'lmagan hozirgi vaqtda investitsiya muassasasi maqomini olishga da'vogarlik qiluvchi tashkilotlar uchun bunday sharoitda o'z faoliyatini amalga oshirish juda qiyin bo'ladi. Shuning uchun fond bozorida ishlashga ixtisoslashgan tashkilotlar shakllanish bosqichida o'zlarini ular faoliyatining taqiqlanmagan boshqa aniq investitsiya institutining faoliyati bilan qo'shib olib borilishidan olingan daromadlar hisobidan qo'llab- quvvatlashi havfsizdir.

Shu bilan birga, qonun hujjatlarida qimmatli qog'ozlar bozoridagi ayrim faoliyat turlarining birgalikda olib borilishi ta'kidlanadi. Chunonchi, investitsiya maslahatchilari, investitsiya fondlari va boshqaruvchi kompaniyalar o'zlariga tegishli faoliyat turini qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatning boshqa turlari bilan birgalikda olib borish huquqiga ega emas. Reestr saqlovchilar o'zlarining qimmatli qog'ozlar egalari reestrini yuritish bo'yicha faoliyatini fond bozoridagi depozitar faoliyatdan tashqari professional faoliyatning boshqa turlari bilan birgalikda olib borishi man etiladi. U bu cheklovlar investorlar huquqlarini himoyalash, ularning qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishdagi xatarlarni kamaytirish uchun, shuningdek, investitsiya instituti hamda mijozlar manfaatlarining qo'shib ketishi va shu munosabat bilan nizoli vaziyatlarning sodir bo'lishi hollariga yo'l qo'ymaslik uchun zarur. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi har xil faoliyat turlarining birlashtirilishi bir shaxsning o'ziga investitsiya muassasasining har xil turlari sifatida faoliyat yuritish uchun bir necha litsenziyani berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Investitsiya institutlari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin. Yuridik shaxs hisoblangan investitsiya muassasalarining faoliyati litsenziyalanishi lozim. Litsenziyalar 5 yil muddatga beriladi. Investitsiya muassasalarining litsenziyalanishi ular faoliyatining davlat tomonidan nazorat qilinishini anglatadi. Qimmatli qog'ozlar bozoridagi har bir faoliyat turiga mazkur bozorni tartibga soluvchi organning muayyan litsenziyasi to'g'ri keladi. Jismoniy shaxslar qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya maslahatchisi va investitsiya vositachisi sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin. Ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun jismoniy shaxslar mahalliy hokimiyat idoralari tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olinishi hamda fond bozorini tartibga soluvchi organ tomonidan beriladigan malaka shahodatnomasiga va litsenziyaga ega bo'lishi lozim. Malaka shahodatnomasi 3 yil muddatga beriladi. Investitsiya institutlarining ikkinchi o'ziga xos xususiyati shundaki, ularni xodimlarining asosiy tarkibi, xususan:

investitsiya institutlarining rahbarlari;

investitsiya institutlarining qimmatli qog'ozlar bilan investitsiya instituti nomidan bitimlar tuzishda bevosita ishtirok etuvchi, shuningdek, mijozlar bilan ishlovchi mutaxassislari fond bozorining ahvoli uchun mas'ul bo'lgan organda majburiy ravishda shahodatlashdan o'tishlari kerak.

Investitsiya institutida ishlovchi va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni bajarishga doir hujjatlarga imzo chekish huquqiga ega bo'lgan shahodatlashdan o'tgan mutaxassislar kamida ikkita xususiyatga ega bo'lishi zarur.

Va nihoyat, investitsiya institutlarining uchinchi o'ziga xos xususiyati shuki, ular yetarli darajadagi o'z mablag'lariga ega bo'lishi lozim. O'z mablag'lari deganda ustav, qo'shimcha, zaxira fondlari va bevosita foydadan tashkil topgan mablag'lar hajmi tushuniladi. O'z mablag'larining yetarli bo'lishini ta'minlash maqsadida investitsiya institutlari ularning har biri uchun maxsus belgilangan iqtisodiy me'yorlarga dosh berishlari kerak, bu me'yorlar qo'yidagilardan iborat:

Ustav fondining eng kam miqdori.

Qo'yidagi formula bo'yicha aniqlanadigan o'z sarmoyasi va mijozlar mablag'lari o'zaro nisbatining koeffitsienti:

$$N1 = \frac{S}{K},$$

H1 - o'z sarmoyasi va mijozlar mablag'lari o'zaro nisbatining koeffitsienti;

S - investitsiya institutining o'z sarmoyasi;

K - mijozlarning umumiy mablag'leri.

Bir mijoz uchun xatarning eng ko'p miqdori investitsiya institutini o'z mablag'ining bir mijoz tomonidan taqdim etilgan mablag'larning umumiy hajmiga nisbati sifatida quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$N2 = \frac{S}{1K},$$

N2 - xatar koeffitsienti;

S - investitsiya institutining o'z sarmoyasi;

1K - bir mijoz tomonidan taqdim etilgan mablag'lar summasi.

4.2. Investitsiya maslahatchilari

Investitsiya maslahatchisi - maslahat faoliyati bilan shug'ullanuvchi investitsiya institutidir.¹ Maslahat faoliyati qimmatli qog'ozlar bozori va uning ishtirokchilari ahvolini tahlil va taxmin qilish, moliyaviy vasitalarni ekspertizadan o'tkazish, ishlab chiqish va tavsiyalar berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni, qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish hamda ularning muomalada bo'lishi, mutaxassislarni qayta tayyorlash, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan investitsiya siyosatini amalga oshirish masalalari bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatishni nazarda tutadi. Investitsiya institutlarining boshqa turlaridan farqli o'laroq, investitsiya maslahatchisi sifatida yuridik yoki jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya maslahatchisi faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u imkoniyatli investorga muayyan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish yoki sotish bo'yicha tavsiyalar berish huquqiga ega emas, faqatgina unga mustaqil qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotni berishi mumkin.

Investitsiya maslahatchisi ustav sarmoyasining eng kam miqdori eng kam ish haqining 100 barobariga teng bo'lishi kerak. Investitsiya maslahatchilari uchun iqtisodiy me'yorlar sifatida N1 va N2 koeffitsienti qo'llanilmaydi.

Investitsiya maslahatchilari quyidagi ish turlarini amalga oshiradi:

a) aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish hamda qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish konsensiyalarini ishlab chiqish, emissiya prospektini tayyorlash, emissiya prospektini davlat tomonidan vakolatlangan organlarda ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish;

b) davlat korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish bilan bog'liq ishlarni tayyorlash va ularni amalga oshirish, ta'sis hujjatlarining loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish, qimmatli qog'ozlar nashrini depozitariyda ro'yxatdan o'tkazish, xususiylashtirilayotgan korxonaning aksiyalashtirish va shunga o'xshash masalalar bo'yicha manfaatlarini davlat boshqaruvining barcha idoralarida ifoda etish;

v) kasbga o'qitish (qimmatli qog'ozlar bozori sohasida mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash);

g) emitentlar, investorlar, investitsiya institutlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish, qimmatli qog'ozlar bozorining ishtirokchilariga axborot xizmatlarini ko'rsatish: maxsus byulletenlar, axborotnomalar chiqarish, buyurtma bo'yicha emitentlarning faoliyati, ularning qimmatli qog'ozlari haqidagi axborotni taqdim etish, vositachini tanlash bo'yicha tavsiyalar berish va h.k.

d) mijozning topshirig'iga ko'ra u yoki bu qimmatli qog'ozlarning reklama qilinishini tashkil etish;

ye) emitentlar, investitsiya institutlarining fond bozorida faoliyati bilan bog'liq konsalting xizmatlari (kontragentlar, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar berish);

j) qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilariga ushbu bozorga: oid qonun hujjatlari bo'yicha maslahatlar berish;

z) qimmatli qog'ozlarning birja savdolariga kiritilishiga, shu jumladan, listing tadbiridan o'tish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlashga yordam ko'rsatish;

i) investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va ularni ekspertizadan o'tkazish;

k) qimmatli qog'ozlar bozoridagi vaziyatni tahlil qilish (narxning vujudga kelishi, bozor kon'yunkturasini taxmin qilish, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar qilish imkoniyati va h.k.);

l) bitimlarni tuzishda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining manfaatlarini ifoda qilish, kontragentlar o'rtasidagi nizolarni betaraf hakam sifatida bartaraf etish;

m) investitsiyani amalga oshirish uchun emitentni va uning qimmatli qog'ozlarini baholash;

n) sarmoyadorning loyihada ishtirok etishdan bosh tortganligi munosabati bilan investitsiya mablag'larini qaytarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.

Mijoz haqida ma'lumotlar olish ham investitsiya maslahatchisining majburiyatiga kiradi. Mijoz taqdim etmoqchi bo'lgan axborotning to'liq va ishonchli bo'lishi ko'p jihatdan uning mazkur axborot boshqa shaxslarning qo'liga o'tmasligiga ishonishiga bog'liq. Aynan shuning uchun qator mamlakatlarning qonuniy hujjatlari maslahatchilarni mijozlarning moliyaviy ahvoli haqidagi maxfiy axborotni oshkor etmaslikka, ulardan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanmaslikka, agar mijoz o'zi haqida hech qanaqa ma'lumotlar bermasa, maslahat xizmati ko'rsatishdan bosh tortishga, ular oldida majburiy tartibda u yoki bu qimmatli qog'ozlarga nisbatan shaxsiy manfaatlarini ochiq-oydin bayon qilishga majbur etadi.

Eng avvalo investitsiya maslahatchisi mijoz investitsiyani amalga oshirish natijasida erishishni mo'ljallayotgan maqsadlarini, ko'zlangan maqsadlarga erishishga undovchi sabablarni, shuningdek, omonatchi yo'l qo'yishga tayyor bo'lgan xatar darajasini to'liq asnoda o'ziga tasavvur qilishi kerak.

Asosiy investitsiya maqsadlari quyidagilardan iborat:

- omonatlarni qadrsizlanishdan eng ishonchli tarzda himoyalash;
- yuqori joriy daromadni olish;
- uzoq kelajakni mo'ljallagan holda mablag'larni foydali joylashtirishga intilish;
- qisqa muddatda qo'yilgan mablag'larning maksimal darajada o'sishiga erishishga urinib ko'rish;

- yuqorida sanab o'tilgan maqsadlarga turli uyg'unliklar bilan bir vaqtning o'zida erishish istagi.

Mijozni ma'lum investitsiya maqsadiga erishishga intilishini ta'minlovchi sabablar turlicha va ular bir qancha o'ziga xos sharoitlarga bog'liq. Biroq bu yerda, yuqorida ta'kidlanganidek, mijozlarning yoshiga xos xususiyatlarini, ularning harakatchanligi, moddiy ahvoli, ijtimoiy maqomi hamda boshqa bir qancha omillarni inobatga olgan holda muayyan qonuniyatni kuzatish mumkin.

Investitsiyalashning natijalari ularning xatarlilik darajasi bilan bog'liq. Shuning uchun investitsiya maslahatchisi mijoz o'zi uchun mumkin, deb qabul qiladigan barcha xatarlarni inobatga olishi zarur. Investitsiyalashdagi asosiy xatarlar quyidagilar yuz berishi ehtimoli bilan bog'liq:

- qo'yilgan barcha mablag'larning to'liq yo'qotilishi;
- omonatlarning ma'lum qismining yo'qotilishi;
- qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati saqlanib qolgan holda ularga sarflangan mablag'larning qadrsizlanishi;

- qo'yilgan mablag'lar bo'yicha kutilayotgan daromadning to'liq yoki qisman to'lanmasligi;

- daromadlarni olishning kechiktirilishi.

G'arb mamlakatlarida o'tkazilgan qator tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, odamlarning tavakkal qilishga bo'lgan istagi uchta asosiy omil bilan belgilanadi: xarakterining o'ziga xos xususiyatlari, yoshi va moddiy ahvoli.

Investitsiya maqsadlari aniqlab olinganidan keyin maslahatchi ularni amalga oshirishning eng samarali yo'lini belgilab olishi lozim. Buning uchun avvalo mijozning moliyaviy ahvoli haqida axborot olishi kerak. Mijoz fond bozori vositalariga joylashtirish uchun ajratishi mumkin bo'lgan resurslarning hajmi belgilanib, summaning vaqt bo'yicha bo'linishi amalga oshirilganidan so'ng maslahatchi katta investitsion rejani tuzishga hamda omonat va jamg'armalarni joylashtirishning mijoz uchun maqbul bo'lgan yo'nalishlarni aniqlashga kirishadi.

Investitsiya strategiyasi va usullarini ishlab chiqishda investitsiya maslahatchilari investitsiyalarning kelajakdagi qiymatini baholashning turli xil usullaridan foydalanishadi, fond bozorining qaysidir sohasidagi ishlar ahvolini chuqur va har tomonlama aniqlab olish imkonini beruvchi asosiy tahlil qilishga kirishadi, yoki bozor kon'yunkturasi o'zgarishini ta'minlash imkonini beruvchi texnik jihatdan tahlil qilish usullariga suyanadi. Investitsiya maslahatchisining faoliyati mamlakatimiz fond bozorining xalqaro fond bozoriga integratsiyalashuvi sharoitlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda mamlakatimiz investitsiya maslahatchilari turli faoliyag turlari tutashgan joyda ish olib borishadi, bular quyidagilar: bevosita investitsiya maslahati, mol-mulkni, qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash, O'zbekiston korxonalarining buxgalterlik balansi va moliyaviy hisobotlari ko'rsatkichlarini xorijiy investorlar uchun tushunarli shaklga keltirish, yuridik xususiyatli xizmatlarni ko'rsatish.

3. Investitsiya kompaniyalari

Investitsiya kompaniyasi - qimmatli qog'ozlarni chiqarish, qimmatli qog'ozlarga mablag'lar sarflash, qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'zi hisobidan olish-sotish ishlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.¹

Investitsiya kompaniyalari o'z resurslarini faqat muassislarning mablag'lari va qayta investitsiyalangan o'z mablag'lari hisobidan shakllantiradi hamda yuridik va jismoniy shaxslarga sotiladigan o'z qimmatli qog'ozlari emissiyasini amalga oshiradi.

Investitsiya kompaniyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Qimmatli qog'ozlarni chiqarishni tashkil etish va emitentga (muassislarga) ularning joylashtirilishi kafolatini berish;

Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar qilish;

Qimmatli qog'ozlar bilan o'z hisobidan va shaxsiy tavakkalchilik asosida operatsiyalar (oldi-sotdi) qilish (dilerlik faoliyati).

O'zbekistonda investitsiya kompaniyalari. O'zbekistonda dastlabki investitsiya kompaniyalari 1992 yilning oxirida paydo bo'ldi. Ulardan eng yirigi "Toshkent" respublika universal tovar-fond birjasi bazasida tashkil etilgan "Toshkent" O'zbekiston moliya-investitsiya kompaniyasi ("O'zmoliyainvest") edi. Investitsiya kompaniyalari "Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida"gi Qonun qabul qilingunga qadar "Korxonalar to'g'risida"gi Qonun asosida ish olib borardi. Ularning investitsiya instituti sifatidagi faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonun hujjati mavjud emas edi. Shuning uchun ko'pchilik investitsiya kompaniyalari tijorat va qimmatli qog'ozlar bozori bilan bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanardi. 1996 yilda investitsiya kompaniyalari faoliyatining ayrim cheklovlari qabul qilinganidan keyin (ular o'zlarining jalb qilingan resurslarini aholining omonatlari va mablag'lari hisobidan shakllantirishi mumkin emas edi) ularning ko'pchiligi investitsiya institutlarining boshqa turlariga (odatda, boshqaruvchi kompaniyaga) aylangan holda o'z maqomini o'zgartirdi.

Investitsiya kompaniyasi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri andarrayting - qimmatli qog'ozlarni xarid qilish yoki ularni investorlar o'rtasida joylashtirish kafolatini berish - hisoblanadi. Andarraytingga quyidagilar kiradi: qimmatli qog'ozlarni chiqarish shartlarini belgilash, ularning yangi nashrlarini tayyorlash, qimmatli qog'ozlarni keyin investorlarga qayta sotish uchun emitentlardan sotib olish, ularni joylashtirish kafolatini berish, yangi nashrlarga obuna qilish bo'yicha sindikatlar yoki sotish bo'yicha guruhlar tashkil etish.

Andarrayter - qimmatli qog'ozlarga xizmat ko'rsatuvchi va ularning birlamchi joylashtirilishiga kafolat beruvchi, qimmatli qog'ozlarni keyinchalik xususiy investorlarga qayta sotish uchun emitentdan sotib oluvchi investitsiya instituti hisoblanadi.

Andarrayter sifatida investitsiya institutlarining guruhi ishtirok etishi mumkin.

Anderreytingning turlari. "Qat'iy majburiyatlar asosidagi" andarrayting. Bunday sharoitda andarrayter aksiyalarning butun nashrini yoki uning bir qismini qat'iy narxlarda joylashtirish bo'yicha qat'iy majburiyatlarga ega bo'ladi. Mazkur holatda, agar nashrning bir qismi investorlar tomonidan sotib olinmasa, andarrayterning o'zi ushbu qismni sotib olishga majbur. Agar belgilangan narxlar

bo'yicha birlamchi joylashtirishning vaqti ikkilamchi bozorda kurslarning keskin pasayishi bilan to'g'ri kelsa, u holda anderrayter katta yo'qotishlarga duch kelishi mumkin.

"Eng yaxshi harakatlar asosidagi" anderrayting. Bunday vaziyatda anderrayter qimmatli qog'ozlar nashrining tarqatilmagan qismini sotib olish bo'yicha hych qanaqa majburiyatlarga ega bo'lmaydi. U faqat joylashtirishga intiladi, lekin agar u buning uddasidan chiqmasa, tarqatilmagan qimmatli qog'ozlar emitentga qaytariladi, anderrayter esa buning uchun javobgarlikka ega emas. Joylashtirmaslik xatari emitentning zimmasiga tushadi. Bunday anderrayter distribyuter, deb nomlanadi.¹³

Investitsiya kompaniyalari tomonidan anderraytingning amalga oshirilishini quyidagi asosiy bosqichlarga bo'lish mumkin: qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishga tayyorlash, shu jumladan, emitent va bunga ko'maklashuvchi boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda nashrlarni rejalashtirish, muomalaga chiqariladigan qimmatli qog'ozlarni baholash, emitent hamda nazarda tutayotgan investorlar o'rtasida aloqalarni o'rnatish va h.k.; qimmatli qog'ozlarni taqsimlash, shu jumladan, emissiyaning bir qismini yoki butun summasini sotib olish, qimmatli qog'ozlarni investorlarga sotish, mazkur qimmatli qog'ozni joylashtirish vaqtida uning bozor narxini qo'llab-quvvatlash; sotilgandan keyingi davrda qimmatli qog'ozning kursini ma'lum vaqt mobaynida qo'llab-quvvatlash (odatda bir yil); shuningdek, qimmatli qog'ozning kurs qiymati o'zgarishini tahlil va nazorat qilish, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.

Anderraytingni amalga oshirish uchun investitsiya kompaniyalari emissiya sindikatlariga - qimmatli qog'ozlar nashrini va uning kafolatli joylashtirilishini tashkil etuvchi anderrayterlar guruhiga birlashishlari mumkin. Emissiya sindikatlari odatda muayyan vaqtga (joylashtirish davriga), xo'jalik birlashuvi va yuridik shaxs maqomini ro'yxatdan o'tkazmagan holda tashkil etiladi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda emissiya sindikatlariga kiruvchi investitsiya kompaniyalarining soni bir necha yuztaga yetishi mumkin. Sindikat a'zolari qandaydir bir qimmatli qog'ozni joylashtirish borasida muvaffaqiyatli hamkorlik qilishi va fond bozorining boshqa uchastkalarida raqobatlashishi mumkin.²⁸

Investitsiya kompaniyalarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular aholi bilan ishlash (o'zlarining jalb etilgan mablag'larini aholi omonatlari va mablag'lari hisobidan shakllantirish) huquqiga ega. Investitsiya kompaniyasining ustav fondi eng kam ish haqining 1500 barobaridan kam bo'lmasligi, bunda yuqori likvidli aktivlari ustav fondining kamida 30 foizini tashkil etishi lozim. Investitsiya kompaniyalari iqtisodiy me'yorlari ko'rsatkichi: $N1 > 1$; $N2 > 1$.

4. Investitsiya fondlari

Investitsiya fondlari - jismoiy va yuridik shaxslar mablag'larini to'plovchi hamda foyda olish, aksiyadorlar xatarini kamaytirish maqsadida ushbu mablag'larni fond nomidan qimmatli qog'ozlarga, bank hisob raqamlariga va omonatlarga joylashtiruvchi tashkilotdir. Investitsiya fondi yuridik shaxs bo'lib, aksiyalarni chiqarish va xarid qilishni, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa bitimlarni amalga oshiradi, shuningdek, u aksiyalariga egalik qilayotgan korxonalarining rivojlanishida va faoliyati samaradorligini oshirishda aksiyador huquqlari bilan ishtirok etadi. Yuqorida sanab o'tilgan operatsiyalar investitsiya fondining maxsus faoliyat turiga kiradi. Investitsiya fondi faoliyatini qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarning boshqa turlari bilan birga olib borishga yo'l qo'yilmaydi. Fondni sarflash bilan bog'liq barcha xatarlar, ularning bozor narxlari o'zgarishidan ko'rilgan daromad va zararlar aktivlar qiymatini yoki fond aksiyalari joriy narxlarini o'zgartirish yo'li bilan to'liq hajmda aksiyadorlarning hisob raqamlariga kiritiladi. Investitsiya fondlari faqat ochiq aksiyadorlik jamiyatlari ko'rinishida tashkil etilishi mumkin.

Investitsiya fondlari ikki xilga bo'linadi: ochiq va yopiq investitsiya fondlari. Ochiq turdagi investitsiya fondlari aksiyalarni ularni sotib olish majburiyati bilan muomalaga chiqaradi, ya'ni fond qimmatli qog'ozlarining egalariга ularning o'rniga pul summasi yoki mol-mulkni olish huquqini beradi, bu ustavda oldindan ko'zda tutilishi lozim. Yopiq turdagi investitsiya fondlari aksiyalarni ularni sotib olish majburiyatisiz muomalaga chiqaradi.

¹³"Тошкент" Республика товар-фонд биржасининг амалиётидаги дистрибьютерлик шартномаларидан

Investsiya fondlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Investitsiya fondlarining muassislari bo'lib yuridik va jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin, bunda ularning soni ikkitadan kam bo'lmasligi kerak. Investitsiya fondining ustav fondi eng kam ish haqining 500 barobaridan kam bo'lmasligi lozim. Fond aksiyalariga dastlabki obuna fond davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 30 kundan kechiktirmasdan amalga oshiriladi. Fond ustav sarmoyasining kamida 75 foizi pul mablag'lari bilan to'lanishi zarur. Investitsiya fondi davlat ro'yxatiga olinib, investitsiya muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatish uchun litsenziya olganidan keyin u tashkil etilgan hisoblanadi. Investitsiya muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatish uchun litsenziya 5 yil muddatga beriladi.

Fondni tashkil etishda uning aksiyalari ochiq obuna yo'li bilan tarqatiladi, bunday obuna boshqaruvchi kompaniya tomonidan amalga oshiriladi. Obunaning eng uzoq muddati 6 oy qilib belgilanadi. Obunaning yakunlanishida investitsiya fondining ustav sarmoyasi u tomonidan amalda joylashtirilgan aksiyalar bilan muvofiqlashtiriladi va adliya idoralarida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Investitsiya fondini boshqarish. Investitsiya fondining oliy organi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Umumiy yig'ilishning maxsus vakolatiga qonun hujjatlari bilan belgilanganlardan tashqari, fond faoliyatining chegaralanishini, depozitariy va boshqaruvchi kompaniyalar bilan shartnomalarni ma'qullash kiradi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari o'rtasidagi davr 15 oydan oshmasligi kerak. Ushbu vaqt mobaynida kuzatuvchi kengash uning oliy organi hisoblanadi.

Investitsiya fondi investitsiyalarini boshqarish va uning qimmatli qog'ozlari portfelini shakllantirishni, shuningdek, fondga maslahat xizmatlarini ko'rsatishni boqaruvchi kompaniya amalga oshiradi. Davlat boshqaruvi idoralari tomonidan ta'sis etilgan investitsiya muassasalari yoki ustav fondining 25 foizi davlatga tegishli bo'lgan tashkilotlar, shuningdek, affilyasiyalangan shaxslar investitsiya fondining boshqaruvchi kompaniyasi bo'la olmaydi. Investitsiya fondining affilyasiyalangan (tobe) shaxslari deganda yuridik va jismoniy shaxslar, boshqaruvchi kompaniya hamda uning mansabdor shaxslari, muassislari va ovoz beruvchi aksiyalarning 10 foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar tushuniladi. Affilyasiyalangan shaxslar tarkibiga mazkur boshqaruvchi kompaniya bilan boshqarish to'g'risida shartnoma tuzgan barcha investitsiya fondlari kiradi.

Investitsiya fondining ishtirokchilari boshqaruvchi kompaniyaning muassisi va a'zosi bo'lishi mumkin emas, o'z navbatida, boshqaruvchi kompaniyaning muassislari, mansabdor shaxslar, mutaxassislar hamda ularning affilyasiyalangan shaxslari investitsiya fondining aksiyadorlari bo'la olmaydi. Investitsiya fondining kuzatuvchi kengashlari hamda boshqaruvchi kompaniyalar tarkibiga davlat hokimiyati va boshqaruvchi idoralarining mansabdor shaxslari kiritilishi mumkin emas. Boshqaruvchi kompaniya bilan investitsiya fondining aktivlarini boshqarish to'g'risidagi shartnomani aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan vakil etilgan fondni kuzatuvchi kengashining raisi tuzadi. Kuzatuvchi kengash boshqaruvchi kompaniya tomonidan tuziladigan bitimlarning ro'yxatini, shuningdek, bitimlarning xususiyati va hajmiga ko'ra chegaralarni belgilashi mumkin. Boshqaruvchi kompaniya o'z faoliyatini investitsiya fondi nomidan amalga oshiradi, aksiyalari fondga tegishli bo'lgach, korxonalar aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida aksiyador sifatida ishtirok etadi. Boshqaruvchi kompaniya tomonidan olinadigan umumiy yillik mukofot pulining miqdori investitsiya fondi sof aktivlari o'rtacha yillik qiymatining 5 foizidan oshmasligi kerak.

Fond aksiyalari birinchi nashrining hisobi Markaziy depozitariyda, keyingi nashrlarining hisobi esa, Markaziy depozitariy bilan vakillik munosabatlariga ega bo'lgan boshqa depozitariylarda yuritiladi. Depozitariy fond qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalarni hisobga oladi va nazorat qiladi, shu jumladan, qimmatli qog'ozlarni almashtirish, xarid qilish va sotish bo'yicha cheklovlarni amalga oshiradi. Depozitariyning talabiga ko'ra uning vakili fond kuzatuvchi kengashining majlisida maslahat ovozi huquqi bilan ishtirok etishi mumkin. Investitsiya fondi aksiyadorlarining reestri depozitariy tomonidan yuritiladi. Depozitariy fondning kreditori yoki kafili bo'lish huquqiga ega emas. Fondning, boshqaruvchi kompaniya va depozitariyning hujjatlari hamda hisobotlarini fond tomonidan tayinlangan mustaqil auditor yillik tekshiruvdan o'tkazadi.

Turli xildagi xatarlarni kamaytirishga erishish. Investitsiya fondiga turli xildagi xatarlarni kamaytirish maqsadida ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanish va moliyaviy yo'qotishlarga olib

keluvchi, qator operatsiyalarni amalga oshirish qonun yo'li bilan man etiladi. Masalan, investitsiya fondi:

- qimmatli qog'ozlarga mablag'lar sarflash, opsiya, fyuchslarni xarid qilish, har xil turdagi kafolatlarni berish va mol-mulkni garovga quyishdan tashqari investitsiyaning boshqa turlarini amalga oshirish;

- egalari fond tutatilganidan so'ng aktivlarni sotib olish uchun oddiy aksiyalarning egalari qaraganda ustunlik huquqlariga ega bo'lgan obligatsiyalar, imtiyozli aksiyalar va boshqa turdagi majburiyatlar (qarz majburiyatlari)ni chiqarish;

- agar aksiyadorlik jamiyatining oddiy aksiyalarini xarid qilgandan keyin investitsiya fondining affilyasiyalangan shaxslariga ushbu jamiyat aksiyalarining 10 foizdan ortig'i tegishli bo'lsa, ularni sotib olish;

- o'zining sof aktivlarining 10 foizdan ortig'ini bir emitentning qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish, davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno;

- fondni o'zining affilyasiyalangan shaxslari qimmatli qog'ozlariga mablag'larni investitsiya qilish, karz majburiyatlariga mablag'larni sarflash (davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno);

- o'zining affilyasiyalangan shaxslaridan qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlarni sotib olish yoki ularga sotish, boshqa investitsiya fondlarining aksiyalarini xarid qilish huquqiga ega emas.

Shuningdek, investitsiya fondlari faoliyati uchun ayrim boshqa cheklovlar ham mavjud va ular bunga og'ishmay amal qilishlari lozim.

Investitsiya fondi foydasining soliqlar, majburiy to'lovlar va boshqaruvchi kompaniyasining mukofotlari to'langanidan keyin qolgan va sarmoyani ko'paytirishga yo'naltirilmagan qismi aksiyadorlar o'rtasida dividend sifatida taqsimlanadi. Investitsiya fondi tomonidan o'z sarmoyasi va mijozlar mablag'lari o'zaro nisbatining koeffitsienti (N1), shuningdek, bir mijoz uchun xatarning eng kam miqdori (N2) belgilanmagan.

Xususiylashtirish investitsiya fondlari. Xususiylashtirish investitsiya fond (XIF)lari investitsiya fondlarining bir turi hisoblanadi. Ular aholining keng qatlamini xususiylashtirish jarayoniga jalb etish maqsadida tashkil etiladi. XIFlarning vazifasi aholining pul mablag'larini jamlab, ularni xususiylashtirilayotgan davlat korxonalarining aksiyalarini sotib olishga yo'naltirishdan iborat. Xususiylashtirish investitsiya fondi o'z aksiyalarini chiqarish hisobiga mablag'larini jalb etish, o'z mablag'larini hamda olingan maxsus davlat kreditlarini xususiylashtirilayotgan davlat korxonalarining qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish, qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish, aksiyalariga ega bo'lgan korxonalarni rivojlantirish va samaradorligini oshirishda aksiyador sifatida ishtirok etishdan iborat faoliyatni amalga oshiruvchi ochiq aksiyadorlik jamiyatidir.

Xususiylashtirish investitsiya fondlari quyidagi xususiyatlarga ega:

- xususiylashtirilayotgan korxonalar tomonidan chiqariladigan aksiyalar umumiy sonining 30 foizigacha xarid qilish imkoniyati;

- o'zining umumiy aktivlarining 10 foizidan ko'p bo'lmagan qismini bir emitentning qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish imkoniyati;

- maxsus davlat kreditini olish imkoniyati;

- mablag'larni faqat xususiylashtirilgan korxonalarining aksiyalariga va davlat qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish huquqi.

XIF - yopiq turdagi investitsiya fondidir, ya'ni u qimmatli qog'ozlarni ularni sotib olish majburiyatlarisiz chiqaradi.

Xususiylashtirish investitsiya fondining investitsiya portfelini tashkil etuvchi aksiyalarni sotish faqat o'z aksiyalarining professionallar tomonidan tashkil etilgan qimmatli qog'ozlarning birja va birjadan tashqari bozorlarida aholi o'rtasida joylashtirilishi tugallanganidan keyin amalga oshiriladi. XIFlar o'z faoliyatida investitsiya fondlari uchun belgilangan cheklovlarga amal qiladi.

XIFlarini tashkil etish va ular faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. XIFlar muassislarining soni kamida ikki nafar shaxsdan iborat bo'lishi kerak. Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, ustav

fondida davlatning ulushi 25 foizdan kam bo'lgan korxonalar XIFning muassislari hamda aksiyadorlari bo'lishi mumkin. XIFning ustav fondi faqat pul mablag'larini kiritish hisobiga shakllantirilishi lozim, bunda muassislar ustav fondi qiymatining 100 foizini davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 30 kundan kechiktirilmagan muddatda to'lashga majbur.

Xususiylashtirish investitsiya fondlari faoliyatining muhim xususiyati shundan iboratki, hisob-kitob raqamlari bo'yicha bank operatsiyalari boshqaruvchi kompaniya tomonidan faqat XIFning mablag'laridan maqsadli foydalanganligini tasdiqlovchi Markaziy depozitariy vakilining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

XIFlar aksiyalarining birlamchi joylashtirilishida ular fond do'konlar va boshqa sotuv shohobchalari orqali 100 so'm nominal qiymat bo'yicha sotiladi. Birlamchi joylashtirish chog'ida O'zbekistonning har bir fuqarosi XIFlar aksiyalarini nominal qiymati bo'yicha xarid qilish huquqiga ega. Amalda to'langan ustav sarmoyasi ro'yxatga olinganidan keyin uning aksiyalari aholiga joylashtirilishi yakunlariga ko'ra har bir aksiyador (muassis) ishtirokining ulushi bir oydan ko'p bo'lmagan muddatga ustav fondining 5 foizidan oshmasligi kerak.

XIFlar aksiyalarini sotish investitsiya muassasalari (fond do'konlari), qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar qilish huquqiga ega bo'lgan banklar orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi davlat-tijorat xalq banki, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish organining talablariga javob beradigan boshqa tijorat banklari barcha ro'yxatga olingan XIFlar aksiyalarining muassasaviy (institutSIONAL) tarqatuvchilaridir.

Muassasaviy tarqatuvchilarning XIFlar aksiyalarini sotish bo'yicha xarajatlari XIFlarga aksiyalarni sotishdan kelib tushadigan Davlat Mulki qo'mitasining mablag'lari hisobidan qoplanadi. Maxsus davlat kreditining asosiy summasi qaytarilishiga qarab XIFlar Davlat mulki qo'mitasi tomonidan muassasaviy tarqatuvchilar xizmatlari haqlarini to'lash uchun sarflangan, aholiga sotilgan XIFlar aksiyalari tegishli paketlariga to'g'ri keladigan mablag'larning qaytarilishini ta'minlaydi.

XIFlar aksiyalari oddiy, egasining nomi yozilgan bo'lib, har bir aksiya aksiyadorlar umumiy yig'ilishida bir ovoz huquqini, shuningdek, dividendlar olish huquqini beradi.

XIF aksiyalarining birinchi nashri XIFning ta'sis etilishi chog'ida ustav fondiga muassislar tomonidan kiritilgan ulushlarni qoplash uchun amalga oshiriladi. Aksiyalarning ikkinchi nashri aksiyalarni aholiga sotish uchun chiqariladi va u XIF davlat ro'yxatiga olinganidan keyin 3 oydan kechiktirilmagan amalda oshirilishi lozim. XIFlar aksiyalarining ikkinchi emissiyasi ikkinchi emissiya prospekti ro'yxatga olingan kundan boshlab 6 oy ichida, joylashtiriladi. XIFlar aksiyalarining keyingi emissiyasi aksiyadorlarga tegishli bo'lgan foydani kapitalizatsiya qilish, keyinchalik aksiyalarni aksiyadorlar o'rtasida taqsimlash yoki aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan ustav fondi oshirilgan taqdirda, shuningdek, unga qo'shilayotgan boshqa XIF aksiyalariga almashtirilgan holda amalga oshirilishi mumkin. XIFlar quyidagi huquqlarga ega:

- investitsiya muassasasi litsenziyasini olgunga qadar aksiyalarni sotuvga taklif qilish (muassislar o'rtasida taqsimlanadiganlaridan tashqari);

- o'z aksiyalarini joylashtirish chog'ida mo'ljallangan daromadlar miqdorini e'lon qilish;

- o'z aksiyalarini yuridik shaxslarga sotish (muassislardan tashqari);

- o'z aksiyalarini aksiyadorlardan sotib olish.

XIF aksiyalarining nashri davlat ro'yxatiga olinganidan so'ng ular qimmatli qog'ozlarning birja va birjadan tashqari bozorlarida erkin muomalada bo'lishi mumkin. XIFlar aksiyalari va XIFlarga tegishli qimmatli qog'ozlar bilan bajariladigan barcha operatsiyalar faqat Markaziy depozitariyda hisobga olinishi kerak,

XIFlar tomonidan xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarining sotib olinishi mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 25 sentyabrdagi 410-sonli Qarori bilan XIFlar tomonidan kimoshdi savdolari orqali sotish uchun taqdim etiladigan aksiyalar miqdoriga ega bo'lgan 200 ta ochiq aksiyadorlik jamiyatining ro'yxati tasdiqlandi. Bundan tashqari, yuqorida qayd etilgan ro'yxatga qo'shimcha ravishda Davlat Mulki qo'mitasiga

xususiylashtiriladigan korxonalarining davlatga tegishli aksiyalarini XIFlar uchun sotuvga qo'yishga ruxsat etildi.

Xususiylashtiriladigan korxonalarining aksiyalari XIFlarga nominal qiymatiga teng ravishda qayd etilgan narxda sotilishi lozim. XIFlarning aksiyalarga ochiq obuna bo'yicha qayd etilgan narxlarda xarid qilish qobiliyati fond aksiyalarini aholiga sotishdan kelib tushadigan va kiritilgan ta'sis badallari summasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Davlat mulki qo'mitasi tomonidan vakolatlangan organ savdolarining tartibini belgilab beradi. Ochiq obunani o'tkazish sanasi u o'tkaziladigan kundan bir hafta oldin ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi kerak.

Agar bir emitentning aksiyalarini xarid qilish uchun tushgan talabnomalar miqdori taklif etilayotgan miqdordan yuqori bo'lsa, u holda aksiyalarni taqsimlash (kimoshdi savdosini o'tkazish sanasida) har bir talabnoma bergan XIF tomonidan amalda to'langan ustav fondini inobatga olgan holda berilgan talabnomalarga mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Ochiq obunaning birinchi davrasida XIFlarga sotilmay qolgan aksiyalar birja bozorida ochiq savdoga qo'yiladi. Shundan so'ng, agar ushbu aksiyalar birja savdolariga qo'yilgandan boshlab olti taqvim kunida sotilmasa, ular keyingi 15 kun ichida ochiq obunaning ikkinchi davrasida XIFlarga taklif etiladi. Ikkinchi davrada sotuv aksiyalarining nominal qiymatiga teng bo'lgan narxlarda amalga oshirila boshlanadi, bordi-yu ularga nisbatan talab bo'lmasa, aksiyalar narxlari bosqichma-bosqich pasaytiriladi, lekin ular nominal qiymatining 85 foizidan pastga tushirilmaydi. Ochiq obunaning ikkinchi davrasida aksiyalarni sotib olishda XIFga davlat krediti berilmaydi. Agar mazkur aksiyalarga nisbatan ochiq obunaning ikkinchi davrasida ham talab bo'lmasa, ularning emitentlari XIFlarga sotish uchun mo'ljallangan xususiylashtirilgan korxonalarining tasdiqlangan ro'yxatidan chiqarib tashlanadi. Aksiyalar sotilgandan keyin Davlat Mulki qo'mitasi aksiyalarga egalik qilish huquqini xaridorga topshiradi.

XIFlar tomonidan maxsus davlat kreditlarining olinishi. XIFlarga maxsus davlat krediti Davlat Mulki qo'mitasi tomonidan xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini xarid qilish uchun to'lovni kechiktirish ko'rinishida 5 yil muddatga beriladi. Kreditni rasmiylashtirish faqat Davlat Mulki qo'mitasidan xususiylashtirilayotgan korxonalarining aksiyalarini sotib olishda va zarur bo'lgan garov ta'minoti mavjud hollarda amalga oshiriladi. XIFga tegishli bo'lgan har qanday aktivlar - xususiylashtirilgan korxonalarining aksiyalari, qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari va hokazolar kredit uchun garov tariqasida qabul qilinishi mumkin. Ta'minot berilayotgan kreditning to'liq summasida bo'lishi kerak. XIF o'z pul mablag'lari bilan xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalari paketi qiymatining 30 foizini to'laydi, aksiyalar paketi qiymatining qolgan 70 foizi esa, kredit hisobidan sotib olinadi.

Kreditlarni qaytarish kredit berilgan yildan keyingi ikkinchi yildan boshlab XIF tomonidan pul mablag'larining Davlat Mulki qo'mitasining maxsus hisob raqamiga o'tkazilishi yo'li bilan amalga oshiriladi. Davlat krediti bo'yicha qarzlarni qaytarilganidan so'ng XIF oddiy investitsiya fondiga aylantirilishi mumkin. Bunda ushbu investitsiya fondi xususiylashtirilayotgan korxonalarining aksiyalarini ularning nominal qiymati bo'yicha xarid qilish va yangi davlat kreditini olish huquqini yo'qotadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda investitsiya va xususiylashtirish fondlariga o'xshash tashkilotlar moliyaviy jihatdan barqaror sanaladi, chunki ular mablag'larining turli korxonalariga sarflanishi diversifikatsiyasi qonuniy tartibda ta'minlanadi, faoliyatning cheklanishi esa XIFlarga tijorat xususiyatidagi xatolarni qilmaslik imkonini beradi. Bunday tashkilotlarning shtatida turli xil korxonalarining istiqbollari, aksiyalar portfelini to'g'ri ta'minlay oladigan yuqori saviyali mutaxassislarining albatta ishtirok etishi fondlar aksiyadorlariga yakuniy hisobda, hech bo'lmaganda, dividendlarning o'rtacha me'yoriga ega bo'lish imkonini beradi.

Iqtisodiyoti o'tish jarayonini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda xususiylashtirish investitsiya fondlarining zarar ko'rib faoliyat ko'rsatishi va bankrotlikka uchrashi ehtimol mavjud chunki xususiylashtirilgan korxonalarining hammasi ham dividendlarning yetarli miqdorini ta'minlay oladigan darajada daromadli emas.

O'zbekistonning qonun hujjatlarida shu narsa ko'zda tutilganki, agar XIF inqirozga uchrasa bo'lsa yoki boshqa sabablarga ko'ra tugatilsa, uning aktivlari tugatish komissiyasi tomonidan ochiq

kimoshdi savdosi shaklida tarqatiladi, unda xususiylashtirilayotgan korxonalarining aksiyalarini xarid qilish huquqiga ega bo'lgan har qanday shaxs ishtirok etishi mumkin. O'zbekistonda 1998 yilning kuzidan boshlab investitsiya va xususiylashtirish investitsiya fondlarining xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalari bo'yicha olgan daromadlari soliqlar, yig'img'lar va byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlardan ozod qilingan. Fond tomonidan xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini sotib olishga yo'naltiriladigan daromadlar ham soliqqa tortilmaydi.

6. Moliyaviy mablag'lar bozori

Endi investitsiya faolligini rivojlantirishga sharoit yaratish moliyaviy mablag'lar bozorini ko'rib chiqamiz.

Zayom mablag'lari va foiz stavkalari. Zayom mablag'lari nazariyasi doirasida 2-guruh ishtirokchilarni-tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi firmalar (korxonalar) va uy xo'jaliklari mavjud bo'lgan kapital bozorining oddiy namunasini qaraydi. Firmalar kapitalni barpo qilish uchun zarur bo'ladigan zayom mablag'lariga talabni izhor qiladi. Uy xo'jaliklari joriy daromadning bir qismini tejash orqali, moliyaviy resurslarni shakllantiradi.

Zayom mablag'lari nazariyasiga kirish. Kapital bozori umuman moliyaviy bozor singari, iqtisodiy nazariyada zayom mablag'lari sifatida qaraladi. Baho sifatida zayom oluvchini kreditorga uning mablag'ini ma'lum vaqt mobaynida foydalangani uchun to'laydigan foiz namoyon bo'ladi.

Zayom mablag'lari nazariyasida kapital bozorini tahlil qilish uchun bozorning barcha ishtirokchilari o'zlarini maqbul tutadilar, ya'ni ular o'z foizlarini ko'paytirishga harakat qiladilar degan tushunchadan kelib chiqqan holda bozordagi talab, taklif va muvozanatni belgilovchi omillarni tadqiq qilishdan iborat bo'lgan bozorni tahlil qilish uslubiyatidan foydalanadi.

Talab deganda korxonalar va uy xo'jaliklarini turli baho darajasida- foiz stavkasiga qaramay jami mablag' miqdorini qarzga olishga rozi bo'lgan holatni nazarda tutadi.

Taklif foiz stavkalarining har qanday darajasida investitsiyalarni qancha miqdorda mablag' bera olishiga tayyor ekanligini ko'rsatadi. Iqtisodiy nazariyaning asosiy mazmunlaridan biri shuki, agarda bozor raqobatli bo'lsa, ishtirokchilarni birortasi bahoga ta'sir qilish imkoniyatiga ega bo'lmaganda, talab va taklif omillari bahoga talab miqdori taklif miqdoriga tenglashish darajasiga ta'sir qiladi. Ushbu miqdor va baho (foiz stavkasi) tenglashish deb ataladi.

Investitsiya talabi. Korxonalar tomonidan investitsiyaga bo'lgan talab yagona emas, ammo zayom mablag'lariga bo'lgan talab pirovard talabning asosiy omili bo'lib hisoblanadi. Investitsiyaga bo'lgan talab nima bilan begilanadi? Har qanday firma kapital yaratadi (yoki yangilar) ekan, uni muayyan manfaat ko'rish maqsadida qiladi. Iqtisodiy nazariyaning asosiy taxminlaridan biri (o'zini oqlagan va tabiiy) firmaning asosiy maqsadi foydani ko'paytirish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun firma turli ishlab chiqarish omillaridan shu jumladan, kapitaldan optimal nisbatda foydalanishga harakat qiladi. Yoki boshqacha, ishlab chiqarish omillarini nomaqbul nisbati investitsiyalashga turtki bo'lib, foydalanilayotgan kapitalning (yoki sifatini oshirish) miqdorini ko'paytirish bilan ko'pincha foyda olish imkoniyatini beradi. Ushbu foydani miqyosini investitsiyalar daromadliligi deb ataluvchi, investitsiya sarflaridan foiz ko'rinishida ifodalash mumkin.

Alohida firmaning eng yuqori samaradorlik chizig'i investitsiyalarning daromadliligini investitsiyalarning miqdoriga bog'liqligini ifoda qiladi. Investitsiyalar daromadliligi faoliyat turi, firma miqyosi va omillarga bog'liq ravishda turlicha bo'lishi mumkin. Ammo, umumiy qonuniyat mavjud ya'ni investitsiyalar miqdori ko'payishi bilan daromadlilik pasayadi. Misol, har qanday firma mablag'larni investitsiyalash bo'yicha, shu jumladan daromadliligini xilma-xil imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Foydani ko'paytirishga bo'lgan intilishlardan kelib chiqib, firma birinchi navbatda eng manfaatli loyihalarni amalga oshiradi. Lekin, yuqori daromad olish imkoniyatlari cheklangan va investitsiyalar miqdorini kengaytirishda kam manfaatli loyihalarni joriy qiladi. Investitsiyalar daromadliligining pasayishi qonuni-ishlab chiqarish omillarini yuqori unumdorligining pasayishi qonunini o'z ichiga oluvchi umumiy iqtisodiy qonun namoyon bo'lishi hisoblanadi.

Ushbu egri chiziq firmani investitsiya faoliyatidan manfaat olish bo'yicha imkoniyatlarini ta'riflash bilan uning investitsiya talabini ham belgilaydi. Firma qanday mablag'larni o'zining yoki

zayom mablag'larini foydalanishidan qat'iy nazar xarajat bo'lib hisoblanadi. Zayom mablag'laridan foydalanganlik uchun bozor foiz stavkasini bozorda to'lashi lozim. Agar korxonaga jalb qilingan mablag'lardan foydalansa, foiz bevosita xarajat shakliga, ya'ni mablag'lardan foydalanganlik uchun to'lov shakliga ega bo'ladi. Agarda o'zining mablag'lari ishlatilsa, foiz stavkasi alternativ xarajat bo'lib hisoblanadi, ya'ni investitsiya resurslarini boshqa bozor ishtirokchilari foydalanishi uchun taqdim qilinmagan qo'ldan chiqarilgan manfaat hisoblanadi.

Alohida firma investitsiyalarining eng yuqori samaradorlik egri chizig'i investitsiyalar daromadligini miqdoriga bog'liqligini ifodalaydi. Investitsiyalar daromadligi ishlab chiqarish omillarini eng yuqori unumdorligini kamayish qonunining ta'siri natijasida miqdor ko'payishi bilan pasayadi.¹⁴

Firmaning investitsiya miqdori to'g'risidagi qarori, shunday qilib bir tomondan, o'zining investitsiya dasturlari daromadligi, boshqa tomondan bozorning foiz stavkasi, ya'ni zayom mablag'laridan foydalanganlik bahosi bilan belgilanadi.

Bozorlar va usullar. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotidagi moliyaviy bozorning ustuvor yo'li iqtisodiy agentlarning jamg'armalarini yig'ish va ushbu mablag'larni yangidan kapital yaratish uchun foydalanishdir. Moliyaviy bozor o'ta murakkab tizim. Hozirgi zamon iqtisodiyotida moliyaviy resurslarni yig'ish va qayta taqsimlash tizimining investitsiya doirasini asosiy unsurlardan hisoblanadi. Ular qatoriga moliyaviy usullar (moliyaviy aktivlar yoki qimmatli qog'ozlar), moliyaviy institutlar (moliyaviy vositachilar) va moliyaviy bozorlar kiradi.

Qimmatli qog'ozlar. Qimmatli qog'ozlar moliyaviy bozorda savdo predmeti bo'lib hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar me'yoriy huquqiy talablarga muvofiq rasmiylashtirilgan, hujjat bo'lib, uning egasiga (yoki sohibiga) muayyan mulkiy huquqlarni ta'minlaydi va shu bilan birga qiymatga ega bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar ko'rinishida bugungi qiymatni kelajak qiymatga almashish to'g'risidagi, bitimlar rasmiylashtiriladi yoki qimmatli qog'ozlarni sotib olish, pulni kelajak xarid qobiliyatiga almashtirilishdir. Har qanday bitimda bo'lgani singari bu yerda ikki tomon ishtirok etadi; emmitent, qimmatli qog'ozni chiqaruvchi va pulga qimmatli qog'oz bilan bog'liq mulkiy huquqni oluvchi investor ishtirok etadi.

Qimmatli qog'ozning ajralib turuvchi asosiy xususiyati ularni qayta sotish, ya'ni mulkiy huquqlarni birovdan boshqasiga o'tishi hisoblanadi.

Moliya bozorining yuqorida keltirilgan belgisi amaliy jihatdan aniq emas.

Chunki, erkin oldi-sotdi predmeti bo'lishi mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlar ko'rinishida bugungi qiymatni kelajak qiymatga almashtirish haqida hamisha bitimlar ham rasmiylashtirilavermaydi. Shuning uchun qoida sifatida kredit bozori va qimmatli qog'ozlar bozorini farq qilinadi.

Kredit ham bugungi qiymatni kelajak qiymatga almashtirish haqidagi bitimlarni ifoda etadi, ammo zayom beruvchining kreditor oldidagi majburiyati erkin oldi-sotdi predmeti bo'la olmaydi.

Qisqa muddatli majburiyatlar (bir necha kundan bir necha oygacha muddatda) yuqori likvidlikka ega bo'lib xissasi bo'yicha pulga yaqin bo'ladi. Qisqa muddatli moliyaviy qurollar bozori (qimmatli qog'ozlar yoki kredit kelishuvlari) qoida sifatida pul bozori tugunchasini birlashtiradi. Pul bozorida farqli ravishda, kapital bozori mulkiy huquqlarni qamrab oladi, ularni sotish esa nisbatan uzoq vaqt mobaynida amalga oshadi.

Iqtisodiy nazariyada "qimmatli qog'ozlar toifasiga moliyaviy qurollarning hamma turlari kiritiladi, faqat bir mulkdordan boshqasiga o'tishi mumkin bo'lganlari va erkin oldi-sotdi qilinmaydiganlari farq qilinadi".

Zayom olish usullari. Zayom olish usullari oldi-berdi munosabatlarini rasmiylashtiradi va qimmatli qog'oz emmitenti uning egasiga (kreditlarga) belgilangan pul summasini qo'llashni ifoda qiladi. Belgilangan daromad beradigan qimmatli qog'ozlarning asosiy turlariga veksellar, jamg'arma sertifikatlari va obligatsiyalar kiradi.

¹⁴ Мертенс. Инвестиции. -Киев. 1997. 187 с.

Veksellar. Veksel me'yoriy talablarga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlarni ifoda qiladi, unga muvofiq bir tomon boshqasiga muayyan pul summasini to'lash majburiyatini oladi.

Oddiy va o'tkazuvchi veksellarni farqlanadi. Oddiy veksel beruvchini veksel saqlovchiga belgilangan pul summasini to'lash to'g'risidagi majburiyatidir. O'tkazuvchi veksel beruvchini to'lovchiga, belgilangan summasini uchinchi shaxsga to'lashi kerakligi to'g'risidagi ko'rsatmani beradi.

Obligatsiyalar. Obligatsiyalar zayom oluvchilarni (emmitentini) va kreditlar (investorni) munosabatlarini rasmiylashtiruvchi qimmatli qog'oz bo'lib, emmitentni belgilab pul summasini kelishilgan vaqtda to'lash shartini ifoda qiladi. Obligatsiyalar bo'yicha to'lov asosiy qog'oz summasidan va foizdan iborat bo'lib, zayom mablag'larini foydalanganligi uchun taqdirlashdir. Obligatsiya erkin sotilishi va sotib olinishi mumkin, uning uchun yetarli darajada rivojlangan bozor bo'lishi lozim.

Jamg'arma sertifikatlari. Jamg'arma sertifikatlari (yoki depozitlar) o'zining mazmuniga ko'ra obligatsiyalaridan uncha farq qilmaydi. Jamg'arma sertifikati bank tomonidan chiqariladigan va uni egasiga oldindan shartlashilgan vaqtda belgilangan summani olish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozdir. Jamg'arma sertifikatlarini oddiy muddatli depozitdan afzaligi shundaki, uni uchinchi shaxsga qayta sotish imkoniyatini beradi, yohud, agar chiqarish shartlarida eslatilgan bo'lsa, muddatdan oldin emmitent-bankka sotilishi mumkin.

Mulkiy huquqlar. Firma kapitalarini moliyalashtirishning ikkita asosiy usuli mavjud: qarz majburiyatlarni chiqarish va firma egalari o'z mablag'laridan foydalanishi. Agar firmani barpo qilish uchun ko'pchilik mulkdorlarni mablag'lari foydalaniladigan bo'lsa, unday korxonani korporatsiya deb ataladi. Tashkil qilishning korporativ shakli yakka kishi mulkdor bo'lgan tadbirkorlik firmasiga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, ko'pchilik iqtisodiy agentlar mablag'larini birlashtirish katta miqyosida ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Ikkinchidan, korporativ shakl ishtirokchilarni korporatsiya barpo qilishga sarflangan mablag'i miqdorida ma'suliyatlarni cheklaydi va nihoyat korporativ shakl investitsiyalarning likvidligini ta'minlash qobiliyatiga ega, chunki ishtirokchilar ham o'z ulushlarini sotishlari mumkin.

Biznesning korporativ tashkil qilishni bir qancha shakllari mavjud. Ulardan asosiylari-ma'suliyati cheklangan jamiyat va aksionerlik jamiyati. Ma'suliyati cheklangan jamiyat bir qancha ishtirokchilar mulki asosida tashkil qilinadi. Firmani kapitalining umumiy miqdori ularning ulushlari, badallari miqdoriga qarab belgilanadi.

Barcha ishtirokchilarning badallari summasi firmaning ustav fondini tashkil qiladi. Ma'suliyati cheklangan jamiyatning farqli hususiyati shundan iboratki, ishtirokchi o'zining ulushini boshqa ishtirokchilarni roziligi bilan uchinchi shaxsga sotishi mumkin.

Aksioner jamiyatning ustav fondi teng ulushda belgilangan miqdorda bo'ladi va aksiya deb ataladi.

Oddiy aksiyalar. Oddiy aksiyalar korporatsiya mulkining bir qismiga egalik qilishi va firma foydasining bir qismini olish huquqi bilan birga, korporatsiyani boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi. Aksioner jamiyatini boshqarishning oliy idorasi aksionerlar majlisi hisoblanib, qarorlar ularning ovoz berishi orqali qabul qilinadi, albatta har bir aksioner ularda mavjud bo'lgan aksiyalar soniga muvofiq ravishda ovozga ega bo'ladi.

Aksionerlar soni ko'p bo'lgan aksionerlik jamiyatlarida odatda aksiya egalari firmani va korxonani boshqarishda bevosita ishtirok etmaydilar, balki uning uchun ijroiya idorani direktor (direktorlar) kengashini tashkil qiladilar. Aksionerlarga to'lanadigan daromadni, korxonani foyda huquqlari miqdorlari haqida qarorni aksionerlar majlisi qabul qiladi.

Dividend deb ataluvchi daromad aksionerlarga ularning qo'lidagi aksiyalar soniga muvofiq to'lanadi.

Chatishgan usullar. Qimmatli qog'ozlarning bir qancha turlari mavjud bo'lib, ular zayom va egalik huquqlari usullarining xususiyatlarini birlashtiradi. Ular imtiyozli aksiyalar va konvertlanadigan (almashadigan) obligatsiyalar.

Imtiyozli aksiyalar. Imtiyozli aksiyalar, oddiy aksiyalar singari firmaning, korxonaning kapitalini bir qismiga egalik qilish huquqini beradi, ammo uning egasi boshqaruvda ishtirok etish huquqini bermaydi. Imtiyozli aksiya egalari dividend shaklida foydaning bir qismini birinchi navbatda olish huquqiga ega bo'ladilar va u dividendlarning eng kam miqdori oldindan e'lon qilinishi mumkin. Pirovard holatda imtiyozli aksiya o'z xususiyati bo'yicha muomala muddati belgilanmagan obligatsiyalarga yaqin turadi.

Almashadigan (konvertlanadigan) aksiyalar. Almashadigan obligatsiyalar-uni egalari ga ushbu korporatsiyaviy aksiyalarni olish huquqini ta'minlovchi korporativ obligatsiyalarning alohida turidir. Almashadigan obligatsiyalarning ushbu xususiyati unga qarz olish quroli emas, balki mulk quroli belgisini beradi, obligatsiyalarni aksiyalarga almashtirish shartlari bilan belgilanadi.

Qimmatli qog'ozlarni keltirib chiqaruvchilar. Qimmatli qog'ozlarni keltirib chiqaruvchilar sifatida asos deb aytiladigan ba'zi real yoki moliyaviy aktivlar bo'yicha tuziladigan kelishuvlar, huquqlar va majburiyatlar qabul qilingan.

Foizlar - odatda bajarish muddati uzaytirilgan oldi-sotdi bitishuvlari hisoblanadi. Keltirib chiqarilgan moliyaviy qurollarning mavjudligining asosiy sababi kelajakdagi noaniqlik, va ular avvalambor bozorda buyumni ko'zda tutilmagan tebranish bilan bog'liq tavakkal sug'urtalash uchun mo'ljalangan qimmatli qog'ozlarning asosiy turlari forvard (fyuchers) bitimlari va opsiolar hisoblanadi.

Forvard bitimlari. Forvard bitimlari kelgusi bitimda belgilangan oldindan kelishilgan narx bo'yicha ma'lum miqdordagi ba'zi asosiy aktivlarni sotish, boshqa tomon esa sotib olish majburiyatiga muvofiq tuzilgan kelishuvlardir. Haqiqatda forvard bitimlarga bajarish muddati bir oz uzaytirilgan har qanday kelishuvlar taalluqlidir. Masalan, xonadonni ijaraga olish yoki katalog bo'yicha mol (tovar) olish to'g'risidagi kelishuvlarni forvard bitimi deb hisoblash mumkin. Valyuta olish (sotish) real aktivlar (qishloq xo'jaligi va xom ashyo, mollar), qimmatli qog'ozlar olishda forvard bitimlari keng tarqalgan. Forvard bitimlarining shartlari (yetkazib berish muddati, miqdori, sifatiga talab, narxi va hokozolar) asosan tomonlarning kelishuvi orqali belgilanadi. Bunda asosiy kamchilik shundaki, birinchidan likvidlikning yo'qligi, ya'ni, bitim bo'yicha o'zining huquqini boshqa shaxsga sotish imkoniyati yo'qligi, kelishuv bo'yicha o'zlarining majburiyatlarini bajarmaslik xavfi mavjudligi. Bunday kamchiliklardan fyuchers bitimi holidir.

Fyuchers bitimlari. Fyuchers bitimlarining belgisi amalda forvard kelishuvlariga o'xshashdir. Farq qiladigan tomoni shundaki, fyuchers bitimlarining barcha belgilari standartlashtiriladi. Fyuchers bitimlari bilan savdo qilish tashkil qilingan maydonlarda olib boriladi, kelishuvni bajarish kafolati sifatida kliring palatasi deb atladigan maxsus vositachi tashkilot qatnashadi. Fyuchers bozorlarini yuzaga kelishi XIX asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi, birinchi fyuchers kelishuvlarining asosiy aktivlari esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'lgan.

Hozirgi kunlarda esa real aktivlar bo'yicha fyuchers bitimlari singari (bu dastavval, forvardlarga nisbatan qishloq xo'jaligi va xom ashyo mahsulotlari), va valyuta, davlat obligatsiyalari bo'yicha (foiz stavkalari bo'yicha fyucherslar), qimmatli qog'ozlar portfeli bo'yicha (fyucherslarni fond bo'yicha indeksleri) va boshqalar.

Opsiolar. Opsion-ma'lum muddatga qilinadigan bitishuvlarning bir turi bo'lib, uning shartlariga muvofiq bir tomon (opsionni sotuvchi) xaridorning talabi bo'yicha asosiy aktivning kelishini vaqtida oldindan belgilangan narxda sotish yoki sotib olish majburiyatini oladi. Opsionni sotib oluvchi kelishuvni bajarish yoki bajarmaslikni tanlash huquqiga ega bo'ladi. Chunki, narx o'zgarishi xavfi sotuvchining ustiga tushadi, sotib oluvchi ushbu huquqni olganligi uchun taqdirlaydi, boshqacha ayganda mukofot to'laydi. Shunday qilib opsiolar sotib oluvchiga manfaatli bo'lganda bajariladi.

Moliyaviy institutlar turlari. Moliyaviy institutlarning moliyaviy vositachilarning asosiy turlari bo'lib banklar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari va investitsiya kompaniyalari, pensiya fondlari hisoblanadi.

Banklar. Bank muassasalarining boshqa moliyaviy institutlaridan farqli tomoni, egasi talab qiladigan (hisob yoki chek raqamlari) depozitlarni ochish imkoniyatlari mavjudligi hisoblanadi. Depozit hisoblarini kreditlash imkoniyatlari bilan birgalikda olib borish banklarga haddan tashqari

muhim xususiyatlar beradi: bank tizimi "pul barpo qiladi", ya'ni, pul masalasini ko'paytirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Hisoblarni va qisqa muddatli kreditlarni ta'minlash bo'yicha faoliyatdan tashqari, banklar jamg'arma muassasalari sifatida va qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachilari sifatida ishtirok etishi mumkin.

Investitsiya fondlari va investitsiya kompaniyalari. Investitsiya fondlari va investitsiya kompaniyalarining faoliyat predmetlari, hamkorlikda investitsiyalash, ya'ni investitsiya faoliyatini amalga oshirish maqsadiga ko'pchilik sub'ektlar mablag'larini birlashtirishdir. Investitsiya fondlari va kompaniyalari mablag' qo'yuvchilarning mablag'i o'rniga o'z majburiyatlarini chiqaradilar.

Sug'urta kompaniyalari. Sug'urta kompaniyalari faoliyati mazmunini qisqacha tavakkal bilan savdo qilish deb tushuntirish mumkin. Sug'urta kompaniyasi o'zining mijozlari uchun noqulay sug'urta vaziyati yuzaga kelganda yo'qotishlarni qisman yoki to'la qoplash bo'yicha majburiyatlar qabul qilib haqiqatdan ularning havfini yoki tavakkalini sotib oladi. Ko'pchilik uchun tavakkalchilik "qarzi manfaati" hisoblanadi, shuning uchun bunday holatda sug'urta kompaniyasiga muayyan pul summasini-sug'urta badalini to'lashi lozim, va u bir yo'la yoki bir necha muddatlarga bo'linib to'lanishi mumkin. Odatda sug'urta kompaniyalari hayotini va fuqarolar mulkini sug'urtalashga, yoki tijorat tavakkalchiligini sug'urtalashga ixtisoslashishi mumkin. Mijozlari muayyan mablag'larni birlashtirib va ularni yaxshi foydalanishga harakat qilib, sug'urta kompaniyalari bir yo'la yirik investitsiya institutlari hisoblanadilar.

Pensiya fondlari. Pensiya fondlariga investitsiya fondlarining maxsus turlari sifatida qarash mumkin. Ular faoliyatining asosiy mazmuni pensiya dasturlarini amalga oshirish, ya'ni kishilarni faol mehnat faoliyati davridagi jamg'armalarining, mehnat faoliyatini to'xtatganidan keyin pensiya to'lovlarini ta'minlash maqsadiga birlashtiradi. Rivojlangan mamlakatlarda xususiy pensiya fondlari katta miqdordagi mablag'larni boshqarish orqali qimmatli qog'ozlar bozorida yirik investorlarga aylanadilar.

Moliyaviy bozorlar. Hozirgi zamon tushunchasida moliyaviy bozorlar deganda moliyaviy aktivlarni savdosi tushunilib, unda savdoni aniq qoidalari, bozor ishtirokchilarining mahorati va rivojlangan bozor infratartibi, kamchiqim va bitishuvlarni amalga oshirishni mustahkamligi mavjud bo'ladi.

Birlamchi va ikkilamchi bozor. Qimmatli qog'ozlar bozori birlamchi bozorlarga bo'linadi. Birlamchi bozor qimmatli qog'ozlarni emmitenti (ya'ni, investorlarga erkin sotish uchun qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi xususiy yoki davlat muassasasi (tashkiloti) tomonidan birlamchi joylashtirish bo'yicha operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Birlamchi joylashtirishning ikkita asosiy usuli mavjud, ular anderrayter deb ataluvchi investorlarga to'g'ridan-to'g'ri sotish va moliyaviy institut vositasida joylashtirishdir.

Anderrayterlar vazifasini rivojlangan bozorlarda odatda, yirik investitsiya kompaniyalari, broker firmalari hamda ko'pgina mamlakatlarda tijorat banklari ham bajaradilar. Anderrayter emmitentlangan qimmatli qog'ozlarning hammasini yoki uning bir qismini investorlar o'rtasida joylashtirish maqsadida sotib oladi. Anderraytining to'g'ridan-to'g'ri joylashtirishning asosiy afzalligi shundan iboratki, emmitent amalda unga birdaniga zarur bo'ladigan moliyaviy mablag'ni oladi. Undan tashqari anderrayter, odatda mashhur moliyaviy institut bo'lib, uni qimmatli qog'ozlarni chiqarishda investorlar uchun emmitentdan moliyaviy qurollarning sifatligi va mustahkamligi haqida xabar hisoblanadi.

Birlamchi joylashtirish texnologiyasi aslida shartnoma asosida olib borishga asoslanishi mumkin - joylashtirish bahosi emmitent va investorlar orasida muzokaralar yo'li bilan belgilanadi va auksion tamoyiliga muvofiq joylashtirish bahosi auksion natijasi bo'yicha belgilanadi va qimmatli qog'oz egasi manfaatli shartlar taklif qilgan investor hisoblanadi. Ikkilamchi bozor - qimmatli qog'ozlarni bir investordan boshqa investorga o'tishi hisoblanadi. Ikkilamchi bozorning asosiy roli qimmatli qog'ozlarning likvidligini ta'minlashdan iborat bo'lib, investorlar ko'zi oldida ularni sotib olishni jozibali qilish, bu bilan moliyaviy bozorlarni samarali amal qilishini ta'minlash, ayniqsa ularni asosiy vazifasini bajarishga nisbatan - jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirishdir.

Ikkilamchi bozorni odatda birja va birjadan tashqari bozorga ajratish mumkin. Birjali bozor, qimmatli qog'ozlar bilan savdo qiladigan joy bilan bog'liq bo'lib, unda maxsus tashkil qilingan fond birjasi vositasida amalga oshiriladi. Fond birjalarning ta'sischilari bo'lib, odatda moliyaviy vositachilar hisoblanadi. Birjada bevosita savdo qilishga faqat birja a'zolari qo'yiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish. Har qanday bozorning amal qilishi hozirgi vaqtda davlatdan ajralgan holda tasavvur qilish mumkin emas. Davlat bozor munosabatlarini huquqiy asoslarini belgilaydi va nazorat qiladi bozor ishtirokchilarini iqtisodiy munosabatlari qoidalari asoslarini belgilaydi va mulkka egalik huquqlarini kafolatlaydi.

O'zbekistonda investitsiya faoliyat sohasiga tegishli bo'lgan qonuniy me'yorlar Konstitutsiyada, Fuqaro kodeksida, "Mulk to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik to'g'risida"gi, "Dehqon-fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi va boshqa qator huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan.

Har qanday mamlakatda davlat to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita u yoki bu shaklda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soladi. Qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish ularning qonuniyligini ta'minlashdan tashqari, qimmatli qog'ozlar chiqarish va muomalasini yo'lga qo'yish, yangi chiqarilganlarni ro'yxatdan o'tkazish, qimmatli qog'ozlar bozorida kasb faoliyatini litsenziyalash, investorlar huquqini himoyalash, yakkahokimlik haqidagi qonunchilikka rioya qilishni nazorat qilish, bahoni barpo qilish tizimini va malakali bozor ishtirokchilarini faoliyatlarini nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

Bozor amal qilishining ko'pgina muhim masalalari Milliy bank, Moliya vazirligi va Davlat soliq idorasi ixtiyorida bo'ladi.

Soliqqa tortish. Me'yoriy tartibga solish vazifalaridan tashqari moliyaviy bozorni amal qilishiga davlatning ta'sir qilish omili soliqqa tortish hisoblanadi. Soliqlar to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita moliya bozorida narx barpo qilishga, investitsiya qarorlari qabul qilishga ta'sir qiladi va umuman bozorning amal qilishini belgilovchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Davlatning maqsadi har doim fiskal vazifa umumiy iqtisodiy samaradorlik o'rtasida murosaga erishish hisoblanadi.

O'zbekiston soliq tizimi hali oyoqqa turish bosqichida. Uning asosiy ta'rifi ba'zi bir tomonlari bilan bozor iqtisodi shakllangan mamlakatlar soliq tizimlariga mos keladi, ba'zi bir tomonlari farq qiladi. Boshqa mamlakatlarda bo'lgani singari O'zbekistonda ham asosiy soliq to'lovchilar korxonalar va alohida fuqarolar hisoblanadi. Korxonalarda soliqqa tortishga asosiy ob'ekt, qo'shilgan qiymat solig'i va korxonalar foydasi hisoblanadi. Soliq stavkalari tarmoqlar bo'yicha farq qilishi mumkin. Fuqarolarni soliqqa tortish ob'ekti, ularning yalpi daromadi hisoblanadi, soliqqa tortish stavkasi progressiv shkala bo'yicha amalga oshiriladi.

Tavakkalchilik va daromad: tavakkalchilik sharoitida qarorlar nazariyasi asoslari. Tavakkalchilik bizni har joyda o'rab turadi bu shunchalik ob'ektivki, xuddi ob'ektivligi bizni o'rab turgan dunyoda ob'ektivlikning unsurlari o'z tabiatiga ko'ra tasodifiy va noaniq. Iqtisodiyot, jumladan moliyalar-shunday sohaki, unda tavakkalchilik omili anchagina sezilarli. Tavakkalchilik shunday vaqtda yuzaga keladiki, ba'zi qarorlar natijalarini oldindan bilish qiyin. Iqtisodiyotda qarorlar natijalari ko'pincha qiymat o'lchovida baholanadi, shu nuqtai nazardan tavakkalchilikni u yoki bu iqtisodiy qarorlarning natijasida qiymatni yo'qotish yoki imkoniyati tasodifiy tabiatga ega sifatida qarash lozim.

Kapital bozorida tavakkalchilik omili o'ta muhim. Aslida, tavakkalning yo'q bo'lishi, kapital bozorlarini, umuman moliyaviy bozorni ularni ko'p qirraliligi bilan yagona foiz stavkasini bir xil qarz majburiyatlariga aylantirgan bo'lar edi.

Noaniqlik omili, shunga muvofiq tavakkalchilik murakkab tizim sifatida iqtisodiyotga xosdir. Inson qaror qabul qilar ekan doimo tavakkalchilik bilan to'qnashadi. Oddiy haqiqat shuki - kishilar ko'pincha taqdirlash evaziga tavakkalchilik qilishga rozi bo'ladilar, bu esa moliyaviy nazariyaning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi.

Investitsiya samaradorligini baholash mezonlari. Agarda muayyan loyiha bo'yicha ta'minlanadigan daromadni diskontrlangan qiymati (kelajak pul oqimlarini hozirgi qiymatda hisoblash) ja'mi, diskontrlangan sarflar qiymatini jamidan ortiq bo'lsa investitsiyalash manfaatli bo'ladi. Ushbu mezon sof keltirilgan qiymat mezonini nomini olgan.

Sof keltirilgan qiymat:

0, 1, 2, t, n vaqt mobaynida
c₀, c₁, c₂, c_t, c_n sof pul oqimlarini ko'zda tutuvchi
investitsiya loyihasi deydik (0 vaqtni bugungi kun deb hisoblaymiz.)

Sof pul oqimi t vaqtda

C_t = loyiha bilan bog'liq daromad o'sishi - sarf o'sishi sifatida aniqlanadi.

Investitsiya loyihasining sof keltirilgan qiymatini biz ushbu loyiha ta'minlaydigan sof pul oqimlarining jami bugungi qiymati deb ataymiz:

$$NPV = c_0 * \sum_{t=1}^n PV(c_t)$$

Boshqacha so'z bilan aytganda, sof keltirilgan qiymat - sarfni jami keltirilgan qiymati chegaralangan jami keltirilgan daromad qiymatidir. Investitsiya qarorlarini baholash NPV mezoni bugungi sarf va daromadlar qiymatini taqqoslashdan iboratdir: agar NPV > 0 investitsiyalash manfaatli bo'ladi, agar NPV < 0 manfaatli bo'lmaydi.

Har qanday iqtisodiy muammo resurslarni iloji boricha yaxshi taqsimlash vazifasini talab qiladi. Har qanday iqtisodiy sub'ekt alohida kishimi, korxonami, yoki hukumatmi ixtiyorida bo'lgan moddiy, moliyaviy, inson va hokazo resurslarni qanday taqsimlash masalasi bilan to'qnashadi. Iqtisodiy nazariya har qanday sub'ekt, qaror qabul qilar ekan ko'proq manfaat olishga harakat qiladi. Ushbu tamoyil yaxshi investitsiyalash qarorlari asosiga qo'yiladi.

U yoki bu investor uchun nima manfaatli? O'zini jamg'armalarini qo'lda saqlashmi, bank depozitlariga joylashtirishmi, davlatga zayomga berishmi, korxonaga aksiyasini sotib olishmi. Bu haqda mablag' egalari maqbul qaror qabul qilishlari lozim.

Eng yaxshi portfelni tanlash va diversifikatsiyalash.

N boylikka ega bo'lgan investorning oldida undan qanday foydalanish vazifasi turadi.

Investorda mablag'larning n imkoniyati mavjud, ulardan har biri sarflangan mablag' birligiga muayyan daromad keltiradi. Qaror qabul qilish uchun yuzaga keladigan muammo shundan iboratki daromad qancha bo'lishligi oldindan noma'lum. Ushbu holatni tahlil qilganda, muqobil qarorlar qabul qilish muhim hisoblanadi. Unda, investitsiyalarni kutilayotgan daromadlilik va daromadlilik standart og'ishi muhim hisoblanadi.

Korporativ moliyalar nazariyasi. Xo'jalik yuritishning korporativ shakli bozor iqtisodiyotiga o'tgan har qanday mamlakatda biznesni tashkil qilishni shakllari orasida asosiy o'rin tutadi. Korporatsiyaning tadbirkorlik firmasidan farq qiladigan asosiy xususiyati firmani moliyalashtirish uchun ko'pchilik investorlarning mablag'larini kapital barpo qilish uchun birlashtirish hisoblanadi. Tashkil qilishning korporativ shakli - alohida uy xo'jaliklarini jamg'armalarini ishlab chiqarishni investitsiyalash maqsadlari uchun foydalanish jarayonini ta'minlashni asosiy murvatlaridan biridir.

Korporativ moliyani hozirgi zamon nazariyasi - moliyaviy nazariyaning muhim va anchagina murakkab qismlaridan biridir. Unda tadqiq qilinadigan masalalar, kapitalni barpo qilish haqidagi va firmani qiymatini baholash masalalaridir. Korporativ moliya nazariyasida tavakkal va daromad, hozirgi zamonda qiymatlarning o'lchamliligi, assimetrik va buyurtmachi-agent o'zaro munosabatlari, shartli talablarni baholash va ko'pincha boshqa masalalar kabi iqtisodiy nazariya muammolari o'z aksini topadi. (Assimetrik axborot-iqtisodiy munosabatlarning bir tomoni boshqa tomoniga qaraganda yaxshi xabardor bo'lishlik holatidir). Umuman, korporativ moliyalar alohida fanni ifoda qilib, unga katta miqdorda maxsus o'quv adabiyotlari va ko'pgina ilmiy tadqiqotlar bag'ishlangan.

Kapitalni moliyalashtirish chiqimlari va korporatsiya qiymati. Har qanday firmaning kapitalini moliyalashtirish manba'larini ikki toifaga bo'lish mumkin: o'zining mablag'lari (firma egalari mablag'lari), va qarzga olingan mablag'lar. Tadbirkorlik firmasida o'zining mablag'lari - ishlab chiqarishni moliyalashtirish uchun foydalaniladigan egasining jamg'armalari. Korporatsiya uning kapitalini bir qismiga huquqini beruvchi aksiyalar-qimmatli qog'ozlar chiqarish yo'li bilan ko'pgina investorlarning mablag'larini jalb qilish imkoniga egadir.

Qarz olish hisobiga moliyalashtirishni bank krediti bilan bir qatorda o'zining qarz majburiyatlarini chiqarish, ya'ni obligatsiya shaklida amalga oshirish mumkin.

Shunday qilib, har qanday firmaning kapitali ikki qismdan - o'zining kapitali va qarzdin iborat bo'ladi. Shuning uchun firma kapitalini qiymati yoki firma qiymati - o'zining kapitali (aksiya qiymati) va qarz qiymati summasi hisoblanadi.

Formulada izohlansa: $V=S+B$

Ya'ni V-firma (korporatsiya) qiymati, S-o'zining kapitali qiymati, B- qarz qiymati. Qarz qiymatining asosiy kapital qiymatiga nisbati (B/S) moliya liveriji koeffitsienti deyiladi.

(liverij-1) investitsiya daromadligini ko'paytirish uchun zayom kapitalini foydalanish; 2) zayom mablag'larini korporatsiyani o'z kapitaliga nisbati).

Firma kapitalini moliyalashtirishning har qanday shakli chiqimlar bilan bog'liq. Chiqimlarni qarz majburiyati holatida- bu kredit beruvchilarga asosiy qarz summasidan ortiq to'lovidan iborat: kredit bo'yicha foizlar yoki obligatsiyalar bo'yicha erishilgan daromad to'lovlari. Asosiy kapital holatida - mulkdorlarga ularni qo'ygan mablag'lariga to'lanadigan daromadlardir. Asosiy kapitalni yaratish chiqimlari firmani tashkil qilish shakllaridan qat'iy nazar mavjud bo'ladi. Chiqimlarni korporativ shakli - korporatsiyani o'z aksionerlariga to'lanadigan aksiyalar bo'yicha daromad hisoblanadi. Tadbirkorlik firmasi uchun, uning egasi o'zining jamg'armalaridan foydalansa chiqimlar muqobil chiqimlar shakliga ega bo'ladi, ya'ni tadbirkor o'zining mablag'larini manfaatli muqobil foydalanganda olishi mumkin bo'lgan yo'qotilgan daromadlardir.

Biz chiqimlarni, kapital qiymatiga foiz nisbatda ifoda qilamiz. O'z kapitali chiqimlarini - orqali belgilash - o'z kapitalining qiymat birligi hisobiga mulkdorlarga to'lanadigan daromad. Shunga muvofiq, qarz qiymati birligi hisobiga kreditorlarga to'lanadigan daromad. Firma kapitalini yaratish chiqimlarini o'rtacha o'lchamli - kapital chiqimlari aks ettiradi, u S/V nisbati firma kapitalining umumiy tarkibida o'z kapitali ulushini aks ettiradi, B/V -qarz ulushini aks ettiradi.

Mablag'larni qarzga berish, o'z kapitaliga qo'yishga qaraganda tavakkalchilik darajasi ancha kam bo'ladi. Birinchidan, shuning uchunki, odatda qarz bo'yicha foizlar shartlari oldindan belgilangan bo'ladi, aksiyalar bo'yicha daromad esa oldindan noma'lum va u firmani faoliyat natijalariga bog'liq bo'ladi. Tabiiyki, u holatda ham, bu holatda ham tavakkalchilik mavjud bo'ladi, firma u yoki bu sabab bilan qarz bo'yicha foizlar to'lovini ta'minlay olmaydi, xuddi shuningdek asosiy kapital daromadlari qism bo'yicha ham. Ammo, oxirgi holatda qarzga berish, firma aktivlariga kreditorlarning huquqi mavjudligi oqibatida, tavakkalchilik darajasi kam bo'ladi, bu narsa mutlaq ko'pchilik mamlakatlarni xo'jalik qonuniyatlarida mustahkamlangan. Ushbu tamoyilga muvofiq; agar firma operatsiyalarni to'xtatganda, qarzlarni qaytarish bo'yicha kreditorlar talablari birinchi navbatda qondiriladi. Mulkdorlar - aksiya egalari, qoldiq talablarga ega bo'ladi, ular da'vo qilishi mumkin bo'lgan aktivlar miqdori kreditorlar oldidagi majburiyatlar qoplangandan keyingi qoldiq qiymatga teng bo'ladi, demak, ushbu nuqtai-nazardan ham o'zining kapitali zayom kapitaliga qaraganda xavfli hisoblanadi.

Keltirilgan mulohazalar kapital chiqimlar muammosiga an'anaviy yondashuv asosida yotadi, shunga muvofiq qarz hisobiga moliyalashtirish, odatda o'zining mablag'lari hisobiga moliyalashtirishga qaraganda arzon bo'ladi. Haqiqatda, ko'pchilik investorlarning tavakkalchilikka moyil emasliklari tavakkalchilik investitsiyalari o'ziga tortishi uchun ular katta daromadlilikni ta'minlashlari lozim.

Shunga muvofiq, firma kapitalini umumiy tarkibida qarz ulushining ko'payishi - kapitalning umumiy chiqimlarini pasaytirish lozim. Lekin, qarz majburiyatlarini chiqarish hisobiga moliyalashtirish imkoniyatlari cheksiz bo'lmasligi mumkin. B/S liveriji miqdorining o'sishi moliyaviy qobilyatsizlik tavakkalini ko'paytiradi. Tavakkalchilikning ko'payishi, o'z navbatida qarz qiymatini pasaytiradi, oqibatda - chiqimlarni (daromadlilik) ko'payishiga olib keladi, chunki B qiymat va rb daromadlilik teskari bog'liqlikka ega. Boshqacha so'z bilan aytganda, > liverij ko'payishi bilan bog'liq katta xavf, investorlarni kreditga katta to'lovni talab qilishiga olib keladi.

Shunday qilib, firma kapitali qiymat va tarkibga an'anaviy qarashlarga muvofiq, firma kapitalini umumiy miqdorida qarz ulushining ko'payishi muayyan vaqtgacha kapitalning umumiy chiqimlarini pasaytiradi, lekin keyinchalik chiqimlar liverijining (B/S) ko'payishi qarz majburiyatlari xavfliligi o'sib borishi bilan o'sib boradi.

Keltirilgan mulohazaga rioya qilgan holda, kapitalni moliyalashtirishni eng kam chiqimlarini ta'minlovchi, moliyaviy liverijning maqbul darajasi mavjud va har bir firma uchun kapitalining maqbul tarkibi mavjud va chiqimlarni pasaytirish maqsadida unga intilishi lozim.

O'z aksionerlariga firmani to'laydigan dividendlari, odatda soliqqa tortish ob'ekti hisoblanadi, chunki kishining soliqqa tortiladigan umumiy daromadiga qo'shiladi. Demak, aksioner qilingan investitsiyalar daromadliligi davlat qog'ozlari bo'yicha (odatda, soliqqa tortilmaydigan) eng kamida soliq miqdoriga xavfsiz daromadlilikdan ortiq bo'lishi lozim.

An'anaviy nuqtai nazarga muvofiq investorlar yuqori dividendli firmalarni xohlashadi degan fikr Modilyani-Miller nazariyasi bo'yicha inkor qilinadi. Ammo, soliqqa tortish omili oqibatida, va ayniqsa soliqqa tortishning progressiv stavkasini mavjudligi tufayli nazariyaning xulosalari birmuncha tuzatiladi. Dividendlarga munosabat investorning umumiy daromad (boyluk) darajasiga bog'liq bo'lishi mumkin. Past darajali daromadga (nisbatan yuqori bo'lmagan soliqqa tortish stavkasiga ega bo'lgan) investorlar tabiiyki ularning joriy iste'molini ko'paytiradigan dividendlashni ma'qul ko'radilar. Yuqori daromadga ega bo'lgan investorlar aksiyalari qiymati yuqori sur'atda o'sishini ma'qul ko'radilar, chunki, dividendlar to'laganda ular anchagina qismi soliqlar to'lashga ketadi, qiymatini o'sishidan olinadigan kapital daromad esa faqat aksiya sotgandagina soliqqa tortilishi mumkin.

Moliyaviy qarzlarni baholash va investitsiya portfelini boshqarish.

Qarz majburiyatlari, yoki boshqacha belgilangan daromadli moliyaviy qurollarni baholash usullari investitsiya faoliyatida muhim hisoblanadi, chunki, ular bo'yicha qo'llanadigan to'lov miqdorlari oldindan emissiya shartlari bo'yicha e'lon qilinadi (va'da qilinadi). Bu tavakkalning yo'qligini anglatmaydi. Belgilangan daromadli qurollar to'lov qobiliyatsizligi (kredit tavakkali) ega bo'lishi mumkin. Undan tashqari, hamma vaqt ko'zda tutilmagan inflyasiya, foiz stavkalarining o'zgarishi yoki boshqa omillar bilan bog'liq qiymatni yo'qotish xavfi bo'ladi. Belgilangan daromadli moliyaviy qurollarga, avvalambor obligatsiyalar, veksellar, jamg'arma sertifikatlari kiradi. Ba'zi eslatmalar bilan ushbu toifaga korxonaning imtiyozli aksiyalarini ham kiritish mumkin.

Obligatsiyalarning qiymati va daromadliligi. Obligatsiyalar- qimmatli qog'oz bo'lib, uning egalari, uni chiqarish shartlari bo'yicha oldindan belgilangan muddatlarda daromad olish huquqiga egadirlar, obligatsiya emmitenti (qimmatli qog'ozlarni erkin investorlarga sotish uchun chiqaruvchi davlat va xususiy muassasalari zayomchilar o'rnida qatnashib, ushbu to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni oladi. Obligatsiyalarni chiqarish odatda muayyan mulk yoki kafolatlar bilan ta'minlanadi. Obligatsiya nominal qiymatga ega bo'ladi. Nominal- obligatsiya bo'yicha asosiy qarz summasi bo'lib, uni to'lash obligatsiyani qoplash deb ataladi.

Chiqarilgan vaqti va qoplash orasidagi to'lovlar, agar emmissiya shartlari bilan belgilangan bo'lsa kupon to'lovlari yoki oddiy qilib aytganda kupon deb ataladi. Qoida sifatida kupon to'lovlari miqdori bo'yicha bir xil va teng vaqt oralig'ida amalga oshirilib kupon davri deb ataladi. Kupon to'lovlari miqdorini obligatsiya qiymatiga nisbati kuponli stavka deb ataladi.

Qiymati bo'yicha qoplanadigan kuponsiz obligatsiya diskonti (qimmatli qog'ozni nominal qiymati va narxi orasidagi farq) obligatsiya deb ataladi.

Obligatsiya uning egasiga muayyan daromadni ta'minlashi nazarda tutiladi. Chunki nominal qiymatdan past narxda chegirma bilan joylashtiriladi. Diskont nominal qiymat va obligatsiyani sotib olish narxi orasidagi farq (agar narx nominaldan yuqori bo'lsa ushbu farq mukofot deb ataladi). Obligatsiyalar qo'yiladigan investitsiyalar bilan bog'liq tavakkalchilik, avvalambor kredit tavakkali va foiz stavkasi. Obligatsiyaga nisbatan kredit tavakkali shundan iboratki, obligatsiya bo'yicha haqiqiy daromadlar chiqarish bo'yicha belgilanganligi bilan muvofiq kelmasligi mumkin. Masalan, emmitentning to'lov qobiliyatsizligi holatida, obligatsiya sohibi ba'zi to'lovlarga ishonishi mumkin (agar obligatsiya emmitentning mulki bilan ta'minlangan bo'lsa), ular miqdor bo'yicha va'da qilingani hamda muddati bo'yicha farq qilishi mumkin.

To'lovlarning noaniqligi obligatsiyalarni chiqarish shartlarining o'zida ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin. Masalan, emmitentning, agar uning daromadliligini bozor stavkalari bo'yicha noqulay bo'lib qolsa u oldindan belgilangan qiymat bo'yicha muddatidan oldin sotib olish huquqini saqlab qolishi

mumkin. Bunday holatda obligatsiyalarda muddatidan oldin sotib olish xavfi paydo bo'lishi mumkin. Bundan tashqari emissiya sharti obligatsiyalar bo'yicha kupon stavkasining oldindan belgilangan qoidalariga muvofiq o'zgarish imkoniyatlarini ko'zda tutishi mumkin.

Foiz tavakkali obligatsiyalar bozoriga nisbatan tizimli (bozor) tavakkalning aks etishidir. Bu umuman daromadlilikni bozordagi o'zgarishidir. Agar kredit tavakkali (majburiyatlarni bajarmaslik tavakkali) obligatsiyalarning har xil turlari uchun farqlansa, unda foiz tavakkali ularni turli ko'rinishlari uchun bir xildir. Foiz tavakkaliga bog'liq inflyasiya tavakkali - inflyasiya sur'atlarini mislsiz o'zgarishidir. Nega foiz tavakkali aniq ma'lum bo'lgan daromadi belgilangan investitsiyalarda ishtirok etadi? Haqiqatda agar biz davlat obligatsiyalarini sotib olib uni qoplash muddatigacha ushlab turishga harakat qilsak, unda biz oladigan daromad miqdori oldindan ma'lum bo'ladi u holda tavakkalchilik yo'qoladi.

Lekin agar investor obligatsiyani qoplaguncha uni sotishni rejalashtirsa, daromadini oldindan aytish mumkin emas- obligatsiyani sotish narxi, uni sotish vaqtiga daromadlilikni bozor stavkasiga bog'liq bo'ladi, shuning uchun uni aniq bashoratlash mumkin emas.

Qisqa xulosalar

Investitsiya institutlari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin. Yuridik shaxs hisoblangan investitsiya muassasalarining faoliyati litsenziyalanishi lozim. Litsenziyalar 5 yil muddatga beriladi. Investitsiya muassasalarining litsenziyalanishi ular faoliyatining davlat tomonidan nazorat qilinishini anglatadi. Qimmatli qog'ozlar bozorida har bir faoliyat turiga mazkur bozorni tartibga soluvchi organning muayyan litsenziyasi to'g'ri keladi. Jismoniy shaxslar qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya maslahatchisi va investitsiya vositachisi sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Tayanch iboralar

Investitsiya institutlari, qimmatli qog'ozlar, investitsiya maslahatchilari, ustav sarmoyasi, emmitent, fond bozori, investitsiya kompaniyasi, anderrayter, depozitariy, xususiylashtirish, veksellar, obligatsiyalar, jamg'arma sertifikatlar, chatishgan usullar, forvard, fyuchers, opsiyon, birlamchi va ikkilamchi bozorlar. tavakkallik, liverij.

Nazorat savollar

1. Investitsiya institutlari qanday faoliyatni amalga oshiradi?
2. Kimlar investitsiya institutlari bo'lishi mumkin?
3. Investitsiya maslahatchilarining bajaradigan faoliyatlari nimalardan iborat?
4. Investitsiya kompaniyalari qanday vazifalarni bajaradi?
5. Investitsiya fondlari va ularni amalga oshiradigan ishlari nimalardan iborat?
6. Affilyasiyalangan shaxslar kimlar va ular qaerlarda ishtirok etadilar?
7. Daromadlilik qanday ko'rsatkich?
8. Tavakkallik darajasini pasaytirish usullari?
9. Anderreytingning turlarini ayting?
10. Obligatsiyalarning qiymati va daromadlilikini tushuntiring?

15. Qishloq xo'jaligida investitsiyaviy jarayonlarni rivojlantirishda kreditning tutgan o'rni.

Tayanch iboralar: kredit, tijorat krediti, bank krediti, xalqaro kredit, kreditning qayta taqsimot funksiyasi, muomala xarajatlarini tejash, tovar aylanmasiga xizmat ko'rsatish, ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtirish, kapital mujassamlashuvini tezlashtirish, kredit tizimi, kredit munosabatlari, kreditning qaytariluvchanligi, kreditning muddatligi, kredit uchun to'lov, ssuda foizi, kredit differentsiatsiyasi, kreditning maqsadli xarakteri.

1. Kreditning mohiyati

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda kredit juda ham katta ahamiyatga ega. U butun iqtisodiyot tizimi oldida turgan muammolarni xal qiladi. Kredit yordamida, pul mablag'lariga

bo'lgan ehtiyojni, bunday mablag'lar vaqtinchalik bo'shagan joylardan olish orqali qondirish mumkin. Kreditlash tizimi bo'sh kapitalni yig'adi va shu bilan birga, kapital kirib kelishiga xizmat ko'rsatgan holda, qayta ishlab chiqarish jarayonini ta'minlaydi. Shuningdek kredit pul muomalasini tezlashtiradi, bir qator munosabatlarning (sug'urta, investitsiyaviy va h.) bajarilishini ta'minlaydi va bozor munosabatlarini tartibga solishda katta rol o'ynaydi.

Ssuda kapitali manbasi bo'lib, birinchidan, asosiy kapitalni tiklash uchun mo'ljallangan, aylanmadan chiqarilgan pul mablag'lari (ya'ni amortizatsiya jamg'armasi); tovarlarni sotish va xom-ashyo, yoqilg'i, materiallarni xarid qilish vaqti o'zaro to'g'ri kelmaganligi sababli vaqtincha bo'sh qolgan aylanma kapitalning bir qismi, xizmat qilishi mumkin. Tovarlarini sotish va ish haqi to'lash o'rtasidagi davrda vaqtinchalik bo'sh bo'lgan kapital ham manba bo'lishi mumkin.

Ssuda kapitalining ikkinchi bir manbasi sifatida pul daromadi va xususiy sektor jamg'armalari xizmat qilishi mumkin.

Ssuda kapitalining uchinchi manbasi sifatida davlatning pul jamg'armalarini ko'rsatishimiz mumkin. Ularning hajmi davlat mulki va yalpi milliy mahsulot ulushi bilan belgilanadi.

2. Kredit shakllari.

Kreditning ikkita asosiy: tijorat va bank krediti shakllari mavjud bo'lib, ular ishtirokchilar tarkibi, ssuda ob'ekti, dinamikasi, foiz miqdori va faoliyat yuritish sohalari bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Tijorat krediti deb, faoliyat yuritayotgan bir tadbirkorning, tovar uchun to'lovni kechiktirish shaklida, ikkinchi tadbirkorga beradigan kreditiga aytiladi. Tijorat krediti veksel bilan rasmiylashtiriladi, uning ob'ekti bo'lib esa tovar kapitali xizmat qiladi. U sanoat kapitali aylanmasiga, tovarlarni ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishiga xizmat ko'rsatadi. Tijorat kreditining o'ziga xosligi shundaki, bu yerda ssuda kapitali sanoat kapitali bilan birlashib ketgan. Tijorat kreditining maqsadi - tovarlarni sotish va foyda olish jarayonini tezlashtirishdir. Bunday kreditning o'lchami sanoat va tovar kapitallarining zaxira kreditlari miqdori bilan chegaralangan bo'ladi. Ushbu kapitallarning harakati shartnoma bilan belgilangan bo'ladi: ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi tadbirkordan, ushbu vositalarni o'z ishlab chiqarishida iste'mol qiladigan tadbirkorga, yoki tovar ishlab chiqaruvchi tadbirkordan, tovarlar savdosi bilan shug'ullanuvchi savdo tashkilotlariga.

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, tijorat kreditining imkoniyatlari cheklangan bo'ladi, chunki uni faqatgina tovar ishlab chiqaruvchidan olish mumkin. Tijorat kreditining o'lchami cheklangan va u qisqa muddatli bo'ladi, kredit oluvchilar esa aksariyat hollarda uzoq muddatli kreditga muxtoj bo'ladilar.

Tijorat kreditining cheklanganligini bank krediti bilan yo'qqa chiqarish mumkin. Bank krediti banklar va boshqa kredit-moliya tashkilotlari tomonidan pul ssudasi ko'rinishida taqdim etiladi. Bank kreditining ob'ekti bo'lib, ishlab chiqarishdan ozod etilgan pul kapitali xizmat qiladi. Bu yerda ssuda shartnomasi oldi-sotdi shartnomasiga bog'liq emas. Qarz oluvchi sifatida xo'jalik, korxonalar, davlat, xususiy sektor bo'ladigan bo'lsa, kreditor (kredit beruvchi) sifatida esa barcha kredit-moliya tashkilotlari xizmat qilishi mumkin. Kreditorning maqsadi foiz ko'rinishida daromadga ega bo'lishdir. Kredit qaytarilish, muddatlilik va foiz to'lash shartlarida beriladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bank krediti tijorat krediti chegarasidan chiqib ketadi, chunki u yo'nalish, muddat va kredit summasi bilan chegaralanmagan. Tijorat krediti faqatgina tovar aylanmasiga xizmat ko'rsatsa, bank krediti - aholi barcha qatlamlarining pul daromadlari va jamg'armalarini kapitalga aylantirgan holda, kapital jamg'arishda ham ishtirok etadi.

Bank va tijorat kreditlarining dinamikasi ham turlicha. Tijorat kreditining hajmi ishlab chiqarish va tovar aylanmasining o'sishiga to'g'ri proporsional tarzda bog'liqdir. Sanoat o'sishi ro'y bergan davrda tijorat kreditiga bo'lgan talab va taklif ham oshib boradi, va aksincha. Inqiroz davrida tovar ishlab chiqarish va sotish hajmi keskin pasayadi, qarzlarni to'lash uchun esa bank kreditiga bo'lgan talab oshib boradi. Iqtisodiy o'sish ro'y berayotganda ham bank kreditiga bo'lgan talab o'sishini ta'kidlashimiz mumkin. Shunday qilib bank kreditining ikkilangan xarakteriga guvoh bo'lamiz, undan

bir tomondan mavjud kapitalni o'stirish uchun, ikkinchi tomondan - qarzlarni qoplash uchun foydalaniladi.

Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan, kapital aylanmasini yanada tezlashtiruvchi va, kreditga yangi funksiyalarni bergan holda, uning ahamiyatini yanada oshiruvchi kreditning yangi shakllari paydo bo'lmoqda. Bunday shakllardan biri sifatida iste'mol krediti xizmat qiladi. Iste'mol krediti tijorat (to'lovni kechiktirish imkonini bergan holda tovar sotish) va bank (iste'mol maqsadlariga ssudalar berish) krediti shaklida bo'lishi mumkin. Iste'mol kreditining ob'ekti sifatida odatda uzoq muddat iste'mol qilinadigan tovarlar (mebel, traktorlar, muzlatgichlar, avtomobillar va h.) va turli xil xizmatlar e'tirof etilishi mumkin. Bunda banklar do'konlar tomoniga sotilgan tovar narxini to'liq to'laydilar, iste'molchi esa bank ssudasini ma'lum muddat ichida qoplash majburiyatini oladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, rivojlangan davlatlarda, iste'mol krediti aholi turmush tarzining ajralmas qismiga aylanib qolgan.

So'nggi vaqtda lizing katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Lizing - ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mashina, uskuna, qurilma va inshootlarning uzoq muddatli ijarasidir. Lizing bo'yicha qarz bir necha yil davomida ketma-ket to'lanib boriladi. Lizing o'z ustunliklariga ega bo'lib, ularning asosiysi qimmat uskunani xarid qilish uchun katta mablag'ga ega bo'lish shart emas. Ushbu bosqichdagi barcha xarajatlarni lizing kompaniyasi qoplaydi. Lizingni tor ma'nodagi bank operatsiyasi deb aytib bo'lmaydi. U moliyalashtirishning bank shakliga juda yaqin bo'lib, savdo-sanoat korxonolari tomonidan qo'shimcha operatsiya sifatida amalga oshirilishi mumkin. Ammo, birinchi navbatda, lizing bilan maxsus tuzilgan lizing kompaniyalari shug'ullanadi.

Ob'ektni foydalanish uchun olganda lizing oluvchi mulkchilik huquqi bilan bog'liq majburiyatlarni o'z bo'yniga oladi, ammo ob'ektning egasi bo'lib lizing beruvchi xizmat qiladi. Bunda lizing ob'ektining yo'qolishi yoki undan foydalanish mumkin bo'lmay qolishi, lizing oluvchini qarzni qoplash majburiyatidan ozod etmaydi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, ijaradan farqli ravishda, lizing oluvchi ob'ektdan foydalanish uchun oylik to'lov to'lamasdan, balki amortizatsion ajratmalarning to'liq summasini to'laydi.

So'nggi vaqtda ipoteka krediti keng tarqalmoqda. Ipoteka krediti - bu ko'chmas mulk kafolat ta'minotiga beriladigan uzoq muddatli ssudalardir.

Hozirgi kunda butun iqtisodiy tizimning normal faoliyat yuritishi uchun davlat va xalqaro kreditlar katta ahamiyatga ega. Davlat krediti deb, davlat, mahalliy hokimiyat organlari fuqarolar va yuridik shaxslarga nisbatan qarz oluvchi yoki kreditor rolini o'ynaydigan kredit munosabatlarining yig'indisiga aytiladi.

Davlat krediti sohasida markaziy hukumat va mahalliy hokimiyat organlari, odatda, byudjet defitsitini qoplash uchun pul mablag'larini jalb qilgan holda, qarz oluvchi rolini o'ynaydilar. Pul mablag'larini jalb qilishning asosiy shakli sifatida davlat obligatsiyalari va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlarini chiqarish xizmat qiladi. Obligatsiyani sotib olgan, bo'sh pul mablag'iga ega shaxslar, davlat kreditorlari bo'lib sanaladilar. Bank kreditidan farqli ravishda, kreditor bo'lib faqatgina banklar emas, balki sug'urta kompaniyalari, korxonalar va hattoki xususiy shaxslar ham bo'lishi mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, rivojlangan mamlakatlardagi sug'urta kompaniyalari operatsiyalarining yarmini, qimmatli qog'ozlarni sotib olish tashkil etadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, davlat krediti xususiydan pul mablag'larini taqdim etish shakli va shartnoma ishtirokchilari bilan farq qiladi.

Qaytarish, muddatlilik va foizlarni to'lash shartlarida valyuta va tovar resurslarini taqdim etish bilan bog'liq bo'lgan, xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi kapital harakati, xalqaro kredit deb aytiladi. Kreditorlar va qarz oluvchilar sifatida banklar, korxonalar, davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar xizmat qilishi mumkin.

Xalqaro kredit shakllarini, kredit munosabatlarining ayrim tomonlarini tavsiflovchi, asosiy belgilar bo'yicha turkumlashtirish mumkin.

Muddat bo'yicha xalqaro kreditlar qisqa muddatli - 1 yilgacha, o'rta muddatli - 1 yildan 5 yilgacha va uzoq muddatli - 5 yildan yuqori, kreditlarga bo'linadi.

Maqsadi bo'yicha xalqaro kredit quyidagilarga ajratiladi tashqi savdo va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tijorat krediti; boshqa maqsadlar, shu jumladan qarzlarni qoplash, investitsiyalar va qimmatli

qog'ozlarni sotib olishda foydalaniladigan moliyaviy kredit; kapital, tovar va xizmatlarni chiqarishning aralash shakllari uchun mo'ljallangan oraliq kreditlar.

Xalqaro kredit quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- maksimal foydaga erishish uchun, qayta ishlab chiqarishning uzluksiz jarayonini ta'minlash maqsadida mamlakatlar o'rtasida ssuda kapitallarini qayta taqsimlash;

- naqdsiz to'lovlar rivojlanishi natijasida xalqaro hisob-kitoblar sohasidagi muomala xarajatlarini tejash;

- kapital mujassamlanishi va markazlashuvini tezlashtirish.

Shuningdek, xalqaro kredit, individual jamg'arish chegaralarini ochgan holda, yangi firmalarni tashkil etishga ko'maklashadi. Umumlashtirgan holda aytganda, xalqaro kredit, kreditning boshqa shakllari bajaragan funksiyalarni xalqaro miqyosda amalga oshiradi.

3. Iqtisodiyotda kredit funksiyalari.

Kreditning jamiyat iqtisodiy tizimidagi o'rni va roli, uning bajaradigan funksiyalari bilan belgilanadi.

Qayta taqsimot funksiyasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, ssuda kapitallari bozori vaqtinchalik bo'sh moliyaviy resurslarni xo'jalik faoliyatining bir sohasidan olib, yuqori daromad ta'minlovchi ikkinchi bir sohasiga yo'naltirish funksiyasini bajaradi. Kredit, dinamik tarzda rivojlanayotgan ob'ektlarning qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirgan holda, iqtisodiyotni makroboshqaruvchisi rolini ham o'ynaydi.

Ssuda shartnomasi orqali kreditor, qarz oluvchiga tovar-moddiy boyliklar yoki pul mablag'larini vaqtinchalik foydalanishga topshiradi. Har ikkala holda ham, bitim mazmuni bir xil bo'lsa ham, topshiriladigan ob'ekt turlicha. Ammo bu faqatgina mazkur ob'ekt tarkibiga emas, faqatgina shakliga tegishli, chunki shakl qanday bo'lmasin shakl emas balki qiymat qayta taqsimlanadi.

Shunday qilib, kreditning taqsimot funksiyasiga qiymatni taqsimlash xosdir. Taqsimot hududiy va tarmoq belgilariga asosan ro'y berishi mumkin. Kredit munosabatlariga, joylashuvidan qat'iy nazar turli xil tashkilot va shaxslar kirishi mumkin. Kredit uchun kreditor va kredit oluvchi o'rtasidagi masofa ahamiyatga ega emas. Qiymatning bunday qayta taqsimlanishini hududlararo deb atashimiz mumkin.

Kredit yordamidagi tarmoqlararo qayta taqsimlash, qiymat bitta tarmoqqa tegishli kreditoran, ikkinchi bir tarmoqqa tegishli kredit oluvchiga o'tgan holda ro'y beradi. Korxonalar va banklar o'rtasidagi munosabatlar katta hajmda ro'y berayotgan zamonaviy pul xo'jaligida, tarmoqlararo qayta taqsimot xal qiluvchi rolni o'ynaydi. Banklar tomonidan jamg'arilgan mablag'lar muassasaviy xarakterini yo'qotgan holda bankning umumiy resurslariga aylanib ketadi, bank esa tarmoq korxonalaridan qancha mablag' kelib tushganidan qat'iy nazar ularga kredit taqdim etadi.

Tarmoq ichidagi qiymat qayta taqsimlanishini, tarmoq banklari korxonalarini tomonidan kredit olish jarayonida kuzatishimiz mumkin.

Kredit yordamida resurslar qayta taqsimotining birinchi xususiyati shundaki, u faqatgina joriy yilda ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarnigina emas (yalpi mahsulot), balki oldingi yillarda yaratilgan moddiy boyliklarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Kreditning qayta taqsimot funksiyasi vositasida faqatgina yalpi va milliy mahsulot emas, balki barcha moddiy boyliklar, jamiyatning butun milliy boyligi taqsimlanishi mumkin, va bu qayta taqsimot funksiyasining ikkinchi xususiyatidir. Qayta taqsimot funksiyasining uchinchi xususiyati qayta taqsimlanayotgan qiymat jihatlariga bog'liqdir. Qayta taqsimot funksiyasi umuman qiymatni qayta taqsimlash bilan emas, balki aynan vaqtinchalik bo'sh bo'lgan qiymatnigina qayta taqsimlash bilan shug'ullanadi. Kreditning qayta taqsimot funksiyasini to'rtinchi xususiyati ham muhim, ya'ni vaqtinchalik bo'shagan qiymat vaqtinchalik foydalanishga beriladi. Beshinchi xususiyati shundaki, qiymat odatda vositachilarsiz to'g'ridan-to'g'ri iste'molchiga beriladi.

Kreditning ikkinchi funksiyasi, *haqiqiy pullarni kredit operatsiyalari bilan almashtirishdir*. Zamonaviy kredit xo'jaligida bunday almashtirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Pullarning bir

hisob raqamidan ikkinchisiga o'tishi naqd pullik to'lovlarni kamaytirish va pul aylanmasi tuzilmasini yaxshilash imkonini beradi.

Muomala xarajatlarini tejash.

Ushbu funksiyaning amalga oshirilishi bevosita kreditning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadi. Xo'jalik yuritish sub'ektlarining pul mablag'larini kelib tushishi va sarflanishi o'rtasidagi vaqt oralig'i moliyaviy resurslarning ortiqliginingina emas, balki yetishmovchiligini ham aniqlab berishi mumkin.

Aynan shuning uchun, o'z moliyaviy mablag'larining yetishmovchiligini vaqtinchalik qoplab turishga, va demak muomalaning umumiy xarajatlarini tejashga, yo'naltiriladigan ssudalar keng tarqalgan.

Kapital mujassamlashuvini tezlashtirish.

Kapitalni mujassamlashuvi jarayoni iqtisodiyotni barqaror rivojlanishining zaruriy sharti bo'lib, har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning ustuvor maqsadi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish miqyosini yetarlicha kengaytirish va bu bilan qo'shimcha daromad olishga imkon beruvchi qarz mablag'lari, ushbu masalani yechishda aynan qo'l keladilar.

Kredit resurslarining bir qismini kreditor bilan hisob kitoblarni amalga oshirish uchun yo'naltirilishiga qaramasdan, kredit resurslarini jalb qilish, faqatgina o'z mablag'lariga ishonishga nisbatan qulayroqdir.

Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, iqtisodiy tushkunlik bosqichida (va ayniqsa bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida) ushbu resurslarning qimmatligi, xo'jalik faoliyatining ko'pgina sohalarida kapital mujassamlashuvi masalasini samarali yechish imkonini bermaydi.

Bunga qaramasdan, ko'rib chiqilayotgan funksiya, rejali iqtisodiyotda mavjud bo'lmagan yoki rivojlanmagan iqtisodiyot sohalarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash darajasini tezlashtirgan holda, mahalliy sharoitlarda ham ijobiy samarani ta'minlaydi.

Tovar aylanmasiga xizmat ko'rsatish.

Ushbu funksiyani bajarish jarayonida kredit nafaqat tovar balki pul muomalasining tezlashishiga ham, xususan undan naqd pullarni siqib chiqargan holda, o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Pul muomalasi sohasiga veksellar, cheklar, kredit kartochokalari va boshqa vositalarni kiritgan holda, u naqd hisob-kitoblarni naqdsiz hisob-kitoblarga almashtirishni ta'minlaydi. Bu esa ichki va xalqaro bozorlarda iqtisodiy munosabatlar mexanizmini soddalashtiradi va tezlashtiradi.

Ushbu masalani yechishda, tovar ayirboshlashning zamonaviy munosabatlarini zaruriy elementi bo'lgan tijorat krediti faol rol o'ynaydi.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning tezlashishi.

Hozirgi kunda ham ilmiy-texnik taraqqiyot har bir davlat va alohida xo'jalik yuritish sub'ekti iqtisodiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sanaladi.

Ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtirishdagi kreditning roli, kapital kiritish va foyda olish o'rtasidagi vaqt oralig'i boshqa tarmoqlarga nisbatan ko'proq bo'lgan ilmiy-texnik tashkilotlar faoliyatini moliyalashtirish jarayoni misolida ayniqsa ravshan namoyon bo'ladi.

Aynan shuning uchun ham ko'pchilik ilmiy markazlarning faoliyatini (byudjetdan moliyalashtiriladigan ilmiy markazlardan tashqari) kredit resurslarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ishlab chiqarishga ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni bevosita jalb etish shaklidagi innovatsion jarayonlarni amalga oshirish xarajatlari korxonalar tomonidan moliyalashtiriladi, jumladan o'rta va uzoq muddatli bank kreditlari hisobiga ham.

Umuman aytganda: kredit - vaqtinchalik foydalanishga beriladigan vositalar bo'yicha kreditor va kredit oluvchi o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini jamg'arish;
- pul mablag'larini, ularni keyinchalik qaytarilishi sharti bilan qayta taqsimlash;
- kredit muomalasi vositalari va kredit operatsiyalarini yaratish;
- umumiy pul aylanmasi hajmini tartibga solish.

4. Kredit tizimi va kredit munosabatlari.

Kredit tizimi har bir mamlakat iqtisodiyotining ajralmas va muhim qismi hisoblanadi. Chunki mamlakat iqtisodiy rivojlanishining shakli va dinamikasi aynan kredit tizimiga bog'liq bo'ladi.

Kredit tizimini ikkita jihatdan ko'rib chiqiladi:

- birinchidan, kredit munosabatlari, shakllari, usullari va kreditlash turlarining yig'indisi sifatida;
- ikkinchidan, qonunchilik bilan belgilangan holda faoliyat yurituvchi banklar va boshqa kredit tashkilotlarining yig'indisi sifatida.

Kredit munosabatlarining sub'ektlari bo'lib tijorat tashkilotlari, aholi, davlat va banklar xizmat qilishi mumkin.

Kredit munosabatlarida bozorning har bir sub'ekti ikkita shaxs, kreditor va kredit oluvchi rolini o'ynashi mumkin.

Iqtisodiyotdagi kredit munosabatlari muayyan uslubiy asosga ega bo'ladi, uning elementlaridan biri sifatida kredit bozorida har qanday operatsiyani bajarishda qat'iy rioya qilinadigan tamoyillarni ta'kidlash mumkin.

Kredit tashkilotlari o'zaro bog'langan bo'lib, bozor munosabatlari ishtirokchilarining - tijorat tashkilotlari, jismoniy shaxslar, davlat tashkilotlari - pul mablag'lari yoki moliya va pul aylanmasi bilan bog'liq xizmatlarga bo'lgan talabini qondiradi.

5. Kredit tizimining tarkibiy qismlari.

Kredit tizimi bank va bankga tegishli bo'lmagan qismlardan iborat bo'ladi.

Bank qismi - kredit tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki kredit munosabatlarida ishtirok etuvchi pul mablag'larining asosiy qismi aynan banklar orqali o'tadi, va aynan banklar moliyaviy bozordagi asosiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilot hisoblanadi.

Bankga tegishi bo'lmagan qism - banklarga nisbatan kamroq va maxsus xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlardan iborat bo'ladi (pochta-jamg'arma muassasalari, lombardlar va h.)

Banklar – o'z va jalb qilingan mablag'lardan maksimal samarali foydalanish hisobiga foyda olishni maqsad qilib qo'ygan kredit tashkilotlaridir.

Banklar Markaziy Bank (MB) litsenziyasiga asosan, qaytarish, to'lovlilik, muddatlilik shartlarida o'z nomidan pul mablag'larini joylashtiradi, hamda hisob-kassa va boshqa bank operatsiyalarini amalga oshiradi.

Bankning asosiy mohiyati - pul mablag'larining kreditorlardan kredit oluvchilarga va sotuvchilardan xaridorlarga harakatlanishidagi vositachilikdir.

Shunday qilib, banklar mamlakat pul aylanmasini tartibga solib turuvchilar hisoblanadi.

Banklar, tijorat korxonalarini sifatida, qayta ishlab chiqarish, sanoat va savdo kapitalining aylanmasi ehtiyojlari munosabati bilan paydo bo'ldi.

Natural xo'jalikning yo'qolishi, savdo va tovar ayirboshlashning o'sishi pul hisob-kitoblari va kredit mohiyatini keskin oshirib yubordilar.

Yollanma mehnatga keng miqyoslarda o'tish, daromadlarning katta qismi pul shaklida to'lanishiga olib keldi.

Muntazam pul aylanmasi paydo bo'ldi, va uni tashkil etish va unga xizmat ko'rsatishni banklar o'z zimmasiga oldilar. Banklar korxonalar va davlat tashkilotlari, aholi jamg'armalarining bo'sh pul mablag'larini jalb etadilar va keyinchalik ularni ssudaga beradilar.

Banklar - sanoat va savdoni kreditlash va moliyalashtirish bilan shug'ullanuvchi, har qanday normal faoliyat yuritayotgan iqtisodiyot uchun xos bo'lgan tashkilotlardir.

Hozirgi kunda banklar kredit-moliyaviy xizmatlarning katta qismini amalga oshiradi.

Banklarning asosiy operatsiyalari bo'lib pul mablag'larini jalb etish - va ularni ssudaga berish xizmat qiladi.

6. Kreditlashning asosiy tamoyillari.

Kreditning qaytariluvchanligi.

Kreditning majburiy belgisi, ushbu belgisiz kreditlashning mohiyati yo'qoladi.

Ushbu tamoyil kreditordan olingan moliyaviy mablag`larning o`z vaqtida qaytarilishi lozimligini ifodalaydi.

Uning amaliy ifodasi kredit bergan tashkilot hisob-raqamiga muayyan ssudani qoplash uchun pul mablag`larini o`tkazishda namoyon bo`ladi. Kredit resurslarining o`z vaqtida qaytarilishi, bank kredit faoliyatini davom ettirishining zaruriy sharti hisoblanadi.

Kreditning muddatliligi.

Kredit qaytarilishiga erishish usuli. Bu degani kredit kredit oluvchi istagan vaqtda emas, aniq belgilangan muddatdan so`ng qaytarilishi lozim. Ushbu muddat kredit shartnomasida yoki uni o`rniga tuzilgan boshqa hujjatda aniq ko`rsatilgan bo`ladi.

Ko`rsatilgan shartni bajarmaslik kreditor tomonidan kredit oluvchiga nisbatan, olinadigan foiz to`lovlarini oshirish kabi, turli xil iqtisodiy jarimalarni qo`llash, keyinchalik esa sudga murojaat qilish uchun asos bo`la oladi.

Kreditning to`lovliligi. Ssuda foizi.

Bu tamoyil qarz oluvchi tomonidan bankdan olingan kredit resurslarni faqatgina qaytarish emas, ulardan foydalanish uchun to`lovlarni ham amalga oshirish lozimligini bildiradi.

Kredit uchun to`lovning iqtisodiy mohiyati undan foydalanish natijasida olingan qo`shimcha daromadni kreditor va qarz oluvchi o`rtasida taqsimlashdan iboratdir.

Mazkur tamoyilning amaldagi ifodasi, quyidagi asosiy uchta funksiyani bajaruvchi, bank foizi kattaligini belgilash jarayonida namoyon bo`ladi:

- yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarining bir qismini qayta taqsimlash;
- tarmoq, tarmoqlararo va xalqaro miqyoslarda ssuda kapitallarini taqsimlash yo`li bilan, ishlab chiqarish va muomalani tartibga solish;
- iqtisodiyot rivojlanishining tanglik bosqichlarida, bank mijozlari pul jamg`armalarini inflyatsiyadan himoyalash.

Ssudaga olingan kapitalga to`g`ri keladigan yillik daromadni berilgan kredit miqdoriga nisbati sifatida belgilanadigan ssuda foizi stavkasi, kredit resurslarining narxi sifatida xizmat qiladi.

Kredit uchun to`lash lozimligi, kredit oluvchini undan iloji boricha samaraliroq foydalanishga undaydi.

Kredit uchun foiz belgilashda quyidagi omillar hisobga olinishi lozim:

- MB tomonidan o`rnatiladigan foiz stavkasi;
- banklararo kreditlar bo`yicha o`rtacha foiz stavkasi;
- jalb qilingan qo`yilmalar va depozitlar bo`yicha o`rtacha foiz stavkasi;
- o`z va qarz moliyaviy mablag`larining nisbati: jalb qilingan mablag`lar ulushi qanchalik katta bo`lsa, kredit shunchalik qimmat bo`ladi;
- kredit resurslariga bo`lgan talab: talab qanchalik yuqori bo`lsa, kredit shunchalik qimmat bo`ladi;
- kredit so`ralayotgan muddat, kredit bo`yicha tavakkalchilik darajasi;
- mamlakatdagi moliyaviy barqarorlik: inflyatsiya surati qanchalik yuqori bo`lsa, kredit shunchalik qimmat bo`ladi.

Kreditning o`zgaruvchanligi.

Har bir potensial kredit oluvchiga nisbatan, uning faoliyat shartlaridan kelib chiqqan holda, turlicha yondashuv bo`lishi lozim.

Ushbu tamoyil kredit tashkilotining turli xil kredit oluvchilarga nisbatan o`zgaruvchan yondashuvini belgilab beradi.

Buning amaliy bajarilishi muayyan bankning individual manfaatlariga ham, faoliyatning ayrim tarmoq va sohalarini (misol uchun, fermer xo`jaliklarini) qo`llab-quvvatlash to`g`risidagi davlat tomonidan olib borilayotgan markazlashgan siyosatga ham bog`liq bo`lishi mumkin.

Kreditning ta`minoti.

Ushbu tamoyil, kredit oluvchi tomonidan kredit shartnomasining shartlari bajarilmagan taqdirda, kreditor mulkiy manfaatlarini himoya qilish lozimligini aks ettiradi. Mazkur tamoyilning amaliy ifodasi garov ta`minoti yoki moliyaviy kafolatlarda o`z aksini topadi.

Kreditning maqsadli xarakteri.

Kredit operatsiyalarining katta qismiga taalluqli bo'lib, kreditordan olingan mablag'lar maqsadli sarflanishi lozimligini bildiradi.

Tamoyilning amaliy ifodasi kredit shartnomasidagi tegishli band bilan belgilangan bo'ladi. Mazkur band bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi kreditni muddatidan oldin qaytarish yoki jarima foizini kiritish uchun asos bo'la oladi.

Umumlashtirib aytganda, kreditlarni quyidagi asosiy belgilari bo'yicha ajratish mumkin:

Iste'molchilar guruhlari bo'yicha:

- tijorat tashkilotlari;
- aholi va jismoniy shaxslar;
- davlat organlari;
- banklar.

Maqsadi bo'yicha:

- iste'mol;
- sanoat;
- savdo;
- qishloq xo'jaligi;
- investitsiyaviy.

Foydalanish muddati bo'yicha:

- talabga qadar;
- muddatli, ular o'z navbatida qisqa, o'rta va uzoq muddatli bo'linadi;

Hajmi bo'yicha:

- yirik;
- o'rta;
- mayda.

Ta'minoti bo'yicha:

- ta'minlanmagan;
- ta'minlangan (garov, kafolat, sug'urtalangan).

Berish usuli bo'yicha:

- kompensatsion ssudalar - turli xil maqsadlarda foydalanish uchun hisob raqamiga kelib tushadigan mablag'lar;

- to'lov ssudalari - kredit oluvchining pul hujjatlarini to'lash uchun yo'naltiriladigan pul mablag'lari.

Qoplash usullari bo'yicha:

- asta-sekin qoplanadigan;
- bir martada qoplanadigan.

Nazorat savollari:

1. Kreditning mohiyati nimada?
2. Kreditning asosiy shakllarini sanab o'ring.
3. Kredit tizimi va kredit munosabatlariga ta'rif bering.
4. Kreditning iqtisodiyotdagi funksiyalari.
5. Kreditlashning asosiy tamoyillarini sanab o'ring.
6. Kredit tizimining asosiy tarkibiy qismlari.

16. Qishloq xo'jaligida investitsiyaviy jarayonlarni rivojlantirishda lizingning tutgan o'rni.

1. Lizing va uning turlari.
2. Lizing operatsiyalarini amalga oshirish bosqichlari.
3. Xalqaro lizingning modifikatsiyalari.
4. Xalqaro lizing.

1. Lizing va uning turlari

Jahon amaliyoti lizingni kapital joylashtirishni mablag' bilan ta'minlashning, aniqrog'i, loyihalarga investitsiyalar jalb etishning yuqori samara beradigan turi ekanligini ko'rsatdi. Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida lizing kompaniyalarining sinishi kamdan-kam uchraydigan holdir.

Lizingning oddiy ijaradan asosiy farqi shundaki, lizingda ijaraga berilgan asbob-uskunalar shartnoma muddati tugagandan so'ng, ularni qoldiq qiymati bo'yicha sotib olish ko'zda tutiladi. Lizingning farqli xususiyatlaridan yana biri shundaki, lizing kompaniyalarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish uchun o'z mablag'lari yetishmaydi. Shu sababli ko'pchilik lizing operatsiyalarida jalb qilingan mablag'lar keng qo'llaniladi. Bunda, odatda, bankning uzoq muddatli ssudalari jalb qilinadi.

Bozor sharoitida hukumat bugungi kun bilan emas, balki kelgusini o'ylab iqtisodiy siyosat olib boradi. Lizing fan-texnika taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ertangi kunda ishlab chiqarish bugungi olinmagan soliqlarni to'liqligicha qoplaydi, demak, u iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratib beradi.

Lizing muomalalarini amalga oshirish deganda, ishlab chiqarish vositalarining (mashina, uskunalar va hokazolarni) tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga o'rta yoki uzoq muddatlarga ijara shartlari asosida berilishi tushuniladi. Hammamizga odat bo'lib qolgan oddiy ijara tushunchasidan farqli o'laroq, lizingga olingan ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarni, mashina va uskunalarni pirovard natijada, ya'ni shartnoma muddati tugagandan so'ng, ijarachi ularni qoldiq qiymati bo'yicha sotib olishi hamda ularga egalik qilishi mumkin. Odatda, lizing muomalalari jarayonida uch tomon ishtirok etadi.

1-jadval

Lizing jarayoni ishtirokchilari

Ishlab chiqaruvchi (yetkazib sotuvchi)	Zarur mashina va asbob-uskunalar bilan ta'minlovchi (yoki ularni sotuvchi).
Lizing beruvchi	Ishlab chiqarish korxonalaridan (yoki sotuvchidan) kerakli mashina va uskunalarni sotib oluvchi hamda ularni o'z mijozlariga yetkazib beruvchi.
Ijarachi (lizing oluvchi)	Ishlab chiqarish vositalarini shartnoma asosida ijaraga oluvchi.

Rivojlangan mamlakatlarda lizing muomalalarini maxsus moliya jamiyatlari, jumladan lizing kompaniyalari, firmalar va yirik banklar amalga oshiradi.

Lizing muomalalarining xilma-xil turlari mavjud bo'lib, amalda esa ularning quyidagi ikki turi nisbatan ko'proq qo'llaniladi:

Operativ lizing. Lizingning bu turida ijaraga berilayotgan texnika uskunalarining ijara muddati ularning xizmat qilish muddatiga qaraganda qisqa bo'ladi. Mulk egasi tomonidan (lizing beruvchi) ijaraga berish maqsadida sotib olingan zarur asbob-uskunalar hamda ularga ketgan sarf-xarajatlar faqat qisman qoplanadi.

Moliyaviy lizing. Bu lizing asosida o'zaro tomonlar imzolangan shartnomaga binoan, shartnoma muddati tugagandan so'ng ijarachi lizingga olingan uskunalarni qoldiq qiymati bo'yicha sotib olishi mumkin. Bu holda lizingga berilgan mashina va uskunalariga egalik qilish huquqi bevosita ijarachiga o'tadi.

Operativ lizing quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

- texnik uskunalar va jihozlarni ijaraga beruvchi lizing kompaniyasi hyech qachon "barcha sarf-xarajatlarimni yakka-yu yagona mijozim evaziga qoplayman" qabilida hisob-kitoblarga tayanmaslik;
- ijaraga berilgan texnika, asbob-uskunalarining nosoz holga kelishi yoki yo'qolishi, shuningdek tabiiy ofatlar - zilzila, yong'in va sel ketish oqibatida ko'riladigan moddiy zararlar, asosan lizing beruvchi kompaniya hisobiga qoplanishini nazarda tutish;
- ijara muddati mavjud asbob-uskuna va jihozlarning jismonan butunlay ishdan chiqish muddatini qoplamasligi darajasida belgilamaslik;
- kelishilgan muddat tugagandan so'ng, ijaraga olingan barcha uskunalar egasiga, ya'ni lizing beruvchiga qaytarib beriladi.

Operativ lizing quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Renting. Mulkni bir kundan to bir yilgacha bo'lgan qisqa muddatga ijaraga berishni nazarda tutadi.

Xayring. Bunda mulk 1 yildan 3 yilgacha muddatga ijaraga beriladi. Odatda, bu muddat o'rta muddat hisoblanadi.

Yuqoridagi muomalalar bir turdagi (turdosh) uskunalarini bir ijarachi tasarrufidan boshqa biriga tez-tez o'tib turishini taqozo etadi.

Moliyaviy lizing bo'yicha kelishilgan muddat tugagandan so'ng ijarachi tomonidan ijaraga olingan uskunalar qiymatini to'lashi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijaraga berilgan mashina va uskunalar, ularni ishlab chiqargan korxonadan tomonidan belgilangan iqtisodiy foydalanish muddati (amortizatsiya davri)ni o'tashi, shubhasiz, lizing kompaniyalari kutgan va oldindan belgilagan foydani keltiradi.

Moliyaviy lizing ham o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi:

-ba'zi xizmat turlarini qamrab oluvchi lizing;

-levedj-lizing;

-"paketdagi" lizing.

Ba'zi xizmat turlarini qamrab oluvchi lizing. Bunda lizing kompaniyasi ijaraga berilgan uskunalarini o'rnatish, sozlash, mutaxassislar tayyorlash kabi bir qator majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Levedj-lizing. Bunda ijaraga berilayotgan uskuna va jihozlar narxining katta miqdori uchinchi tomondan, ya'ni investordan qarzga olinadi.

"Paketdagi" lizing. Mavjud ishlab chiqarish inshootlari va binolar kreditga berilib, zarur bo'lgan mashina va uskunalar esa ijarachiga ijara shartnomasi asosida beriladi. Lizing muomalalari ularni keltirib chiqaruvchi ob'ektiv shart-sharoitlarga qarab, aniqrog'i, ob'ektga egalik qilish manbalari nuqtai nazaridan ikkiga: bevosita va yana o'ziga qaytuvchi lizing turlariga bo'linadi.

Bevosita lizing. Bunda lizing kompaniyasi mijoz uchun uning buyurtmasi asosida mashina va uskunalarini ularni ishlab chiqarayotgan korxonalardan sotib oladi.

Yana o'ziga qaytuvchi lizing. Moliyaviy lizingning nisbatan kam uchraydigan bu turi "liz-bek" deb ham ataladi. Bunda ishlab chiqaruvchi korxonadan o'z tasarrufidagi xususiy mulkning bir qismini lizing kompaniyasiga naqd pulga sotadi. Ayni chog'da lizing kompaniyasi bilan korxonadan o'rtasida sotilgan mulk xususida shartnoma tuziladi. Amalda esa asbob-uskunalar o'z o'rnini o'zgartirmagan holda, ishlab chiqarish jarayonida xizmat qilaveradi. Shartnomaga binoan lizing kompaniyasi esa muayyan muddat ichida ijara haqini olaveradi. Bu sharoitda korxonadan sotilgan mulk uchun olgan mablag'larni ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirish maqsadlariga sarflash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Shartnoma amal qilayotgan muddat ichida ijaraga berilgan barcha ishlab chiqarish vositalari-mashina uskuna va jihozlar lizing kompaniyasi balansida hisobida bo'ladi va kompaniya yuqoridagi texnika uskunalarining sohibi (egasi) sifatida e'tirof etiladi.

Ijaraga berilayotgan mulkka nisbatan lizing quyidagi turlarga bo'linadi:

Sof lizing. Bunda ijaraga berilayotgan mulk va ularni ishlatishga sarflanadigan barcha qo'shimcha xarajatlar ijarachi zimmasiga yuklatiladi.

To'liq lizing. Bu lizing turiga binoan ijaraga berilayotgan mashina va uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha sarf- xarajatlar lizing kompaniyasi zimmasiga tushadi. Agar lizing beruvchi sub'ekt sifatida lizing kompaniyasi faoliyat ko'rsatsa, bunday hollarda lizing bo'yicha operatsiyalar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Shartnoma imzolangan qadar lizing oluvchi sub'ektning talab va ehtiyojlari bayon etilgan buyurtmasi ko'rib chiqiladi. Kompaniya rahbariyati o'z navbatida, yuqoridagi buyurtma bilan murojaat qilgan tashkilotning so'nggi yillardagi moliyaviy holat bilan tanishib chiqadi. Agar tekshiruv natijasi qoniqarli deb topilsa, kompaniya mazkur tashkilot bilan lizing shartnomasini imzolaydi.

Shartnoma ikki tomon o'rtasida lizing kompaniyasi (ijaraga beruvchi) va lizing oluvchi (ijarachi) yoki bo'lmasa uch tomonlama imzolanishi mumkin. Bunda, shartnomada uchinchi tomon sifatida zarur mashina va uskunalarni ishlab chiqaruvchi korxonaga ishtirok etadi.

Lizing shartnomasi ikki tomonlama imzolangan taqdirda lizing kompaniyasi ikkinchi tomon bilan shartnoma shartlarini kelishib olgandan so'ng, uning buyurtmasiga muvofiq, so'ralayotgan texnika va texnologiyalarni, mashina va asbob-uskunalarni ishlab chiqaruvchi korxonaga ma'lumotnoma yuboradi hamda ijaraga olinayotgan uskunalarning narxlarini ijara shartlari va hokozolarni kelishib oladi. Lizing oluvchi sub'ekt esa, o'z navbatida, kompaniyaga, o'ziga kerakli uskunalarni ijaraga olishini tasdiqlovchi majburiyat xati yuboradi. Odatda, bu xatga kerakli uskunalarni olish haqidagi buyurtma blankasi ilova qilinadi.

2. Lizing operatsiyalarini amalga oshirish bosqichlari

Lizing operatsiyasi tushunchasi asl mohiyatiga ko'ra lizing kompaniyasining o'z hisobiga muayyan texnika va texnologiyalarni, mashina va uskunalarni sotib olishi, so'ngra esa ularni lizing oluvchi sub'ektga shartnoma asosida ijaraga berishi muomalalarini o'z ichiga oladi. Lizing operatsiyasi uch bosqichga bo'linadi.

Lizing operatsiyasi bosqichlari

Bosqichlar	Bajariladigan ishlarning mazmuni
1 -bosqich	Lizing operatsiyalarini amalga tatbiq etishning boshlang'ich bosqichida lizing kompaniyasi umumiy tayyorgarlik ishlarini olib boradi. Bungacha albatta, lizing kompaniyasi barcha hujjatlarni huquqiy jihatdan tartibga keltiradi, chunonchi, lizing loyihasining barcha xususiyatlari va shartnomalarini chuqur o'rganib chiqish, shular jumlasidandir. Mazko'r bosqichda lizing olishga imkoniyati bor lizing oluvchilarning buyurtmalari ko'rib chiqiladi hamda olgan kredit mablag'larni o'z vaqtida qaytara olish imkoniyatlari to'la tahlil qilinadi, texnika va texnologiyalarni sotib olish uchun sarflanayotgan mablag'larning maqsadga muvofiqligi hamda ularning kelgusida foyda keltirishi bilan bog'liq hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Shuningdek bu bosqichda biznes-plan tuzilib, unda bayon etilayotgan ma'lumotlar to'la tahlil qilinadi.
2 -bosqich	Bu bosqichda yuqorida bayon etilgan barcha hujjatlar rasmiylashtiriladi, ya'ni ular amaldagi qonun va me'yoriy hujjatlar asosida tartibga keltiriladi. Bunda asosan zarurat tug'ilganda lizing to'lovlarini kafolatlash, biror mulkni garovga qo'yish bo'yicha shartnoma imzolash, shuningdek lizing shartnomasi va lizing bo'yicha Bosh shartnomani imzolash, lizing ob'ektlarini keltirish bilan bog'liq; shartnomani imzolash, lizing operatsiyalarini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan loyihalarni o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lar hisobiga moliyalash, keltirilgan texnika va texnologiya hamda uskunalarni ishlab chiqarishga joriy qilish bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish, shuningdek lizing ob'ektlariga texnik xizmat ko'rsatish hamda ularni sug'urtalash kabi qator muomalalar amalga oshiriladi.
3 -bosqich	Bu bosqich lizing to'lovlarini to'lash, monitoring, ya'ni lizing ob'ektlarining ishlatilishi hamda lizing to'lovlarini vaqtida to'lashni nazorat qilish, lizing ob'ektini lizing beruvchiga qaytarish yoxud uni lizing oluvchiga berish hamda lizing kompaniyasi tomonidan sarflangan qarzlarni qaytarish va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Har qanday lizing jarayonida lizing kompaniyasi uchun muhim jihatlardan biri-bu mijozlar bilan olib boriladigan iqtisodiy ish jarayoni hisoblanadi. Lizing kompaniyasi lizing operatsiyalarining barcha bosqichlarini, ya'ni biror uskunani olish uchun buyurtma yig'ishdan boshlab, to'lovlarning o'z vaqtida to'lanishi, lizing ob'ektlarining to'g'ri ishlatilishi, qolaversa, lizing shartnomasi muddati tugashiga qadar bo'lgan davrning ta'minlanishi hamda ularni nazorat qilishi, shuningdek yuqoridagi bosqichlarni o'z ichiga olgan bu ishlarga jiddiy munosabatda bo'lishi lozim.

5.3. Xalqaro lizingning modifikatsiyalari

Xalqaro lizing lizingning alohida bir turi bo'lib, bunda tomonlarning hych bo'lmaganda birortasi (yoki hammasi turli mamlakatlardan) boshqa mamlakatga tegishli bo'ladi, yoki tomonlarning biri xorijiy firma bilan qo'shma kapitalga egadir. Xalqaro lizingning quyidagi modifikatsiyalari mavjud: to'g'ridan-to'g'ri eksport va import, tranzit (bilvosita), to'g'ri bo'lmagan.

To'g'ridan-to'g'ri xalqaro lizingda bitim bo'yicha barcha operatsiyalar turli mamlakatlarning yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan tijorat tashkilotlari o'rtasida amalga oshiriladi.

Tranzit (bilvosita) lizingda bir mamlakatdagi lizing beruvchi boshqa mamlakatdan kredit oladi yoki zarur bo'lgan uskunalarni sotib oladi va uchinchi bir mamlakatdagi ijarachiga yetkazib beradi.

To'g'ri bo'lmagan lizingda lizing firmasi va iste'molchi bir mamlakatga tegishli bo'ladi, lekin lizing firmasi boshqa mamlakatda joylashgan bo'ladi. Xalqaro lizing biznesi ichki lizingga nisbatan ancha kech rivojlana boshladi. Xalqaro lizing operatsiyalini rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir etgan: ko'pchilik mamlakatlarda kredit olish shartlarining og'irligi, banklar tomonidan foiz stavkalarini oshirishlari, lokal moliyaviy inqirozlar, ba'zi mamlakatlar soliq tizimining beqarorligi va boshqalar.

Xalqaro lizing operatsiyalarini amalga oshirishdagi qiyinchiliklar shundan iboratki, ular nafaqat o'zining, balki hamkor mamlakat hukumatining ham valyuta, bojxona va boshqalarni tartibga solish qoidalari ta'siri ostida bo'lishadi. Xalqaro moliyaviy lizing taraqqiyoti oldidagi to'siqlarni yo'q qilish, undan foydalanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida turli mamlakat va xalqaro tashkilotlar mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqilgan Xalqaro moliyaviy lizing bo'yicha Ottava Konvensiyasi 1988 yilning may oyida qabul qilindi.

Yirik xalqaro lizing tashkilotlaridan "Ebikliz"ni va milliy lizing assotsiatsiyalarining yevropa federatsiyasi (Lizyurop)ni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. "Ebikliz" Gollandiya, Italiya, Germaniya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Belgiya va Fransiya davlatlaridagi lizing kompaniyalarini birlashtiradi. Bu tashkilot ko'pchilik hollarda halqaro lizing bitimlarini amalga oshirishda vositachi vazifasini o'taydi. "Lizyurop" 1979 yilda tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda 17 ta mamlakatning 700 ta lizing kompaniyasini birlashtiradi. Uning tarkibiga Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Shveysariya, Germaniya, Daniya, Ispaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Irlandiya, Lyuksemburg, Norvegiya, Gollandiya, Portugaliya, Shvetsiya, Finlyandiya davlatlari lizing kompaniyalari kiradi. Xalqaro lizing tashkilotlarining asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat:

- a) a'zo mamlakatlarning qonunchiliklarini o'rganish va taqqoslash;
- b) barcha xuquqiy, soliq, moliyaviy masalalarni hal etish;
- v) lizing bitimlarining shartlari to'g'risidagi statistik ma'lumotlarning yig'ish;
- g) lizing firmalarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rganish.

80-yillar oxirlarida jahonning 60 mamlakatida joylashgan lizing kompaniyalar o'z operatsiyalarini 150 mamlakatda amalga oshirardilar. "Lizyurop" halqaro assotsiatsiyasiga kiruvchi 16 ta milliy lizing kompaniyalarga tegishli shartnomalarning umumiy summasi 1986 yilda 36 mlrd.doll.ni tashkil etdi. 80-yillar o'rtalarida eksport lizing operatsiyalarining yillik hajmi 15-20 mlrd.doll.ni tashkil etdi, shu jumladan AQShda 8-10 mlrd. doll., Yaponiyada - 3-4 mlrd. doll., Angliyada - 0,5-1,5 mlrd. doll. Agar yangi uskunalar ni ijaraga olish uchun investitsiyalar bo'yicha hisob-kitob qilinsa, bu yerda rivojlangan mamlakatlarning ulushi 75%ni tashkil etadi (AQSh-50%, Yaponiya-14%, Germaniya-4,6%, Buyuk Britaniya-3,8%).

4. Xalqaro lizing

AQShdagi lizing operatsiyalari. Hozirgi vaqtda lizing yordamida amalga oshiriladigan jahon savdo oborotining teng yarmi AQSh hissasiga to'g'ri keladi. AQShda lizingni yuksak sur'atlarda rivojlanishining muhim sabablaridan biri investitsiyalarga nisbatan beriladigan soliq imtiyozi edi. Bunga yangi investitsiyalar yig'indisining 10 foizgacha soliq yig'indisidan chiqarib tashlanar edi. Masalan, asbob-uskunalar sotib olish xarajatlari 100 ming dollar deylik, soliq imtiyozi 10%, soliq yig'indisidan 10 ming dollar chiqarib tashlanadi. Lizing shartnomasida soliq imtiyozi Moliya vazirligining ichki daromadlari boshqarmasi tomonidan ijara uchun o'rnatgan qoidalarga mos kelgan holdagina qo'llaniladi. Shunday qoidalardan biriga ko'ra bu lizingning davomiyligi 30 yildan kam bo'ladi.

Buyuk Britaniyada lizing operatsiyalari. Buyuk Britaniyada lizing nisbatan kech, ya'ni 1970 yildan keyingina keng ko'lamda rivojlandi. 1981 yildan 1986 yilgacha hukumat korporatsiyalaridan olinadigan soliq 52%dan 35%ga pasaygan. Shu vaqtgacha qo'llab kelingan 100% li soliq imtiyozi (bu imtiyoz birinchi yilga nisbatan qo'llanilardi) 25% li imtiyoz bilan almashtirildi. Korporatsiyalardan olinadigan soliq stavkasi pasaytirilishi bilan lizingga nisbatan qo'llaniladigan soliq imtiyozining ham ahamiyati pasaydi. Bu esa lizing va uskunalar sotib olish qiymatining pasayishiga olib keladi. Hozirgi kunda ham soliq imtiyozlarining ma'lum qismi saqlanib qolgan. Masalan, birinchi yil mobaynida ijara to'lovlari soliqqa tortilmaydi.

Fransiyada lizing operatsiyalari. Fransiyada 1967 yilda "Lokafrans" nomli birinchi lizing kompaniyasi yuzaga keldi. Hozirgi kunda keng turdagi tovarlar, samolyot va vertolyotlar, hisoblash texnikalari, tibbiy asbob-uskunalar, sanoat dastgohlari va hokazolar lizing yordamida ishlatilmoqda.

Fransiyada lizing operatsiyalarining qo'yidagi asosiy xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

1. Lizing ob'ektining qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining 1%i dan 7% gachani tashkil etadi.

2. Ijara to'lovlari oyda 1 marta, 3 oyda, 6 oyda va yilda to'lanadi.

3. Qo'zg'almas mulk lizinggi keng rivojlangan.

Bunday lizing, odatda 15-20 yil davom etadi. Bu sohadagi eng yirik tashkilot SIKOMI bo'lib, u aksiyador kompaniyadir. Hozirgi kunda 10 mln. frankdan ortiq nizom fondiga ega.

Germaniyada lizing operatsiyalari. Hozirgi kunda Germaniyada ko'plab lizing kompaniyalari uchraydi. Ulardan 57 tasi nemis lizing assotsiatsiyasi tarkibiga kiradi. Lizing sohasidagi eng yirik tashkilotlardan ikkitasini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Bular "Mitfinans Gimbx" va "Gefa-lizing Gimbx". "Mitfinans Gimbx" 1962 yilda tashkil etilgan. Germaniyada birinchi bo'lib tashkil etilgan bu lizing kompaniyasining ustav kapitali 1 mln. nemis markasini tashkil etardi. Hozirgi vaqtda uning oltita o'ziga qarashli kompaniyasi mavjud. "Gefa-lizing Gimbx" 1968 yilda tashkil etilgan. O'zining hozirgi kungacha bo'lgan faoliyati mobaynida, u o'z mijozlariga 3 mlrd. nemis markasi miqdoridagi uskunalarni ijaraga berdi.

Avstriyadagi lizing operatsiyalari. Avstriyada lizingning rivojlana boshlaganiga 25 yil bo'ldi. Avstriyada ijaraning o'rtacha muddati lizingga berilayotgan predmetning ishlatilishi muddatiga qarab 2 yildan 15 yilgacha bo'lgan vaqtni tashkil etadi. Shartnoma muddati tugagandan so'ng, ijarachi predmetning qolgan ishlash muddatiga yangi lizing shartnomasini tuzish mumkin yoki lizing predmetini sotib olish to'g'risidagi muzokarani boshlashi lozim. Avstriyada lizing muddatini uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi. Lizingga hatto bolalar bog'chalari va maktablar beriladi. Avstriyada 1984 yilda qabul qilingan yangi soliq qonuniga muvofiq, lizing berishda soliq imtiyozlari qo'llaniladi. Ammo buning uchun lizing shartnomasining muddati uskunaning umumiy ishlatilish muddatining 40-90% idan oshmasligi lozim. Avstriyada "Rayfanzen lizing"ni yetakchi lizing firmalaridan biri sifatida misol keltirish mumkin.

Italiyada lizing operatsiyalari. Italiyada birinchi lizing kompaniyasi 1963 yilda paydo bo'ldi. Hozirgi vaqtda Italiya lizing assotsiatsiyasi 50 ta kompaniyani o'z ichiga oladi. Lizing bo'yicha soliq imtiyozlari jamoat tashkilotlari va iqtisodiyotdagi ayrim tarmoqlarga nisbatan qo'llaniladi. Yirik lizing kompaniyalaridan "Lokafit"ni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. "Lokafit" yer tekislovchi mashinalarni, qishloq xo'jaligi mashinalarini, bosh idora (ofis)lar uchun uskunalarni, komp'yuterlar, qo'zg'almas mulk, transport vositalari (samolyotlar, kemalar, avtomobillar va hokazolar)ni lizingga beradi. "Lokafit"ning Germaniya, Fransiya, AQSh, Ispaniya, Xitoyda qo'shma korxonalari mavjud. Shuningdek, u Yugoslaviya va Vengriya bilan lizing operatsiyalarini amalga oshiradi.

Yaponiyada lizing operatsiyalari. Yaponiya lizing operatsiyalari rivojlangan mamlakat hisoblanadi. Yaponiyada eng yirik lizing kompaniyalaridan biri "Century Leasing System" bo'lib u 1969 yilda tashkil topgan. Uning to'plangan ustav kapitali 584 500 000 ienni tashkil etadi. Bu kompaniya Gonkongda, Singapurda, Buyuk Britaniyada o'z filiallariga ega. Bitta tijorat banki bitta savdo va ikkita sug'urta kompaniyasi "Century Leasing System" aksionerlari hisoblanadi.

Shvetsiyada lizing operatsiyalari. Shvetsiyada lizing operatsiyalarining rivoji 60-yillarning boshlariga to'g'ri keladi. O'sha paytlarda lizingdan kichik va o'rta kompaniyalar foydalanar edi. Gap shundaki, bu paytda maxsus bank qonunchiligi mavjud bo'lib, unga ko'ra, har bir bank o'zining ko'pchilik ssudalari uchun ta'minlaganlik bo'lishini talab etar edi. Lizing bu holatni yengillashtirdi, chunki bunda kredit beruvchi asbob- uskunalarining egasi hisoblanadi. Dastlabki paytlarda qayta sotib olish to'g'risida shartnomalar tuzilardi, bu shartnomalarga ko'ra asbob- uskunalar yetkazib beruvchi korxonalar yoki mijoz lizing bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan taqdirda, uskunalarni qayta sotib olish majburiyatini olardi. Hozirgi kunda bunday qayta sotib olish shartnomalari Shvetsiya lizing

amaliyotida juda kam qo'llaniladi. Ijaraning asosiy muddati 3-5 yilni tashkil etadi. Kamdan-kam hollarda bu muddat 9 yilgacha cho'zilishi mumkin.

Ispaniyadagi lizingning huquqiy asoslari. Ispaniyada hozirgi vaqtda 117 tadan oshiq lizing kompaniyasi mavjud. Shulardan 20 tasi mustaqil, qolganlari banklar qoshidagi kompaniyalardir. Ijara muddati asosan 3-5 yilni tashkil etadi. Lizing operatsiyalarini amalga oshirish quyidagi qonuniy hujjatlarda o'z aksini topgan:

1. 1977 yilda qabul qilingan lizingning mazmuni haqidagi dekret.

2. 1980 yilda qabul qilingan qo'zg'almas mulklar bo'yicha lizing operatsiyalari haqidagi dekret.

3. Bank muassasalarining ishtiroki xususida 1988 yilgi qonun.

Har qanday tadbirkorlik faoliyati singari lizing shartnomalari

ham ishonchli huquqiy asosga ega bo'lishi kerak. Yaqin vaqtlargacha ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda mavjud qonunchilikka ko'ra mashina va uskunalar ijarasi umumiy normalar asosida boshqarilar, tomonlar munosabatini bildiruvchi texnologik aniqliklar mavjud emas edi. Keyingi vaqtlarda bir qator xorijiy mamlakatlardagi fuqorolik huquqlarida lizing va uning turlariga huquqiy aniqlik berilgan, ulardan bir qanchasi bo'yicha esa tegishli qonuniy hujjatlar qabul qilingan.

Lizing munosabatlarining huquqiy ta'minlanganlik darajasi bo'yicha mamlakatlar asosan 3 guruhga bo'linadi:

Lizing shartnomalarini boshqaruvchi maxsus qonunlar mavjud mamlakatlar guruhi (Kontinental G'arbiy yevropa mamlakatlari: Fransiya, Belgiya, Italiya).

Maxsus qonuniy hujjatlar amal qilayotgan mamlakatlar ("Umumiy huquq" mamlakatlari: Angliya, Avstraliya, Yangi Zelandiya).

Amalda maxsus qonunchiligi mavjud bo'lmagan mamlakatlar: (AQSh, Germaniya). Birinchi guruh mamlakatlaridagi mavjud qonunchilik uchun xarakterli xususiyat, lizing munosabatlari nafaqat asosiy hamkorlar (lizing oluvchi va lizing beruvchi) o'rtasida boshqariladi, balki lizing kompaniyasi bilan yetkazib beruvchi o'rtasida (lizing operatsiyalari mobaynida transport vositalari xizmatidan foydalanish hollari, mol- mulk kompaniyasi) ham boshqariladi.

Birinchi qonunchilikka ko'ra lizing kelishuvlarida (uch tomonlama) quyidagi holatlar albatta ko'rsatilishi kerak: uskunalarining aksariyati keyinchalik ijaraga topshirilishi va ular faqat professional maqsadlar uchun ishlatishi lozim. Unda yana sotib olish va baho huquqi shart- sharoitlari ham ko'rsatiladi, ya'ni kelishuv muddati tugagandan so'ng qaytarib olishi mumkin. Shu bilan birgalikda risk va mas'uliyat bo'yicha muammolar fuqarolik va savdo huquqlariga oid umumiy normalar orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchi guruh mamlakatlari qonunchiligiga ko'ra lizing kelishuvlari vaqtinchalik ishlatishga berilayotgan buyumning qiymati va lizing kelishuvlari sub'ektlariga bog'liq ravishda boshqariladi.

Uchinchi guruh mamlakatlaridagi maxsus qonunchilikning mavjud emasligi. Masalan, AQShda. Yaqin vaqtlargacha bu mamlakatlarda lizingga bo'lgan munosabatni belgilovchi asosiy vosita soliq va amortizatsiya imtiyozlari edi. Ular soliqqa tortish masalalariga bag'ishlangan qonuniy hujjatlarda belgilab berilgan. Bu mamlakatlarda lizing kelishuvlarida umumiy fuqarolik va savdo huquqlari keng qo'llaniladi.

O'zbekistonda lizingning rivojlanishi. Xalqaro moliya korporatsiyasi 1995 yilda O'zbekistonning birinchi lizing kompaniyasini moliyalashtirgan. XMK ishtirokida "O'zbeklizing interneshnl" aksionerlik birlashmasi tashkil topgan. XMK respublika lizing operatsiyalari bozorini tartibga solib turuvchi huquqiy-normativ hujjatlarni qabul qilinishida faol ishtirok etgan. Hozirda esa lizing operatsiyalari bozori Fuqarolik kodeksi (1996 yil) va "Lizing to'g'risida"gi qonun asosida tartibga solinmoqda. 2002 yil qishda Oliy Majlis sessiyasida lizing qonunchiligiga 38 ta tuzatish kiritilgan. Tuzatishlarning muhimlaridan biri lizing kompaniyalariga lizing operatsiyalarini moliyalashtirish uchun mablag' jalb etish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Undan tashqari, 2001 yilda O'zbekiston xalqaro moliyaviy lizing to'g'risidagi UNIDRUA konvensiyasini ratifikatsiya qildi. O'zbekistonda lizing operatsiyalarini asosan 6 ta lizing kompaniyalari amalga oshiradi.

"O'zbeklizing interneshnl" kompaniyasining ustav kapitali 6 mln. AKSh dollarini tashkil etadi. U 50 ming doll.dan 1,7 mln.doll.gacha qiymatdagi uskunalarni lizingga berishga ixtisoslashgandir. 2002 yil oxiriga qadar kompaniya 9,4 mln.doll.ga teng qiymatdagi 40 ta loyihani amalga oshirgan. Bu loyihalarning barchasi 50 mln.doll.dan 500 mln.doll.ga teng bo'lgan loyihalardir. Birinchi loyihalardan kompaniya yiliga 15%, so'mdagi loyihalardan 25% oladi. "O'zbeklizing interneshnl" kompaniyasi foizlarni asosiy summadan hisoblaydi (boshqa lizing kompaniyalari foizlarni ssuda qarzlaridan hisoblaydilar). Loyihalar muddati bir yildan besh yilgacha. Kafolat ta'minoti 50%ga boradi. Moliyalashtirishni ochilishining minimal muddati - ikki hafta. "O'zbeklizing interneshnl" mamlakatimizdagi o'z valyuta resurslariga ega bo'lgan yagona lizing kompaniyasidir.

Osiyo-yevropa trast kompaniyasi 1996 yilda tuzilgan. Uning ustav kapitali - 50 ming doll. U respublikaga uskunalarni import qiladi hamda mablag'larni kichik va o'rta korxonalariga investitsiyalashga sarflaydi. Kompaniya 3,6 mln.doll. qiymatdagi 10 ta loyihani amalga oshirgan. Kompaniya ta'sischilari tarkibida o'zgarishlar sababli oxirgi 1,5 yilda yangi loyihalar moliyalashtirilmayapti.

"Baraka" universal lizing kompaniyasi 1996 yilda tashkil topgan, ustav kapitalini 2003 yilda 1 mlrd. so'mga yetkazish mo'ljallangan. U asosan qiymati 100 doll.dan 60000 doll.gacha bo'lgan uskunalarni ichki lizingi bilan shug'ullanadi. Kompaniya 9,1 mln.doll. qiymatidagi 97 ta loyihani amalga oshirgan. U Isroildan 15 ta kichik sut zavodlarini lizingini ta'minlagan. Loyihaning umumiy narxi 206 ming doll. So'mli loyihalar bo'yicha "Baraka" kompaniyasi yiliga 34-35% hisoblaydi.

"O'zKeYSagrolizing" kompaniyasi 1997 yil tashkil etilgan. Ustav fondi-5 mln.doll. Kompaniya "KeYS" amerika kompaniyasi ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi texnikasi lizingini amalga oshiradi. Hozirga qadar umumiy qiymati 7,2 mln. doll.lik 37 loyiha amalga oshirilgan.

Lizing operatsiyalarini amalga oshirishda yetakchi o'rinni egallaydigan kompaniyalardan biri "Uzselxozmashlizing" 1999 yilda tashkil etilgan. Ustav fondi - 1,5 mln.doll. Umumiy qiymati 152,9 mln.doll.ga teng 4420 ta loyiha amalga oshirilgan. Kompaniyaning yetakchi pozitsiyalari mahalliy ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi texnikasini 7 yilga 15% foydasi bilan lizingga berishga asoslangandir.

1997 yilda tashkil topgan "O'zavializing" kompaniyasining kapitali 24,5 mln. so'mdir. Hozirgi kunga qadar kompaniya 15 mln.dollarlik bitta bitimni amalga oshirdi. Navbatda DAJ "TAPOICH" ga ishlab chiqarish aviataxnikasi lizingini Rossiya va Xitoy aviakompaniyalari bilan birgalikda amalga oshirish turibdi.

O'zbekistonda kichik va o'rta biznesga lizing xizmatlarini amalga oshiruvchi beshta lizing kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Undan tashqari lizing xizmatlarini mamlakatning 11 tijorat banklari ham ko'rsatadilar. Lizing loyihalari soni bo'yicha kutilmaganda "Tadbirkorbank" yetakchi o'ringa chiqib oldi (103 loyihaning umumiy summasi 220 ming.doll). Qishloq xo'jaligi lizingi jadal rivojlanmoqda. 2002 yil avgust oyida Prezident farmoni chiqqunga qadar banklarga lizing operatsiyalarini amalga oshirishdan ko'ra kreditlar berish afzallroq edi. Chunki hozirda lizing to'lovlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan. Undan tashqari lizingga berish uchun olib kirilayotgan texnologik uskunalar QQS va bojxona to'lovlaridan ozod qilingandir. Lizing oluvchilar esa lizing ob'ekti bo'yicha mulk solig'ini to'lamaydilar.

Qisqa xulosalar

Bozor sharoitida hukumat bugungi kun bilan emas, balki kelgusini o'ylab iqtisodiy siyosat olib boradi. Lizing fan-texnika taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ertangi kunda ishlab chiqarish bugungi olinmagan soliqlarni to'liqligicha qoplaydi, demak, u iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratib beradi.

Shu sababli ko'pchilik lizing operatsiyalarida jalb qilingan mablag'lar keng qo'llaniladi. Bunda, odatda, bankning uzoq muddatli ssudalari jalb qilinadi.

Tayanch iboralar

Lizing, lizing kreditlari, lizing operatsiyasi, operativ lizing, moliyaviy lizing, qaytaruvchi lizing, halqaro lizing, levedj lizing, paketdagi lizing, sof lizing, to'liq lizing, xayring, reyting, tranzit lizing.

Nazorat savollari

1. Texnika taraqqiyotida lizing kreditlarining o'rni qanday?
2. Lizing operatsiyasida nechta tomon qatnashadi?
3. Lizingning qanday turlari bilasiz?
4. O'zbekistonda lizingning rivojlanish holati qanday?
5. Operativ lizingniga izoh bering.
6. Qaytaruvchi lizing nima?
7. Lizing kreditlari nima?
8. Xalqaro lizing nima?

17. Mavzu: Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish.

Reja:

1. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va investitsiya resurslari qiymatini aniqlash
2. Kapital qiymati tushunchasi
3. Kapitalning ayrim elementlari qiymati

1. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va investitsiya resurslari qiymatini aniqlash.

Loyiha – bu muayyan maqsadni ko'zlagan, korxonada faoliyatini o'zgartirish to'g'risidagi maxsus tarzda rasmiylashtirilgan taklifdir.

Investitsiyaviy loyiha – cheklangan vaqt va cheklangan resurslar bilan muayyan maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan, o'zaro bog'liq va muvofiqlashtirilgan tashkiliy, texnik va investitsiyaviy tadbirlar majmuasidir.

Loyihalarni, odatda, **taktik va strategik loyihalarga** ajratadilar. **Strategik loyihalarga** mulkchilik shaklining o'zgarishini nazarda tutadigan loyihalar kiradi. **Taktik loyihalarga** esa ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini o'zgarishi, mahsulot sifatini oshishi, uskunalarni zamonaviylashtirish bilan bog'liq loyihalar kiradi.

Mazkur loyihaga nisbatan investitsiyaviy faoliyatni tartibga solish jarayoni loyiha davri deb atalmish shaklda rasmiylashtiriladi, u quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Loyihani ifodalash (ayrim hollarda «identifikatsiyalash» atamasi qo'llaniladi).
2. Loyihani ishlab chiqish (tayyorlash).
3. Loyiha ekspertizasi.
4. Loyihani amalga oshirish.
5. Natijalarni baholash.

Investitsiyaviy loyihalar turlari:

1. Mavjud tadbirkorlik faoliyati miqyoslarini o'zgartirmasdan, jismoniy eskirgan uskunalarni almashtirish.

2. Joriy ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish maqsadida uskunalarni almashtirish (ma'naviy eskirish).

3. Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va/yoki xizmat ko'rsatish bozorini kengaytirish.
4. Yangi mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida korxonani kengaytirish.
5. Ekologik yuklamaga ega bo'lgan loyihalar.
6. Qaror qabul qilish mas'uliyati borasida muhim bo'lgan boshqa turdagi loyihalar.

Investitsiya loyihalarini **moliyalashtirish** turli usullar bilan amalga oshiriladi:

- aksiyadorlik investitsiyalash;

- byudjetdan investitsiyalash;
- lizing;
- qarz majburiyatlari hisobidan banklar kreditlari, yuridik hamda jismoniy shaxslar majburiyatlari evaziga moliyalashtirish;
- ipoteka (ko'chmas mulkni garovga qo'yish) asosida olib boriladi.

Monitoring loyiha holatini kuzatish, uni baholash, loyiha ning istiqbolini belgilashni yoki loyiha ning amalga oshirilishini kuzatib borishni nazarda tutadi.

Unga quyidagilar kiradi:

- moliyalashtirilayotgan loyiha ni amalga oshirilishining borishi to'g'risidagi hisobotlar tahlili;
- ishning ahvolini bevosita loyiha amalga oshirilayotgan joyda tekshirish;
- maqsadli taftishlar, auditorlik tekshiruvlari;
- loyiha ning tugallanganligi to'g'risida hisobot tuzish (unda xarajatlarning qoplanishi, mahsulotni sotish chiqimlarini baholash ham nazarda tutiladi).

Investitsiya loyihalarini **baholash, tanlash va amalga oshirishda** asosiy e'tibor investitsiya imkoniyatlarining tahliliga, jalb etilayotgan **resurslar qiymatini baholashga hamda** noaniqlik tahliliga, risklarni pasaytirish usullari, ularni investitsiya qatnashchilari o'rtasida taqsimlanishiga qaratish zarur bo'ladi.

Investitsiya loyihalari samaradorligini tahlil qilish va baholashda pul oqimlarini diskontlash usuli bilan amalga oshirish talab etiladi. Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda sof diskontlangan daromad, daromaddorlik indeksi, ichki daromaddorlik me'yori, xarajatlarning qoplanish muddati ko'rsatkichlaridan foydalanish talab etiladi.

2. Kapital qiymati tushunchasi

Milliy iqtisodiyot darajasida ham, iqtisodiy sub'ektlar darajasida ham yangi investitsiyalarni amalga oshirish uchun pul mablag'larini (pul kapitalini) topish zaruriyati paydo bo'ladi. Bu pul mablag'lari investitsiyalash to'g'risida qaror qabul qilishi bilan investitsiya kapitali shakliga ega bo'ladi.

Investitsiya kapitalining pul kapitalidan tub farqi shundan iboratki, loyiha tahlili asosida biron bir jarayonga, muayyan muddatga, muayyan maqsadda investitsiya kapitalini bog'lash to'g'risida qaror qabul qilinadi. Investitsiya kapitalini safarbar etilishida va investitsiya loyihasini amalga oshirish davomida muqarar ravishda aniq va noaniq (oldindan payqashning iloji bo'lmagan) risklar yuzaga keladi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbai tarzidagi kapital, o'zining mikdoran cheklanganligi, tanlovchanligi, saylanmaligi, ko'chuvchanligi va qaltisligi tufayli soliq, valyuta, savdo siyosati va faoliyat muhitidagi boshqa elementlarning o'zgarishlariga qarab hamda ular bilan bog'liq holda harakat qiladi. Investitsiya kapitali jahon miqyosida kamyob, cheklangan va uni u yoki bu hukumat qarori bilan ko'paytirib bo'lmaydi. Hamma joyda investitsiya faoliyatiga bog'lanadigan kapitalga talab katta.

Shu sababli har qanday investorning investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun safarbar etadigan pul shaklidagi kapital qiymati kamida ikki omilga bog'liq bo'lgan o'rtacha tortilgan mikdordan iborat bo'ladi. Bular:

- kapital manbalarining har birining narxi, ya'ni ularning egalari foydalanish huquqi uchun talab qiladigan daromaddorlik;
- moliyalashtirish manbalarining umumiy yig'indisida har bir manbaning hissasi.

Kapital qiymatini baholash, uning tanlov narxini (foydalanish qiymatini) yoki uning ishlatishning muqobil qiymatini ifodalaydi.

Demak, **investitsiya kapitali qiymati kapital egalarining talabini qondirish uchun zarur bo'lgan foydadan iboratdir**. Bu kapitalning sof joriy qiymati esa investorlar qarz

oluvchiga beradigan mablag'larni xuddi shu foyda bilan birga qaytarishi uchun qoldirishga rozi bo'ladigan mablag'dan iborat bo'ladi.

Jahon amaliyotida investitsiyalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan **kapital qiymatini baholashda** kapitalning o'rtacha tortiladigan hamda **marjinal qiymatlaridan** foydalaniladi.

Moliyalashtirishda amalda bir qancha resurslar manbalari qatnashishi munosabati bilan investitsiya kapitali (moliya resurslari) qiymati o'rta hisobdagi rentabellik darajasini ta'minlash zarurati ta'sirida shakllanadi.

Shunday qilib, *investitsiya kapitali qiymatini baholash* joriy qiymatni diskontlash usulini qo'llashga asoslanadi, investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning asosiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi hamda asosan, **qimmatli qog'ozlar bozori orqali pul resurslarini jalb qilishga qaratiladi**. Investitsiya resurslari qiymatini baholash bilan investitsiyalash sub'ektlarining investitsiya imkoniyatlari aniqlanadi va ularning o'zgarishlari, qonuniyatlari topiladi.

Investitsiya resurslari qiymatini baholashning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

1. Statistik usullar. Bu usullarda vaqt omili hisobga olinmaydi yoki to'liq darajada hisobga olinmaydi. Bularning uchta usullari mavjud:

- xarajatlarni taqqoslash;
- foydani taqqoslash;
- rentabellikni taqqoslash (investitsiyalar bilan bog'liq risklarni aks ettiradigan xarajatlarning qoplanish usuli).

2. Dinamik usullar. Bu usullarda to'lovlar va tushumlarning vaqt bilan bog'liqligi hisobga olinadi.

1. **O'sgan qiymat usuli.** Bu usul o'z kapitalidan muqobil foydalanishni nazarda tutadi.

2. **Diskontlash usuli.** Bu usul hozirgi paytgacha o'tkazilgan barcha to'lovlarni oldindan belgilangan foiz stavkasi bilan muvofiqlikda olib qaraydi va tushumlarning real miqdorini aks ettiradi.

3. **Annuitet usuli.** Bu usul muayyan yillar davomida bir xil summadagi to'lovlar oqimini o'rganadi.

4. **Ichki foiz stavkasi usuli** (ichki daromadlilik me'yori yoki ichki foyda me'yori yoxud ichki rentabellik me'yori). iqtisodiy adabiyotlarda u yoki bu atamalar uchraydi.

5. Xarajatlarning qoplanishi dinamik usuli statistik usuldan sof pul oqimlarini diskontlashni nazarda tutishi bilan farq qiladi.

O'zbekiston sharoitida investitsiya resurslari qiymatini baholash paytidagi hisob-kitoblarda bank foiz stavkasi, qayta moliyalash stavkasi, valyuta kurslari, soliq imtiyozlari, shuningdek, jadallashtirilgan amortizatsiyadan foydalanishni nazarda tutish lozim.

3. Kapitalning ayrim elementlari qiymati

Kapital qiymatini aniqlaganda marjinal daromad va marjinal xarajatlarni taqqoslash zarur. **Kapitalning marjinal qiymati deganda investitsiyadan keladigan daromadning umumiy yig'indisidagi o'zgarishlarni (yangi investitsiyalarni hisobga olgan holda) investitsiyalar uchun zarur kapital yig'indisi nisbatiga aytiladi.**

Shunday kilib, investitsiya resurslari qiymati kapital elementlari narxlarining o'rtacha miqdori sifatida tashkil topadi.

Investitsiyalarni amalga oshirayotgan korxonalar qarz vositalari qiymati yangi jalb etilgan kreditlar bo'yicha effektiv foiz stavkasiga teng bo'ladi.

Imtiyozli aksiyalar yordamida tashkil topayotgan kapital qiymati bitta imtiyozli aksiyadan keladigan yillik dividendni bitta imtiyozli aksiya narxiga nisbatiga teng bo'ladi.

Sof foyda bo'yicha daromadlilik modelida soliq to'lashdan keyin koladigan korxonalar foydasini dividendlar sifatida taqsimlanadigan foyda asos kilib olinadi.

Mavjud kapital qiymati. Investorlar uchun lozim bo'ladigan daromadlilik miqdorini aniqlagandan so'ng korxonalar o'zi va investorlar foydasini ta'minlay oladigan daromadlilik darajasini baholashi lozim.

Yangi jalb etilayotgan kapital qiymati. Agar korxonaga uchun shaxsiy kapital etarli bo'lmasa, u tashqi manbalardan o'zining qimmatli qog'ozlari emissiyasi hisobiga kapitalni jalb qilishi mumkin. Faqat shuni nazarda tutish kerakki, emissiya loyihasining daromadlilik darajasi mavjud kapitalga qaraganda ancha yuqori bo'lishi kerak.

Investitsiya loyihasini ishlab chiqishda tashqi yoki ichki moliya manbalarining qaysi biridan foydalanishi korxonaga uchun ratsional bo'lishini hisobga olish lozim. Shaxsiy kapitalni o'stirish manbalari sifatida aksiyalar, qarz majburiyatlari, konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar bo'lishi mumkin. Tashqi qarz kapitalni jalb etish manbalaridan foydalanilganda aksioner kapitalni kengaytirish zayomlar, obligatsiyalarni chiqarishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Investitsion resurslarni tashkil etish turli strategik yo'nalishlarini aniqlang?
2. Investitsion resurslarga bo'lgan umumiy talabni prognozlash usullari qaysilar?
3. Investitsiya loyihalarini zamonaviy moliyalashtirish usullarini aniqlang?
4. Investitsion resurslarni tashkil etish manbalari qaysilar?
5. Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda sof diskontlangan daromad usuli mohiyatini tushuntirib bering?
6. Investitsiya qarorlarini qabul qilishda qanday omillarni hisobga olishga to'g'ri keladi?
7. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish qanday usullar bilan amalga oshiriladi?
8. Ishlab turgan korxonani xarid qiymati qaysi usullar bilan aniqlanadi?

18. INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH

Innovatsiya – yangilik yaratish (ingl. innovation — yangilik yaratish, joriy etish)

Innovatsiyaning turlari va maqsadi

- Korxonaning ishlab chiqarish jarayonlariga texnik va texnologik yangiliklar kiritish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini kengaytirish evaziga korxonaning foyda olish darajasini oshiradi.
- Yangi mahsulot yoki xizmat turlarini joriy etish uchun sohaga investitsiyalarni jalb etish orqali korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi.
- Ilgari mavjud bo'lmagan yangiliklarni, ihtirolarni, izlanmalarni va talabni qondirishning yangi metodlarini joriy etadi.
- Innovatsiya yangi texnika va texnologiyalarni rivojlantirish, ishlab chiqarishning yangi zamonaviy turlarini o'zlashtirish (va x.k.) uchun jalb etilgan kapitalga moddiy tus beradi (mujassamlashtiradi)

Innovatsiyaning manbalari

- Mavjud texnologiyalarni va bilimlarni chetdan kiritish, ularni mahalliy sharoitlarga moslashuvi
- Sohaga yangi bilim, izlanma va texnologiyalarni nafaqat mahalliy talab ehtiyojlar darajasida balki katta masshtablarda kirib kelishi

-

Innovatsion loyihalarning rivojlanish bosqichlari

1. Boshlang'ich etap
2. Startap
3. Ilk o'sish
4. Kengayish
5. Loyihadan chiqish

1. Boshlang'ich etap – bu bosqichga ilk ilmiy izlanmalar kiradi

2. Startap – ilmiy izlanmalarning timsoli (maketi) yaratiladi va bozor o'rganiladi

3. Ilk o'sish – izlanmalardan namuna yaratiladi ishlab chiqarishni kengaytirish mumkinligi o'rganiladi

4. Kengayish – loyihalar amaliyotga tadbiiq etiladi va bozorga ta'siri o'rganiladi

5. Loyihadan chiqish – loyihalarni investorga sotish

INNOVATSION LOYIHALARNING MAMLAKATLAR YaIMDAGI ULUSHI

Amerikada	34 %
Yaponiyada	24 %
yevropa davlatlarida	18 %
Rossiyada	0.7 %

Innovatsion loyihalarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash

Innovatsiyalarni - raqobatni kengaytiruvchi milliy iqtisodiyotni uzoq muddatga rivojlantirish omillaridan biri ekanligi sababli uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash lozim.

Shu bois ko'p mamlakatlarda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi fondlar va jamg'armalar tashkil etilgan.

Turi	Maqsad	Masalan
1. To'g'ridan-to'g'ri kapital yo'naltirish		
Hukumatning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari	Hukumat to'g'ridan-to'g'ri venchurlik fondlariga yoki kichik biznesga mablag'larni yo'naltiradi	Belgiya – Investment Company for Flanders (GIMV)
Davlat kredit mablag'lari	Uzoq muddatli, imtiyozli kredit mablag'larini va beg'araz mablag'larni kichik biznesga yoki venchurlik fondlariga yo'naltiradi	Daniya – VaekstFonden (Business Development Finance) Loan Programme

2. Moliyaviy imtiyozlar		
Soliq imtiyozlari	Kichik biznes yoki venchurlik fondlariga sarflangan mablag'lar doirasida soliq imtiyozlari beriladi	Buyuk Britaniya – Enterprise Investment Scheme and Venture Capital Trusts
Kafolatlangan qarzlilar	Kichik biznes korxonalariga sarflangan mablag'lar doirasida ma'lum shart-sharoitlar evaziga banklarda qarz depozitlari ochish	Fransiya – Societe Francaise de Garantie des Financements des Petites et Moyennes Enterprises (SOFARIS)

Respublikamizda ham innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2008 yilning 15 iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-916 sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "Texnologiyalar transferi agentligi" tashkil etilgan va ushbu agentlik zimmasiga yangi texnologik ishlanmalar va ilmiy g'oyalarni moliyalashtirish vazifasi yuklatilgan.

19. Nomoddiy aktivlarni moliyalashtirish

Investitsiyalar xarakatdagi va kuchmas mulk, texnologiyalar va xokazolarning nomoddiy aktivlari (litsenziyalar, patentlar) kurinishida xam amalga oshirilishi mumkin.

Kup operatsiyalarda «investitsiya» pul mablag'larini qo'yishga aytiladi. Amaliyotda xar doim xam shunday bulavermaydi. Investitsiyalash boshqa formalar kurinishda xam amalga oshiriladi.

Misol: korxonada ustav kapitaliga badal kurinishdagi kuchar va kuchmas mulkka, qimmatli qog'ozlarga, nomoddiy aktivlarga ulushi xisoblanadi.

Xaqiqiy investitsiyalar deganda xaqiqiy aktivlarga qo'yilgan mablag' tushunilib- moddiy va nomoddiy kurinishda buladi (ayrim xollarda nomoddiy aktivlarga qo'yilgan mablag' ilmiy texnik rivojlanishga asoslangan bulsa uxolda bu innovatsion investitsiya xam deyiladi). Xaqiqiy investitsiyalar kapital qo'yilma shaklida amalga oshadi.

Xaqiqiy loyixalarga qo'yilgan investitsiyalar-vaqtlar buyicha uzoq muddatli jarayondir. Shu sababli baxolash jarayonida quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- loyixaning riskliligiga-xarajatlarni koplash muddati kancha uzoq bulsa uning investitsion riskliligi shuncha yuqori buladi:

- pulning vaqtinchalik qiymati vaqt utishi bilan inflsiya natijasida uning kadri-qiymatini yukotishi:

- loyixaning jozibadorligi boshqa variantlarga nisbatan qo'yilgan kapitalni daromadlilik darajasini kompaniya aksiyasi kurs qiymatini risklilik darajasi kamrok bulgan sharoitda imkoniyat darajada oshirish, investor uchun bu maqsadni aniqlash imkoniyatini mavjudligi.

1. Moliyalashtirishmi rejal ashtiri sh

Molshshshpirishni rejalashtirshp asoslari. Likvidlikni rejalashtirish.

Likvidpikni rejalashgirishning maqsadi va mazmuni. Daromad va xarajatlar balansi.

Daromadaar va xarajatlar balansining maqsadi va mazmuni. Balanslar.

Balansning maqsadi va mazmuni. Ko'rsatkichlar taxdyuga. Shaxsiy kapital ulushi. Likvidaik.

Cash flow (naqs pul oqimi). Aylanma vositalar rentabelligi. Shaxsiy kashggal rentabelligi. Investitsiyapar.

2. Moliyalashtirish

Kashggalga bo'lgan ehtibj va uvdan foydalanish. Moliyalashtirish vositalari. O'tmshodagi modiyalashtirish.

Tadqiqotlarni tashkil etishning Amerika tajribasi - tavak- kalchnlikli (venchurli) bshyaes deb nom olgan tadbirkorlik turini yuzaga keltirdi.

Venchurli biznes tadqiqotlar, ishlanmalar, mi mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mustaqil kichik firmalardan tashkil top- gan bo'ladi. Ularni tadqiqotchi olimlar, muhandislar, novatorlar tappsil etadi. Buvday firmalar AQSh, G'arbiy Nvropa va Yaponiada keng tarqalgan.

Kichik jamoa yangi g'oyalarni tezroq o'zlapggirishi va rivojlaniti- 'rishi mumkin.

Kichik tadqiqot biznesi 60-yshsharda shakplana boshlagan.

Kichik va o'rta tadqiqot firmalari, misol uchun, yirik universi- tet markazlari yaqinida tashkil eggilgan. Ular birgadakda yerni ijara- ga olishgan va universitetning laboratoriya va axborot texnikasidan foydalanganla^Shu tarzda AQShning Stenford universiteti yaqini- da 3 mingdan orgiq kichik elektron firmalar jamlangan bo'lib, ular- da band xodimlar soni 190-200 ming kipshga teng. Ularning har biri bir-ikky" turdagi yangya mahsulotni ishlab chiqshp va o'zlaggiryshga yo'naltirilgan bo'lib, ularning umumiy salmogi jahonning komp'yu- ter va elektron qismlarning ayrim turlaridagi extiyojini 20%ini qoplaydi [21],

Chet el amaliyotvda kichik va o'rta tadbirkorlikga ishchilar soni 500 kishigacha bo'ngan firmalarni kiritshpadi.

Venchurli firmalar kashfiyot faolliginivg o'sishi bosqichlarida o'z ishini olib boradi.

Venchurli firmalar, odatda, foyda keltirmaydi, chunki ular mah- sulot ipshab chiqarish bilan shugullanmaydi, balki o'z ishlanmalarshi boshqa firmalarga (eksplereng, patient, kommutan) berishadi.

Venchurli firmalar yirik kompaniyalarning sho'ba korxonalari sifatida faoliyag yurntipsh mumkin. Ular, odatda, kam soshsh xodim- lar shgatiga ega.

"" Innovatsiyaviy menejer funksiyalari an'anaviy menejer, yoki chet- dan taklif etilgai mutaxassis tomonidan amalga opshriladi. Misol uchun konsaltiyG firmasndan taklif etilganlar. J.

Venchurli firmalarni tashknl etshp quyidagilar mavjudligini nazarda tutadi:

- innovatsiya g'oyasi - yangi mahsulot, texnologiya;

- xamvyag ehtiyoji va tayushf etilgan *toya* asosvda yangi korxonalar tashkil etishga tayyor bo'lgan tadbirkor;
- bunday korxonalarini moliyalashtirish uchun tavakkalchilik ka- pitali.

Venchurli moliyapapggirish ikkiga asosiy shakllarda amalga oshiriladi - yangi korxonalar aksiyalarini sotib olish yoki turli xil kre- dityaarni ajratish vositasi yordamida.

Venchurli kapital degayda faqatgina yirik korxonalar mablaglari - muni emas, bapki banklar, davlat, sugurta, pensiya va boshqa jamg'arma- l'r mablaglarini ham tavakkalchiligi yukri bo'lgan sohalarga kiritish tushuniladi.

Investitsiyalarning boshqa shaxllaridan farqli ravshssa, ushbu shakl bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- investorning kompaniya kapitalidagi to'g'ridan-to'g'ri yoki vosi- tali pay ipggiroki;
- uzoq muddatga mablag bershp;
- investorning moliyashpgirilayoptan korxonalar boshqaruvidagi fashsh ishtiroki.

Tavakkalchepik kapitalining rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan AQShda uning asosiy sohalarini sifatida biznes rivojlanishining boshlang'ich bosqichlari e'tirof etiladi, venchur investitsiyalarining 39,2% ularning zimmasvga to'g'ri keladi [9].

Venchur korxonalarining turlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- xususiy tavakkalchilikga ega biznes;
- yirik korporatsiyalarning ichki tavakkalchilikka ega loyihalari.

Uz navbagada tavakkalchilikka ega biznes xo'jalik yuruguvchi sub- yektlarning ikyugga asosiy euriga ajratishsh mumkin:

Birinchi turi - mustaqil kichik innovatsiyaviy korxonalar.

Ikkinchituri - ularga kashggal taqdim etuvchi moliya muassasalari.

Kichiyus innovatsiyaviy korxonalar, fan va texnikaning yansh yutuqlarini moddiy manfaatdorilik bilan joriy etishga intilgan shshmpar, muhandislar, kashfiyotchilar tomonidan asos solinadi. Bunday korxonalarining boshlang'ich kapitali bo'lib asoschining shaxsiy mablag'lari xizmat qilishi mumkin. Shaxsiy mablag'lar yetmagan taq- dirda, tavakkalchilik kapital taqsim etishga tayyor bo'lgan ixgisos- lashgan moliyaviy kompaniyalarga murojaat qilish lozim bo'ladi- j AQShdagi bunday moliyaviy kompaniyalar soni XX- asrning 80- yillarida 500 tadan ko'prok, edi.

Tavakkalchilikli tadbirkorlikning o'ziga xosliga shundaki, mab- lag'lar qaytarilmaydigan va foizsiz asosda berilgan holda, kredit- lashdash kafolat ta'minoti ham talab qshshmaydi. Venchur korxonaga berilgan resurslar shartnoma amal qshshsh mudsati davomida qayga- rilmaydi. Kiritilgan mablaglarni qaytarish va foyda olish korxonalar qimmatli qog'ozlari bozorga chiqarilgandan so'ng amalga oshiriladi.

Foyda kattaligi tavakkalchilikli investorning ulushi bo'lgan korxonalar aksiyalarining bozordagi qiymati va loyixaga kiritilgan mablag'lar ayirmasiga teng bo'ladi. Investorning aksiya ulushi imzo- langan shartnomada aks ettirilgan bo'ladi, va u 80%gacha bo'lishi mum- kvn. Mohiyatan moliyaviy muassasa novator-korxonalar egalaridan bnriga aylanadi, tavidim etilgan mablag'lar esa korxonalar ustav foqsiga bo'lgan badaldek qabul qilinadi.

O'zbekiston iqqasodiyoti uchun venchur tadbirkorlikning istiq- bolli turlaridan hisoblanadi.

Venchur kapital qo'yilmalarning asosiy rag'bataantiruvchi omshsh bo'lib ularning, muvaffaqiyatga erishganda albatta, yuqori daromad- liligi xizmat qiladi. Amerika venchur korxonalarining o'rtacha daro- madlilik darajasi yiliga 20%ni tashkil etadi, va bu ko'rsatkich umu- miy iqqisodiyot bo'yicha 3 barobar yuqori.

Tavakkalchilikni pasaytirish uchun moliyalashtirishning pshik sxemalari ishlab chiqiladi. Kapital qo'yilmalar kuyidagi ikkita qoidadan kelib chiqqan holda vaqg oralig'iga bo'linadi:

1.Har bir yangi qo'yilma, uvdan oldingi qo'yilma o'zini oqpagan taqsihdagina amalga oshrviladi. Bu degani eksplernent mahsulotni yaratish yoki tijoratlashgishssa qatsdaydir natijalarga erishdi.

2.Har bir yangi qo'yilish oldingidan ko'proq va eksplernent uchun foydali shartlarda amalga oshrviladi.

Eksplernentlar - bozorning yangi segmentlarini yaratish yoki esxi segmentlarini radikal o'zgartirishga ixtisosdashgan korxonalar. Ular yangi mahsulotlarni bozorda ilgari surish bilan shu'lulpanadi.

Ilmiy-texnik ishlanmalar ustuvorlikka ega. Aodo, innovatsiyaviy biznes bu faqatgina shsh-fan yoki kashfiyotchilik bilan shu'lud; >8NIP1 degani emas.

⁸ Rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyaviy korxonalar, lo'liha- ning texnik tomoni muallifi bo'lgan muhandis, va tatsshshshy <amda tijorat ishlarida tajribaga ega bo'lgan menejer tomonidan ooshqa- riladi. O'z korxonasida yanshlikni amalga oshirish imkonshggiga ega bo'lmagan menejer, yangi g'oyaga kirishgan holda o'z ish joyyani tashlab yansh korxonaga asos soladi va mustaksl tadbirkor sifatida o'z g'oyala- rini amalga oshiradi. ■

Zamonaviy garb iqtisodiyotida venchur va eksplerent korxonalar ilmiy-texnik siljishlar uchun sharoit yaratadi. Eksplereng korxonalar venchur korxonalar kabi o'Ichami bo'yicha katta emas.

Bozorda ehtiyoj sezilgan yangi mahsulot yaratilgandan keyin, eks- plerent korxonalar oldqda ishlab chiqarish hajmi muammosi kelib yaiqa- di. Buning uchun eksplerenglar yirik korxonalar bilan alyans tashkil etadi. Eksplerent o'z innovatsiyaviy maqsulotini ommaviy tarzda mus- taqil shlab chiqara olmaydi. Ishlab chiqarishni ommaviy yo'lga qo'ymaslik esa turli xil o'xshash mahsulotlar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Iirik va kuchli korxonalar bilan ittifoq hosil qilish esa, foydali sharoit va qaysidir ma'noda o'z mustaqilligini saqash imkoniyagini beradi. Bunday hamkorlikni tanlash iste'mol xususiyatlaridan kelib chiqishi lozim.

ozorning tor seshentiga yo'naltirilganda - patient-korxonalar tashkid etiladi.

Patient-korxonalar bozorning tor segmentiga ishlagan holda, ular moda, reklama va boshqa vositalar ta'sirida shakllangan ehtiyojlarni qondiradi. Ular mahsulot ishlab chiqarish o'sishi hamda kashfiyotchilik faolligi pasayishi bosqichlarida faoliyat ko'rsatadilar. Ushbu korxonalar mahsulot sifatini va hajmlariga bo'lgan talablarni bozorlarni egallash muammolari bilan bog'liq bo'ladi. Bunda ishlanmalarni amalga oshirish yoki to'xtatish, litsenziyalarni sotish yoki xarid qilish to'g'risida qaror qabul qilish ehtiyotli bo'lishi lozim. Patient-korxonalar foydali. Shu bilan birga inqirozga olib kelishi mumkin bo'lgan noto'g'ri qaror qabul qilinishi xavfli ham mavjud. Bunday korxonalarda, ularning faoliyatini xavfsizligini ta'minlovchi iniyuvsiyaviy menejer lavozimini kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Innovatsiyaviy menejmentning asosiy **maqsadi - korxonalar hayotiy faolligini oshirish va xodimlar ishi** uchun quliy sharoitlarni yaratishdir.

7-ilova.

Innovatsion jarayon kengroq tushuncha bo'lib, quyidagi nuqtalardan nazarlardan ko'rilishi mumkin.

Birinchidan, uni ilmiy tadqiqot, ilmiy-texnik, innovatsion, ishlab chiqarish faoliyati va marketingning parallel ketma-ketligi tarzida amalga oshirishi sifatida ko'rish mumkin.

Ikkinchidan, uni yangiliklarni kiritish hayotiy davrining bosqichlari sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Uchinchidan, uni ishlab chiqilmalar va yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatishni moliyalashtirish hamda investitsiyalash jarayoni sifatida ko'rish mumkin. Bunda u innovatsion loyiha kashrinishida namoyon bo'ladi.

20. INVESTITSYAVIY LOYIHALARNI TAYYORLASH

Tayanch iboralar: biznes-reja, YUNIDO, marketing rejasi, ishlab chiqarish rejasi, tashkiliy reja, moliyaviy reja.

1. Investitsiyaviy boshqaruvda biznes-rejaning roli va o'rni.

Biznes-reja (BR) – bu jahon xo'jalik amaliyotida umumiy qabul qilingan, tadbirkorlik taklif va loyihalarini taqdim etish shaklidir. Biznes-reja tashkilotning ishlab chiqarish, savdo va moliyaviy faoliyati to'g'risida batafsil axborotdan iborat bo'lgan holda, investitsiyaviy loyiha barcha ishtirokchilarining istiqbollari, sharoitlari va hamkorlik shakllarini ham atroflicha baholaydi.

Rejalashtirish zarur ekanligining uchta asosiy sababini ajratib o'tish mumkin:

- biznes-reja tuzish jarayoni, g'oyani asoslashni o'z ichiga olgan holda, loyihaga ob'ektiv va xatirlarsiz nazar tashlash imkonini beradi. Reja mumkin bo'lgan hatolarni oldini olish, va loyihaning

maqsadini to'liq anglashga yordamlashadi. Bu chegaralangan resurslar makonidagi harakatlar va ustuvorliklarning qat'iy ketma-ketligini aks ettiruvchi yo'nalishdir.

- biznes-reja korxonani samarali nazorat qilish va boshqarishda katta yordam beruvchi ish qurolidir. Boshqaruv bo'yicha taniqli maslahatchi Piter Dryukkerning so'zlariga qaraganda «Nimaki rejalashtirilsa, shu bajariladi».

- Tugallangan biznes-reja Sizning g'oyalaringizni investorlarga yetkazishning eng ko'rgazmaviy vositasidir. Sifatli ishlab chiqilgan biznes-reja investorlarda yaxshi taassurot qoldirishi bilan bir qatorda, sizning qobiliyatingiz va kasbiy mahoratingizni ham aks ettiradi.

Hozirgi kunda biznes-rejaning ko'pgina shakllari mavjud. Quyida jahon xo'jalik amaliyotida eng ko'p foydalanadigan biznes-rejalar tuzilmasi keltirilgan.

2. Biznes-rejaning xalqaro shakli (YUNIDO, BMTning sanoatni rivojlantirish bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan)

1. Rezyume

2. Taklif etilayotgan loyiha g'oyasi (mohiyati)

Umumiy boshlang'ich ma'lumotlar va sharoitlar.

Yangi tovar namunasining ta'rifi.

Tadbirkorlik faoliyati tajribasini baholash.

1. Mahsulot sotiladigan bozorlarni baholash.

Yangi tovar iste'molchilarining ta'rifi.

Raqobatdoshlarni baholash.

Raqobatdoshlarga nisbatan o'z kuchli va o'jiz tomonlarini baholash.

2. Marketing rejasi.

Marketing maqsadlari.

Marketing strategiyasi.

Marketing rejasining moliyaviy ta'minlanishi.

3. Ishlab chiqarish rejasi.

Yangi tovar ishlab chiqaruvchisi.

Talab qilinadigan ishlab chiqarish quvvatlari va ularning mavjudligi.

Ishlab chiqarishning moddiy omillari.

Ishlab chiqarish jarayonini ta'riflash.

4. Tashkiliy reja.

Korxonada tashkiliy-huquqiy shakli.

Korxonada tashkiliy tuzilmasi.

Majburiyatlarning taqsimlanishi.

Hamkorlar to'g'risida axborot.

Biznes tashqi muhitining ta'rifi.

Korxonada mehnat resurslari.

Boshqaruv tarkibi a'zolari to'g'risida ma'lumotlar.

5. Moliyaviy reja.

Daromad va xarajatlar rejasi.

Pul tushumlari va to'lovlari rejasi.

Korxonada aktiv va passivlarining qo'shma balansi.

Zararsizlikka erishish grafigi.

Moliyalashtirish strategiyasi (mablag'lar manbalari va ularni sarflash).

Tavakkalchilikni baholash va sug'urta.

8. Ilovalar.

3. Germaniya namunaviy biznes-rejasi

1. Rezyume

2. Umumiy tarzda korxonani ta'riflash

Korxonaning oldingi faoliyati.

Korxonaning kelajagi.

Mulkchilik munosabatlari va shartnomalar.

3. Korxonaning asosiy pozitsiyalari va tashkiliy shakli

Korxonaning asosiy pozitsiyasi – maqsadini ifodalash.

Korxonaning tuzilmaviy tashkil etilishi.

Kadrlar tuzilmasi.

4. Mahsulot va xizmatlar

Mahsulot va xizmatlarning ta'rifi.

Mahsulot va xizmatlarning raqobat varaqasi.

Mahsulot va xizmatlarning hajmi.

Mahsulot va xizmatlar rivojlanishiga investorlarning munosabati.

Ishlab chiqarishni tashkil etishda yuridik yordam (patentlar).

Faoliyat yuritishga ruhsatnoma.

5. Bozor tahlili va sotuvlar prognozi

Mahsulot va xizmatlar bozorlarining umumiy ta'rifi.

Bozor (mintaqaviy, tarmoq) segmentlashuvining ta'rifi.

Aylanma vositalarning boshlang'ich hisob-kitoblari.

Mahsulot raqobatbardoshligining tahlili.

6. Sotuv

Mahsulot va xizmatlarni sotish strategiyasi.

Mahsulot va xizmatlarning narx strategiyasi.

Mahsulot va xizmatlar savdosini tashkil etish.

Savdo hajmini oshirish bo'yicha tadbirlar.

Savdo sohasida xodimlardan foydalanish.

Savdo xarajatlari.

7. Ishlab chiqarish

Mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish strategiyasi.

Mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish uslublari.

Mashina va uskunalar.

Ishlab chiqarishda xodimlardan foydalanish.

Ishlab chiqarish quvvatlari.

Materiallarni xarid qilish.

8. Moliyalashtirishni rejalashtirish

Moliyalashtirishni rejalashtirish asoslari.

Likvidlikni rejalashtirish.

Likvidlikni rejalashtirishning maqsadi va mazmuni.

Daromad va xarajatlar balansi.

Daromadlar va xarajatlar balansining maqsadi va mazmuni.

Balanslar.

Balansning maqsadi va mazmuni.

Ko'rsatkichlar tahlili.

Shaxsiy kapital ulushi.

Likvidlik.

Cash flow (naqd pul oqimi).

Aylanma vositalar rentabelligi.

Shaxsiy kapital rentabelligi.

Investitsiyalar.

9. Moliyalashtirish

Kapitalga bo'lgan ehtiyoj va undan foydalanish.

Moliyalashtirish vositalari.
O'tmishdagi moliyalashtirish.

10. *Ilova*

4. Amerika namunaviy biznes-rejasi

1. *Titul varaqasi*

- A) korxonasi nomi va manzili
- B) ta'sischi ismi-sharifi va manzili
- V) taklif etilayotgan loyiha mohiyati
- G) loyiha qiymati (moliyalashtirish manbalari ham ko'rsatilishi mumkin)
- D) loyiha maxfiylik

Loyihaning asosiy mohiyati va taxminiy qiymatini titul varaqasida aks ettirish tavsiya qilinadi, bunday ma'lumotga ega bo'lgan holda, investorlar butun rejani o'qimasdan turib uning mohiyatini anglashlari mumkin.

2. *Titul varaqa namunasi*

- A) «Ozoda-servis» kichik korxonasi
- Manzil: Toshkent sh.
Tel.: 485-85-85

Ta'sischi: Gulchehra Jalilova, Sanobar Salimova

Taklif etilayotgan loyiha mohiyati: «Ozoda-servis» kichik korxonasi tashkilot va muassasalar binolarida tozalik ishlarini olib boradi. Taklif etilayotgan xizmatlarga pol yuvish, gilam va pardalarni tozalash, kir yuvish, oyna yuvish va boshqa xo'jalik ishlari kiradi. Xizmatlar shartnomaga asosan bir yil muddatda amalga oshiriladi. Shartnomada ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati va davriyligi aniq ko'rsatilishi lozim. Korxonasi asosan kichik korxonalar va ofislardagi tozalik ishlarini bajarishga mo'ljallangan.

Loyiha qiymati: 6 yil muddatga 15 mln. so'mlik ssuda talab qilinadi. Ushbu mablag' xona ijarasi, ish qurollarini sotib olish, reklama, mikroavtobus ijarasi va boshqa joriy xarajatlarni qoplashga sarflanadi.

Maxsus hujjat maxfiy va korxonasi ta'sischi korxonasi mulki hisoblanadi. Hujjat faqatgina ta'sischi va ularning roziligi bilan olgan shaxslar uchun mo'ljallangan. Korxonaning yozma roziligini olmasdan turib hujjatdan nusxa ko'chirish va uni e'lon qilish man etiladi.

- B) Kirish qismi: taklif etilayotgan loyiha asosiy qismlari (3-4 bet).

Bu yerda tashkilot etilayotgan korxonasi nima bilan shug'ullanishi, qancha mablag' va nima uchun so'ralayotgani, mahsulot va xizmatga kutilayotgan talab darajasi, va tadbirkor nuqtai nazaridan nimaga aynan uning loyihasi muvoffaqiyatli bo'lishi to'g'risida aniq va ishonarli tarzda bayon qilish lozim.

3. *Tarmoqdagi umumiy vaziyat tahlili*

- A. joriy vaziyat va uni rivojlanish tendensiyalari

So'nggi yangiliklar to'g'risida ma'lumot berish tavsiya qilinadi.

- B. Potensial raqobatdoshlar

(ularning kuchli va ojiz tomonlarini, hamda mazkur loyihaga ta'sir etish darajasini aytib o'tish)

- V. Potensial iste'molchilar

Mazkur bo'limning namunaviy savollari:

1. Tarmoq bo'yicha so'nggi 5 yildagi savdo dinamikasi qanday?
2. Tarmoq bo'yicha qanday o'sish sur'atlari kutilmoqda?
3. Oxirgi 3 yil davomida tarmoqda paydo bo'lgan yangi korxonalar soni?
4. So'nggi vaqtda tarmoqda paydo bo'lgan yangi mahsulot turlari?
5. Potensial raqobatdoshlar: ular kimlar?
6. Nima hisobiga oldinga chiqish mumkin?
7. Raqobatdoshlarning ahvoli qanday: ular savdosining dinamikasi

qanday?

8. Raqobatdoshlarning kuchli va ojiz tomonlari nimada?
9. Potensial iste'molchilar: ular kimlar?
10. Sizning mahsulotingiz iste'molchilari doirasi, raqobatdosh korxonalar iste'molchilari doirasidan farq qiladimi?

4. Taklif etilayotgan loyiha mohiyati.

- A) Mahsulotlar
- B) Xizmatlar
- V) Ofis xonalari va jihozlari
- G) Ma'muriy va ishlab chiqarish personali
- D) Tadbirkor va uning hamkorlari to'g'risida ma'lumot

Mazkur bo'limning namunaviy savollari:

1. Qaysi mahsulot (xizmat) yoki tovarni ishlab chiqarish nazarda tutilgan?
2. Taklif etilayotgan loyiha to'g'risida umumiy ma'lumot bering (patent, savdo belgisi agarda mavjud bo'lsa)?
3. Korxonalar qayerda joylashadi?
4. Xona ta'miriga muhtojmi? Ta'mirlash ishlarining taxminiy qiymati qancha?
5. Bu shaxsiy xonangizmi yoki uni ijaraga olish rejalashtirilganmi?
6. Ushbu xona va uni joylashishi qulaymi?
7. Qaysi mutaxassislikka ega bo'lgan ishchilar lozim?
8. Ofis uchun qanday uskunalar lozim?
9. Ushbu uskunalar ijaraga olish mumkinmi?
10. Sizning tadbirkorlik tajribangiz bormi?
11. Sizning boshqaruv ishdagi tajribangiz bormi?
12. O'z xaqingizda ma'lumot bering: yoshingiz, mahsulotingiz, qiziqishlaringiz va h.
13. Nimaga siz tadbirkor bo'lishga qaror qildingiz?
14. Sizning muvoffaqiyatga ishonchingiz nimaga asoslangan?
15. Yangi mahsulotni ishlab chiqarish qaysi bosqichda turibdi?

5. Ishlab chiqarish rejasi

A) ishlab chiqarish jarayonining ta'rifi, qaysi operatsiyalarni boshqa korxonalar (subpudratchi) zimmasiga yuklash nazarda tutilgan.

- B) ishlab chiqarish xonalari
- V) mashina va uskunalar
- G) xom-ashyo yetkazib beruvchilar

Mazkur bo'limning namunaviy savollari:

1. Butun ishlab chiqarish jarayonini to'liq ta'riflab berish. Boshqa korxonalarga buyuriladigan ishlar ro'yxatini keltirish.
2. Ishlarning bir qismini bajaradigan korxonalar nomi va manzili.
3. Nimaga aynan shu korxonalar tanlanganini tushuntirib bering. Shartnomalar nusxasini keltiring.
4. Ishlab chiqarish oqimlari sxemasini keltiring (iloji boricha grafik shaklda).

6. Tashkiliy reja

- A) Mulkchilik shakli.
- B) Hamkorlar yoki asosiy paychilar to'g'risida ma'lumot.
- V) Hamkor (paychi)larning mas'uliyat darajasi.
- G) Korxonalar boshqaruvi a'zolari to'g'risida ma'lumot.
- D) Tashkiliy tuzilma, ishlarining taqsimlanishi.

Mazkur bo'limning namunaviy savollari:

1. Tashkil etilayotgan korxonaning mulkchilik shakli va unga asosan asosiy ta'sischi va ularning ulushlari to'g'risida axborot bering.

2. Boshqaruv a'zolarini sanab o'ting (ismi-sharifi, manzili, qisqa biografiyasi)

3. Moliyaviy hujjatlarga kim imzo chekish huquqiga ega?

4. Boshqaruv a'zolari o'rtasida vazifalar qanday taqsimlangan?

5. Boshqaruv a'zolarining oylik ish xaqi qanday? Mukofotlar va qo'shimchalar to'lash nazarda tutilganmi?

7. Tavakkalchilikni baholash

A) Korxonaning o'z tomonlari nimalardan iborat.

B) Yangi texnologiyalarni paydo bo'lish ehtimoli.

V) Muqobil (alternativ) strategiyalar.

Raqobatdoshlar, marketing va ishlab chiqarish siyosatidagi noto'g'ri hisob-kitoblar, boshqaruv kadrlarini tanlashdagi xatolar bularning barchasi havf tug'dirishi mumkin. Shuningdek, texnologik taraqqiyot har qanday yangilikni bir zumda tarixga aylantirishi mumkin. Bunday xavflar bo'lmagan taqdirda ham, «ular to'g'risida o'ylamaslik mumkin» degan fikrni asoslab berish lozim.

Ushbu omillarning bittasi xavf tug'dirgan holatdagi korxonaga strategiyasini oldindan ishlab chiqish foydali. Muqobil dastur va strategiyalarning mavjudligi, investorga, tadbirkor mumkin bo'lgan qiyinchiliklar to'g'risida habardorligi va ularga oldindan tayyorligi to'g'risida dalolat beradi.

8. Moliyaviy reja

A) Kamida uch yillik daromad va xarajatlar rejasi (birinchi yil oylar bo'yicha taqsimlangan holda). Ushbu rejaga kutilayotgan savdo hajmi, sotilgan tovarlar tannarxi va turli xil xarajatlar kiritiladi. Daromad solig'i stavkalarini bilgan holda, korxonaning soliqlardan keyingi sof foydasini hisoblash mumkin.

B) Uch yillik pul tushumlari va to'lovlar rejasi (birinchi yil oylar bo'yicha taqsimlangan holda).

V) Balans rejasi. Bu yerda korxonaga aktiv va passivlarini, tadbirkor tomonidan rivojlanish uchun kiritilgan mablag'larni va taqsimlanmagan daromadni aks ettirish lozim.

G) O'zini-o'zi qoplash nuqtasi (xarajat va daromadlar bir-biriga teng holat).

D) Mablag' manbalari va ularning sarflanishi.

Potensial investor nuqtai nazaridan moliyaviy reja ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u yangi korxonaning investitsiyaviy ehtiyojlarini asoslaydi va iqtisodiy nuqtai nazardan loyihani amalga oshirish qanchalik foydaliligi to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi.

9. Hovalar

A) Xat.

B) Shartnoma, litsenziyalar va h. nuxsasi

V) Boshlang'ich ma'lumotlar olingan hujjatlarning nuxsasi.

G) Yetkazib beruvchilarning preyskurantlari.

D) Boshqa ma'lumotlar.

29.5. Rossiya Federatsiyasida qo'llaniladigan biznes-reja namunasi

RF Hukumatining 22.11.1997 yildagi №1470 Qarori bilan kiritilgan.

1. Titul varaqasi

- korxonaga nomi va manzili;

- korxonaga boshlig'i;

- ismi-sharifi va telefoni;

- loyiha mohiyati (3-5 qator);

- qurilish tavsifi;

- smeta bo'yicha loyiha qiymati;

- qurilish yillari;

- loyihani moliyalashtirish (foizlarda):

a) o'z mablag'lari;

b) qarz mablag'lari (alohida-mahalliy va chet el);

- loyihani qoplanish muddati;
- davlat ekspertizalarining xulosasi;
- tijorat siri to'g'risida axborot.

2. Rezyume yoki loyihaning kirish qismi (3-4 bet)

- loyiha maqsadlari;
- loyiha mohiyati;
- mahsulot (xizmat) ustunliklari;
- mahsulotga kutilayotgan talab;
- muvoffaqiyatning asosiy omillari;
- kutilayotgan mahsulot eksporti yoki importni o'rnini bosish;
- talab qilinayotgan investitsiyalar;
- qarz mablag'larini qaytarish muddati;
- ijtimoiy masalalarni yechish (yangi ish joylarini yaratish, yo'llar va umumiy foydalanish kommunikatsiyalarini o'tkazish, uy-joy fondini kengaytirish, nogironlar mehnatidan foydalanish va h.)

3. Tarmoqdagi vaziyat tahlili (3-4 bet)

(bo'limning vazifasi: tarmoqni tavsiflash – rivojlanayotgan, barqaror, tushkunlikda).

- mintaq va mamlakatdagi umumiy ehtiyoj va mahsulot ishlab chiqarish hajmi;
- mintaq va mamlakatda mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha korxonaning kutilayotgan ulushi;
- potensial raqobatdoshlar, ularning kuchli va o'jiz tomonlari;
- so'nggi 3 yil davomida mahsulotning qanday va qaysi analoglari paydo bo'ldi.

4. Ishlab chiqarish rejasi

(bo'limning vazifasi: tanlangan ishlab chiqarish jarayonini asoslash va uning iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash)

- ishlab chiqarishni tashkil etishga bo'lgan maxsus talablar;
- asosiy uskunalarning tarkibi, yetkazib beruvchilari, yetkazish shartlari (ijara, xarid), qiymati;
- xom-ashyo va materiallar, yetkazib beruvchilar va o'rtacha narxlar;
- xom-ashyo va materiallar bilan ta'minlashning muqobil manbalari;
- amortizatsiya shakllari va me'yorlari;
- ishlab chiqarilishi mo'ljallangan mahsulot tannarxi;
- kapital qo'yilmalar tuzilmasi (qurilish-montaj ishlari, uskunalarning xarajatlari, boshqa xarajatlar);
- ishga tushirish va quvvatlarni o'zlashtirish muddatlari;
- ekologik va texnik havfsizlikni ta'minlash.

5. Marketing rejasi

(bo'limning vazifasi: tovarni sotish qiyinchiliklarga olib kelmasligini asoslash)

- so'nggi iste'molchilar;
- korxonaning monopolistmi?
- talab turi (tekis yoki mavsumiy);
- raqobat va raqobatdoshlarning tavsifi;
- mahsulotning qaysi xususiyatlari yoki qo'shimcha xizmatlari uni, raqobatdoshlarga nisbatan, ustuvorligini belgilaydi?
 - patentlash (tovarni ichki va tashqi bozorlarda himoyalash, korxonaning huquqlarini buzmaganda raqobatdoshlarning tomonidan xuddi shunday mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati);
 - texnologik o'zgarishlarning mahsulot tannarxiga ta'siri;
 - savdo xarajatlari;
 - mahsulot (xizmatlarni) sotish bilan bog'liq kapital xarajatlar;
 - raqobatdoshlarning qanday hatti-harakatlaridan qo'rqish lozim va ularga javob qaytarish strategiyasi?
 - mahsulot narxini asoslash;
 - savdoni tashkil etish (savdo jarayoniga jalb qilinadigan korxonalarni ko'rsatgan holda, savdo tizimini ta'riflash);
 - sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish;

- reklamani tashkil etish va reklama xarajatlari hajmi.

6. Tashkiliy reja

- korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli (hamkorlik shakli, ta'sisshilar va ularning ulushlari);
- aksiyalar (qancha chiqarilgan va yana qancha chiqarish ko'zda tutilgan);
- boshqaruv tarkibi, qisqa biografik ma'lumotnomalar;
- moliyaviy hujjatlarga imzo chekish huquqiga kim ega?;
- boshqaruv tarkibi a'zolari o'rtasida vazifalarning taqsimlanishi;
- loyihani mahalliy ma'muriyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.

7. Moliyaviy reja

- investitsiyalar hajmi;
- manbalar va davrlar bo'yicha loyihani moliyalashtirish hajmi;
- kreditlarni taqdim etish shartlari;
- pul oqimlarining harakati;
- daromad va xarajatlarning prognoz balansi;
- loyiha samaradorligi ko'rsatkichlari (qoplanish muddati, samaradorlikning ichki koeffitsienti va b.);
- balans tuzilmasini baholash (joriy likvidlik, o'z mablag'lari bilan ta'minlanishi va h.).

6. O'zbekistondagi investitsiyaviy iqlimga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

Investitsiyaviy iqlim - bozor islohotlarining to'g'ri yo'lda ekanligi va jahon hamjamiyatining mamlakatdagi mulkchilik huquqlari mustahkamliligiga bo'lgan ishonchining o'lchagichi sifatida xizmat qiladi. Bugungi kunda O'zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit yaratilgan. Chet el investitsiyalariga ega korxonalar (ChIK) qonun kafolatlari va sezilarli fiskal imtiyozlarga ega. Natijada, O'zbekiston iqtisodiyotidagi chet el kapitalining roli yildan yilga oshib bormoqda. Bu ChIKlarning sonini o'sishi, ularning YaMM, tashqi savdo aylanmasi va aholi bandligidagi ulushini oshishi bilan ifodalanadi. Shu bilan birga ChIKlar uchun import qilinadigan uskunalarning qiymat hajmi ularning mahsuloti eksporti qiymati hajmidan ancha yuqori. Ushbu muammoning yechimi, ChIKlar eksport faoliyatini kengaytirish uchun qo'shimcha rag'batlantirish choralarini joriy etishni talab qiladi.

Ma'lumki, har qanday mamlakatdagi investitsiyaviy muhit, birinchi navbatda mamlakatdagi *siyosiy barqarorlikka* bog'liq bo'ladi. Aynan ushbu omil, investorga bugungi kunni foydasini emas, balki uzoq kelajakni ko'zlagan holda investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. O'zbekiston investitsiyaviy iqlimining muhim xususiyati shundaki, mamlakatimiz Markaziy-Osiyo mintaqasidagi eng barqaror davlat bo'lib qolmoqda. O'zbekistonda ChIKlar faoliyatining qonuniy bazasini shakllantirish bo'yicha doimiy tarzda ishlar olib borilmoqda, bu esa investitsiyaviy iqlimning muhim tarkibiy qismidir. ChIKlar faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy bazasining asosida, 5 may 1994 yilda qabul qilingan «Chet el investorlari va chet el investorlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi va 30 aprel 1998 yilda qabul qilingan «Chet el investorlari huquqlarining kafolatlari va ularni himoyalash tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari yotadi. Bu qonunlar respublikada faoliyat yurituvchi chet ellik investorlar uchun tavakkalchilikni kamaytirishni nazarda tutgan bir qator tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, mamlakat boshqaruvi tomonidan amalga oshirilayotgan *makroiqtisodiy barqarorlik* siyosati ham muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi bilan yaxshi aloqalar o'rnatgan. Bunday aloqalar o'zaro hurmat va umumiy masalalarni konstruktiv xal qilish istagi poydevorida barpo etilgan.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich evolyutsion siyosati amalga oshirilishi jarayonida quyidagi natijalarga erishildi:

- iqtisodiyot tushkunligining oldi olindi va uning barqarorlashuviga erishildi;
- davlat byudjeti defitsiti ancha pasaydi, bu o'z navbatida inflyatsiyaviy jarayonlarni nazorat qilish imkonini berdi;

- iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini qayta qurish va rivojlantirishga yo'naltirilgan tuzilmaviy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda;

- davlat tasarrufidan chiqarish va privatizatsiya jarayonlari avj oldi.

Har qanday mamlakat investitsiyaviy muhitini tahlil qilishda, milliy valyuta konvertatsiyasi darajasiga muhim rol ajratiladi. Valyuta ayirboshlash kursi ustidan davlat nazoratining saqlanishi va xaridorlarni rasmiy chet el valyuta bozoriga kirishini ta'minlash O'zbekiston iqtisodiy siyosatining o'ziga xos xususiyatidir.

Mamlakatga chet el investitsiyalari kirib kelishiga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri, bank tizimining rivojlanmaganligidir. Xususan, investorlar nuqtai nazaridan, O'zbekistonda naqd va naqd pul operatsiyalarini o'tkazishni yaxshilash, moliyaviy bozorda raqobat muhitini yaratish ehtiyoji sezilarli.

So'nggi vaqtda investitsiyaviy muhitning muhim omili sifatida, chet el investorlari uchun yaratilayotgan imtiyoz va rag'batlantirishlar tizimi aks ettirilmoqda. Turli mamlakatlarda, chet ellik investorlar o'ziga xos imtiyozlar tizimi joriy etilgan. Bozor infratuzilmasi va huquqiy muhitni shakllantirish, muayyan vaqtni talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham ko'pchilik mamlakatlar, qulay investitsiyaviy muhitni shakllantirish masadida, vaqtinchalik choralar sifatida, chet el investorlari uchun ayrim imtiyozlar va rag'batlantirishlarni joriy etadilar. O'zbekiston hukumati tomonidan ChIKlarga katta moliyaviy imtiyozlar taqdim etilgan. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

-ChIKning o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari va unda ishlovchi chet ellik ishlovchilarining shaxsiy ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan mulk bojxona bojlaridan ozod qilinadi;

-respublika investitsiyaviy dasturiga kiritilgan loyihalarga kapital qo'yilmalarni amalga oshiruvchi ishlab chiqarish ChIKlari 7 yilgacha daromad solig'idan ozod qilinadilar;

-ishlab chiqarish ChIK lari Nizom jamg'armasida chet el investorlarining ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lsa, Nizom jamg'armasi kattaligiga qarab, ular uchun amaldagi soliq stavkalari kamaytiriladi;

-eksportga mo'ljallangan yoki import o'rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi, yangidan tashkil etilayotgan ChIK lar, agarda ularning ishlab chiqarish hajmining 25 foizdan ortig'ini bolalar tovarlari tashkil etsa, ishlab chiqarishni boshlagan vaqtdan 5 yil davomida daromad solig'idan ozod qilinadilar (keyingi yillarda esa, amaldagi daromad solig'i foiz stavkasi ular uchun 2 barobar kamaytirilgan);

-Nizom jamg'armasida chet el kapitalining ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lsa, ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga yo'naltirilgan daromad solig'idan ozod qilinadi;

-o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotni erkin konvertatsiyalanadigan valyutaga eksport qiluvchi, ishlab chiqarish ChIKlari eksport bojxona bojlari va boshqalardan ozod etiladilar.

So'nggi yillarda kuzatilayotgan asosiy tendensiya shundan iboratki, nafaqat rivojlanayotgan va postsotsialistik davlatlar, balki rivojlangan davlatlar ham chet el investorlari uchun yildan-yilga ko'proq imtiyozlarni taqdim etmoqda. Bu jahon bozoridagi kapital uchun olib borilayotgan raqobat kurashining yorqin isbotidir. Rivojlangan davlatlar moliyaviy imtiyozlarga asoslansa, o'tish iqtisodiyotidagi davlatlar birinchi navbatda fiskal imtiyozlarni taqdim etishadi.

Moliyaviy va fiskal imtiyozlarni o'zaro ajratishga bo'lgan bir nechta yondashuvlar mavjud. Bizning fikrimizcha YUNKTAD (UNCTAD) tomonidan taklif etilgan yondashuv eng xaqiqatga yaqinidir.

Ushbu yondashuvga muvofiq fiskal imtiyozlarga quyidagilar kiradi:

- soliq «ta'tillari», korxonalar muayyan muddatga bir yoki bir nechta (ayrim hollarda esa barcha) soliqlarni to'lashdan ozod etiladi;

- korporativ soliq (daromad/foйда solig'i) stavkalarini pasaytirish;

- import bojlaridan ozod qilish;

- reinvestitsiya imtiyozlari, foydani ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga yo'naltiriladigan qismini soliqlardan ozod etish;

- ijtimoiy dasturlar imtiyozlari, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish korxonalar xarajatlarini to'liq yoki bir qismini soliqqa tortish bazasidan chiqaradi.

Qo'llanilayotgan rag'batlantirish tadbirlarini tizimlashtirish, va demak ularning samaradorligini oshirish uchun, kapital qabul qiluvchi mamlakatlar hukumatlari tomonidan imtiyozlarni berish mezonlari ishlab chiqilgan. Fiskal imtiyozlarni taqdim etishning asosiy mezoni sifatida, iqtisodiyotning mamlakat uchun ustuvor bo'lgan sohalariga kapital kiritish xizmat qiladi.

O'zbekiston uchun, masalan, iqtisodiyotning barcha sohalaridagi asosiy ustuvorlik bu eksportga yo'naltirilgan yoki importni o'rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqarishdir. Ammo, jahonda ro'y berayotgan iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda «inson resurslari» va innovatsion tadqiqotlarga kiritiladigan investitsiyalar, XXI asrda yetakchilar qatorida bo'lishni istagan har qanday mamlakatning muhim ustuvorliklari qatorida bo'lishi lozim.

O'zbekiston hukumati chet el investitsiyalari uchun qulay bo'lgan me'yoriy-huquqiy bazani yaratishga intilmoqda. Ushbu maqsadni ko'zlagan holda «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonun (may 1994y.), Vazirlar Mahkamasining №55 qarori (yanvar 1996y.) 1996 yil 31 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi. Bu hujjatlarda O'zbekistonga xorijiy inves-torlarni kiritishga doir qarorlarning hukumat tomonidan qabul qilish jarayonlari bilan bir qatorda chet el investorlarining huquq va majburiyatlari majmui ham belgilab berilgan.

Xususiylashtirish jarayoni hukumatga qat'iylik bilan xorij investitsiyalarini jalb etish bo'yicha o'z maqsadlari jiddiyligini ko'rsatish imkonini beradi.

Ayrim korxonalar xorijiy investorlarda katta qiziqish tug'dirishi, shubhasiz. Agar adolat va professionallik bilan bir necha aktivlarni sotsa, unda hukumat xorijiy investorlarni to'laqonli hamkorlar sifatida jalb qilib, o'z maqsadlari jiddiyligini isbotlab beradi.

Ommaviy xususiylashtirish dasturiga qo'shimcha sifatida individuallik asosida ayrim yirik va muhim korxonalarni sotish imkoniyatlarini ko'rib chiqish mumkin.

Investitsiyaviy muhitni yaxshilashda xususiylashtirishning xorij tajribasi bir necha quyidagi jihatlariga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

1. Axborotning yetarli darajada emasligi, xorijiy investorlarning asosiy e'tiroziga sabab bo'ladi.

2. Individuallik asosida xususiylashtirish uchun korxonalarni puxta saralanishi oxir-oqibatda muvoffaqiyatga erishish uchun muhim ahamiyatga ega.

3. Qayta tashkil etish bo'yicha amalga oshiriladigan harakatlar, masalan, texnologiya almashtirish, mahsulotning yangi turlarini kiritish, yangi bozorlarni topish va shunga o'xshash ishlar bo'lajak mulkdor zimmasiga qo'yilgani maqsadga muvofiqdir.

4. Kompaniyani qayta tiklash bo'yicha rejalar uning sotilish narxiga qaraganda ko'proq qiziqtirishi lozim. Ayrim investorlar xususiylashtirishning asosiy maqsadi to'g'risida aniq tasavvurga ega emaslar.

5. Savdolarni ochiq tenderlar yoki boshqa raqobatli uslublar orqali vositachilarsiz, to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish lozim. Bunda yaxshi obro'ga ega bo'lgan maslahatchilar xizmatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, yirik qayta xususiylashtirish bitimlarini amalga oshirayotganda investitsiyaviy banklar va audit kompaniyalariga murojaat qilish kerak bo'ladi.

O'zbekiston, turli xil qonunchilik hujjatlarida aks ettirilgan, soliq rag'batlantirishlarining keng to'plamini taqdim etadi. Bundan tashqari, chet el investorlari qo'shimcha rag'batlantirishlarga ham ega bo'lishadi, ayniqsa, soliq to'lashdan ozod qilish davrini uzaytirish shaklida.

Shu bilan birga rag'batlantirishning oddiy va samarali usullari mavjud:

- barcha rag'batlantirishlarni olib tashlagan holda qonun tomonidan belgilangan korxonalar uchun foyda solig'i stavkasini pasaytirish;

- hozirgi rag'batlantirishlarni olib tashlagan holda, kamroq ixtiyoriylikka ega bo'lgan samaraliroq rag'batlantirishlarni joriy etish;

- rag'batlantirish sifatida vaqtinchalik soliq to'lashdan ozod etishni qoldirish, ammo uning ixtiyoriyligi va diskriminatsion xarakterini susaytirish.

Nazorat savollari:

1. Investitsiyaviy loyiha biznes-rejasining asosiy maqsadi nima?
2. Yetakchi davlatlarning namunaviy biznes-rejalaridagi asosiy farqlar nimada?
3. YUNIDO uslubiyoti bo'yicha ishlab chiqilgan xalqaro biznes-

rejaning asosiy punktlarini ayting.

21–mavzu. INVESTITSION LOYIHA TAHLILI

Tayanch iboralar: loyiha, loyiha davri, marketing, bozor, rahobat muhiti, texnik tahlil, moliyaviy tahlil, iqtisodiy tahlil, institutsional tahlil, tavakkalchilik tahlili, strategik investor.

1. Loyiha va loyiha davri tushunchalari.

Umumiy tarzda olganda loyiha – bu muayyan maqsadni ko'zlagan, korxonaga faoliyatini o'zgartirish to'g'risidagi maxsus tarzda rasmiylashtirilgan taklifdir.

Investitsiyaviy loyiha – cheklangan vaqt va cheklangan resurslar bilan muayyan maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan, o'zaro bog'liq va muvofiqlashtirilgan tashkiliy, texnik va investitsiyaviy tadbirlar majmuasidir.

Loyiha sifatida ko'p narsani qabul qilish mumkin: elevator qurish, mahsulot ishlab chiqarishning yangi texnologiyasini ishga tushirish, o'quv seminarlarini o'tkazish, traktorni ta'mirlash va h. Bunday tadbirlarning barchasi bir qator umumiy belgilarga ega:

- ular muayyan va aniq belgilangan maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan;
- bir qator o'zaro bog'liq hatti-harakatlarni amalga oshirishni nazarda tutadi;
- boshlanish va tugallanish vaqti aniq belgilangan bo'ladi;
- resurslarning cheklanganligi va tashqi sharoitlarning mavjudligi bilan (institutsional, iqtisodiy, huquqiy va h.) tavsiflanadi;
- resurslarni kiritish va natija olish jarayonlari o'zaro bog'langan, bunda bir martalik qo'yilmalar (vaqtning cheklanganligi) uzoq vaqt davomida natijalarga o'z ta'sirini ko'rsatadi;
- har biri takrorlanmas sharoitlarga ega va o'ziga xos.

Sanab o'tilgan belgilar loyihalarni boshqa turdagi tadbirlardan farqlash imkonini beradi; ularning mavjudligi tadbirni loyiha sifatida e'tirof etilishiga imkon beradi.

Loyihalarni, odatda, taktik va strategik loyihalarga ajratadilar. Strategik loyihalarga mulkchilik shaklining o'zgarishini nazarda tutadigan loyihalar kiradi. Taktik loyihalarga esa ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini o'zgarishi, mahsulot sifatini oshishi, uskunalarni zamonaviylashtirish bilan bog'liq loyihalar kiradi.

Mazkur loyihaga nisbatan investitsiyaviy faoliyatni tartibga solish jarayoni loyiha davri deb atalmish shaklda rasmiylashtiriladi, u quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Loyihani ifodalash (ayrim hollarda «identifikatsiyalash» atamasi qo'llaniladi).
2. Loyihani ishlab chiqish (tayyorlash).
3. Loyiha ekspertizasi.
4. Loyihani amalga oshirish.
5. Natijalarni baholash.

2. Investitsiyaviy loyihalar turlari.

Loyihaviy tahlilning ko'p yillik amaliyoti loyihalar ishlab chiqish tajribasini umumlashtirish imkonini beradi. Chet el amaliyotida uchraydigan investitsiyaviy loyihalarning asosiy turlari quyidagilardan iborat.

1. Mavjud tadbirkorlik faoliyati miqyoslarini o'zgartirmasdan, jismoniy eskirgan uskunalarni almashtirish.
2. Joriy ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish maqsadida uskunalarni almashtirish (ma'naviy eskirish).
3. Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish yoki xizmat ko'rsatish bozorini kengaytirish.
4. Yangi mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida korxonani kengaytirish.
5. Ekologik yuklamaga ega bo'lgan loyihalar.

6. Qaror qabul qilish mas'uliyati borasida muhim bo'lgan boshqa turdagi loyihalar.

3. Investitsiyaviy loyihalar tahlilining jihatlarini.

Investitsiyaviy loyihani amalga oshirish natijasida kutilgan ijobiy samaraga erishish uchun, asosiy talablarga amal qilinishini nazorat qilib borish zarur. Ushbu talablarga rioya qilish tahlili, loyihani muvoffaqiyatli amalga oshirishini, unga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritilishini yoki, ijobiy natijaga erishish mumkin bo'lmagan taqdirda, loyihadan voz kechish to'g'risida habar beradi. Eng muhimi bunday tahlil ko'p aspektlar nuqtai nazaridan amalga oshiriladi, chunki mavjud talablardan bittasining bo'lsa ham hisobga olinmasligi loyiha ishtirokchilari uchun salbiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Loyihani tizimlashtirish uchun quyidagi aspektlarni ajratish qabul qilingan:

- tijorat tahlili;
- texnik tahlil;
- ijtimoiy tahlil;
- institutsional tahlil;
- ekologik tahlil;
- moliyaviy tahlil;
- iqtisodiy yoki jamiyat samaradorligi tahlili.

Tijorat tahlili.

Tijorat tahlilining maqsadi – ishlab chiqarilishi mo'ljallangan mahsulot va xizmatlar bozorlari, hamda ishlab chiqarish uchun lozim bo'lgan moddiy va moliyaviy resurslar bozorlari nuqtai nazaridan loyiha istiqbollari baholashdir. Umuman olganda loyihaning muvoffaqiyati yoki inqirozga uchrashi, loyiha mahsuloti iste'molchilari, loyiha xizmatlaridan foydalanuvchilar, resurslarni yetkazib beruvchi va potensial investorlarga bog'liq bo'ladi.

Tijorat tahlili har doim bozorlarni o'rganishdan boshlanadi. Loyiha mahsuloti, uni amalga oshirish uchun lozim bo'lgan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning joriy kon'yunkturasini o'rganib bo'lgandan so'ng, tegishli bozorlarni rivojlanish tendensiyalari aniqlanadi va loyihaga tegishli ko'rsatkichlar dinamikasi prognoz (bashorat) qilinadi.

Bozorlar tahlili. Mahsulot bozori tahlilida quyidagi savollarga javob topish lozim:

- mahsulot qayerda sotiladi?
- mahsulot narxi tushib ketmasligi uchun bozorning sig'imi yetarlimi?
- agarda narx tushib ketishi aniq bo'lsa, u qanchalik tushib ketadi?
- yangi narxlarda loyiha moliyaviy nuqtai nazardan maqsadga muvofiq bo'ladimi?
- loyiha bozor umumiy sig'imining qanday ulushini ta'minlashi mumkin;
- yangi mahsulot ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun yetarlicha ishlab chiqarish resurslari mavjudmi?
- loyihada ishlab chiqarilayotgan mahsulotni qayta ishlash imkoniyatlarini oldindan ko'rib chiqish lozimmi, yoki uni qayta ishlash va marketingi uchun yangi loyiha tuzish maqsadga muvofiq bo'ladimi?
- mahsulotni bozorga olib chiqish uchun qanday moliyaviy tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi va marketingni moliyalashtirish uchun loyihada qanday maxsus choralarni oldindan nazarda tutish lozim?

- davlat subsidiyalarini olish yoki narxlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari qanday?

Resurslar bozori - narxlar kon'yunkturasini, moddiy-texnik va mehnat resurslari, uskunalari, xomashyo va materiallarning mavjud hajmlari va sifati nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Biznes-reja ishlab chiqish jarayonida loyiha tomonidan talab qilinayotgan yetkazishlarni (misol uchun, dehqonchilikda yangi texnologiya yoki tizimni joriy qilishda o'g'itlar, pestitsidlar va yuqori sifatli urug'lar) ta'minlash bo'yicha lozim bo'lgan tadbirlarni oldindan ko'rib chiqish lozim. Loyihani talab qilinayotgan resurslar bilan ta'minlash uchun yetarli bo'lgan bozor kanallarining mavjudligi va ularning o'tkazish qobiliyatini aniqlash; yetkazib berishlarning yangi kanallarini yoki mavjud kanallarni moslashtirish uchun maxsus tadbirlarni o'tkazish lozimligini aniqlash kerak. Xususan,

uskunalarni yetkazish bo'yicha adolatli narx belgilash uchun konkurs savdolarini o'tkazish qo'llaniladimi, xaridlar bo'yicha tavsifiy ro'yxatni kim tuzadi va h.

Moliyaviy bozorlarni o'rganish jarayonida loyihani amalga oshirish uchun qarz kapitalini jalb etish imkoniyatlari, moliyaviy resurslarning amaldagi narxlari, kreditlashning tipik sharoitlari tahlil qilinadi. Moliyalashtirishning eng qulay sxemasini tanlash uchun quyidagilar to'g'risida to'liq axborotga ega bo'lish lozim:

- investitsiyalarni uzoq muddatli moliyalashtirish uchun kredit resurslariga ega bo'lish imkoniyatlari;

- loyihani amalga oshirish jarayonida aylanma vositalarni to'ldirish maqsadida qisqa muddatli moliyalashtirish uchun kredit resurslariga ega bo'lish imkoniyatlari;

- kredit uchun (kreditlash turlari bo'yicha) o'rtacha, minimal va maksimal foiz;

- qarzni mumkin bo'lgan qaytarish muddatlari;

- imtiyoz berish shartlari (kreditlash davri, foiz to'lovlarini to'lash va h. bo'yicha);

- kafolat yoki garov ta'minoti taqdim etish zaruriyati.

Moliyaviy bozorning ushbu asosiy tavsiflaridan tashqari, resurs yetkazib beruvchilarning moliyaviy ahvolini va ushbu resurslarni xarid qilish uchun kredit olish imkoniyatlarini aniqlash lozim.

Bozorlar rivojlanishini prognoz qilish. Bozorlar tahlili va asosiy tendensiyalarni aniqlash jarayoni tugagandan so'ng, loyiha biznes-rejasini tuzishda foydalaniladigan, quyidagi ko'rsatkichlarning prognoz qiymatlari hisoblanadi:

- loyihada ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar narxi;

- asosiy resurslarning narxi;

- inflyatsiya darajasi;

- kredit uchun foiz stavkasi;

- loyihada ishtirok etayotgan valyutalarning ayirboshlash kurslari va h.

Prognoz turli xil uslublardan foydalangan holda (statistik, iqtisodiy-matematik, imitatsion va h.) loyihaning butun hayotiy davriga tuziladi. Mahsulot va resurslar narxlarini asoslashda, odatda, talab va taklif mutanosibligi modellaridan foydalaniladi.

Talab tahlili loyiha salohiyatini baholashning asosi hisoblanadi, shuning uchun bu ishga maksimal mas'uliyat bilan yondashish lozim. Loyiha mahsuloti uchun bozor o'z-o'zidan paydo bo'ladi degan fikr noto'g'ri bo'ladi. Bularning barchasi, talab tuzilmasini va uning narx, sifat va boshqa omillarga ta'sirchanligini aniqlash bilan birgalikda, qayta-qayta tekshirilishi lozim.

Hattoki eng batafsil tahlildan keyin ham talab prognozlari hato chiqishi mumkin, ayniqsa uzoq muddatli prognozlarda. Iste'molchilarning texnologiyalari, daromadlari, hatti-harakatlarini prognoz qilish doimo noaniqlik sharoitlarida amalga oshiriladi va shuning uchun ham juda murakkab hisoblanadi. Bundan tashqari, bunday prognoz uchun birlamchi ma'lumotlar aniq emas yoki umuman yo'q bo'ladi. Ixtisoslashtirilgan uslub bo'yicha ma'lumot yig'ish esa juda ham qimmat, va uning samaradorligini kafolatlash qiyin.

Bunga qaramasdan, tadbirkorlik amaliyoti doimiy tarzda uzoq muddatli oqibatlariga ega qarorlarni qabul qilishni taqozo etadi. Misol uchun, sug'orish tizimini barpo etish yoki suv omborini qurish yirik kapital qo'yilmalarni talab etadi, va amalga oshirilishi boshlangan loyihani katta yo'qotishlarsiz to'xtatish deyarli mumkin emas. Loyiha miqyosi, muddatlari yoki joylashuvini tanlashda yo'l qo'yilgan xatolar xal qiluvchi rolni o'ynashlari mumkin. Ishonchli prognoz (bashorat) qilib bo'lmaydigan vaziyatlarda esa, mutaxassislar voqealar kelajakdagi rivojlanishining mumkin bo'lgan ssenariylarini ko'rib chiqishlari shart.

Talab prognozlari ularga ketadigan xarajat qiymatini hisobga olgan holda amalga oshirish lozim. Ya'ni ikki turdagi xarajatlarni taqqoslash lozim: prognozni tayyorlash qiymati (shu jumladan, ma'lumotlarni yig'ish va to'ldirish xarajatlariga) va noto'g'ri prognozdan foydalanish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xarajatlar. Qaror qabul qilish birinchi navbatda kapital qo'yilma hajmiga bog'liq bo'ladi. Loyihaviy tahlilning boshqa jihatlari singari, prognozlarning murakkabroq uslubiyoti ishonchliroq axborot bilan ta'minlashi mumkin, ammo u ko'proq pul va vaqtni talab qiladi. Odatda, har bir loyiha shunday chegara mavjudki, axborot uchun undan yuqori xarajatlar o'zini oqlamaydi.

Boshqa barcha sharoitlar bir xil bo'lganda, tovarning bozor narxi va unga bo'lgan talab miqdori o'rtasida muayyan nisbat mavjud bo'ladi. Makroiqtisodiyotning ushbu aksiomasi bozorlar tahlili asosini tashkil etadi.

Narxdan tashqari talabga quyidagi muhim omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi:

- iste'molchilarning o'rtacha daromadi (ushbu ko'rsatkich oshganda talab ham oshishi kutiladi);
- bozor miqyosi (yirik shaxarlarda talab hamisha yuqori);
- o'zaro bog'liq tovarlarning narxi va ularni xarid qilish imkoniyati, bu ayniqsa muayyan tovarni o'rnini bosuvchi va to'ldiruvchi tovarlarga tegishli;
- iste'molchilarning didi, an'analari va istaklari;
- bozorning maxsus sharoitlari (misol uchun, kelajakdagi iqtisodiy o'zgarishlarni kutish – narx, inflyatsiya va h.).

Taklif egri chizig'iga ta'sir etuvchi omillarga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish xarajatlari;
- texnologik taraqqiyot;
- foydalaniladigan resurslar va xom-ashyo narxlaridagi o'zgarishlar;
- mazkur bozordagi firmalar miqdori;
- bozor tuzilmasi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillardan istalgan bittasining o'zgarishi, har qanday joriy narxda ham, taklif hajmining o'zgarishiga olib keladi. Xususan, taklif loyihani amalga oshirilishi munosabati bilan ham o'zgarishi mumkin. Misol uchun, sut qayta ishlash jarayonining kam xarajatli texnologiyasini joriy etish ishlab chiqarish xarajalarini kamaytiradi. Sut zavodi ko'proq mahsulot ishlab chiqargan holda, taklifni oshiradi va narxni pasaytiradi.

Loyihaviy tahlil loyihalarni ishlab chiqishda xal qiluvchi rolni o'ynashiga qaramasdan, unga xanuzgacha kam e'tibor qaratiladi. Har bir loyihaning muvoffaqiyati yoki muvoffaqiyatsizligini aynan bozor belgilaydi, shu sababdan ham loyihaviy tahlilning boshqa jihatlariga (aspektlariga) o'tishdan oldin, mahsulot va resurslar bozorlarini batafsil o'rganish lozim.

Texnik tahlil.

Texnik tahlilning asosiy masalalari bo'lib loyihaning optimal miqyosi, uning tarkibiy qismlari, joylashuvi, amalga oshirish muddatini aniqlash, texnologiya tanlash va boshqa texnik va texnologik masalalar xizmat qiladi. Ko'pgina hollarda eng qulay variantni tanlashda moliyaviy tavsiflarga asosiy e'tibor berilishiga qaramasdan, ekologik tavsiflar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnik tahlilda moliyaviy, ekologik, tijorat va boshqa tahlillarning natijalaridan foydalanilganligi sababli, tahlilning ushbu turi har doim boshqa tahlillar bilan parallel ravishda olib boriladi.

Loyiha miqyosi, deyarli barcha hollarda o'zgaruvchan kattalik bo'lib, loyihani ishlab chiqish jarayonida aniqlanadi. Qishloq xo'jaligi va sanoatda, loyiha miqyosi, birinchi navbatda mahsulotga bo'lgan talabga bog'liqdir. Loyihani amalga oshiruvchi tashkilot imkoniyatlari ham muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayrim hollarda foydalanilishi mo'ljallangan hududiy yoki tabiiy resurslar bo'yicha jismoniy cheklanishlar xal qiluvchi rolni o'ynashi mumkin.

Amaliyotda tekshirilgan texnologiyalarning mavjud bo'lmaganligi, odatda bosqichma-bosqich yondashuvdan foydalanishga olib keladi. Bunday yondashuv tadqiqotlar va moslashuvdan boshlangan holda, keyinchalik namunaviy loyiha va bir oz tajriba orttirilgandan so'ng to'liq miqyosdagi loyihagacha o'sib boradi. Shuningdek miqyos moliyaviy ko'rsatkichlarga ham bog'liq bo'lishi mumkin (misol uchun, loyiha ekspluatatsiyasi yoki uskunalarni davriy yangilash xarajatlari hajmiga). So'nggi natijani maksimumga olib keluvchi miqyos esa har doim optimal sanaladi.

Afsuski, loyiha miqyosini tanlash jarayoni faqatgina texnik nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi, va unda loyihaning moliyaviy va iqtisodiy jihatlari (aspektlari) e'tiborga olinmaydi. Bunday holatda, tanlangan miqyos natijalarni maksimumga olib kelishga yordam berishiga ishonish qiyin.

Loyihalarning tarkibiy qismi. Ko'pgina rivojlanish loyihalari, faoliyatning turli sohalari yoki turlariga mansub bo'lgan tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo'lishlari mumkin. Misol uchun, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan bog'liq loyiha, sug'orish va drenaj tizimlarini o'zlashtirish, turli xil

mahsulotlarni ishlab chiqarish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga ko'maklashish va h. o'z ichiga olgan bo'lishi mumkin.

Tahlilning birinchi darajali vazifasi – loyihaning turli tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashtirishdir. Maktab va tibbiyot muassasalarini barpo etish qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining unumdorligiga qandaydir munosabatda bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin.

Agarda loyiha tarkibiy qismlari o'zaro qalin bog'langan bo'lsa, individual tarzda xarajat va daromadlarni taqsimlashning ma'nosi yo'q; shuning uchun ham turli xil tarkibiy qismlar uchun daromadlilik stavkalarini alohida-alohida hisoblash kerak emas. Bunday holatda butun loyiha uchun sof samarani hisoblash, va keyinchalik, qaysi bir tarkibiy qism hisobiga uni oshirish mumkinligini ko'rib chiqish lozim.

Agarda loyiha tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqlik darajasi past bo'lsa, ularning har birini alohida tahlil qilish lozim. Buning uchun moliyaviy tavsiflardan ham foydalaniladi, bunda turli xil tarkibiy qismlar olinayotgan foyda nuqtai nazaridan o'zaro o'rinbosuvchi, to'ldiruvchi yoki mustaqil bo'lishlari mumkin.

Agarda loyihalarni birgalikda amalga oshirishning umumiy foydasi, ularni alohida amalga oshirishda olinadigan foydadan kam bo'lsa, bunday loyihalar *o'zaro o'rinbosuvchi* deb, aks holda *o'zaro to'ldiruvchi* loyihalar deb ataladi. Agarda loyiha mustaqil tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo'lsa, unda har bir tarkibiy qismni alohida amalga oshirishdan olingan foyda summasi, loyihaning umumiy foydasiga teng bo'ladi. Xarajatlarni nuqtai nazaridan ham o'xshash tahlil amalga oshirilishi mumkin.

Ayrim ko'p qismli loyihalar, xarajatlarni nuqtai nazaridan o'zaro to'ldiruvchi, foyda nuqtai nazaridan esa o'zaro o'rinbosuvchi bo'ladilar. Bunda moliyaviy tahlil, ko'p qismli loyihani amalga oshirishdagi xarajatlarning tejalishi umumiy loyiha samaradorligiga qay tarzda ta'sir ko'rsatishini aks ettirishi lozim. Bundan tashqari, ko'p qismli loyihalarning amaliy bahosi tahlilning texnik, texnologik, tijorat va boshqa jihatlarini ham e'tiborga olishi lozim.

Joylashuv. Loyiha joylashuviga ta'sir etuvchi omillar ham juda xilma-xil bo'lib ularni ham prognoz qilish lozimdir. Tabiiyki, so'nggi natijani maksimumga olib keluvchi joylashuv eng qulay hisoblanadi. Ko'pgina hollarda joylashuvni tanlash, turli xil fikrlar o'rtasida barchani qoniqtiradigan qarorga kelish zaruriyati bilan ifodalanadi. Har bir qaror o'z ustunlik va kamchiliklariga ega, ularni baholaydilar va eng yaxshisi tanlanadi.

Turli xil variantlar, quyidagilarning yaqinligi va qiymatini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi:

- qulay fizik tavsiflarga (yer tuzilishi, qurilish uchun sharoitlar va h.) ega yer uchastkasi;
- xom-ashyo va materiallar bozori;
- loyiha bo'yicha ishlab chiqarilishi nazarda tutilgan, mahsulot bozori;
- energiya manbalari;
- ishlab chiqarish infratuzilmasi (suv, elektr uzatish liniyalari, yoqilg'i, aloqa vositalari, avtomobil va temir yo'llar va h.);
- ijtimoiy infratuzilma (bolalar bog'chalari, maktablar, do'konlar, kasalxonalar va h.);
- ishchi kuchi (malakali, past malakali, malakasiz).

Tanlangan variant loyihaning barqaror amalga oshirilishini va minimal xarajatlarni bilan maksimal daromadga erishishini ta'minlashi lozim.

Loyihani amalga oshirish muddatlari. Loyihani amalga oshirish muddatlari loyihani tayyorlash jarayonida alohida ko'rib chiqiladigan masala hisoblanadi, chunki ularning optimalligi aniq asoslangan bo'lishi lozim. Loyiha taklif etayotgan mahsulotga bo'lgan talab, texnologiyalarning ahvoli yoki qandaydir qo'shimcha kapital qo'yilmalarning imkoniyatlari loyihani iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq qilish uchun yetarli bo'lmasligi va shu sababdan loyiha muddatidan ilgari ketgan bo'lishi mumkin. Ikkinchi bir tomondan, loyiha kechikib qolishi havfi ham mavjud.

Loyihaviy tahlil uslubiyotida *hisob davri* tushunchasi mavjud. Loyihaning investitsiyaviy, operatsiyaviy va moliyaviy faoliyati barcha turlarining natijalari bo'yicha moliyaviy oqimlar ushbu davr uchun hisoblanadi. Shuningdek, loyihani amalga oshirish mumkinligi mezonlarining qiymatlari, hamda tavakkalchilik va noaniqlikni baholash ham aynan shu davrga nisbatan amalga oshiriladi.

Hisob davri *qadamlarga* bo'linadi; har bir qadam uchun har bir pul oqimi bo'yicha qiymatlar aniqlanadi. Pul oqimlarining qadam qiymatlari yig'indisi, keyinchalik loyiha samaradorligi va amalga oshirish mumkinligini aniqlash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Hisob davri, odatda, vaqt bo'yicha loyihani amalga oshirishning hayotiy sikli bilan bir xil bo'ladi. Shu bilan birga loyihaning identifikatsiya va ishlab chiqish bosqichlarida loyihani boshlash va tugallash muddatlarini belgilash alohida e'tiborni talab qiladi, chunki loyiha bo'yicha qaror qabul qilish sifati ko'p jihatlari bilan aynan muddatlarni to'g'ri belgilashga bog'liqdir.

Hisob davrining boshlanishi sifatida, odatda, investitsiyaviy bosqich boshlanishi qabul qilinadi. Bu degani, barcha hisob-kitoblar kredit taqdim etish shartnomasi imzolangan vaqtdan yoki loyihani moliyalashtirish uchun birinchi transh o'tkazilgan vaqtdan boshlanadi. Agarda loyiha shaxsiy mablag'lar hisobiga moliyalashtiriladigan bo'lsa, hisob davri boshi sifatida loyihani amalga oshirish maqsadida kiritilgan birinchi moliyaviy qo'yilma vaqti qabul qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, loyihani amalga oshirishni boshlash bilan bog'liq bo'lgan, investitsiya ob'ektida ro'y bergan pul oqimlaridagi birinchi o'zgarish hisob davrining boshlanishidir.

Hisob davrining tugashi esa, odatda, loyihani likvidatsiya qilish (tugatish) jarayonidagi so'nggi hatti-harakat vaqtiga to'g'ri keladi.

Loyihani tabiiy tarzda tugatilishi, loyiha bo'yicha xarid qilingan uskunalar xizmat davrining tugashi yoki loyihada ishlab chiqarilayotgan mahsulot savdosining to'xtatilishi kabi, oldindan rejalashtirilgan sharoitlar sababli bo'lishi mumkin.

Loyihani tugatishning rejalashtirilmagan sabablariga esa avariyalar, halokatlar, chuqur iqtisodiy inqirozlar, bozor kon'yukturasiidagi kutilmagan o'zgarishlar kiradi. Albatta, loyiha samaradorligini tahlil qilishda, bunday holatlarning yuzaga kelishi mumkinligi faqatgina tavakkalchiliklarni baholashda hisobga olinadi va hisob davri tugallanishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

Texnologiya tanlash. Texnik tahlil loyihaning muhandislik nuqtai nazaridan ishlab chiqishning alternativ variantlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Xususan, agarda yangi mahsulot ishlab chiqarish yoki umuman yangi texnologiya joriy qilish nazarda tutilgan bo'lsa, odatda, bir nechta variantlardan tanlash imkoni paydo bo'ladi. Tanlovni amalga oshirishda maqsadga muvofiqlik va samaradorlik ko'rsatkichlari xal qiluvchi hisoblanadi. Mavjud bo'lgan texnologiyalardan, loyiha maqsadlariga eng to'la javob beruvchi, va ob'ektda shakllangan sharoitlarga muvofiq keladigani tanlanadi. Investitsiyaviy ob'ektda shakllangan sharoitlar deganda quyidagilar tushuniladi:

- mazkur texnologiya bilan ishlashi nazarda tutilgan texnik-muhandis kadrlarning va boshqa xodimlarning malakasi;

- uskunani qo'llashning texnik sharoitlari (energiya manbalarining mavjudligi, quvvati, kuchlanishi va elektr ta'minotining barqarorligi, amaldagi suv ta'minoti, kanalizatsiya va aloqa tizimlari va h.);

- texnologiya qismlarini joylashtirish imkoniyatlari.

Agarda ikki yoki undan ko'p texnik va texnologik variant, boshqa sharoitlar bir xilligida, teng foydani ta'minlaydigan bo'lsa, tanlov jarayonida umumiy xarajatlar minimumi mezonini qo'llash mumkin.

Institutsional tahlil.

(institutum – lotinchadan, «muassasa»)

Loyihani amalga oshirish natijalari ko'p jihatlari bilan, bir tomondan, uni amalga oshiruvchi tashkilotlarning ichki tavsiflariga, ikkinchi tomondan, loyiha amalga oshirilayotgan muhit (davlat iqtisodiy siyosati va tartibga solish tizimi, qonunchilik, davlat hokimiyati institutlari tizimi va h.) institutsional sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

Loyihaviy tahlilning institutsional tahlil qismi, loyihani amalga oshirishning tashkiliy va siyosiy sharoitlarni o'rganib chiqadi. Uning yo'nalishi quyidagilarga bog'liq tarzda shakllanadi:

- loyiha miqyosi (mamlakat, tarmoq, mintaqa, korxonalar, xo'jalik darajasi);

- loyihada ishtirok etayotgan kapital (davlat, xususiy, kooperativ va h.);

- ishtirokchilar tarkibi (soni, tashkiliy-huquqiy shakllari);

- loyiha vazifasi (jamiyat uchun ahamiyat kasb etuvchi, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun mo'ljallangan va h.).

Institutsional tahlilning maqsadi – loyihani amalga oshirishning ichki va tashqi institutsional sharoitlari sifatini baholash, hamda investitsiya qabul qiluvchi tashkilot imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha zaruriy tadbirlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Oxir oqibatda vaqtinchalik qurilmalar va maishiy xonalarni barpo etish, qurilish chiqindilarini olib tashlash, yangi ob'ekt hududini obodonlashtirish kabi xarajatlar ham muhim bo'ladi. Bunday tadbirlarni amalga oshirishning aniq grafigi yo'qligi va mas'ul shaxslar borasidagi noaniqlik ob'ektni topshirish muddatlarini ancha orqaga surishi va boshqa muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ichki institutsional sharoitlarning tahlili quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- loyihani amalga oshirish va korxonani boshqarishning uslublari va texnik vositalari (monitoring va natijalarni baholash shular jumlasidandir);

- korxonaning boshqaruv va tashkiliy tuzilmalari;
- rejalashtirish tizimi, investitsiyalarni rejalashtirishni o'z ichiga olgan holda;
- kadrlar va ularni tayyorlash;
- moliyaviy boshqaruv, buxgalteriya va audit;
- savdo-xarid faoliyatini tashkil etish tizimi;
- korxonaning ichki siyosati (strategiya va taktika);
- korxonada mustahkamligini baholash.

Korxonada qo'llanilayotgan boshqaruv uslublari, boshqaruv xodimlarining texnik qurollanganligi loyihani amalga oshirish jarayoniga, hamda uning joriy va so'nggi natijalariga samarali ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonada tashkiliy va boshqaruv tuzilmalari, ularning loyiha sharoitlariga mos kelishi tahlil qilinishi lozim. Misol uchun, korxonada loyihani boshqarish bilan shug'ullanadigan maxsus bo'lim tuzilganmi, yoki bu funksiyalar mavjud tuzilmaviy bo'limga berilganmi? Agarda bu funksiyalar mavjud bo'limga berilgan bo'lsa, ushbu bo'limning imkoniyatlari va boshqa bo'limlar bilan o'zaro munosabatlari, hamda uning boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimidagi roli tahlil qilinishi lozim.

Rejalashtirish tizimi ham, loyihani amalga oshirish maqsadlari uchun samaradorligi nuqtai nazaridan baholanadi. Rejalashtirish uslublari, davriyligi, sifati, qabul qilingan rejalar bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish yo'llari aniqlanadi. Bunda investitsiyalarni rejalashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Loyihani amalga oshirishning barcha bosqichlarida – identifikatsiyadan tortib to foydalanishga topshirishgacha – jalb etilgan kadrlar malakasi loyiha talablari va sharoitlariga javob berishi lozim. Xodimlar malakasi yetarli bo'lmagan taqdirda, ularni o'qitish, mutaxassislarni yollash, maslahatchilarni taklif etish bo'yicha tadbirlar rejalashtiriladi.

Moddiy va moliyaviy rag'batlantirish tizimi hisobiga ta'minlanadigan, xodimlarning umumiy va shaxsiy manfaatdorligi ham muhimdir. Tahlil jarayonida korxonada bunday tizim mavjudligi tekshiriladi va uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, xodimlar o'rtasida funksiyalarning to'g'ri taqsimlanganligi, har bir xodim uchun kasbiy o'sish imkoniyatlarining mavjudligi, xodimning umumiy ishdagi ishtirokdan ma'naviy qoniqish hosil qilishi baholanadi.

Korxonada tomonidan amalga oshirilayotgan moliyaviy siyosat, moliyaviy oqimlarni boshqarish, moliyaviy va hisobot hujjatlarini tayyorlashning sifati, to'g'riligi va davriyligi, shuningdek ichki va tashqi auditorlik tekshirishlarning natijalari ham institutsional tahlil ob'ekti hisoblanadi. Bu quyidagi ikkita asosiy maqsadni ko'zlagan holda amalga oshiriladi:

- korxonadagi moliyaviy boshqaruv va hisob tizimi loyiha talablariga qanchalik javob berishini aniqlash;

- topilgan kamchiliklarni yo'q qilish bo'yicha tadbirlar tizimini ishlab chiqish.

Savdo-xarid faoliyatining tahlili, savdo, xarid va ta'minot sohalaridagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini rejalashtirish imkonini beradi.

Yirik investitsiyaviy loyihalar, odatda, texnika va uskunalarni xarid qilishni maxsus shartlar bilan (misol uchun tender asosida savdo o'tkazish) amalga oshirishi ko'zda tutilgan bo'ladi. Loyihani amalga oshiruvchi korxonada bunga tayyor bo'lishi lozim. Shuning uchun ham institutsional tahlil

davomida, korxonada bunday vazifalarni bajarish uchun yetarli tajribaga egaligi, mutaxassislarni jalb qilish zaruriyati va boshqa tashkiliy masalalar muhokama qilinadi.

Loyihani muvoffaqiyatli amalga oshirishiga korxonaning o'ylab amalga oshirilgan ichki siyosati yordam berishi mumkin. Tahlilning bu qismi, korxonada rivojlanishi strategiyasi va uni amalga oshirish taktikasini o'rganishga yo'naltirilgan bo'ladi. Mazkur strategiya va taktikaning loyiha maqsadlariga muvofiq kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Korxonada mustahkamligini baholash uchun, uning bozordagi o'rini, rentabelligini, moliyaviy barqarorligini aniqlash imkonini beruvchi moliyaviy tahlil uslublaridan foydalaniladi.

Loyihani amalga oshirish natijalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi institutsional sharoitlarning tahlili, quyidagi ikkita asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi:

- barcha pog'onalardagi davlat siyosatining tahlili. Amaldagi qonunlar va tartibga solish siyosatining loyiha natijalariga ta'siri baholanadi. Xususan, atrof muhitni himoya qilish, soliqqa tortish, narxlarni tartibga solish, dotatsiyalar, xalqaro savdo qoidalari, valyuta ayirboshlash siyosati va hokazolar ko'rib chiqiladi;

- investitsiya qabul qiluvchi korxonaning boshqa korxonalar, jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, hokimiyat institutlari, tarmoq muassasalari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarining tahlili. Bundan asosiy maqsad loyiha uchun foydali bo'lgan o'zaro munosabatlarni va ularni rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlashdir.

Ijtimoiy tahlil.

Ijtimoiy tahlilning asosiy vazifasi – loyiha maqsadlarining, u amalga oshiriladigan ijtimoiy muhit manfaatlariga muvofiq kelishi darajasini aniqlashdir. Loyihani jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini ta'minlovchi tadbirlar lozim, shu jumladan aholi ijtimoiy ahvolda o'zgarishlarni rag'batlantirish yo'li bilan ham. Loyihaviy tahlilda ijtimoiy tahlil bo'lmagan vaziyatlarda, loyiha u bilan bevosita va bilvosita bog'liq bo'ladigan aholi ijtimoiy guruhlarini emas, balki faqatgina loyihani ishlab chiquvchilar tomonidan baholanadi.

Ijtimoiy tahlil, loyihaviy tahlilning boshqa jihatlari singari, investitsiyaviy loyihani baholashga bo'lgan yagona integratsiyalashgan yondashuvning muhim va ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, loyiha xayotiy siklining barcha bosqichlarini qamrab olishi lozim.

Ijtimoiy tahlil quyidagi to'rtta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

- loyihani amalga oshirish hududidagi aholining ijtimoiy-madaniy va demografik tavsiflari (soni va ijtimoiy tuzilmasi, shu jumladan etnik tarkibi, yoshi, ma'lumoti, daromadlari darajasi bo'yicha);

- mintaqada ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish shakllari, xo'jalik yuritish tuzilmasi, mehnat resurslarining mavjudligi, yerga bo'lgan mulkchilikka munosabat, tabiiy resurslarga egalik qilish imkoniyati va ulardan foydalanish ustidan nazorat o'rnatish imkoniyati;

- loyihani umumiy qabul qilingan ijtimoiy me'yorlar nuqtai nazaridan qabul qilinishi va ularga moslashuv qobiliyati;

- loyihani amalga oshirish jarayoniga aholi va mahalliy tashkilotlarni jalb qilish strategiyasi (ularning loyihani amalga oshirishdagi manfaatdorligini ta'minlash maqsadida).

Moliyaviy tahlil.

Loyihalar moliyaviy tahlilini amalga oshirishda quyidagi savollarga javob topish lozim:

- tahlil paytida loyiha ishtirokchilaridan har birining moliyaviy ahvoli qanday va u loyihani amalga oshirish davrida qay tarzda o'zgarishi mumkin;

- loyiha, moliyaviy nuqtai nazardan, umumiy holda (xarajat va daromadlarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlamasdan turib) qanchalik samarali;

- loyihadagi ishtirokni amalga oshirish mumkinmi va bunday ishtirok har bir ishtirokchi uchun, uning moliyalashtirish manbalari va shartlarini hisobga olgan holda, qanchalik samarali;

- har bir ishtirokchi uchun moliyaviy tavakkalchiliklar tahlilini amalga oshirish. Loyihani amalga oshirish sxemasi shunday bo'lishi lozimki, noqulay vaziyatlar sodir bo'lgan taqdirda barcha ishtirokchilar o'z faoliyatini davom ettirishi mumkin bo'lsin, aks holda «eng oqil» ishtirokchining tavakkalchiligi, barcha va butun loyiha tavakkalchiligiga aylanadi.

Ikkita muhim holatni ta'kidlab o'tish lozim. Birinchidan, barcha loyihalar ham moliyaviy jihatdan samarali deb tahlil qilinmaydi. Agarda loyiha foydasini qiymat shaklida ifodalash mumkin bo'lmasa, tahlil ketma-ketligi o'zgaradi: ya'ni samaradorlikda maksimumidan xarajatlar minimumiga o'tiladi.

Ikkinchidan, tahlilning moliyaviy jihati umumlashtiruvchi bo'lishi lozim. Loyihani tijorat, texnik, ijtimoiy, institutsional va ekologik jihatlar bo'yicha tahlil qilish jarayonida, mazkur jihatlarining samaradorligini va loyiha amalga oshirilishi mumkinligini belgilab beruvchi foyda va xarajat turlari aniqlanadi (misol uchun, reklama xarajatlari, korxonada xodimlarini qayta o'qitish xarajatlari va undan olinishi kutilgan foyda, ekologik tavakkalchilikni pasaytirishga yo'naltirilgan xarajatlar va h.). Butun loyiha va har bir ishtirokchi nuqtai nazaridan amalga oshirilgan moliyaviy tahlil, loyihani amalga oshirishdagi ularning manfaatdorligini namoyon qiladi.

Moliyaviy tahlilda o'z aksini topishi lozim bo'lgan ekologik masalalariga kelib to'xtaladigan bo'lsak, baholashning quyidagi umumiy qoidalarini hisobga olish muhimdir:

1. Barcha ahamiyatga ega bo'lgan ekologik foyda, xarajat, yo'qotish va tavakkalchiliklarni **aniqlash** va ularga aniq ta'rif berish lozim;

2. Sanab o'tilgan foyda, xarajat, yo'qotish va tavakkalchiliklarni **miqdoriy o'lchash** lozim (sentnerlarda, donalarda, odam-soatlarda, foizlarda va h.);

3. Miqdoran o'lchangan foyda, xarajat, yo'qotish va tavakkalchiliklarni baholash (pul o'lchamidagi qiymat bahosini berish) lozim.

Tabiiyki, barcha aniqlangan foyda, xarajat, yo'qotish va tavakkalchiliklarga qiymat bahosini berib bo'lmaydi. Shuning uchun ham, ayrim hollarda, mazkur masalani bartaraf etishga yordam beradigan eng arzon yechimni (**foyda, yo'qotish va tavakkalchiliklarning berilgan darajasidagi xarajatlar minimumi**) izlashni taklif etish mumkin.

Umumiy ko'rinishda loyihaning moliyaviy tahlili quyidagi bosqichlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin:

- loyiha xarajatlari umumiy hajmini joriy (past inflyatsiya) va doimiy (yuqori inflyatsiya) narxlarda baholash;

- pul mablag'larining kelajakdagi oqimlarini baholash, loyiha hayotiy sikli tugagandan keyingi aktivlarning qoldiq qiymatini hisobga olgan holda;

- loyiha pul oqimlarining kutilgan qiymatlaridan mumkin bo'lgan o'zgarishlarini va ushbu o'zgarishlarning loyiha samaradorligi ko'rsatkichlariga ta'sirini hisobga olish asosida tavakkalchilik darajasini baholash;

- loyiha tavakkalchiligi darajasini hisobga olgan holda kapitalning alternativ qiymatini aniqlash;

- loyiha aktivlarining real qiymatini baholash (pul tushumlarini diskontlash va ularni joriy qiymatga olib kelish yo'li bilan);

- kutilayotgan pul tushumlarining (foydaning) joriy qiymatini, loyihani amalga oshirish uchun sarflangan xarajatlarning diskontlangan qiymati bilan taqqoslash (agarda foydalarning umumiy joriy qiymati, xarajatlarning umumiy joriy qiymatidan yuqori bo'lsa, loyiha samarali sanaladi).

Moliyaviy tahlil loyihadagi ishtirokdan olinadigan foydani baholash maqsadida amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, o'z va qarz mablag'larini loyihaga sarflash, ulardan foydalanishning boshqa alternativ variantlaridan foydaliroq ekanligiga ishonch hosil qilish lozim.

Moliyaviy tahlilda barcha moddiy oqimlar (mahsulot, xizmatlar, resurslar) pul ifodasida taqdim etiladi. Bu loyihani tashqi muhit bilan bog'lovchi kirish va chiqish oqimlarini taqqoslash, yig'indisini hisoblash va tuzilmaviy tahlilini amalga oshirish uchun zarur. Bunda inflyatsiyani hisobga olish muammosi paydo bo'ladi. Barcha narxlar nominal (ya'ni inflyatsiya o'sishini o'z ichiga olgan) yoki inflyatsiyasiz bo'lishi lozim. Loyihani baholashda, odatda, investitsiyalash jarayonida narxlarning keskin o'zgarishi va yuqori inflyatsiya ro'y bermaydi deb qabul qilinadi. Ammo, bunday qabul qilish xaqiqatga yaqin bo'lmaydi, va shuning uchun ham narxlarning mumkin bo'lgan o'zgarishi uchun zaxira oldindan hisobga olinadi. Bunday zaxiralar loyiha xarajatlari qismiga kiritiladi.

Investitsiyaviy loyihaning moliyaviy tahlili, odatda, ikkita asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

- «moliyalashtirishdan oldingi» tahlil, ya'ni moliyalashtirishning aniq manbalarini jalb etish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqilmaydi;

- «moliyalashtirishdan keyingi» tahlil, ya'ni moliyalashtirishning aniq sharoitlarini hisobga olgan holda.

Iqtisodiy tahlil (jamiyat samarasini baholash).

Loyihani milliy iqtisodiyot nuqtai nazaridan baholashda moliyaviy tahlilga o'xshash qoidalar qo'llaniladi, ammo moliyaviy tahlildan farqli ravishda muayyan ishtirokchi manfaatlari emas balki butun jamiyat (mamlakat, qishloq xo'jaligi va h.) manfaatlarini aks ettirish lozim.

Birinchiidan, loyiha ishtirokchilarining bittasiga ham tegishli bo'lmagan, ammo aholi va kelajak avlod manfaatlariga ta'sir ko'rsatadigan, loyihani amalga oshirish natijalari aynan jamiyat samarasini baholashda hisobga olinishi lozim. Ko'pgina hollarda, loyihaning ekologik oqibatlari ushbu kategoriyadan joy oladi. Misol uchun, dalalardan o'g'itlarni yuvish hech kimni ko'ziga tushmasligi va jarimaga olib kelmasligi mumkin, ammo quyiroq joylashgan korxonalar, dam olish hududlari va boshqa ob'ektlar suvni tozalash uchun qo'shimcha xarajat qilishlari lozim bo'ladi. Butun mamlakat va uning iqtisodiyoti nuqtai nazaridan ushbu xarajatlari yoki paydo bo'layotgan yo'qotishlar hisobga olinishi lozim.

Ikkinchiidan, butun ishlab chiqarilayotgan mahsulot va barcha foydalanilayotgan resurslar, har bir ishtirokchi nuqtai nazarini aks ettiruvchi moliyaviy narxlarda emas, balki jamiyat va milliy iqtisodiyot nuqtai nazarini aks ettiruvchi «iqtisodiy boyliklar» bo'yicha baholanadi. Misol uchun, o'simliklarni himoya qilish vositalarining chet ellik yetkazib beruvchisi o'z xarajatlariga (va keyinchalik mahsuloti narxiga ham) bojxona bojlarini (turli xil yig'imlar, aksizlar va h.) ham kiritadi. Milliy iqtisodiyot nuqtai nazaridan ushbu yig'imlar mamlakat va jamiyatning real xarajatlari sifatida qaralmaydi, va iqtisodiy samarani hisoblashda ishtirok etmaydi.

Uchinchiidan, korxonalar 50-70 yilda bir marta sodir bo'ladigan, misol uchun, havo sharoitlarining ekologik zarari tavakkalchiligini hisobga olmasligi mumkin, ammo mamlakat nuqtai nazaridan ushbu zarar albatta hisobga olingan bo'lishi kerak.

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, ekologik tahlil iqtisodiy tahlil bilan yaqindan bog'langan, chunki amaldagi qonunchilik bo'yicha ko'pgina ekologik oqibatlarni moliyaviy baholab bo'lmaydi, ammo jamiyat samarasini aniqlashda ularni hisobga olish majburiydir.

Ekologik tahlil.

Loyihani ekologik nuqtai nazardan baholash, yuqorida tilga olingan jihatlaridan tashqari, o'z masalalari, usullari va qoidalariga ega.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ekologik baholash majmuaviy xarakterga ega bo'lishi va uning natijalari loyiha qabul qilinishi yoki rad etilishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy mezonlardan biri bo'lishi lozim. Bir vaqtning o'zida, amaliyotga nazar tashlaydigan bo'lsak, xo'jalik rahbarlari faqatgina boshqaruv organlaridan tegishli buyruq kelgandagina ekologik ekspertizani amalga oshiradilar.

Bunda ekologik oqibatlar naqadar muhimligi va ularni bartaraf etish lozimligi hamma uchun ravshan, ammo moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi loyihani ekologik nuqtai nazardan majmuaviy tarzda baholash imkonini bermaydi.

Ekologik tahlilning maqsadi – loyihani amalga oshirish va ob'ektning keyinchalik faoliyat yuritishi davomida atrof muhitga ko'rsatilishi mumkin bo'lgan zararni oldindan aniqlash, va yo'qotishlarni minimumga olib kelish yoki umuman bartaraf etish bo'yicha qaror qabul qilishdan iborat.

Loyihani ishlab chiqish jarayonida faqatgina atrof muhit uchun mumkin bo'lgan oqibatlar bo'yicha ma'lumotlar bazasi va monitoring tizimi emas, balki loyihani ekologiyaga ta'siri bo'yicha muayyan me'yorlarni o'rnatish, hamda ularga rioya qilinishi ustidan nazorat tizimi talab qilinadi.

Mamlakat hukumatlari va (yoki) xalqaro ekologik tashkilotlar tomonidan tasdiqlanadigan havfsizlikning minimal me'yorlari tushunchasi mavjud. Bunday me'yorlar sog'liqni saqlash, hayvonot va o'simlik dunyosini asrash va boshqa sohalarida mavjud. Loyihani ishlab chiqish jarayonida shuni hisobga olish lozimki, qabul qilinayotgan havfsizlik parametrlari ushbu minimal me'yorlardan past bo'lmasligi lozim.

Investitsiyaviy loyihalashtirishda, ayrim hollarda, atrof muhitga muayyan darajada zarar yetkazishga yo'l qo'yiladi. Misol uchun, loyiha tufayli yuzaga kelgan zararli oqibatlar uchun tegishli insonlarga kompensatsiyaviy to'lovlarni amalga oshirish, ushbu oqibatlarni bartaraf etish yoki

kamaytirishdan ko'ra foydaliroq bo'lishi mumkin. Ammo, har qanday holatda ham, esda tutish lozimki, loyihaning atrof muhitga zararli ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf etish bo'yicha barcha xarajatlar, hamda kompensatsiyaviy to'lovlar va jarimalar, loyihaning umumiy xarajatlariga kiritilishi va pul oqimlariga qo'shilishi lozim.

Ekologik qismi muhim rol o'ynaydigan loyihalarda, xarajat va daromadlarning to'g'ridan-to'g'ri tahlilini o'tkazib bo'lmaydi. Muammo shundaki, ekologik loyihalardagi daromad va xarajatlarni aniq ko'rib bo'lmaydi va (yoki) ular vaqt bo'yicha ancha surilgan.

Tabiat nafaqat insonga resurslarni taqdim etadi, balki boshqa tabiiy xizmatlarni ham ko'rsatadi (suvlarning tabiiy tozalanishi, tuproqning himoyasi, chiqindilarni qayta ishlash va h.). Tabiatning bunday takrorlanmas o'ziga xos qobiliyatiga yetkazilgan zararni qiymat bilan ifodalash juda ham qiyin, ayrim hollarda esa umuman mumkin emas.

Ekologik o'zgarishlarning darajasi va xarakterini oldindan bilish mumkin bo'lgan holatlarda, mavjud bozorlar va ulardagi narxlar bunday baho berish imkoniyatini tug'diradi. Misol uchun, sug'orish tizimidagi suv sifatining yomonlashuvi tufayli, hosil hajmi yoki sifatidagi yo'qotishlar yuqori darajali aniqlik bilan hisoblangan bo'lishi mumkin.

Ammo, havo yoki ichimlik suvining sifati pasayishi natijasida insonlar sog'lig'iga keltirilgan zararni hisoblash ancha murakkab. Misol uchun, sog'liqni saqlash, turar joyni o'zgartirish yoki davolanish xarajatlarini hisoblash mumkin, lekin baribir bir qancha boshqa xarajatlar hisobga olinmasdan qoladi va zarar ko'rganlar tegishli kompensatsiya olmaydilar.

Loyiha salbiy oqibatlarini kamaytirish yoki bartaraf etish xarajatlarini rejalashtirishda, moliyalashtirishning barcha mumkin bo'lgan manbalarini, va birinchi navbatda investitsiyadan asosiy foyda ko'ruvchi shaxslarning mablag'larini hisobga olish lozim. Qo'shimcha daromad olish yo'lida atrof muhitga zarar yetkazuvchi, uni tiklash bo'yicha asosiy xarajatlarni ham ko'tarishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari barcha pog'onalardagi davlat byudjeti, atrof muhitni himoya qilish maqsadli dasturlarining mablag'lari, maxsus ekologik jamg'armalarning mablag'lari va boshqa manbalardan foydalanish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Investitsiyaviy loyihaning vazifasi nimadan iborat?
2. Loyiha sikli tushunchasiga ta'rif bering.
3. Investitsiyaviy loyihalar turlarini sanab o'ting.
4. Loyihaviy tahlil boshlang'ich qismining mazmuni nimada?
5. Loyiha boshlang'ich tahlili uchun qaysi ikkita mezon qo'llaniladi?
6. Investitsiyaviy tahlilning umumiy sxemasini qaysi uchta blok belgilab beradi? Har bir blokning vazifasi nimada?

22. Investitsiyaviy loyihalar samaradorligini baholash usullari

Xozirgi vaqtda investitsiyaviy loyihalashtirish amaliyotida loyihalar samaradorligini baholashda eng ko'p ishlatiladigan diskontlashgan mezonlar quyidagilardir:

1. Sof joriy qiymatlilik (nef present value) NPV.
2. Foydalilik indeksi (profitability index) PI.
3. Xarajatlarga daromadlarning nisbati (Benefit to cost ratio) B/C ratio.
4. Loyiha daromadliligining ichki normasi (internal rate of return) IRR.
5. Xarajatlarni qoplash davri (payback period) PBP.
6. Ichki rentabellik stavkasining modifitsirlangan usuli.
7. Investitsiya samaradorligi koeffitsientini hisoblash usuli.

Qo'shimcha belgilar kiritamiz:

B_t - t yildagi loyihaning daromadi;

C_t - t yildagi loyiha xarajatlari;

t_1, \dots, n - loyihaning amal qilish yillari.

1. Loyihaning sof hozirgi qiymati usuli (NPV) investitsion loyihani amalga oshishi natijasida korxonani bozor qiymati o'sishi mumkin bo'lgan sof joriy qiymatni aniqlashga asoslangan.

Sof joriy qiymat – bu investitsion loyihani amalga oshirganda vujudga kelgan va joriy qiymatlarga diskontlangan pul tushumlari summasi bilan ushbu loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha xarajatlarning diskontlangan joriy qiymati summasi orasidagi farq.

Sof joriy qiymatliligi quyidagicha aniqlanadi:


$$NPV = \frac{B_1 - C_1}{1 + r} + \frac{B_2 - C_2}{(1 + r)^2} + \dots + \frac{B_t - C_t}{(1 + r)^t} \quad (13.1)$$

Loyihalar to'g'risida yechim qabul qiladigan shaxslar afzallikni NPV ijobiy qiymatga ega bo'lgan loyihalarga berishi kerak. NPV ning salbiy natijasi daromad normasi zaruriydan kam bo'lganligi, pul mablag'larni samarasiz ishlatilganligi haqida guvohlik beradi.

Yuqoridan keltirilgan iboradan ko'rinib turibdiki, sof joriy qiymatlikning absolyut miqdori NPV o'lchamlarning ikki turiga bog'liq. Birinchi - investitsion jarayonni ob'ektiv jihatdan tavsiflaydi, u ishlab chiqarish jarayoni bilan belgilanadi. Ikkinchi turiga foiz stavkasining miqdori sifatida kiritish mumkin.

Qo'yilmalar jarayon boshida amalga oshirilganda, samara berishi - loyihaning butun faoliyati davomida bo'lganda NPV ning r stavkasi bilan bog'lanishini taxlil qilamiz. Foiz stavkasi ma'lum r^* miqdorga yetsa, investitsiyaning samaradorligi nolga teng bo'ladi. Xar qanday r^* dan kam bo'lgan foiz stavkasi NPV ning ijobiy jihatiga mos keladi (13.1-rasm).

Foiz stavkasi yuqori darajada bo'lganda uzoqlashgan to'lovlar NPV ga kam ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham qoplash davri muddatlari xar xil bo'lgan loyihalar yakuniy iqtisodiy samara bo'yicha amaliy jihatdan bir xil qiymatga ega bo'lishi mumkin. hamma gap shundaki, yuqori sof joriy qiymatga ega bo'lgan loyihalar samarasiz ham bo'lishi mumkin va natijada unchalik katta bo'lmagan foydalilik indeksiga ega bo'ladi. Shu narsa aniqki, daromadlar kirimi, boshqa sharoitlarni hisobga olgan holda ancha uzoq muddatga ega bo'lgan loyiha boshqalarga nisbatan qulayroq bo'ladi.



13.1-rasm. Bir me'yordagi samaradorlik yuz berganda NPVning r stavkasiga bog'liqligi

Loyihaning sof joriy qimmatlik me'yorini aniqlab beruvchi asosiy omillardan biri - investitsiyalar, ishlab chiqarish yoki sotuvlarning «jismoniy» xajmlarda ifodalangan faoliyat xajmi (masshtabi) hisoblanadi. Shu tavsifi bilan farq qiladigan loyihalarni taqqoslash uchun qo'llanadigan usul tabiiy cheklashlardan iborat bo'ladi: NPVning katta miqdori kapital qo'yimlarning yanada samarali variantga to'g'ri kelmasligi mumkin.

Ushbu usul faqat quyidagi savolga javob beradi: tahlil qilinayotgan pul qo'yish varianti korxonada bozor bahosi o'sishiga yoki investor boyligi oshishiga to'g'ri keladi.

Lekin, bu ko'rsatkich quyidagi kamchilikka ega: tanlangan diskont stavkasi odatda loyiha ekspluatatsiyasining birinchi davri uchun o'zgartirilmagan qo'llaniladi. Shu bilan bir vaqtda kelajak davrda iqtisodiy sharoitlar o'zgarishi bilan bog'liq ravishda bu stavka o'zgarishi mumkin. Bu kamchilikka qaramasdan ushbu ko'rsatkich chet el tajribasida investitsiya samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimida eng ishonchlilaridan hisoblanadi.

2.Foydalilik indeksi. Foydalilik indeksi profitability index, PI loyiha nisbiy foydaliligini yoki loyihadagi qo'yilma birligiga to'g'ri keladigan pul kirimlarining diskontlashgan qiymatini ifodalaydi. Loyihalarning tadqiqotchilari uni hisoblashda xar xil yechimlardan foydalanishadi. Ayrimlar PI ni loyihadan olingan sof keltirilgan kirimlarni dastlabki qo'yimlarga bo'lish yo'li hisoblaydi yoki :

$$PI = \frac{NPV}{C_0} \quad (13.2)$$

bu yerda : NPV - loyiha sof keltirilgan qimmatligi;

C_0 - dastlabki xarajatlar.

Mazkur holatda yechimni qabul qilish mezonini NPVga asoslangan yechimga mos, ya'ni $PI > 0$.

Boshqa tadqiqotchilar bu mezonni diskontlashgan kirimlarni diskontlashgan to'lovlarga bo'lishdan kelib chiqqan deb hisoblashadi va bunday holatda samarali loyihalar uchun uning miqdori birdan kam bulmasligi kerak. Ammo hisobning xar bir usulida ham foydalilik indeksi qo'yimlarning samaradorligini ifodalaydi.

Lekin esdan chiqarmaslik kerakki, foydalilik indeksining yuqori me'yorlari NPV ning yuqori ahamiyatiga doimo mos kelmasligi ham mumkin, teskari holat ham ro'y berishi mumkin. Gap shundaki, yuqori joriy kimmatlilikka ega bulgan loyihalar samarasiz bo'lishi mumkin, demak foydalilik indeksi uncha katta bo'lmasligi mumkin.

3. Daromadlar/xarajatlar nisbati, Daromadlar/xarajatlar yoki foydalar, sarflar nisbati (Benefits to Costs Ratio) daromadlarning diskontlashgan oqimi(summasi)ni xarajatlarning diskontlashgan oqimiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi va quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$B / C_{ratio} = \frac{\sum_{t=1}^T \frac{B_t}{(1+r)^t}}{\sum_{t=1}^T \frac{C_t}{(1+r)^t}} \quad (13.3)$$

Bu mezon foydalilik indeksi mezonining xususiy xili bo'lib hisoblanadi.

Agar $V/S_{ratio} > 1$ bo'lsa, loyiha daromadlilik minimal darajadan yuqoridir va loyiha qoniqarli deb hisoblanadi.

(Daromadlar/xarajatlar) nisbati loyihani moliyaviy jihatdan qoniqarsiz loyihaga aylantirmaslik uchun xarajatlarni qanchaga oshirish mumkinligini ifodalaydi.

Ko'p hollarda NPV va V/S_{ratio} ikki, loyihadan eng yaxshisini bir xil tabakalashtiradi. Ammo ayrim vaziyatlarda bir nechta muqobil variantlardan bittasini NPV va V/S_{ratio} mezonlari bo'yicha tanlashda qarama-qarshi natijalar xosil bo'ladi.

2-chizmada ifodalangan NPV va V/S_{ratio} ning teng ma'noda bo'lgan va loyihalarga mos keladigan nuqtalarini topaylik.

Qat'iy byudjet cheklashlari sharoitida $S=S^*$ samaradorlik chegaralari ikki mezon uchun mos keladi:

$$NPV=0 \quad \square \quad V/S_{ratio}=0 \quad (11.4)$$

chiziqdan yuqorida yotgan loyihalar kattaroq daromadlikka egadir. (ML ga nisbatan ustunliroqdir va N ga o‘rin beradi).

4. Daromadlikning ichki me'yori (Internal Rate of Return).

Daromadning ichki me'yori deganda, doimiy olinadigan daromadni kapitallash, investitsiyaga teng summani beradigan hisoblangan foiz stavkasi tushuniladi. Uning natijasida kapital qo'yish operatsiyada qoplanadi. Boshqa so'z bilan aytganda ichki daromadlilik normasiga teng stavka bo'yicha investitsiya summasi foizda hisoblanganda daromad vaqtida taqsimlanadi. Stavka qancha yuqori bo'lsa kapital qo'yilma samarasi shunchalik yuqori bo'ladi.

IRR investitsiyalashga yo'naltirilgan mablag'larni qoplash darajasini bildiradi va o'z tabiati bilan turli foiz stavkalarga yaqin. IRR ni aniqlash usuli daromadlar taqsimlanishining aniq xususiyatlariga va investitsiyaga bog'liq.

Umumiy holda, investitsiya va undan qaytish to'lovlar oqimi ko'rinishidagi berilsa, IRR quyidagi tenglama asosida aniqlanadi:

$$\sum_{t=0}^n \frac{CF_t}{(1+r)^t} - I_o = 0 \quad (13.5)$$

Buni r ga nisbatan chiziqli interpolyasiya yoki Nyuton - Rafson usuli yordamida yechiladi.

IRRni aniqlash pul tushumlari miqdori bo'yicha bir xil bo'lmaganda qiyin bo'ladi. Bunday xolda hisoblash jarayonini sinab ko'rish va xatolar usuliga murojat qilib o'zgartirish kerak. Bunga bir nechta sonlar ichida IRRning qiymati aniqlanadi. IRR investor tomonidan investitsiyalash uchun qaysi bahoda kapitalni olish bo'yicha standart hisob sifatida o'zi uchun tanlanadi. Investitsiyani maqbul daromadlilik darajasi barer koeffitsienti HR deyiladi. Buni taqqoslash tamoyili quyidagicha:

- agar $IRR > HR$ loyiha maqbul;
- agar $IRR < HR$ loyi'a maqbul emas;
- agar $IRR = HR$ turlicha qaror qabul qilish mumkin.

IRR foydasiz loyihalarni o'tkazib yuboruvchi elak vazifasini bajaradi. Undan tashqari loyihalar foydalilik darajasi bo'yicha tartiblashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Usulning kamchiliklari:

- IRR stavkasi bo'yicha loyihadan barcha oraliq pul tushumlarini reinvestorlashda kam real holatni ko'zda tutadi. Hayotda mablag' qismi dividend ko'rinishida to'langani, bir qismi past daromadli, lekin ishonchli aktivlarga, masalan davlatning qisqa muddatli obligatsiyalariga va boshqalarga investitsiyalangan bo'lishi mumkin;

- usul konvensial bo'lmagan pul oqimlarida ichki daromadlilik normasi ko'pligi muammosini yechmaydi, ba'zan bunday xollarda IRR umuman aniqlashga to'g'ri kelmaydi.

Ushbu usulning afzalligi shundaki, u har qanday kompaniyaning bosh maqsadiga erishishga va uning aksionerlari boylig'ini oshirishga yo'naltirilgan;

Daromadlikning ichki me'yori (Internal Rate of Return). NPV , V/S_{ratio} va PI hisoblanganda foiz stavkasining tanlanishi hisobning yakuniy natijasiga ancha katta darajada va, demak, uning o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Oldin ifodalanganday, foiz stavkasining me'yoriga inflyasiya o'zgarishi, muqobil imkoniyatlar va investitsiyaviy xatarning darajasi ta'sir etadi.

$NPV=0$ teng bo'lgan holatda foiz stavkasi r^* ning moxiiyati juda qiziqarli bo'ladi rasm 13.1 r^* nuqtasida xarajatlarning qo'shma diskontlashgan oqimi daromadlar qo'shma diskontlashgan oqimiga teng bo'ladi. Bu nuqta diskontlashgan «zarar ko'rmaslik nuqtasi»ning aniq iqtisodiy ma'nosiga ega deb tasdiqlash mumkin. U rentabellikning ichki normasi yoki foydalilik deb ataladi. DIN yoki ingliz abbreviaturasida - IRR deb belgilanadi. Bu mezon loyihaning investoriga mablag'lar qo'yilishining maqsadga muvofiqligini baholash imkonini beradi. Agar bankning hisobot stavkasi IRR dan ko'p bo'lsa, demak, bunda investor bankka o'z mablag'larini qo'ysa katta daromadga erishishi mumkin.

1-chizmadan ko'rinib turibdiki, r^* bu IRRdir. Agar kapital qo'yilmalar faqat jalb etilgan mablag'lar hisobidan amalga oshirilsa va kredit stavkasi asosida olingan bo'lsa, bunda (r^*-i) farqi investitsiyaviy (tadbirkorlik) faoliyatining samarasini ifodalaydi. $r^*=i$ bo'lgan paytda olingan daromad bilan faqat investitsiyalarni qoplash mumkin (investitsiyalar foydasiz), $r^*<i$ da investitsiyalar zarar keltiradi.

Moliyaviy amaliyotda IRR hisobini dam-badam kapital qo'yilmalarni miqdoriy taxlilning birinchi qadami sifatida qo'llaydilar. Keyingi taxlil uchun IRR 15-20% dan kam balmagan darajada

baholangan investitsiyaviy loyihalar ajratib olinadi. Moliyalashtirish uchun qabul qilingan loyihalar daromadlilikning ichki normasi iqtisodiyot tarmogi va mulk shakllariga yoki loyihaning xususiy yoki davlat korxonasiga tegishli bo'lishiga qarab o'zgarib boradi.

Demak, IRRning moxiyati investitsion loyihadagi daromadlilikning pastki kafolatlangan darajasi deb izoxlanishi mumkin. Shunday qilib, agar bu loyihaning kapital muqobil qiymatidan (masalan, qayta moliyaashtirish stavkasidan) ko'p bo'lsa, loyihani qoniqarli deb hisoblash mumkin.

Ayrim paytlarda foydalilikning ichki normasini investitsiyalar daromadlilikining eng yuqori darajasi deb ko'rish mumkin, bu esa loyihaga qo'shimcha qo'yilmalarni joylashtirish muvofiqligining mezoni bo'lishi mumkin.

5. Investitsiyani qoplash usuli: oddiy diskontsiz va diskontli eng ko'p qo'llanuvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Vaqt olishni hisobga olmasdan, ya'ni daromadning har xil vaqtda olingan bir xil summalari qiymati bir xil deb hisoblanadi. Qoplash muddati ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi.

$$n_y = K / R \quad (13.6)$$

bu yerda:

n_y – qoplash muddatining soddalashtirilgan ko'rsatkichi;

K - investitsiya hajmi;

R - yillik sof daromad

Agar sof daromad bir xilda bo'lmasa, qoplash muddati tushumlarini qo'shish va sof daromadning summasi investitsiya summasiga teng bo'lgunga qadar vaqtni hisoblash natijasida aniqlanadi. Chet davlatlarda n_y – ko'rsatkichi asosan kichik korxonalarda qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichning asosiy kamchiligi u investitsiyaga amal qilishning to'liq davrini hisobga olmaydi. Bu kamchilik kapital qo'yilmalarning tushumi teng bo'lmaganda ko'zga tashlanadi. Shuning uchun qoplash muddati ko'rsatkichi tanlash mezoni bo'lib, emas, qaror qabul qilishda faqat cheklash sifatida qo'llaniladi, ya'ni loyihaning qoplash muddati qabul qilingan cheklashdan katta bo'lsa, mumkin bo'lgan investitsion loyihalar ro'yhatidan chiqarib tashlanadi.

23. INVESTITSYAVIY LOYIHALASHTIRISH JARAYONIDA ZARARSIZLIK TAHLILI

Tayanch iboralar: zararsizlik tahlili, o'zgaruvchan xarajatlar, doimiy xarajatlar, aralash xarajatlar, yuqori-quyi nuqta uslubi, eng kichik kvadratlar uslubi, grafik uslub, zararsizlik nuqtasi, qo'yilgan daromad, bir martalik qo'yilgan daromad, operatsion richag.

1. Zararsizlik tahlilining asosiy tushunchasi va maqsadi.

Zararsizlik tahlili va maqsadli rejalashtirish investitsiyaviy loyihalashtirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Tahlilning ushbu turi loyihani amalga oshirish mumkinligini va foydaning belgilangan darajasiga erishish yo'lidagi muammolarni aniqlash imkonini beradi.

Zararsizlik yoki, boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarish xarajatlari, foydasi va hajmining tahlili – bu ishlab chiqarishning turli darajalaridagi xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rganishga bo'lgan tahliliy yondashuvdir.

Zararsizlik tahlilining namunaviy ko'rinishida quyidagilar qabul qilinadi:

1. Tayyor mahsulot sotish hajmining o'zgarishi jarayonida, xarajatlarning ular tarkibida ro'y beradigan o'zgarishlar bo'yicha turkumlanishi qo'llaniladi. Xarajatlar doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga ajratiladi.

2. Barcha ishlab chiqarilgan mahsulot rejalashtirilgan vaqt oralig'ida sotiladi deb taxmin qilinadi.

3. Tahlil omili sifatida sof foyda emas, soliq to'lagunga qadar olingan foyda qabul qilinadi.

Zararsizlik tahlilining barcha masalalari yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ko'riladi.

2. Xarajatlarning turkumlanishi.

Zararsizlik tahlili tahlili doirasida xarajatlar ikkita turga: doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga ajratiladi.


Ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga proporsional tarzda o'zgaruvchan va bir birlik mahsulotga nisbatan o'zgarmasdan qoladigan xarajatlar – *o'zgaruvchan xarajatlar* deb aytiladi. O'zgaruvchan xarajatlarga misol tariqasida xom-ashyo, ishchi kuchi, energiya resurslari va h. keltirish mumkin.

Ishlab chiqarish hajmi o'zgarishi bilan o'zgarmasdan qoladigan xarajatlar – *o'zgarmas xarajatlar* deb nom olgan. O'zgarmas xarajatlarga ishlab chiqarish xonalarining ijara to'lovlari, uskunalar bo'yicha lizing va boshqa turdagi to'lovlarni kiritish mumkin.

O'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlardan iborat bo'lgan xarajatlar turi – *aralash xarajatlar* deb ataladi. Xarajatlarning ushbu turi amaliyotda juda kam uchrashiga qaramasdan, ularni ham e'tibordan chiqarmaslik lozim. Misol uchun, ijara to'lovi ikkita qismga ajratilgan bo'lishi mumkin: ijarachi ishlab chiqarish xonalari uchun alohida summa, va o'rnatilgan uskunaning har 1 soat ishi uchun alohida summa to'lashi lozim bo'lgan taqdirda.

Barcha uslublarning mohiyati jami xarajatlarni tasvirlashga asoslanadi, ular grafik tarzda quyidagicha ifodalanadi (11.1-rasm).

quyidagicha ifodalanadi (7.1-rasm).



11.1.-rasm. Xarajatlarning grafik tasviri

Muayyan ma'lumotlar asosida to'g'ri chiziq barpo etiladi, va u xaqiqatdagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, umumiy xarajatlarning savda hajmiga bog'liqligi to'g'risida tushuncha beradi. Ushbu to'g'ri chiziqning vertikal o'q bilan kesishgan nuqtasi doimiy xarajatlarning bahosi hisoblanadi.


Misol uchun, tovarni yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan aralash xarajatlarni tahlil qilish kerak bo'lsin. Ushbu xarajatlar bo'yicha xaqiqiy ma'lumotlar 11.1-jadvalda keltirilgan.

11.1-jadval

Yetkazib berish xarajatlari.

Oylar	Sotilgan tovarlar soni	Yetkazib berish xarajati (ming so'm)
Yanvar	6000	66000
Fevral	5000	65000
Mart	7000	70000
Aprel	9000	80000
May	8000	76000
Iyun	10000	85000
Iyul	12000	100000
Avgust	11000	87000

Ushbu ma'lumotlar 11.2-rasmdagi singari grafikka tushiriladi.



7.2-rasm. Xaqiqiy ma'lumotlar namunasi.

Grafik tasvirdan kelib chiqqan holda, ushbu ma'lumotlar bo'yicha 7.1-rasmdagi kabi to'g'ri chiziq barpo etish lozim. Ushbu vazifani quyidagi uchta uslub yordamida amalga oshirish mumkin:

- yuqori-quyi nuqta uslubi (High-Low Method);
- grafik uslub (Scattergraph Method);
- eng kichik kvadratlar uslubi (Least Squares Method).

Zararsizlik nuqtasi (break-even point) quyidagicha ta'riflanishi mumkin:

- tushum umumiy xarajatlarga teng bo'lgan vaziyatdagi **savdo hajmi**, yoki,
- kiritilgan daromad doimiy xarajatlarga teng bo'lgan vaziyatdagi **savdo hajmi**.

Zararsizlik nuqtasiga erishilgandan so'ng, har bir qo'shimcha sotilgan mahsulot birligi, ushbu mahsulot birligiga kiritilgan daromadga teng bo'lgan qo'shimcha foyda olib keladi.

3. Zararsizlik nuqtasini hisoblash.

Zararsizlik nuqtasini hisoblash uchun tushum balansiga asoslangan oddiy nisbatlardan foydalaniladi:

Tushum q o'zgaruvchan xarajatlar Q doimiy xarajatlar Q foyda.

Misol uchun boshlang'ich ma'lumotlar quyidagi ko'rinishga ega bo'lsin: (11.2-jadval)

11.2-jadval

Zararsizlik nuqtasini hisoblash uchun ma'lumotlar

	Mahsulot birligiga (ming so'm)	Foizda
Bir birlik mahsulot narxi	500	100%
O'zgaruvchan xarajatlar	300	60%
Bir martalik kiritilgan daromad	200	40%

Doimiy xarajatlar yiliga 80000 ming so'm bo'lsin.

Agarda «X» - mahsulot birliklaridagi zararsizlik nuqtasi deb qabul qilinsa, unda asosiy tenglama yordamida quyidagiga ega bo'lamiz:

$$500xX = 300xX + 80000 + 0 \quad (11.1)$$

bundan kelib chiqdi $X=400$ mahsulot birligi (yoki so'mda $500 \times 400 = 200000$ ming so'm).

Zararsizlik nuqtasiga quyidagicha, yanada umumiyroq ta'rif berish mumkin. p – mahsulot birligi, N – muayyan davr ichidagi ishlab chiqarish hajmi bo'lsin. Soliq to'lagunga qadar bo'lgan foyda NI umumiy tushumdan barcha doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar ayirmasi bilan belgilanadi, demak modelning asosiy tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:

$$NI = p \cdot N - v \cdot N - F, \quad (11.2)$$

Bu yerda: F – muayyan davr ichidagi doimiy xarajatlar kattaligi;
 v – bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlar kattaligi.
 Ta'rif bo'yicha zararsizlik nuqtasi $NI=0$ shartiga muvofiq keladi, bu yerdan

$$BEP = \frac{F}{(p - v)} \quad (11.3)$$

Bu yerda: BEP (break-even point) – zararsizlik nuqtasi.

Shunday qilib, zararsizlik nuqtasini hisoblash uchun, doimiy xarajatlar kattaligining, mahsulotni sotish narxi va bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlar ayirmasiga nisbatini topish lozim. Bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlar bir martalik kiritilgan daromad (*unit contribution margin*) deb ham yuritiladi.

Agarda masala sotuvlarning maqsadli hajmi N_T , ya'ni berilgan daromad qiymati NI_T ga muvofiq keladigan sotuvlar hajmi qiymatini topishdan iborat bo'lsa, quyidagi nisbatdan foydalanamiz:

$$NI_T = p \cdot N_T - v \cdot N_T - F, \quad (11.4)$$

Bu yerdan:

$$N_T = \frac{F + NI_T}{(p - v)} \quad (11.5)$$


Korxonada muvoffaqiyatli faoliyatining muhim tavsifi sifatida havfsizlik zaxirasi (*Safety Margin*) kattaligi xizmat qiladi. Ushbu kattalik, nisbiy tarzda, sotuvlarning rejalashtirilgan hajmi va zararsizlik nuqtasi kattaliklarining ayirmasi ko'rinishida aniqlanadi.

$$\eta = \frac{N_T - BEP}{N_T} \quad (11.6)$$

Ushbu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa korxonada salbiy o'zgarishlar (tushum kamayishi yoki xarajatlar ko'payishi) yuz berishidan o'zini shunchalik havfsiz hisoblaydi.

4. Zararsizlik tahlilining grafik ko'rinishi.

Zararsizlik tahlilining mohiyati zararsizlik grafigida to'la ochiladi (7.3-rasm). Ushbu grafikning gorizontaal o'qida natural ifodadagi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, vertikal o'qida esa qiymat ifodasidagi daromad yoki xarajatlar kattaligi aks ettirilgan



3-rasm. Zararsizlik nuqtasining grafik ko'rinishi.

AS - umumiy xarajatlar chizig'i; OD - daromad chizig'i.

Hajmga bog'liq holda o'zgarmaydigan, doimiy xarajatlarni aks ettiruvchi AV chizig'i, X o'qiga parallel tarzda o'tadi. AV va AS chiziqlari o'rtasidagi vertikal masofa, har qanday hajmda ham, mahsulotni mazkur hajmini ishlab chiqarishning umumiy o'zgaruvchan xarajatlarni, OA va AS chiziqlari o'rtasidagi vertikal masofa esa umumiy xarajatlarni tavsiflaydi. Mahsulot sotilmagan tarzda umumiy xarajatlar nolga emas balki OA-ga teng bo'ladi. Ishlab chiqarish hajmi X ga teng bo'lganda, umumiy xarajatlar SX chizig'i bilan aks ettiriladi, o'z navbatida $SX = XV + VS$ (XV – xarajatlarning o'zgaruvchan qismlari (OA bilan bir xil) va VS – xarajatlarning o'zgarmas qismlari).

So'nggi mahsulot bir birligini sotishning har bir muayyan narxi uchun, OD chizig'i sotuvlarning turli hajmlaridagi daromadlar kattaligini ko'rsatib turadi. Umumiy daromad va umumiy xarajatlar chiziqlarining kesishuvi, umumiy daromad umumiy xarajatlarga (o'zgaruvchan va doimiy) teng bo'lgan, zararsizlik nuqtasi (ZN) "N"ni belgilab beradi. Umumiy daromad va umumiy xarajatlar o'rtasidagi vertikal o'q bo'yicha har qanday farq zararsizlik nuqtasining o'ng tomonida bo'lganda foydani, chap tomonida bo'lganda zararni aks ettiradi.

5. Kiritilgan daromad ta'siri va operatsion richag tahlili.

Operatsion richag yordamida, zararsizlik tahlili doirasida, tavakkalchilikning yanada batafsilroq tahlilini o'tkazish mumkin.

Operatsion richag (Operating Leverage) tushum ko'payganda foyda necha marta o'zgarishini aks ettiradi, demak:

Foydaning nisbiy o'zgarishi q Operatsion richag x Tushumning nisbiy o'zgarishi.

Operatsion richagni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

Operatsion richag q kiritilgan daromad/sof foyda

Sotuvlar hajmining o'zgarishi munosabati bilan, operatsion richagning foyda ko'rsatkichlariga bo'lgan ta'sirini namoyish etuvchi quyidagi misolni ko'rib chiqamiz. (11.3-jadval)

11.3-jadval

Operatsion richagning foyda ko'rsatkichlariga bo'lgan ta'sirini namoyish etuvchi misol ma'lumotlari.

	X – korxon		Y - korxon	
Tushum	500,000	100%	500,000	100%
minus o'zgaruvchan xarajatlar	350,000	70%	100,000	20%

Kiritilgan daromad	150,000	30%	400,000	80%
minus doimiy xarajatlar	90,000		340,000	
Sof foyda (zarar)	60,000		60,000	
Operatsion richag	2,5		6,7	

Yuqoridagi misolda keltirilgan ma'lumotlarni asos qilib olgan holda, har bir korxonaning operatsion richagini hisoblab chiqamiz.

Operatsion richag ta'rifiga muvofiq, sotuvlar hajmining 10%ga oshishi, X-korxonada foyda 25%ga, Y-korxonada esa foyda 67%ga oshishiga olib kelishi lozim.

Buni, tushumning 10%ga oshishini kiritgan holda, osongina tekshirish mumkin: (11.4-jadval)

11.4-jadval

Operatsion richagning foyda ko'rsatkichlariga bo'lgan ta'sirini namoyish etuvchi misol (10%) oshgandagi ma'lumotlari

	X – korxonada		Y - korxonada	
Tushum	550,000	100%	550,000	100%
minus o'zgaruvchan xarajatlar	385,000	70%	110,000	20%
Kiritilgan daromad	165,000	30%	440,000	80%
minus doimiy xarajatlar	90,000		340,000	
Sof foyda (zarar)	75,000		100,000	
Sof foydaning oshishi	25%		67%	

Xarajatlarning qaysi tuzilmasini tanlash savoliga javob topish uchun, xarajatlarning turlicha tuzilmasiga ega bo'lgan ikkita korxonani ko'rib chiqaylik. (11.5-jadval)

11.5-jadval

Korxonada xarajatlari.

	X – korxonada		Y - korxonada	
Tushum	100,000	100%	100,000	100%
minus o'zgaruvchan xarajatlar	60,000	60%	30,000	30%
Kiritilgan daromad	40,000	40%	70,000	70%
minus doimiy xarajatlar	30,000		60,000	
Sof foyda (zarar)	10,000		10,000	

Faraz qilaylik, kelajakda bozordagi vaziyatning yaxshilanishi va natijada sotuvlar hajmining 10%ga oshishi kutilmoqda. Bunda foyda to'g'risidagi hisobotlar quyidagi ko'rinishni oladi: (11.6-jadval)

11.6-jadval

Foyda hisobotlari

	X – korxonada		Y - korxonada	
Tushum	110,000	100%	110,000	100%
minus o'zgaruvchan xarajatlar	66,000	60%	33,000	30%
Kiritilgan daromad	44,000	40%	77,000	70%
minus doimiy xarajatlar	30,000		60,000	
Sof foyda (zarar)	14,000		17,000	

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Y- korxonaga yaxshiroq ahvolda, chunki uning foydasi 7,000 ming so'mga ko'paygan, X-korxonaning foydasi esa 4,000 ming so'mga.

Endi esa bozordagi ahvol yomonlashishi va sotuvlar hajmining 10%ga pasayishi kutiladigan bo'lsin. (11.7-jadval)

11.7-jadval

Operatsion richagning foyda ko'rsatkichlariga bo'lgan ta'sirini namoyish etuvchi misol 10%ga pasaygandagi ma'lumotlari

	X – korxonaga		Y - korxonaga	
	90,000	100%	90,000	100%
Tushum	90,000	100%	90,000	100%
minus o'zgaruvchan xarajatlar	54,000	60%	27,000	30%
Kiritilgan daromad	36,000	40%	63,000	70%
minus doimiy xarajatlar	30,000		60,000	
Sof foyda (zarar)	6,000		3,000	

Bunda esa X-korxonaga yaxshiroq vaziyatda deb ta'kidlashimiz mumkin, chunki uning foydasi 4,000 ming so'mga kamaygan bo'lsa, Y-korxonaning foydasi 7,000 ming so'mga kamaygan.

Umumiy xulosa quyidagicha:

- operatsion tavakkalchigi katta bo'lgan korxonaga, bozor kon'yunkturasi yomonlashganda ko'proq tavakkalchilikka yo'l qo'yadi, bozor kon'yunkturasi yaxshilanganda esa u muayyan ustunliklarga ega bo'ladi;

- korxonaga bozor sharoitida o'zini topishi va tegishli tarzda xarajatlar tuzilmasini boshqarib turishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Investitsiyaviy loyihalarni ishlab chiqish uchun zararsizlik tahlilining zarurligini asoslab bering.
2. Investitsiyaviy loyiha samaradorligining zaruriy va yetarli shartlari nisbatini qanday tushunasiz va zararsizlik tahlilining ushbu nisbatdagi roli qanday?
3. Kiritilgan daromad nima?
4. Kiritilgan daromad asosidagi foyda to'g'risidagi hisobot shaklini va uning an'anaviy shakldan farqini izohlab bering.
5. «xarajatlar-hajm-foyda» tahlilining (CVP-tahlil) mohiyati nimada?

24. INVESTITSYAVIY LOYIHALASHTIRISHNING MOLIVAVIY - MATEMATIK ASOSLARI.

Tayanch iboralar: pul qiymati, qiymatni orttirish, diskontlash, foizlar nazariyasi, murakkab foizlar, inflyatsiya, foiz stavkasi, pul oqimlari, annuitet.

Pullarning vaqt oralig'idagi qiymati konsepsiyasi

Pullarning vaqt oralig'idagi qiymati konsepsiyasi quyidagi asosiy tamoyilga asoslangan: Hozirgi kundagi bir so'mning qiymati, kelajakda olinadigan bir so'm qiymatidan katta, chunki u investitsiya sifatida kiritilishi va qo'shimcha foyda olib kelishi mumkin. Investitsiyaviy loyihalar iqtisodiy samaradorligini baholash aynan ushbu tamoyilga asoslangan.

Bu tamoyil pullarni vaqt oralig'idagi qiymati konsepsiyasini yuzaga keltiradi. Konsepsiyasining asosiy mazmuni shundaki, pullarning qiymati vaqt o'tishi bilan, pul va qimmatli qog'ozlar bozorlaridagi daromadlilik me'yorini hisobga olgan holda o'zgarib turadi. Daromadlilik me'yori

sifatida ssuda foizi me'yori yoki oddiy va imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash me'yori qabul qilinadi.

Investitsiyalash odatda uzoq muddatli jarayon ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, investitsiyaviy amaliyotda, odatda, investitsiyalash jarayonining boshidagi pullar qiymati, kelajakdagi foyda ko'rinishidagi, qaytarilishi lozim bo'lgan pullar qiymati bilan taqqoslanadi. Pul mablag'larini kiritish va qaytarishdagi qiymatlarini taqqoslash jarayonida ikkita asosiy tushuncha qo'llaniladi: **pullarning hozirgi qiymati va pullarning kelajakdagi qiymati.**

Shunday qilib, bitta pul summasini ikkita nuqtai nazardan ko'rib chiqish mumkin:

A) hozirgi qiymati nuqtai nazaridan

B) kelajakdagi qiymati nuqtai nazaridan

Ammo, kelajakdagi pullarning arifmetik qiymati har doim yuqori.

Foizlar nazariyasi

Foizlar nazariyasining asosiy formulasi pullarning kelajakdagi qiymatini aniqlaydi:

$$F_n = P \cdot (1 + r)^n, \quad (10.1)$$

Bu yerda: P – kiritilgan pul summasining hozirgi qiymati;

F – pullarning kelajakdagi qiymati;

n – qo'yilma amalga oshirilayotgan vaqt davrlari soni;

r – qo'yilmaning daromadlilik me'yori.

Kelajakdagi muayyan pul summasining hozirgi kundagi qiymati esa (10.1) formuladan kelib chiqadi:

$$P = \frac{F_n}{(1 + r)^n}, \quad (10.2)$$

5.3. Pullarning hozirgi va kelajakdagi qiymatini aniqlashda inflyatsiya ta'siri

Investitsiyaviy amaliyotda doimiy tarzda, vaqt o'tishi bilan pul mablag'lari qiymatini qadrsizlantiruvchi inflyatsiya omiliga duch kelinadi. Bu, o'rtacha narxlar indeksidagi inflyatsiyaviy o'sish, pullarning xarid qobiliyatini pasayishiga olib kelishi bilan bog'liq.

Investitsiyalash jarayonida inflyatsiyani ta'sirini hisobga olish bilan bog'liq hisob-kitoblarda ikkita asosiy tushunchadan foydalaniladi:

- pul mablag'larining nominal summasi;

- pul mablag'larining real summasi.

Pul mablag'larining nominal summasi pullarning xarid qobiliyati o'zgarishini hisobga olmaydi. Pul mablag'larining real summasi – ushbu summaning inflyatsiya jarayoni tufayli pullarning xarid qobiliyati o'zgarishini hisobga olgan holdagi bahosi.

Investitsiyaviy faoliyat bilan bog'liq moliyaviy-iqtisodiy hisob-kitoblarda inflyatsiya quyidagi holatlarda hisobga olinadi:

- pul oqimlarining orttirilgan qiymatini to'g'irlashda;

- orttirish va diskontlash uchun foydalaniladigan foiz stavkasini (inflyatsiyani hisobga olgan holdagi) shakllantirishda;

- inflyatsiya sur'atlarini hisobga oladigan investitsiyalar daromadi darajasini prognoz (bashorat) qilishda.

Inflyatsiyani baholash jarayonida ikkita asosiy ko'rsatkichdan foydalaniladi:

- ko'rib chiqilgan davrda narxlar darajasining o'rtacha o'sishini tavsiflovchi, o'nlik kasr bilan ifodalanuvchi inflyatsiya sur'ati T;

- inflyatsiya indeksi I (iste'mol narxlari indeksining o'zgarishi), $1+T$ ga teng.

Inflyatsiyani hisobga olgan holda orttirilgan qiymatni to'g'irlash, quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$F_{n_p} = \frac{F_n}{I_n}, \quad (10.3)$$

Bu yerda: F_{n_p} - pullarning real kelajakdagi qiymati;

F_n – inflyatsiyani hisobga olgan holda pullarning kelajakdagi nominal qiymati.

Bunda inflyatsiya sur'ati yillar davomida saqlanib qoladi deb nazarda tutiladi.

Agarda r – inflyatsiyani hisobga oluvchi, foizning nominal stavkasi bo'lsa, pullarning real summasini hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$F_{n_p} = \frac{F_n}{(1+T)^n} = P \cdot \frac{(1+r)^n}{(1+T)^n}, \quad (10.4)$$

ya'ni pul mablag'larining nominal summasi, pullarning xarid qobiliyatini pasayishiga muvofiq $(1+T)^n$ marta pasayadi.

Umumiy holatda foiz nominal stavkasini inflyatsiya sur'ati bilan nisbatini tahlil qilganda uchta holat yuzaga kelishi mumkin:

1. $r=T$: pul mablag'larining real qiymatini orttirish sodir bo'lmaydi, chunki ularning kelajakdagi qiymatining orttirilishi inflyatsiya tomonidan yo'qqa chiqariladi.

2. $r>T$: pul mablag'larining kelajakdagi real qiymati inflyatsiyaga qaramasdan oshib boradi.

3. $r<T$: pul mablag'larining kelajakdagi real qiymati pasayadi, ya'ni investitsiyalash jarayoni zararli bo'ladi.

Nominal va real foiz stavkalarining o'zaro aloqasi.

Investorga qo'yilmalar bo'yicha 10%lik foiz stavkasi bo'yicha real foyda va'da qilingan bo'lsin. Bu degani, 1000 so'm investitsiya kiritilgan taqdirda, bir yildan so'ng investor $1000 \times (1+0,10) = 1100$ so'm. Agarda inflyatsiya sur'ati 25%ga teng bo'ladigan bo'lsa, investor ushbu summani inflyatsiya sur'atiga muvofiq to'g'iraydi: $1100 \times (1+0,25) = 1375$ so'm. Umumiy hisob-kitob quyidagi tarzda yozilishi mumkin: $1000 \times (1+0,10) \times (1+0,25) = 1375$ so'm.

Umumiy holda, agarda r_0 – foydalilikning real foiz stavkasi, T – inflyatsiya sur'ati bo'lsa, foydalilikning nominal (shartnomaviy) me'yori quyidagi formula yordamida yoziladi:

$$r = r_p + T + r_p \cdot T, \quad (10.5)$$

$r_p + r_p T$ kattaligi inflyatsion mukofot ma'nosini bildiradi.

Inflyatsiyaviy mukofotni hisoblashda, ko'pgina hollarda, «aralash samarani» hisobga olmaydigan oddiyroq formulani uchratishimiz mumkin:

$$r = r_p + T. \quad (10.6)$$

Ushbu oddiy formulani inflyatsiya sur'atlari yuqori bo'lmagan holatlarda qo'llash mumkin.


5.4. Pul oqimlarini orttirish va diskontlash.

Investitsiyalash jarayoni, odatda, uzoq davom etar ekan, kapital qo'yilmalar samaradorligi tahlili amaliyotida, bir martalik pul summaları emas balki pul mablag'larining oqimlari bilan ish ko'riladi.


Pul mablag'lari summalarining orttirilgan va diskontlangan baholarini hisoblash, pul oqimining har bir unsuri uchun (10.1) va (10.2) formulalarni qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Pul oqimini vaqt to'g'ri chizig'ida, quyida ko'rsatilgan (10.1-rasm) ikkita usuldan biri yordamida tasvirlash qabul qilingan:

A.



V.



10.1-rasm. Pul oqimi.

10.1-rasmda tasvirlangan pul oqimi quyidagicha izohlanadi: hozirgi kunda to'lanmoqda (manfiy belgi bilan) \$2000, birinchi va ikkinchi yilda olingan \$1000, uchinchi yilda \$1500, to'rtinchi yilda yana \$1000.

Pul oqimini CF_k (Cash Flow) deb belgilash qabul qilingan, bu yerda: k -pul oqimi ko'rib chiqilayotgan davr raqami. Pul oqimining hozirgi kundagi qiymati PV (Present Value), kelajakdagi qiymati esa FV (Future Value) deb belgilangan.

Pul oqimining 0 dan n gacha bo'lgan barcha unsurlari uchun (10.1) formulani qo'llagan holda, pul oqimining kelajakdagi qiymatini topamiz:

$$\begin{aligned}
 FV &= CF_0 \cdot (1+r)^n + CF_1 \cdot (1+r)^{n-1} + \dots + CF_n \cdot (1+r)^{n-n} = \\
 &= \sum_{k=0}^n CF_k \cdot (1+r)^{n-k}
 \end{aligned}
 \tag{10.7}$$

Bir xil pul summalaridan iborat bo'lgan pul oqimi **annuitet** deb ataladi. Annuitetning kelajakdagi qiymatini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$FV = CF \sum_{k=1}^n (1+r)^{n-k}
 \tag{10.8}$$

Bu formula (10.7)ning $CF_k = const$ va $CF_0 = 0$ dagi ifodasidir.

Annuitetning kelajakdagi qiymati maxsus moliyaviy jadvallar yordamida hisoblanishi mumkin. Ushbu jadvallarning bir qismi ilovada keltirilgan (2-jadval).

Pul oqimlarini diskontlash (10.2) formuladan ko'p martalik foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi, oqibatda quyidagi ifodaga ega bo'lamiz:

$$PV = CF_0 + \frac{CF_1}{(1+r)^1} + \frac{CF_2}{(1+r)^2} + \dots + \frac{CF_n}{(1+r)^n} = \sum_{k=0}^n \frac{CF_k}{(1+r)^k},
 \tag{10.9}$$

Annuitetni diskontlash ($CF_j = const$) quyidagi formulaga asosan amalga oshiriladi:

$$PV = CF \sum_{k=1}^n \frac{1}{(1+r)^k},
 \tag{10.10}$$

Cheksiz (vaqt bo'yicha) pul mablag'lari oqimining hozirgi qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$PV = \frac{CF}{r},
 \tag{10.11}$$

bu formula (10.10) formulaning $n \rightarrow \infty$ dagi ifodasidir.

Nazorat savollari:

1. Pullarning vaqt oralig`idagi qiymatining asosiy tamoyilini ifodalang.
2. Pullarning vaqt oralig`idagi qiymati konsepsiyasining iqtisodiy mohiyati nimada?
3. Pullarni orttirish va diskontlash deganda nima tushuniladi?
4. Pullarning vaqt oralig`idagi qiymati konsepsiyasida o`zaro bog`liq bo`lgan to`rtta asosiy unsumni sanab o`ting.
5. Pullarni investitsiyalashning foydalilik me`yoring iqtisodiy mohiyati nimada?
6. Murakkab foizlar nazariyasining asosiy formulasini yozing.

24. Investitsiyaviy loyiha kapital qiymatini baholash

Investitsiya faoliyatidagi jarayonda sub'ektlar o`rtasida bo`ladigan munosabatlar shartnomalar asosida muvofiqlashtiriladi. Shartnomalar tuzish, sheriklarni tanlash, majburiyatlarni aniqlash va boshqa xo`jalik munosabatlarini o`rganish ular qabul qilgan qonunlarga zid bo`lmasa, faqat investitsiya faoliyati sub'ektlari zimmasida bo`ladi. Har ikki tomonning kelishuviga binoan, shartnomalar investitsiya faoliyatining umumiy muddatiga tuziladi.

Qabul qilingan qonunlarda investorning qator majburiyatlari bor. ¹⁵Bu majburiyatlar davlat idora va muassasalari oldida bajarilishi lozim bo`lib quyidagilardan iboratdir:

- investorlar investitsiyalar hajmi va ularning manbalari to`g`risida moliya organlariga deklaratsiya topshirishlari lozim.

- kapital qo`yilishni amalga oshirish uchun, tegishli rahbar va maxsus xizmat organlari tomonidan ruxsat olinishi kerak;

- investitsiya loyihasining sanitariya-gigiena va ekologik talablarga javob berishi to`g`risida ekspertiza xulosasiga ega bo`lishi shart.

Yuqorida qayd qilinganlardan tashqari, investitsiya sub'ektlarining majburiyatlariga quyidagilar ham kiradi:

- vijdonan raqobat qilish va yakka hokimlikka qarshi muvofiqlashtirish talablarini bajarish;

- davlat, rahbar xodim va organlar tomonidan yuklatilgan talablarni baholash va ularga bo`ysunish;

- belgilangan tartibda buxgalterlik va statistik ma'lumotlar hamda hisobotlarni tegishli idoralarga o`z vaqtida yetkazib berish.

Bulardan tashqari investitsiya faoliyatining har bir ishtirokchisi maxsus ishlarni bajarish uchun litsenziyaga ega bo`lishi lozim. Litsenziya olish uchun bajarish lozim bo`lgan ishlarni ro`yxati va ularni amalga oshirish tartibi mumkin qadar qonunchilikda belgilanadi.

Investitsiyalashning asosiy bosqichlari quyidagilardir:

1) resurslarni kapital xarajatlariga aylantirish, ya'ni investitsiyalarni aniq investitsiya faoliyati ob'ektlariga investitsiyalash;

2) qo`yilgan mablag`larni kapital qiymatining o`shishiga aylantirish, bu investitsiyalarni pirovard iste'moli va yangi iste'mol qiymatini olish bilan harakatlanadi;

3) kapital qiymatini foyda ko`rinishida o`shishi, ya'ni investitsiyalashning yakuniy maqsadi amalga oshiriladi.

Shunday qilib, boshlang`ich va yakuniy bo`g`inlari birlashib, yangi o`zaro bog`liqlikni yaratadi, daromad-resurs-yakuniy natija (samara), ya'ni jamg`arish jarayoni qayta takrorlanadi.

¹⁵ Влинские П.Л., Левшец В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов: Теория и практика: Учебное пособие. -3-е изд. -М.: Дело, 2004.

Kapitalni o'sish manbasi va investitsiyalash maqsadida amalga oshirilayotgan loyihalardan olinadigan daromaddir.

Amaliyotda investitsiyalarning samaradorligini (IS) aniqlash uchun foyda massasining (F) investitsiya xarajatlariga (IX) bo'lgan nisbati foiz ko'rinishida olinadi.

Investitsiya xarajatlarini foyda bilan solishtirish jarayoni doimiy ravishda investitsiyalash amalga oshgunga qadar (investitsion loyihaning biznes-rejasi ishlab chiqarish davrida), investitsiyalash davrida (ob'ektni qurilishi davrida) va investitsiyalashdan so'ng (yangi ob'ektdan foydalanish davrida) davom etadi.

Kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligi ularning foydalanish ko'rsatkichlaridan bo'lib, mablag'larni ijtimoiy-ishlab chiqarishning u yoki bu tarmog'iga sarf qilishdan tutiladigan maqsad hisoblanadi.

Davlat kapital qo'yilmalarni xalq xo'jaligining turli sohalariga sarflar ekan, albatta uning yordamida ishlab chiqarishni kengaytirishni, ya'ni ishlab chiqarish quvvatlarini ishga solishni, va shu orqali mahsulotlarini miqdorini ko'paytirishni, uning sifatini yaxshilash, raqobatbardoshligini oshirishni maqsad qilib qo'yadi.

Ana shu qo'yilayotgan maqsadlarga erishishning turli yo'llari mavjud:

- kapital qo'yilmalarni iqtisodiy asoslangan yo'nalishlarga sarflash va ularni mintaqalar bo'yicha samarali joylashtirish;

- korxonalar va tashkilotlarda milliy iqtisodiyot va chet el texnikasini so'nggi yutuqlari asosida ishlangan texnika va texnologiyalarni qurilishni va ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sifatini oshirish, mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi va foydalilik darajasi o'sishini ta'minlash;

- qurilishni jadallashtirish va ishlab chiqarishga yangi quvvatlarni kiritish, qurilishlarni sifatli ishlangan texnik loyihalar bilan ta'minlash;

- qurilish qiymatini va kapital qiymatlarini ulushining pasayishi orqali kapital sarflarning birligiga foydali samara olish;

- yangi yaratilayotgan quvvatlarni o'zlashtirish muddatlarini qisqartirish.

Kapital qo'yilmalarning umumiy miqdorida ishlab turgan korxonalarni qayta qurishga ketadigan sarflarni ulushini ko'paytirish - ularni iqtisodiy samaradorligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Ammo korxonalarni qayta qurish har bir aniq holatida chuqur iqtisodiy asoslashni talab qiladi. Tajribalarning ko'rsatishicha, bir qator holatlarda dastlabki iqtisodiy hisob-kitoblarni qilinmasligi natijasida ko'pgina korxonalarda iqtisodiy jihatdan samarasiz ishlar amalga oshiriladi. Natijada ular qayta qurish va jihozlash ishlarini amalga oshirish xarajatlarini oshirib yuboradi va samaradorligini pasaytiradi.

Korxonalarni qayta qurishga sarflayotgan kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda qayta qurishgacha bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar undan keyingi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi. Sanoat korxonalarini qayta qurish ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirishni, uskunalarni unumdorligini o'stirishni va ishlab chiqarish quvvatlari o'sishini ko'zda tutadi. Qayta qurish natijasida mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi korxonalar foydasining pasayishiga olib keladi, ammo mahsulot tannarxini pasayishiga olib kelmaydi.

Agarda kapital qo'yilmalarning birligiga olinadigan foyda o'simi iqtisodiy samaradorlikning belgilangan koeffitsientidan past bo'lmasa, qayta qurish maqbul hisoblanadi. Boshqa xolatlarda ishlab chiqarish quvvatlarini ko'paytirishning boshqa yechimlarini izlash lozim bo'ladi. Xaqiqatdan xam ishlab chiqarish quvvatlarini o'sishi va shunga muvofiq mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi ustama xarajatlarni nisbatan kamaytirish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish va mahsulot miqdorini ko'paytirish orqali erishiladi.

Tannarxni pasaytirishga qayta qurish bilan unumli uskunalarni qo'llash va ilg'or texnologiyalarni joriy qilish orqali erishiladi.

Loyiha yechimlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun dastlab ishlab turgan korxonalar va inshootlarni rekonstruksiya qilish va yangilarini qurishni zarurligini va maqsadga muvofiqligining

texnik- iqtisodiy asosnomalar (TIA) ishlanadi. Bunday texnik-iqtisodiy asosnomalar rejalarga kiritiladigan har bir qurilish bo'yicha ishlashi lozim. Yirik korxonalar bo'yicha texnik-iqtisodiy asosnomalar loyiha tashkilotlari tomonidan ishlanadi.

Texnik-iqtisodiy asosnomalarda odatda:

Tegishli tarmoqlarda quvvatlarning o'sishini ta'minlovchi loyihalashtirilayotgan korxonalarining ahamiyatli xususiyatlari; korxonani mo'ljallayotgan quvvatlarni va mahsulot turlarini asoslash; zarur kapital qo'yilmalar hisob-kitobi; kapital qo'yilmalarning kutilayotgan iqtisodiy samaradorligi va mo'ljallanayotgan qurilishning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari o'z aksini topishi lozim.

Asosiy ko'rsatkichlardan tashqari kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini asoslash, ularning o'zini oqlash muddatlarini hisoblash; loyiha yechimlarini iqtisodiy baholash uchun qo'shimcha va yordamchi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar ham qo'llaniladi. Ularning qatoriga ishlab chiqarish maydonining 1 m kvadratiga mahsulot ishlab chiqarish, imorat va inshootlarning qurilish kubaturasini ko'rsatuvchi miqdor koeffitsienti va boshqalar zarur bo'ladi.

Sanoat korxonalarini loyihalashda ishlab chiqarish maydonlaridan tegishli foydalanish, imoratlar xillarini to'g'ri tanlash ancha sezilarli iqtisodiy samara berishi mumkin.

har qanday firmaning kapitali ikki qismdan - o'zining kapitali va qarzdin iborat bo'ladi. Shuning uchun firma kapitalini qiymati yoki firma qiymati - o'zining kapitali (aksiya qiymati) va qarz qiymati summasi hisoblanadi.

Formulada izohlansa: $V=S+B$

Ya'ni V-firma (korporatsiya) qiymati, S-o'zining kapitali qiymati, B- qarz qiymati. Qarz qiymatining asosiy kapital qiymatiga nisbati (B/S) moliya liveriji koeffitsienti deyiladi.

(liverij-1) investitsiya daromadligini ko'paytirish uchun zayom kapitalini foydalanish; 2) zayom mablag'larini korporatsiyani o'z kapitaliga nisbati).

26. INVESTITSYAVIY LOYIHALARDA TAVAKKALCHILIK TAHLILI.

Tayanch iboralar: noaniqlik, tavakkalchilik, ishlab chiqarish tavakkalchiligi, moliyaviy tavakkalchilik, investitsiyaviy tavakkalchilik, bozor tavakkalchiligi, kapital qo'yilmalar tavakkalchiligi, sezuvchanlik tahlili, ssenariylar tahlili, imitatsion modellashtirish.

1. Noaniqlik va tavakkalchilikning umumiy tushunchalari.

Investitsiyaviy loyiha, kapital va joriy xarajatlar, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish hajmi, tovarlar narxi, loyihaning vaqt chegaralariga nisbatan yetarlicha aniq fikrlarga asoslangan bo'ladi. Bunday fikrlarning sifati va asoslanganlik darajasidan qat'iy nazar, loyihani amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan voqealar rivoji har doim bir xil emas. Bu har qanday tadbirkorlik faoliyatining asosiy aksiomasi. Shu munosabat bilan, investitsiyaviy loyihalashtirish amaliyoti, boshqalar qatorida, noaniqlik va tavakkalchilik jihatlarini ham ko'rib chiqadi.

Noaniqlik deganda – kelajakdagi muayyan voqealar rivojining bir xilda bo'lmaslik holati, boshqacha qilib aytganda bizning hamma narsani bila olmasligimiz va korxonada faoliyati, shu jumladan investitsiyaviy loyihani amalga oshirish, rivojlanishining asosiy kattalik va ko'rsatkichlarini aniq bashorat qila olmaslik holati tushuniladi.

Noaniqlik holatida, yetarlicha aniq bo'lgan qaror yo'q, chunki investitsiyaviy loyihaning har bir ko'rsatkichi bo'yicha mumkin bo'lgan qiymati intervallari samaradorlik ko'rsatkichi qiymatining intervallarini keltirib chiqaradi. Ushbu interval, odatda, kapital qiymatini qoplaydi, bu esa loyihani bir xilda qabul qilish yoki rad etish imkonini bermaydi. Bu yerda, qaror qabul qilish uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi, yangi bir omil paydo bo'ladi – bu tavakkalchilik omili.

Faraz qilaylik, bir yoki bir necha kattaliklarni (misol uchun, sotish hajmi, mahsulot narxi, umumiy xarajatlar va h.) interval shaklida berish oqibatida, daromadlilikning ichki me'yoriy qiymatlarining tegishli intervali [11,2%; 18,5%] dan iborat bo'ldi. Korxonada kapitali qiymati 14%ga teng. Loyihani qabul qilish kerakmi, yoki rad etish? To'g'ri qaror qabul qilish uchun, korxonada uchun salbiy oqibatlar tavakkalchiligini baholash lozim.

Umumiy holatda, tavakkalchilik deganda, biror-bir noxush voqeaning ro'y berish ehtimoli tushuniladi. Tabiiyki, tadbirkorlik faoliyatida bunday noxush voqealarga korxonada resurslarining bir qismini yo'qolishi, rejalashtirilgan daromadlarning pasayishi yoki qo'shimcha xarajatlarning kelib chiqishi va boshqalar tushiniladi.

Tavakkalchilik – bozor muhitining o'ziga xos xususiyatidir. Tavakkalchilikning asosiy turlari quyidagilar:

- korxonada tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmasligi ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish tavakkalchiligi;

- korxonada tomonidan o'z investorlari oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bajarmasligi ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan, moliyaviy tavakkalchilik;

- shaxsiy va sotib olingan qimmatli qog'ozlardan iborat moliyaviy-investitsion portfelning qadrsizlanishi ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan, investitsiyaviy tavakkalchilik;

- fond bozorida bozor foiz stavkalari va valyutalar kurslarining o'zgarishi ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan, bozor tavakkalchiligi;

- mamlakatdagi barqaror bo'lmagan siyosiy vaziyat tufayli investorlar uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noxush voqealar bilan bog'liq siyosiy tavakkalchilik.

Kapital qo'yilmalar tavakkalchiligi – bu muayyan turdagi tadbirkorlik faoliyati tavakkalchiligi bo'lib, mablag` kiritishdan istalgan daromadni olmaslik ehtimoli bilan bog'liq. Bunday tavakkalchilik, tavakkalchilikning yuqorida sanab o'tilgan barcha turlarini o'z ichiga oladi.

Qator vaziyatlarda, ehtimollik kategoriyalaridan foydalanishni nazarda tutmaydigan, oddiyroq yondashuvlar bilan chegaralanish mumkin. Ushbu uslublar, investitsiyaviy loyihani amalga oshirish davomida korxonada menejmentini takomillashtirish uchun ham, investitsiyaviy loyiha maqsadga

muvofigligini to'liq asoslash uchun ham yetarlicha samaralidir. Bunday yondashuvlar: sezuvchanlik tahlili va investitsiyaviy loyiha ssenariylari tahlilidan foydalanish bilan bog'liq.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, noaniqlik tahliliga bo'lgan ikki guruhdagi yondashuvlarni ajratishimiz mumkin:

- sezuvchanlik va ssenariylar tahlili yo'li bilan noaniqlik tahlilini amalga oshirish;
- turli xil ehtimoliy-statistik usublardan foydalangan holda tavakkalchiliklarni baholash yordamida noaniqlik tahlilini amalga oshirish.

Investitsiyaviy loyihalashtirishda, odatda, ketma-ket har ikkala yondashuvdan ham foydalaniladi. Bunda birinchi yondashuv majburiy, ikkinchisi esa xoxish bo'yicha.

12.2 Sezuvchanlik tahlili.

Sezuvchanlik tahlilining asosiy maqsadi – investitsiyaviy loyiha turli xil omillarini loyiha samaradorligining asosiy ko'rsatkichi, misol uchun daromadlilikning ichki me'yoriga, ta'sirining taqqoslama tahlilidan iboratdir.

Sezuvchanlik tahlilini o'tkazishning eng ratsional ketma-ketligini keltiramiz.

1. Investitsiyalar samaradorligining asosiy ko'rsatkichini tanlash. Bunday ko'rsatkich sifatida daromadlilikning ichki me'yori (IRR) yoki sof zamonaviy qiymat (NPV) xizmat qilishi mumkin.


2. Investitsiyaviy loyiha muallifi aniq fikrga ega bo'lmagan omillarni tanlash (ya'ni, noaniqlik holatida bo'lgan). Odatda bularga quyidagi omillar kiradi:

- kapital xarajatlar va aylanma mablag'larga qo'yilmalar;
- bozor omillari-tovar narxi va sotish hajmi;
- mahsulot tannarxining tarkibiy qismlari;
- asosiy vositalarni qurish va ishga tushirish vaqti.

3. Ikkinchi bosqichda tanlangan noaniq omillarning nominal va chegaraviy (yuqori va quyi) qiymatlarini o'rnatish.

4. Noaniq omillarning barcha tanlangan chegaraviy qiymatlari uchun asosiy ko'rsatkichni hisoblash.

5. Barcha noaniq omillar uchun sezuvchanlik grafigini barpo etish. G'arb investitsiyaviy menejmentida bunday grafik "Spider Graph" deb nomlanadi. Uchta omil uchun bunday grafikga misol 12.1-rasmda keltirilgan.



12.1-rasm. Loyihaning noaniq omillar o'zgarishiga sezuvchanligi.

Mazkur grafik loyihaning eng kritik omillari to'g'risida xulosa chiqarish, va investitsiyaviy loyihani amalga oshirishda ularga alohida e'tibor qaratgan holda tavakkalchilikni pasaytirish imkonini beradi. Misol uchun, agarda mahsulot narxi kritik omil deb topilgan bo'lsa, loyihani amalga oshirish davomida marketing dasturini yaxshilash va (yoki) tovar sifatini oshirish lozim. Agarda loyiha ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga sezuvchan bo'lsa, korxonada ichki boshqaruvini takomillashtirish va

unumdorlikni oshirish bo'yicha maxsus choralarni kiritishga alohida e'tibor qaratish lozim. Va nihoyat, agarda moddiy xarajatlar omili kritik deb topilgan bo'lsa, xom-ashyo xarid narxini pasaytirish imkonini beruvchi yangi uzoq muddatli shartnomalarni tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

12.3. Ssenariylar tahlili.

Ssenariylar tahlili – bu tavakkalchilik tahlilining shunday uslubiki, u boshlang'ich ma'lumotlarning bazis to'plami bilan bir qatorda, loyiha mualliflari nuqtai nazaridan ro'y berishi mumkin bo'lgan, bir qator boshqa ma'lumotlar to'plamlarini ham ko'rib chiqadi. Ssenariy tahlilida, moliyaviy tahlilchi texnik menejerdan «yaxshi» va «yomon» (sotuvlarning kichik hajmi, past narx, yuqori tannarx va h.) holatlardagi ko'rsatkichlarni tanlab olishni so'raydi. Bundan so'ng, yaxshi va yomon sharoitlardagi NPV hisoblanadi va kutilayotgan NPV bilan taqqoslanadi.

12.4. Monte-Karlo imitatsion modellashtirish uslubi.

Monte-Karlo imitatsion modellashtirish uslubi, tasodifiy ssenariylarni yaratish imkonini hosil qilishi hisobiga, tavakkalchilikni baholashda qo'shimcha imkoniyatlarni yaratadi.

Tavakkalchilik tahlili natijasi NPVning qandaydir yagona qiymati bilan emas, balki ushbu ko'rsatkichni butun mumkin bo'lgan qiymatlarining ehtimoliy taqsimlanishi ko'rinishida ifodalanadi. Demak, potensial investor, Monte-Karlo uslubi yordamida, loyiha tavakkalchiligini tavsiflovchi ma'lumotlarning to'liq to'plami bilan ta'minlangan bo'ladi. Ushbu asosda mablag' taqdim etish to'g'risida qaror qabul qilish mumkin.

Umumiy holatda, Monte-Karlo imitatsion modellashtirilishi bu shunday jarayonki, uning yordamida qandaydir moliyaviy ko'rsatkichning (bizning misolimizda NPV) matematik modeli, kompyuter yordamida bir necha marta imitatsion tarzda hisoblab o'tkaziladi. Imitatsiya jarayoni shunday amalga oshiriladiki, o'zgaruvchanlar o'rtasidagi ma'lum bo'lgan yoki faraz qilinadigan korrelyatsiya munosabatlariga ziyon yetkazilmaydi. Natijalar, tavakkalchilik me'yorini hisoblash uchun, statistik tarzda yig'iladi va tahlil qilinadi.

Tavakkalchilik tahlili jarayoni quyidagi bosqichlarga ajratilishi mumkin (9.2-rasm).

Tavakkalchilik tahlili jarayonidagi birinchi bosqich – prognoz modelini yaratishdir. Bunday model, tanlangan moliyaviy ko'rsatkich prognoziga tegishli bo'lgan sonli o'zgaruvchilar o'rtasidagi matematik nisbatlarni belgilaydi. Investitsiyaviy tavakkalchilik tahlili uchun bazis model sifatida, odatda NPV ko'rsatkichining hisob modulidan foydalaniladi.

<p>Prognoz modeli Loyiha samaradorligini hisoblashni prognoz qila oladigan modelni tayyorlash</p>	<p><u>Ehtimollikni taqsimlanishi</u> (1-bosqich) tasodifiy o'zgaruvchilar taqsimlanishining ehtimoliy qonunini aniqlash</p>	<p>Ehtimollikni taqsimlanishi (2-bosqich) O'zgaruvchilar qiymati diapazonining chegaralarini o'rnatish</p>
<p>Korrelyatsiya shartlari Korrelyatsiyalangan o'zgaruvchilarning munosabatlarini o'rnatish</p>	<p>Imitatsion o'tkazishlar Tasodifiy ssenariylardan foydalanish</p>	<p>Natijalar tahlili Imitatsiya natijalarining statistik tahlili</p>

12.2.-rasm. Tavakkalchilik tahlili jarayoni.

$$NPV = CF_0 + \frac{CF_1}{(1+r)^1} + \frac{CF_2}{(1+r)^2} + \dots + \frac{CF_n}{(1+r)^n} = \sum_{k=0}^n \frac{CF_k}{(1+r)^k} \quad (12.1)$$

Umumiy prognoz modeli quyidagi tarzda imitatsiya qilinadi. Pul oqimlarining muayyan qiymatlariga tegishli bo'lgan, katta hajmdagi tasodifiy ssenariylar ishga tushiriladi. Keyinchalik ularning NPV manfiy qiymatiga tegishli bo'lgan ulushini aniqlash maqsadida, bitta joyga yig'iladi va statistik qayta ishlanadi. Bunday ssenariylarning umumiy ssenariylar soniga nisbati investitsiyalar tavakkalchiligini baholaydi.

Model o'zgaruvchilari (pul oqimlarining) ehtimollarining taqsimlanishi, bunday kattaliklarni muayyan diapazonlardan tanlash imkonini beradi. Bunday taqsimlanish matematik tarzda amalga oshiriladi, va bu bilan modellashtirish jarayonidagi har bir o'zgaruvchi uchun qiymatlarning tasodifiy tanlanishi nazorat qilinadi.

«Modellarni hisoblash» ishi kompyuter zimmasiga yuklanadi, va hisoblashlar soni qaror qabul qilish uchun yetarli bo'lgunga qadar amalga oshiriladi.

Imitatsion modellashtirishni amaliy bajarish uchun Garvard universitetida ishlab chiqilgan «Risk Master» dasturini taklif etish mumkin. Bu dasturning asosiy xususiyati shundaki, u korrelyatsiyalangan tasodifiy sonlar bilan ham ishlash imkoniga ega.

Tavakkalchilik tahlilining so'nggi bosqichi, modellarni hisoblash bosqichida olingan natijalarni qayta ishlash va asoslashdir. Har bir hisoblash $p = 100 : n$,

Bo'lgan voqea ehtimolligini tavsiflaydi

Bu yerda: r – bir martalik hisoblash ehtimoli,%;

n – tanlov kattaligi.

Misol uchun agarda tasodifiy hisoblashlar soni 5000ga teng bo'lsa, bitta hisoblash ehtimoli $p = 100 : 5000 = 0,02$ %ga teng bo'ladi.

Tavakkalchilik me'yori sifatida, investitsiyaviy loyihalashtirishda, NPVning manfiy qiymatiga ega bo'lish ehtimolini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunday ehtimollik imitatsion modellashtirishning o'rtacha statistik natijalari asosida baholanib, bitta hisoblash ehtimoli va manfiy qiymatga ega natijalar ko'paytmasiga teng bo'ladi. Misol uchun, 5000ta hisoblashdan 3454tasida NPV qiymati manfiy bo'lsa, tavakkalchilik me'yori 69,1%ni tashkil etadi.

Nazorat savollari:

6. Tavakkalchilik va noaniqlik deganda nima tushuniladi?
7. Tavakkalchilikni miqdoriy ta'riflash imkoniyatlari qanday?
Investitsiyaviy loyihaga tavakkalchilikning qanday asosiy turlari mansub?
4. Eng oddiy usul yordamida noaniqlikni qanday ta'riflash mumkin?
5. Investitsiyaviy loyihalashtirish jarayonida tavakkalchilik tahliliga bo'lgan qaysi uchta yondashuvni bilasiz?
6. Sezuvchanlik tahlilining mohiyati nimada?
7. Investitsiyaviy loyihalar tavakkalchiligi tahlilida ssenariylar tahlilining mohiyati nimada?

27-mavzu. Инвестицион лойихалар экспертизаси

Innovatsion loyixa texnik-iqtisodiy asoslash mavjud ishlab chiqarish omillariga mahalliy bozor va ishlab chiqarish shart-sharoitlariga bog'langan bo'lishi lozim. Tahlil natijalari xarajatlar, daromadlar va sof foyda qismini tadqiqod natijasida aniqlangan kerakli moliyaviy mablag'lar etarli darajadali ma'lum bo'lgandagina amalga oshirilishi lozim.

Texnik-iqtisodiy asoslash da ishlab chiqarish tugallangandan so'ng barcha aniq bo'lgan mahsulotlari va tahmin qilingan risklar, xarajatlar va foyda bilan bog'liq holda turli xil ishtirokchilar investitsiya loyihasini baholashda o'zlarining shaxsiy tahliliy xulosasini beradilar. Yirik investitsiya va moliyaviy tashkilotlar yaratilgan va shakllantirilgan usullar yordamida loyihani baholashni olib boradilar va tegishli xulosalarni tayyorlaydilar.

TIA sifati qanalik yuqori bo'lsa, loyihani baholash ishi shunchalik engil kechadi. Loyiha g'oyasi tug'ilgan vaqtdan boshlab so'nggi davrgacha ko'p vaqt va mablag'lar sarfi kuzatiladi. So'nggi baholash xulosalari esa ushbu ishlab chiqarish dan oldingi qilingan xarajatlar o'zini oqlashi mumkinligini ko'rsatadi va shu jihatdan yuqori ahamiyatli hisoblanadi.

Mablag'larni loyihaga investitsiyalashdan oldin bajariladigan muhim ishlardan biri bu loyiha bo'yicha investitsiya imkoniyatlarini aniqlashdir. Salohiyatli investorlar ular qanday bo'lishdan qat'iy nazar rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlarning yuzaga kelayotgan investitsiya imkoniyatlari to'g'risida ma'lumot olishga qiziqishadi.

“Bunday investitsiya loyihalari bo'yicha ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish 2 xil yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Iqtisodiy sektor darajasi bo'yicha yondashish (makro).

2. Korxonalar darajasi bo'yicha yondashish (makro).

Iqtisodiy sektor darajasi bo'yicha izlanishlarni olib borish o'sha davlatning butun investitsiyasi salohiyatini hamda bu davlatni boshqa davlatlar tomonidan investitsiya qilinishi mumkin bo'lgan mablag'lar hajmini o'rganish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Korxonalar miqyosidagi tahlil aniq investitsiyalar loyihasi bo'yicha qo'yilayotgan talablardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Loyiha bo'yicha investitsiya imkoniyatlarini o'rganish va tahlil qilishda quyidagi omillarga alohida e'tibor beriladi:

➤ Umumiy investitsiya muhiti shart-sharoitlar.

➤ Qayta ishlanishi mumkin bo'lgan tabiiy boyliklar va xom-ashyo resurslar.

➤ Ishlab chiqarish mo'ljallanayotgan tovarga kelgusidagi talab.

➤ Loyihaning atrof-muhitga ta'siri.

➤ Boshqa tarmoqlar bilan kelgusidagi o'zaro aloqasi va imkoniyatlari.

➤ Diversifikatsiyalash imkoniyati. Masalan, neft-ximiya majmuasidan formatevtik ishlab chiqarishga o'tish.

➤ Ishlab chiqarish resurslarining mavjudligi va ularning qiymati.

➤ Eksport imkoniyatlari.

➤ Import o'rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish

Investitsiya imkoniyatlari bo'yicha izlanishlar yuqorida keltirilgan omillar bo'yicha har birining alohida tahliliga emas, balki umumiy baholashga asoslanadi.

Loyiha g'oyasini rivojlantirish uchun aniq takliflar kiritishda talab etiladigan ma'lumotlarni miqdoriy baholash uchun investitsiya imkoniyatlarini tadqiq etish asosiy vo-sita hisoblanadi.

DTIA loyiha imkoniyatlarini tadqiq etishni puxta TIA o'rtasidagi oraliq sifatida ko'rib chiqish lozim. Ularning farqi esa olinadigan ma'lumotni detallashtirish darajasi va loyiha variantlarini chuqur ko'rib chiqishga asoslanadi. DTIA ning tuzilishi murakkab tarzda TIA ning tuzilishi kabi bo'lishi lozim.

Mumkin bo'lgan muqobillarni puxta tahlil etish DTIA bosqichida alohida o'rin egallashi kerak. Xususan, tahlil tadqiqotning quyidagi sohalarida turli xil muqobillarni qamrab olishi zarur.

➤ Loyiha strategiyasi yoki loyihaning korporativ strategiyasi va andozasi.

➤ Bozor va marketing kontseptsiyasi.

➤ Xomashyo, asosiy va yordamchi ishlab chiqarish materiallari.

➤ Loyihaning joylashish o'ri, maydoni va atrof-muhit.

➤ Tashkil etish va o'zgaras (ustama) xarajatlar.

➤ Mehnat resurslari, xususan, boshqaruv xodimlari, ishchilar uchun ish haqi sarflari, shuningdek, professional o'qitishga talablar va unga doir xarajatlar.

➤ Loyihani amalga oshirish ro'yxati va byudjetini tuzib chiqish va h.k.

Asosiy kiritiladigan resurslar loyiha hayotiyligini aniqlashda hal qiluvchi omilga aylangandagina tadqiqot ta'minoti DTIA va TIA bosqichlariga olib boriladi. Agar muayyan aniq mahsulot ishlab chiqarishni aniqlashi uchun zarur bo'lgan puxta o'rganishlar ham TIA ga xos bo'lsa, tadqiqot

ta'minoti alohida, biroq DTIA va TIA bajarilish bilan bir paytda olib boriladi. Tadqiqot ta'minoti TIA tugallanishidan keyin ham olib borilishi mumkin.

TIA investitsiyalash to'g'risida qaror qabul qilish uchun kerakli barcha ma'lumotni berishi lozim, o'z navbatida, investitsiya loyihasining tijorat, texnik, moliyaviy, iqtisodiy va ekologik jihatlari aniqlangan va DTIA bosqichida ko'rib chiqilib muqobil variantli echimlar asosida to'liq baholangan bo'lishi lozim. Izlanishlarning moliyaviy qismi sof aylanma kapital, ishlab chiqarish va marketing xarajatlari, sotishdan tushgan tushum va investitsiya qilingan kapitaldan olingan foydani o'z ichiga olgan holda investitsiyalar hajmini aniqlashdan iborat.

Investitsiya va ishlab chiqarish xarajatlarini yakuniy baholash, shuningdek, moliyaviy va iqtisodiy foydaliligini alohida hisoblash loyiha o'lchami bo'yicha barcha muhim jihatlarni va ular bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda to'g'ri aniqlangandagina maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Loyihaning barcha hajmi kelgusi ishlarning asosiy qismi bo'lib xizmat qiluvchi chizmalar, sxemalar, jadvallarda to'la aks ettirilgan bo'lishi lozim.

Yakuniy baholash faqat aniq loyiha bilan cheklanib qolmasdan, u bilan bog'liq sanoat sohasi va tegishli iqtisodiyot bilan ham qiziqqan holda bajariladi. Deylik, agar avtomobil qurilishi korxonasi baholanayotgan bo'lsa, u holda xulosa xomashyo va uskuna etkazib beruvchi soha, transport sohasi, mavjud avtomobil va temir yo'llari va energiya ta'minoti imkoniyati bilan bog'liq masalalarni hisobga oladi. Yakuniy xulosa tuzishda keng qamrovli loyihalar uchun to'plangan ma'lumotlar va loyihaning barcha omillari tahlilini qayta jiddiy tekshirib chiqish qat'iy talab etiladi.

28-mavzu. INVESTITSIYAVIY LOYIHALARNI KO'P MEZONLI BAHOLASH USULLARI

Investitsiyaviy loyihalarni ko'p mezonli baholash va optimallashtirish muammolariga ko'plab tadqiqotlar bag'ishlangan bo'lsada, bu yo'nalish doimo dalzarb hisoblanadi, chunki, birinchidan muammoning fan va amaliyot uchun muhimligidan, ikkinchidan ko'rsatkichlarni sonli va sifatli birgalikda baholash, baholashning ko'pdarajali ekanligi, ko'pmezonli ko'pdarajali avtomatik baholash uchun dasturiy vositalar ishlab chiqish kabi masalalar yetarlicha ishlanmaganligidandir.

Investitsiyaviy loyiha yechimlarining eng yaxshi variantlarini tanlash uchun eng maqul yondoshuv bizningcha quyidagicha yechim variantlarini baholash va tanlashdir:

1. Optimallik mezonlari bilan birgalikda yechim qabul qiluvchi shaxs tomonidan qo'shimcha evristik ma'lumotlarni jalb qilish talab qilinadi;

Valdning maksimal mezonni yoki kafolatlangan natija prinsipi, optimallik sifatida W_i variant tanlanadi, bunda matritsadagi me'yorlashgan ko'rsatkichning minimal qiymatlaridan maksimali tanlanadi:

$$W_i = \max_i \min_j \bar{P}_{ij}$$

Gurvits mezonni (pessimizm-optimizm mezonni deb atalib, loyiha variantlarini baholashda o'ta pessimizmga ham, o'ta yuzaki optimizmga ham berilmasdan baholashni taklif qiladi) quyidagi ko'rinishga ega:

$$H_i = \max_i \{ \alpha \min_j \bar{P}_{ij} + (1 - \alpha) \max_j \bar{P}_{ij} \},$$

bu yerda α – koeffitsient, qiymatlari 0 va 1 oralig'ida bo'ladi.

Laplas mezonni variantlar ko'rsatkichlarining nafaqat "eng yomon" va "eng yaxshi" qiymatlarini, balki barcha qiymatlarini hisobga oladi, oraliq qiymatlari quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\max S_j = \frac{1}{m} \sum_{i=1}^m P_{ij}$$

Bu yerda n – ustun bo'yicha ko'rsatkichlarning umumiy soni.

Sevidj mezoni bo'yicha har bir variant uchun baholar to'plamidan bahoning maksimal qiymati tanlanadi va hosil bo'lganlar ichidan minimali tanlab olinadi:

$$C = \min_i \max_j (\max_i P_{ij} - \overline{P_{ij}}).$$

2. Additivlik mezoni vektorli mezonlarni taqqoslash usullaridan biridir. Bu holda qo'shimcha evristik ma'lumotlar yechim qabul qilish sohasining yetuk mutaxassislari bo'lgan ekspertlar guruhidan olinadi. Bunday ma'lumotlar og'irlik koeffitsienti sifatida qo'llanilib, dastlabki ko'rsatkichlar to'plamiga beriladigan ustunlikni xarakterlaydi. Umuman olganda har bir variant bo'yicha baholash shkala rangi sifatida ifodalanadi.

Additivlik mezonida ahamiyatli o'rinni ekspert baholash usuliga asoslangan α_j egallaydi. Variantlar quyidagi formula bo'yicha baholanadi:

$$\min F(X) = \sum_{j=1}^s a_j P_{ij}^-(x) - \sum_{j=s+1}^m a_j P_j^+(x)$$

bu yerda $P_{ij}^-(x), P_j^+(x)$ - ko'rsatkichlarning qiymatlari mos ravishda minimallashtiriladi ($j = \overline{1, s}$) yoki maksimallashtiriladi ($j = \overline{s+1, m}$);

3. Ranglar bo'yicha yoki ranglar summasi bo'yicha integral reyting, bunda yuqoridagi ikkala yondoshuv bo'yicha natijaviy baholar umumlashtiriladi, bu esa variantlarni nisbatan ob'ektiv natijaviy baholash imkonini beradi.

Qo'yilgan loyihaviy yechimlarni ko'pmezoni ko'pdarajali baholash va ularning eng yaxshisini tanlash uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan.

Ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot quyidagi funksiyalarni avtomatlashtirishni ta'minlovchi algoritmik va dasturiy vositalar majmuidan iborat: investitsion loyihaning yangi variantlarini shakllantirish; investitsion loyihaning mavjud variantlarini o'zgartirish; foydalanuvchi bilan muloqat jarayonini tashkil qilish; investitsion loyihalarni optimallik mezonlari bo'yicha baholash va tahlil qilish; loyihani tanlash va qabul qilish va h.

Dasturiy vositalar quyidagi masalalarni yechishga mo'ljallangan:

- Bir necha mezonlar bo'yicha investitsion loyiha variantlarini baholash va tahlil etish (Vald, Gurvits, Laplas, Sevidj mezonlari, bir qancha integral reyting buyicha rangli shkalali baholash);

- loyihalarning jalb qiluvchanligini ko'pmezoni baholash, bu loyihalarni dastlabki ishlashda, hamkorlar uchun uning investitsion jalb qiluvchanligini baholash maqsadiga xizmat qiladi. Baholash quyidagi asosiy ko'rsatkichlar orqali amalga oshiriladi: kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligi; kapital qo'yilmalarning foydalilik darajasi; loyihani qoplash muddati; loyiha bo'yicha investitsiyaviy va operatsiyaviy faoliyat natijalariga ko'ra loyiha samaradorligini baholash;

Loyihalarni baholash va o'zaro taqqoslash quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshiriladi: sof diskontlangan foyda; foydalilikning ichki me'yori; daromadlilik indeksi; investitsiya rentabelligi;

- kapitalni ko'p davrli me'yorlashtirishda loyihalarni baholash. Bu moduldan investitsiya uchun mumkin bo'lgan fondlarning cheklanganlik holatida foydalaniladi.

29-30-mavzular. Qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatini va biznesini rejalashtirish

1. Rejalashtirishning tizimi, tamoyillari va tuzish uslubi.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan, korxonalarining ichki iqtisodiy munosabatlarini o'zida aniq aks ettira oladigan mexanizm bu - rejalashtirishdir.

Bozor munosabatlarining talab va taklif qonuniyatlariga tayangan xolda yaratilgan rejalashtirish tizimi, qishloq xo'jalik korxonalarida mavjud bo'lgan tarmoqlar o'rtasida, ularning ichki resurslaridan foydalanishda mutanosiblikni o'rnatib, ishlab chiqarishning uzluksiz va tez sur'atlar bilan rivojlanib borishiga imkoniyatlar yaratadi.

Rejalashtirishdan asosiy maqsad bozorni sifatli, arzon va raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirish, qishloq xo'jalik korxonalarining soha va tarmoqlari o'rtasida ichki resurslar bilan ta'minlanish mutanosibligini o'rnatish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Rejalashtirish natijasida qishloq xo'jalik korxonalarini yer va boshqa ishlab chiqarish vositalaridan, mehnat va moliya resurslaridan, tabiiy boyliklar, fan va texnika yutuqlari hamda ilg'or tajribalardan oqilona va samarali foydalanishga, tejamkorlik qoidalariga rioya qilishga va nobudgarchiliklarga yo'l qo'ymaslikka erishishni nazarda tutadi.

Rejalashtirish orqali quyidagi vazifalar hal etiladi:

- qishloq xo'jalik korxonalarini ichida agrar va iqtisodiy munosabatlarni **chuqur islox qilish asosida xususiy mulkchilikni shakllantirish va mustahkamlash**;

- dehqonning yer va boshqa ishlab chiqarish vositalari, mehnat, moliya va ilmiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanishida shaxsiy javobgarligi va manfaatdorligini oshirishni ta'minlash;

- har bir qishloq xo'jalik korxonasida ekinlar hosildorligini, chorva va parranda mahsuldorligini oshirishning aniq yo'llarini hisoblab chiqib, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida mehnat unumdorligini o'stirish, sarf-xarajatlarni tejash va ishlab chiqarish rentabelligini ko'tarish;

- korxonaning tabiiy-iqtisodiy sharoitini hisobga olgan holda, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va tarmoqlarni bir-biri bilan samarali muvofiqlashtirish;

- mahsulot sotish bo'yicha korxonada tuzgan shartnomalarning bajarilishini ta'minlash;

- korxonada ishlab chiqarish munosabatlarini, texnika va texnologiyasini takomillashtirish, fan, texnika va ilg'or tajribalarni, tadbirkorlikni xorijiy davlatlar va ichki investitsiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etib, eksportbop tovar mahsulotlari yetishtirishni ta'minlash.

Shuning bilan birgalikda, qishloq xo'jalik korxonalarida iqtisodiy va agrar o'zgarishlarni o'zida aks ettira oladigan, mulk egasi huquqini ta'minlovchi bozor mexanizmi va moddiy rag'batlantiruvchi omillarni **jonlantirish** va rejalashtirish ular zimmasiga yuklangan vazifalar qatoriga kiradi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda rejalashtirish quyidagi **tamovillarga** tayanadi:

- rejalashtirishning **demokratik mustakillikka** asoslanishi, ya'ni korxonaning ishlab chiqarish moliya faoliyatini tashkil etishda, xo'jalik ichida iqtisodiy va agrar munosabatlarni joriy etishda har tomonlama mustaqillik va bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan boshqarish tizimini o'rnatishda demokratik qonun-qoidalarga amal qilish;

- rejalashtirishning **ustuvor yunalishlarini** belgilash, ya'ni korxonada uchun har bir gektar yerdan va har bir bosh chorvadan **eng ko'p foyda** olinadigan ishlab chiqarish yo'nalishini biznes reja orqali asoslab olish va shu yetakchi bo'g'ingacha korxonaning barcha resurslarini jalb etib, ulardan oqilona foydalanish, rejani o'z vaqtida bajarish hamda ishlab chiqariladigan tovar mahsulotlar miqdorini ko'paytirish, assortimentlarini yaxshilash, mehnat sarfini kamaytirish uchun eng qulay sharoitlar yaratish;

- istiqbol va yillik rejalarining bir biri bilan uygunlashganligi va ilmiy jihatdan asoslanganligini ta'minlash, ya'ni korxonada yetakchi tarmoqdan eng ko'p foyda olish atrofida, rejaning barcha qismlarini bir biri bilan uyg'unlashtirib, ular o'rtasida mutanosiblikni o'rnatish imkoniyati yaratiladi. Ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun esa reja ko'rsatkichlari ilmiy jihatdan asoslangan me'yorlarga tayangan bo'lishi kerak. Fan-texnika yutuqlari, zamonaviy ilg'or texnologiyalardan foydalanish ishlab chiqarishni tashkil etishda rejalashtirish mexanizmidan keng foydalanishni talab etadi;

- korxonada iqtisodiyotini barqarorlashtirish, ya'ni korxonada yuzaga kelayotgan tangliklarni bartaraf etish uchun ko'riladigan barqarorlashtirish chora-tadbirlari majmuasi, korxonada to'la inqirozga uchrashiga chap berish maqsadida ishlab chiqarish va ishlab chiqariladigan mahsulotlar tarkibini o'zgartirish tadbir-choralarini avvaldan rejalashtirib, ishlab chiqarish xarajatlarini tejashga, mahsulot sifatini yaxshilashga, ularning raqobatbardorligini oshirishga harakat qilish.

Ta'kidlash lozimki, korxonada tuzilgan barcha turdagi rejalarining bajarilishini muntazam ravishda nazorat qilinishi va ularning o'z muddatida bajarilishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi ishchi xodimlarning ish natijalari uchun javobgarligini kuchaytiradi.

Rejalarning ilmiy asoslangan va aniq bo'lishi, ko'p jihatdan ularni **tuzish usullariga** bog'liq bo'ladi. Bunga qishloq xo'jaligini rejalashtirishining muvozanat, me'yoriy mezon, iqtisodiy-matematik usullari va avtomatik boshqarish tizimini kiritish mumkin.

Muvozanat usuli - bu bugun agrar sanoat korxonalarini va shu jumladan qishloq xo'jalik korxonalarini taraqqiyotini rejalashtirishda qo'llanilayotgan asosiy usullardandir. Bu usulning iqtisodiy mohiyati shundaki, qishloq xo'jaligining turli soha va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikning moddiy, mehnat va moliya resurslariga talabi va uni qondirish manbalarini aks ettiradi.

Reja muvozanatlari uch turda tuziladi: mehnat, moddiy resurslar va qiymat muvozanatlari.

Moddiy muvozanatlar qishloq xo'jalik korxonasining barcha tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar turi bo'yicha tuziladi. Masalan don, paxta, go'sht, tuxum va h.k.

Mehnat resurslari muvozanati ishlab chiqarish uchun talab etiladigan xodimlar va mutaxassis kadrlar miqdori bilan aniqlanadi.

Qiymat muvozanati pul ko'rinishida tuzilib, yalpi mahsulotning solishtirma va joriy baholardagi ifodasidir.

Mezon Me'yoriy (normativ) muvozanat usuli mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishda reja - topshiriqlarini iqtisodiy jihatdan asoslab beradi. Bu usulda ishlab chiqarish uchun talab qilinadigan resurslar me'yoriy ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi. Masalan: yoqilg'i, urug'liklar, o'g'it, yem-xashak va hokazo. Me'yoriy ko'rsatkichlar vaqti-vaqti bilan ishlab chiqarish texnologiyasi va texnikasining yangilanish va mehnat unumdorligining o'sish darajasiga qarab o'zgartirib turiladi. Aks holda, ular ishlab chiqarishni rivojlantirishga salbiy ta'sir etadi.

Iqtisodiy-matematik usul murakkab texnikani, EHMlarni yangi kompyuterlar tizimini talab etadi. Qishloq xo'jaligini rejalashtirishda bu usulning chiziqli-dasturlash, rejalashtirish, korrelyatsiya singari turlaridan foydalaniladi. Bu usuldan chorva mollar ratsioni, poda tarkibi, ekinlar hosilini dasturlash, MTP parkidan foydalanishning oqilona tarkibini aniqlashda keng foydalaniladi.

2. Biznes rejaning maqsadn, vazifalari va talablari

Biznes reja o'rta va kichik tadbirkorlar yoki dehqon va fermerlarning aniq goyaga asoslangan hamda ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va tijorat bilan shugullanish istiqbollari (modellashtirish dasturi) yoki hisob-kitoblar majmuasi aks etgan hujjatdir.

Dasturda (2-5 yil uchun), birinchi yil ko'rsatkichlari oyma-oy, ikkinchi yil ko'rsatkichlari chorakma-chorak va qolgan yillarniki esa yil kelishida yoritilishi maqsadga muvofiqdir.

Biznes rejani tuzishdan maqsad:

-birinchidan, sarmoyador, homiy, hissador va bankirlarning pul mablaglarini ishlab chiqarishga jalb etish;

-ikkinchidan o'z xodimlarini maqsad, vazifa va istiqbolga ishonitirish va qiziqitirish;

-uchinchidan, o'z goyalarining foyda keltirishga ishonib, rejali va samarali boshqarishni tashkil etish.

Biznes rejaning bozor iqtisodiyoti davrida dolzarbligi kuyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

- birinchidan, qishloq xo'jalik korxonalarini iqtisodiyotiga yangi mulk shakllari, ishlab chiqarish munosabatlari kirib kelishi bilan o'rta va kichik tadbirkorlik hamda fermer, ijarachi-pudrat- chilarning yangi avlodlari shakllanmoqda. Ular uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni boshqarish, tashkil etish va iqtisodiyot bilan bogliq bo'lgan muammolarni hal etish biznes- rejasiz mumkin emas;

- ikkinchidan fermerlar, o'rta va kichik tadbirkorlik uchun ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishda tamoman yangicha munosabat - tavakkalchilik, raqobat, raqobatga chidash va unda yengib chiqish sir-sinoati ham biznes reja orqali hal etiladi;

- uchinchidan, xorijiy mamlakatlar investitsiyalarini jalb etmasdan ishlab chiqarishni kengaytirish, yangilash va samaradorligini ko'tarish juda katta muammoga aylanmoqda. Shunday bir davrda xorijiy mamlakatlar investorlariga buyurtmalarni dolzarb va samaradorligini isbotlab berish va ularga sarflanadigan mablag'larning yuksak darajada foyda berishini har jihatdan ko'rsata bilish uchun ham biznes-reja zarurdir.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni turli shakldagi qishloq xo'jalik korxonalarida yechimini topishda, biznes-rejaning o'zi kifoya qilmaydi. Biznes-reja dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida

ishlab chiqarishni rejalashtirish uchun zarur bo'lgan texnologik xaritalar, me'yoriy hujjatlar va birlamchi agronomiya, zooveterinariya ham buxgalteriya hisob-kitoblari bilan to'ldirilishi shart.

Biznes-reja quyidagi vazifalarni yechishga qaratilishi lozim:

- dehqon va fermerlar, ijarachi va pudratchi jamoalari o'z ishlarini qanday boshlash;
- qanday qilib ishlab chiqarishni samarali yurgizish va tovarni bozorg'a olib chiqish;
- yangi ishlab chiqarishni kimlar bilan tashkil etish va qachon dastlabki daromadlarni olish;
- tavakkalchilik xavf-xatarini qanday kamaytirish;
- oyoqqa turib olish hamda rakobat kurashida yutib chiqish.

Biznes-reja tuzish yordamida ijarachi va oila pudrati jamoalari dehqon va fermerlar uzlari uchun kuyidagilarni bilib oladilar:

- biznes-rejani tuzish jarayonida o'z ishlab chiqarish moliya faoliyatini har tamonlama tashkiliy-iqtisodiy va sotsial jihatdan tahlil qilish, o'zi boshlayotgan ishni puxta bilishga, kelajakda ishlab chiqarishni rivojlantirishga va xolisona baholashga olib kelinishini;
- biznes-reja bu - tadbirkor bajaradigan faoliyatning tayyor rejasi ekanligini. Uni ishbilarmonlarning o'z korxonalarini samarali boshqarishga hamda o'ylagan ishlarini muvaffaqiyatli o'tishiga yordamlashadigan ishchi dastur sifatida xizmat qilishini;
- biznes-reja tadbirkorning o'z goyasini boshqa hamfikrlariga, sarmoyadorlarga va bankirlarga yetkazadigan eng yaxshi sinalgan usul va shuningdek, moliyaviy faoliyatni aniq rejalashtirish ekanligini.

Biznes-reja tuzishga ko'yiladigan asosiy talablar:

Biznes-reja tuzishda ijarachi va oila pudrati jamoalari, dehqon va fermerlarning, birinchi navbatda, rahbarlari, mutaxassislar va ilmiy maslahatchilar yordamidan foydalanib tuzishlari talab etiladi. Chunki, rahbar xodim o'z kelajak faoliyatini loyihalashtirishi, xomcho't qilishi, o'z g'oyasining to'g'riligi hamda uni amalga oshirish uchun barcha zarur sharoitlar mavjudligiga yana bir marta ishonch hosil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Biznes reja uning xulosa qismini yoritishdan boshlanadi. Shuni aytish kerak-ki, biznes-rejaning xulosa qismi uning boshqa qismlari ishlab chiqilgandan keyingina to'la shakllanadi. Shunga qaramasdan, ijarachi va oila pudrati jamoalari dehqon va fermerlar o'z hamfikrlari, xodimlari va chetdan taklif qilingan ilmiy maslahatchilar bilan birgalikda, eng avvalo, o'z faoliyatlari dasturini amalga oshirish yo'llarini to'la va ravshan tasvirlashga harakat qilmoqlari lozim. Xulosa qismida yoziladigan fikr va mulohazalar, taklif va g'oyalar tushunarli, ko'zlangan maqsadga erishish yo'llarini bir o'qishda tushunishga imkon beradigan xolda yoritilishi lozim. Bayon qilinadigan g'oya va fikrlarda tadbirning maqsadi nima? Odamlar, tadbirni amalga oshirishdan ko'zlangan qanaqa mahsulotni olishlari kerak? Bu mahsulotning o'ziga o'xshash bo'lgan mahsulotlardan farqi nimada? kabi savollarga javob berish lozim.

Xulosaning oxirgi qismi tadbirni amalga oshirishdan ko'zlangan moliyaviy natijalarga bag'ishlangan bo'lib, unda yaqin davr ichida sotilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar hajmi, sotishdan tushadigan naqd pul daromadi, ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlar, daromad, foydalilik darajasi va nixoyat sarmoyadorlardan olgan qarzni uzish muddatlari haqida axborot berish talab etiladi.

Biznes-reja tuzishda ijara va oila pudrati jamoalari va dehqon-fermer xo'jaliklari rahbarlarining o'rni:

biznes-rejaning asosiy qismi xaridorlarga taklif qilinadigan maxsulot, umuman amalga oshirilmog'chi bo'lgan tad- birning mohiyati bayon qilingan bo'limdan iborat bo'ladi. Bu bo'limni yoritganda rahbar xodim taklif qilgan mahsulot raqobatchilarnikidan ma'lum xususiyatlari bilan ajralib turmogi lozim;

- rahbar tadbirkor taklif etgan yoki amalga oshirayotgan tadbiri natijasida ishlab chiqarayotgan mahsuloti faqatgina uning sa'y harakati mahsuli bo'lmasdan, balki moliyaviy ta'minotiga ham bog'liqdir.

Shular sababli rahbar xodim taklif qilgan tadbir asosida ishlab chiqarishni xom-ashyo bilan va boshqa zarur moddiy resurslar bilan ta'minlash, yangi texnika, ilgor va tejamkor texnologiyalarni jalb etish,

ularga yetarli shart-sharoitlarni yaratib berish rahbarlarga ma'lum bo'lishi va boshlangich faoliyati negizini tashkil qilmog'i lozim.

Tadbir rahbari quyidagi savollarga aniq va tushunarli javob berishi shart:

-taklif qilingan mahsulotlarga (xizmatga) bozorda talab bormi yoki yo'qmi? Talab darajasi qanday? (yuqori, o'rta, past).

-taklif etilayotgan mahsulotlari (xizmat) iste'molchiga nimasi bilan yoqadi?

-ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatchilar mahsulotidan nimasi bilan farqlanadi?

-mahsulot bozorgirmi va u necha yil davomida bozorni egallab turadi?

-mahsulot patentlanganmi, mualliflik guvohnomasi bormi, ular qaerlarda va kim tomonidan ro'yxatga olingan, bankda hisob raqamiga egami?

Biznes-rejaning bu bo'limida taklif qilinadigan mahsulotning sotilish narxi, hajmi va uni ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar qiymati, olingan naf-foyda miqdoriga baxo berilishi shart.

Biznes-rejada bozorni o'rganish:

-biznes-rejaning bu qismida tadbirkor, o'z hamfikrlari va sarmoyadorlari bilan marketing rejasining asosini tashkil qiluvchi masalalarni bayon qilishi kerak. Bu qism nihoyatda muhim bo'lib, uning tafsiloti tadbirkorlar, dehqon va fermerlar uchun istiqbol reja va bajaradigan ishlarda dastur vazifasini o'taydi. Ularg'a quyidagilar kiradi:

- tovar mahsulotini iste'molchiga yetkazish usuli va yo'llari;

- narx-navo tizimi;

- tovar mahsulotini tashvikot (reklama) qilish yo'llari;

- tovar mahsuloti sotilishini rag'batlantirish yo'llari;

- tovar mahsulotini olganlarga xizmat ko'rsatish;

- korxon va tovar mahsulotining obro'-e'tibori (imidj) haqida istemolchilar va keng omma o'rtasida ijobiy fikr uygotish.

Yukorida qayd qilingan har bir masala bo'yicha ijara va oila pudrati jamoalari, dehqon va fermerlar quyidagilarni bilishlari lozim. Birinchidan, mahsulotlar qaysi usulda sotiladi, o'z do'konlarida-mi? yoki boshqalar orqalimi? Ikkinchidan, mahsulot narxi nimaga asoslanib belgilanadi, ketgan xarajatlarni qoplash uchun qaysi darajada foyda ko'rish yetarli? Uchinchidan, mahsulotlarni tashvikot qilishni qanday tashkil qilish mumkin va bunga qancha mablag ajratiladi? To'rtinchidan, mahsulot sotish qanday yo'llar bilan kengaytiriladi: sotuvchilar sonini ko'paytirib-mi? yoki yangi bozorlar topish hisobigami? Beshinchidan, mahsulot va korxon haqida iste'molchilar o'rtasida obro'-e'tibor, yaxshi fikr paydo qilish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqchi?

Bu to'g'rida xorijiy davlatlar tadbirkorlari, dehqon va fermerlari tajribasini o'rganish zarur.

3. Biznes rejaning tarkibiy qismlari

Taklif etilayotgan loyiha turiga qarab (qanday mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat turlariga qarab), biznes-rejaning bo'limlari ham turlicha bo'lishi mumkin. Lekin, bunday xujjatning mazmuni ozmi-ko'pmi namunaviy bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Rezyume (xulosa). Bu biznes-rejaning boshlanuvchi va eng qisqa bo'limi bo'lib, u o'zidan keyin keladigan barcha bo'limlarning xulosasini o'zida jamlaydi. Ko'pgina sarmoya ajratuvchi investorlar, bankirlar (chunki ularning aksariyati, eng avvalo tadbirkorlardir) bir yoki **ikki varaqli** biznes-rejaning ushbu qisqa mazmunli bo'limini o'qishni yaxshi ko'radilar. Chunki ular bu orqali loyiha uchun eng kerakli xususiyatlarini va afzal tomonlarini payqay oladilar. Shuning uchun bu bo'limni tayyorlash juda mushkul ish va u biznes-rejani tayyorlovchi xodimlardan katta mahorat hamda bilimlarni talab qiladi.

Bu ishni faqatgina biznes-rejaning barcha bo'limlari ishlab chiqilgandan so'nggina yuqori saviyada bajarish mumkin. Shuni yodda tutish lozimki, rezyume (xulosa) - bu birinchi material bo'lib, sarmoya ajratuvchi investor, bankir, uning mazmunidan loyiha haqida hukm chiqaradi.

Rezyumeda (xulosada) juda qisqa tarzda quyidagilar yoritiladi:

- loyiha mazmuni: uning maqsadi va imkoniyat darajasidagi samaradorligi;

- ma'lum bir aniq bozor sharoitida loyihani amalga oshirish mumkinligi;

- loyihani kim va qanday amalga oshiradi;

- loyihani moliyalashtirish manbalari;
- loyihani investitsiyalashdan keladigan, kutilgan foydalar: sotuv hajmi, ishlab chiqarish va sotish xarajatlari, foyda normasi, investitsiya mablag'larini qaytarish hamda xarajatlarni qoplash vaqti.

2. Korxonaga (firma) haqida ma'lumotlar keltiriladi. Unda quyidagilar yoritiladi:

- korxonaning (firmaning) tashkil etilgan vaqti;
- ro'yxatdan o'tganligi;
- korxonaga sarmoyasining tarkibi;
- korxonaga xizmat ko'rsatayotgan bank;
- korxonaga rahbariyati haqida ma'lumot;
- korxonaning tashkiliy-boshqaruv tuzilishi;
- korxonaning imidji (ya'ni - xaridorlarning korxonaga haqidagi fikri, korxonaning boshqa xuddi shunday shakldagi firmalardan afzallik tomonlari, kimlar uning tovaridan yoki xizmatidan foydalanadi, korxonaning savdo belgisi qae'larda ma'lum va asosiy xaridorlari kimlardan iboratligi ko'rsatiladi).

- korxonaga harakat qilayotgan ichki va tashqi bozor tahlil qilinadi.

3. Tovar mahsulot (xizmat turlari) tavsifi:

- ishlab chiqarishga taklif etilayotgan mahsulot yoki xizmat qanday ehtiyojlarni qondiradi;
- bozordagi hozirgi kunda mavjud bo'lgan xuddi shu turdagi mahsulot yoki xizmatdan sizning mahsulotingiz yoki xizmatdagingiz qaysi afzal tomonlari bo'yicha ajralib turadi;
- taklif etilayotgan mahsulot yoki xizmat qanday mualliflik hujjatlari bilan himoya qilingan;
- taklif etilayotgan mahsulot va xizmatning narxlarini qanday bo'lishi mumkin hamda qanchalik raqobatga bardosh beradi;
- mahsulot yoki xizmatni sotish natijasida qanchalik foyda normasiga erishish mumkin.

4. Sotuv bozori:

- mahsulot yoki xizmatning asosiy xaridorlari kimlar bo'ladi;
- hozirgi vaqtda hamda kelajakda sotuv hajmi qanday bo'lishi mumkin;
- asosiy - raqobatchilar kimlar, ularning sotuv xajmi qancha, marketing strategiyasi va daromadlari qanday;
- raqobatchilarning mahsuloti qanday: asosiy tavsifnomasi hamda sifat darajasi qanday;
- raqobatchilar mahsulotlari yoki xizmatlarini qaysi narx- larda sotmoqdalar, ularning narx siyosatlarini qanday.

5. Marketing strategiyasi:

- ichki va tashqi bozorlarda mahsulot yoki xizmatni taklif etayotgan taqsimot hamda sotuv tizimi;
- sotuv narxi va narxni tashkil etish tizimi;
- reklama bo'yicha kerakli chora-tadbirlar, taklif etilayotgan reklama vositalari hamda ularga ketadigan xarajatlarning tarkibi;
- sotishga ko'maklashadigan chora-tadbirlar (publik re- leyshnz), xaridorlar uchun qo'shimcha imtiyozlar, sotuvdan so'nggi xizmat ko'rsatish va xarakatlar.

6. Ishlab chiqarish dasturi:

- mahsulot ishlab chiqarish qae'rda tashkil etiladi;
- yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish lozimmi;
- yoki harakatdagi korxonaga quvvatlaridan (qayta qurollanti- rib) foydalanish mumkinmi;
- rejalashtirilayotgan korxonada ishlab chiqarishni maqsadga muvofiq hajmi qanday bo'lishi kerak;
- me'yordagi quvvatlarga erishish uchun qanday investitsiyalar zarur;
- korxonaga xom-ashyo mahsulotlari hamda boshqa ishlab chiqarish omillari bilan qanday ta'minlanadi;
- qanday texnologiya va vositalardan foydalaniladi;
- korxonaga boshqa korxonaga bilan ish jarayonini takomillashtirish ustida ishlaydimi.

7. Ishlab chiqarishni tashkil etish:

- rejalashtirilayotgan korxonaning tashkiliy tuzilmasi qanday bo‘ladi;
- korxonada kadrlar bilan qanchalik ta'minlangan, mavjud mutaxassislarning ro'yxati, ularning malakasi hamda ish tajri- basi;
- turli xil kategoriyadagi ishlovchilarni, sotsial imtiyozlarni qo‘shgan holda, ish haqi shakllari hamda darajasi qanday bo‘ladi;
- korxonaning texnologik tuzilmasi qanday bo‘ladi.

8. Korxonaning tashkiliy shakli:

- rejalashtirilayotgan korxonaning mulk shakli hamda huquqiy statusi qanday (xususiy korxonada, hissadorlik jamiyati, fermer xo‘jaligi, ijara korxonasi, ko‘shma korxonada va hokazolar);
- korxonaga yordamlashuvchi investor qanday huquqlarga ega bo‘ladi (boshqarishda qatnashishi, aksiyalar paketidagi hissasi va hokazolar);
- rejalashtirilayotgan korxonaning homiylari yoki investor- lari kimlar (davlat tashkilotlari, bank, fermer xo‘jaligi, xususiy korxonada va boshqalar);
- mavjud homiylar yoki investorlar uchun qanday huquqlar berilgan (boshqarish, moliyaviy nazorat);
- ushbu mulk shaklidagi korxonada qanday yuridik huquqlarga ega (korxonaning huquqiy statusini tartibga soladigan qonun nor- malarini qisqacha yoritib), potensial investor, unga beriladigan huquqlarga ega bo‘lishi uchun, qanday yuridik holatlarni amalga oshirish kerak (birgalikda egalik qilish, homiy, hissador) va bu esa mahalliy hamda joydagi qonunlar bo‘yicha qanday huquqiy javobgarlikka olib keladi.

9. Moliyaviy reja:

- korxonani tashkil etish uchun qancha miqdordagi umumiy investsiya hajmi kerak;
- moliyalashtirish manbalari qanday (aksiyalar sotish, qimmatbaho qog‘ozlar chiqarish, bank kreditini olish, korxonani tashkil etayotganlarning o‘z mablagi);
- moliyalashtirish manbalari va valyuta turlari bo‘yicha tar- kibi qanday bo‘lishi kerak (agarda xorijiy valyutalarda investi- siyalar rejalashtirilayotgan bo‘lsa, u xolda qaysi ayriboshlash kurslarida ularni jalb etishmoqchi);
- uzoq muddatli investitsiyalarga va aylanma vositalarga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish uchun qanday shartlar asosida moliya mablag‘lari jalb etiladi.

10. Loyihaning rentabelligi (foydaliligi):

- korxonani tashkil etish bo‘yicha investitsiya xarajatlarining umumiy hajmi hamda mahsulot birligiga to‘g‘ri kelishi qanday (asosiy va aylanma vositalarga, infrastrukturaga va xokazolar uchun investitsiyalar);
- rejalashtirilayotgan korxonani ishlatish, mahsulotini coram yoki xizmatni tashkil etish qanchaga tushadi;
- mahsulotni sotishdan yoki xizmatdan keladigan umumiy daromadlar hajmi qancha bo‘lishi mumkin;
- rejalashtirilayotgan korxonada qanday turdagi soliqlarni to‘lashi kerak;
- ijaraga olingan mablaglarni qaysi muddatlarda va qanday hajmlarda qaytarish rejalashtirilayapti;
- rejalashtirilayotgan korxonaning umumiy foyda hajmi va normasi qancha bo‘lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan biznes-rejaning bo‘limlaridan tashqari, yana qo‘shimcha ravishda quyidagi axborotlarni keltirish mumkin, ya'ni moliyaviy mablag‘lar hamda majburiyatlar, foyda va zararlar hisoboti, moddalari bo‘yicha xarajatlar va hokazolar.

Xulosa qilib aytganda, muvaffaqiyatli tuzilgan biznes-reja korxonaning holatini chuqur tahlil qiladi hamda uning kelajakdagi rivojlanishiga xolisona va ob'ektiv baho beradi.

Biznes-reja muhim hujjat hisoblanadi. Shuning uchun ham uni begona odamlarga hamda korxonada boshqaruviga aloqador bo‘lmagan shaxslarga berish taqiqlanadi.

5.4. Biznes rejani tayyorlash

Tadbirkorlik bilan shugullanuvchi xo‘jalik, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lganidan so‘ng samarali faoliyat yuritish maqsadida o‘z biznes rejasini tuzishi zarur. Biznes reja avvaldan faoliyat

ko'rsatayotgan hamda yangidan tashkil etilayotgan xo'jaliklarniig hammasida tuziladi. U xo'jalikning bir yillik faoliyati bo'yicha yoki ayrim yo'nalishlari bo'yicha alohida tuzilishi mumkin.

Biznes rejaning asosiy maqsadi xo'jalikdagi barcha vositalardan oqilona foydalanish natijasida uning rivojlanishini hamda samaradorligini ta'minlashdir.

Maqsadni hal etish uchun rejada ichki va tashqi talablarni e'tiborga olgan holda qanday mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmatlarni bajarish kerakligini aniqlab olish tadbirlari tuziladi:

- qancha mehnat, mablag va boshqa vositalar talab etilishini rejalashtirish, ularni olish manbalari va yo'llari;

- mavjud bo'lgan barcha vositalardan to'la va samarali foydalanish tadbirlari;

- ishlab chiqariladigan mahsulotlarni qaerda, kimlarga, qachon va qanday tartibda sotish va taqsimlash tadbirlari;

- amalga oshiriladigan barcha xarajatlar (yo'nalishlari bo'yicha), mahsulot sotishdan, xizmat ko'rsatishdan olinadigan pul daromadlarini, foydalarni, ularning taqsimlanishini aniq, ifodalovchi hisob - kitoblar bo'lishi kerak.

Biznes reja oldiga qo'yilgan talabdan kelib chiqqan holda, uning tarkibi yukorida qayd etilgan 9 qismdan tashkil topgan bo'lishi maqsadga muvofikdir:

Biznes rejaning mazmuni, tuzilish tartibi.

Biznes rejaning titul varag'ida xo'jalikning nomi, manzili, ta'sisчилarning ismi-sharifi, manzili, telefoni, faksi bir betda joylashtirilishi zarur.

Kirish qismida rejalashtirilayotgan xo'jalik faoliyatining holati, hududdagi o'rni, ahamiyati va samaradorligi aniq ma'lumotlar yordamida ko'rsatilishi lozim. Shuningdek unda mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi, mahsulotlar assortimenti, ularning miqdori, sotilishi, umumiy mulki va mablag'i, ishchi-xizmatchilarning umumiy soni hamda raqobatchilar to'g'risidagi ma'lumotlar o'z aksini topishi kerak. Bu qismning mazmuni ishonchli bo'lishi kerak. Chunki u sarmoyachilar e'tiborini o'ziga jalb eta bilishi lozim.

Tarmoq mahsulotlari bozorini tahlil etuvchi qismida, hududda, xo'jalikda sotilgan, kelajakda sotilishi mumkin bo'lgan mahsulot turlari, miqdori, sifati, bahosi to'g'risidagi ma'lumotlar batafsil ko'rsatilishi lozim. Shu o'rinda xo'jalikning bozordagi o'rni ko'rsatilsa, yanada yaxshi bo'ladi. U xo'jalikda sotilgan mahsulot miqdorini shu hududda yoki tumanda sotilgan shunday mahsulot miqdoriga taqsimlab, 100 ga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Agarda bu ko'rsatkich ortib borsa unda, xo'jalikning bozordagi o'rni rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Undan xo'jalikning bozordagi mavqeyi qanday o'zgarayotganligini ko'rish mumkin. Bu erkin bozor sharoitidagi eng muxim shartlardan biridir. Chunki bozorda o'rni yuksalayotgan xo'jalik raqobatbardosh hisoblanadi va u kelajakda samarali rivojlanadi. Shu qismda raqobatchilar to'g'risida batafsil ma'lumotlar, xo'jalikning tashqi bozorga chiqish imkoniyatlari, masalan, paxta tolasini, qorako'l terisini, sabzavot hamda bog'dorchilik mahsulotlarini sotish bo'yicha imkoniyatlar ham asoslangan xolda ko'rsatilsa foydadan holi bo'lmaydi. Lekin yuqoridagi masalalarga oid ma'lumotlar qishloq xo'jalik korxonalarida e'lon qilinmaydi. Ma'lumotlar taqchilligi mavjud. Uni hal etish uchun esa Respublika radiosi, ro'znomalari o'z hissalarini qo'shishlari lozim. Tadbirkorlar ma'lumotlarni birjalardan, ro'znomalardan, radio, televidenie xabarlaridan olishlari mumkin.

Rejaning mazmuni kismida xo'jalik ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan mahsulotlarning ichki va tashqi raqobatchilar mahsulotlaridan farqlari, afzalliklari (sifati, bahosi, xarajati va boshqa), tovarlarining belgilari, ularni sotish bo'yicha mavjud bo'lgan litsenziyalari hamda mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatlari bo'yicha ma'lumotlar to'liq keltirilishi lozim. Masalan, xo'jalik paxtaning ma'lum bir navini yetishtirish bilan shug'ullansa, uni yuqoridagi ko'rsatkichlar bo'yicha boshqa navlar bilan bir jadvalda taqqoslab berish kerak. Shunda ularning farqlari, afzalliklari yakkol ko'rinadi. Shu qismda ishlab chiqarishning qanday joylashganligi, mahsulotlarni sotishga chiqarish imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilishi kerak. Masalan, paxta qaerda yetishtiriladi va u qaerda qayta ishlanadi, ya'ni tolaga aylantiriladi. U joyning temir yo'l, avtomobil yo'li, havo hamda suv yo'lga yaqin-uzoqligi, qulayligi ko'rsatilishi zarur. Shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning chakana va ulgurji savdo maskanlariga yaqinligi ham ko'rsatilishi kerak. Rejaning shu qismida

xo'jalikni kelajakda rivojlantirish uchun talab etiladigan kapital qo'yilmalar va shular evaziga barpo etiladigan barcha turdagi ob'ektlar, ularning afzalligi va samaradorligini ifodalovchi ma'lumotlar ham keltirilishi lozim. Nihoyat, bu qismda rejaning bajarilishini ta'minlovchi asosiy omillar, yo'llar ko'rsatiladi.

Ishlab chikarish rejasi qismida mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan, turli xildagi tadbirlar rejalashtirilgan bo'lishi kerak. Mahsulot ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari bo'yicha sarflanishi mumkin bo'lgan mehnat, material hamda mablag' xarajatlari (miqdori, summasi) ko'rsatilishi lozim. Hisob-kitoblar natijasida xo'jalik qancha mahsulot ishlab chiqarishi va unga qancha mehnat, material va mablag' sarflanishi aniqlanadi. Bu qismda ishlab chiqarishni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar ham rejalashtiriladi. Masalan yangi texnika, texnologiya yoki kichik korxonalarni ishlatish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar hisob-kitoblar asosida ko'rsatilishi lozim. Tadbirqorlar shu qismni tuzishda texnologik jarayonlarini bajarish uchun belgilangan normativlarni, chunonchi, ekinlarni ekishda urug', yoqilg'ilarni, o'g'itlarni sarflash, mehnat sarfi me'yorlarini, shuningdek barcha materiallarning baholarini va boshqalarni bilishlari lozim.

Marketing rejasi qismida biznes rejani tarmoq mahsulotlari bozori qismidagi ma'lumotlarga asoslangan holda mahsulotlarni iste'molchilarga sotishning asoslanganligi, bu jarayon hych qanday qiyinchiliklarni vujudga keltirmasligini ko'rsatuvchi tadbirlar belgilanadi. Shu qismda korxon mahsulotlarini iste'mol etuvchilar to'g'risida, ular tomonidan qo'yiladigan talablarning barqarorligini aniq raqamlar bilan isbotlash lozim. Xo'jalik mahsulotiga bo'lgan talab darajasiga ta'sir etuvchi omillar ko'rsatiladi. Masalan, xo'jalik mahsuloti sifatining yaxshiligi, ekologik jihatidan tozaligi, bahosining nisbatan arzonligi, transport yo'llariga yaqinligi va boshqalar. Xo'jalikning boshqa raqobatchilar bilan raqobatlashishida yutib chiqish strategiyasi imkoni boricha raqamlar yordamida asoslanishi zarur. Nihoyat, sotiladigan mahsulotlarning baholari belgilanadi, mahsulotlarni qanday tartibda sotish tafsilotlari batafsil yoritiladi hamda reklama xarajatlari keltiriladi. Xo'jalikning bozor sohasidagi ayrim talab etiladigan xolatlari ham rejalashtiriladi.

Tashkiliy reja qismida xo'jalik yuritish faoliyatining huquqiy asoslari, qaysi qonunlar, farmonlar hamda qarorlar asosida faoliyat ko'rsatishi, mulk shakli, mulk egalari, xususiyatlari qayd etiladi. Hissadorlik, paychilik xo'jaliklarida esa ularning mulkiy payining umumiy miqdori, taqsimlanishi kabi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim. Bu qismda moliyaviy hujjatlarga kimlar qo'l qo'ya olishi, ularning huquqlari ko'rsatiladi. Ular xo'jalikning ustavi (nizomi) ga mos kelishi shart.

Tavakkalchilik rejasi qismida turli holatlarning ta'sir ko'rsatishi aniqlanishi lozim. Ular texnikaviy, ekologik, boshqarish, moliyaviy-siyosiy hamda xalqaro miqyosdagi holatlardan iborat bo'lishi mumkin. Ularni ayrim sabablarga (xo'jalikka bog'liq bo'lmagan) ko'ra amalga oshirilmaligi xo'jalik faoliyatiga qanday salbiy ta'sir etishi mumkinligini ko'rsatish kerak. Masalan, xo'jalik sinalmagan iste'molchiga mahsulot sotishda, ekologiyaning o'zgarishida, mahsulotlarni transport vositalarida tashilishi, iqtisodiy va siyosiy barqarorlik shakllanmagan hududlarga mahsulot sotish natijasida tavakkalchilikka yo'l qo'yishi oqibatida yuz beradigan holatlar yoritilishi lozim. Yuqoridagi omillar ta'sirini maxsus ishlab chiqilgan balli tizim yordamida aniqlash mumkin. Ularni olishda tadbirkorlar biroz qiynaladilar. Bu mushkullikni yengillashtirish uchun Respublika tovar ishlab chiqaruvchilar palatasi, birjalar, vazirliklar tegishli ballarni gazetalarda berib borib, tadbirkorlarga ko'maklashishlari lozim.

Moliyaviy reja qismida avvalgi qismlarda mahsulot turlari bo'yicha aniqlangan ishlab chiqarish xarajatlari, ularning tannaxlari hamda baholariga asoslangan xolda har bir maqsulot turi bo'yicha olinishi lozim bo'lgan pul tushumi rejalashtiriladi. Ishlab chiqarish xarajatlarini doimiy hamda o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lgan holda aniqlash maqsadga muvofiqdir. Doimiy xarajatlarga ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulot miqdorining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar, ya'ni asosiy vositalarning ijara haqi, amortizitsiya summalari, yer va suv solig'i summalari va boshqalar kiritiladi.

O'zgaruvchan xarajatlarga esa mahsulot miqdorining ko'payishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, ya'ni mahsulot yetishtirishda sarflangan ish haqi summasi, yoqilg'i, o'g'itlar qiymati va boshqalar

kiradi. Shuningdek, xo'jalik bo'yicha sarflangan ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy miqdori, davriy xarajatlar, moliyaviy sarflar hamda ko'zda tutilmagan xarajatlar summasi aniqlanadi. Shu xarajatlarni rejalashtiriladigan davrda kamaytirish yo'llari, imkoniyatlari aniqlanib hisob-kitob qilinadi. Hisob-kitoblarga asoslangan holda ularni kamaytirish rejalari ishlab chiqiladi. Barcha xarajatlar, daromadlar hamda foyda summasi aniqlanganidan so'ng, xo'jalikning rentabellik darajasi aniqlanadi. Shuningdek ayrim ishlab chiqariladigan mahsulotlar hamda xo'jalik bo'yicha xarajatlarni qoplash darajasi ham aniqlanadi. Shu ko'rsatkich yordamida mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish zarurmi yoki to'xtatish kerakmi, degan masala hal etiladi. Agarda olinadigan daromad unga qilinadigan xarajattan kam bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish kerak emas. Shu qismda olinishi mumkin bo'lgan sof foydaning taqsimlanishi ham rejalashtiriladi.

Biznes reja tuzishda xo'jalik rahbari va mutaxassisleri quyida ko'rsatilgan masalalarga asosiy e'tiborni qaratishlari kerak:

- aniq bozordagi mahsulot turlariga bo'lgan talab va taklifni hisobga olgan holda foyda keltiruvchi ekin turini ekishni rejalashtirish, sotish shakllarini aniq bilish;

- rejalashtirilgan yilda ekiladigan ekin turlarini, yerdan to'g'ri foydalangan holda joylashtirish;

- ekiladigan har bir ekin turi bo'yicha xo'jalikda texnologik xaritalarni tuzishda mavjud me'yorlardan kelib chiqqan holda, har bir hududning va xo'jalikning iqtisodiy geografik xususiyatlarini hisobga olish;

- mehnat va moddiy xarajatlar me'yorlariga qat'iy rioya qilish;

- ekiladigan ekinni hosildorligini to'g'ri belgilash;

- chorvachilikda poda harakatini tuzish;

- mollar mahsuldorligini to'g'ri belgilash;

- mollar va parrandalarning oziqaga bo'lgan talabining hisob-kitobini qilish;

- 100 bosh urg'ochi mollardan buzoq, qo'zi va cho'chqa bolasi olish hisob-kitobi, xo'jalikning yo'nalishini hisobga olgan holda belgilanadi;

- ekin ekish yoki chorva mollarini parvarish qilish bilan bog'liq barcha sarf-xarajatlarni aniq hisob-kitob qilish;

- yil boshida mavjud qoldiqni, mahsulotlarni saqlash xarajatlari hisob-kitobini to'g'ri yo'lga qo'yish;

- erkin va shartnoma asosida sotiladigan mahsulotlarga bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda narx belgilash va yil davomida bozor baholarining o'zgarishiga qarab mahsulot sotishning shartnoma bahosini to'g'rilab borilishini shartnomada ko'zda tutish;

- tayyorlov tashkilotlari tomonidan shartnoma asosida oladigan mahsulotlarni tashish xarajatlarini qoplash manbalarini, miqdorini aniqlashni shartnomada aniq ko'rsatish;

- ishlab chiqarishda ishlatilmay foydasiz yotgan inventar, mashina va texnikalarni sotishni yo'lga qo'yish;

- xo'jalikdagi har bir tarmoqning foyda bilan ishlashini ta'min etish;

- qishloq xo'jaligida ishlab chiqariladigan mahsulotlarga qilinadigan mehnat va moddiy resurslar me'yori (kishi-soat, urug', yoqilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar va boshqalar) vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda talab etiladigan me'yordan, mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda foydalanish;

- ekiladigan ekinlarning texnologik xaritalarda ko'rsatilgan davrlar buyicha ish miqdorini bajarilish va xarajatlari davr tugashi bilan tahlil qilib borilishi shart.

Nazorat savollari.

- 1) Rejalashtirish deb nimaga aytiladi?
- 2) Rejalashtirishning maqsadini tushuntiring.
- 3) Rejalashtirishning vazifalarni nimalardan iborat?
- 4) Rejalashtirishning tamoyillarini ayting.
- 5) Reja tuzish uchun kerakli hujjatlar.

- 6) Rejalashtirishda qaysi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil etiladi?
- 7) Rejalashtirishning tarkibiy qismlarini ayting.
- 8) Loyihaning mazmuni, maqsadi va imkoniyat darajasidagi samaradorlik qanday rejalashtiriladi?
- 9) Biznes rejada korxonaga haqida qanaqa ma'lumotlar keltiriladi?
- 10) Biznes rejada tovar mahsuloti yoki ko'rsatiladigan xizmat turlarining ta'rifi.
- 11) Biznes rejalashtirishda bozorni o'rganish.
- 12) Biznes rejada marketing strategiyasi.
- 13) Biznes rejada korxonaga ishlab chiqarish imkoniyatlarini yoritish.
- 14) Biznes rejada ishlab chiqarishni tashkil etish.
- 15) Biznes rejada korxonani tashkil qilish.
- 16) Biznes rejani moliyalashtirish manbalari.
- 17) Biznes rejada rentabellik qanday aniqlanadi?
- 18) Biznes rejani bajarilishi qanday nazorat etiladi?
- 19) Biznes rejada rahbarning o'rni.
- 20) Biznes rejani to'ldirish nimadan boshlanadi?
- 21) Biznes reja tuzishda texnologik xaritaning o'rni va ahamiyati.
- 22) Biznes reja tuzishda chorvachilik tarmoqlarining polda harakati nima uchun ishlatiladi?
- 23) Biznes reja tuzishda me'yoriy hujjatlardan foydalanish.
- 24) Biznes reja tuzishda qo'llaniladigan usullar.
- 25) Biznes reja tuzish tartibi.

31-mavzu. Agrosanoat majmuida innovatsiyaviy loyihalar tashabbusini va monitoringini tashkil etish.

1. Monitoringning mohiyati va ahamiyati

Bank muassasalari investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga mablag' ajratib, kredit bergan vaqtdan boshlab qarz oluvchining kreditga layoqatliligini tahlil qilish, kreditning maqsadi ishlatilishi ustidan nazoratni (tekshiruvni), ya'ni loyihani moliyalashtirishning monitoringini olib boradi.

Qarz olgan bank mijozlari o'z qonun va qoidalariga ega bo'lgan bozor muhitida, raqobatchilik sharoitida faoliyat yuritadilar. To'g'ri rivojlanish strategiyasini tanlab olmagan, bozor sharoitiga moslashmagan korxonalar o'z pozitsiyalarini boy beradilar. Qarz berilgan paytda rivojlanish istiqboliga ega bo'lgan qarz oluvchi bir necha oydan so'ng ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida qiyin moliyaviy ahvolga tushib qolishi mumkin. Natijada bank kreditning qaytarilmasligi xavfi yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun loyihani moliyalashtirishga mablag' ajratgan bank (kreditor) qarz holatini loyihaning butun muddati davomida doimiy ravishda nazorat qilib borishi, o'z vaqtida yuzaga kelayotgan muammolardan darak beruvchi «signal»larni aniqlashi juda muhim ahamiyatga ega.

Loyihani moliyalashtirish monitoringi moliyalashtirishga ajratilgan mablag'lar qay yo'sinda ishlatilayotganligini nazorat qilish, uning maqomidagi o'zgarishlarni aniqlash va tegishli chora-tadbirlarni ko'rish tizimini ko'zda tutadi. Uning maqsadi asosiy qarz va u bo'yicha hisoblangan foizlarning o'z muddatida qoplanishini ta'minlashidan iborat.

Monitoring, eng avvalo, loyihani moliyalashtirishga mablag' berish bitimiga tegishli barcha xujjatlarni va ularning shartlari bajarilishini, ularning bank-kredit siyosatiga, qabul qilingan me'yorlar va tartiblarga muvofiqligini davriy tekshirib borishni o'z ichiga oladi. Navbatdagi qadam qarzdorning moliyaviy layoqatini baholash bo'lib, uning balansini, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotini hamda mijozning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi boshqa xujjatlarini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Monitoringning yana bir muhim tomoni kreditni qoplashning ikkilamchi manbai-uning qaytarilishining ta'minotini tekshirish hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizda har yili yuzlab loyihalarni moliyalashtirish amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar davlat byudjeti mablag'lari, xalqaro kredit liniyalari mablag'lari hisobiga, biznes-fond va byudjetdan tashqari fondlar, banklar, chet ellik va xususiy investorlar tomonidan moliyalashtirilgan ekan, albatta, bu mablag'larning qaytarilishi va ma'lum miqdorda ularning foyda bilan ta'minlanishi talab etiladi. Ushbu mablag'larning muayyan foydasi bilan qaytishligini aniqlash, tekshirib borish va tahlil qilib turish uchun kreditorlar tomonidan, shuningdek mol yetkazib beruvchilar, xususan, lizing, sug'urta kompaniyalari va kafillik beruvchi tashkilotlar tomonidan loyihalarning monitoringi olib boriladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ham moliyalashtirilayotgan barcha loyihalar ustidan monitoring olib borishning umumiy tizimi joriy qilingan.

Har bir moliyalashtiruvchi yoki kreditlashni amalga oshiruvchi tashkilotlar o'zlarining faoliyat turi va xususiyatlaridan kelib chiqib o'zlariga xos bo'lgan monitoring o'tkazish tartibini ishlab chiqadilar va shu asosda faoliyat yuritadilar.

O'zbekistonda Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat ko'mitasi Moliya vazirligi bilan birgalikda 1998 yil 30 martda «Korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil etish va monitoringni yuritish tartibi» asosida monitoring mexanizmi yo'lga qo'yilgan. Ushbu tartibga 1998 yil 19 avgustda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bu tartibda monitoringning qisqacha mazmuni keltirilgan. Ushbu tartibga ko'ra, monitoring – bu loyihaning amalga oshirilishi yuzasidan tizimli kuzatuv olib borishdir.

Monitoringning mazmuni «ko'zgu» degan ma'noni anglatadi.

Monitoringni yuritishda quyidagilar ko'zda tutiladi.

1. Amalga oshirilmoqchi bo'lgan loyihada nima ishlab chiqarish ko'zda tutilganligi.
2. Ishlab chiqarish jarayonini boshidan oxirigacha kuzatib borish.
3. Ishlab chiqarish korxonasining tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik jihatdan asoslanishi va tashkil etilishi.
4. Loyihani moliyalashtirish manbalarini aniqlash va uni moliyalashtirishni amalga oshirish.

Monitoring olib borish bosqichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash;
- olingan ma'lumotlar asosida korxonalarining moliyaviy-xo'jalik holatini tahlil etish;
- tahlil natijalari bo'yicha xulosalar qilish va takliflar berish.

Investitsiyalarni jalb etish va ularning monitoringi mexanizmi korxonalarining kredit resurslariga bo'lgan talabning bankini shakllantirishda, investitsiyaviy jarayonning barcha ishtirokchilari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmini, ularning kredit liniyalarini o'zlashtirish jarayoniga ko'shilishini, shu jumladan investitsiyaviy davrning barcha bosqichlarida kredit liniyalari resurslaridan investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish samaradorligini kuzatishni va baholashni ko'zda tutadi.

Investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish samaradorligi monitoringini o'tkazishning maqsadi investitsiyalash jarayonining barcha darajalarini doimiy kuzatish hisoblanadi (ularning kengaytirilgan vazifalari asosida):

- investitsiyaviy jarayonning barcha ishtirokchilari tomonidan korxonalar loyihalarini (takliflarini) investitsiyaviy davrning barcha bosqichlarida o'tish muddatlariga amal qilish;
- investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishni, shu jumladan, investitsiyaviy davrning barcha bosqichlarida jalb qilinayotgan chet el kredit liniyalari samaradorligini ta'minlashga ko'maklashish.

Qo'yilgan mablag'larining yuqori samarasini ta'minlash korxonalar tomonidan investitsiyaviy loyihalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish monitoringning asosiy maqsadi hisoblanadi.

2. Investitsiyaviy loyihani amalga oshirish va uning monitoringini o'tkazish tizimini yaratish.

Shakllantirilgan investitsiya loyihasi samarali amalga oshirilishi, ko'p hollarda, uni amalga oshirishning tezkor rejasining o'z vaqtida va sifatli ishlab chiqilishiga bog'liq bo'ladi. Bunday tezkor reja amaliyotida investitsiya loyihalarini amalga oshirishning kalendar rejasini deb nomlanadi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirishning kalendar rejasini ishlab chiqish muayyan tamoyillarga asoslanadi va muayyan ketma – ketlikda amalga oshiriladi. Quyida biz Ushbu tamoyillarni ko‘rib chiqamiz:

1. Kalendar rejaning ob'ekt tabaqalanishi (differensiyasi) bo‘yicha tamoyili kalendar rejalashtirish investitsiya loyihasining butun davriga asoslanib amalga oshirishini kerakligini ko‘zda tutadi. Loyihani amalga oshirishni kalendar rejalashtirish jarayoni uni amalga oshirishning baza muddatlariga va biznes rejada aks ettirilgan investitsiyalar oqimi jadvaliga asoslanadi.

Har bir investitsiya loyihasi bo‘yicha uni amalga oshirish uchun bank tomonidan loyiha monitoringini olib boruvchi loyiha menejeri belgilanadi.

2. Kalendar rejaning vaqtinchalik tamoyili ishlab chiqish shakli bo‘yicha uning detallashtirilishining turli xil darajasini nazarda tutadi. Investitsiya loyihasini amalga oshirish bo‘yicha kalendar rejaning vaqtinchalik differensiyasining asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi:

- kalendar reja investitsiya loyihasini amalga oshirishning yillik jadvalini tezkor rejalashtirish natijalarini aks ettiruvchi boshlang‘ich va asosiy hujjat hisoblanadi. U (yillik jadval) bir necha yillar davomida amalga oshiriladigan loyihalar bo‘yicha rejalashtirilayotgan kalendar yil doirasida bajarilishi ko‘zda tutilayotgan ishlar hajmini o‘z ichiga qamrab oladi. Shuningdek u bir yil mobaynida amalga oshiriladigan loyihalarda loyihaning maqsadiga ko‘ra bajarilish muddati va ketma-ketligi bilan tavsiflanadi.

- loyihani amalga oshirish bo‘yicha ishlarng choraklik yoki yillik rejasi ularning ko‘rsatilgan vaqtinchalik oraliqlari doirasidagi aniq, hajmlarini qamrab oladi. Ularni ishlab chiqishning asosi bo‘lib, detallashtirishning tegishli ketma-ketligi bilan investitsiya loyihasini amalga oshirishning yillik jadvali hisoblanadi. Ishlarning choraklik rejasi yillik rejaning taqdim etilishi bilan bir vaqtda taqdim etiladi va tasdiqlanadi.

- dekadali (o‘n kunlik) topshiriqlar ishlarni bajarishning oylik rejasini ketma-ket detallashtirish shakli hisoblanadi. Bizning mahalliy amaliyotda kalendar rejani tabaqalashning bu shakli kamdan-kam hollarda qo‘llaniladi. Biroq, yirik investitsiya loyihalari uchun jalb etiladigan ko‘pgina xorijiy pudratchilar kalendar rejalashtirishning bunday shaklini keng tadbiiq etadilar.

3. Kalendar rejaning funksional tabaqalanishi tamoyili uning alohida funksional qismlarga bo‘linishini nazarda tutadi. Bu investitsiya loyihasini amalga oshirishning kalendar rejasini ishlab chiqish jarayonining birmuncha ma'suliyatli qismidir. Bunday bo‘linish loyihaning hajmi va amalga oshirilishi bosqichiga bog‘liqdir. Uning asosiy funksional qismlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- a) loyihani amalga oshirishga tayyorlash;
- b) loyiha-konstruksiya ishlari;
- v) moddiy texnikaviy ta'minlash;
- g) kurilish-montaj ishlari;
- d) loyihani ekspluatatsiyaga kiritish;
- ye) loyiha kuvvatlarini ishga tushirish;
- j) loyiha bo‘yicha qarzlarni qaytarish.

4. Kalendar reja zaxirasini shakllantirish tamoyili unga alohida kiritilgan ishlar muddatlarining tahlili qilingan buzilish hollarini aniqlashdan va ushbu zaxiraning loyihani amalga oshiruvchi ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanishidan iborat. Kalendar rejadagi har bir ish uni bajarish uchun zarur bo‘lgan vaqt bilan, ishlarning boshlanish va tugallanish muddatlari bilan tavsiflanishi kerak. Ishlab chiqilgan reja real bo‘lishligi uchun alohida ishlarni bajarishningrejalashtirilgan vaqti 75-80%dan kam bo‘lmagan ishonch bilan aniqlangan bo‘lishi kerak. Bunday ehtimollik asosida ko‘zda tutiladigan zaxira jami kalendar reja muddatining 10-12%ini tashkil etishi kerak.

5. Kalendar reja bajarilishini doimiy nazorat qilish tamoyili investitsiya loyihasini amalga oshirishning kalendar rejalashtirilishi tegishli nazorat qiluvchi blokni ham o‘z ichiga qamrab olishidan iborat. Bu tamoyilning bajarilishi uchun joriy monitoring qo‘llaniladi.

Loyihani amalga oshirishning yaxshi ishlab chiqilgan kalendar rejasidan tashqari investitsiya loyihasini amalga oshirishning byudjeti ham juda muhim sanaladi. Investitsiya loyihasini amalga oshirishning samaradorligi ko‘pgina hollarda uni moliyalashtirishning asoslangan rejasi bilan

aniqlanadi. Amaliyotda bu moliyaviy reja «investitsiya loyihasini amalga oshirishning byudjeti» deb nomlanadi (yoki loyiha byudjeti). Byudjet investitsiya loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar va mablag'lar tushumini aks ettiruvchi qisqa muddatli (bir yilgacha) tezkor moliyaviy reja sifatida o'zini namoyon etadi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirish byudjetini ishlab chiqish ikkita asosiy vazifalarni hal etishga qaratilgan bo'ladi:

1. Kalendar rejaning alohida bosqichlari hajmida investitsiya loyihasini amalga oshirish bo'yicha xarajatlar hajmi va tuzilishini aniqlash.

2. Investitsiya loyihasini amalga oshirishni moliyalashtirish uchun belgilangan jami mablag'lar hajmi doirasidagi investitsiya resurslari oqimining zarur bo'lgan xarajatlarni qoplashini ta'minlash.

Investitsiya loyihasini amalga oshirish byudjetini ishlab chiqish uchun asosiy ma'lumot xujjatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- investitsiya loyihasini amalga oshirishning kalendar rejasi;

- alohida ko'rinishidagi ishlarni bajarish va kalendar rejaning alohida funksional bloklari ko'rinishida ishlab chiqilgan xom ashyolar, materiallar, moslamalar va uskunalarni sotib olish xarajatlari smetalari;

- investitsiya loyihasini moliyalashtirishning umumiy strategiyasi;

- loyiha biznes-rejasini ishlab chiqish bosqichida tuzilgan investitsiyalar oqimining oldindan bashorat qilingan jadvali.

Investitsiya jarayoni bosqichlariga bog'liq holda investitsiya loyihasini amalga oshirish vaqtida ikki xil ko'rinishidagi byudjet ishlab chiqilishi mumkin:

1. Kapital sarflar va mablag'lar tushumi byudjeti. Bu byudjet yangi kurilish bilan ob'ektning kengaytirilishi, ta'mirlanishi va texnik jihatdan qayta kurollantirilishi bilan bog'lik kurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bosqichida ishlab chiqiladi.

2. Joriy pul sarflari va daromadlari byudjeti. Bu byudjet investitsiyalash ob'ektini ekspluatatsiya qilish bosqichida (uning ishga tushirilishidan keyin) ishlab chiqiladi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirishning kalendar rejasi va byudjeti puxta ishlab chiqilgandan so'ng kuzatish, tekshirish va nazorat qilish tizimiga ega bo'lgan monitoring olib boriladi.

Amalga oshirilmoqchi bo'lgan loyiha doimiy nazorat yoki monitoringni talab etadi. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish monitoringi tizimi investitsiya bozori kon'yukturasi doimiy o'zgarib turishi sharoitida barcha investitsiya loyihalarini amalga oshirishning muhim joriy natijalarini doimiy kuzatib borishni ta'minlash uchun bank yoki kompaniyalarda ishlab chiqilgan mexanizm sifatida o'zini namoyon etadi.

Banklar tomonidan amalga oshirilgan investitsiya loyihalari monitoringi tizimini ishlab chiqishning asosiy maqsadi bo'lib, investitsiya faoliyati samaradorligini keltirib chiqaruvchi rejalashtirilgan ma'lumotlarga nisbatan yuz bergan chetlanishlarni o'z vaqtida hal etish, bu chetlanishlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni tahlil etish va investitsiya faoliyatini me'yorlashtirish hamda samaradorligini oshirish maqsadida uning alohida yo'nalishlarini tegishli tartibga keltirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish monitoringi tizimini yaratish quyidagi asosiy tamoyillardan foydalanishga asoslanadi:

1. Kuzatish uchun investitsiya faoliyatining birmuncha muhim yo'nalishini tanlash. Bu tamoyilning amalga oshirilishi kompaniya investitsiya faoliyatining maqsadli shakllantirilgan ma'lumotiga asoslanadi, shu bilan birga investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida kuzatishga tegishli bo'lgan ushbu faoliyatning ustuvor yo'nalishlarining aniqlanishi bilan bog'liq holdagi real investitsiyalarning portfeli bo'yicha ma'lumotlarga ham asoslanadi. Birinchi navbatda, kuzatish kalendar reja va byudjetning ularning asosiy bo'limlari bo'yicha amalga oshirilishi ustidan tashkil etilgan bo'lishi kerak.

2. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishning har bir yo'nalishi bo'yicha hisobot ko'rsatkichlari tizimini yaratish. Ko'rsatkichlarning bunday tizimi, birinchi navbatda, buxgalteriya hisobi va statistik hisobot ma'lumotlariga asoslangan bo'lishi kerak. Kompaniyada alohida ko'shimcha ko'rsatkichlarni

kiritish zaruriyati paydo bo'lganda «boshqaruv hisobi» deb nomlanuvchi tizim yaratiladi. Bu tizim tezkor buxgalteriya hisobotini to'ldirishga xizmat kiladi va samarali boshqarish ehtiyojiga bo'ysindirilgan bo'ladi (investitsiya faoliyatini boshqarish bunday hollarda boshqaruv hisobining mustaqil bloki hisoblanadi).

Hisobot (ma'lumot)lar ko'rsatkichlari tizimi loyiha bo'yicha birmuncha muhim ko'rsatkichlar tuzilishi va hajmi bo'yicha kalendar rejani amalga oshirish jarayonini, xarajatlar hajmi va tuzilishi bo'yicha byudjetning bajarilishini, shuningdek ularni xususiy, qarz va jalb qilingan manbalar ko'rinishida moliyalashtirish bo'yicha ham aks ettirishi kerak. Hisobotlar ko'rsatkichlari tizimida qarz oluvchilar (mijozlar) bilan olib boriladigan suhbat asosiy o'rinni egallaydi. Qarz oluchi bilan suhbatni ushbu korxonalar bilan shug'ullanuvchi bank xodimi olib borishi kerak, chunki u korxonada yuz beradigan holatlar to'g'risida yetarli tasavvurga ega bo'ladi.

Suhbatdan tashqari, bu tizimda bank xodimlari tomonidan loyiha ob'ektiga borib turish yaxshi rejalashtirilgan bo'lishi kerak. Ob'ektni bevosita ko'zdan kechirish va tanishish investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayoni to'g'risida aniq ma'lumotlar beradi.

3. Investitsiya loyihasini amalga oshirishning har bir yo'nalishi bo'yicha umumlashtirib baho beruvchi (analitik) ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish. Baholovchi ko'rsatkichlar tizimi korxonada investitsiya faoliyatining alohida yo'nalishlari monitoringi maqsadidan kelib chiqib yaratiladi va buning uchun jalb etiluvchi ma'lumotlar (hisobotlar) ko'rsatkichlariga asoslanadi. Ketma-ket olib boriluvchi tahlilning qulayligi uchun bu baholovchi ko'rsatkichlar tizimi uning asosiy bo'limlari ko'rinishida shakllantirilgan bo'lishi kerak.

Tahlilning bunday bo'limlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarni shakllantirish;
- investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun yo'naltirilgan moliyaviy resurslarni o'zlashtirilishi;
- qurilish ob'ekti bo'yicha ishlar rejasining bajarilishi;
- investitsiya loyihasi bo'yicha aktivlarning shakllanishi;
- investitsiya loyihasini amalga oshirish bo'yicha joriy samara-dorlik va boshqalar.

Baholovchi ko'rsatkichlar tizimini yaratishdagi alohida bo'limlar doirasida ularning funksional bo'linmalari alohida ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Bunga misol, «investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarni shakllantirish» bo'limida baholovchi ko'rsatkichlarning quyidagi bo'linmalari ajratilgan bo'lishi mumkin:

- moliyaviy resurslarni jalb qilish bo'yicha vazifani bajarish darajasi;
- investitsiya loyihasini moliyalashtirishda xususiy va qarz mablag'larining ishtirok etish darajasi;
- investitsiya loyihasini moliyalashtirish manbalarining hisoboti va boshqalar.
- har bir bo'limning bo'linmalarida birmuncha muhim baholovchi ko'rsatkichlarning aniq ruyxati shakllantiriladi.

Investitsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi ko'pgina banklarda umumiy baholovchi ko'rsatkichlar hisob-kitobi shaxsiy elektron hisoblash mashina (ShEHM)larida maxsus dasturlar yordamida avtomatik tartibda amalga oshiriladi, shuning uchun ko'rsatkichlarning shakllangan tizimiga bir vaqtda jalb qilingan ma'lumotlar ko'rsatkichlari asosida ularning har birining hisob-kitob amaliyotini ishlab chiqishga to'g'ri keladi. Moliyalashtirish manbasining mosligi va moliyalashning ko'rinishi ham baholovchi ko'rsatkichlarni hisoblash usuliga ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun har bir tomon o'zini baholovchi ko'rsatkichlarni hisoblash uchun dasturli ta'minot sifatida namoyon etadi.

1. Ma'lumotlarning (baholovchi ko'rsatkichlarning) hisobot bazasini shakllantirishning davriyligini o'rnatish. Bunday davriylik investitsiya loyihasini amalga oshirishning kalendar rejasi va byudjetining davriyligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunday davriylikning hisobga olinishi bilan u quyidagilarga ajratiladi:

- tezkor hisobot (dekadali yoki ikki haftali);
- oylik hisobot;
- choraklik hisobot;
- yarim yillik hisobot.

Yillik hisobot ko'rsatkichlari investitsiya loyihalarini amalga oshirish joriy monitoringining ob'ekti hisoblanmaydi, chunki ko'rsatkichlar o'zgarishining dinamikasini oylar bo'yicha kuzatish mumkin emas.

Yuqorida ko'rsatilgan to'rtga tamoyillar bilan bog'liq holda bajarilgan ishlar investitsiya loyihalarini amalga oshirish monitoringining nihoyalangan (tugallangan) ma'lumot blokini tuzishga imkon beradi. Bu ma'lumotdan, nafaqat, bank ichida, shuningdek korxonalar reytingini tuzishda ham foydalanish mumkin.

5. Ko'zda tutilgan haqiqiy natijalardan chetlashishga olib keluvchi asosiy sabab (omil)larni tahlil etish. Tahlilning bunday jarayonida, birinchi navbatda, kalendar rejadan yoki byudjetdan «kritik chetlashuvlar» kuzatiladigan ko'rsatkichlar ajratiladi. «Kritik chetlashuvlar» mezoni sifatida dekadali (ikki haftali) davr bo'yicha 20% yoki undan ortiq miqdordagi chetlashishlar; oylik davr bo'yicha 15% yoki undan ortiq foizlar; choraklik bo'yicha esa 10% va undan yuqori bo'lgan foizlar qabul qilinishi mumkin.

6. Alohida investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonini me'yorlashtirish imkoniyatlari va zaxiralarini aniqlash. Monitoringni tashkil etishning mazkur tamoyilini amalga oshirish jarayonida zaxiralar alohida funksional bloklar ko'rinishida va loyihalarni amalga oshirish jarayonini me'yorlashtirish bo'yicha buyurtmachi va pudratchilarning imkoniyatlarini o'rganish bilan qaraladi. Bunday imkoniyatlarini o'rganish bilan qaraladi. Bunday imkoniyatlarning biri sifatida byudjetning moliyaviy zaxirasidan foydalanish ko'rib chiqilgan bo'lishi mumkin.

7. Alohida investitsiya loyihalarining amalga oshirishning kalendar rejasi va byudjetning o'zgarishi bo'yicha takliflarni asoslash. Agar alohida investitsiya loyihalarini malaka oshirish jarayonini me'yorlashtirish imkoniyatlari cheklangan bo'lsa (ya'ni to'liq hajmda me'yorlashtirishga olib kelolmasalar) yoki mavjud bo'lmasa, u holda monitoringning yakunlovchi bosqichi bo'lib, byudjet va joriy rejalashtirilgan-kalendar rejaning asosiy xujjatlariga tegishli tuzatishlar kiritish bo'yicha takliflarni asoslash hisoblanadi. Alohida hollarda investitsiya loyihasining investitsiya portfelidan «chiqishi» to'g'risidagi taklif asoslangan bo'lishi mumkin.

14.3. Loyihani moliyalashtirishga qadar o'tkaziluvchi monitoring.

Investitsiya loyihalari monitoringi faqat uni amalga oshirish jarayonigagina xos bo'lmasdan, balki ularni moliyalashtirishga bo'lgan davrlarda ham o'tkaziladi. Loyihani moliyalashtirishga qadar o'tkaziluvchi monitoringning ahamiyati shundaki, u loyihani moliyalashtirish davridagi monitoringga nisbatan afzalroq va ahamiyatliroq hisoblanadi. Chunki uning natijasida investorlarning loyihani amalga oshirishdagi maqsadlari oldindan ko'proq ta'minlanish imkoniyatlari hosil qilinadi.

Loyihani moliyalashtirishga qadar o'tkaziladigan monitoring kuyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- investitsiya konsepsiyalarini qidirish;
- loyihani boshlang'ich tayyorlash;
- loyihani so'nggi shakllantirish va uning texnik-iqtisodiy moliyaviy afzalligini baholash;
- loyihani uzil-kesil ko'rib chiqish va u bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Loyihaning ushbu bosqichlardan o'tishi investitsiyalarning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunday vaziyatni keltirib chiqarish uchun investitsiya g'oyasini amalga oshirishning barcha jihatlari puxta tayyorlanishi va shunga mos biznes reja (investitsiya loyihasi) ishlab chiqilishi lozim. Bunday loyiha salohiyatli (potensial) investorlar manfaatiga mos kelar ekan, demak, o'tkazilgan tadqiqot ishlari ko'zlangan natijaning hosil qilinishini ta'minlaganligini ko'rsatadi.

Natijalar va o'tkazilgan tahlillarning foydali hisoblanishi loyihani amalga oshirish va uni moliyalashtirishning eng yaxshi variantini (sxemasini) tanlash to'g'risida qaror qabul qilish imkonini (bosqichga o'tishni) beradi.

Ushbu bosqich yondashuvining afzalligi loyihani tayyorlashga sarflangan xarajatlarning samaradorligini ko'rsatib berish va oshirishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek ushbu bosqich eng ustuvor va samarali loyihani aniqlash va tanlab olish imkonini ham beradiki, bu esa istiqbolsiz deb topilgan loyihalarning o'z vaqtida aniqlanishini va rad etilishining oldi olinishini ta'minlaydi. Loyihalarni bunday saralash esa hamisha muhim hisoblanib kelinadi.

Mablag'lar kiritishga munosib biznes-g'oyalarni qidirish va tanlash investitsiyalash bilan bog'lik faoliyatning eng muhim boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Sababi, ushbu hol, oxir-oqibatida, investitsiya mablag'larini safarbar etish asosiga aylanishi mumkin. Buning uchun loyihani boshlang'ich tayyorlash ishlari puxta olib borilishi lozim.

Loyihani boshlang'ich tayyorlash bosqichining vazifasi esa investitsiya loyihasining munosib biznes rejasini ishlab chiqish, ya'ni har qanday tijorat faoliyati uchun umumiy masalani hal etishdan iboratdir. Bunday biznes rejaning vazifasi quyidagi ikkita asosiy savollarga javob topishga asoslanadi:

- investitsiya loyihasi konsepsiyasi qanchalik qiziqarli hisoblanadi va uning ustida ishlashni davom ettirishdan hamda loyihaning texnik-iqtisodiy va moliyaviy maqbulligini baholash uchun asosli ma'lumotlarni tayyorlashdan mantiq mavjudmi?

Loyihani so'nggi shakllantirish va uning texnik-iqtisodiy va moliyaviy afzalligini baholash bosqichida investitsiyalarning barcha jihatlari bilan bog'liq variantlarni va muammolarni muqobil ko'rib chiqishni ta'minlashi lozim bo'lgan loyihaning texnik-iqtisodiy va moliyaviy asoslanishini tayyorlash hamda tahlil etish amalga oshiriladi.

So'nggi qarorni qabul qilish uchun ma'lumotlarning barcha turlarini tayyorlash loyihani so'nggi shakllantirish va moliyaviy afzalligini puxta baholash bosqichining asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu bosqich faqat kerakli moliyaviy mablag'larning yetarlicha aniqlik darajasida qat'iy ta'minlangan bo'lishi mumkin bo'lgan hollardagina amalga oshirilishi lozim.

So'nggi va navbatdagi bosqich loyihani uzil-kesil ko'rib chiqish va loyihani moliyalashtirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida so'nggi qaror qabul qilish hisoblanib, u loyihaning amalga oshirilishi bo'yicha qaror qabul qilish uchun asos hisoblanuvchi baholash ishlarini o'tkazishni nazarda tutadi.

Loyihaning sifati qanchalik yuqori bo'lsa, uni baholash bo'yicha shunchalik kam ish olib boriladi. Baholi xulosani tayyorlashda esa asosiy e'tibor loyihani moliyalashtirishni amalga oshiruvchi firmaga qaratiladi. Agar firma tajribali va salohiyatli bo'lsa, loyihaning butunlay hal etilishi ta'minlanishi mumkin. Loyihani eng so'nggi baholashda ko'llaniladigan usullar esa tahlilning texnik, tijorat, bozor, boshqaruv, moliyaviy jihatlariga asoslanadi.

Shunday qilib, loyihani moliyalashtirishga qadar o'tkaziluvchi monitoring loyihaning samaradorligi va hayotiylikini boshlang'ich tahlil etish uchun amalga oshiriladi. Bunday monitoring loyihani amalga oshirishdagi kelib chiquvchi muammolarning oldini olishga va loyihani moliyalashtirish jarayonidagi monitoringning ishonchli va jiddiy vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarsiz, yengilroq o'tkazilishiga imkon beradi.

4. Banklarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish monitoringini tashkil etish.

Banklarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning monitoringini olib borishi bilan bankning «Loyihalarni moliyalashtirish monitoring» bo'limi shug'ullanadi. Bu bo'lim ham bankning boshqa bo'limlari kabi o'zining Nizomiga ega bo'ladi. Bo'lim faoliyati bankning moliyachi – maslahatchilar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar monitoringini o'tkazish tartibi bo'yicha Nizomga asoslanadi. Ushbu Nizomda joriy monitoringni o'tkazishning to'liq jarayoni, qarz oluvchining moliyaviy ahvolini baholash usullari, turli xil moliyaviy koeffitsientlarini hisoblash usullari, muammoli kreditlarning monitoringini o'tkazish tartibi, tahliliy usullar va ushbu holatlarni hal etishga doir maslahatlar keltirilgan bo'ladi.

Bu bo'lim faoliyatining asosiy maqsadi ssuda hisob-raqamidan to'lov xujjatlarining qilingan to'lovlarga mosligini nazorat qilish, ob'ekt joylashgan joyga chiqish bilan birga kreditdan maqsadli foydalanilganligini tekshirish, bajarilgan ishlarning nazorat ulchamlarini o'tkazish va kurilish muddatidan qat'iy nazar yilda kamida ikki marta sotib olingan uskunalarni inventarizatsiya qilish hisoblanadi.

Kreditdan maqsadli foydalanilmaganligini, uskunalarning komplekt (yaxlit) emasligi hamda yetkazib kelinmaganligini va boshqalarni aniqlashda bu bo'lim quyidagi choralarni ko'llashga haqli hisoblanadi:

- kreditlardan maqsadli foydalanilmaganda kreditlarning qolgan qismini muddatidan oldin qaytarib olish (undirib olish);

- bajarilgan ishlar qismi hajmida kredit summasini muddatidan oldin qaytarib olish;
- jarima jazolarini ko'llash.

Yuqorida keltirilgan huquqlar va maqsadlarga ega bo'lgan holda monitoring bo'limi o'zining tegishli majburiyatlarini bajaradi.

Banklarda monitoring kuyidagi sohalarda olib boriladi:

- moliyalashtirishni nazorat qilish;
- kurilish jarayonini va loyihani ishga tushirishni nazorat qilish;
- kreditning maqsadli ishlatilishini nazorat qilish;
- kredit qaytarilishini nazorat qilish.

Ushbu sohalarda monitoringga parallel ravishda garovga ko'yilgan mulk predmetlari holatini va korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini baholash ham olib boriladi.

Moliyalashtirish monitoringida kuyidagi faoliyatlar amalga oshiriladi:

1. To'lov xujjatlarining tasdiqlangan ob'ekt smetasiga va foydali ishlatilishiga hamda shartnoma baholarini aniqlashning to'g'riligiga mos kelgandagi to'lov ob'ektlariga ssuda hisob-raqamidan ajratilgan har bir to'lovni nazorat qilish.

2. Kurilish ketayotgan joyga borib kreditdan maqsadli foydalanilayotganini har chorakda tekshirish.

3. Har choraklik statistik tahlilni o'tkazish, moliyalashtirishning real va rejali jadvalini va qarz oluvchining kredit bo'yicha to'lovlarini nazorat qilish.

4. Kredit shartnomasi, loyiha monitoringining rejasi va texnik tartibi talablarga mos kelishini nazorat qilish.

Loyiha jarayoni va ob'ektni ishga tushirish monitoringi kuyidagi shakllar va yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Ssuda hisob-raqamidan qilingan har bir to'lovda korxonadagi to'lov xujjatlarining ob'ektning tasdiqlangan smetasiga va foydali ishlatilishiga mosligini va shartnoma baholarining to'g'ri aniqlanganligini nazorat qilish.

2. Har chorakda statistik tahlil olib borish, moliyalashtirishning real va rejali jadvalining mosligini va kredit bo'yicha qarz oluvchining to'lovlarini tahlil qilish.

3. Kurilish ob'ektiga chiqish orqali kreditdan maqsadli foydalanilayotganini har chorakda tekshirib borish.

4. Kredit shartnomasi, texnik tartib talablari va loyiha monitoringi rejasining bajarilishini nazorat qilish.

Kurilish jarayoni va ob'ektni ishga tushirish monitoringi kuyidagi shakl va yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Kurilish muddatlarining uskunalarini keltirish va ularning ishlab chiqarish jadvaliga mos holdagi kurilish-montaj ishlari muddatlarini, ishlarni joriy etish jarayoni haqidagi hisobot ma'lumotlarini, tekshirish natijalarini bevosita o'rganish bilan bog'liqlikda, shuningdek kurilishni olib borish saviyasining pasayish sabablarini aniqlash va iqtisodiy choralar qo'llash bilan hamda yuqori tashkilotlar va prokuratura organlari, xo'jalik sudlariga zarur hollarda ma'lumotlarini yetkazish yo'li bilan kuzatuvlarni nazorat qilish.

2. Pudratchi va buyurtamchilar tomomidan uskunalarini yetkazib berish, ob'ektni ishga tushirish bo'yicha kurilish-montaj ishlari va boshqa xizmatlar uchun tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish.

3. Ob'ekt bo'yicha kurilish-montaj ishlari va xizmatlarni o'rnatilgan tartibda va sotib olingan uskunani inventarizatsiya qilish bo'yicha yilida kamida ikki marta sanoqli, o'lchovli va hisobli nazorat ishlarini olib borish.

4. Uskunalarini ishga tushirishga qabul qilishda ishtirok etish va loyiha ko'rsatkichlarining loyihani amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan strategiyalariga mosligini nazorat qilish.

Moliyalashtirish va kurilish jarayonidagi monitoringda jarayonida kuyidagi tadbirlar ham amalga oshirilishi kerak:

1. Kredit bo'yicha ta'minlanganlik holati va sifatini nazorat qilish.

2. Bank kreditiga bo'lgan talabning o'sishi yoki qisqarishi bilan bog'liq risklarni hisobga olgan holda, qarz oluvchining moliyaviy holatining o'zgarishini baholash.

3. Bozordagi iqtisodiy holatini baholash, loyihani amalga oshirishning tasdiqlangan strategiyasidan chetlanishini va loyihaning pul mablag'lari oqimi bashoratini uning real holatiga taqqoslash.

5. Banklarda investitsiya loyihalari hayotiyligining monitoringini o'tkazish shakllari.

Banklar xizmat ko'rsatayotgan mijozning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lish, kreditga layoqatliligini tahlil etish, berilgan kreditlardan samarali foydalanishligini, hisob-kitob va to'lovlarning barcha turlari bo'yicha to'g'ri yuritilayotganligi, asosiy qarz va u bo'yicha foizlarni qaytarish jarayonlari ustidan tekshiruv va nazorat olib borish tartibini ishlab chiqishi kerak.

Shuningdek har chorakda bank xodimning (loyiha menejerining) joylarga borib, olib borilayotgan ishlar bilan bevosita ob'ektiv tanishib, ularni baholab, zarur bo'lgan hollarda o'z takliflarini berib kelishi. Korxonaning rahbari bilan yuzma-yuz holda olib borilayotgan ishlar, ular bo'yicha kelgusidagi rejalar, natijalar yuzasidan suhbat qilishi ham talab tutilmagan salbiy holatlar paydo bo'lganda, bank bergan kreditlarni qaytarib olish uchun zarur choralarni qo'llashi ham talab etiladi.

Umuman olganda, bu kabi loyihalarni kreditlash va ularning hayotiyligi yuzasidan banklarda monitoring o'tkazish kuyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Joriy monitoring.
2. Muammoli kreditlar monitoringi.

Joriy monitoringning boshlanishi loyiha bo'yicha xulosani asbob-uskunalarini olib kelish bitimini, kredit shartnomasini va monitoring rejasini o'z ichiga oladigan xujjatlarni qabul qilish bilan boshlanadi. Qarz oluvchi bilan savol-javob o'tkaziladi va qarz oluvchi bankka loyihaning texnik-iqtisodiy asoslashni taqdim etadi.

Monitoring bo'yicha ishni rejali tashkil etish va loyihalarning amalga oshirilishini nazorat qilish uchun bank tomonidan barcha loyihalar bo'yicha monitoring rejalarini bir xil tizimga keltirish talab etiladi. Shu bilan birga loyihaning amalga oshirilishi bo'yicha loyiha monitoringi rejasi ishlab chiqiladi. Kreditning himoyasi tashkil etilishini ko'zda tutgan holda monitoring rejasi kreditlash bo'limidagi mutaxassislar (ekspertlar) bilan monitoring bo'limi mutaxassislari o'rtasida birgalikda kreditning barcha davriga tuziladi. Bunda monitoring rejasida har chorakda kamida bir marta bank xodimining tekshiruv uchun joylarga borib kelishi ko'zda tutiladi.

Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan hisobotlar asosida loyiha monitoringi bo'yicha mutaxassislar loyiha holatini moliyaviy-iqtisodiy tahlildan o'tkazadilar:

- korxonaning har oyda Davlat Statistika ko'mitasining joylardagi bo'limlari va boshkarmalariga ishlab chiqarish faoliyati haqidagi topshiradigan oylik jadvalli hisobotlari;

- qarz oluvchining choraklik moliyaviy-iqtisodiy holati bo'yicha hisoboti. Bunda loyihaning iqtisodiy holatini tahlil qilish bo'yicha ma'lumotlar bazasini bir tizimga keltirish zarur;

- loyiha monitoringi bo'yicha mutaxassislar tomonidan choraklik moliyaviy-iqtisodiy hisobotlar tahlili asosida kreditlarni anketalash o'tkaziladi va kredit reytingi aniqlanadi, loyihalar monitoringi boshqarmasiga risklar darajasini bir xil tizimga keltirish va zaxiralarni shakllantirish uchun erkin axborotlar taqdim etiladi;

- kreditlardan maqsadli foydalanishni tekshirish har chorakda ish o'rnida tekshirish dalolatnomasini tuzish orqali amalga oshiriladi. Kreditlardan maqsadli foydalanish bo'yicha ma'lumotlar monitoring boshkarmasi tomonidan berib boriladi;

- loyihani o'zlashtirish bo'yicha kreditlarning jadvalli o'zlashtirish muddatlari oylar bo'yicha taqqoslanadi;

- kreditning ta'minlanganligi bo'yicha nazorat. Har bir aniq kredit uchun alohida garovga qo'yilgan mulkni tekshirish dalolatnomasi va har chorakda garovga qo'yilgan mulkning holati haqidagi dalolatnoma ishlab chiqiladi;

- hamma manfaatdor sub'ektlarga loyihalar rivoji, kreditlar va ularning foizlari qaytarilishi haqida hisobotlar tuzish va ularni taqdim etish;

- qarz oluvchining soʻmdagi mablagʻlarini erkin almashinuvchi valyutaga konvertatsiya qilish boʻyicha ishlarni amalga oshirish. Ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun xom ashyo va materiallar sotib olish maqsadida mablagʻlarni konvertatsiya qilish, xujjatlarni tayyorlash, miqdoriy koʻrsatkichlar boʻyicha hisob-kitoblarni tekshirish;

- xom ashyo sotib olish va tayyor mahsulotlarni sotish maqsadida marketing izlanishlarini (tadqiqotlarini) doimiy ravishda olib borish. Mahsulotlarning omborda turib qolishi sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- qarz oluvchining aylanma mablagʻlari holatini doimiy ravishda oʻrganish va uni bir maromda saqlashi uchun chora-tadbirlar koʻrish va hattoki, kreditlar berish.

Amaliyotda banklar tomonidan oʻz mijozlarini kreditlash hamisha samarali natijalar bilan yakunlanavermaydi. Ayrim hollarda korxonalarining oʻz biznes rejalarini nomukammal ishlab chiqishlari va faoliyatini maqsadli amalga oshirmaganliklari, shuningdek boshqa turli sabablar natijasida banklar tomonidan taqdim etilgan kreditlarning qaytarilish muammosi vujudga keladi.

Albatta, muammoli kreditlar oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi va ularni vujudga keltirishning oʻziga xos omillari mavjud boʻladi.

Muammoli kreditlarni keltirib chiqaradigan omillarning belgilari quyidagilar hisoblanadi:

1. Kreditning moʻljallangan maqsadi boʻyicha ishlatilmasligi.

2. Shartnoma, biznes-rejada, texnik-iqtisodiy asoslash va boshqa kredit xujjatlarida aks ettirilgan jadvallarning amalga oshmasligi:

- moliyaviy-statistik hisobotni «uzatish» jadvalining amalga oshmasligi;

- sifatsiz asbob-uskunalar, xom ashyo va materiallarni oʻzlashtirish va raqobatbardosh boʻlmagan mahsulotlarni ishlab chiqarish.

3. Qarz oluvchining moliyaviy-iqtisodiy holatining yomonlashish tendensiyasi, shu jumladan:

- muddati oʻtgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning vujudga kelishi;

- mahsulot sotilishining sustlashishi;

- qarz oluvchining faoliyatidagi rejalarida keskin oʻzgarishlar yuz berishi;

- qarz oluvchi holatining tarmoqlarda yoki sotish bozorida yomonlashishi.

4. Qarz oluvchining bank oldidagi majburiyatini bajara olmasligiga olib keluvchi «fors-major» holatlarining vujudga kelishi, jumladan:

- qarz oluvchining ishlab chiqargan mahsuloti narxining pasayishiga sabab boʻluvchi omillarning kelib chiqishi;

- rahbariyat va mulkdorlar tarkibidagi radikal oʻzgarishlar oqibatida menejmentning yomonlashuvi;

- mol yetkazib beruvchilarning xom ashyo va materiallarni oʻz vaqtida yetkazib bera olmasligi;

- qarzdorning biznes-hamkorlari ishonchsizligini koʻrsatuvchi dalillarning vujudga kelishi.

Kreditlar muammoli boʻlib qolgan paytlarda toʻrt bosqich asosida tashkiliy tadbirlar oʻtkaziladi.

Birinchi bosqich. Agar qarz oluvchining vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklari tufayli loyihalar amalga oshirilishida sodir boʻlgan oʻzgarishlar kuzatilsa, quyidagi tadbirlar oʻtkaziladi:

a) bank boʻlimlarining maʼsul xodimlari bilan fikr almashishi;

b) quyidagi maqsadlarda xoʻjalik organlariga tashrif buyurish:

- loyiha bajarilishini baholash;

- qarz oluvchining rahbarlari bilan muzokaralar oʻtkazish;

- loyiha rivojlanish muammolarini aniqlash;

- risklarni baholash;

- kreditni oʻzlashtirishning qolgan davriga loyiha biznes rejasini (TIA) oʻrganib chiqish;

- korxonada ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etishi uchun qarz oluvchilar va manfaatdor shaxslar oʻrtasida muzokaralar olib borish;

- muammoli kreditlarning hal etilishini tashkil etish maqsadida kredit komitetini jalb etish va ular bilan muzokaralar olib borish.

Ikkinchi bosqich. Qarz oluvchining kredit yuzasidan muddati uzaytirilgan qarzlarni boʻyicha majburiyati. Bu bosqichda koʻriladigan chora-tadbirlar quyidagicha:

a) qarz oluvchining debitorlik majburiyatlari bilan ishlash. Bu ish qarz oluvchi faoliyatiga bog'liq hamma faoliyatlar tahlilini talab etadi. Majburiyatlar zanjiri tuziladi, bir-biriga bog'liq majburiyatlar qoplanishi sxemasi ishlab chiqiladi;

b) mijozning hisob-raqamlari yopiladi. Ta'sir ko'rsatishning bu turi juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshiriladi, chunki bu qarz oluvchining aylanma mablag'larini butunlay yo'qotishiga olib kelishi mumkin;

v) to'lov muddatini uzaytirish. Kreditni uzaytirishni amalga oshirishda barcha moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili amalga oshiriladi, naqd pul bilan ta'minlanganlik tekshiriladi, biznes-reja ishlab chiqiladi va materiallar loyihalar monitoringi boshqarmasiga beriladi.

Bu yerda o'zgargan ko'rsatkichlar yordamida yangi loyiha monitoringi rejasi ishlab chiqiladi va xulosa bilan birgalikda loyiha bo'yicha kredit komitetiga taqdim etiladi. Kredit anketasi tuziladi va kredit portfeli monitoringi boshqarmasiga beriladi. Hisobotning hamma turlari va ma'lumotlar bazasi bo'yicha tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Uchinchi bosqich. Xizmat ko'rsatuvchi bank mutaxassilari, loyihalar monitoringi boshkarmasi xodimlari, loyiha ekspertlari, hokimiyat vakillari va boshqa manfaatdor shaxslar bilan birgalikda korxonaning ishlab chiqarishni maromiylashtirish maqsadida tekshiriladi. Tegishli hollarda korxonaning rahbarlarini o'zgartirish masalalari ko'rib chiqiladi.

To'rtinchi bosqich. Muddati uzaytirilgan majburiyatlarni qoplash maqsadida o'tkaziladigan monitoring garovga qo'yilgan mulkni sotish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Vujudga kelgan muammoli kreditlarning yuqoridagi bosqichlar asosida hal etilish tamoyili muammoli kreditlar bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlarning ijobiy natijasi, samarasini ta'minlashi bilan o'z ahamiyatini ko'rsatib turadi. Lekin har bir investor yoki kreditlovchi bank va tashkilotlar o'zlarining maqsadlari va faoliyat yo'nalishi xusuiyatidan kelib, chiqib mustaqil tarzda o'ziga xos shakl va usul bo'yicha muammoli kreditlarni hal etish chora-tadbirlarni tizimini ishlab chiqadilar.

Nazorat savollari:

1. Monitoring mohiyati va ahamiyati nimadan iborat?
2. Banklarda investitsiya loyihalari hayotiyiligining monitoringini o'tkazish shakllari.
3. Banklarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish monitoringini tashkil etish.
4. Loyihani moliyalashtirishga qadar o'tkaziluvchi monitoring.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



“QISHLOQ XO‘JALIGIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH”
o‘quv fani bo‘yicha: **masalalar, namunalar, topshiriqlar, keys-stadi, o‘quv loyiha**

1. Loyihaning investitsiyaviy ehtiyojlari

Masalalar

1.1-masala. Yangi ishlab chiqarishni tashkil etishga bo'lgan kapital qo'yilmalarning davomiyligi 3 yilni tashkil etgan holda, yillar bo'yicha taqsimlanish 50%, 25%, 25% ga teng. Bino, inshoot va uskunalarga zarur bo'lgan kapital qo'yilmalar hajmi tegishli tarzda 250 mln. so'm, 240 mln. so'm va 1700 mln so'mga teng. Aylanma mablag'larga bo'lgan qo'yilmalarning umumiy hajmi 80 mln. so'm.

Quyidagilarni hisobga olgan holda:

- qurilma va jihozlarga bo'lgan xarajatlar tegishli tarzda uskunalar xarajatining 18% va 12%ini tashkil etadi;
- transport vositalariga bo'lgan xarajatlar inshoot va uskunalar xarajatlarning 15%ini tashkil etadi;
- texnologiyalarni xarid qilish xarajati uskunalar xarajatining yarmiga teng.

To'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalarning umumiy hajmi va ularni yillar, hamda tuzilmaviy tarkibi bo'yicha taqsimlanishini aniqlang.

yechim:

Masala yechimi natijalarini taqdim etish uchun, yechim jarayonida to'ldirib boriladigan quyidagi jadvaldan foydalanamiz.

yechim quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Birinchi navbatda, kapital qo'yilmalarning barcha keltirilgan tarkibiy qismlariga bo'lgan uch yillik umumiy qo'yilmalar hajmini hisoblab chiqamiz. Bino, inshoot, uskuna va aylanma vositalarga kiritiladigan qo'yilmalarning hajmi berilgan. yetishmaydigan ko'rsatkichlarni hisoblab chiqamiz:

- qurilmalarga bo'lgan xarajatlar $1700 \times 0,18 = 306$ mln. so'm;
- jihozlash xarajatlari $1700 \times 0,12 = 204$ mln. so'm;
- transport xarajatlari $(1700 + 240) \times 0,15 = 291$ mln. so'm;
- texnologiya xarajatlari $1700 \times 0,50 = 850$ mln. so'm.

Asosiy vositalarga qilinadigan barcha xarajatlar yig'indisini hisoblaydigan bo'lsak, ushbu ko'rsatkich 3841 mln. so'mga teng bo'ladi.

1. Olingan va berilgan barcha ma'lumotlarni jadvalning yakuniy ustuniga kiritamiz.

2. Kapital xarajatlarning yillar bo'yicha taqsimotini o'tkazamiz. Taqsimlash jarayoni barcha komponentlar uchun bir xil. Misol uchun, asosiy vositalarga bo'lgan umumiy qo'yilmalar uchun quyidagiga ega bo'lamiz:

- birinchi yilda $3841 \times 0,50 = 1920$ mln. so'm,
- ikkinchi yilda $3841 \times 0,25 = 960,25$ mln. so'm,
- uchinchi yilda $3841 \times 0,25 = 960,25$ mln. so'm.

O'xshash tarzda boshqa barcha xarajatlarni taqsimlagan holda, jadvalni to'ldiramiz va yakuniy qiymatlarni hisoblab chiqamiz.

Masala yechimining yakuniy natijasini yuqoridagi jadval shaklida taqdim etish kerak.

Yillar	1 y.	2 y.	3 y.	Jami
To'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalar				
Asosiy vositalarga bo'lgan qo'yilmalar				
Bino				
Inshoot				
Uskuna				
Qurilma				
Jihozlar				

Transport vositalari				
Texnologiyalar				
Aylanma mablag'larga qo'yilmalar				
Jami				

1.2-masala. Yangi ishlab chiqarishni tashkil etishga kapital qo'yilmalar kiritish davomiyligi 4 yil bo'lib, yillar bo'yicha bir xil taqsimotga ega. Bino, inshoot va uskunalarga bo'lgan kapital qo'yilmalarning zaruriy hajmlari tegishli tarzda quyidagicha: 400 mln. so'm, 600 mln. so'm, 2000 mln. so'm. Aylanma vositalarga bo'lgan umumiy qo'yilmalar hajmi 100 mln. so'mga teng.

Quyidagilarni hisobga olgan holda:

- qurilma va jihozlarga bo'lgan xarajatlar tegishli tarzda uskunalar xarajatining 15% va 12%ini tashkil etadi;
- transport vositalariga bo'lgan xarajatlar inshoot va uskunalar xarajatlarning 20%ini tashkil etadi;
- texnologiyalarni xarid qilish xarajati uskunalar xarajatining uchdan biriga teng.

2. Investitsiyaviy rejalashtirishning moliyaviy-matematik asoslari

Pul qiymatining vaqt mobaynida o'zgarishi

Loyihaga pul investitsiyalarini joylashtirish haqidagi yechim qabul qilinayotganda, inflyasiya, xavf-xatar, noma'lumlik, pullarni muqobil ravishda ishlatilishi hisobga olinishi lozim.

Pul summasi joriy davrga nisbatan vaqt mobaynida har xil qiymatga ega bo'lishi mumkin. Ushbu hulosaning to'g'ri ekanligini amaliyotda ko'rsatish uchun quyidagi shartli belgilarni kiritamiz:

$F(t)$ - vaqt davriyligidagi pullarning kelgusidagi qiymati;

P - pullarning joriy qiymati;

r - foiz stavkasi;

t - vaqt davriyligining uzunligi.

Agarda dastlabki pul qo'yilmasi R , foiz stavkasi r bo'lsa, unda yillar o'tishi bilan tijorat bank raqamida hosil bo'lgan pul summasi miqdori qancha bo'ladi?

Qo'yilmaning kelgusidagi miqdorini topish uchun, murakkab foizlarni hisoblash uslubidan foydalanish o'rindir:

$$F(t) = P(1+r)^t \quad (2.1)$$

Lekin loyiha tahlilchisi uchun masalaning teskarisi muhimiroq hisoblanadi: chunonchi, rejalashtirilgan $F(t)$ pul birliklarida ifodalangan pul summasining miqdori (joriy, keltirilgan bahosi yoki qiymatligi) foiz stavkasi r ga teng bo'lganda, t yil o'tgandan so'ng bugungi kunning nuqtai nazaridan nimaga teng bo'lishi mumkin? Boshqacha qilib aytganda, murakkab foizlarni hisobga olgan holda t yildan so'ng miqdori $F(t)$ pul birligini tashkil etadigan mablag'ni yaratish uchun, bugun qanday P summani hisob raqamiga qo'yish lozimligi quyidagi ifoda bilan topiladi,

$$P = F(t) \cdot \frac{1}{(1+r)^t} \quad (2.2)$$

Bu hisob amali, kelajak pul summalarini (vaqtning hozirgi davriga keltirish) diskontlash deb ataladi.

(2.1) va (2.2) formulalarida ishlatiladigan $(1+r)^t$ va $1/(1+r)^t$ ko'paytiruvchilar mos ravishda murakkab foizlarni hisoblashning diskontlash koeffitsientlari deb ataladi.

t va r ma'lum bo'lgan holda bu koeffitsientlarning miqdorini topish uchun mahsus jadvallar yaratilgan.

Masalalar

2.1-masala. Faraz qilaylik Siz olti yil muddatga ega, 8%lik, 1 mln. so‘m qiymatga ega jamg‘arma sertifikatini xarid qildingiz. Foizlar yillik hisoblanadigan bo‘lsa, shartnoma muddati tugagandan so‘ng Siz oladigan pul qiymati qanchaga teng bo‘ladi?

yechim:

Pullarni o‘stirish formulasidan foydalangan holda, 1 mln. so‘mni 8%lik yillik foyda bilan, 6 yildan keyingi qiymatini aniqlaymiz:

$$FV_n = PV \cdot (1 + r)^n = 1,0 \cdot (1 + 0,08)^6 = 1,586 \text{ mln so‘m}$$

1-ilovada keltirilgan moliyaviy jadval yordamida ham xuddi shunday natijaga ega bo‘lamiz. Tekshirib ko‘ring.

2.2-masala. Korxonada moliyaviy menejeri Sizga uning korxonasiga 5 mln. so‘m miqdorida investitsiya kiritish va 2 yildan so‘ng ushbu investitsiyani 6 mln. so‘m miqdorida qaytarib olishni taklif etdi. Boshqa investitsiyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan holda, taklif etilgan variant foydasining foiz stavkasini aniqlang.

yechim:

Pullarni o‘stirishning asosiy formulasidan foydalanamiz:

$$FV_n = PV \cdot (1 + r)^n,$$

Bundan quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$(1 + r)^n = \frac{FV_n}{PV} \Rightarrow r = \left(\frac{FV_n}{PV} \right)^{1/n} - 1$$

Bizning misolimizda:

$$r = \left(\frac{6,0}{5,0} \right)^{1/2} - 1 = 1,2^{0,5} - 1 = 0,0954 = 9,54\%.$$

Ravshanki, ushbu taklifni rad etish uchun Sizga kamida 9,55% ga teng bo‘lgan yillik foydani taklif etish lozim bo‘ladi.

2.3-masala. Sizga pullarni 5 yildan keyin ikki barobar ko‘paytirish mumkin bo‘lgan investitsiyaviy taklif berishdi. Bunday investitsiyalar foydaliligining foiz stavkasi qanday?

To‘g‘ri javob: 14,87%

2.4-masala. Korxonada narxi 8 mln. so‘mga teng bo‘lgan uskuna xarid qilmoqchi. Uch yildan keyin ushbu xaridni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun, hozirgi kunda bankka qancha pul qo‘yish lozim. Bank foiz stavkasi: a) 10%, b) 14%

To‘g‘ri javob: a) 6,01 mln. so‘m; b) 5,4 mln so‘m.

2.5-masala. Korxonada o‘z texnologik jarayonini takomillashtirgan holda, keyingi 5 yil davomidagi pul daromadini yiliga 10 mln. so‘mga oshirishni rejalashtirgan. Ushbu pullarni korxonada yillik 10% foyda bilan investitsiyalashni amalga oshirsa, 5 yildan keyin korxonada qancha mablag‘ga ega bo‘ladi?

To‘g‘ri javob: 61,051 mln. so‘m.

2.6-masala. Korxonada 160 mln. so‘m mavjud bo‘lib, u keyingi to‘rt yilda yiliga 50 mln. so‘mdan olishni rejalashtirgan holda, ushbu mablag‘larni o‘z ishlab chiqarishiga investitsiya sifatida kiritmoqchi. Bir vaqtning o‘zida, yiliga 12% foyda keltiradigan, yirik kompaniya aksiyalarini xarid qilish imkoniyati ham paydo bo‘ldi. Ushbu variantlardan qaysi biri korxonada uchun foydaliroq hisoblanadi.

To‘g‘ri javob: aksiya xarid qilish.

2.7-masala. Korxonada, kelajakdagi pul daromadlariga nisbatan bir xil natijaga olib keladigan, kapital qo'yimlarning ikkita alternativ variantini ko'rib chiqmoqda:

Har ikkala loyiha ham investitsiyalarning bir xil qiymatiga ega. Korxonada olinadigan pul mablag'larini yiliga 18%ga investitsiyalamoqchi.

Yil	1-loyiha	2-loyiha
1	3 mln. so'm	6 mln. so'm
2	4 mln. so'm	4 mln. so'm
3	5 mln. so'm	5 mln. so'm
4	6 mln. so'm	3 mln. so'm
Jami	\$	\$

Olingan pul mablag'larining zamonaviy qiymatlarini taqqoslang va qulay variantni tanlang.

To'g'ri javob: 11,553 va 12,548 mln. so'm; ikkinchi variant qulayroq.

2.8-masala. 4 mln. so'mga, 12%lik foiz stavkasida, 3 yillik depozit shartnomasi imzolangan. Foizlar bo'yicha to'lovlar yillik amalga oshirilgan taqdirda, shartnoma muddati tugagandan so'ng olinadigan pul miqdori qanchaga teng bo'ladi?

2.9-masala. Biror korxonaga 10 mln. so'm miqdorida investitsiya kiritib, 2 yildan so'ng 13 mln. so'm olish imkoniyati mavjud. Mazkur taklifning foiz stavkasini aniqlang.

2.10-masala. Korxonada 5 yildan so'ng, 12 mln. so'm qiymatga ega bo'lgan uskunani xarid qilishi uchun, hozir qancha miqdorda qo'yilma amalga oshirishi kerak? Foiz stavkasi: a) 12%; b) 13%.

2.11-masala. Korxonada 60 mln. so'm miqdorida mablag' mavjud. Ushbu mablag'ni investitsiyalashning quyida keltirilgan qaysi bir varianti foydaliroq:

A) o'z ishlab chiqarishiga kiritish va 3 yil davomida yiliga 22 mln. so'mdan olish?

B) yiliga 14% foyda beradigan aksiyalarni xarid qilish?

2.12-masala. Korxonada, pul mablag'lariga nisbatan bir xil natijaga olib keluvchi, kapital qo'yimlarning ikkita alternativ loyihasini ko'rib chiqmoqda:

Yil	1 loyiha	2 loyiha
1	12 mln. so'm	10 mln. so'm
2	12 mln. so'm	14 mln. so'm
3	14 mln. so'm	16 mln. so'm
4	16 mln. so'm	14 mln. so'm
5	14 mln. so'm	14 mln. so'm
Jami	\$	\$

Har ikkala loyihaning investitsiyalari hajmi bir xil. Korxonada olinadigan pul mablag'larini yiliga 18%ga investitsiya sifatida kiritmoqchi. Olingan pul mablag'larining zamonaviy qiymatlarini taqqoslang.

2.13-masala. Sizda 10 mln. so'm mablag' mavjud bo'lib, uni 5 yil davomida ikki marotaba ko'paytirish uchun, foiz stavkasining minimal mumkin bo'lgan qiymatini aniqlang.

2.14-masala. Bank foiz stavkasi yiliga 15%ni tashkil etadi. 3 yildan so'ng 5 mln. so'mga ega bo'lish uchun, boshlang'ich summa qanchaga teng bo'lishi kerak?

2.15-masala. Foiz stavkasi yiliga 9% bo'ladigan bo'lsa, qaysi bir variant foydali: -1 mln. so'm hozir yoki 2 mln. so'm 8 yildan keyin?

2.16-masala. Pul oqimlari to'g'risida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan (ming so'mda):

Quyidagi ikkita vaziyatda, har bir oqim uchun r_q12% dagi FV va r_q15% dagi PV ko'rsatkichlarini hisoblang: a) oqimlar yilni boshida sodir bo'lgan; b) oqimlar yil oxirida sodir bo'lgan.

Oqim	Yillar				
	1	2	3	4	5
A	100	200	200	300	300
B	600	-	-	-	-
V	-	-	-	-	1200
G	200	-	200	-	200

2.17-masala. Annuitet sxemasi bo'yicha mablag' jamg'arishning ikkita varianti tahlil qilinmoqda:

1-variant: depozitga 50 mln. so'm miqdorida, 8% yillik foiz stavkasi va foizlarni har yarim yilda to'lash sharti bilan bankka mablag' qo'yiladi.

2-variant: har yili 100 mln. so'm miqdorida, yiliga 9%lik foiz stavkasi va foizlarni yillik to'lash sharti bilan mablag' qo'yiladi.

Quyidagilarni aniqlang:

A) har bir variantni amalga oshirishda, 10 yildan keyin hisob-raqamida mavjud pul mablag'i qanchaga teng bo'ladi? Qaysi variant foydali hisoblanadi?

B) 2-variantdagi foiz stavkasi 8,5%ni tashkil etgan holda, tanlov natijalari o'zgaradimi?

2.18-masala. Qaysi biri foydali 1 yildan keyin 5 mln. so'm olish yoki 6 yildan keyin 12 mln. so'm. Diskontlash koeffitsientlari quyidagicha: a) 0%; b) 12%; v) 20%.

2.19-masala. Quyidagi vaziyatlar uchun 3 mln. so'mning kelajakdagi qiymatini hisoblang:

A) 5 yil, yiliga 8%, foizlar yillik to'lanadi;

B) 5 yil, yiliga 8%, foizlar har yarim yilda to'lanadi;

V) 5 yil, yiliga 8%, foizlar har chorakda to'lanadi.

2.20-masala. Uzoq muddatli shartnoma bo'yicha to'lovlar ikkita variantda amalga oshirilishi mumkin: 6 yildan so'ng 25 mln. so'm yoki 12 yildan so'ng 50 mln. Diskontlash koeffitsientining qanday qiymatida har ikkala variant teng kuchli bo'lib qoladi?

2.1. Murakkab foizlar

2.1.1-masala. Yiliga 15%lik stavka bo'yicha, murakkab foizlar bilan, 3 yilga 100 mln. so'm pul qarzga olingan. 3 yildan so'ng to'lanishi lozim bo'lgan summani aniqlang.

yechimi: Murakkab foizlarni hisoblash formulasi bo'yicha, quyidagiga teng bo'ladi:

$$TV=100 \cdot (1+0,15)^3=152,09 \text{ mln. so'm}$$

2.1.2-masala. Bankdagi jamg'arma hisob-raqamida 200 ming so'm mavjud. Mazkur hisob-raqamdagi pul miqdori 3 yildan so'ng qanday o'zgaradi (hisob-kitoblarda yiliga 12%lik murakkab stavka qo'llaniladi).

To'g'ri javob: 281 ming so'm.

2.1.3-masala. 2.1.2-masala shartida birinchi yil 12%, ikkinchi yil 14%, uchinchi yil 15%ga teng bo'lgan murakkab foiz stavkasi amal qilgan taqdirda, uch yildan keyin hisob-raqamida mavjud bo'ladigan pul miqdorini hisoblang.

To'g'ri javob: 293,7 ming so'm.

2.1.4-masala. Boshlang'ich summani uch marta ko'paytirish uchun, yiliga 10%lik murakkab stavka bo'yicha, necha yil kutish kerak?

To'g'ri javob: 11,56 yil

2.1.5-masala. Yiliga 20%lik murakkayu foiz stavkasi bo'yicha, boshlang'ich summani to'rt marta ko'paytirish uchun necha yil kutish kerak?

To'g'ri javob: 7,6 yil.

2.1.6-masala. Boshlang'ich summa 3 yildan keyin 6 marta ko'payishi uchun, pul qo'yilmalariga murakkab foiz stavkasi bo'yicha qanday stavkada qo'llanilishi kerak?

To'g'ri javob: 81,7%

2.1.7-masala. Besh yildan keyin pul qo'yilmasi miqdori 800 ming so'mga yetdi. Ushbu davr mobaynida to'langan murakkab foizlar summasi 250 ming so'mni tashkil etdi. Foiz stavkasi kattaligini toping.

To'g'ri javob: 7,78%

2.1.8-masala. Pullar 15%lik murakkab foiz stavkasida, foizlar har chorakda to'lanish sharti bilan qo'yilgan bo'lsa, 400 mln. so'm 2 yildan so'ng qanchaga yetadi.

To'g'ri javob: 536 mln. so'm.

2.1.9-masala. Kredit o'tkazmasining birinchi 2 yiliga murakkab foizlarning 10%lik stavkasi belgilangan, keyingi uch yilda bu ko'rsatkich 12%ga teng bo'lgan. Butun davr davomidagi o'stirish koeffitsientini toping.

To'g'ri javob: 1,7.

2.1.10-masala. Foizlarning har chorakda to'lanishida yillik nominal stavka 20%ga teng bo'lsa, samarali stavka ko'rsatkichini hisoblang.

To'g'ri javob: 21,6%.

2.1.11-masala. Murakkab foiz stavkasi 20%ga teng. Beshinchi yil uchun diskontlash koeffitsientini hisoblang.

To'g'ri javob: 0,402

2.1.12-masala. Besh yillik davrning har bir yili uchun diskontlash koeffitsientini hisoblang. Diskontlash stavkalari quyidagicha: a) 10%; b) 20%.

To'g'ri javob: a) (0,909; 0,826; 0,751; 0,683; 0,621); b) (0,833; 0,694; 0,579; 0,482; 0,402)

2.1.13-masala. Uchinchi yil uchun diskontlash koeffitsienti 0,658ga teng. Foiz stavkasini toping.

To'g'ri javob: 15%

2.1.14-masala. 4 yildan so'ng 20 mln.so'm to'lanishi kerak. Yiliga 10%ga teng bo'lgan murakkab stavkani hisobga olgan holda, pullarning zamonaviy qiymatini toping.

To'g'ri javob: 13,66 mlrd. so'm.

2.1.15-masala. 400 mln so'mga, murakkab foiz bo'yicha yiliga 15%lik stavkada 1 yil davomida foiz to'lanadi. Foiz to'lovlarining quyidagi holatlari uchun orttirilgan summani hisoblang: a) yillik; b) choraklik.

To'g'ri javob: a) 460 mln. so'm; b) 463,46 mln. so'm.

2.1.16-masala. Inflyasiyaning o'rtacha oylik ko'rsatkichi 10% deb prognoz qilingan bo'lsa. Inflyasiyaning yillik sur'atini toping.

To'g'ri javob: 213,8%

2.1.17-masala. Inflyasiyaning yillik sur'ati 120%ga teng bo'lsa. Inflyasiyaning o'rtacha choraklik sur'atini toping.

To'g'ri javob: 21,8%

2.1.18-masala. Kreditor ssuda berish orqali yiliga 8%lik real daromad olishni rejalashtirgan. Yillik inflyasiya sur'ati 10%ga teng bo'lsa. Kredit bo'yicha foiz stavkasini toping.

To'g'ri javob: 18,8%

2.1.19-masala. Inflyasiyaning o'rtacha oylik sur'ati 4%. Yillik nominal stavka – 60%, murakkab foizlar har chorakda hisoblanadi. Samarali real stavka qiymatini toping.

To'g'ri javob: 9,2%

2.1.20-masala. Samarali stavka 30%ga teng bo'lsa, foizlarning har chorakda hisoblanishida, yillik nominal stavkaning qiymatini toping.

To'g'ri javob: 27,1%

2.2. Konversion operatsiyalar

2.2.1-masala. Quyidagi ikkita majburiyat bir xil qiymatga ega deb bo'ladimi: 1. 2 oydan so'ng 200 mln. so'm to'lash; 2. 5 oydan so'ng 400 mln. so'm pul to'lash. Hisob-kitoblarda yiliga 15%lik oddiy stavkadan foydalanish.

To'g'ri javob: mumkin emas (195,12 mln. so'm va 376,5 mln. so'm)

2.2.2-masala. Oluvchi uchun quyidagi to'lov variantlaridan qaysi biri qulay, bir yildan keyin 5 ming so'm olish yoki ikki yildan keyin 6 ming so'm pul olish? Yo'qotilgan imkoniyatlar xarajatlari – yiliga 15%.

To'g'ri javob: ikkinchi variant

2.2.3-masala. Ikkita to'lovlar birlashtirildi – 100 kundan so'ng to'lanishi kerak bo'lgan 3 mln. so'm va 130 kundan so'ng to'lanishi kerak bo'lgan 5 mln. so'm. Hisob-kitoblarda yiliga 12%lik oddiy stavkadan foydalangan holda, umumlashtirilgan to'lov miqdorini aniqlang (vaqt bazasi – 360 kun).

To'g'ri javob: 8,11 mln. so'm

2.2.4-masala. To'lash muddati 2 va 5 yil bo'lgan tegishli tarzda 10 va 15 mln. so'mlik to'lovlar, muddati 4 yil bo'lgan to'lovda umumlashtirildi. Hisob-kitoblarda 15% yillik murakkab stavkadan foydalangan holda, umumlashtirilgan to'lov miqdorini aniqlang.

To'g'ri javob: 26,27 mln. so'm.

2.2.5-masala. 30, 50 va 70 kundan so'ng to'lanishi lozim bo'lgan 100, 150 va 180 mln. so'm pul, 450 mln. so'mga teng bo'lgan to'lov bilan almashtirildi. Hisob-kitoblarda 20% yillik oddiy stavkadan foydalangan holda, umumlashtirilgan to'lov muddatini aniqlang.

To'g'ri javob: 144 kun

2.2.6-masala. 1, 2 va 3 yildan keyin to'lanishi lozim bo'lgan 3, 5 va 10 mln. so'm pul, 16 mln. so'mga teng bo'lgan to'lov bilan almashtirildi. Hisob-kitoblarda 10% yillik murakkab stavkadan foydalangan holda, umumlashtirilgan to'lov muddatini aniqlang.

To'g'ri javob: 1,13 yil

2.2.7-masala. Boshlang'ich shartnoma bo'yicha 4 yildan keyin 500 mln. so'm to'lanishi kerak edi. Ushbu sharoitlar quyidagicha o'zgartirildi: birinchi ikki yildan keyin 300 mln. so'm to'lash; qolgan summani keyingi uch yildan keyin to'lash. Hisob-kitoblarda 10% yillik murakkab stavkadan foydalangan holda, qolgan summani toping.

To'g'ri javob: 150,7 mln. so'm

2.2.8-masala. Boshlang'ich majburiyat bo'yicha 20 mart kuni 500 ming so'm, 25 avgustda esa 300 ming so'm to'lash lozim. Ushbu majburiyat qayta ko'rib chiqilgandan so'ng 5 may kuni 400 ming so'm, qolgan summani esa 25 sentyabrda to'lashga kelishildi. Hisob-kitoblarda 40% yillik oddiy stavkadan foydalangan holda, to'lanishi lozim bo'lgan qolgan summani toping. Barcha to'lovlar oxirgi to'lov sanasiga olib kelinsin.

To'g'ri javob: 450,4 min so'm.

2.2.9-masala. Tadbirkor hamkoriga 3 oydan so'ng 100 ming so'm, 5 oydan so'ng yana 200 ming so'm va 7 oydan so'ng yana 150 ming so'm to'lashi kerak. Tadbirkor barcha to'lovlarni birlashtirgan holda 470 ming so'm to'lashni rejalashtirgan bo'lsa, ushbu to'lov amalga oshirilishi lozim bo'lgan muddatni toping. Hisob-kitoblarda 45% yillik murakkab foiz stavkasidan foydalaniladi.

To'g'ri javob: 6,57 oydan so'ng.

2.2.10-masala. Korxonaga yetkazib beruvchiga quyidagi summalarini to'lashi lozim: 3 oydan keyin 3 mln. so'm, 4 oydan keyin 2 mln. so'm va 6 oydan keyin yana 3 mln. so'm. Keyinchalik har ikkala tomon to'lovlarni birlashtirish va 5 oydan keyin bitta to'lovni amalga oshirishga kelishishdi. 30% yillik oddiy foiz stavkasi bo'yicha hisoblaganda, ushbu to'lov kattaligini toping.

To'g'ri javob: 9,71 mln. so'm.

2.3. Foiz stavkalarining ekvivalentligi va o'rtacha stavkalar

2.3.1-masala. Hisob stavkasi – yiliga 20%. Veksel muddatidan bir yil oldin qoplangan bo'lsa, hisob operatsiyasining oddiy foiz stavkasi ko'rinishidagi samaradorligini toping.

To'g'ri javob: 25%.

2.3.2-masala. Hisob muddati 150 kunga teng bo'lganda, yilliga 25% bo'lgan oddiy foiz stavkasiga ekvivalent oddiy hisob stavkasini aniqlang. (vaqt bazasi – 360 kun).

To'g'ri javob: 22,6%

2.3.3-masala. Ssuda 2 yilga yiliga 12%lik oddiy stavkada berilgan. Murakkab foizdagi ekvivalent stavkani toping.

To'g'ri javob: 11,4%

2.3.4-masala. Veksel qoplanishiga 90 kun qolganda, 12%lik oddiy hisob stavkasi bo'yicha hisoblangan holda, murakkab stavkaga o'tish rejalashtirilgan. Bank moliyaviy ahvoli o'zgarmasdan qolishi uchun qanday murakkab stavkani o'rnatish lozim?

To'g'ri javob: 11,47%

2.3.5-masala. Ssudaning birinchi 3 yili uchun 10%lik murakkab stavka qo'llanilgan, keyingi 2 yili uchun 16%lik. Butun ssuda davri uchun o'rtacha stavkani toping.

To'g'ri javob: 12,4%

3. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash

3.1-masala. Yiliga 14%lik murakkab foizda hisoblanadigan sxema bo'yicha, 4 yil muddatga 10 mln. so'm qarzga olindi. Har yilning oxirida bir xil summani qaytarish kerak. Yillik to'lov kattaligini aniqlang.

To'g'ri javob:

3.2-masala. Kredit taqdim etishning qaysi bir sharti bank uchun foydaliroq: a) yiliga 28%, foiz hisoblash har chorakda; b) yiliga 30%, foiz hisoblash har yarim yilda?

To'g'ri javob:

3.3-masala. Korxonaga 20 mln. so'mga quyidagi shartlarda bino xarid qilmoqchi: a) bino qiymatining 25%i hozir to'lanadi; b) to'lovning qolgan qismi 10 yil ichida, murakkab foiz sxemasida yiliga 12% hisoblangan holda, teng yillik to'lovlar bilan qoplanadi. Yillik to'lov kattaligini aniqlang.

To'g'ri javob:

3.4-masala. Nominal qiymati 100 ming so'm, stavkasi yiliga 9% va qoplanish muddati 3 yil bo'lgan obligatsiyaning joriy qiymatini baholang. (foydaning bozor me'yori 7%).

To'g'ri javob:

3.5-masala. To'lanadigan yillik to'lovi 100 ming so'm va bozor daromadliligi 12% bo'lgan, muddatsiz obligatsiyaning joriy qiymatini baholang.

To'g'ri javob:

3.6-masala. Nominal qiymati 5 ming so'm bo'lgan va 25 yildan so'ng qoplanadigan davlat obligatsiyasining joriy narxini toping. Bank foiz stavkasi 15%ga teng.

To'g'ri javob:

3.7-masala. Nominal narxi 1000 so'm va dividend kattaligi yiliga 9% bo'lgan imtiyozli aksiyaning joriy qiymatini toping. Foydaning bozor me'yori 12%.

To'g'ri javob:

3.8-masala. Aksiya bo'yicha to'langan oxirgi dividend miqdori 1000 so'mga teng. Keyingi uch yilda u 14%lik sur'atda o'sishi kutilmoqda, keyinchalik o'sish sur'ati 5%da barqaror saqlanadi. Foydaning bozor me'yori 15% bo'lsa, aksiyaning narxi nimaga teng?

To'g'ri javob:

3.9-masala. Korxonada hisob yilida dividend to'lamagan, ammo keyingi yilda 5000 so'm miqdorida dividend to'lash rejalashtirilgan. Keyingi yillarda esa dividendlarning 6% lik sur'atda o'sishi kutilmoqda. Diskontlash koeffitsienti 13%ga teng bo'lsa, korxonada aksiyaning hozirgi kundagi qiymatini toping.

To'g'ri javob:

3.10-masala. 500 ming so'm nominal qiymatga ega, foizlari har yarim yilda hisoblanadigan va kupon stavkasi 10 yilga teng bo'lgan obligatsiya 6 yildan keyin qoplanadi. Foydaning bozor me'yori 8% bo'lsa, obligatsiyaning joriy narxini toping.

To'g'ri javob:

3.1. Qisqa muddatli investitsiyaviy vositalar daromadliligi

3.1.1-masala. Aylanish muddati 120 kunga teng bo'lgan depozit sertifikatini, 30 kundan so'ng 500 ming so'mga xarid qilindi, keyinchalik qoplanishiga 50 kun qolganda 550 ming so'mga sotildi. Ushbu operatsiyaning yillik daromadliligini aniqlang.

To'g'ri javob: 91,3% oddiy stavka.

3.1.2-masala. Aylanish muddati 120 kunga teng bo'lgan jamg'arma sertifikatini, qoplanishiga 50 kun qolganda 125 ming so'mga sotib olingan. Sertifikatning nominal qiymati 110 ming so'm, e'lon qilingan foiz stavkasi – 60%. Yillik daromadlilikni aniqlang.

To'g'ri javob: 39,1% oddiy stavka.

3.1.3-masala. Aylanish muddati 180 kun bo'lgan depozit sertifikatini 200 ming so'mga sotib olingan. Yiliga 40%lik daromadga ega bo'lish uchun, u qanchaga sotilishi lozim?

To'g'ri javob: 239,45 ming so'm.

3.1.4-masala. Qisqa muddatli qimmatli qog'oz 1000 so'mga xarid qilingan. Yillik daromad 30%ni tashkil etishi uchun, u 1100 so'mga necha kundan keyin sotilishi lozim?

To'g'ri javob: 121,7 kun

3.1.5-masala. Qisqa muddatli qimmatli qog'ozga egalik qilish muddati 160 kunga teng. Yillik daromadlilik 40%ga teng bo'lishi uchun, egalik qilish davridagi daromadlilik qanday bo'lishi kerak?

To'g'ri javob: 17,53%

3.2. Obligatsiyalar tahlili

3.2.1-masala. Obligatsiyaning nominal qiymati – 400 ming so'm, kupon stavkasi – 12%, kupon to'lovlari har yarim yilda to'lanadi. Ushbu daromadning absolyut kattaligini toping.

To'g'ri javob: 24 ming so'm.

3.2.2-masala. Obligatsiya 1000 so'mga sotib olingan, nominal qiymati – 1200 so'm, qoplanishigacha qolgan muddat – 4 yil, kupon stavkasi – 15%, kupon to'lovi yiliga bir marta to'lanadi. Chiziqli interpolyasiya uslubi bilan qoplanish daromadliligini toping.

To'g'ri javob: 21,7%.

3.2.3-masala. Nominal qiymati 300 ming so'mga teng bo'lgan obligatsiya, 250 ming so'mga sotib olingan. Mazkur obligatsiyaning kupon stavkasi- yiliga 20%, kupon to'lovlari har yarim yilda

to‘lanadi. Ushbu obligatsiya 3 yildan keyin 320 ming so‘mdan qaytarib olinishi nazarda tutilgan. Amalga oshirilgan daromadlilikni toping.

To‘g‘ri javob: 30,4%.

3.2.4-masala. Obligatsiya qoplanishiga 4 yil qolganda, 80 ming so‘mga teng bo‘lgan bozor narxida sotib olingan. Obligatsiyaning nominal qiymati – 100 ming so‘m, kupon stavkasi – 12%, kupon to‘lovlari har yarim yilda to‘lanadi. To‘liq daromadlilikni toping.

To‘g‘ri javob: 19,4%

3.2.5-masala. Obligatsiya 60 ming so‘mlik bozor narxida, qoplanishiga 4 yil qolganda sotib olingan. Obligatsiyaning nominal qiymati – 70 ming so‘m, kupon stavkasi – 20%, kupon to‘lovi har yarim yilda to‘lanadi. Foiz stavkasi 2%ga o‘sishi prognoz qilinmoqda. Narxning prognoz darajasini toping.

To‘g‘ri javob: 57,09 ming so‘m.

3.3. Obligatsiya va aksiyalar qiymatini baholash

3.3.1-masala. Nominal qiymati 100 so‘m va talab qilingan daromadlilik 12% bo‘lgan obligatsiyalarning investitsiyaviy qiymatini aniqlang:

Obligatsiyalar	Yillik kupon daromadi (nominalga nisbatan %da)	Qoplanishigacha muddat (yil)
A	8	1
B	8	2
V	8	3
G	12	1
D	12	2
ye	12	3
J	14	1
Z	14	2
I	14	3

To‘g‘ri javob: (A: 964,286 so‘m.; B: 932,398 so‘m.; V: 903,927 so‘m.; G: 1000 so‘m.; D: 1000 so‘m.; ye: 1000 so‘m.; J: 1017,857 so‘m.; Z: 1033,801 so‘m.; I: 1048,036 so‘m.)

3.3.2-masala. Quyidagi obligatsiyaning to‘liq va sof narxi, hamda jamg‘arilgan foizlarini toping. Nominal qiymati 500 ming so‘m, yillik kupon stavkasi – 14%, kupon to‘lovi har yarim yilda to‘lanadi. Obligatsiya 2007 yil 20 iyunda sotib olingan va 2008 yil 1 sentyabrda qoplanishi kerak. Talab qilingan daromadlilik – yiliga 30%, vaqt bazasi 30/360.

To‘g‘ri javob: 370,56 ming so‘m.; 343,53 ming so‘m; 27,03 ming so‘m.

3.3.3-masala. Korxonada yil yakuni bo‘yicha har bir aksiyaga 50 so‘mdan dividend to‘lashni nazarda tutgan. Yil oxirida har bir aksiyaning narxi 50 ming so‘m miqdorida prognoz qilingan. Talab qilingan daromadlilik – 15%. Aksiyaning davr boshidagi investitsiyaviy qiymatini toping.

To‘g‘ri javob: 478,26 so‘m.

4. Kapital qiymatini baholash

Kapital qiymatini aniqlash yondashuvlari va modellari

Kapitalning umumiy qiymatini aniqlash uchun, birinchi navbatda uning har bir tarkibiy qismi qiymatini baholash lozim.

Odatda investitsiyaviy loyiha kapitali quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Shaxsiy kapital (oddiy aksiyalar, korxonada faoliyati hisobiga jamg‘arilgan foyda);

2. Imtiyozli aksiyalarni sotishdan olingan pul mablag‘lari;
3. Qarz kapitali (uzoq muddatli bank krediti, obligatsiyalar chiqarish).

Bozor (xo‘jalik hisobi) sharoitlarida faoliyat yurituvchi, mulkchilikning davlat shakliga tegishli korxonalarda quyidagi ikkita tarkibiy qism ajratiladi:

1. Shaxsiy kapital (jamg‘arilgan taqsimlanmagan foyda);
2. Qarz kapitali (uzoq muddatli bank kreditlari).

Shaxsiy kapital qiymatini aniqlash modellari

Shaxsiy kapital qiymati – bu oddiy aksiyadorlar olish istagida bo‘lgan pul daromadidir. Shaxsiy kapital qiymatini baholashning bir nechta modeli mavjud bo‘lib, ularning har biri kapitalni baholovchida mavjud axborotdan foydalanishga asoslangan.

Dividendlarning prognoz (bashorat) qilinadigan o‘sishi modeli. Shaxsiy kapital qiymatini hisoblash quyidagi formulaga asoslanadi:

$$C_e = \frac{D_1}{P} + g, \quad (4.1)$$

Bu yerda: S_{ye} – shaxsiy kapital qiymati;

R – bitta aksiyaning bozor narxi;

D_1 – kompaniya tomonidan, investitsiyaviy loyihani amalga oshirishning birinchi yilida va‘da qilingan dividend;

g – dividendlarning prognoz (bashorat) qilinadigan yillik o‘sishi.

Kapital aktivlarning narx modeli (CAPM: Capital Assets Price Model). Mazkur modeldan foydalanish, korxonaga faoliyati foydaliligini tavsiflovchi ko‘p sonli ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan, barqaror bozor iqtisodiyoti sharoitlarida keng tarqalgan.

Model, muayyan korxonaga tavakkalchiligi darajasini ifodalovchi β ko‘rsatkichidan foydalanadi. Ushbu ko‘rsatkich shunday tuzilganki, agarda $\beta = 0$ bo‘lsa, korxonaga aktivlari umuman tavakkalchilikka ega emas deb hisoblanadi (deyarli mavjud bo‘lmagan holat). Misol uchun, AQSh davlat obligatsiyalari uchun $\beta = 0$ deb yuritiladi. Agarda $\beta = 1$ bo‘lsa, korxonaga aktivlarining tavakkalchiligi bozordagi o‘rtacha tavakkalchilikka teng deb hisoblanadi. Agarda muayyan korxonaga uchun $0 < \beta < 1$ bo‘lsa, demak korxonaga tavakkalchiligi bozordagi o‘rtacha tavakkalchilikka nisbatan past. $\beta > 1$ korxonaga juda ham yuqori tavakkalchilikka ega ekanligini bildiradi.

Modelning hisob formulasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$C_e = C_{RF} + (C_M - C_{RF})\beta, \quad (4.2)$$

Bu yerda: C_{RF} - kapitalni tavakkalchiliksiz kiritish uchun foydalilik darajasi;

C_M – bozor bo‘yicha o‘rtacha foydalilik darajasi;

β - tavakkalchilik omili.

(4.2)-modelga muvofiq S_{ye} ning o‘zgarishi 4.1-rasmda grafik ko‘rinishida tasvirlangan.




Рис. 1

4.1.-rasm. Korxonaga shaxsiy kapitali foydaliligi

Shunday ekan, mazkur korxonaga uchun R ko'rsatkichini qanday aniqlash mumkin? Yagona usul – o'tgan yillar ma'lumotlaridan foydalanish. Tahlil qilinayotgan korxonaga va o'rtacha bozor foydaliligi taqqoslama ma'lumotlari bo'yicha tegishli to'g'ri chiziqli regression bog'liqlik yaratiladi. U korxonaga va o'rtacha bozor foydaliligining korrelyatsiyasini aks ettiradi. Bunday bog'liqlikning regression koeffitsienti R - omilni baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Aksiyaga to'g'ri keladigan foyda modeli. Shaxsiy kapital qiymatini baholashning ushbu modeli dividendlar kattaligiga emas, aksiyaga to'g'ri keladigan foyda ko'rsatkichiga asoslanadi. Ko'pgina investorlarning fikricha, aksiyaga to'g'ri keladigan foyda kattaligi, u dividend shaklida to'lanadimi yoki investorlarga kelajakda foyda olib kelish maqsadida qayta investitsiyalanadimi, aksiyadorlar oladigan real daromad hisoblanadi.

Ushbu modelga muvofiq shaxsiy kapital qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$C_e = \frac{II}{P}, \quad (4.3)$$

Bu yerda: P – bitta aksiyaga to'g'ri keladigan foyda kattaligi;

R – bitta aksiyaning bozor narxi.

Tavakkalchilik uchun mukofot modeli. Ushbu model o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, chunki u shartnomaviy xarakterga ega. Shartnoma, kapital qo'yilma tavakkalchiligi uchun mukofot qanchalik bo'lishi to'g'risida korxonaga va potensial investor o'rtasida tuziladi. Shaxsiy kapital qiymati quyidagi formulaga asosan baholanadi:

$$C_e = C_R + RP, \quad (4.4)$$

Bu yerda: S_n – investorning oddiy (o'rtacha tavakkalchilikli) imkoniyatlarga pul qo'yishning qaytarilish darajasi;

RP – tavakkalchilik uchun mukofot.

Chet ellik investorlarni, faqatgina tavakkalchilik uchun katta mukofot evazigagina O'zbekiston va MDHning boshqa mamlakatlari korxonalariga kapital kiritish uchun jalb qilish mumkin, va bunday holatda aynan ushbu model qo'l keladi.

Sanab o'tilgan modellardan, davlat korxonalariga uchun o'zini-o'zi moliyalashtirish sharoitiga moslashtirilgan aksiyaga to'g'ri keladigan foyda modeli eng qulay hisoblanadi. Bu holatda kapital qiymati bo'lib korxonaga yillik foydasining, ko'rib chiqilayotgan yilga qadar yig'ilgan korxonaning shaxsiy mablag'lariga nisbati xizmat qilishi mumkin.

$$C_e = \frac{II}{S}, \quad (4.5)$$

Bu yerda: P – korxonaga ixtiyorida qolgan yillik foyda;

S – yil oxiriga kelib korxonaga balansidagi shaxsiy mablag'lar summasi.

Qayta jalb qilingan kapital qiymati.

Yangi (qayta jalb qilingan) shaxsiy kapital qiymati, odatda, mavjud shaxsiy kapital qiymatiga nisbatan yuqori bo'ladi. Korxonaga qo'shimcha aksiyalarni chiqarganda, u mavjud aksiyalarning bozor narxidan kamroq pul oladi. Bu yangi aksiyalarni chiqarish bo'yicha qo'shimcha xarajatlar, va bundan tashqari yangi aksiyalarni tez sotish istagi bilan bog'liqdir.

Qayta jalb qilingan kapital qiymatini hisoblashda, dividendlarning o'sish modeli doirasidagi quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$C_e = \frac{D_1}{P(1-F)} + g, \quad (4.6)$$

Bu yerda: F – yangi chiqarilayotgan aksiyalarning bozor qiymatini pasayishini aks ettiruvchi, aksiyalarni chiqarish qiymati.

Imtiyozli aksiyalar qiymatini hisoblash modeli

Ushbu model juda ham oddiy, chunki imtiyozli aksiyalar daromadini aniqlash juda ham oson. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha o'rnatilgan dividend miqdori to'lanadi, va foyda darajasi qanchalik

bo'lishidan qat'i nazar boshqa hych qanday to'lovlar to'lanmaydi. Shuning uchun ham, imtiyozli aksiyalar bo'yicha foydalilik quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$C_p = \frac{D}{P}, \quad (4.7)$$

Bu yerda: D – bitta aksiyaga bo'lgan yillik dividend kattaligi;

R – bitta aksiyaning bozor narxi.

Oddiy aksiyalardagi singari, yangi imtiyozli aksiyalarni chiqarish xarajati ularning qiymatidan yuqori bo'ladi. Bunday baholashni (6.6)dan gq0 deb, chunki imtiyozli aksiyalar odatda o'smaydi, qabul qilgan holda amalga oshirish mumkin:

$$C_p = \frac{D}{P(1 - F)}, \quad (4.8)$$

Qarz kapitali qiymatini aniqlash modellari

O'z faoliyati davomida, korxonaga quyidagi ko'rinishga ega qarz mablag'lari bilan ish yuritadi:

- tijorat banklari va boshqa korxonalarining uzoq muddatli kreditlari;

- berilgan qoplanish muddati va nominal foiz stavkasiga ega obligatsiyalar chiqarish.

Birinchi vaziyatda, qarz kapitalining qiymati kreditning foiz stavkasiga teng va kreditor hamda qarz oluvchi o'rtasidagi shartnoma bilan, har bir holat uchun alohida, belgilanadi.

Ikkinchi vaziyatda, kapital qiymati obligatsiya nominal qiymatiga nisbatan foizlarda ifodalanadigan, obligatsiyaning nominal foiz stavkasi kattaligi bilan belgilanadi. Nominal qiymat – bu obligatsiya chiqargan korxonaga, obligatsiyani sotib olgan korxonaga, obligatsiyani qoplash kuni kelganda to'lanadigan narxdir. Tabiiyki, obligatsiyani qoplanish muddati obligatsiya chiqarilgan paytda ko'rsatiladi.

Obligatsiyalar yangi chiqqan vaqtda ular o'z nominal qiymati bo'yicha sotiladi. Demak bunda, qarz kapitali qiymati S_d obligatsiyaning nominal foiz stavkasi i_k bilan aniqlanadi

$$C_d = i_k, \quad (4.9)$$

Obligatsiyaning real foydaliligini (qarz kapitali qiymatini) hisoblash uchun, obligatsiyalar hozirgi qiymatini aniqlash modelidan ofydanamiz:

$$V_B = \sum_{j=1}^N \frac{INT}{(1 + r_B)^j} + \frac{M}{(1 + r_B)^N}, \quad (4.10)$$

Bu yerda: INT – obligatsiya bo'yicha yillik foiz to'lovi;

M – obligatsiyaning nominal qiymati;

V_v – obligatsiyaning hozirgi qiymati;

N – obligatsiya qoplanishigacha qolgan davrlar (yillar);

r_v – obligatsiya bo'yicha foiz stavkasi.

(4.11) formula belgilarida C_d qarz kapitali qiymatini hisoblash uchun quyidagi tenglamadan foydalaniladi:

$$V_M = \sum_{j=1}^N \frac{INT}{(1 + C_d)^j} + \frac{M}{(1 + C_d)^N}, \quad (4.11)$$

Bu yerda: V_M – obligatsiyaning joriy bozor narxi;

N – obligatsiya qoplanishigacha qolgan yillar.

(4.11) tenglamani EHM yoki moliyaviy elektron hisoblagichda sonli uslublardan foydalanib keltirilgan holdagina yechish mumkin. Quyidagi keltirilgan (4.12) formula natijasi ham tenglamadan foydalanishga ancha yaqin:

$$C_d = \frac{INT + (M - V_M) / N}{(V_M + M) / 2}, \quad (4.12)$$

Obligatsiyaning yakuniy daromadliligi – bu mablag'larni investitsiyalash to'g'risidagi qarorning muqobil qiymatidir. Shunday qilib, korxonada ortiqcha mablag'lar mavjudligi, yoki u mablag'lar kirib kelishiga muhtojligidan qat'iy nazar, mavjud obligatsiyalar bo'yicha yakuniy daromadlilik qarz mablag'lari qiymatini ifodalaydi.

Qarz mablag'larining samarali qiymati. Qarz kapitali qiymati to'g'risida gap yuritayotganda, quyidagi muhim holatni hisobga olish lozim. Aksiyadorlarga to'lanadigan daromadlardan farqli ravishda, qarz kapitali bo'yicha to'lanadigan foizlar, mahsulotni *ishlab chiqarish xarajatlariga* kiritiladi. Shunday qilib, soliq to'lagandan keyingi qarz kapitali qiymati natijaviy daromadlilik (yoki soliq to'lagungacha bo'lgan qiymat)dan pastroq bo'ladi.

Bunday moliyaviy o'ziga xoslikni aks ettirish maqsadida, qarz kapitalining samarali qiymati tushunchasi kiritilgan va u quyidagicha hisoblanadi:

$$C_d^* = (1 - T) \cdot C_d, \quad (4.13)$$

Bu yerda: T – soliq stavkasi.

Kapitalning o'rtacha o'lchangan qiymati

Korxonaga uchun umumiy qiymatni baholashdagi so'nggi qadam bo'lib, turli xil manbalardan jalb qilingan mablag'larni birlashtirish xizmat qiladi. Ushbu umumiy qiymatni – kapitalning o'rtacha o'lchangan qiymati deb ham atashadi.

Kapitalning o'rtacha o'lchangan qiymatini hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$WACC = W_d \cdot C_d \cdot (1 - T) + W_p \cdot C_p + W_e \cdot C_e, \quad (4.14)$$

Bu yerda: W_d , W_p va W_e – tegishli tarzda qarz mablag'lari, imtiyozli aksiyalar va shaxsiy kapital (oddiy aksiyalar va taqsimlanmagan daromad) ulushi;

C_d , C_p va C_e – kapitalni tegishli qismlarining qiymati;

T – daromad solig'i stavkasi.

Masalalar

4.1-masala. Soliq stavkasi 30% bo'lganda, yiliga 13%lik kreditning samarali qiymatini hisoblang.

yechim:

Qarzning samarali qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi: $C_k = i \cdot (1 - T)$,

Bu yerda: i – kredit foiz stavkasi;

T – daromad solig'i stavkasi.

Hisob-kitob quyidagicha amalga oshiriladi: $S_k = 13 \cdot (1 - 0,3) = 9,1\%$

To'g'ri javob: 9,1%

4.2-masala. Korxonaga bitta oddiy aksiyasining joriy narxi 50 ming so'mga teng. Keyingi yilda kutilayotgan dividend kattaligi 5 ming so'm. Bundan tashqari korxonaga dividendlarning yillik 4% o'sishini rejalashtirgan. Korxonaga oddiy kapitali qiymatini aniqlang.

yechim:

$$C_e = \frac{D_1}{P} + g$$

Quyidagi formuladan foydalanamiz:

Bu yerda: S_{ye} – shaxsiy kapital qiymati;

R – bitta aksiyaning bozor narxi;

D_1 – investitsiyaviy loyihaning 1 yilida korxonaga tomonidan beriladigan dividend;

g – dividendlarning prognoz qilingan yillik o'sishi.

$$C_e = \frac{5}{50} + 0,04 = 0,14 = 14\%.$$

Quyidagiga ega bo'lamiz:

To'g'ri javob: 14%.

4.3-masala. AVS korxonaga barqaror rivojlanayotgan bo'lib $\beta = 0,5$ ga ega, XYZ korxonasi esa aksincha vaziyatda bo'lib unda $\beta = 1,2$. Tavakkalchiliksiz kapital qo'yilmaning foiz stavkasi 6%, fond

bozori bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi esa 12%ga teng. Kapital aktivlarning narx modeli yordamida korxonalar kapitali qiymatini aniqlang.

To'g'ri javob: AVS – 9,0%; XYZ – 13,2%.

4.4-masala. FMR korxonasining daromadi, dividendlari va aksiyalarining bozor narxi yiliga 7% o'sishi kutilmoqda. Hozirgi kunda korxonada aksiyalarining narxi 23 ming so'm, oxirgi dividend qiymati 2000 so'm va yil oxiridagi qiymati 2140 so'mni tashkil etadi.

A) dividendlarning prognoz qilinadigan o'sishi modelidan foydalangan holda korxonada shaxsiy kapitali qiymatini aniqlang;

B) korxonada uchun β 1,6 tavanakkalchiliksiz kapital qo'yilmaning foiz stavkasi 9%ga, fond bozori bo'yicha o'rtacha foiz stavka 13%ga teng. Kapital aktivlarning narx modelini qo'llagan holda, korxonada shaxsiy kapitali qiymatini baholang;

To'g'ri javob: a) 16,3% ; b) 15,4%.

4.5-masala. Korxonada oddiy aksiyalarining bozor qiymati 620 mln. so'mni, imtiyozli aksiyalari qiymati 140 mln. so'mni, umumiy qarz kapitali esa 340 mln. so'mni tashkil etadi. Shaxsiy kapital qiymati 14%ga, imtiyozli aksiyalari qiymati 10%ga, obligatsiyalari qiymati esa 9%ga teng. Soliq stavkasi 30%ga teng bo'lganda, korxonada kapitalining o'rtacha o'lchangan qiymatini toping.

To'g'ri javob: 11,1107%.

4.6-masala. Korxonada bitta oddiy aksiyasining joriy qiymati 34 ming so'mga teng. Keyingi yilda kutilayotgan dividend kattaligi 2340 so'mni tashkil etadi. Bundan tashqari, korxonada dividendlarning yiliga 2%lik o'sishini rejalashtirgan. Korxonada oddiy kapitali qiymatini aniqlang.

To'g'ri javob:

4.7-masala. AAA korxonasi yetarlicha barqaror bo'lib $\beta = 0,8$ ko'rsatkichga ega, VVV korxonasida esa vaziyat unchalik yaxshi emas va $\beta = 1,8$. Tavanakkalchiliksiz kapital qo'yilma foiz stavkasining kattaligi 5,6%ga, fond bozori bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi esa 13,4%ga teng. Kapital aktivlarning narx modeli yordamida korxonada kapitali qiymatini aniqlang.

To'g'ri javob:

4.8-masala. Korxonada oddiy aksiyalarining bozor qiymati 800 mln. so'mga teng, imtiyozli aksiyalar qiymati 300 mln. so'mni, umumiy qarz kapitali esa 500 mln. so'mni tashkil etadi. Shaxsiy kapital qiymati 18%ga, imtiyozli aksiyalar qiymati 11%ga, obligatsiyalar qiymati esa 9%ga teng. Soliq stavkasi 30%ga teng bo'lganda, korxonada kapitalining o'rtacha o'lchangan qiymatini toping.

To'g'ri javob:

Topshiriq 1.

Investitsiyalarni jalb etish uchun loyiha tuzish.

Meva va sabzavotlarni kuritish loyihasi

1. Loyihaning maqsadi.

Loyihaning maqsadi. Meva-sabzavot mahsulotlarini kuritishni tashkil etishni iqtisodiy asoslanishi.

Germaniya firmasini mini zavodini ishlab chiqarish kuvvati smenasiga 2000-3000 kg.

2. Loyihaning tashabbuskori.

2.1. Tashabbuskorning statusi, rekvizitlari va tuzilish tarkibi.

Loyiha tashabbuskori «Rajab Momo» fermer xo'jaligi.

Kashkadaryo viloyati, Karshi tumani, Xojixidir qishlog'i. Telefonlar: (8-37522)-37696; 2 23 75.

Fermer xo'jaligi rahbari Mamatov Sodiq.

2.2. Tashabbuskorning bozordagi o'rni.

Ushbu loyihaning amalga oshirilishi fermer xo'jaligining kuritilgan meva-sabzavot mahsulotlarini xorijga eksport qilishga xizmat qiladi.

Biznes-loyihani amalga oshirish uchun barcha sharoitlar mavjud, xususan fermer xo'jaligining ushbu loyihasi uchun lozim bo'lgan uskuna va texnologiyalar tanlandi, uning texnik tavsiflari batafsil o'rganib chiqildi va fermer xo'jaligining Nizomi asosida ish yuritish ko'zda tutilib, lozim bo'lgan kafolat ta'minoti shakllantirildi.

Amaldagi sanitariya me'yorlari nuktai-nazaridan ham, ushbu loyiha barcha qo'yiladigan me'yorlarga javob beradi.

Loyiha ekologik toza tovar mahsulotlari ishlab chiqarishni nazarda tutadi va u atrof-muhit va inson organizmiga hech qanday zararli ta'sir ko'rsatmaydi.

3. Bozor va marketing konsepsiyasi

3.1. Talab va taklif

Uch yillik meva va sabzavotlarni ishlab chiqarish hajmi.

Kuritilgan meva va sabzavotlarni eksport va import dinamikasi.

Tahlil natijasi ko'rsatdiki Kashkadaryo viloyatida meva va sabzavot mahsulotlarini kuritish liniyasini amalga oshirish Respublikani eksport imkoniyatlarini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

3.2 Marketing konsepsiyasi, sotuvlar bashorati.

Hozirgi kunda «Rajab Momo» fermer xo'jaligi Ukrainani «Konkurent» firmasi bilan 10 kg kadoklangan mahsulot uchun kuritilgan piyozni realizatsiyasi uchun shartnoma tuzgan. Kuritilgan olma va o'rik mahsulotini realizatsiyasi uchun Karshidagi «AZD» firmasi bilan 200 gr kadoklangan mahsulot uchun shartnoma tuzgan.

Zamonaviy yuqoritexnologik uskuna asosida joylarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini kuritishni tashkil etish natijasida mahsulot sifati oshib hamda uning tannarxi kamayadi bu esa ichki bozorni yukori sifatli va arzon mahsulot bilan ta'minlanish imkoniyatini beradi.

3.3 Xarajatlarni baholanishi

Marketing tadqiqotlar uchun xarajatlar, reklama, transport, savdo markasidan foydalanish hamda assortimentni yaxshilash uchun sotuv qiymatidan 2% baholangan.

1-jadval

Marketing tadqiqotlar uchun xarajatlar

Marketing chegirmalar		
Yil	AQSh dollari	Jami
1		
2		
3		
4		
5		
6		

4. Moddiy resurslar.

4.1. Tarkibiy qismlarni, materiallarni va xom ashyoni turkumlanishi.

4.1.1. Xom ashe bazasini mavjudligi.

Ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy xom ashe sifatida meva va sabzavotlar hisoblanadi.

Kerakli hajmdagi xom ashyo miqdori «O'zbekiston», «Nasaf», «Mirzaev» fermer xo'jaliklari tomonidan shartnoma asosida ta'minlanib beriladi.

Qo'shimcha materiallar (polietilen plyonkasi) «Djizak plastmasa» aksionerlik jamiyati tomonidan shartnoma asosida ta'minlanadi.

4.1.2. Kuritish uchun mo'ljallangan xom ashyoni tavsifi.

Mahalliy qishloq xo'jalik mahsuloti o'z tarkibiga vitamin va glyukozani mavjudligi bilan ajralib turadi.

Olma tarkibi: suv - 84-90%; shakar – 5-15%, olma kislotasi – 0,37%, limon kislotasi – 0,11; pektina -1,2%, dubilnix veshestv 0,27%.

O'rik tarkibi: suv - 85-87%, uglevodlar 10,5% (shu jumladan shakar – 9,5%); organik kislotasi – 1,3%, kletchatka 0,8%, zoli 0,7%. B1,B2,PP,C vitaminlariga ega.

Piyoz C vitaminiga boy. Namlik darajasi 85-87%, uglevodlar 9,6% (shu jumladan shakar-7%), oksil 3%, kletchatki i zoli 0,7%. B1,B2,PP,C vitaminlariga ega.

Piyoz tishlarni mulklarini saklanishiga kata ta'sir ko'rsatadi, shamolashdan va soch to'kilishini oldini oshirish uchun ishlatiladi.

Olmalari uzoq muddatga saqlash mumkin. Yil bo'yi mineral tuzlar va vitaminlar manbasi bo'lib xizmat kiladi.

Kurtilgan sabzavotlardan har xil taomlar tayyorlash mumkin. Mevalar konditer mahsulotlarini ishlab chiqarishida keng foydalaniladi.

4.2 Energoresurslar bilan ta'minlanganligi

«Rajab Momo» fermer xo'jaligi barcha energoresurslar bilan ta'minlangan.

Korxonada joylashgan:

- gazliniyasi;
- transformator podstansiyasi;
- suv bilan ta'minlash manbasi;
- mahalliy kanalizatsiya.

4.3. Xarajatlarni baholash

Kommunal xizmatlari uchun xarajatlar

2-jadval

Resursning nomi	Ulchov birligi	Yillik extiyoj	Narxi	Qiymati
Elektr energiyasi	kVt			
Tabiiy gaz	m ³			
Ichimlik suvi	m ³			
Kanalizatsion stoklar	m ³			
Kommunal xizmatlar jami	m ³			

3-jadval

Xom ashe xarajatlari

Asosiy xom ashe	Ulchov birligi	narx	Yillik ehtiyoj	Qiymat
Olma	kg			
O'rik	kg			
Piyoz	kg			
Jami xom ashyo				
Kadoklash materiallar kurtilgan mevalar uchun (hajmi 200gr)	dona			
Kadoklash materiallar kurtilgan piyoz uchun (hajmi 10 kg)	dona			
Karton korobkalar	dona			
Etiketkalar	dona			
Kley	kg			
Jami kadoklash materiallar uchun				
Birlamchi materiallar (bisulfat natriy)	kg			
Jami birlamchi materiallar				
Jami xom ashe va materiallar				

4-jadval

Mavsum bo'yicha ish tartibi

kalenda r	1 oy	2 oy	3 oy	4 oy	5 oy	6 oy	7 oy	8 oy
	25 kun	50 kun	75 kun	100 kun	125 kun	150 kun	175 kun	200 kun
Smena	2	2	1	1				
Olma								
Smena	1	1	1					

O'rik								
Smena			1	2	3	3	3	3
Piyoz								

Ishlab chiqarishda xom ashe chikindilari

Olma uchun – 26%

O'rik uchun – 16%

Piyoz uchun – 3%

Kadok paketlarni yo'kotishlari

5. Ob'ektni joylashuvi

Minizavodni joylashuvi «Rajab Momo» fermer xo'jaligi maydonida tashkil etish rejalashtirilgan.

6. Texnologiya va loyihalashtirish

6.1. Ishlab chiqarish kuvvati

Texnologik uskunani ishlab chiqarish kuvvati xar xil omillarga bog'lik:

- xom ashe turi;
- meva va sabzavotni pishish darajasi;
- havo namligi va harorati.

5-jadval

Loyiha bo'yicha texnologik liniyasida quyidagi tayyor mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Tayyor mahsulot	Kuvvati smenasiga/kg (xom ashe)	Kuvvati smenasiga/kg (tayyor mahsulot)	Kadoklangan mahsulotlar miqdori smenasiga/dona	Koldik namligi
Tozalangan olma uzuklari				
O'rik yarimi				
Tozalangan kesilgan piyoz				

Texnologik jarayonnini o'zlashtirilishi birinchi yilda 75%, ikkinchi yili 80%, uchinchi yili 90% va to'rtinchi yildan boshlab 100% ishlab chiqarish kuvvatiga ega bo'ladi.

Kurtilgan piyoz – 100% tashki bozorda;

Kurtilgan mevalar – 100% ichki bozorlarda.

6-jadval

Tayyor mahsulot ishlab chiqarilishi va narxi

Kadoklangan mahsulot turi	Narx	Ichki bozordagi sotuv	narx	Tashqi bozordagi sotuv	Umumiy qiymati
Kurtilgan olmalar (200 gr)					
Kurtilgan o'rik (200 gr)					
Kurtilgan piyoz (10 kg)					
Jami					

6.2. Texnologiya va uskuna.

Mini zavodni narhi CIP tashish shartlari asosida 307 065 doll. SShA

Uskuna narxi – 286 359 doll.SShA;

Shefmontaj va o'kitish – 9 674 doll. SShA;
 Zapchastlar (2 yilga) - 7 283 doll.SShA;
 Dokumentatsiya – 1 576 doll.SShA;
 «SJS» firma inspeksiyasi – 2 173 doll.SShA.

Mini zavod tarkibi

7jadval

№	Uskuna nomi	Umumiy qiymat AQSh dollar hisobida
1	Xom ashe kabul kilish	16 902
2	Xom ashyoni kayta ishlash	25 652
3	Parogenerator ko'yilmasi	15272
4	Dezinfeksiyalash va tozalash	2 826
5	Laborator uskunasi	5 598
6	Kuritish uskunasi	149 239
7	Kuritilgan mevalarni jamlash (joylash)	11 250
8	Elektr tizimi	8 859
9	Tayyor bino (konteyner)	50 761
	Jami	286 359

6.3. Texnologiyani atrof muhitga ta'siri.

Kuritilgan meva va sabzavotlarni ishlab chiqarishni texnologik jarayonlari zararli modalarni ishlatilishi bilan bog'liq emas.

Ishlab chiqarish jarayonida olinadigan meva va sabzavot chikindilari chorvachilik xo'jaliklariga yem xashak sifatida realizatsiya kilinadi.

7. Ishlab chiqarishni tashkil etish.

7.2. Ustama xarajatlar

8-jadval

Ustama xarajatlar

Xarajatlar turi	
1. Asosiy fondlarni ta'mirlash texnik xizmat	Amortizatsiyadan 7%
2. Boshkaruv xarajatlari	1%
3. Ishlab chiqarish xarajatlari	1%

7.3. Xarajatlarni baholash

9-jadval

Amortizatsiya ajratmalariga xarajatlar bashorati

Xarajatlar turi	Asosiy fondlar	Amortizatsiya normasi	Ajratma qiymati
Asosiy uskuna	299 783	15%	44 967
Bino va inshootlar	92 265	20%	18 453
Boshkalar	40 941	20%	8 188
Jami	432 989		71 609

8. Mehnat resurslar

8.1. Mehnat resurslarga bo'lgan talab

boshkarish ishchilari – 1 ta

texnolog – 3 ta

xizmat ko'rsatuvchi personal – 3 ta

ishchilar – 30 ta

ko'shimcha ishchilar – 3 ta

8.2. Xarajatlarni baholash

Boshqarish, ishlab chiqarish, va xizmat ko'rsatish personalni tuzilmasi kuyidagi jadvalda berilgan.

10-jadval

	soni	Ish xaki 1 oyga	Ish xaki 1 yilga	Jami	Ajratmalar	
					Kiymati	Jami
Mavsumiy ishchilar						
Texnolog						
Jami ish xaki						
Administratsiya						
Boshkaruv						
Buxgalter						
Omborxon mudiri						
Elektr						
uborshitsa						
Faroj						
Ish xaki jami						
Ish xaki hammasi						

Ish rejimi

Ishchilar

Ish kunlari – 200 (8 oy), 3 smena – 8 soat.

Xizmatchilar

Ish kunlari – 300 (12 oy), 1-smena – 8 soat.

9. Loyihani amalga oshirish sxemasi.

9.1. Loyihada moliyalashtirish shartlari.

Kredit summasi – 307,065 AQSh doll;

Kredit muddati – 5 yil;

Foiz stavkasi 12%;

Kredit bo'yicha to'lash davomiyligi – 6 oy;

Investitsiya davri – 6 oy.

10. Moliyaviy baholash.

10.1 Loyiha qiymati

11-jadval

Loyiha qiymati

Nomi	Qiymati
Asosiy kapital uchun investitsiyalar	
Uskuna	
Uchastka tayyorlash	
Boshka asosiy fondlar	
Ishlab chiqarishdan oldingi xarajatlar	
Loyiha tuzish	
Garov sugurtasi	
Moliyaviy chegirmalar	
Akkreditiv ochish uchun komissiya	
Majburiyatlar uchun komissiya	
Dokumentlarni tekshirish komissiyasi	
Bir martalik komissiya	
Kredit bo'yicha komissiya	
Ko'zda tutilmagan xarajatlar	

Aylanma kapital	
Asosiy omborxonadagi xom ashyo	
Omborxonadagi xom ashyo	
Omborxonadagi ehtiyot qismlar	
Investitsion chegirmalar	

10.2. Loyihani moliyalashtirish: moliyalashtirish manbai va mexanizmi.

Loyihani umumiy qiymati 451 238 AQSh dollari

12-jadval

Loyihani qiymati			
№	Moliyalashtirish manbai	Xarajatlar qiymati, AQSh dollari	Foizlar
1	O'z mablaglari	144 173	32%
2	Kredit summasi	307 065	68%
	Jami	451 238	100%

10.3. Iqtisodiy samaradorlikni baholash.

Loyihani moliyaviy ko'rsatkichlari

1. Daromadni ichki me'yori (IRR) – % (5 yil)
2. Sof diskont daromad (NPV) – USD
3. Loyiha rentabelligi yuqori.
4. Uskuna ishlab chiqarish kuvvati 16% darajasida loyiha bo'yicha zarasizlik ta'minlanadi.

Xulosa

Topshiriq 2.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chikarish uchun olinadigan kreditdan foydalanish biznes rejasini tuzish.

Rezyume

1. Kredit oluvchi haqida qisqacha ma'lumot.

2. Loyihaning asosiy maqsadi.

Loyiha maqsadi fermer xo'jaligini faoliyatini kengaytirish uchun kredit mablag'larni jalb qilish, asosan chorvachilikni rivojlantirish uchun.

Biznes rejani tayyorlash davriga talab qilinadigan investitsiyalar miqdori ----- mln so'mni tashkil etadi.

Loyiha uch yilda o'zini oqlaydi.

Loyihani amalga oshishi O'rta chirchik tumanida aholini go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishga yordam beradi.

Hozirda mavjud sanitar meyorlarga nisbatan taqdim etilayotgan biznes reja hamma sanitar meyorlarga javob beradi. Loyihada ekologik toza ishlab chiqarish ko'zda tutilgan bo'lib, atrof muhitga hech qanday ziyoni yo'q.

I. Investitsion loyiha

1. Biznes rejaning maqsadi

Biznes rejaning maqsadi chorvachilikni rivojlantirish uchun kredit mablag'larini olish.

2. Zarur bo'lgan kredit miqdori.

Biznes rejani amalga oshirish uchun ----- mln so'm miqdorida pul mablag'lari zarur bo'ladi.

3. Ishlatiladigan kreditning yo'nalishi.

Kredit quyidagi maqsadlarda ishlatiladi.

-buzoqchalarni naqd pulga sotib olish(---mln sum)

-Pul o'tkazish yo'li bilan yem-xashak sotib olish(--- mln sum).

4. kreditni qaytarish grafigi.

kreditni qaytarish grafigi kuyidagi chegaralanish bo'yicha hisoblangan.

-kreditning foiz stavkasi yiliga ---% tashkil etib u yilning oxirida kreditning umumiy summasiga qo'shiladi.

-kreditni qaytarish muddati ---- yil

- kreditning asosiy summasi har yilning oxirida uchga bo'linib qaytariladi.

- foizlar birinchi va ikkinchi yili har kvartalda va uchinchi yili yillik qilib to'lanadi.

To'lovlar hajmi jadvalda keltirish lozim.

1-jadval

To'lovlar hajmi

Ko'rsatkichlar bo'yicha	1-yil	2-yil	3-yil
Kreditning asosiy summasini qaytarilishi ming so'm			
Foizlar belgilanadigan summa ming so'm.			
To'lanadigan foizlar miqdori ming. so'm			
Jami to'lanadigan summa.ming so'm			

I. INVESTITSION REJA

2-jadval

Ko'rsatkich	Birinchi moliya yili				Jami
	2009 yil				
	I	II	III	IV	
Kreditning asosiy summasini kaytarish ming so'm					
Foizlarni to'lash ming so'm					
Jami to'lanishi lozim bo'lgan summa ming so'm					

INVESTITSION REJA

3-jadval davomi

Ko'rsatkich	Ikkinchi moliya yili				Jami	2011 yil
	2010 yil					
	I	II	III	IV		
Kreditning asosiy summasini kaytarish ming so'm						
Foizlarni to'lash ming so'm						
Jami to'lanishi lozim bo'lgan summa ming so'm						

II. Ishlab chiqarish rejasi

Biznes rejaga ko'ra fermer xo'jaligida chorvachilik faoliyati bilan shug'ullanish ko'zda tutilgan.

Buning uchun quyidagilar sotib olinadi:

4-jadval. (ming.so'm)

	Sotib olinadigan mahsulot turi	Soni	Narxi (1 dona)	Qiymati
1.	Buqachalar			
2.	yem-xashak			

Kreditning bir qismiga - mln so'mlik buqachalar sotib olish ko'zda tutilgan.

Har bir buqa yaxshi boqilganda bir oyda ---kg gacha semiradi (tirik vazni), jami ---ta buqa bir oyda ---- kg ga semiradi.

5-jadval. (ming.so‘m)

Ko‘rsatkichlar	1 yil	2 yil	3 yil
Bir yilda bir buqa go‘shining og‘irligi			
Boshlar soni, dona			
Qora molning umumiy vazni			

Kreditning ikkinchi qismiga --- mln so‘mlik yem-xashak sotib olish rejalashtirilmoqda.

yem xashak xarajatlari

6-jadval. (ming.so‘m)

№	yem xashak turi	1 kg narxi	Yillik extiyoj	Umumiy qiymati
1	Sheluxa			
2	Shrot			
3	Kombikorm			
	Jami			5000

Loyiha amalga oshirilsa, 2 ta yangi ishchi o‘rni tashkil qilinadi.

Qora mollarni boqishda kredit bo‘yicha pul mablag‘lariga sotib olingan yemlar ishlatiladi.

III. MOLIYAVIY REJA.

7-jadval

Qora mol sotuvidan olinadigan umumiy yalpi daromad hisobi.

Ko‘rsatkich	Birinchi moliyaviy yil				
	2009				jami
	I	II	III	IV	
Buqalar soni					
Buqalar podasidagi go‘shning og‘irligi kg.					
Mahsulotni sotishdan olingan yalpi daromad ming so‘m					

7-jadval davomi

Qora mol sotuvidan olinadigan umumiy yalpi daromad hisobi.

Ko‘rsatkich	Ikkinchi moliyaviy yil					Uchinchi moliyaviy yil 2011 yil
	2010				jami	
	I	II	III	IV		
Buqalar soni						
Buqalar podasidagi go‘shning og‘irligi kg.						
Mahsulotni sotishdan olingan yalpi daromad ming so‘m						

8-jadval

Xarajatlar miqdorining hisob-kitobi.

Ko‘rsatkichlar	Birinchi moliyaviy yil				
	2009				Jami
	I	II	III	IV	
2 kishi ish haqi ming so‘m					

yem-xashak					
Elektroenergiya xarajatlari ming so‘m					
Yoqilgi moylash materiallari ming so‘m					
Ko‘zda tutilmagan xarajatlar					
Jami					

8-jadval davomi

Xarajatlar miqdorining hisob-kitobi.

Ko‘rsatkichlar	Ikkinchi moliyaviy yil					Uchinchi moliyaviy yil 2011 yil
	2010				Jami 2 yil	
	I	II	III	IV		
2 kishi ish haqi ming so‘m						
yem-xashak						
Elektroenergiya xarajatlari sing so‘m						
Yoqilgi moylash materiallari ming so‘m						
Ko‘zda tutilmagan xarajatlar					200	
jami					11820	

Maxsulot yetishtirish uchun 3 yil davomida bir necha turdagi xarajatlar qilinadi. Uch yilda jami ----
----- ming so‘m xarajat qilinadi.

Sof daromad hisob-kitobi.

9-jadval

Ko‘rsatkich	Birinchi moliyaviy yil				Jami
	2009 yil				
	I	II	III	IV	
Mahsulotni sotishdan olingan yalpi daromad ming so‘m					
Xarajatlar					
Kredit foizlarini to‘lash ming so‘m					
Kreditni qaytarish					
Sof daromad ming so‘m					

Sof daromad hisob-kitobi.

9-jadval
davomi

Ko'rsatkich	Ikkinchi moliyaviy yil				Jami 1 yil	Uchinchi moliyaviy yil
	2010 yil					2011
	I	II	III	IV		
Mahsulotni sotishdan olingan yalpi daromad ming so'm						
Xarajatlar						
Kredit foizlarini to'lash ming so'm						
Kreditni qaytarish						
Sof daromad ming so'm						

Xulosa:

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBeKISTON ReSPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



“QISHLOQ XO‘JALIGIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH”
FANIDAN

O‘QUV LOYIHA

Mavzu: Loyihalarni tayyorlash

PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

O'quv fani: «Qishloq xo'jaligida investitsion jarayonlarni boshqarish»

O'quv mavzusi: Loyihalarni tayyorlash.

Ishtirokchilar: 3-kurs bakalavr bosqichi talabalari

Ta'limiy maqsad: o'quv materialini bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, talabalarni investitsiyaviy loyihani tuzish, loyihani tahlil etish, loyihani baholash bo'yicha bilimlarni shakllantirish

Rejalashtirilayotgan o'quv natijalari:

Talabalar mustaqil ta'lim mavzulari bo'yicha loyiha tuzadilar va uni taqdimot qiladilar.

Loyihani muvaffaqiyatli bajarish uchun talabalar ega bo'lishlari lozim bo'lgan **tayanch bilim va ko'nikmalar**. *Biladilar: (loyihani tuzish tartibini, moliyalashtirish mexanizmini)*

Namunaviy belgilariga muvofiq loyiha tasnifi:

- *loyiha turi:* ilmiy- amaliy;
- *mavzu-mazmunli sohasi:* monoloyiha - bir fan miqyosida ishlab chiqilgan;
- *talabalarining loyiha faoliyati yo'nalishlarining tasnifi:* ochiq;
- *ishtirokchilar soni:* o'n sakkizta;
- *muddati:* bajarish davomiyligi - 3oy.

Loyiha bo'yicha ish tartibi: darsdan tashqari faoliyat sharoitida bajariladi.

Seminar mashg'ulotlarida taqdimot qilinadi.

Loyihani baholash: guruhli loyihada quyidagilar baholanadi:

- Loyiha mahsuli – chora-tadbirlar (eng yuqori 10 ball);
- Hisobot (eng yuqori 8 ball);
- Loyiha taqdimoti (eng yuqori 5 ball);
- Og'zaki taqdimot (eng yuqori 2 ball).

Loyihali o'qitish bosqichi:

Tayyorgarlik bosqichi: loyihaga kirish, talabalar faoliyatini tashkillashtirish- auditoriya ishi.

Loyihani bajarish bosqichi- auditoriyadan tashqari ish.

Yakuniy bosqich: loyiha taqdimoti, loyihani va talabalar faoliyatini baholash. Loyiha faoliyatini o'zi tahlil qilish- *auditoriya* ishi.

Loyihaga oid o'qitishni tashkillashtirishni o'zi tahlil qilishi- *auditoriyadan tashqari* ish.

O'qitish modelining qisqa tasnifi: loyihaviy o'qitish jarayonida quyidagilardan foydalaniladi:

O'qitish usullari: loyihalar usuli, aqliy hujum, yo'riqnoma berish, matn bilan ishlash.

O'qitish shakllari: umumiy, guruhli, jamoaviy, yakka tartibli.

O'qitish usullari: loyiha topshirig'i, uslubiy ko'rsatma, kompyuter texnologiyalari.

Ishtirokchilar loyiha bo'yicha birinchi marta ishlayotganliklari hamda loyiha faoliyati bo'yicha malakalarga ega emasliklari bois, «Talabalar uchun uslubiy ko'rsatmalar»da quyidagilar taqdim etiladi: muammo, vazifa va faoliyat turlari.

I. LOYIHA TOPSHIRIG'I

Kirish. O'zbekistonda chorvachilik qishloq xo'jaligining yetakchi sohalaridan biri hisoblanadi. Aholining go'sht, sut va tuxum mahsulotlari, sanoatni teri, jun va boshqa xom-ashyolar bilan taminlaydi. Bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi kunda Respublika aholisini yuqori sifatli, ekologik jihatdan toza va arzon chorvachilik mahsulotlari bilan ta'min etish muhim vazifalardan hisoblanib, ushbu vazifani hal etish va ilmiy asoslangan holda amalga oshirish davlatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Quyunchilik chorvachilikning bir tarmoqi bo'lib, Respublikamizda yaxshi rivojlanmagan. Quyunchilik boshqa chorva mollaridan shunisi bilan farq qiladiki, u tez yetiluvchan, kam ozuqa va ishchi kuchi sarflab ko'p mahsulot olish mumkin. Bundan tashqari quyunchilik go'shti parhvez go'sht

hisoblanib uning go'shti tarkibida xolesterin moddasi miqdori 0,4 gr tashkil etadi. Barcha chorva mollari singari quyonlardan ham bir necha xil mahsulotlar olinadi. Bular teri, konservalar, oliy navli yelim qonidan hayvonlar uchun ozuqa, go'ngidan azotga boy organik o'g'itlar, turli xil fermentlar, tivit, parhyez go'sht, va mo'ynalar olinadi. Shuning uchun bu sohani rivojlantirish lozim.

Loyiha doirasida o'z yechimini topuvchi muammo: Quyonchilikni rivojlantirish uchun ishlab chiqarish va moliyaviy rejani tuzish.

O'quv loyiha mavzulari:

1. Loyiha maqsadi
2. Rezyume
3. Investitsiyaviy reja
4. Marketing rejasi
5. Ishlab chiqarish rejasi
6. Tashkiliy reja
7. Moliyaviy reja

Loyiha maqsadi (u nima uchun yaratiladi): Fermer xo'jaligida kuyonchilikni rivojlantirish.

Yakuniy natija: Quyonchilikni rivojlantirish bo'yicha tavsiyanomalar ishlab chiqish va uni amaliyotda qo'llash.

Foydalanuvchilar: Fermer xo'jaligining rahbari, loyiha tahlili fanini o'rgatayotgan professor-o'qituvchilar, o'rganayotgan talabalar.

Loyiha doirasi:

bajarish muddati: uch oy.

- *ishtirokchilar soni:* beshtagacha.

Loyiha tuzilishi va mazmuni:

- Kirishda ma'lumotli axborotning mohiyati va vazifasi ochib beriladi.
- Loyiha mavzusini yoritib beruvchi axborot va chora-tadbirlar.
- Foydalanilgan manbalar ro'yxati.

Loyiha guruhi ishtirokchilarining vazifalari:

1. Axborot manbalarini aniqlash, uni yig'ish.
2. Axborotni tanlash va tuzilmaga keltirish.
3. Ma'lumotnomani rasmiylashtirish.
4. Loyiha faoliyati natijalari to'g'risida og'zaki axborot tayyorlash.
5. Hisobot tayyorlash.

Loyihaning tarkibi: Sizga taklif etilayotgan ushbu tarkibiy tuzilish loyihaning namunaviy shaklidagi ko'rinishi bo'lib, uning shakllanishida har bir tanlangan yo'nalish loyihani o'ziga xos xususiyatlarida o'z aksini topmog'i lozim.

Loyiha doirasi:

- bajarilishi muddati: semestr davomida (yakuniy nazoratdan oldin taqdimot kilinadi), loyiha qismlari belgilangan grafik asosida;

ishtirokchilar soni: guruh talabalari individual tarzda yoki xamkorlikda ya'ni juftlikda amalga oshirish mumkin.

Loyiha tarkibi va ularning tayyorlanish muddatlari jadvali

№	Loyiha tarkibiy bo'limlarining nomi	Tayyorlanish muddati
1.	Rezyume:	*
2.	Mehnat resurslari	

3	Mahsulot yetishtirish uchun qo'yiladigan talablar.	
4	Kuyonlarni sotib olishga ketgan xarajatlar	
5	Go'sht va mo'yna ishlab chiqarish hajmi va narxi	
6	Daromad hisobi	
7	yem xashak xarajatlari	
8	1ta kuyon uchun sarflanadigan ozuka ratsioni	
9	Hodimlar ish xaqi hisobi	
10	Dori darmon xarajatlari	
11	Harajatlar hisobi	
12	Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari	
13	Xulosa va takliflar	

* tayyorlanish muddati muayan vaziyatdan kelib chiqib belgilanadi.

II. LOYIHA TOPSHIRIG'INI BAJARISH BO'YICHA TALABALARGA USLUBIY KO'RSATMALAR

1. Loyiha faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun yo'riqnoma

1-bosqich. Tayyorgarlik

1.1. Loyiha faoliyati jarayonida yechimini topish talab etiladigan muammo, maqsad va loyiha natijalari, vazifalar hamda ishtirokchilarning loyiha faoliyati turlarini aniqlang.

1.2. Loyiha faoliyati jarayonida yechimini topish talab etiladigan muammoni, loyiha maqsadi va natijalarini, loyiha faoliyati ishtirokchilarining vazifalarini aniqlang.

1.3. Axborot manbalarini aniqlang.

2-bosqich. Loyiha faoliyatini rejalashtirish

2.1. Maqsadga erishish yo'lini ishlab chiqing.

2.2. Ish rejasini tuzing:

- ishtirokchilar o'rtasida loyihani ishlab chiqish bo'yicha hamda uni rasmiylashtirish, taqdimot va hisobotga tayyorlash bo'yicha vazifalarni taqsimlang.

- bajarish vaqti va tayyor mahsul turini aniqlang.

Loyihani bajarish bo'yicha ish rejasi

Ishtirokchilar F.I.Sh.	Vazifa	Ish mazmuni	Tayyor mahsul turi	Bajarish muddati

3-bosqich. Amalga oshirish

3.1. Olingan axborotni yig'ing va uni matn, jadval, chizma hamda sharhlash ko'rinishida rasmiylashtiring.

3.2. Natijalarni ma'lumotli materiallar ko'rinishida rasmiylashtiring (oxirgi mahsul).

3.3. *Hisobotni tayyorlash yo'riqnomasi bo'yicha* hisobotni tayyorlang.

3.4. Loyihani Microsoft Power Point bo'yicha *tayyorlash yo'riqnomasidan foydalanib, taqdimotga tayyorlang.*

3.5. Loyiha taqdimotida guruh a'zolari o'rtasidagi vazifalarni aniqlang. Og'zaki taqdimotga tayyorgarlik vaqtida uning *qoidalariga rioya qiling, og'zaki taqdimot sirlarini esdan chiqarmang.*

2. Loyiha ishi to'g'risida hisobotga tayyorgarlik bo'yicha yo'riqnoma

1. Siz taklif va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi xulosalarni (1 betdan ko'p bo'lmagan matn asosida) ifodalang.

2. Siz hal etmoqchi bo'lgan muammoni (5-6 so'z bilan) asoslang.

3. Loyihangizning maqsadi: uning nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo'lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif orqali) ko'rsating.

4. Loyiha vazifalarini (qisqa va bir ma'noli) ifodalang.

5. Loyihaning ish rejasi (jadval) ni bayon eting.

6. Vazifa yechimining natijalari va loyihada bajarilgan ishlarni ko'rsating.

7. Siz taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi xulosalarni shakllantiring.

8. Bajarilgan ish bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtiring.

9. Baholang:

- loyiha sifatini;

- loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni yengib o'tish yo'llari.

10. Ilovalarni tarkiblashtiring: loyiha ishtirokchilarining Anketalari va loyiha ishining ish materiallarini kiriting (xohishingizga ko'ra).

1. Loyihani MS Power Point da taqdimotga tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma

1. MS Power Point da taqdimotga *tayyorlash jarayoni* quyidagilardan iborat:

- taqdimot turini tanlash;
- taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
- slaydlarning mazmunli tomonlarini tanlash;
- yangi slaydlarni qo'shish;
- slaydlarni belgilashni tanlash;
- zarur bo'lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o'zgartirish;
- slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish.

2. Slaydlarni *texnik namoyish etish* quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:

➤ Slaydlar *miqdori* (8-12).

➤ *Slaydlarning mazmunli ko'rsatkichlari:*

- birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, o'quv guruhi raqami, yaratilgan kundan iborat;

- oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan;

- boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.

➤ Slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.

3. Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasi:

➤ Agar matn og'zaki bo'lsa, quyidagicha bo'lishi zarur:

- yuqori axborotli;

- bog'lovchili;

- aniq va qisqa;

- oddiy sintaktikli (...quyidagilarga e'tibor bering, quyida taqdim etilayotgan... ro'yxatlar kabi aylantiruvchi kirish so'zlari kamroq bo'lishi) - bularning barchasini ma'ruzachining o'zi so'zlashi mumkin. Oddiy tuzilgan gaplar o'rni bilan tanishtiradi va yozuvni kattaroq qilishga imkon beradi;

- (asosan termin va ta'riflarda) tushunarli, mantiqiy, aniq bo'lishi zarur. Ommaga taqdim etishdan oldin matnni tekshirishga erinmang.

➤ Ovoz tiniq bo'lishi kerak. Taqdimotni ovozli qilish kerak emas, bunda sharhlovchining ovozi eshitib bo'lmaydi, eng yaxshisi ma'ruzachining jonli ovozi hisoblanadi.

➤ *Rasmlar* aniq va yetarlicha kattaroq bo'lishi zarur. Rasmlar o'lchamini katta qilishga urinmang, faqatgina Siz sifatni yo'qotasiz.

➤ *Videotasmalar* taqdimot oynasining uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishi bo'lishi kerak. Bezaklar chalg'itishi mumkin.

➤ *Jadvallarda* ajratuvchi ma'lumotlar aniq ko'rsatilishi, jadvallarning nomlanishi tagiga katta yozuvlarda berilishi zarur. Jadvallarni haddan ziyod ko'p ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak emas! Jadvalga qancha ko'p ma'lumot kiritilsa, ularni ekrandan qabul qilish qiyin bo'ladi. Taqdimot boshlashdan avval auditoriyada o'tirganlarga jadval va rasm nusxalaridan tarqatish zarur.

➤ *Chizmalar* bir bo'limdan boshqa bo'limga aniq va mantiqiy ravishda o'tishga moslashtirilishi kerak. O'tish chiziq-lari ekranda yaxshi ko'rinishini tekshiring.

4. Og'zaki taqdimotga tayyorlanishda rioya etiladigan qoida

Og'zaki taqdimot qoidasi

Taqdimotda nima bo'lishi kerak?

- muammoni, loyiha maqsadi va vazifalarini tushunishni ko'rsatish, ishni rejalashtirish va amalga oshirishni uddalashi;

136. Investitsiyaviy loyihalarni ishlab chiqish uchun zararsizlik tahlilining zarurligini asoslab bering.

137. Investitsiyaviy loyiha samaradorligining zaruriy va yetarli shartlari nisbatini qanday tushunasiz va zararsizlik tahlilining ushbu nisbatdagi roli qanday?
138. Zararsizlik tahlilining grafik ko‘rinishi
139. Zararsizlik nuqtasi haqida tushuncha
140. Foydalilik indeksi (profitability index)PI
141. Sof joriy qimmatlilik (net present value)NPV
142. Xarajatlarga daromadlarning nisbati (Benefit to cost ratio) B/Cratio.
143. Loyiha daromadligining ichki normasi (internal rate of return) IRR
144. Xarajatlarni qoplash davri (payback period)PBP.
145. Investitsiyaviy loyihaga tavakkalchilikning qanday asosiy turlari mansub?
146. Investitsiyaviy loyihalashtirish jarayonida tavakkalchilik tahliliga bo‘lgan qaysi uchta yondashuvni bilasiz?
147. Sezuvchanlik tahlilining mohiyati nimada?
148. Investitsiyaviy loyihalar tavakkalchiligi tahlilida ssenariylar tahlilining mohiyati nimada?
149. Monte-Karlo imitatsion modellashtirish uslubi
150. Biznes reja va texnik iqtisodiy asosnomani farqi nimada.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



“QISHLOQ XO‘JALIGIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH”

**FANIDAN
MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MO‘LJALLANGAN
KEYS-TEXNOLOGIYA**

KEYS

Fermer xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb etish maqsadida loyihalar tuzish va maqbul bo‘lganini tanlash masalasi

I. Pedagogik annotatsiya

Berilgan keysning maqsadi: **Loyiha tuzish, bir necha variantlarini o'rganish va tahlil asosida maqbulini tanlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, o'tilgan mavzular bo'yicha egallangan bilimlarini tekshirib ko'rishdan iborat.**

Kutilayotgan natijalar:

- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi;
- fermer xo'jaligiga investitsiyalarni jalb etish uchun loyiha tuzishni o'rganadi;
- loyiha tuzish natijasida maqbulini tanlash ko'nikmalari shakllanadi;
- tuzilgan loyihani jihatlari bo'yicha tahlil qilishni o'rganadi;
- tanlangan maqbul varianti bo'yicha baho berish hamda mantiqiy xulosalar qilishni anglab yetadi;
- loyiha bo'yicha investitsiyalarni olish uchun tegishli xujjatlarni belgilab olishni bilib oladilar.

Keysni muvaffaqiyatli bajarish uchun talaba quyidagi bilimlarga ega bo'lishi lozim:

- loyiha turlari;
- loyihalarni tuzish tartibi
- investitsiyalarni jalb etish shartlari;
- marketing rejani tuzishni;
- ishlab chiqarish rejasini tuzishni;
- moliyaviy rejani tuzishni.

Mazkur keys real xayotimizda faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaligi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Keysda ishlatilgan ma'lumotlar manbai:

Toshkent viloyati Parkent tumani "Oxun To'laev" fermer xo'jaligi 2008-2009 yillardagi moliyaviy xisobotlari, biznes reja hamda moliyaviy ko'rsatkichlari asos qilib olingan.

Keysni tipologik xususiyatlariga ko'ra tavsifnomasi: **mazkur keys ilmiy-uslubiy tadqiqotlari sirasiga kirib, unda qo'yilayotgan savol va topshiriqlar syujetli tarzda tuzilgan. Keysning ob'ekti sifatida yuqorida qayd etganimizdek, Parkent tumanidagi "Oxun To'laev" fermer xo'jaligi olingan. Ma'lumotlar aniqligi va ishonchliligiga to'liq kafolat beriladi. Keys tuzilishi jixatidan o'rta xajmdagi keys-texnologiya hisoblanadi.**

Didaktik maqsadlarga ko'ra **trening keys hisoblanadi, shuningdek bu keys talabalar bilimni mustaqil ta'limda tekshirish uchun belgilangan.**

Masalaning qo'yilishi izchillik asosida ketma-ket tarzda tahliliy jarayonlar asosida ishlab chiqilgan. Muammoli vaziyatlarga javob izlash va yechish maqsadida nazariy bilimlar turli xildagi ko'rsatmalar, qo'llanmalar, eslatmalar tarzida berilgan Mustaqil ta'limni keys-texnologiyasi asosida tashkil etilganda talabalarning xar bir hatti-harakati, ularning qo'yilgan muammoga bo'lgan qarashlari, sababiy bog'liqlikdagi tahlillari hamda xulosalar yasashlarini kuzatish va baholash oson kechadi.

Ushbu keys bakalavr yo'nalishi talabalari uchun "Loyiha tahlili", "Horijiy investitsiyalar" "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" fanlarida foydalanish mumkin.

I. Keys

"Fermer xo'jaligiga investitsiyalarni jalb etish maqsadida loyihalar tuzish va maqbul bo'lganini tanlash masalasi"

KIRISH

Chet el investitsiyasi va qabul qiluvchi mamlakatning manfaatlari o'zaro mos kelgan taqdirdagina to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning muhim rag'batlantiruvchi omili bo'lishi mumkin. Investitsiyalar bu ikki tomonlama o'zaro xarakat jarayonining ya'ni tadbirkor va investorning maqsad sari harakati natijasidir.

Bizga ma'lumki, har kanday investitsion loyiha maqsadga yo'naltiriladi va asosiy maqsadi foyda olish hisoblandi. Lekin loyihani maqbulini tanlash uni tahlil etish va baholash asosida aniqlash mumkin. Tanlangan loyihani amalga oshirish bo'yicha tashkiliy, institutsional, tijorat, ekologik,

ijtimoiy, iqtisodiy va moliyaviy tahlilni amalga oshirib loyiha bo'yicha umumiy natija kilish mumkin. Loyiha bo'yicha sarflangan xarajatlar daromadlar olib keladimi yo'kmi degan savolga javob berishi lozim. Tuzilgan loyihani fermer xo'jaligiga investitsiyalarni jalb etishda muhim ahamiyatga ega.

Keys yechimi orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

Keysda Parkent tumanida faoliyat yuritayotgan "Oxun To'laev" fermer xo'jaligini faoliyati bo'yicha ma'lumotlar va tuzilgan bilamchi loyiha keltirilmogda.

Topshirik:

1. Fermer xo'jaligi ma'lumotlari bo'yicha qanday turdagi mahsulotlarni qayta ishlab chiqish lozimligini aniqlang;
2. Fermer xo'jaligi faoliyati bilan tanishib chiqing;
3. tuzilgan birlamchi loyihani o'rgangan holda qayta ishlashga belgilangan mahsulot turi bo'yicha loyiha tuzing;
4. Loyihani samaradorligini asoslab bering;
5. Texnik-iqtisodiy asosnoma bilan biznes reja farqini izohlab bering?

1. "Oxun To'laev" fermer xo'jaligi to'g'risida ma'lumot

"Oxun To'laev" fermer xo'jaligi Toshkent viloyati Parkent tumani Changi qishloq fuqarolar yig'ini Olmazor mahallasida joylashgan.

Fermer xo'jaligi Parkent tumani hokimligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 11 yanvaridagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida" gi 255-sonli, Toshkent viloyati hokimining 2006 yil 13 yanvardagi 6-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash, tumanda yangi tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklari hamda Parkent tumani Changi shirkat xo'jaligini fermer xo'jaliklariga aylantirish bo'yicha qayta tashkil etish komissiyasining 2006 yil 26 martdagi yig'ilish bayoni asosida 2006 yil 13 apreldagi Parkent tumani hokimining 277-sonli qarori asosida tashkil etilgan.

Fermer xo'jaligi bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan.

"Oxun To'laev" fermer xo'jaligi sharq tomondan "G'anixo'ja Turopxo'jaev" fermer xo'jaligi, "Abdurazzoqov Abduvahob" fermer xo'jaligi, "Zarkent Qahramoni" agrofirma, janubdan "Changi Hamkorlik" agrofirma, g'arbdan "Orzimatali Qanog'ot" fermer xo'jaligi, shimoldan Bo'stonliq tumani bilan chegaradosh.

"Oxun To'laev" fermer xo'jaligi rahbari To'laev Nishonboy.

2. Tahlil qismi.

"Oxun To'laev" fermer xo'jaligida yer maydondan foydalanish tartibi 1-jadval tahlilida berilgan bo'lib, 2008 yillar davomida jami yer maydoni 14.8 gektarni, sug'oriladigan yer maydoni 13.8 gektarni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktyabrdagi "Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalarini maqbullashtirish chora-tadbirlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsadida maxsus komissiyani tashkil qilish to'g'risida" gi PF-3077 farmoyishiga ko'ra kam rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan fermer xo'jaliklari yerlari optimallashtirilib, yirik fermer xo'jaliklariga birlashtirildi.

1-jadval

"Oxun To'laev" fermer xo'jaligida yer maydondan foydalanish

Yillar	Umumiy yer maydoni (ga)	Sh.j sug'oriladigan yer maydoni (ga)	Ariq, zovurlar (ga)	Yo'llar (ga)
2008	14.8	13.8	0.5	0.5
2009	18.8	17.8	0.5	0.5

2008-2009 yillar farqi	4	4	-	-
---------------------------	---	---	---	---

Shunga ko'ra "Oxun To'laev" fermer xo'jaligi yer maydoniga optimallashtirishdan so'ng qo'shni fermer xo'jaliklari yerlari ham birlashtirildi. Natijada fermer xo'jaligi yer maydoni 2009 yilda 18.8 gektarni, sug'oriladigan yer maydoni 17.8 gektarni tashkil etdi.

Fermer xo'jaligining 2008-2009 yillar davomida yer maydonidagi farq 4 gektarni tashkil etdi.

"Oxun To'laev" fermer xo'jaligida yer maydonida ekin turining taqsimlanishi tahlili 2-jadvalda keltirilgan.

"Oxun To'laev" fermer xo'jaligida 2008 yilda jami yer maydoni 14.8 gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilda yer maydonlarining optimallashtirilishi natijasida fermer xo'jaligi yer maydoni 4 gektarga ko'payib, 18.8 gektarni tashkil etgan. Shundan qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar 2008 yilda 13.8 gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilga kelib esa 17.8 gektarni tashkil etgan. "Oxun To'laev" fermer xo'jaligida bog'lar 2008 yilda 3.50 gektarni tashkil etgan bo'lib, shundan 1.50 gektarida olma, 2.0 gektarida nok yetishtirilgan. Tokzorlar 10.3 gektarni, shundan xosilga kirgani 7.3 gektarni tashkil etgan.

2-jadval

"Oxun To'laev" fermer xo'jaligida yer maydonida ekin turining taqsimlanishi

Ko'rsatkichlar	2008	2009	farqi
Jami yer maydoni	14.8	18.8	4
Sug'oriladigan jami maydon (ga)	13.8	17.8	4
1. Bog'lar shundan	3.50	7.50	4
Olma	1.50	5.50	4
Nok	2.0	2.0	-
2. Tokzorlar, shundan	10.3	10.3	-
Yosh tokzorlar	3	3	-
Xosilga kirgani	7.3	7.3	-

"Oxun To'laev" fermer xo'jaligida bog'lar 2009 yilda 4 gektarga ko'payishi natijasida 7.50 gektarni tashkil etib, shundan 5.50 gektarida olma, 2.0 gektarida nok yetishtirilgan. Tokzorlar esa 2008 yilgi xolatida qolib, 10.3 gektarni, shundan xosilga kirgani 7.3 gektarni tashkil etgan.

"Oxun To'laev" fermer xo'jaligida yetishtirilgan ekinlar xosildorligi tahlili 3-jadvalda keltirilgan.

"Oxun To'laev" fermer xo'jaligida 2008 yilda olma 1.5 gektar maydonda yetishtirilib, hosildorlik 66 s/ga ni, yalpi hosil 99 s ni tashkil etgan. Nok 2.0 gektar maydonda yetishtirilib, hosildorlik 87 s/ga ni, yalpi hosil 174 s ni tashkil etgan. Uzum 7.3 gektar maydonda yetishtirilib, hosildorlik 102.7 s/ga ni, yalpi hosil esa 750 s ni tashkil etgan.

2009 yilga kelib esa olma 5.5 gektar maydonda yetishtirilgan, hosildorlik 73 s/ga ni, yalpi hosil 401.5 s ni tashkil etgan. Nok 2.0 gektar maydonda yetishtirilib, hosildorlik 90 s/ga ni, yalpi hosil 180 s ni tashkil etgan. Uzum 7.3 gektar maydonda yetishtirilib, hosildorlik 104.1 s/ga ni, yalpi hosil esa 760 s ni tashkil etgan.

3-jadval

"Oxun To'laev" fermer xo'jaligida yetishtirilgan ekinlar xosildorligi

Ekin turi	2008			2009		
	Maydon	Xosildorlik (s)	Yalpi	Maydon	Xosildorlik (s)	Yalpi

	(ga)		xosil (s)	(ga)		xosil (s)
1. Bogʻ, shunda n Olma Nok	3.5 1.5 2.0	66 87	99 174	7.5 5.5 2.0	73 90	401,5 180
2. Tokzor, Hosil beradigani	10.3 7.3	- 102.7	- 750	10.3 7.3	- 104.1	- 760

2008 yilga nisbatan 2009 yilda fermer xoʻjaligida olma yetishtirishdan 302.5 s, nokdan 6 s, uzumdan 10 s koʻproq yalpi hosil olingan.

“Oxun Toʻlaev” fermer xoʻjaligi ishlab chiqarishida mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi tahlili 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

“Oxun Toʻlaev” fermer xoʻjaligi ishlab chiqarishida mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi

№	Koʻrsatkichlar	Oʻlchov birligi	2008 yil	2009 yil	Farqi (+,-)
1	Yalpi mahsulot qiymati	Ming soʻm	65907	74485	8578
2	Ishlovchilarning oʻrtacha yillik soni	Kishi	11	25	14
3	Qishloq xoʻjaligida jami sarflangan				
	A) ish kuni	Kun	2970	6750	3780
	B) ish soati	Soat	20790	47250	26460
4	Bir kishi uchun toʻgʻri keladigan				
	A) kishi kuni	Kun	270	270	-
	B) kishi soati	Soat	1890	1890	-
jadval davomi					
5	Mehnat unumdorligi 1 kishiga yetishtirilgan mahsulot				
	A) bir yilda	Ming soʻm	5991545	2979400	- 3012145
	B) bir kunda	Ming soʻm	22191	11035	- 11156
	V) bir soatda	soʻm	3170	1576	- 1594

Fermer xoʻjaligida 2008 yilda yetishtirilgan yalpi mahsulot qiymati 65907 ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2009 yilda bu koʻrsatkich 74485 ming soʻmni tashkil qilgan.

Fermer xoʻjaligida 2008 yilda ishlovchilarning oʻrtacha yillik soni 11 kishidan iborat boʻlgan boʻlsa, 2009 yilga kelib ishchilar soni 25 kishiga yetgan. Yaʼni 2008 yilga nisbatan 2009 yilda ishchilar soni 14 taga koʻpaygan.

Qishloq xo‘jaligida jami sarflangan ish kuni 2008 yilda 2970 kunni, jami sarflangan ish soati 20790 soatni, 2009 yilda esa jami sarflangan ish kuni 6750 kunni, jami sarflangan ish soati 20790 soatni tashkil etgan.

Fermer xo‘jaligida 2008 yilda mehnat unumdorligi 1 kishiga yetishtirilgan mahsulot qiymati 1 yilda 5991545 so‘mdan, 1 kunda 22191 so‘mdan, bir soatda 3170 so‘mdan to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2009 yilda bu ko‘rsatkich 1 yilda 2979400 so‘mni, 1 kunda 11035 so‘mni, 1 soatda 1576 so‘mni tashkil etgan.

Korxonada faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi.

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bu foydadan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish o‘rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$YaF=SST-IT \quad (1)$$

bunda, YaF- yalpi foyda;

SST-sotishdan olingan sof tushum;

IT-sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi.

- asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda bumahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o‘rtasidagi tafovut asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa daromadlar qo‘shilgan yoki boshqa zararlar olinishi natijasida aniqlanadi:

$$AFF=YaF-DX+BD-BZ \quad (2)$$

bunda, AFF-asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX-davr xarajatlari;

BD-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ- asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar.

- xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda yoki (zara), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi, moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar va ko‘rilgan zararlar o‘rtasidagi tafovut sifatida hisoblab chiqiladi:

$$UF=AFF+MD-MZ \quad (3)$$

bunda, UF- umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD-moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MZ-moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan zararlar.

- soliq to‘langungacha olingan foyda, u umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foydaga qo‘shilib favkulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zararlar summasi chegirishi natijasida aniqlanadi:

$$STF=UF+FF-FZ \quad (4)$$

bunda, STF-soliq to‘langungacha olingan foyda;

FF-favkulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ-favkulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar.

- sub'ektning sof foydasi, soliqda tortiladigan daromad (foyda) summasidan daromad (foyda) va qonunda ko‘rsatilgan soliqlar va to‘lovlar summalarining chegirilishi natijasida qolgan summaga teng:

$$SF=STF-(DS+BST) \quad (5)$$

bunda, SF-sof foyda;

DS-daromad (foyda)dan to‘lanadigan soliq;

BST-boshqa soliqlar va to‘lovlar.

“Oxun To‘laev” fermer xo‘jaligida dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish xarajatlari tahlili 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

“Oxun To‘laev” fermer xo‘jaligida dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish xarajatlari (ming so‘m)

№	Xarajat turlari	2008	2009	Farqi
1	Ish haqi va unga tegishli ajratmalar	7392000	18150000	10758000

2	Sug'urta to'lovlari	13283700	14897000	1613300
3	Boshqa xarajatlar	18448300	20515000	2066650
4	Ishlab chiqarish xarajatlari	39124000	53562000	14438000
	Jami xarajatlar	39124000	53562000	14438000

“Oxun To‘laev” fermer xo‘jaligida 2008 yilda ish haqiga 7392000 so‘m, 2009 yilda 18150000 so‘m ajratilgan. 2008 yilga nisbatan 2009 yilda ish haqiga 10758000 so‘m ko‘proq ajratilgan. Bunga sabab, fermer xo‘jaligida ishchilar sonining 14 nafarga ko‘payishidir.

Fermer xo‘jaligida sug‘urta to‘lovlari 2008 yilda 13283700 so‘mni, 2009 yilda 14897000 so‘mni tashkil etgan. 2008 yilga nisbatan farq 1613300 so‘mdan iborat.

Fermer xo‘jaligida boshqa xarajatlar 2008 yilda 18448350 so‘mni, 2009 yilda 20515000 so‘mni tashkil etgan. 2008 yilga nisbatan farq 2066650 so‘mni tashkil etgan.

Fermer xo‘jaligida ishlab chiqarish xarajatlari 2008 yilda 39124000 so‘mni, 2009 yilda esa 53562000 so‘mni tashkil etgan. 2008 yilga nisbatan farq 14438000 so‘mni tashkil etgan.

“Oxun To‘laev” fermer xo‘jaligining asosiy moliyaviy natijalari tahlili 6-jadvalda keltirilgan.

Fermer xo‘jaligida mahsulot sotishdan tushgan tushum 2008 yilda 66418500 so‘mni, 2009 yilda esa 74485000 so‘mni tashkil etgan. 2008 yilga nisbatan farq 8066500 so‘m.

6-jadval

“Oxun To‘laev” fermer xo‘jaligining asosiy moliyaviy natijalari (ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar	Satr raqami	2008	2009	Farqi
1	2	3	4	5
Mahsulot sotishdan tushgan tushum	1500	66418.5	74485	8066.5
Sotilgan mahsulot tannarxi	1502	39124	53562	14438
Mahsulot sotishdan kelgan yalpi foyda	1505	27294.5	20923	-6371.5
Davr xarajatlari	1506	2875	3200	325
Jami sarf-xarajatlar	1509	41999	56762	14763
Foyda	1517	24419.5	17723	6696.5
Byudjetga to‘lovlar	1518	885	1210	325
Yagona yer solig‘i	1520	-	-	-
Rentabellik		58.1	31.2	-26.9

Fermer xo‘jaligida sotilgan mahsulot tannarxi 2008 yilda 39124000 so‘mni, 2009 yilda esa 53562000 so‘mni tashkil etgan. 2008 yilga nisbatan farq 14438000 so‘m.

Fermer xo‘jaligida mahsulot sotishdan kelgan yalpi foyda 2008 yilda 27294500 so‘mni, 2009 yilda esa 20923000 so‘mni tashkil etgan. 2008 yilga nisbatan farq -6371500 so‘m.

Fermer xo‘jaligida davr xarajatlari 2008 yilda 2875000 so‘mni, 2009 yilda esa 3200000 so‘mni tashkil etgan. 2008 yilga nisbatan farq 325000 so‘m.

Fermer xo‘jaligida jami sarf - xarajatlar 2008 yilda 41999000 so‘mni, 2009 yilda esa 56762000 so‘mni tashkil etgan. 2008 yilga nisbatan farq 14763000 so‘m.

Fermer xo'jaligida foyda 2008 yilda 24419500 so'mni, 2009 yilda esa 17723000 so'mni tashkil etgan. 2008 yilga nisbatan farq -6696500 so'm. 2009 yilda xo'jalikda foydaning kamayib, xarajatlarning oshib ketishi ishchilar sonining ko'paygani va ularga beriladigan ish haqi miqdorining ortgani, hamda xo'jalik yer maydonining yiriklashishi natijasida o'g'it, yoqilg'i xarajatlarining ortishi, va erta bahordagi yog'ingarchiliklar sabablidir.

Fermer xo'jaligida byudjetga to'lovlar 2008 yilda 885000 so'mni, 2009 yilda esa 1210000 so'mni tashkil etgan. 2008 yilga nisbatan farq 325000 so'mni tashkil etgan.

Fermer xo'jaligida rentabellik 2008 yilda 58.1 % ni, 2009 yilda esa 31.2 % ni tashkil etgan. 2008 yilga nisbatan rentabellik -26.9 % kamroq..

Investitsiyalarni jalb etish uchun tuzilgan loyiha

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdan olinadigan foydani va loyihani samaradorligini asoslash maqsadida keynda fermer xo'jaligida o'rik mevasini kuritishni yo'lga ko'yish rejalashtirilgan. Buning uchun loyiha tuzildi.

TIA xisob kitoblariga asos kilib:

- Parkent Sharob» AJ ma'lumotlari;
- turshakga bulgan talabni urganish buyicha izlanish ma'lumotlari;

Barcha narxlar milliy valyuta sum da 20.01.2010 xolatiga

Loyixa maksadi

Loyixada o'rik mevasi asosida vitaminlarga boy turshak ishlab chikarilishi nazarda tutilgan. Loyixaning maksadi bulib, o'rik mevasini kuritib turshakni ishlab chikarish iqtisodiy samaradorligini asoslash.

Shu asosda o'zimizga va chet elga turshak mahsulotini o'z vaqtida va sifatli, kulay yetkazib berish.

Bozor xolati

Uzbekiston axolisining yoz va kish bo'yi vitaminlarga boy bo'lgan meva va sabzavot mahsulotlarini iste'mol kilishi katta ahamiyatga ega. Kish mavsumida o'rikni saqlanishi kiyinligi uchun o'rikni kuritilgan holda iste'mol kilinishi mumkin. Shu bois bozorda turshaklarga bo'lgan talab oshib bormoqda. Turshaklarni iste'mol kilinishi odam organizmiga kerak bo'lgan vitaminlarini ta'minlaydi. Mazkur loyixaning amalga oshishi fermer xujaliklarning ko'shimcha foyda olishi va ishlab chiqarishni samaradorligiga ta'sir etadi.

Xom ashyo

Ishlab chikarish jarayonida asosiy xom ashyo bulib fermer xo'jaligida yetishtirilgan o'rik olinadi. Xom ashyoning narxi xozirgi kundagi xolatdan kelib chikib 1kg ga 1000 sum deb kabul kilindi.

7-jadval

Texnik xarakteristika

1	Ishlab chikarish kuvvati(kg/kun)	100
2	Bino, inshoot ulchamlari (m ²)	50
3	Massa (kg)	1000
4	Elektr kuvvati (kVt soatiga)	10

Loyixani amalga oshirish

8-jadval

Kapital xarajatlarning smeta kiymati

(ming sum)

1	Bino inshootlar	8500
2	Uskunalar:	
	- asosiy uskuna - yordamchi uskunalar	12000 3000
Jami:		23500

Bu yerda:

- asosiy uskuna - maydalagich;
- yordamchi uskunalar - kurutgich va elak;

Binoning ustki kismining yarmi ochik xolda bulishi nazarda tutilgan.

9-jadval

Amortizatsiya xarajatlari (yiliga)

Amortizatsiya	Stavka %	2 oy uchun	yiliga ming sum
1 Bino inshootlar	5	70	425
2 Uskunalar	10	250	1500
Jami:		320	1925

10-jadval

Ishlab chikarishda aylanma mablaglarga xarajatlar (yiliga)

Resursning nomlanishi	Ulchov birligi	Narxi (Sum)	Yillik extiyoj (2 oy)	Yillik xarajat (ming sum)
1 O'rik	Kg	1000	15000	15000
2 Elektr energiya	KVt	70	7200	504
Jami:				15504

1 kg kuritilgan mevani olish uchun 2,5 kg o'rik mevasi kerak bo'ladi. Shuning uchun bizga uskunani kunlik kuvvati bo'yicha 6 tonna turshak talab etiladi uning uchun 15 tonna o'rik kerak bo'ladi. 6 gektar yer maydonidagi fermer xo'jaligini o'rik xosili 2 oylik turshak kuritish rejasini bajarish imkonini beradi.

Elektr energiya ta'minoti bo'yicha uskunani 1 soatli energiya iste'moli 10 kVt tashkil etadi. 2 oy uskunani ishlatish davomida kuniga 12 soatlik rejimda 7200kVT elektr ishlatiladi.

11-jadval

Ishchi kuchiga sarf xarajatlar (yiliga)

Ishchilar	1 oyga (ming sum)	1 yilga (ming sum)
1 1chi	200	400
2 2chi	200	400
3 3chi ishchi	200	400
4 4chi ishchi	200	400
Jami:	900	1600

12-jadval

Ishlab chikarish tannarxi

Xarajatlarning nomlanishi		Ming sum
1	Xom ashyo	15000
2	Elektr energiya sarfi	504
4	Ishchi kuchiga sarf xarajat	1600
5	Amortizatsiya	320
7	Boshka xarajatlar	200
Jami:		17624

13-jadval

Sotuvlar rejasi (yiliga)

Narx (kg/sum)	Ishlab chikarilgan magiz (kg)	Tushum (ming sum)
3500	6000	21000

14-jadval

Daromad va zarar xisob kitobi

(ming sum)

1	Yalpi tushum	21000
2	Tannarx	17624
3	Yalpi foyda	3376
4	Realizatsiya xarajatlari	100
6	Sof foyda	3276
7	Rentabellik	19,1

Jadvalda keltirilgan realizatsiya xarajatlari yil davomida turshakni bozorgacha bulgan masofada sarf kilingan yokilgi xarajatlari keltirilgan.

Loyixaning afzalliklari:

- ekologik toza ishlab chikarish liniyasi;
- yangi mini ishlab chikarish uskunasi unda mineral va vitaminlarni saklanishini ta'minlaydi;
- chet ellik analoglar bilan solishtirilganda mazkur uskuna bir necha barobar arzon;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida, ayniksa xozirgi kundagi butun jaxon moliyaviy-iqtisodiy inkirozning salbiy ta'sirini oldini olish maksadida, agrar soxada mini ishlab chikarishlar xamda kichik turdagi ishlab chikaruvchilar soni ortishi pirovardida axoli turmush darajasi oshishiga olib keladi;
- mazkur mini ishlab chikarishning bozor xolatiga tez moslashishi xamda bugungi kunning extiyojlaridan kelib chikib, turshak bilan ta'minlash darajasini oshishiga xam bevosita ta'sir etadi;
- yukori sifatli maxsulot ishlab chikarishni ta'minlaydi;

TIA xisob kitoblari shuni kursatdiki, mazkur loyixa texnik jixatdan amalga oshiriladigan, tijorat jixatilan yashovchan va iqtisodiy jixatdan samaralidir va bu loyixani amalga oshirish mumkin.

Loyixani amalga oshirish uchun 50 m² maydondagi bino kerak buladi. Mazkur inshootning ustki kismi ya'ni yarim yopik xolda bulishi lozim ya'ni 25 m² maydonni tashkil etishi kerak.

Ishlab chikarishda kamida 4 kishi band bulishi lozim va 1ta ishchiga 1 oyda 200 ming. sum mikdorida ish xaki to'lash rejalashtirilgan.

Shuni ta'kidlab utish kerakki ishlab chikarishning xar 10 tonna xajmdagi siklida maydalagichning pichogi almashtiriladi. Ishlab chikarish jarayonida bir kilogramm xom ashyodan 40% mikkorda maxsulot chikishi rejalashtirilgan.

Xozirgi kunda kuritilgan o'rikga ya'ni turshakga bulgan talabdan kelib chikib ishlab chikarish xajmi kuniga 100 killogramm kilib belgilangan (bu mikkdor texnik xarakteristikaga asosan oshirilishi mumkin) xamda maxsulotni sotish narxi 3500 sum/kg ni tashkil etmokda. Turshakdan tushgan tushum 21000 ming.so'mn, ishlab chiqarish xarajatlari 17624 ming.so'mni tashkil etdi. O'rik mevasini kuritish hisobiga 3276 ming.so'm foyda olib keladi, rentabellik 19,1 foizni tashkil etadi. Bu o'z navbatida mevani kuritishni samaradorligini belgilab beradi.

Loyihani maqbul variantini tanlashda taqqoslash uchun loyiha tuzish lozim.

II. TALABALAR UChUN USLUBIY QO'LLANMALAR.

Keysni mustaqil yechish uchun ko'rsatmalar

Baholash mezonlari

Ishni tashkil kilish bosqichlari	Tavsiyalar	Baholash mezonlari (maksimal)
1. Keys bilan tanishish	Dastlab keys bilan tanishing. O'qishingiz bilan darxol kuzatilayotgan xolatni (jarayonni) taxlil etishga shoshilmang	-
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish	Berilgan axborotni yana bir karra diqqat bilan o'qib chiqing. Siz uchun muxim sanalgan abzatlarni ajratib oling. O'rganilayotgan xolatga tasir etayotgan omillarni sanab o'rganilayotgan xolat bo'yicha sub'ektlarga aniqlik kiriting. Loyiha tuzish uchun kerak bo'lgan joylarini belgilab oling.	-
3. Muammo va undan kelib chiquvchi kichik muammolarni shakllantirish	Muammoni shakllantirishda o'tilgan mavzular bo'yicha nazariy bilimlaringizdan foydalaning.	2 ball
4. Loyiha tu-zish	Muammoni aks ettiruvchi asosiy xususiyatlar: 1. Fermer xo'jaligi bo'yicha faoliyatini tahlili keltirilganligi 2. Investitsiyalarni jalb etish uchun loyihani tuzilganligi Tuzilgan loyiha bo'yicha maqbul loyihani tuzish imkoniyati mavjudligi.	1-1ball 2-3 ball 3-1 ball
5. yechimini ishlab chiqish va asoslab berish.	Berilgan topshiriklarni bajarish	3 ball

Keys bilan ishlashni baholash mezonlari

86-100%/ 8,6-10 ballgacha- "a'lo"

71-85%/7,1-8,5 ballgacha-"yaxshi"

55-70%/5,6-7ballgacha- "qoniqarli"

Guruhlarning ishlashini baholash jadvali

Guruh	Baholash mezonlari	
	Taqdimot (mazmuni, ma'nosi va xulosalarining isboti uchun)	Muammoli masalaning yechimi (to'g'risidagi va yechimning ketma-ketligi uchun)
	A'lo-2 ball	A'lo-2 ball
	Yaxshi-1,5 ball	Yaxshi-1,5 ball
	Qoniqarli – 1 baho	Qoniqarli – 1 baho
	Qoniqarsiz – 0,5	Qoniqarsiz – 0,5

III. KeYSOLOGNING JAVOB VARIANTI

Fermer xo'jaligida loyiha tuzish uchun keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha uzumni qayta ishlash belgilandi.

Fermer xo'jaligiga investitsiyalarni jalb etish uchun tuzilgan loyiha

Loyixa maksadi

Loyixada magiz ishlab chikarilishi nazarda tutilgan. Loyixaning maksadi bulib, uzumni kuritib magizni ishlab chikaruvchi yangi mini uskunani ishlab chikarishga joriy kilish. Shu asosda o'zimizga va chet elga mayiz mahsulotini o'z vaqtini va sifatli, kulay yetkazib berish.

Bozor xolati

Uzbekiston axolisining yoz va kish bo'yi vitaminlarga boy bo'lgan meva va sabzavot mahsulotlarini iste'mol kilishi katta ahamiyatga ega. Kish mavsumida uzumni saqlanishi kiyinligi uchun uzumni kuritilgan holda iste'mol kilinishi mumkin. Shu bois bozorda magizlarga bo'lgan talab oshib bormoqda. Magizlarni iste'mol kilinishi odam organizmiga kerak bo'lgan vitaminlarini ta'minlaydi. Mazkur loyixaning amalga oshishi fermer xujaliklarning ko'shimcha foyda olishi va ishlab chiqarishni samaradorligiga ta'sir etadi.

1-jadval

Texnik xarakteristika

1	Ishlab chikarish kuvvati(kg/kun)	100
2	Bino, inshoot ulchamlari (m ²)	50
3	Massa (kg)	1000
4	Elektr kuvvati (kVt soatiga)	10

Xom ashyo

Ishlab chikarish jarayonida asosiy xom ashyo bulib fermer xo'jaligida yetishtirilgan uzum olinadi. Xom ashyoning narxi xozirgi kundagi xolatdan kelib chikib 1kg ga 500 sum deb kabul kilindi. 1 kg uzum

Loyixani amalga oshirish

2-jadval

Kapital xarajatlarning smeta kiymati

(ming sum)

1	Bino inshootlar	8500
2	Uskunalar:	
	- asosiy uskuna	12000
	- yordamchi uskunalar	3000

	Jami:	23500
--	-------	-------

Izox: Jadvalda 150 m² ulchamdagi binoni kurilish va montaj kilish uchun ketadigan sarf xarajatlar, asosiy va yordamchi uskunalarga xarajatlar keltirilgan.

Bu yerda:

- asosiy uskuna - maydalagich;
 - yordamchi uskunalari - kurutgich va elak;
- Binoning ustki kismining yarmi ochik xolda bulishi nazarda tutilgan.

3-jadval

Amortizatsiya xarajatlari (yiliga)

	Amortizatsiya	Stavka %	2 oy uchun	yiliga Ming sum
1	Bino inshootlar	5	70	425
2	Uskunalar	10	250	1500
	Jami:		320	1925

4-jadval

Ishlab chikarishda aylanma mablaglarga xarajatlar (yiliga)

	Resursning nomlanishi	Ulchov birligi	Narxi (Sum)	Yillik extiyoj (2 oy)	Yillik xarajat (ming sum)
1	Uzum	Kg	500	15000	7500
2	Elektr energiya	KVt	70	7200	504
	Jami:				3504

1 kg mayiz olish uchun 2,5 kg uzum kerak bo'ladi. Shuning uchun bizga uskunani kunlik kuvvati bo'yicha 6 tonna magiz talab etiladi uning uchun 15 tonna uzum kerak bo'ladi. 6 gektar yer maydonidagi fermer xo'jaligini uzum xosili 2 oylik magiz kuritish rejasini bajarish imkonini beradi.

Elektr energiya ta'minoti bo'yicha uskunani 1 soatli energiya iste'moli 10 kVt tashkil etadi. 2 oy uskunani ishlatish davomida kuniga 12 soatlik rejimda 7200kVt elektr ishlatiladi.

5-jadval

Ishchi kuchiga sarf xarajatlar (yiliga)

	Ishchilar	1 oyga (ming sum)	1 yilga (ming sum)
1	1chi	200	400
2	2chi	200	400
3	3chi ishchi	200	400
4	4chi ishchi	200	400
	Jami:	900	1600

6-jadval

Ishlab chikarish tannarxi

	Xarajatlarning nomlanishi	Ming sum
1	Xom ashyo	7500

2	Elektr energiya sarfi	504
4	Ishchi kuchiga sarf xarajat	1600
5	Amortizatsiya	320
7	Boshka xarajatlar	200
Jami:		10124

7-jadval

Sotuvlar rejasi (yiliga)

Narx (kg/sum)	Ishlab chikarilgan magiz (kg)	Tushum (ming sum)
5000	6000	30000

8-jadval

Daromad va zarar xisob kitobi

(ming sum)

1	Yalpi tushum	30000
2	Tannarx	10124
3	Yalpi foyda	19876
4	Realizatsiya xarajatlari	1500
5	Yagona solik (7%)	1286
6	Sof foyda	17090

Jadvalda keltirilgan realizatsiya xarajatlari yil davomida magizni bozorgacha bulgan masofada sarf kilingan yokilgi xarajatlari keltirilgan.

Loyixaning afzalliklari:

- ekologik toza ishlab chikarish liniyasi;
- yangi mini ishlab chikarish uskunasi unda mineral va vitaminlarni saklanishini ta'minlaydi;
- chet ellik analoglar bilan solishtirilganda mazkur uskuna bir necha barobar arzon;
- bozor iktisodiyoti sharoitida, ayniksa xozirgi kundagi butun jaxon moliyaviy-iktisodiy inkirozning salbiy ta'sirini oldini olish maksadida, agrar soxada mini ishlab chikarishlar xamda kichik turdagi ishlab chikaruvchilar soni ortishi pirovardida axoli turmush darajasi oshishiga olib keladi;
- mazkur mini ishlab chikarishning bozor xolatiga tez moslashishi xamda bugungi kunning extiyojlaridan kelib chikib, magiz bilan ta'minlash darajasini oshishiga xam bevosita ta'sir etadi;
- yukori sifatli maxsulot ishlab chikarishni ta'minlaydi;

TIA xisob kitoblari shuni kursatdiki, mazkur loyixa texnik jixatdan amalga oshiriladigan, tijorat jixatilan yashovchan va iktisodiy jixatdan samaralidir va bu loyixani amalga oshirish mumkin.

Loyixani amalga oshirish uchun 50 m² maydondagi bino kerak buladi. Mazkur inshootning ustki kismi ya'ni yarim yopik xolda bulishi lozim ya'ni 25 m² maydonni tashkil etishi kerak.

Ishlab chikarishda kamida 4 kishi band bulishi lozim va ishlab chikarilgan xar bir kilogramm magiz uchun 1ta ishchiga 1 oyda 200 ming. sum mikdorida ishbay xak tulash rejalashtirilgan.

Shuni ta'kidlab utish kerakki ishlab chikarishning xar 10 tonna xajmdagi siklida maydalagichning pichogi almashtiriladi. Ishlab chikarish jarayonida bir kilogramm xom ashyodan 40% mikdorda maxsulot chikishi rejalashtirilgan.

Xozirgi kunda kuritilgan uzumga ya'ni magizga bulgan talabdan kelib chikib ishlab chikarish xajmi kuniga 100 killogramm kilib belgilangan (bu mikdor texnik xarakteristikaga asosan oshirilishi mumkin) xamda maxsulotni sotish narxi 5000 sum/kg ni tashkil etmokda. Magizdan tushgan tushum 30000 ming.so'mn, ishlab chiqarish xarajatlari 10124 ming.so'mni tashkil etdi. Kichik gabaritli

uskunadan foydalanish mavsum davomida 17090 ming.so‘m foyda olib keladi. Fermer xo‘jaligi rahbari kichik gabaritli uskunasi 15000 ming.so‘mga sotib olib 2 oy davomida uskuna o‘zini koplaydi va ko‘shimcha 2000 ming.so‘m foyda olib keladi. Bu o‘z navbatida uskunani ko‘llashni samaradorligini belgilab beradi.

Biznes reja –investitsiya loyihalarini asoslaydigan, loyihalarning imkoniyatlarini belgilaydigan, daromad va xarajatlarni hisoblaydigan, mablag‘ oqimini ko‘rsatadigan muhim hujjatdir.

Loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslash deganda ularni maqsadga muvofiq ekanligi va standartligini ko‘rsatadigan, hisoblanadigan hujjatlar majmuasini tayyorlash tushuniladi.

IV. O‘qitishning keys-texnologiyasi

4.1. O‘qitish texnologiyasi modeli.

Mavzu	
Vaqt: semestr davomida	Talabalar soni: kontingentdan kelib chiqqan holda
Mashg‘ulot shakli	Vaziyatli holatning yechimini aniqlash bo‘yicha mustaqil ta‘lim (keys-stadi)
Mashg‘ulot rejasi	<p>1. Quyidagi savollar muhokamasi::</p> <p>1. Biznes reja hakida tushuncha. 2. Texnik-iqtisodiy asosnoma hakida tushuncha. 3. Loyihalarni tayyorlash bosqichlari 4. Loyiha xususiyatlari</p> <p>2. Keys yechish, natijalar asosida prezentatsiya qilish Talabalarning ishlash faoliyati va maqsadga erishilganlik natijalarini baholash va xulosa chiqarish.</p>
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi talabalarga loyiha tuzishni o‘z g‘oyasi asosida tuzishni o‘rgatish	
Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyatini natijalari :
<ul style="list-style-type: none"> • loyihani tayyorlash bosqichlari bilan tanishtirish; • loyiha tuzish jarayonini izohlash; • biznes reja yoki texnik-iqtisodiy asosnoma bo‘lim-larini izohlash; 	<ul style="list-style-type: none"> • loyihani tayyorlash bosqichlari bo‘yicha yoritadilar; • loyihani bir necha variantlardan bittasini tanlaydilar; • loyihani tuzishni o‘rganadi; • loyihani samaradorligini asoslab beradi; • biznes reja yoki texnik-iqtisodiy asosnoma tuzadi.
O‘qitish usullari	Keys stadi usuli, savol-javob, muammolarni yechish
O‘qitish vositalari	Keys, uslubiy ko‘rsatmalar, proektor
O‘qitish shakllari	Frontal, ommaviy, alohida guruhlarda ishlash
O‘qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta‘minlangan guruhlar bilan ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Mustaqil o‘rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi.

4.2. O'quv mashg'ulotining texnologik kartasi

Ish bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Talaba
Tayyorlov bosqichi	<ul style="list-style-type: none"> - Keys bilan yaqindan tanishish maqsadida keysga bog'liq ma'lumotlarni talabalarga tarkatadi. - Keysni yechish tala-balar kasbiy mahoratiga kanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'qidlaydi. - Uslubiy ko'rsat-malarga izoh beradi. 	<p>Keys bilan tanishadilar.</p> <p>Tavsiya kilingan adabiyotlarni o'rganadilar</p> <p>Mustaqil tayyorgarlikni boshlaydilar</p>
I.bosqich Mavzuga kirish (10 daq)	<p>1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalari hamda olib borilish rejasini ma'lum qiladi.</p> <p>1.2. Keys maqsadini va uning kasbiy bilimlarni oshirishga ta'sirini aniqlaydi.</p> <p>1.3. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanitiradi.</p> <p>1.4. Blits-so'rov usulida talabalar bilimlari jonlashtiriladi: Loyiha nima uchun kerak? Loyiha kim uchun kerak? Biznes reja va texnik iqtisodiy asosnoma nima bilan farq kiladi? Biznes rejani tuzilishi qanday?</p>	<p>Tinglaydilar</p> <p>Mavzu nomi va uning rejasini yozib oladilar</p> <p>Tanishadilar</p> <p>Savollarga javob beradilar</p>
II. bosqich Asosiy qism (60 daq)	<p>2.1. Keysda keltirilgan topshiriklar muhoka-masini tashkil qiladi. Keys bilan ishlash qoidalarini yana bir bor eslatadi. Muammo, vazifalar va ularni hal qilish algoritmiga e'tiborlarini qaratadi.</p> <p>2.2. Keys bilan mustaqil ishlash natijalari muhokamasini tashkil kiladi.</p>	<p>Topshiriklarni muhokama kiladilar, holatni mustaqil tahlil qiladilar.</p> <p>Yakka tarbida yoki guruhlarda ishlaydilar</p> <p>Guruhlarda birgalikdagi tahliliy ishlarni bajaradilar</p> <p>Natijalarni taqdimot uchun tayyorlaydilar</p>

III. bosqich Yakunlovchi bosqich (10 min)	3.1 Yakunlovchi xulosalar kiladi. 3.2. Fanning ish dasturida belgilangan mustaqil ta'lim mavzularini tarqatadi. 3.3. Mustaqil ta'limni tayyorlashni tavsiya kiladi. 3.4. Natijalarni taqdimot uchun tayyorlashni aytadi.	Tinglaydilar Tanlab oladilar Tinglaydilar Yozib oladilar
---	---	---

Ilova

«Nima uchun?» texnikasi

Nima uchun?

Nima uchun?

Nima uchun?

Nima uchun?

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



**“QISHLOQ XO‘JALIGIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH”
FANIDAN**

KURS ISHI MAVZULARI

Kurs ishlari mavzulari

1. Paxta mahsulotlarini yetishtirish uchun investitsiyaviy loyiha.
2. G'alla mahsulotlarini yetishtirish uchun investitsiyaviy loyiha.
3. Kartoshka yetishtirish uchun investitsiyaviy loyiha.
4. Sabzavot mahsulotlarini yetishtirish uchun investitsiyaviy loyiha.
5. Go'sht mahsulotlarini yetishtirish uchun investitsiyaviy loyiha.
6. Sut mahsulotlarini yetishtirish uchun investitsiyaviy loyiha.
7. Qoramolchilikni rivojlantirish uchun investitsiyaviy loyiha.
8. Ko'ychilikni rivojlantirish uchun investitsiyaviy loyiha.
9. Qorako'chilikni rivojlantirish uchun investitsiyaviy loyiha.
10. Baliqchilikni rivojlantirish uchun investitsiyaviy loyiha.
11. Kuyonchilikni rivojlantirish uchun investitsiyaviy loyiha.
12. Asalarichilikni rivojlantirish uchun investitsiyaviy loyiha.
13. Pillachilikni rivojlantirish uchun investitsiyaviy loyiha.
14. Fermer xo'jaligiga TTZ 8011 rusumli traktor olish uchun lizing loyihasini tuzish.
15. Fermer xo'jaligiga TTZ 8010 rusumli traktor olish uchun lizing loyihasini tuzish.
16. Fermer xo'jaligiga minitraktor olish uchun lizing loyihasini tuzish.
17. Fermer xo'jaligiga Don rusumli kombaynini olish uchun lizing loyihasini tuzish.
18. Fermer xo'jaligiga Keys rusumli kombaynini olish uchun lizing loyihasini tuzish.
19. Fermer xo'jaligiga Kamaz-5320 rusumli avtomobil olish uchun lizing loyihasini tuzish.
20. Fermer xo'jaligiga Gaz-53 rusumli avtomobil olish uchun lizing loyihasini tuzish.
21. Fermer xo'jaligiga Maz-555 rusumli samosval avtomobilini olish uchun lizing loyihasini tuzish.
22. Fermer xo'jaligiga Zil-130 rusumli avtomobil olish uchun lizing loyihasini tuzish.
23. Fermer xo'jaligiga Djon Dir rusumli kombaynini olish uchun lizing loyihasini tuzish.
24. Fermer xo'jaligiga non ishlab chiqarish texnologiyasini olish uchun lizing loyihasini tuzish.
25. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chikarish uchun investitsiyaviy loyiha.
26. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun mikrokreditdan foydalanish.
27. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun mikrolizingdan foydalanish.
28. Go'sht mahsulotlarini qayta ishlash uchun investitsiyaviy loyiha.
29. Sut mahsulotlarini qayta ishlash uchun investitsiyaviy loyiha.
30. Kartoshka mahsulotlarini qayta ishlash uchun investitsiyaviy loyiha.
31. Meva mahsulotlarini qayta ishlash uchun investitsiyaviy loyiha.
32. Meva, sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash uchun investitsiyaviy loyiha.
33. Sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash uchun investitsiyaviy loyiha.
34. Makaron mahsulotlarini qayta ishlash uchun investitsiyaviy loyiha.
35. Go'sh qiymalash uskunasini sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
36. Kolbasa ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
37. Junni birlamchi qayta ishlash uskunasini sotib olish uchun biznes loyihasini tuzish va baholash.
38. Tomat pastasi ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
39. Pishloq ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
40. Pechene va vafli ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
41. yerni qayta ishlash mashinalari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
42. yem xashak o'ruvchi mashinalar sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
43. Kolbasa ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
44. Changlatish va purkash moslamalari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.

45. Teri mahsulotlarini qayta ishlash uskunasini sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
46. Kartoshka moslamalari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
47. yeryongokni tozalash, qayta ishlash uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
48. Bog va uzumzorlarda ishlarni mexanizatsiyalashtirish mashinalarini sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
49. Bugdoy yanchish uskunasini uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
50. Tegirmon sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
51. Mevalarni kuritish uskunasini sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
52. Kuruk va suyuq konsentratlar ishlab chiqarish mini zavodini biznes loyihasini tuzish va baholash.
53. Mini pekarnya sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
54. Poroshok sut ishlab chiqarish mini zavodini kurish biznes loyihasini tuzish va baholash.
55. Traktor tirkamalari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
56. Yarimtirkamalar sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
57. Meliorativ va yerni qayta ishlash moslamalari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
58. Qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun universal kuritish moslamasini sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
59. Tegirmon majmualari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
60. Presslash usuli bilan yog' ishlab chiqarish uskunasini sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
61. Inkubator sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
62. Makaron presslari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
63. Rafinad qand ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
64. Kukruz tayyokchalari ishlab chiqarish uskunasini sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
65. Konsentratlangan sut (sgumennoe moloko) ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
66. Meva va sabzavot pastalari tayyorlash uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
67. Donni, o'tni maydalash kombayni sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
68. Don tozalash moslamasi sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
69. Sabzavotlarni kesish moslamalari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
70. Tuz yodlash uskunasini sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
71. Seyalka sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
72. Mineral o'g'itlarni sepish uskunalari sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
73. O't o'rish mashinasini sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
74. Kosilkalar sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
75. Dalada paxta to'dalarini tozalash uskunasini sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
76. Universal yer xaydash traktorlari (Keys) sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
77. Kanal qazish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
78. Qadoqlash rulon materiallari va paketlar ishlab chiqarish uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
79. Muzqaymoq ishlab chiqarish bo'yicha uchun uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
80. Turli xil mahsulotlarni quyuvchi va qadoqlovchi uskuna sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
81. Qishloq xo'jalik mahsulotlari chikindilarini qayta ishlash investitsiyaviy loyihasi.
82. Shahar chikindilarini qayta ishlash orqali organik o'g'itlardan foydalanish investitsiyaviy loyiha.

83. Mevalarni kuritish uskunasini sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
84. Sabzavotlarni kuritish uskunasini sotib olish biznes loyihasini tuzish va baholash.
85. Limon mahsulotlarini yetishtirish investitsiyaviy loyiha.
86. Gulchilikni rivojlantirish investitsiyaviy loyiha.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



“QISHLOQ XO‘JALIGIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH”

**FANIDAN TAYYORLANGAN
GLOSSARIY**

Izohli lug‘at

Aval - 1. veksel egasi oldidaga javobgarlik;
2. veksel bo‘yicha kafillik haqidagi qayd

Avantaj - qulay vaziyat, ustunlik

Avans (bo‘nak) – oldindan to‘lanadigan pul summasi va to‘lov hisobi, kelgusida to‘lanadigan to‘lovlar hisobiga oldin berila-digan pul miqdori.

Aviso – o‘zaro hisob-kitoblardagi o‘zgarishlar, pul, mol va buyumlar jo‘natil-ganligi haqida bank tomonidan xabarnoma.

Avisga - 1. to‘lov muddati ko‘rsatilmagan holda berilgan veksel. U istalgan paytda to‘lovga takdim etilishi mumkin;

2. ko‘rsatilganda istalgan paytda to‘lanishi mumkinligini tasdiqlovchi vekseldagi yoki boshqa qimmatli qog‘ozdagi yozuv

Akkreditiv - 1. korxonalar va tashkilotlar o‘rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblar usuli. Uning mohiyati shundan iboratki, to‘lovchining banki to‘lov oluvchining bankiga talab qilinayotgan summani kelishilgan muddatda to‘lash haqida topshiriq beradi;

2. kimga berilgan bo‘lsa, o‘sha shaxsning ko‘rsatilgan summani bank muassasasidan olish huquqini tasdiklovchi pul hujjati

Aksept - taqdim etilgan ofertani qabul qilishga rozilik.

Akseleratsiya-investitsiya hajmi oshishi yoki kamayishi talabni oshishi yoki kamayishiga bog‘likligi.

Aksept - 1. xo‘jaliklar o‘rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblar shakllaridan biri. U yetkazib berilgan mahsulot, ko‘rsatilgan xizmat yoki bajarilgan ishga haq to‘lashda xaridorning roziligini olishni nazarda tutadi;

2. to‘lovchining o‘tkazma vekselni ko‘rsatilgan muddatda to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga olishi;

3. boshqa tomon taklif etgan shartlarda shartnoma (bitim) tuzishga rozilik berish

Akseptlangan - veksel to‘loviga rozilik berilgan veksel

Akseptlanmagan - tratta to‘loviga rozilik berilmagan o‘tkazma veksel

Akseptlash - to‘lashga rozilik berish

Aksept-rambursli kredit - chetga mol chiqaruvchi shaxs to‘lovga taqdim etgan o‘tkazma veksellar bo‘yicha chetdan mol keltiruvchining hisob-kitoblarini yuri-tuvchi bank aksepti shaklidagi kredit.

Aksiz - keng iste‘mol mollari sotuvidan olinadigan bilvosita soliq turi. U muayyan mol narxiga yoki ko‘rsatilgan xizmat haqiga qo‘shiladi

Aksiyalar deposti - aksiyalar saklanadigan muassasa

Aksiyalar diskonti - aksiyalar bo‘yicha chegirma

Aksiyalar opsiioni - moliyaviy bozorga darhol ustama haq to‘lash evaziga chiqarilgan aksiyalarni muayyan muddatga xarid qilish yoki sotish shartnomasi

Aksiyalarniig bonusli emissiyasi - aksiyalarni aksiyadorlar o‘rtasida bepul tarqatish maqsadida muomalaga chiqarish

Alienatsiya - 1. mol-mulkni musodara qilish;

2. aksiya, sarmoya yoki boylikning egasini almashtirish; bir shaxsga tegishli mol-mulkni boshqaga o‘tkazish operatsiyasi

Allonj - o‘tkazma vekselning orqasida joy kolmagan takdirda unga ilova qilinadigan qo‘shimcha varaq

Amballaj - 1. molni o‘rab joylash xarajatlari;

2. o‘rab joylash materiali

Amanko – taqchillik, kamomad yoki qarzdorlikni anglatadigan birja istilohi.

Ampliatsiya - pul olinganligi haqidagi tilxatniig nusxasi

Anderlaing - opsiyon shartnomasi shartlariga ko'ra xarid qilish va sotish huquqini beruvchi opsiyonga asos hisoblangan qimmatli qog'oz

Analitik usul - tabiatda mavjud bo'lgan o'simliklar ichida tanlash yo'li bilan yangi nav yaratish.

Antimonopol siyosat - iqtisodiyotni monopoliya (yakka hukmronlik) dan xalos etish va monopoliyalarni cheklab qo'yishga yo'naltirilgan davlat siyosati.

Tashkilotlar yoki shaxslarning umumiy xo'jalik, ilmiy, madaniy yoki biron-bir boshqa maqsadga erishish uchun ixtiyoriy ittifoqi, uyushmasi.

Annuitet - 1. muddatli davlat qarzi turlaridan biri. U asosiy qarzni unga to'lanadigan foizi bilan asta-sekin qaytarish imkoniyatini hisobga olgan holda, har yili kreditorlarga muayyan daromad keltiradi;

2. muntazam kelib tushuvchi to'lovlar

Annuitet fondi - muddatli davlat qarzi fondi. U asosiy qarzni unga to'lanadigan foizi bilan asta-sekin qaytarish imkoniyatini hisobga olgan holda, har yili kreditorlarga muayyan daromad keltiradi

Annulyasiya - yo'qotilgan takdirda qimmatli qog'ozni bekor qilish jarayoni

Amortizatsiya - foydali xizmat muddati mobaynida aktivning amortizatsiyalanadigan qiymatini asosiy vositalarning vazifasidan kelib chiqqan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga yoki davr xarajatlariga muntazam taqsimlash va o'tkazish ko'rinishida eskirishning qiymat ifodasi;

Amortizatsiyalanadigan qiymat - moliyaviy hisobotlarda faraz qilinayotgan (baholangan) tugatish qiymatini chegirgan holda ko'rsatilgan aktivning boshlang'ich (tiklash) qiymati summasi;

Asosiy vositalar - korxonada tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar;

Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromad xo'jalik yurituvchi sub'ektning schyotiga yalpi tushumlardan yoki olinishi mumkin bo'lgan tushumlardan iborat. Uchinchi shaxslar nomidan undirib olinadigan, xo'jalik yurituvchi sub'ektga tushadigan va o'z sarmoyasi ko'payishiga olib kelmaydigan bilvosita soliqlar miqdori asosiy xo'jalik faoliyati daromadiga kiritilmaydi. Vositachilik faoliyatida yalpi tushumlar asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromad hisoblanmaydi. Bunday hollarda vositachilik haqi daromad hisoblanadi.

Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar - xo'jalik yurituvchi sub'ektning odatdagi faoliyati davomida vujudga keladigan davr ichida mulk egalari o'z sarmoyalariga badali bilan bog'liq bo'lgan ko'payishlarni istisno etganda, o'z sarmoyasi ko'payishiga olib keladigan tushumlar;

Bank depoziti - xususiy shaxs, korporatsiya va davlat tashkiloti nomidan bankka saqlash uchun topshirilgan pul mablag'lari.

Bank diskonti - bankning vekselarini hisobga olish operatsiyalari uchun belgilangan hisob foizi.

Bank kliringi - banklarning o'zaro talabnoma va majburiyatlarni hisobga olish asosida mollar, qimmatli qog'ozlar va xizmatlar uchun nakd pulsiz hisob-kitob qilish tizimi.

Bankning likvidligi - bankning majburiyatlarini o'z vaqtida qoplay olish qobiliyati.

Bank marketingi - bank mijozlari ehtiyojlarini qondirishga hamda bozorni o'rganib, istiqbolni belgilash asosida foyda olishga qaratilgan bank xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish va kengaytirish majmuaviy tizimi.

Bank trattasi - tashqi savdoda foydalaniladigan bank o'tkazma vekseli. U xizmat ko'rsatilganida to'lanadi.

Bankning muddatli valyuta operatsiyalari bo'yicha sof pozitsiyasi - bankning muddatli valyuta operatsiyalari jarayonida yuzaga kelgan talab va majburiyatlari nisbatining sof miqdori.

Bankning trast bo'limi - bankning ishonch asosidagi operatsiyalar bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

Bank o'tkazmasi inkassasi - bank o'z mijozining topshirig'iga ko'ra jo'natilgan mollar va xizmatlar uchun bank o'tkazmasi asosida to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'larini haq to'lovchidan oladi hamda bu mablag'larni o'z mijozining bankdagi hisob-raqamiga o'tkazadi.

Banknot - muomalaga pul chiqarish hukuqiga ega banklar bileti. Ular metall pulning o'rnini muomala va to'lov vositasi sifatida bosadi.

Banko - qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va sotishni amalga oshirishda bank foydalanadigan kurs

Bank sertifikatlari - bu omonat qo'yilganligi to'g'risidagi, omonatchi yoki uning huquqiy vorisining belgilangan muddat to'lgandan so'ng omonat summasini unga tegishli foizlarni olishga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi bank, ya'ni emitent bergan guvohnomasidir.

Bank sertifikatlari ikki turda bo'ladi; depozit va jamg'arma sertifikati. Ular: shakliy ko'rinishi bo'yicha: naqd pul va pulsiz ko'rinishidagi sertifikatlariga; qarz muddati bo'yicha: muddatli va muddatsiz sertifikatlariga; qayd qilinish usuli bo'yicha sessiya (egasining ismi yozilgan) va sessiyasiz sertifikatlariga bo'linadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida omonatchilarning yoki ularning vorislarini benifitsiarlar deb atashadi.

Barter - barter kelishuv – pulsiz bevosita tovar ayirboshlash. Ko'proq rivojlanmagan tovar munosabatlari davri uchun xos bo'lgan kelishuv. Hozirgi zamon barter kelishuvining aniq shakllari – valyutasiz ayirboshlash, kompensatsiyali kelishuvlar, turli xil kliringlar. Barter hozirgi sharoitda aholini iste'mol mollari bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bessa - birja qimmatli qog'ozlari kurslarining pasayishi.

Beta ko'rsatkichi - qimmatli qog'ozlar bozorida umumiy ahvolning alohida qimmatli qog'oz narxining o'zgarib turishi-ga ta'sir ko'rsatishini tavsiflaydigan ko'rsatkich.

Birja dileri - qimmatli qog'ozlar, mollar va valyuta birjalaridagi oldi-sotdi bitimlarida vositachilik qiluvchi shaxs yoki firma.

Birlamchi diler - qimmatli qog'ozlar bitimlarini amalga oshiruvchi birlamchi taqsimot ishtirokchisi

Biznes - sohibkorlik tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish. Biznes-tovar ishlab chiqarish va uni sotish, xizmat ko'rsatish, transport va boshqa sohalardagi faoliyatdir.

Biznes reja - qat'iy hisob-kitoblarga asoslangan hujjat bo'lib, mavjud bozorlar holatini yaxshi tahlil qilib o'z maksadaini aniq, ravshan ko'z oldiga keltira biladigan fermer xo'jaliklari rahbarlari tomonidan mustaqil ravishda yoki mutaxassislar va maslahatchilarni jal etgan xolda ishlab chiqiladi.

Bozor - tovarlarga talablar, takliflar va narxlar shakllanadigan savdo muomalasi sohasi.

Bozorni segmentlash - bozorni biron-bir belgi bo'yicha alohida bo'g'imlarga ajratish.

Bozor infratuzilmasi - bozor iqtiso-diyoti uchun xizmat ko'rsatuvchi har xil sohalar: unga banklar, jumladan tijorat banklari, birjalar, auksionlar, savdo uylari, tashqi savdo firmalari, soliq undiruvchi inspeksiyasi, tijorat va sohibkorlik idoralari, vositachi firmalar, savdo-sotiq uyushmalari, konsernlar, konsorsiumlar va boshqalar kiradi. Bozor infratuzilmasi tovar ishlab chiqaruvchilarning savdo-sotiq, moliya-kredit ishlariga, sherik topishga, ish kuchi yollashiga ko'maklashadi. Davlatning iqtisodiyotni tartibga soluvchi tadbirlarini amalga oshiradi, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida aloqa o'rnatishga yordam beradi. Bozor infratuzilmasi faqat davlat idoralari emas, balki mustaqil uyushma, tashkilot yoki firmalardan iborat nodavlat tashkilotlari ham bo'lib, ular ko'rsatayotgan xizmatlari uchun haq oladilar.

Bevosita xarajatlar - alohida turdagi tovar-moddiy zaxiralarni ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarish) jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan hamda ularning birligi tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri kiritiladigan ishlab chiqarish xarajatlari;

Bilvosita xarajatlar - bir necha turdagi tovar-moddiy zaxiralarni ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarish) jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari, ular muayyan tovar-moddiy zaxiralar birliklari tannarxiga bevosita kiritilmaydi, buning oqibatida ular xarajatlar ob'ektlari va ularning birliklari tannarxi o'rtasida hisob-kitob yo'li bilan taqsimlanadi;

boshlang'ich qiymat - to'langan va qoplanmaydigan soliqlarni (yig'imlarni), shuningdek aktivni undan mo'ljal bo'yicha foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan yetkazib berish va montaj qilish, o'rnatish, ishga tushirish va istalgan boshqa xarajatlarni

hisobga olgan holda, asosiy vositalarni tiklash (qurish va qurib bitkazish) yoki xarid qilish bo'yicha haqiqatda qilingan xarajatlarning qiymati;

Buxgalteriya schyoti - korxonalar iqtisodiy resurslarining holati va harakati haqidagi buxgalteriya axborotini qayd etish va saqlash uslubi va ularga bo'lgan talablar.

Bum - ishlab chiqarish, savdo-sotiq va tadbirkorlik faolligining qisqa muddatli sun'iy ko'tarilishi

Butik - tor doirada ixtisoslashtirilgan hamda mijozlari va xizmatlari doirasi cheklangan kichik brokerlik firmasi

Bek-offis - tashqi iqtisodiy faoliyatga xizmat ko'rsatish uchun hujjatli operatsiyalarni amalga oshiruvchi bank bo'limi

Bo'linish nuqtasi - ishlab chiqarish jarayonining muayyan payti, bu yerda birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishda mahsulotlarning alohida turlari aniq identifikatsiyalanadi;

bo'lish - korxonalar faoliyatini to'xtatib, uning huquqlari va majburiyatlarini yangi tuzilayotgan korxonalariga berish;

Valyuta diversifikatsiyasi - xalqaro hisob-kitoblarni ta'minlash va valyuta tavakkalchiliklaridan himoyalash maqsadida tarkibiga turli xorijiy valyutalarni kiritish yo'li bilan valyuta tuzilishini tartibga solish.

Valyuta integratsiyasi - turli mamlakatlarning yagona pul-kredit siyosati asosida o'zaro bog'langan holda rivojlanishi.

Valyuta intervensiyasi - markaziy bank va davlat xazinasining kreditga, qimmatli qog'ozlarga, milliy hamda xorijiy valyuta-larga bo'lgan talab va taklifni tartibga solish yo'li bilan moliya-kredit hamda valyuta sohasiga aralashuvi

Valyuta kliringi - yetkazib berilgan mollar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymat tengligidan kelib chikuvchi muqobil talabnoma hamda majburiyatlarni o'zaro majburiy hisobga olish haqidagi hukumatlararo shartnoma; tashqi savdo va boshqa mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlar shaklida xalqaro to'lov bi-timlari asosida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar.

Valyuta laji - valyuta bozor kursining ularda qayd etilgan qiymatiga nisbatan oshib ketishi

Valyuta makleri - valyuta operatsiyalarida vositachilik bilan shug'ullanuvchi dallol

Valyuta opsioni - shartnomaning muqobil valyuta shartlarini tanlash huquqi valyuta pariteti ikki valyuta o'rtasida konungan belgilanib, valyuta kursining asosi xisoblanadigan nisbat

Grant - 1. haq to'lanadigan yoki mablag' bilan ta'minlanadigan ilmiy tadqiqotlar uchun berilgan davlat buyurtmasi;

2. ilmiy tadqiqotlarni, olimlarni, adabiyot va san'at asarlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida xayriya tartibida ajratiladigan pul mablag'lari

«Grant» atamasi inglizchadan hadya, in'om, xayr sahovot, ehson, dotatsiya, subvensiya, reparatsiya ma'nolarini anglatadi. Moliya statistikasida grantlar – qaytarilmaydigan, beg'araz (qoplanmaydigan), majburiy bo'lmagan (muntazam bo'lmagan, bir yo'la subvensiya, xayr – ehson, reparatsiya turidagi) tushumlardir. Grantlar davlat boshqaruvi sektorining boshqa muassalari, milliy iqtisodiyotning boshqa sektorlari (rezidentlar) va xorij davlatlari, xususiy kishilari va jamoa tashkilotlari hamda xalqaro tashkilotlar (nerezidentlar) tomonidan berilishi mumkin. Bu turdagi tushumlar davlat byudjeti defitsitini kamaytiradi, ammo defitsitni moliyalashtirmaydi.

Garov - bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi. Garov zakolat, ipoteka, shuningdek huquq garovi tarzida amal qilishi mumkin.

Giperinflyasiya - haddan tashqari inflyasiya, narxning shiddat bilan o'sishi, pul qadriining g'oyat tez pasayishi. Giperinflyasiyaning yana bir muhim belgisi – korxonalar, tashkilotlar va aholi nima qilib bo'lsa ham tovar sotib olish mumkin bo'lgan, qadri yuqori pul valyuta yig'a boshlaydi. Giperinflyasiya sharoitida narx-navoni mut-laqo tartibga solib bo'lmaydi, barter avj oladi, pul o'z vazifalarini bajarmay qo'ya-di. Giperinflyasiya iqtisodiy halokat demakdir. Uning oldini olish uchun shoshilinch holda inflyasiyaga qarshi choralar ko'riladi.

Guruh - bosh jamiyat va unga qarashli barcha shu'ba jamiyatlar.

Davlat yordami - muayyan mezonlar bilan qanoatlantiruvchi bitta yoki bir qator xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy yordam berish uchun davlat ko'radigan tadbir. Ushbu standart maqsadlari uchun davlat yordami faqat bevosita, rivojlanib borayotgan sektorlarda infratuzilmalarni vujudga keltirish yoki raqobatchilarga savdo cheklashlarini joriy etish singari umumiy savdo shartlariga ta'sir etuvchi xatti-harakatlar vositasida beriladigan imtiyozlarni o'z ichiga olmaydi.

Davlat subsidiyalari - xo'jalik yurituvchi sub'ektning operatsiya faoliyatiga taalluqli muayyan sharoitlarda xo'jalik yurituvchi sub'ektga resurslarni berish tarzida hukumat tomonidan beriladigan yordam.

Daromadga kiritiladigan subsidiyalar - bu aktivlarga kiritiladiganlaridan tashqari, davlatning har qanday boshqa subsidiyalari.

Dezignatsiya - **1. kredit beruvchi shaxslar imzolari;**

2. buzilgan mollar ro'yxati

Dezintermediatsiya - 1. kimmatli qog'ozlarni bevosita chiqarishni yoklab banklarning karz sarmoyalari bozoridagi vositachiligidan voz kechish;

2. foiz stavkasining o'sishi davrida mi-jozlarning depozitlarni pul bozori vositalariga o'tkazish maqsadida banklardan olib qo'yishi;

3. kredit mablag'lari bir qismining milliy bank tizimi doirasidan chetga oqib ketishi; 4. moliyaviy muassasalar o'zlarining vosita-chilik vazifalarini bajara olmay qolgan vaziyat

Deklaratsiya - muayyan axborotdan tarkib topib, ma'lum qoidalarni e'lon qiluvchi bayonot, hujjat

Demping - bozorda raqobatchilarni yengib chiqish maqsadida mollar va xizmatlar narxlarini sun'iy ravishda pasaytirish; mollarni boshqa mamlakatda tannarxidan arzon narxda sotish.

Denominatsiya - valyutani barqarorlash-tirish va hisob-kitoblarni osonlashtirish maqsadida pul belgilarining ko'rsatilgan qiymatini yiriklashtirish. Bunda eski pul belgilari yangilariga almashtirib boriladi, narx-navo va ish xaqi shunga muvofiq kayta hisoblanadi.

Denonsatsiya - shartnomadan rasmiy tarzda voz kechish, shartnomani tugatish

Depozit - **1. banklarga saqlash uchun topshirilgan pul mablag'lari yoki kimmatli qog'ozlar;**

2. qarzdor kreditorga berib yuborish uchun sud muassasasiga ajratadigan pul summasi yoki qimmatli kog'ozi

Defitsit - taqchillik (tovarlar hamda xizmatlar taqchilligi) - xalq iste'mol mollari va xizmatlarning aholi talab – ehtiyojlarini qondirish uchun yetishmasligi, ularni yetarli darajada ishlab chiqarmas-lik, shuningdek sifatsiz va kam turda bo'lishi. Defitsit tovarlarning vaqtincha emas, balki muhim ravishda, surunkali yetishmay qolishi.

Deflyasiya - **1. ortiqcha qog'oz pulni muomaladan chikarib olish yo'li bilan pul ko'lamini kamaytirish;**

2. pul-kredit bozoridagi narx-navoning asta-sekin pasayishi yoki ko'tarilishi. Bu mahsulot ishlab chiqarishning pasayishi va ishsizlikning o'sishi bilan birga sodir bo'ladi

Deflyator - mavjud va nominal yalpi milliy mahsulot o'rtasidagi farqlar ko'rsatkichi. Mamlakat iqtisodiyotidagi inflyasiyaning umumiy darajasini ko'rsatadi.

Diler - qimmatli qog'ozlar, mollar va valyuta oldi-sotdi bitimlarida vositachilik qiluvchi shaxs yoki firma

Diler bank - qimmatli qog'ozlar, mollar va valyuta oldi-sotdi bitimlarida vositachilik qilish huquqiga ega bank.

Dilerlik krediti - bank vositachi diler hisobidan beradigan kredit.

Diskont - 1. qimmatli qog'ozning amaldagi narxi bilan qiymat qoplanishi paytidagi narxi yoki belgilangan qiymati o'rtasidagi farq; moliyaviy vositani qiymat qoplanishi paytiga qadar belgilangan qiymatidan past narxda xarid qilish;

2. valyutaning kelgusi kursi bilan darhol yetkazib berilgan paytdagi kursi o'rtasidagi farq;

3. turli muddatlarda yetkazib beriladigan bir turdagi molning narxlari o'rtasidagi farq;

4. birja bitimlarida mol sifati shartnomada kelishilganidan past bo'lga-nida, narxdan chegirish;

5. valyuta bitimlarida rasmiy valyuta kursidan pasaygan holda chetga chiqish

Diskont firmasi - qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha mijozlarga operatsiya xizmati ko'rsatishni ta'minlovchi firma

Diskontlangan - vaqtga ko'ra taqqoslanadigan o'lchamlarga keltirilgan; hisobga olingan, chegirmali

Dotatsiya - (hadya, ehson) davlat yoki mahalliy byudjetdan qaytarib bermaslik sharti bilan mablag' ajratish; iqtisodiyotga byudjet orqali ta'sir etish vositalaridan biri. Faoliyati umumdavlat ahamiyatiga molik, lekin o'z daromadi bilan xarajatlarini qoplay olmaydigan korxonalar va tashkilotlarga davlat dotatsiya bilan madad beradi. Dotatsiya umumiy va maqsadli bo'ladi. Umumiy dotatsiya ajratilganda mablag' mahalliy byudjetlarga beriladi, uni ishlatish mahalliy hokimiyat ixtiyorida va unga markaz aralashmaydi. Maqsadli dotatsiya berilganda uni mo'ljallangan maqsad uchun sarflash majburiy va buni davlat nazorat qiladi.

Joriy qiymat - bir-biriga qaram bo'lmagan xabardor, sotib olishni xohlagan xaridor bilan xabardor, sotishni xohlayotgan sotuvchi o'rtasida aktiv almashtiriladigan miqdor.

Joriy qiymat - ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo'yicha asosiy vositalarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lgan summa.

Investitsiya portfeli - mablag'larni uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga sarflash.

Investitsiya trust fondi portfeli - turli jismoniy va hukuqiy shaxslarning ishonch asosidagi mablag'larni jalb etish hisobiga tashkil etilgan qimmatli qog'ozlari to'plami.

Investitsiyalarni diversifikatsiya qilish - mablag'larni turli sohalarga sarflash. Bu mablag' sarflash tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida qo'llaniladi.

Indeksatsiya - majburiyatlar bo'yicha to'lovlarning narx-navo ko'rsatkichi bilan o'zaro nisbatini belgilash; pul talabnomalari va turli daromadlarning haqiqiy miqdorini inflyatsiya sharoitida saqlab qolish usuli

Ipoteka - qarzga pul olish maqsadida ko'chmas mulk, yer va kurilish binolarini garovga qo'yish. Bunda garovga qo'yilgan mulk qarz oluvchining tasarrufida qoladi

Ipoteka krediti - ko'chmas mulkni garovga olib, uzoq muddatga beriladigan kredit

Investitsiya faoliyati - pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya ob'ektlarini sotib olish va sotish.

Investitsiya (sarmoya) - xususiy yoki davlat kapitalini, mulk yoxud aqliy boylikni milliy (ichki investitsiyalar) yoki xorijiy iqtisodiyotga (tashqi investitsiyalar) foyda olish maqsadida uzoq muddatga sarflash.

Investor - investitsiyalarni amalga oshiruvchi omonatchi, shaxs yoki tashkilot.

Injinerlik - tijorat asosida ishlab chiqarish va mahsulotni sotish jarayonlarini tayyorlash va ta'minlash bo'yicha muhandislik-maslahat ishlari majmui.

Qaytarmaslik asosidagi ssudalar - bu kreditor qaytarishni talab qilmagan holda, muayyan shartlarga rioya qilib beradigan ssudalardir.

Kvota - **1. ishlab chiqarish birlashma-sining mahsulot ishlab chiqarish, uni sotish, chetga chiqarish yoki chetdan keltirishda har bir qatnashchi uchun belgilangan ishtirok ulushi;**

2. mamlakatning xalqaro iqtisodiy yoki valyuta-moliyaviy tashkilot ustav fondiga yoki sarmoyasiga qo'shgan hissasi;

3. soliq solinadigan birlikdan undiriladigan soliq stavkasi

Keynschilik - **butun dunyoga mashhur iqtisodchi olim D.M.Keynsning makro-iqtisodiy nazariyasi. Keynschilik ta'li-moti qator iqtisodiy mexanizmlarni kuyidagi qoidalar asosida talqin etadi:**

1) ish bilan ta'minlanganlik dara-jasini ishlab chiqarish hajmi belgilaydi;

2) umumiy talab har doim ham to'lov mablag'lari hajmiga muvofiq darajada belgilanmaydi, chunki bu mablag'larning bir qismi jamg'armalarga aylantiriladi;

3) ishlab chiqarish hajmi sarmoyani investitsiya qilishga ko'maklashadigan kelgusidagi samarali talab darajasini kutish bilan belgilanadi;

4) bank foiz stavkasi va sarmoya sarfi o'rtasida tenglik yuzaga kelganida investitsiya qili shva jamg'arish bir-biriga bog'liq bo'lmay qoladi

Qisqa muddatli (joriy) investitsiyalar - muomala muddati 12 oydan oshmaydigan oson realizatsiya qilinadigan investitsiyalar.

Qoldiq (balans) qiymat - jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati;

Konsorsium - muayyan iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun shartnoma asosida firmalarning muvaqqat birlashtirilishi.

Kontr-aktiv schyot (KA) - bu u bilan bog'lik bo'lgan aktiv schyotning saldosi dan chegiriladigan moliyaviy hisobotda aktivning sof qiymatini aks ettiruvchi schyotdir.

Kontokorrent - (joriy hisob-kitob) -doimiy savdo muloqotida bo'lgan ikki savdo korxonasi ning o'zaro kelishuvi bo'yicha ochilgan hisob varag'i. Hisob-kitoblar o'zaro qarzlarni hisobga olish yo'li bilan olib boriladi.

Kredit - pul vositalarini, tovar va xizmatlarni ma'lum ustama to'lab qaytarib berish sharti bilan ma'lum muddatga qarzga berish. Qarzga mablag' beruvchi tomon kreditor, ya'ni kredit beruvchi, ssuda oluvchi tomon esa qarzdor, ya'ni kredit oluvchi deyiladi. Hozirgi vaqtda kredit asosan pul shaklida to'g'ridan-to'g'ri bank orqali beriladi. Kreditlar ikki xil bo'ladi. Qisqa muddatli (1 yilgacha) va uzoq muddatli bo'ladi. Qisqa muddatli kredit korxonasi va tashkilotlarning aylanma fondlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli kredit esa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga kapital mablag'lar ajratish manbai hisoblanadi. Bozor munosabatiga o'tish bilan birga kredit munosabatlari ham qayta qurilmoqda.

Kredit uchun foiz - ssuda tartibida beriladigan pul mablag'laridan faqatgina foydalanish uchun to'lov.

Ko'chmas mulkka investitsiya - investitsiya qiluvchi sub'ektning yoki investitsiya qiluvchi sub'ekt guruhiga kiruvchi boshqa sub'ektning ishlab chiqarish faoliyati davomida foydalanilmaydigan yer uchastkalariga yoki imoratlarga investitsiyalar.

qo'shib olish - bir yoki bir nechta korxonasi faoliyatini to'xtatib, ularning huquqlari va majburiyatlarini boshqa korxonasi ga berish;

qo'shib yuborish - o'z faoliyatini tugatgan ikki yoki bir nechta korxonasi ning barcha huquqlari va majburiyatlarini unga berish yo'li bilan yangi korxonasi ni vujudga keltirish;

Lokaut - korxonasi egalarining ishchi-larining ish tashlashiga yoki haddan ziyod talablar qo'yishiga javoban korxonasi larni yopishi yoki ishchilarni yoppasiga ishdan bo'shatishi

Loko narxi - keyingi tashish xarajatlarini o'z ichiga olmaydigan sotuvchi belgilagan narx

«**Lokt-in**» - sarmoya qiymatining oshishi solig'i olinishiga sabab bo'lganligi tufayli investor daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozlarni sotishdan xavfsirab qoladigan vaziyat

Lombard - ssudasi oson sotiladigan qo'chmas mulkni garovga olib, qisqa muddatga beriladigan qarz

Lorens - egri chizig'i mamlakatdagi farovonligi turlicha oilalar o'rtasidagi daromad taqsimotini foiz hisobida aks ettiruvchi egri chiziq

Loro - hisob raqam bankning o'z vakil banklariga ochgan hisob-raqami. Unda vakil banklar topshirig'iga ko'ra amalga oshiri-ladigan barcha operatsiyalar aks ettiriladi

Loro-konto - 1. bankning uning topshirig'iga ko'ra operatsiyalarni amalga oshiruvchi vakil bankiga ochgan tijorat hisob raqami;

2. biror bankning vakil bankida uchunchi bir bank ochadigan vakillik hisob raqami

Lot - qimmatli qog'ozlar yoki mol birjalarida bitimlar birligi hisob-lanadigan mollar yoki qimmatli qog'ozlar turkumi

«**Ley-evey**» - belgilangan narxning hammasini yoki bir qismini oldindan to'lashga asoslangan sotuv amaliyoti

Lending - belgilangan bandargohga yetib kelgan kemadan yuk tushirish haqi

Lizing - asosiy vositalar, texnika vositalari, bino va inshootlarni o'rta hamda uzoq muddatga ijaraga berish

Lizing kompaniyasi - asosiy vositalar, texnika vositalari, bino va inshootlarni o'rtta hamda uzoq muddatga ijaraga berish kompaniyasi

Moliyaviy ijara - mulkni (moliyaviy ijara ob'ektini) shartnomaga binoan o'n ikki oydan ortiq muddatga egalik qilish va foydalanish huquqini berishda yuzaga keladigan ijaraviy munosabatlar

Moliyaviy investitsiyalar - xo'jalik yurituvchi sub'ekt tasarrufidagi daromad olishga (foiz, royalti, dividend va ijara haqi shaklida) mo'ljallangan, investitsiya qilingan sarmoya qiymatining ortishi yoki investitsiya qiluvchi kompaniya boshqa naf olish uchun foydalanadigan aktivlar.

Moliyaviy faoliyat - xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyati bo'lib, uning natijasida o'z mablag'i va qarz mablag'lari miqdori va tarkibida o'zgarishlar yuz beradi.

Moliyaviy lizing - ijaraga oluvchi shaxsning asbob-uskunalarni ishlatishdan ko'rilgan foyda ulushini hamda amortiza-siyaning to'la qiymatiga teng summani lizing kompaniyasiga shartnomaning amal qilish davri mobaynida to'lashini ko'zda tutuvchi ijara shartnomasi. Bunda ijaraga oluvchi shaxs shartnomaning amal qilish muddati tugaganidan keyin asbob-uskuna-larni qoldiq qiymati bo'yicha sotib olish huquqini qo'lga kiritadi

Multiplikator - miqdori investitsiya talabining va investitsiyalarning o'sishi mahsulot chiqarish hajmining va mahsu-lotga bo'lgan iste'mol talabining o'zgarishini yuzaga keltiruvchi darajani tavsiflovchi iqtisodiy ko'rsatkich

Operativ ijara - moliyaviy ijara shartnomasi hisoblanmaydigan mulkiy ijara shartnomasiga binoan mulkni vaqtinchalik egalik qilishga va foydalanishga yoki foydalanishga berish.

Operatsiya faoliyati - xo'jalik yurituvchi sub'ektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek sub'ektning investitsiya va moliya faoliyatiga oid bo'lmagan o'zga xo'jalik faoliyati.

Oferta (taklif) Bitimni uning aniq shartlari ko'rsatilgan holda tuzish istagi to'g'risidagi arizani ifoda etuvchi tijorat hujjati.

Onkol ssudasi - birinchi talabdanoq qoplanadigan qisqa muddatli qarz

Opportunizm - shartnoma tuzayotgan tomonlardan birining shartnoma tuzayotgan xamkordan ustunlikka erishish maqsadida shartnomaning shartlarini o'zi uchun qulay xolda shakllantirishga intilishi

Opsion - ikki tomonlama tasdiqlangan, kontraktda kelishilgan bahoda va muddatda aktivlarni sotib olish va sotish. U bilan savdo qilish xavf - xatarni ancha kamaytiradi. Aktiv egasi, uni sotish opsionini olishi bilan aktivni bozor qiymatining pasayishidan o'zini kafolatlaydi, investor esa teskarisi.

Opsionning quyidagi turlari mavjud: opsion Call (sotib olish); opsion Put (sotish); opsion Stelage (ko'shma); yevropacha va Amerikacha.

yevropacha usulda opsionning bajarilishiga faqat kelishilgan vaqtda (kunda) ruxsat beriladi, Amerikacha usulda - belgilangan muddat ichida bajarilishi mumkin.

Opsion - 1. shartnoma tuzayotgan tomonlarning biri ikkinchisiga taklif etayotgan bitim shartlarini erkin tanlashga imkon beruvchi huquq;

2. fuqarolik huquqida mukobil majburiyatni bajarish, shuningdek, kelgu-sida shartnoma tuzish haqida oldindan kelishib olish usulini tanlash imkoniyatini bildiradi;

3. xalqaro huquqda xalqaro shartno-malarda ko'zda tutilgan hududiy o'zgarish yuz berganida yoki yangi davlatlar tashkil topganida shaxsning fuqarolikni tanlash imkoniyatini anglatadi, shuningdek, qo'sh fuqarolikka barham berish paytida shaxsning fuqarolikni tanlash imkoniyatini ham bildiradi;

4. birja operatsiyalarining fyuchers bitimlariga nisbatan tavakkalchiligi chegaralangan ustama hakni turi; muayyan boyliklar yoki moliyaviy huquqlarni bitim tuzish paytida belgilangan narxda kelishilgan davr mobaynida xarid qilish yoki sotish bo'yicha shartnoma majburiyati

Opsionli uzoq pozitsiya - opsion xarid qilish shartnomalarining naqd mol bozori-dagi majburiyatlar yoki sotuv shartnomalari bilan qoplanmagan qoldig'i

Ouken qonuni - haqiqiy yalpi milliy mahsulotning yillik ozgina o'sishida ishsizlik darajasi deyarli o'zgarmasligini, yalpi milliy mahsulotning katta o'zgarishida ishsizlikning teskari o'sishi yuzaga kelishini ko'zda tutuvchi qonun

Offset bitimi - 1. mollar va xizmatlar ayirboshlashni hamda turli xizmatlar va imtiyozlar evaziga sarmoya sarflashga imkon berishni nazarda tutuvchi muqobil savdo shakli;

2. tomonlarning fyuchers bozorida majburiyatlarini tugatuvchi bitim

Ofshor bank - xorijiy kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlar amal qiladigan moliyaviy markazlarda joylashgan bank

Ofshor bank markazi - xorijiy rezidentlar bilan chet el valyutasida moliya-kredit operatsiyalarini o'tkazishda soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlar berish yo'li bilan xorijiy sarmoyalarni jalb etuvchi kichik davlatlar yoki hududlar

Ofshor bank muassasasi - xorijiy kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlar amal qiladigan moliyaviy markazlarda joylashgan bank

Ofshor bank faoliyati - xorijiy rezidentlar bilan chet el valyutasida moliya-kredit operatsiyalarini o'tkazishda soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlar berish yo'li bilan xorijiy sarmoyalarni jalb etishga asoslangan bank faoliyati

Ofshor bank xizmati - xorijiy rezidentlar bilan chet el valyutasida moliya-kredit operatsiyalarini o'tkazishda soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlar berish yo'li bilan xorijiy sarmoyalarni jalb etish

Ofshor moliya markazi - (milliy va xorijiy) kredit muassasalari norezidentlar bilan operatsiyalarni mazkur mamlakat uchun xorijiy hisoblangan valyutada amalga oshiradigan moliyaviy markaz

Paritet - biror iqtisodiy (siyosiy) harakatda teng huquqli asosda ishtirok etish

Pariteg narx - qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat fermerlarga kafolatlangan narxi

Passiv schet (P) - bu majburiyat va sarmoyani aks ettirishga mo'ljallangan schyot bo'lib, unda majburiyat va sarmoyaning qoldig'i va ko'payish schyotining krediti bo'yicha, kamayish esa debet bo'yicha aks ettiriladi.

Portfel investitsiyalari - 1. qimmatli qog'ozlar to'plami ko'rinishida shakllantirilgan qimmatli qog'ozlar investitsiyalari.

Profitsit - daromadlarning xarajatlardan oshib ketishi

Profitsit - byudjetning ijobiy qoldig'i

Pul mablag'lari - kassadagi naqd pul va talab qilib olinadigan depozitlar, shuningdek bankning hisob-kitob, valyuta va boshqa schyotlaridagi mablag'lar.

Pul oqimlari - pul mablag'lari hamda ular ekvivalentlarining oqimi (tushumi) va chiqimi (sarflanishi, chiqishi)dan iborat.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot - hisobot davrida pul mablag'i oqimlarini batafsil ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar yig'indisi.

Pul ekvivalentlari - ma'lum pul mablag'iga tez va oson almashtiriladigan hamda qiymatidagi o'zgarishlar tufayli biroz xatari bo'lgan qisqa muddatli, yuqori likvidli investitsiyalar (moliyaviy qo'yilmalar).

Revalvatsiya - 1. milliy valyuta oltin ta'minotini rasmiy tarzda oshirish yoki milliy valyuta kursini xorijiy valyuta pul birliklariga nisbatan oshirish;

2. kassa naqd pulini qayta baholash. Bunda markaziy bank balansi hisobidagi oltin va valyutaning milliy valyutada ifodalangan umumiy summasi aniklanadi;

3. pul qadrsizlanishi natijasini hisobga olish maqsadida asosiy sarmoya va zaxiralarni qayta baholash. Bu firmaning aktivini tashkil etuvchi mol-mulkni baholashga imkon beradi

Sotishning sof qiymati - tovar-moddiy zaxiralarni maqsadiga ko'ra ishlatiladigan holatga keltirish va sotish bo'yicha baholangan xarajatlar chegirilgan holda joriy qiymati.

SVOP-almashtirish. Bir vaqtda sotish va xarid qilish

Ssuda - odatda bank tomonidan moddiy boyliklarni garovga qo'yib, ma'lum muddatga va foizini to'lash sharti bilan beriladigan kredit shakli.

«Spot» - darhol (bir vaqtni o'zida to'lash).

«Spot» narxi - darhol yetkazib beriladigan mollar sotiladigan narx

Spot bitimi - mavjud mol yoki moliyaviy vosita uchun birja savdosi paytida darhol haq to'lanishini ko'zda tutib tuzilgan bitim turi

Spot bozori - darhol yetkazib beriladigan nakd mollar savdo qilinadigan bozor

Spred - 1. turli muddatda yetkazib beriladigan bitta yoki o'zaro bog'liq ikkita molga mo'ljallangan fyuchers shartnomalarini bir vaqtda xarid qilish va sotish;

2. soliqlarni kamaytirish maqsadida o'zaro bog'lik bo'lmagan mollar fyuchers shartnomalarini bir vaqtda xarid qilish va sotish;

3. boshlang'ich narxi turlicha bo'lgan yoki opsiyon tugagunga qadar turli davrga ega bo'lgan bir turdagi opsiyonlarni bir vaqtda xarid qilish va sotish;

4. narx-navo o'zgarib turishi ko'lami;

5. narxlar o'rtasidagi farq

Spred - turli vaqtdagi muddatli shartnomalarni bir vaqtning o'zida sotuvchi va xarid qiluvchi birja savdogari

Csuda marjasi - kredit ajratishdan olingan daromad va mablag' jalb etish qiymati o'rtasidagi farq

Stagnatsiya - iqtisodiyotda, ishlab chiqarishda yoki savdoda tanazzullikni yuzaga keltiruvchi turg'unlik

Stagflyasiya - inflyasiyaning iqtisodiy inqiroz bilan bir vaqtda sodir bo'lishi; ishlab chiqarish tanazzulligi, narx-navo va ishsizlikning o'sishi bir vaqtda sodir bo'ladigan iqtisodiyot holati.

Subsidiya-yordam, qo'llab-kuvvatlash

Tajriba-konstruktorlik ishlari - yangi yoki jiddiy tarzda yaxshilangan materiallar, mexanizmlar, mahsulotlar, texnologiyalar, tizimlar yoki xizmatlarni rejalashtirish yoxud loyihalashtirish uchun, ularni tijorat maqsadlarida ishlab chiqarish yoki foydalanishdan oldin, ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini yoki boshqa bilimlarni qo'llash.

tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar;

Tezkor lizing - ijraga olinadigan mulkni to'liq amortizatsiya qilmaslik sharoitida va kelishilgan vaqt davri davomida tuziladigan lizing.

Tranzit schyotlar (T) - bu hisobot davrida foydalaniladigan, lekin yopiladigan Moliyaviy natijalar to'g'risidagi xisobotda aks ettiriladigan hisobot davri oxiriga qoldiqqa ega bo'lmaydigan daromadlar va xarajatlarning vaqtinchalik schyotlaridir.

Transfert - 1. bankning o'tkazmada ko'rsatilgan shaxsga muayyan summani to'lash haqida o'z vakiliga bergan buyrug'i;

2. summani bir hisob raqamdan boshqasiga o'tkazish;

3. aksiyaga egalik huquqini o'tkazma ustxat orqali bir aksiyadordan boshqasiga o'tkazish;

4. pulni bir moliyaviy muassasadan boshqasiga o'tkazish;

5. xorijiy valyuta yoki oltinni bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazish

Transfert daftari - aksiyalarga egalik qilish huquqini boshqaga o'tkazish qayd etiladigan daftar

Tranchizi - 10-30 mln. dollarlik katta yevrodollar guvoynomalarining mayda investorlarga sotiladigan va katta guvoynoma ko'rsatkichlari (foizi, chiqarilish sanasi, qayta sotib olinish sanasi)ga ega bo'lgan mayda (10 mln dollarlik) qismlari

Transh - obligatsiya zayomining alohida bo'lak holda chiqariladigan ulushi (turkumi)

Trassant - o'tkazma veksel sohibi

Trassat - o'tkazma veksel bo'yicha to'lovchi

Trast - 1. xususiy shaxslar va tashkilotlar uchun ishonch asosidagi xizmatlarni bajaruvchi kompaniya;

2. mol-mulkni ishonch asosida boshqarish

Trast-vakil - ishonch bildirilgan vakil

Trast-kompaniya - korporatsiya yoki alohida shaxslar mol-mulki va qimmatli qog'ozlarini ishonch asosida boshqarish maqsadida ta'sis etilgan muassasa

Trast-fond - muayyan qimmatli qog'ozlar to'plamini ishonch asosida boshqarishga tayanadigan fond

Tratta - o'tkazma veksel

Tratta aksepti - o'tkazma veksel to'plani-shiga rozilik bildirilganligi haqidagi qayd

Tratta inkassosi - pulni o'tkazma veksel to'lovchisi hisob-raqamidan o'tkazma veksel sohibi hisobraqamiga o'tkazish

Trattani diskontlash o'tkazma veksellarni hisobga olish

Treyder - 1. brokerlik firmasining birjasi savdosida bevosita ishtirok etuvchi hamda qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bo'yicha buyurtmalarni bajaruvchi xodimi;

2. birjada bitim tuzish huquqiga ega jismoniy yoki hukuqiy shaxs;

3. savdogar

Trest - a'zolari ishlab chiqarish va tijorat mustaqilligiga ega bo'lmagan, faoliyatini boshqarish esa yagona markazdan olib boriladigan birlashma

Tritger - 1. zaxiralarni boshqarish tizimidagi buyurtma berish nuqtasi;

2. kredit shartnomasining o'z-o'zidan biror natija, masalan, kreditni muddatidan oldin qoplashning talab qilinishi, yuzaga keladigan sharti

Tugatish qiymati - asosiy vositalarning chiqib ketishi bo'yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog'ida olinadigan aktivlarning faraz qilinayotgan summasi.

Uzoq muddatli investitsiyalar - qisqa muddatli (joriy) investitsiyadan tashqari barcha investitsiyalar.

O'zgartirish - yangi vujudga kelgan yuridik shaxsga qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning barcha huquqlari va majburiyatlarini berish yo'li bilan korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish;

Favqulodda daromad (zarar) - xo'jalik yurituvchi sub'ektning odatdagi faoliyatidan aniq farq qiladigan, ya'ni tez-tez yoki muntazam sodir bo'lmaydigan voqyealar yoki bitimlar natijasida yuz bergan daromadlar yoki xarajatlar.

Faol bozor - oldi-sotdi ob'ektlari bir turda (bir xil) bo'lgan va har qanday vaqtda bitimni amalga oshirishni xohlovchi manfaatdor sotuvchi va xaridorlarni topish mumkin bo'lgan, shuningdek narxlar haqidagi ma'lumotlar oshkor (hammabop) bo'lgan bozor;

Faoliyatni to'xtatish - operatsiyani sotish yoki topshirish natijasi bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'ektning aktivlari, sof daromadi yoki zarari ajratib olinadigan faoliyatning asosiy yo'nalishi yoki mazkur xo'jalik yurituvchi sub'ektning zararlari va faoliyati, shu jumladan moliyaviy hisobotini ajratib olishi mumkin.

Foydali xizmat muddati - korxonada aktivdan foydalanadigan vaqt davri yoki korxonada ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo'ljallayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori;

Franchayzer - shartnoma shartlari asosida va ma'lum vaqtga boshqa bir shaxsga sanoat yoki tijorat faoliyatining ma'lum bir turini joriy qilish huquqini beruvchi shaxs.

Franchayzi - shartnoma shartlari asosida va ma'lum bir vaqtga sanoat yoki tijorat faoliyatining ma'lum turini joriy qilish huquqi beriladigan shaxs.

Franshiza - sanoat yoki tijorat faoliyatining ma'lum turini joriy qilish huquqi.

Fyuchers bitimlari - birjalardagi xomashyo va boshqa tovarlarni, valyuta, qimmatli qog'ozlarni bitim tuzilgan paytida qayd etilgan narxlar bo'yicha oldi-sotdisiga doir tezkor operatsiyalar, bunda bitimning ijrosi kelasi davr ichida (2-3 yilgacha) amalga oshirilishi mumkin.

Fabrikat - ishlov berish sanoatining tugallangan mahsuloti, tayyor mahsulot

Favorit - foyda olish va raqobatli kurashda yutib chiqish imkoniyati boshqa firmalarga qaraganda ko'proq firma

Faktoring - banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlarning korxonalar qarzlarini (yetkazib berilgan mollar va bajarilgan ish yoki xizmatlarga haq to'lash bo'yicha majburiyatlarini) o'z zimmasiga olishidan iborat moliya-tijorat xizmati turi

Faktoring kompaniya - korxonalar va tashkilotlarning yetkazib berilgan mollar va bajarilgan ishlar yoki xizmatlarga haq to'lash bo'yicha majburiyatlarini o'z zimmasiga olish bilan shug'ullanuvchi kompaniya

Faktoriya - 1. boshqa mamlakatlarda joylashgan keltiriladigan va olib ketiladigan mollar omborlariga ega katta savdo manzili;

2. iqtisodiyoti sust rivojlangan mamlakatlardagi birlashmalarning dastlabki tarixiy shakli; tijorat maqsadlarida amalga oshiriladigan safarlar

Faktura - molning narxi ko'rsatilgan tavsifidan hamda barcha yuk ma'lumotlaridan iborat mol hujjatlari turlaridan biri

Fakturalarni diskontlash - molning narxi ko'rsatilgan tavsifidan hamda barcha yuk ma'lumotlaridan iborat mol hujjatlarini vaqtga ko'ra taqqoslanadigan o'lchamlarga keltirish

Falsifikatsiya - 1. mollar va mahsulotlarni qalbakilashtirish;

2. dalillar va voqyealarni buzib ko'rsatish;

3. me'yoriy pul birligi tarkibidagi asl metall miqdorini kamaytirish

Farmoyishli akkreditiv - bankning kelishilgan eng yuqori summagacha bo'lgan mijoz o'tkazma vekselarini to'lash haqida xorijdagi o'z vakillariga bergan ko'rsatmasi

Fillips egri chizig'i - mamlakatdagi inflyasiyaning o'rtacha darajasi va ishsizlik darajasi o'rtasidagi bog'liklikni aks ettiruvchi chiziq

Foizli marja - aktiv va passiv operatsiyalar foiz stavkalari o'rtasidagi farq

Foizli svop - tomonlardan birining foizlar o'rtasidagi farqdan foyda ko'rish maqsadida ikkinchi tomonga belgilangan stavka asosida foiz olish evaziga libor stavkasi bo'yicha foiz to'lash majburiyatini zimmasiga olishi

Foizli spred - aktivlar va passivlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkalari o'rtasidagi farq

Foizli fyucherslar - kredit vositalari bilan tuzilgan muddatli birja bitimlari

Fond arbitraji - bitta qimmatli qog'ozning turli fond bozorlaridagi kurslari o'rtasidagi farq hisobidan foyda ko'rish maqsadida tuzilgan bitim

Forvard bitimi - muayyan muddatda yetkazib berish majburiyati asosida tuzilgan naqd mol bitimi

Forvard valyuta kursi - valyutaning muddatli bitimlar bo'yicha kursi

Forvard valyutasi - muddatli bitimlarni amalga oshirishda foydalaniladigan valyuta

Forvard obligatsiyasi - obligatsiya xarid qilish va sotish bo'yicha kelgusi sanada ijro etiladigan shartnoma

Forvard pozitsiyasi banklar muddatli bitimlarni amalga oshirayotganda bir valyutada talabga ega bo'lib, boshqa valyutadagi majburiyatni o'ziga qabul qilib oladi Natijada bankning aktivi va passivi tarkibida kursi bir-biriga bog'liq bo'lmagan tarzda o'zgaruvchi ikki xil valyuta yuzaga keladi. Bu esa muayyan davrda aktivlarning passivdan oshishga, ya'ni foyda ko'rishga yoki aksincha, zarar ko'rishga olib kelishi mumkin

Forvard - sotuvi muddatli bitimlar bo'yicha sotish

Forvard ta'minoti - muddatli bitimlar ta'minoti

Forvard ustama haqi - muddatli bitim bo'yicha joriy narx ustamasi

Forvard ustamasi - muddatli bitim bo'yicha joriy narxga qo'shiladigan ustama

Forvard chegirmasi - muddatli bitimlar bo'yicha beriladigan chegirma

Forvard shartnomasi - kelishilgan miqdordagi xorijiy valyutani bitim tuzilayotgan vaqtda kelishib olingan kursda muayyan muddatdan so'ng yetkazib berish haqida tuzilgan shartnoma

«**Forvard**» bitimi - muayyan muddatda yetkazib berish majburiyati asosida tuzilgan naqd mol bitimi

Forfeyting - mollar sotuvida chetdan mol keltiruvchilarga kredit ajratish shakli. Bu ko'pincha tashqi savdo operatsiyalarida qo'llaniladi

Fosstiss - talabni shakllantirish va mol sotuvini rag'batlantirish bo'yicha xari-dorlar hamda chakana savdogarlarga mo'l-jallangan tadbirlar

Franko - savdo shartnomalarida qo'llaniladigan istiloh. U odatda biror joy nomiga qo'shib ishlatiladi. Bunda sotuvchi sotilgan mollarni o'z hisobidan o'sha joyga yetkazib berish majburiyatini oladi

Xedj- narx-navoning nokulay o'zgarishlaridan sug'urtalash maqsadida tuziladigan muddatli bitim.

Xedjer-narx-navoning nokulay o'zgarishlaridan sug'urtalashga imkon beruvchi birja operatsiyalarini amalga oshiruvchi shaxs.

Xo'jalik umumiy faoliyati - xo'jalik yurituvchi sub'ektning har qanday tadbirkorlik faoliyati bo'lib, uning oddiy faoliyati, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektning kelgusidagi taraqqiyotga, xo'jalik yurituvchi sub'ekt iqtisodiy foydalarni mustahkamlash va o'stirishga qaratilgan faoliyatidan iborat.

Xronometraj - ishchining mehnat operatsiyalariga ketgan ish vaqti sarfini mazkur operatsiyalarning mehnat talabligini aniklash maqsadida o'lchash

Shu'ba xo'jalik jamiyati (bundan buyon "shu'ba jamiyat" deb yuri-tiladi) - bosh jamiyat tomonidan nazorat qilinadigan xo'jalik yurituvchi sub'ekt.